




*Xitoy*  
**DONISHMANDLARI**



84.79  
Q-61

# Xitoy DONISHMANDLARI



Toshkent – 2024

古代中国的智慧  
[Gǔdài zhōngguóde zhìhuì]

(中国古代经典铭言警句辑译)  
[Zhōngguó gǔdài jīngdiǎn míngyán jǐngjù jíyì]

**Qadim Xitoy donishmandligi**  
(Xitoyning qadimgi klassik hikmatli so‘zlarining to‘plam va tarjimalari)

To‘plovchi va tarjimon **ILHOM Qosimov**

**Taqrizchilar:**  
*Professor janob Syu Tao (Xu Tao),*

**Ilhom Dilmurodov,**  
*falsafa fanlari nomzodi*

**To‘lqin Xoljo‘rayev,**  
*ona tili va adabiyot o‘qituvchisi*

## SO‘ZBOSHI

(*Tarjimasi*)

Jahonning to‘rt qadim sivilizatsiyalaridan biri bo‘lgan qadimgi Xitoyda eng qadimgi davrlarda (Xan va Tang sulolalaridan oldin) son-sanoqsiz donishmandlar va donolar yetishib chiqdi. Ular chordana qurib haqiqatni muhokama qilishgan, hayot haqida mulohaza yuritganlar, insonning jamiyat, tabiat, olam bilan bo‘lgan munosabatlari haqida teran fikr yuritganlar. Ular aslzoda-hokimiyat egalaridan hayiqmagan, muhtojlikdan qo‘rqishmagan, kulbalarda faqirona hayot kechirib, olam haqida mulohaza yuritganlar, o‘scha davrda turib o’tmish va bugunni o‘ylaganlar, el-u yurt barqarorligi intilganlar, xalq baxt-saodati uchun harakat qilishgan. Imperator saroylarida o‘z mulohazalarini izhor etdilar, kitoblar bitib o‘z g‘oyalarni ifoda qildilar, shogirdlari va eshigiga bosh urib kelganlar ularning hikmatlari mohiyatini ommaga yetkazdilar, hanuzgacha xitoyliklarning tafakkur va faoliyat tarziga ta’sir etib kelmoqda. Qadimgi Xitoy tafakkur tarixini tadqiq qilish bo‘ladimi yoxud hozirgi Xitoy jamiyatini o‘rganish bo‘ladimi, bundan qat’i nazar, qadimgi “donishmandlar” hamda ularning asarlari e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan ob’yektdir. 2008-yil Pekindagi Olimpiada o‘yinlarining ochilish marosimida minglab odamlar “Do‘sting olisdan yo‘qlab kelsa, sevinch asli shu emasmi?” deya madh etganlaridan keyin bundan 2500-yil oldin yashagan xitoylik bir mo‘ysafidning so‘zleri butun dunyo bo‘ylab tarqaldi, yanada ko‘proq millat va davlatlar qadimgi Xitoy donishmandlarining tafakkur-donishmandligidan ham ana shunday qisqa va aniq ifoda tarzi bilan tanishdilar. Borgan sari ko‘proq odamlar bu hikmatli so‘zlardan mohirlik bilan foydalanib, bir tomonidan fikrlarini aniq va lo‘nda ifoda etayotgan bo‘lsalar, boshqa bir tomonidan esa bu ularning xitoy tilini qo‘llashda mahorat kasb etganligi va Xitoy madaniyatini chuqur egallaganliklaridan ham dalolatdir.

Li Xo‘ng (o‘zbekcha ismi Ilhom Qosimov) O‘zbekiston Davlat jahon tillari universitetini tamomladi, men u bilan 2009-yil “Xitoy tili ko‘prigi” dunyo talabalari xitoy tili musobaqasining Toshkentdagи bellashuvida tanishganman. O‘scha yili musobaqadagi yutug‘i ko‘ngildagidek bo‘limganligiga qaramasdan, uning mustahkam xitoy tilisi allaqachon hakamlar hay’atining nazariga tushib ulgurgan edi. Haqiqatan, u ikkinchi yili aynan o‘scha musobaqada o‘z qobiliyatini namoyon eta oldi, o‘zbekistonlik talabalar vakili bo‘lib Pekin va Changsha shaharlariga borib, dunyo talabalarining “Xitoy tili ko‘prigi” musobaqasida qatnashdi. O‘shanda men televizor va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali bu o‘zbekistonlik yigitchaning chiqishlarini diqqat bilan kuzatib bordim. Keyin uning mana bunday savol-javob bahsida musobaqadan yiqilganining guvohi bo‘ldim: erishdan charchab qaytgach, xotiniga nolib shunday debdi: “Firmamiz bu ovqatlari rosayam



bemaza-da!" Javob A: er firmalaridagi xizmat taomlari bemazaligidan norozi; javob B: er o'z firmasidagi ishlarning qiyinligidan nolimoqda; javob C: er xotini qilgan ovqat bemazaligidan norozi. Natijada Ilhom "A" jovobini tanladi. Xolisona baho beradigan bo'lsak, Ilhomning Changshada muvaffaqiyatsizlikka uchrashi uning xitoy tilini qo'llash borasida teran qonuniyatlarni o'zlashtirishda hali nisbatan qattiq tirishish kerak bo'lgan bo'shliqlar borligini bildiradi. To'g'risini aytadigan bo'lsak, bu "qopqon" mukammal tuzilgan edi. Xitoyliklar qisqa satrlarda katta ma'noni ifoda etish, qorani oq qilib ko'rsatish, qadimgidan foydalanim hozirgini hajv qilishdek so'zlash odatlarini qo'llashni yaxshi ko'radi, qanchadan-qancha xitoy tilini o'rganish maqsadi bo'lgan chet elliklarning boshi berk ko'chaga kirib qolganliklari ham bir-ikki marta bo'lgan narsa emas.

Hozirda Ilhom o'qishni tamomlab, o'zbek tilidagi matbuot nashrlarida ishlab kelmoqda. Qo'lidan kelgancha, "Muhokama va bayon" va boshqa bir necha risololarni tarjima qilib chop ettirdi. Bu safar u "Odobnoma" ("Udumlar kitobi"), "Nasrnoma", "Muhokama va bayon", "Folnoma" ("O'zgarishlar kitobi"), "Nazmnama", "Buyuk ta'limot", "Mo'tadillik", "Zuo' qissalari", "Axloqnama", "Mengzi", "Laozi", "Syunzi", "Mo'zi", "Xan Feyzi", "Guanzi", "Shang podsholari kitobi", "Sunzi", "Konfutsiy mulohazalari", "Yanzi. Bahor-Kuz", "Urushqoq podsholiklar harbiy rejalar", "Luyshi. Bahor-Kuz", "Go'ngsun Lo'ngzi", "Xuay Nanzi", "Tarixiy esdaliklar", "Xan kitobi", "Keyingi Xan kitobi", "Uch podsholik kitobi", "Butun Tang she'rlari", "So'ng so'zları", "G'arbgə sayohat", "Suv yoqasidagi rivoyatlar", "Avlodlarga ogohlik maktublari" va boshqa qadimgi Xitoy dasturnomalar, solnomalar, ulamo kitoblari, majmualardagi mashhur hikmatli so'zlarni to'plab, o'zbek tiliga tarjima qilib risola tuzdi.

Ehtimol, Xitoy "milliy ta'lim"<sup>1</sup> ("Xitoy klassikasi") to'g'risida oz-muncha xabardor odam yuqorida zikr etilgan nomlarni ko'rgach, tartibga unchalik ahamiyat bermagan, nainki klassik asarlar va tarixiy kitoblarining farqiga bormay, hatto So'ng-Yuan sulolalaridan keyingi qissa-hikoyalari kabi an'anaviy "milliy klassika" turkumiga kirmaydigan asarlarni ham kiritibdi, degan xayolga borishi mumkin. Biroq bu endigina o'qishlarni tamomlagan xitoy tili ixtisosligidagi talaba uchun oson bo'limgan, ustiga-ustak Xitoyning ko'plab qadimgi klassik asarlaridan tanlab olingan hikmatli so'zlar o'zaro mustaqil bo'lib, tasniflashdagi muammolar ham unchalik muhimdek ko'rinnmaydi. Muhibi mazkur risoladagi tarjimaning hamma uchun tushunarligidir, umid qilamanki, u xitoy tili va madaniyatini o'rganish orzusidagi o'zbek yoshlari uchun bir eshik ochadi yoki bir oddiy ko'prik bo'lib xizmat qiladi. "Uch podsholik xotiralari · Shu<sup>2</sup> kitobi · Ilk podsho


<sup>1</sup> "Milliy ta'lim" (yoki "Xitoy klassikasi", "Milliy klassika") - burungi zamonalarda Xitoyning qadimgi davrlarini tadqiq qiladigan ilmga aytilgan, falsafa, tarix, qadimshunoslik, adabiyot, tilshunoslik kabilarni o'z ichiga oladi.

<sup>2</sup> Shu - podsholik nomi, 221-263-yillarda hukm surgan.



tarjimayi holi”dagi Ju Ge Lyangning bir hikmatli so‘zi bilan aytadigan bo‘lsak: “Yomonlikni zarracha bo‘lsa ham qilma; zarracha bo‘lsa ham yaxshilikdan erinma”. Haqiqatan ham, mazkur risolani dunyoning atoqli xitoysunoslarining ulkan ishlari bilan solishtirganda, faqatgina “kichkinagina yaxshilik” bo‘lib ko‘rinar, lekin u hozirda O‘zbekistonidagi Xitoy va Xitoy madaniyatini o‘rganishga qattiq bel bog‘lagan son-sanoqsiz odamlar nazdida “bundan ulug‘ yaxshilik yo‘qdir” deyish mumkin.

Syu Tao,  
*Xitoyning O‘zbekistonidagi elchixonasi,*  
Toshkent, 2013-yil mart





## **QADIM XITOY DONISHMANDLIGI<sup>1</sup>**

*Umr qisqa, lekin u ezgu amallar bilan yashashga mudom yetarlidir.*

*Viktor Alimasov*

*Fikrlash lazzati va anglash baxti barchamizga nasib etsin!*

*Tarjimon*

O'qisang kamchiliklaringdan voqif bo'lasan.

"Udumlar kitobi"<sup>2</sup> dan

\*\*\*

Kishi adabli bo'lsa bezarar, beadab bo'lsa zararlidir.

"Udumlar kitobi"<sup>2</sup> dan

\*\*\*

Kamchiliklaringni bilsanggina o'zgara olasan; nochorliging bilsanggina kuchli bo'la  
olasan.

"Udumlar kitobi"<sup>2</sup> dan

\*\*\*

Sayqal topmagan qoshtosh<sup>3</sup> hech narsaga yaramas; bilimsiz odam haqiqatni bilolmas.

"Udumlar kitobi"<sup>2</sup> dan

\*\*\*

<sup>1</sup> Ushbu tarjima risolaning yaratilishi va nomlanishida o'zining qimmatli maslahatlarini ayamagan ustoz Syu Tao janoblariga, meni qo'llab-quvvatlagan uztozim Dong Fuhuaga, shuningdek, menga yaqindan yordam bergen xitoylik Li Jong (Li Rong) ga o'z minnadorchiligini bildiraman. - Tarjimon

<sup>2</sup> "Udumlar kitobi" - ya'ni "Odobnama", Xitoyning qadimgi muhim qomusiy asari. Kitob holiga keltirilishi G'arbiy Xan davri olimlaridan Day De va uning jiyani Day Shengga tegishli. Day De tartib bergani "Katta Day "Odobnama"si", Tang davriga kelib Day Sheng tomonidan tuzilgani "Kichik Day "Odobnama"si" deb yuritilgan. Tang sulolasi davrida (618-907) "To'qqiz noma", So'ng sulolasi davriga (960-1279) kelib "O'n uch noma" tarkibiga kiritilgan. Ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarni qamrab olgan, asardagi "Buyuk ta'lilot", "Mo'tadillik" va "Odob tolei" boblari falsafiy g'oyalarga nihoyatda boy. "Odobnama" Urushqoq podsholiklar davridan (mil. avv. 475-mil. avv. 221-yy.) to Chin (mil. avv. 221-mil. avv. 206-yy.)-Xan (mil. avv. 206-milodiy 220-yy.) sulolalari davri oralig'ida konfutsiychilik ta'llimoti allomalarini izohat bergen mumtoz adapbiyot "Udumlar odobi" maqolatlari tanlab olingan asar. "Odobnama" konfutsiychilik g'oyalaringning ma'lumotlari majmuidir. Uning muallifi bir kishi emas, yozilish vaqtiga ham har xil davrga to'g'ri keladi, uning Ichidagi ko'pchilik maqolatlari Konfutsiyaning yetmish ikki shogirdi va ularning shogirdlarining ijodi bo'lishi mumkin.

<sup>3</sup> Qoshtosh - nefrit, yashma; ko'ktosh.



Keng doirada bilim ol, sinchiklab tekshir, teran mulohaza yurit, to'g'ri tahlil qil, sidqidildan ado et.

“Udumlar kitobi•Mo'tadillik”dan

\*\*\*

El isrofgar bo'lsa, yo'l-yo'riq ko'rsatsang, tejamli bo'lar, el tejamkor bo'lsa, ta'lim bersang, odobli bo'lar.

“Udumlar kitobi” (“Odobnama”)dan

\*\*\*

Yolg'iz bilim olib, lekin (muhokama qilgani) do'sti bo'lmasa, bilimi sayoz-kaltabindir.

“Odobnama • Ilm olish odobi”<sup>6</sup>dan<sup>6</sup>

\*\*\*

Garchi ajoyib yegulik bo'lsa ham, agar yeb ko'rmasang, uning ajib ta'mini bilmaysan; garchi juda ma'noli bo'lsa-da, lekin o'rganmasang, uning naqadar ajoyibligini bilmaysan.

“Odobnama • Ilm olish odobi”dan

\*\*\*

Sevgan kishingning kamchiligini ham ko'ra bil; yomon ko'rgan kishingning yaxshi tomonlarini ham bilishing kerak.

“Odobnama • Buyuk ta'limot”dan

\*\*\*

Olijanoblarning do'stligi suvdek tussiz bo'ladi, xudbinlarning do'stligi shirin musallasga o'xshaydi.

“Odobnama • Ibrat”dan

\*\*\*

Odob-axloqning ahamiyati borish-kelish (o'zaro munosabatlar)da: borish bo'lsa-yu, kelish bo'lmasa, odobga to'g'ri kelmaydi; kelish bo'lsa-yu, borish bo'lmasa, bu ham odobga mos kelmaydi.

“Odobnama”dan

\*\*\*

<sup>6</sup> Aynan “Udumlar kitobi”.



Hayotligida elga foydasi tegadigan odam hatto o'lganda ham odamlarga kulfat keltirmaydi.

“Odobnoma”dan

\*\*\*

Rahmdil ko'rganini rahmdillik der, dono ko'rganini - donolik.

“O'zgarishlar kitobi”<sup>7</sup> (“Folnoma”)dan

\*\*\*

Olijanoblar o'z qobiliyatlarini mavridi bilan ishga soladilar.

“O'zgarishlar kitobi” (“Folnoma”)dan

\*\*\*

Ikkov yakdil bo'lsa, po'latni ham sindirar, yakdil kishilarning so'zлari xushbo'y orxideya kabidir.

“O'zgarishlar kitobi” (“Folnoma”)dan

\*\*\*

Narsalar turiga qarab saralanur, odamlar to'piga qarab farqlanur.

“O'zgarishlar kitobi” (“Folnoma”)dan

\*\*\*

Borliq harakatda bardam-bardavomdir, olijanob ham o'z kamolotini mustahkamlashdan to'xtamasligi kerak.

“O'zgarishlar kitobi” (“Folnoma”)dan

\*\*\*

<sup>7</sup> “O'zgarishlar kitobi” – ya'ni “Folnoma”, Xitoyning qadimgi falsafiy kitobi, yin (qadimgi Xitoy falsafasida ayollik ibtidosi) va yang (qadimgi Xitoy falsafasida erkaklik ibtidosi) ikki ibrido nazariyasi asosiga qurilgan narsalarning harakat qonuniyatlarini isbotlash va tafsiflash haqidagi asar. “O'zgarishlar kitobi”ning dunyoga kelgan joyi hozirgi dunyo madaniy obidasi bo'lgan An-yang shahridir. “O'zgarishlar kitobi”, ya'ni “Folnoma” “Nazmnoma”, “Nasmnoma”, “Odobnoma”, “Kuynoma”, “Bahor-Kuz” asarlari bilan birligida “Olti noma”ni tashkil qiladi, G'arbiy Xan sulolasi davridan buyon ziyorolar o'qishi shart bo'lgan kitoblardir. “Folnoma” Xitoy ana'anaviy madaniyati shakllanishi va rivojiga nihoyatda chuqur ta'sir ko'rsatdi. Mazkur asar “Jou-yi” (“Jou o'zgarishlari (follari)”), “Yi-jing” (“Folnoma”), “Yi” (“O'zgarishlar”) nomlari bilan tilga olinadi, u aslida Jou sulolasining fol haqidagi kitobi bo'lgan, shu bois keyingi davrlarda “Jou-yi” (“Jou o'zgarishlar kitobi”) deb atalgan. Xan sulolasi oxirlarida konfutsiychilar “Jou-yi”ni “Yi-jing” deya o'zgartirishgan. Xan sulolasi muarixi Si Ma Chyen o'zining “Tarixiy esdaliklar”ida “O'zgarishlar kitobi”ni Jou Vu-vang (Jou sulolasi podsholaridan biri)ning asari deydi. Hozirda olimlar bu asarni Xitoyning eng qadimgi falsafiy durdonasi deb atamoqdalar, shuningdek, mazkur asar insoniyatning tadrijiy taraqqiyoti tarixi haqida hikoya qiladi.



Manmanlik koni zarar, kamtarlik naf keltirar.

“Buyuk kitob”dan<sup>8</sup>(yoki “Nasrnoma”)

\*\*\*

Uchqundan katta o’t chiqadi.

“Buyuk kitob”dan

\*\*\*

Ilmsiz odam go’yo qarshisida devor turgandek hech narsani ko’rolmaydi.

“Buyuk kitob”dan

\*\*\*

O’zga tog’ning toshi ila qoshtoshga sayqal berish mumkin. (O’zgalarning bilim-tajribalaridan ibrat olib kamol topish mumkin.)

“Nazmnama”<sup>9</sup> kitobidan

\*\*\*

Balandlik dara bo’lar, chuqur daradan bir kun do’nglik qolar.

“Nazmnama”dan

\*\*\*

Gar kimdir bersa menga bitta shaftoli,


Qaytarurman yaxshiligin berib olxo’ri.

“Nazmnama”dan

\*\*\*

<sup>8</sup> “Buyuk kitob”-“Nasrnoma”, shuningdek, “Kitob” ham deyiladi, konfutsiychilikning “Besh noma”sidan biri, tarixiy yozma hujjatlar majmui, uzoq yillar davomida Xitoyning hozirda mavjud bo’lgan eng qadimgi tarixiy kitob deb hisoblab kelindi. Urushqoq podsholiklar davrida “Shu” (“Kitob”) deyilgan, Xan sulolasasi davriga kelib “Shang-shu” (“Buyuk kitob”) deya o’zgartirilgan. “Buyuk kitob” Xitoyning eng qadimgi yozma tarixidir. Shuningdek, mazkur asar har doim adabiyotshunoslar tomonidan Xitoyning eng qadimgi nasriy to’plami deb yuritiladi. U Xitoy sulolalari hukmdorlarining davlatni idora qilish masalalariga doir “siyosiy qo’llanma”si va nazariy asoslaridir. “Buyuk kitob” Konfutsiyning sa’y-harakatlari bilan avloddan-avlodga o’tib keldi, Konfutsiy umrining oxirlarida qadimgi adabiyotlarni, shu qatori mazkur asami ham tartibga keltirish bilan shug’ullandi.

<sup>9</sup> “Nazmnama” – Xitoyning eng qadimgi she’rlar to’plami, uning tarkibiga G’arbiy Joui sulolasidan tortib Bahor-Kuz davrining o’rtalarigacha bo’lgan taxminan besh yuz yillik she’rlar kiradi (mil. avv. 11-asrdan mil. avv. 6-asrlargacha), unda jami 305 ta she’r bor. Chin sulolasidan avvalgi davrlarda “She’rlar” yoki umumiy miqdoriga qarab “Uch yuz she’r” deb atalgan. Konfutsiy mazkur asarga tartib beradi, G’arbiy Xan davrida konfutsiychilikning mumtoz asari sifatida e’zozlanib, “Nazmnama” deb atala boshlangan hamda bugungacha yetib keldi. “Nazmnama”dagi she’rlarning mudaq ko’philiginining mualliflarini aniqlashning iloji yo’q.



“*Dao-de jing*”<sup>10</sup> kitobidan

\*\*\*

Ming chaqirimlik olis safar ham oyoqlaring ostidan birinchi qadamingdan boshlanadi.

Lao-zi<sup>11</sup>

\*\*\*

Balo-qazoga baxt hamrohdir, baxtga - balo-qazo.

Lao-zi

\*\*\*

Birikib mustahkam bir butunlik hosil qilgan narsa bor, Yer-u Osmon vujudga kelishidan avval mavjud bo'lgan. Sessiz ham shakl-u shamoyilsiz, mustaqil mangu hayot ham abadiy o'zgarmasdir, aylanishdan to'xtamas, Yer-u Osmondag'i barcha narsalarning manbai (onasi)dir. Men uning otini bilmasman, baholi qudrat uni “*dao*” degaymiz, yana unga zo'r-bazo'r “buyuk” degan nom berurmiz. U chek-chegarasiz ham uzlusiz aylanishda, uzlusiz aylanishda bo'lganligidan olis-olislarga cho'zilgan, olislarga cho'zilgan esa-da dastlabki mohiyatiga (asosiy substansiya) qaytadi.

Shu bois “*dao*” buyuk, osmon buyuk, yer buyuk, inson-da buyuk. Koinotda mana shu to'rtov buyuk bor, inson esa to'rt buyukdan biridir.

Inson yerdan ulgi olar, yerga osmon ibrat, osmon esa “*dao*”dan o'rnak olar, “*dao*”ga bo'lsa tabiat (butun borliq) mutlaq namuna.

Lao-zi

\*\*\*

Obro'-e'tibor va hayot ikkisidan qay biri muhim? Hayot va mol-dunyo ikkisidan qay biri qadrli? Shon-shuhratga erishish va halok bo'lish qay bir natija ayanchli? Shuhratparastlikning badali og'ir bo'ladi. Molparastlikning zarari halokatlidir. Shu bois qanoat qilgan xo'rlik-tahqirlanishlarga duchor bo'lmas; o'zini tiyishni bilgan (har qandoq ishda me'yorini bilgan) xatarga yo'liqmas, shundagina uzoqqa borish mumkin.

Lao-zi

<sup>10</sup> “*Daode jing*”, Xitoy donishmandi Laozining dunyoga mashhur asari. Unda falsafa, madaniyat, harb ilmi, estetika, tibbiyot, jamiyatshunoslik, etika (axloqshunoslik), astronomiyaga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud.

<sup>11</sup> Lao-zining asl ismi Li-er (mil. avv. 571-mil. avv. 471-yy.), hurmatli nomlari Bo'-yang, Lao-dan deb ham ataladi, Chu podsholigidan bo'lgan, Xitoy tarixidagi Chun-chyu davrida yashagan. Uzoq umr ko'rgan, taxminan yuz yoshdan oshgan. Konfutsiy bilan bir davrda yashagan. Yeruk bilim sohibi bo'lgan. Konfutsiy davlatma-davlat kezib yurganda Laozi bilan uchrashgan, undan “*lii*” (odob-axloq) haqida so'ragan. “*Dao*” ta'limoti asoschisi. Lao-zi qadimgi Xitoyning buyuk faylasufi, mutafakkiri. Dunyoga mashhur “Axloqnomma” nomli (“Lao-zi” deb ham ataladi) asari mavjud. Uning ta'limoti Xitoy falsafa fanl tarqqiyotiga nihoyatda chuqur ta'sir ko'rsatdi. Dialektik asoslash nazariyasini yaratdi.



\*\*\*

Odamlarni yaxshi bilish donolik, o'zini yaxshi bilgangina donishmand. Birovni yenggan kuchli, o'zini yenggangina qudratli. Qanoatli kishigina haqiqiy badavlat, azmi-qarorida qat'iyatli kishi irodalidir, bulardan ayrilmagan uzoqqa boroladi, (jisman) o'lsada (aslida) yo'q bo'lib ketmagan umri uzoqdir.

Lao-zi

\*\*\*

Olamdagi katta ishlar kichiklaridan boshlanadi.

Lao-zi

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ilm olgach, tez-tez takrorlab mustahkamlash jonning huzuri emasmi? Do'sting olis yo'lidan yo'qlab kelar bo'lsa, sevinch asli shu emasmi? O'zgalarning tushunmasliklaridan aslo zorlanmagan olijanob emasmi?"

Konfutsiy<sup>12</sup>

\*\*\*

Uch yo'lovchi orasida menga ustoz bo'lg'udek biri topiladi: uning a'lo tomonlarini saralab o'rnak olsam, kamchiliklaridan ham saboq chiqarib, xatolarimni tuzatgum.

Konfutsiy

\*\*\*

Tongda haqiqatan xabar topsam, shu tungi qazo ham rizolidir.


Konfutsiy

\*\*\*

Men yoshimning o'n-u beshida ilm olishga jiddu jahd qildim; qironim-o'ttizimda rostlandim; qirchillama-qirqimda sarosimaga tushmadim (shubhalardan forig' bo'ldim); ellikni qoralab taqdirdan voqif bo'ldim; oltmishni oralab hamma narsaga quloq osa bildim; yetmishga yetib inon-ixtiyorim o'zimda bo'ldi hamda qoida-me'yorda quyushqondan chiqmadim.

Konfutsiy

<sup>12</sup> Konfutsiy - Ko'ngzi (mil. avv. 551-mil. avv. 479-yy.), ismi Chyu, hurmatli nomlari Jo'ngni, Xitoy tarixidagi Chun-chyu (Bahor va kuz) davridagi Lu podsholigidan bo'lgan. Xitoyning qadimgi mutafakkiri, ma'rifatparvari, faylasuf, konfutsiychilik nomli axloqiy-siyosiy ta'limot asoschisi. Izdoshlari tomonidan "Buyuk Ustoz Ko'ng" deb ulug'langan. Konfutsiy siyosiy g'oyalarining mohiyatini "rahmdillik" (jen), "odob" (li) va "mo'tadillik" (jo'ngyo'ng) tashkil etadi. Konfutsiychilik ta'limotidagi "li", ya'ni odobning bir qancha ma'nolari bor: adab, axloq; tuzuk, qoida; udum, taomil. Masalan, yurish-turish odobi, ilm olish odobi, dafn etish odooblari, nazr-chiroq marosimlari odobi, davlatni idora etish odobi...





\*\*\*

O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham tilama.

Konfutsiy

\*\*\*

Adolat yo'lida fidokorlik ko'rsatmaslik haqiqiy qo'rqoqlikdir.

Konfutsiy

\*\*\*

Olijanoblar o'zlarining aybini qidirar, xudbinlar o'zgalarning xatosini poylar.

Konfutsiy

\*\*\*

Rahmdil bo'lish uchun ustozdan izn so'ralmaydi.

Konfutsiy

\*\*\*

So'zingizga vafo qiling, ishda qat'iyatli bo'ling.

Konfutsiy

\*\*\*

Xushomadg'oy, ikkiyuzlamachi kishilar (munofiqlar) kamdan-kam rahmdillik fazilatiga ega bo'ladilar.

Konfutsiy

\*\*\*

Tuzatilmagan xato haqiqiy xatolikdir.

Konfutsiy

\*\*\*

Xudbinlar o'z xatolarini xaspo'shlaydilar.

Konfutsiy

\*\*\*

Donolar o'zini yo'qotib qo'ymas, rahmdillar g'am chekmas, mardlar hayiqmas.

Konfutsiy

\*\*\*

Uch o'ylab so'ng harakat qil.

Konfutsiy



\*\*\*

Taqdirdan nolima, odamlardan yozg'irma.

Konfutsiy

\*\*\*

Odamlarning tushunmasliklaridan g'azablanmaslik ham oljanoblik emasmi?

Konfutsiy

\*\*\*

Olijanoblar quruq gap sotmas, ishda uddaburon bo'lishadi.

Konfutsiy

\*\*\*

Olijanoblar bag'rikeng bo'ladilar, xudbinlar hasratda kuyar.

Konfutsiy

\*\*\*

Olijanoblar axloq tarbiyasi uchun qayg'uradi, muhtojlikdan qayg'uga botmas.

Konfutsiy

\*\*\*

Ko'p gapirib, oz ish qilish olijanoblar uchun isnoddir.

Konfutsiy

\*\*\*

Kimki uzoqni o'ylamasa, g'am-g'ussaga yaqin.

Konfutsiy

\*\*\*

O'qib-o'rganishdan bezor bo'lmadim, bilim berishdan toliqmadim.

Konfutsiy

\*\*\*


Bilsang - bildim, bilmasang - bilmadim deyishliging ham bilimdonlikdir.

Konfutsiy

\*\*\*

Amalida bo'lmas ekansan, ishning ham g'amida bo'lma.

Konfutsiy





\*\*\*

Bilim olishni sevgan uni bilgandan afzal, bilim olishni baxt deb bilgan bilimni sevgandan afzal.

Konfutsiy

\*\*\*

Hojatbaror do'stlar uch turlidir, zararli do'stlar ham uch xil. To'g'ri, samimiyl, ko'p narsadan xabardor kishilar bilan do'stlashish foydalidir. Gumroh, ikkiyuzlamachi, xushomadgo'y munofiqlar bilan do'stlashish zarardir.

Konfutsiy

\*\*\*

(Xato qilsang) alamingni boshqalardan olmay, xatoni ikkinchi marta takrorlama.

Konfutsiy

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar fikr qiladigan mundoq to'qqiz juhat bor: qaraganda ravshan ko'rgan-ko'rmanligi; qulq solganda aniq eshitgan-eshitmaganligi; chehrasida muloyimlik zohirligi; tashqi ko'rinishda nazokatli bo'lgan-bo'lmanligi; so'zlaganda chin ekan-emasligi; har bir ishda ehtiyyotkor bo'lishligi; ko'ngilda shubha bo'lsa, boshqalardan so'rab bilish kerakligi; g'azablanganda buning qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini; foydani ko'rganda insofni unutmaslikni".

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"<sup>13</sup>dan

\*\*\*

Chirigan yog'ochga naqsh solib bo'lmas ekan, go'ng tuproq devorni andavalab bo'lmas ekan.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Eskilarini mustahkamlab, yangilarini o'zlashtira olgan odamgina ustoz bo'lishi mumkin.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

<sup>13</sup> "Muhokama va bayon" - konfutsiychilik ta'limotining mumtoz asarlaridan biri, Konfutsiyning shogirdlari va ularning shogirdlari tomonidan tuzib chiqilgan, yigirma bobdan iborat. U asosan fikr-mulohazalar va suhbatlardan iborat bo'lib, Konfutsiy va shogirdlarining so'zlari va qilgan ishlari yozilgan. Mazkur kitobda Konfutsiyning siyosiy-ijtimoiy, falsafiy qarashlari, axloqiy g'oyalari, o'qitish prinsiplari jamlangan. Kitobda rahmdillik (insonparvarlik), olijanoblik va olihimmatilik, odob-axloq, qobil farzandlik, sadoqat, lafzi halollik kabi juda ko'plab ezgu g'oyalari surilgan.



O'qib, lekin fikr yuritmasang, adashasan; quruq xayollarga berilib, lek o'qimasang, xatarlidir.

Konfutsiy

\*\*\*

Qadimgilar o'zlarini tarbiya qilish uchun bilim olganlar, hozirgilar xo'jako'r singagina o'qiydilar.

Konfutsiy

\*\*\*

Mayda-bo'l mag'ur ishlardan o'zingni tutib turolmasang, katta rejalaringni barbos qiladi.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Olijanoblar odamlarning yaxshilik qilishlariga ko'maklashadi, ularning yomonlik qilishlariga imkon yaratmaydi. Xudbinlar buning aksidir.

Konfutsiy

\*\*\*

O'rganganlarini vaqtida mustahkamlash jonning huzuri emasmi?

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Usta ishim yaxshi bo'lsin desa, oldin ish quolin charxlab olsin.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

O'zingdan o'pkala, o'zgaga ta'na qilma.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*


Xushxulq kishini ko'rganda, undan o'rnak olishni o'yla; badxulq kimsani ko'rganda, es-hushingni yig', o'zingga ham bir nazar solib ko'r.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Ishda abjir-mehnatsevar, tilingga ehtiyot bo'l.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan





Ziyoli odam oliy maqsadsiz, irodasiz bo'lmasa bo'lmaydi, chunki vazifasi og'ir-mashaqqatli, yo'li nihoyatda olis.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Rahmdillik maslagida sobitqadam inson o'z joniga qayg'urib, rahmdillikka zarar yetkazmaydi, rahmdillik uchun hattoki jonini ham qurban qiladi.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Tezini istasang, ko'zlagan maqsadingga erisholmaysan.

Konfutsiy, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Hukmdorning xatosini tuzatib turadigan to'g'riso'z vaziri bo'lmasa, otaning xatosini tuzatib turadigan to'g'riso'z o'g'li bo'lmasa, og'alarning xatosini tuzatib turadigan to'g'riso'z inisi bo'lmasa, ziyoli odamning xatosini tuzatib turadigan do'sti bo'lmasa, xato qilmaslik mumkin emas. Shuning uchun aytadilarki: "Hukmdor xato qilsa, buni vaziri payqaydi; otadan xato o'tsa, o'g'il payqaydi; og'alar xato qilsa, ini fahmlagay; o'zing xatoga yo'l qo'ysang, do'sting fahmlagay". Shunda el xavf-xatar alomatlaridan holi bo'ladi; oila parokandalikka yuz tutmaydi; ota-bola, og'a-inilar o'rtafiga sovuqchilik tushmaydi, xato o'tmaydi; do'stlaring sendan yuz o'girmaydi".

"Konfutsiy mulohazalari"<sup>14</sup> kitobidan

\*\*\*

Zii-lu Konfutsiydan so'rab dedi: "Olijanoblarning ham qayg'u-hasrati bo'ladi mi?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "Yo'q. Olijanob inson o'z-o'zini kamolotga yetkazish uchun xulq-atvorini tarbiyalaydi, bunga butunlay erisha olmasa-da, xohish-irodasidan xursand bo'ladi; agarda bu oliy maqomga erisha olsa, o'z muvaffaqiyatidan xursand bo'ladi. Shu bois olijanob kishi bir umr shod-u xurramlikda yashar, qayg'u-hasrat dog'ida qolgan biror kuni bo'lmas. Xundinlar bo'lsa buning aksidir. Erisholmagach erisholmasliklaridan qayg'u-hasrat o'tida yonadilar, erishgudek bo'lsalar ham tag'inam yo'qotib qo'yishdan xavotirlanib yuradilar. Shuning uchun xudbinlarning butun umri qayg'u-hasrat ichra kechadi, shod-u xurram bo'lgan biror kuni yo'q".

"Konfutsiy mulohazalari" kitobidan

<sup>14</sup> "Konfutsiy mulohazalari"ning muallifi Vang Su, hurmatli nomlari Zi-yo'ng. Uch podsholiklar davridagi Vey podsholigidan bo'lgan. Lekin asar muallifi birgina Vang Suning o'zi emas, uning kelib chiqish tarixi bor. "Konfutsiy mulohazalari"ning yana bir nomi "Taqsır Ko'ng mulohazalari", oddiygina qilib "Mulohazalar" deb ham yuritiladi. Asarda Konfutsiy va shogirdlarining fikrlari, a'mollari yozilgan bo'lib, hozirgacha yetib kelgan nusxasi jami o'n jild qirq to'rt fasldan iborat.

\*\*\*

Zeng-zii dedi: "Aytingchi, "yetti tarbiya" deb nimalarga aytildi?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "Yuqoridagi (hukmdor, oliv martabali kishilar) qariyalarni e'zozlasa, el ham qobillikni yanada o'rinalatib ado etar; yuqoridagi yoshi ulug'larga izzat-ikrom ko'rsatsa, el aro kichiklarning ham kattalarga hurmati yanada ortar; oliv martabali marhamatini darig' tutmasa, o'shanda el yanada bag'rikeng bo'ladi; oliv martabali kishi xushaxloq kishilar bilan do'stlashsa, o'shanda eldagilar ham yaxshi do'st tanlaydilar; oliv martabali kishi axloq-fazilatli odamlarga yaxshi bo'lsa, o'shanda hech kim eldan chiqib tarki dunyo qilmas; oliv martabadagi kishi ochko'zlikdan nafratlansa, shunda el ham manfaatparastlikni isnod deb biladi; oliv martabadagi kishi vijdonli va kamtar bo'lsa, o'shanda el ham axloq me'yorlariga amal qilmaslikni benomuslik deb biladi. "Yetti tarbiya" degani shulardir. Yetti tarbiya el boshqaruvi negizidir. Siyosat-ma'rifatda mana shunday negizlar bo'lsa, demak, el boshqaruvi to'g'ridir. Podsho xalqqa o'rnakdir, o'rnak to'g'ri bo'lsa, tag'in biron noto'g'ri narsa bo'larmi? Shu bois hukmdor rahmdillik fazilatlarini o'zida shakllantirsa, a'yonlar sadoqatli va mirzolar imonli, xalq oq ko'ngil, erkaklar halol-rostgo'y, ayollar vafoli-ma'suma bo'ladilar. Bu olti jihat ma'rifat mahsulidir. Uni dunyoning to'rt tomoniga yoysang, hech kim nolimaydi, uni har bir xonadonga olib kirmoqchi bo'lsang, hech bir to'sqinlik yo'q. Toifalar odob-qoida (lii), tirikchilik ma'naviyat negiziga qurilsa, ularga rioya etgan holda harakat qilinsa, shunda odamlar qalbidan yovuzlikni itqitib tashlash go'yo qorni qaynoq suv quyib yuvib tashlashdek oson bo'lib qoladi.

"Konfutsiy mulohazalari" kitobidan

\*\*\*

Yaxshi dori o'zi nordon bo'lsa ham, dardga foydali; to'g'ri so'z qulqoqqa yoqmas-da, koringga yaraydi.


"Konfutsiy mulohazalari" kitobidan

\*\*\*

Men har kun uch bor o'z-o'zimni taftish qilaman: o'zgalar uchun sidqidildan baholi qudrat nimadir qila oldimmi yoki yo'q? Do'stlarimga samimiy bo'la oldimmi yo yo'q? Ustozim o'rgatganlarini mustahkamlay oldimmi?

Zeng-zi (Zeng Shen), "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*





Rahmdil kishi bor boylogin o'z kamoloti uchun sarf qilgay, berahm esa o'z umrini boylik orttirishga sarflagay.

Zeng Shen<sup>15</sup>, "Buyuk ta'limot"<sup>16</sup> kitobidan

\*\*\*

Hukmdor rahmdil siyosat yurgizsin; amaldor bo'l mish takalluf ko'rsatsin; o'g'ililik saodati qobililikdir; ota bo'l mish mehr berar; odamlar bilan muomalada samimiyl bo'l.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

"Nazmnoma"da shunday deyilgan:

*"Shaftoligul so'lim-so'lim,*

*Yaproqlari tilim-tilim.*

*Yotliq bo'ldi shu qiz bola,*

*Baxtli ahil bir oila".*

Oila ahil bo'lsa, shundan keyingina butun xalqqa ma'rifat ulashish mumkin.

"Nazmnoma"da tag'in shunday deyilgan: "Og'a-inilar ahil-inoq". Og'a-inilar ahil bo'lgachgina xalqqa ma'rifat ulashsa bo'ladi.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

"Nazmnoma"da shunday deyilgan: "Podsho odob-qoidada benuqson bo'lsagina, chor taraf ellarni idora qila olgay". Podsho o'zining ota-bolasi, og'a-inisini axloqli qila olsa, shundan so'nggina xalq ulardan o'rnak oladi. Demak, davlatni idora qilishning hikmati avvalo oilani yaxshi tartibga solishlikdadir.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

Osmonosti<sup>17</sup> osoyishtaligi elni yaxshi idora qilishda deyilishining sababi shuki, yuqoridagi (hukmdor) agar keksalarga hurmat-ehtirom ko'rsatsa, shunda xalq orasida ham qobil farzandlik odatga aylangay, yuqoridagi (oliy hazratlari) agar kattalarni hurmat qilsa, shunda xalq orasida ham tavozelik odat bo'lgay, yuqoridagi (oliy hazratlari) agarda

<sup>15</sup> Zeng Shen (mil. avv. 505-mil. avv. 436-yy.) - Konfutsiyning shogirdi, Zengzi deb ham atalgan, hurmatli nomlari Zi-yu. Zengzining eng asosiy g'oyalari "rahmdillik" va "qobililik"dir.

<sup>16</sup> "Buyuk ta'limot" - konfutsiylikning davlatni idora qilish, osmonosti osoyishtaligini saqlash haqida hikoya qiladigan publisistik maqolati. Butun asarda axloq tarbiyasi va siyosiy mulohazalar yaxlitlikda talqin qilinadi.

<sup>17</sup> Osmonosti - xitoychasiga "tyen-sya", turli ma'nolarga ega: olam, dunyo, borliq; el, xalq; mamlakat, davlat, yur; sultanat, hokimiyat; qadimda Xitoyni anglatgan.



yetimlarning boshlarini silasa, shunda xalq ham xiloflik qilmaydi. Shu bois podshoning axloqan o'rnak bo'lishligi fazrdir.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

Xalq suyganini suygan, xalq nafratlanganidan nafratlangan podshoni xalqning ota-onasi deydilar.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

Xushaxloq podsho elga manzur, shundagina (*u*) davlatga ega bo'la oladi; agar el (*ning qo'llab-quvvatlashi*)dan ayrilsa, davlatidan-da ayrıldi. Shu bois hukmdor avvalo axloq-fazilatiga ehtiyyot bo'lmosg'i lozim.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

(Podsho) axloqiy fazilatlarga ega bo'lgachgina el qalbiga sohib bo'la oladi, el qalbiga sohib chiqqa olgachgina davlat yerlariga ega bo'la oladi, davlat yerlariga ega bo'lgachgina boyliklarni tasarruf qila oladi, boyliklari bo'lgachgina davlatning keragi bo'ladi. Axloq ildizi (asosi)dir, boylik esa uchi.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

"Buyuk kitob · Tang-gao"da shunday deyiladi: "Faqat taqdirdinga muqim emas". Axloqi tuzuklar uni qo'lga kiritadilar, axloqi buzuqlar uni boy berib qo'yadi.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan


\*\*\*

Mol-u davlat uyning bezagi bo'lsa, axloq tan va ruh ziynati, bag'rikenglik, tan sihatlikdir, shu bois olijanoblar niyati samimiy bo'lmosg'i kerak.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

Narsalarni o'rgangach, turli bilimlarga erishiladi, bilimga ega bo'lgach, niyat pok bo'ladi, niyat poklangandan so'ng ko'ngil to'g'ri bo'ladi, unda g'ayirlik bo'lmaydi, ko'ngil to'g'ri bo'lgach, axloq-fazilatni tarbiyat qilsa bo'ladi, axloqiy sifatlar tarbiya qilinsagina oila badastir bo'ladi, oila badastir bo'lgach, bir bek-podsholikni ham yaxshi idora qilish mumkin, bek-podsholik tinch, eli farovon bo'lsa, osmonosti





(olam)da osoyishtalik hukm suradi. Yuqorida Osmon o'g'li<sup>18</sup> (imperator)dan tortib quyida mehnatkash xalqqacha barcha uchun asosiysi o'z axloqi tarbiyasidir. Agar bu asosga futur yetib ostin-ustun bo'lib ketsa, oila badastirligi, mamlakat idorasi, olam osoyishtaligiga erishmoqlikning iloji yo'q. Aslida e'tibor qilish kerak bo'lgan narsani nazar-pisand qilmay, aksincha, asli inobatsiz narsalarga e'tibor berilib, oliv maqsadlarga also erishilmagan.

Zeng Shen, "Buyuk ta'limot" kitobidan

\*\*\*

Xudbinlar xatolarini xaspo'shlab ko'rsaturlar.

Zi-sya<sup>19</sup>, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Zi-sya dedi: "Har kun bilmaganlarini bilib, har oy bilganlarini mustahkamlab esdan chiqarmagan kishini ilmsevar deyish mumkin".

Zi-sya, "Muhokama va bayon"dan

\*\*\*

Ilmsevarlik donolikka yaqin, tirishqoqlik rahmdillikka yaqin, isnod nimaligin bilish bu ham mardlik degani.

Zi-si<sup>20</sup>, "Mo'tadillik" asaridan

\*\*\*

Odamlar qilganini men ham yuz marta urinib bo'lsa ham o'rgana olgum. Odamlar o'n martada qila olganini esa men ming bor urinib bo'lsa ham o'zlashtirib olgum.

Zi-si, "Mo'tadillik" asaridan

\*\*\*

<sup>18</sup> Osmon o'g'li - imperator, Xitoy hukmdorlari; olampanoh. Qadimda podsho yoki imperatorlar shunday atalgan. Quldarlik va feodal jamiyatning hukmdor sinfi o'zlarining hokimiyyati Osmon buyrug'i bilan berilgan deyishgan, shuning uchun qiroq yoki imperatorlar Osmon O'g'li deb atalgan. Osmon Yaratganga ishora.

<sup>19</sup> Zi-sya - Konfutsiyning shogirdi, "Muhokama va bayon" asarida uning fikr-mulohazalari ham talaygina.

<sup>20</sup> Zi-si (mil. avv. 483-mil. avv. 402-yy.) - "Mo'tadillik" asarining muallifi, ismi sharifi Ko'ng Ji, hurmatli nomlari Zi-si, u Ko'ng Lining o'g'li, Konfutsiyning nabirasi. Zi-si konfutsiychilikning davomchilaridan biridir. Agar "Buyuk ta'limot" asari konfutsiychilikning publisistik maqolati bo'lsa, "Mo'tadillik" bo'lsa konfutsiychilik ta'limotining falsafiy maqolatidir.



Jo'ngni<sup>21</sup> (Konfutsiy) shunday dedi: "Olijanoblar mo'tadildir, xudbinlar mo'tadilga ziddir.

Zi-si, "Mo'tadillik" asaridan

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Mo'tadillik eng yuksak axloq mezonidir! (Ming afsuski,) odamlar kamdan-kam uzoq tura oldilar".

Zi-si, "Mo'tadillik" asaridan

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Rahmdillik deganlari insonlarni sevishdir. Tuqqanlari (ota-onasi)ni suyib ardoqlash eng ulug' ishdir".

Zi-si, "Mo'tadillik" kitobidan

\*\*\*

Ustoz (Konfutsiy) dedilar: "(Bu jahonda) mo'tadillik bo'lmas ekan, sababi menga ayondir. Aqlilar haddidan oshdilar, nodonlar haddiga yetmadilar".

Zi-si, "Mo'tadillik" kitobidan

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Sadoqatmandlik va oljanoblik qila olgan mo'tadillikkha ham yaqindir. O'zing istamaganingga o'zgani majburlama".

Zi-si, "Mo'tadillik" kitobidan

\*\*\*

Konfutsiy shunday dedi: "O'q-yoning oljanoblar bilan o'xshashligi bor, agar nishonga urolmasang, sababini o'zingdan izla".

Zi-si, "Mo'tadillik" kitobidan

\*\*\*

Osmonosti davlatlarni boshqarishning to'qqiz qoidasi mavjud, ular: o'z axloq-fazilatini tarbiyalab kamolotga yetkazish, xushxulq va is'tedodli kishilarni ardoqlasang, tuqqan-tug'ishganlarini sevib ardoqlash, vazirlarga izzat-ikrom ko'rsatish, a'yonlar dardiga hamdard bo'lish, xalqni o'z farzandidek asrab-avaylash, turli hunarmand ustalarni chorlash, uzoqdagi xalqlar orasida tinch-totuvlik o'rnatish, beklarning ko'nglini olish. O'zingni tarbiya qilsang, xusni xulqqa erishgaysan; xushxulq va is'tedodli kishilarni qadrlasang, sarosimaga tushmagaysan; tuqqan-tug'ishganlaringni asrab-avaylasang, ota-on, og'a-inilar ranjimagay; vazirlarga izzat-ikrom ko'rgizsang, dovdirab

<sup>21</sup> Konfutsiuning hurmatli nomlari.





qolmaysan; a'yonlarga lutf qilsang, iltifot ko'rgan arboblar ortig'i bilan qaytarishadi; xalqni o'z farzandlaringdek asrab-avaylasang, bu xalqning ruhini ko'taradi; hunarmand ustalarni chorlasang, mol-u davlating yetarli bo'ladi; yiroqdagi ellarda ham tinch-totuvlik o'matsang, chor atrofdagi xalqlar barchasi bosh egib keladilar; hokim-beklarning ko'nglini olsang, butun saltanatda barcha hukmdordan hurmat qilishi baribarida hayiqib turadilar.

Zi-si, "Mo'tadillik" kitobidan

\*\*\*

Ro'za va hammom qalb va badanni poklaydi, orasta kiyining, beadablik qilmang, shu tariqa kamolotga erishgaysiz.

Zi-si, "Mo'tadillik" kitobidan

\*\*\*

Har qanday ishni o'ylab qilsang, qadding bukilmas; o'ylamay qilingan ish kishini majruh qiladi. So'zingni o'ylab gapirsang, tutilib qolmassan; o'ylab ish qilsang, mashaqqating bo'lmaydi; qadamingni o'ylab bossang, pushaymon qilmaysan.

Zi-si, "Mo'tadillik" kitobidan

\*\*\*

Dushman lashkarini jangsiz taslim qila olgan qo'shin mohirlarning eng mahoratisidir.

Sunvu<sup>22</sup>

\*\*\*

O'zini ham raqibini yaxshi bilgan urushlarda mag'lub bo'lmas.

Sun-zi, "Harbiy jang san'ati" kitobidan<sup>23</sup>

\*\*\*

Konfutsiy Do'ngshan tog'iga chiqsa, Lu podsholigi mittigina, Tayshan<sup>24</sup> tog'iga chiqsa, osmonosti jimitdek. Dengizni ko'rganga o'zga suvlar chikora; donishmand

<sup>22</sup> Sunvu (taxminan mil.avv. 535 -?) - boshqa nomi Sunzii, qadimgi Xitoy siyosatchisi, harb ilmi bilimdoni, hurmatli nomlari Jang Ching, keyingi avlodlar tomonidan Sunzii, Sun Vuzii (Sun Mohir qurolboz), Bing-sheng (harb ilmi donishmandi), "Yuz avlod harbiylari ustozi", "Mashriq harb ilmi asoschisi" degan nomlar bilan ulug'langan. Xitoy tarixining Bahor-kuz davridagi (mil.avv. 722-mil.avv. 481-yy.) Chi podsholigidan bo'lgan. Vu podsholigi lashkARBOSHI bo'lgan. U "Sunzii harbiy jang san'ati" (o'n uch maqolatdan iborat) nomli qimmatli asar yozib qoldirgan, bu kitob "harb ilmining muqaddas nizomi" deya qadrlanadi. Bu asarni ko'rgan Vu podshosi Sunzini qo'shiniga qo'mondon etib tayinlagan. Aytishlaricha, o'tuz minglik qo'shin bilan olti yuz minglik Chu podshosi lashkari ustidan g'alaba qozongan.

<sup>23</sup> Sunvuga qaralsin.

<sup>24</sup> Tayshan - Xitoydagi besh baland tog'larning biri. Shando'ng provinsiyasida joylashgan, dengiz sathidan 1.524 metr baland. Qadimgi odamlar Tayshanni baland tog'lar ramzi deb bilishgan, hurmatli kishilar va muhim, ahamiyatli ishlarga o'xshatish sifatida keng qo'llanilgan. Qadimda hukmdorlar shu tog'ga kelib qurbanliklar qilishgan.



eshigida saboq olganga o'zga suhbatlar bema'no.

Meng-zi<sup>25</sup>

\*\*\*

Axloqliga madad bisyor, axloqsiz ko'makka zor.

Meng-zi

\*\*\*

Olijanoblar axloq-fazilati bamisoli shamolga o'xshaydi; xudbinlar axloq-fazilati maysa kabitidir. Maysa shamolga duch kelgan on, yer tishlab qolishi begumon.

Meng-zi

\*\*\*

Xudo nihoyatda muhim vazifani kimgadir topshirmoqchi bo'lsa, avval uning qalbi va irodasini turli mashaqqatlar bilan sinagay, uning mushaklarini mehnatda toliqtirgay, balki, ochlikdan uning eti borib ustuxoniga yopishar, hattoki uni och-yalong'och qoldirar, ishlari chappasiga ketar, mana shunday turfa ko'ngilsizliklar bilan uning irodasini mustahkamlab, iqtidorini kamolga yetkazgay.

Meng-zi

\*\*\*

O'n qadamda ham barq urib o'sgan xushbo'y maysa bo'lishi tayin; o'n xonardonli choqqina nohiyada ham, shubhasiz, ajoyib iste'dod sohibi bordir.

Meng-zi

\*\*\*

Rahmdillik insoniylikdir; haqqoniylilik esa insoniy yo'lmdir. Haq yo'ldan ozib, vijdonini yo'qotib, intilishni bilmaslik qanchalar ayanchli!

Meng-zi

\*\*\*

Tortib-tortib og'ir-yengilligin bilib olarsan, o'lchab-o'lchab - uzun-qisqaligan.

Meng-zi

\*\*\*

<sup>25</sup> Meng-zi (mil. av. 372-mil. av. 289-yy.), ismi Ke, hurmatli nomlari Zii-yu, Xitoy tarixidagi Urushqoq podsholiklar (mil. avv. 475 - mil. avv. 221-yy.) davridagi Zou podsholigidan bo'lgan. Xitoyning qadimgi mutafakkiri, ma'rifatparvari, siyosatshunosi, shuningdek, konfutsiychilik ta'limoti namoyondalaridan biri. Meng-zining "Meng-zi" nomli mashhur asari mavjud. Meng-zi Konfutsiyning g'oyalarini davom ettirdi hamda ularni rivojlantirdi. Meng-zi "rahmdil siyosat"ni ilgari surgan, axloqiy idora etishga chaqiradi; Konfutsiy singari, inson tabiatida ezzulik bilan dunyoga keladi degan g'oyasida qat'iy turgan. Meng-zi fikr-mulohazalarining tushunilishi osonligi bilan qadimgi donishmandlardan ajralib turadi. Ko'pincha uning nomi adabiyotlarda Konfutsiy nomi bilan birga tilga olinadi.



Pargar (sirkul) va go'niyasiz chorsi ham doira chiqmas.

Meng-zi

\*\*\*

Yurak atalmish a'zoning vazifasi tafakkur qilishdir, fikrlasang, erishmoqlik bor, fikr yuritmasang, erishish ham yo'q.

Meng-zi

\*\*\*

Yurt podshosi rahmdillikka mehr qo'ysa, osmonostida raqibi qolmas.

Meng-zi

\*\*\*

Rahmdil odamning dushmani bo'lmaydi.

Meng-zi

\*\*\*

Podsho rahmdil bo'lsa, berahmlik bo'lmaydi; podsho adolatli bo'lsa,adolatsizliklar bo'lmaydi; podsho haq esa, nohaqliklar bo'lmagay.

Meng-zi

\*\*\*

Rahmdillarga sharaf-shondir, berahmlar rasvoi jahondir.

Meng-zi

\*\*\*

Bir begunohni o'ldirish berahmlik (shafqatsizlik)dir; o'ziniki bo'lmaganni qo'lga kiritish nohaqlikdir.

Meng-zi

\*\*\*

Shitob bilan o'zgan shiddat bilan chekinar.

Meng-zi

\*\*\*

Osmon o'g'li (imperator) rahmdil siyosatni amalga oshirmas ekan, mamlakatni saqlab qololmaydi; beklar rahmdil siyosat yurutmasa, bekliklarini qo'ldan berib qo'yadi; amaldor-to'ralar rahmdil siyosat yo'lini tutmas ekan, ajdodlari ibodatxonasini asrab qolmas, mirzo-yu oddiy mehnatkash xalq rahmdillik qilmasa, to'rt muchasini asrolmas.

Meng-zi



\*\*\*

Podsho a'yonlariga o'zining qo'l-oyog'i deb qarasa, a'yonlar esa podshoni o'zlarining yurak-bag'ri deb biladi; podsho a'yonlariga ot-u itga qaragandek qarasa, a'yonlar podshoga musofir yo'lovchi deb qaraydilar; podsho a'yonlarga lo-yu begona o't deb qarasa, a'yonlar podshoni g'animi deb biladi.

Meng-zi

\*\*\*

Qunt qilsa, har bir odam ham Yao va Shunlardek donishmand bo'la oladi.

“Meng-zi”<sup>26</sup> kitobidan

\*\*\*

Xalq eng azizdir, davlat ramzi bo'lgan Zamin va Ziroat homiysi undan quyiroqda, toshi eng yengili hukmdordir.

“Meng-zi” kitobidan

\*\*\*

Faqat axloqan yetuk rahmdil odamgina yuksak martabada bo'lmog'i kerak. Axloqan tuban berahm kimsa yuqori o'rinda bo'lsa, badkirdorligi yoyilib, elga-da kasri urar.

Meng-zi

\*\*\*

Dala ishlari yaxshilansa, soliq-yig'imlar yengillatilsa, xalqni farovon qilgan bo'lasan.

Meng-zi

\*\*\*

Har kim besh tanoblik hovlisi atrofiga tut eksa, ellikdan oshgan odamlarning barchasida kiygani shoyi ko'y lagi bo'ladi.

Meng-zi


\*\*\*

Xushxulq kishilarning martabasin oshir, salohiyatli kishilar zimmasiga amal-vazifa yukla.

Meng-zi

\*\*\*

<sup>26</sup> "Meng-zi" kitobida Xitoy mutafakkirlaridan biri Mengzining fikr-mulohazalari jamlangan. Meng-zi va shogirdlari tomonidan tuzilgan. Asar yetti bobdan iborat. Janubiy So'ng sulolasi neokonfutsiychi alloma Ju Si "Meng-zi"ni "Muhokama va bayon", "Buyuk ta'limot", "Mo'tadillik" asarlari bilan birlashtirib "To'rt kitob" deb nomlaydi. O'shandan buyon "To'rt kitob" davlat xizmatiga o'tish imtihonlarining tarkibiy qismi bo'lib keldi.





Baliq men istaganim, ayiq panjasini ham xohlayman, ikkisiga bir vaqtda erishib bo'lmasa, men baliqdan voz kechib, ayiq panjasini tanlagan bo'lardim. Shuningdek, yashashni xohlayman, haqqoniylilikni ham istaymay, ikkisiga bir vaqtda sohib chiqolmasam, yashashdan voz kechib, haqqoniyat (adolat)ni tanlagan bo'lardim.

Meng-zi

\*\*\*

Olijanoblarning eng katta ustunligi odamlarga ezgulik ulashishidir.

Meng-zi

\*\*\*

Hatto osmonostida eng oson unib-o'sadigan o'simlik bo'lsa ham, bir kun oftobda toblab, tag'in o'n kun sovuq ursa, qaytib unib-o'sonmas.

Meng-zi

\*\*\*

El shodligin o'z shodligi deb bilgan podshoning shodligin el ham o'z shodonligi deb bilgay. El qayg'usin o'z qayg'usi deb bilgan podsho qayg'usin el ham o'z qayg'usi bilar.

Meng-zi

\*\*\*

Inson nimalar qilmaslik lozimligini bilsagina ko'p narsalarga erisha oladi.

Meng-zi

\*\*\*

Noqobillik uchta bo'lsa, zurriyotsizlik eng kattasidir.

"Meng-zi" kitobidan

\*\*\*

Birovning keksalarini o'zingnikidek hurmat qil; birovning bolalarini ham o'z bolalaringdek yaxshi ko'r.

"Meng-zi" kitobidan

\*\*\*

Avvalgi va keyingi donishmandlarning mantig'i birdir.

Meng-zi

\*\*\*

Qulay fursat (siyosiy muhit ustunligi) jo'g'rofiy sharoit afzalligiga yetmaydi, jo'g'rofiy afzal sharoit ommaviy birdamlikka yetmaydi.

Meng-zi



\*\*\*

Rahmdillikka putur yetkazganni "sitamgar" derlar, axloq-adolatga putur yetkazganni "battol" derlar, battol-sitamgarni "zolim" deymiz. Zolim-mustabid Jouni<sup>27</sup> qatl etishganini eshitganman, zolimlarning jasozini bergen Vu-vangga<sup>28</sup> a'yonlari suiqasd qilganini eshitmadim.

Meng-zi

\*\*\*

Yolg'iz sevingan, sevinchini o'zgalar bilan baham ko'rgan, qay biri sevinchliroq?

Meng-zi

\*\*\*

Olijanoblarning ko'ngliga tukkani rahmdillik va odob-axloqdir. Rahmdil odam o'zgalardan mehr-muhabbatini ayamaydi, odobli kishi o'zgalarni hurmat qiladi. Odamlarni sevgan kishini odamlar ham doim sevarlar, o'zgalarni hurmat qilgan kishini ham odamlar doim hurmat qiladi.

Meng-zi

\*\*\*

Buyuklar bolalardek soddadillikni also yo'qotmaydilar.

Meng-zi

\*\*\*

Bir berahm davlatga erishgan bo'lsa bordir, lek berahmning bir xalqqa erishgani bo'lgan emas.

Meng-zi


\*\*\*

Mol-dunyoga hirs qo'yma, faqir-u haqirlilikda ham maslagingdan og'ishma, tahdid va zo'rlik qilsalar ham qaddingni bukma. Ana shundaylarnigina haqiqiy er kishi deyish mumkin.

Meng-zi

<sup>27</sup> Jou - Shang (In) sulolasining so'nggi podshosi, rivoyatlarga qaraganda, nihoyatda zolim bo'lgan. In- sulola nomi, Xitoyda eramizdan avvalgi 14-asrdan eramizdan avvalgi 11-asrgacha hukm surgan Shang sulola. Poytaxt In shahriga ko'chirilgach, sulola nomi ham o'zgargan.

<sup>28</sup> Vu-vang - Ji Fa, Jou sulolasasi asoschisi; Jou sulolasasi eramizdan avvalgi 11-asrdan eramizdan avvalgi 256-yilgacha hukm surgan.





\*\*\*

Qalb tarbiyasida istaklarni baholi qudrat oz qilishdan ham yaxshirog'i yo'q.

Meng-zı

\*\*\*

O'zgalarga hamdardlik rahmdillikning boshlanishidir; xatolaridan uyalishlik adolatning boshlanishidir; kamtarlik odobning boshlanishidir; haq-nohaqni ajrata bilish donishmandlikning boshlanishidir.

Meng-zı

\*\*\*

G'amingni ye — yashagaysan, o'ldirsa o'ldirar bag'amlik.

Meng-zı

\*\*\*

Iste'dodlarni qadrlash siyosatning negizidir.

Mo'-zi<sup>2</sup>

\*\*\*

Gapni qoyillatib, amalda sust bo'lsa, aytganlari qanchalik maroqli bo'lmasin, hech kim unga qulq solmaydi.

Mo'-zi

\*\*\*

Irodasiz odam aqlli bo'lolmaydi.

Mo'-zi

\*\*\*

Olamda axloqdan muhimroq narsa yo'q.

Mo'-zi

\*\*\*

Tejamkorlik yashnatgay, harislik halokatga olib boradi.

"Mo'-zi" asaridan

\*\*\*

<sup>2</sup> Mo'-zi (mil. avv. 468-mil. avv. 376-yy.), Ismi Di, Lu podsholigidan bo'lgan. Mo'zii ham Urushqoq podsholiklar davrida yashagan mashhur mutafakkir, ma'rifatparvar, olim, arb ilmi bilimdoni. Mo'-jya ilmiy maktabining asoschisi. Keyinchalik shogirdlari uning fikr-mulohazalarini to'plab kitob qilishgan, asar "Mo'zii" nomi bilan mashhur.



Borliq harakatlarining qat'iy qonuniyatları bor, ularning mavjudligi donishmand oqsoqol Yao boisidan emas hamda zolim podsho Jye tufayli ham munqariz-yo'q bo'lmagay. Unga haq tadbir ila moslanishlik xayrlidir, xiloflik qilinsa falokatdir.

Syun-zi<sup>29</sup>

\*\*\*

Olijanoblar shunday deydi: ilm olishdan to'xtamang.

Syun-zi

\*\*\*

Yo'l yaqin bo'lsa-da, yurmasang, maqsadga yetolmaysan; ish garchi kichik bo'lsa ham, ado qilmassan, muvaffaqiyat qozonolmaysan.

Syun-zi

\*\*\*

Nil bo'yog'i qamchio'tdan olinsa-da, rangi undan-da to'qroq; muz suvning qotishidan paydo-yu, suvdan ko'ra sovuqroq.

Syun-zi

\*\*\*

Inson nafsi bilan dunyoga keladi, nafs qonmagach, noiloj intilmasa bo'lmaydi, intilishning aniq me'yor-chejarasi bo'lmasa, urush-to'qnashuv sodir bo'lmasligi mumkin emas, urush bo'lsa, tartibsizlik kelib chiqadi, tartibsizlik esa tanglikka olib keladi.

Syun-zi

\*\*\*

Ko'z bir vaqtida ikki xil narsani ravshan ko'rolmaydi, quloq bir vaqtida ikki xil tovushni aniq eshitolmaydi.

Syun-zi


\*\*\*

Meni 'tanqid qilgan ham tanqidni munosib qilgan (kishi) mening ustozimdir; meni maqtagan ham maqtovni o'mida qilgan mening do'stimdir; menga xushomad qilgan mening battol dushmanimdir.

Syun-zi

\*\*\*

<sup>29</sup> Syunzi (mil. avv. 313-mil. avv. 238-yy.) mashhur mutafakkir, adib, siyosatshunos, konfutsiychilik ta'limoti namoyondalaridan biri. Ismi Kuang, hurmatli nomlari Ching bo'lgan, zamondoshlari tomonidan "Syun maslahatgo'y" deya ulug'langan. Nihoyatda bilimli bo'lgan, konfutsiychilik ta'limotini davomlashtirish asnosida, yana boshqa turli ta'limotlarning ijobiylarini qabul qilib, ulami umumlashturib, o'zgartirib o'zining g'oyalar siystemasini yaratadi.





Haq yo'ldan o'g'ishmasa, osmon (xudo) ham odamlarni balo-qazolarga yo'liqtirmas.

Syun-zi

\*\*\*

Vazirning so'zi tuzuk, amali buzuq bo'lsa, el boshiga bitgan balodir.

Syun-zi

\*\*\*

Baland tog'ga chiqmay turib, osmonning yiroqligin bilolmaysan; chuqur daryo qarshisiga kelmay turib, yerning qalinligin bilolmaysan.

"Syun-zi"<sup>31</sup> kitobidan

\*\*\*

Tosh yig'ilsa tog' bo'lur; toma-toma ko'l bo'lur.

Syun-zi

\*\*\*

Yarim qadamlar to'planmasa, ming chaqirimga yetolmas; jilg'alar to'planmasa, daryo-dengiz bo'lolmas.

"Syun-zi"

\*\*\*

Avvalgilar o'zlarini tarbiya qilish uchun bilim olishgan bo'lsa, hozirgilar xo'jako'rsinga o'qiydilar. Olijanob kishi o'z-o'zini kamolotga yetkazish uchun bilim oladi, xudbinlar bo'lsa ko'z-ko'z qilgani.

"Syun-zi"

\*\*\*

Xushxulq-salohiyatli kishilarni saylab ol, sadoqatli-hurmatga loyiq kishilarni ko'tar, qobil farzand bo'lish, kattalarni hurmat qilishda jonbozlik ko'rsat, yetim-yesirlarni qaramog'ingga ol, kambag'al-muhtojlarga xayr-saxovatli bo'l, shundagina raiyat hokimiyatga bo'ysunadi. Raiyat hokimiyatga itoat etsagina, shundan keyin podshoning hokimiyati mustahkam bo'la oladi. Qadimgi kitoblarda shunday deyiladi: "Hukmdor kema bo'lsa, xalq dengizdir. Dengiz kemani qalqitib turadi, to'ntarib ham yubora oladi". Aytilganlari ayni shu ma'nodadir.

"Syun-zi" kitobidan

\*\*\*

<sup>31</sup> "Syun-zi" - Syunzining asari, o'ttiz ikki bobdan iborat, katta qismini Syunzining o'zi yozgan, falsafa, mantiq, siyosat, axloqqa oid.



Olijanob inson bilimini kengaytirib borishi bilan birga, har kuni o'z xatolari ustida o'ylansa, shundagina oqil va ziyrak, xatti-harakatlari bexato bo'lgay.

Syun-zi

\*\*\*

Elga hukmronlik qilguvchi axloqni yuksaltirib, xushxulq-iste'dodli kishilarni ardoqlasa, podsho bo'ladi; qonunlarni qadrlab, xalqni asrab-avaylasa, hukmron bo'ladi.

Syun-zi

\*\*\*

Elni idora qilishning eng yuksak a'moli axloqqa intilish, qonunlarning mukammal bo'lishidir, shundagina davlatda tartib bo'ladi.

Syun-zi

\*\*\*

Men qachonlardir kun bo'yи fikr yuritib ko'rganman, biroq oniy bilim olishdan samaraliroq emas ekan. Oyoqlarimning uchida turib uzoqlarga tikilib ko'rganman, biroq bir tepalikka chiqib qaraganchalik kengroq ko'rinas ekan. Balandlikka chiqib, qo'llarimni silkitsam, qo'llarim uzayib qolmaydi, biroq odamlar uzoqdan ham ko'ra oladilar; shamol yo'nalihsiga qarab chaqirmsam, ovozim kuchayib qolmaydi, biroq odamlarga aniq eshitiladi. Ot-aravadan foydalanuvchi odam qadami tez bo'lmasa-da, minglab chaqirim yo'l bosa oladi. Suzishni yaxshi bilmasa ham, kema yordamida odam daryo-dengizlarni kesib o'ta oladi. Olijanob kishining tabiatan oddiy odamlardan hech qanday farqi yo'q, shunchaki narsalardan mahorat bilan foydalana oladilar, xolos.

Syun-zi

\*\*\*

Tosh-u tuproq uyulib tog' bo'lur, shamol va yomg'ir o'sha yerdan ko'tariladi; suvlar yig'ilib chuqur girdob bo'lar, (afsonalardagi) suv ajdarhosи o'sha yerdan chiqadi; ezgu amallar yig'ilib yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi, tabiiyki, qalb va aql tiniqlashadi, shunday qilib donishmandlikning ma'naviy darajasiga ham ega bo'linadi. Shuning uchun bir qadam-yarim qadamlar yig'ilib bormasa, ming chaqirimlik olislarga yetolmaysan; kichkina jilg'alar qo'shilmasa, daryo-dengizlar bo'lmaydi. Uchqur otning bir sakragani o'n qadam ham chiqmas; qirchang'i aravani o'n kun tortib yursa ham, juda uzoqlarga bora oladi, uning yutug'i yurishdan to'xtamaganligida. Agar kesishdan to'xtasangiz, unda chirigan yog'ochni ham bo'lib tashlolmaysiz. Agar to'xtovsiz ishlov berilsa, toshga ham naqsh solish mumkin. Chuvalchangning o'tkir panjası-yu tishlari, mustahkam mushaklari-yu ustuxoni bo'lmasa ham, biroq yuqoriga tuproqni yeb chiqsa oladi, yer





tagiga buloq suvin icha oladi, bu uning bir narsaga hafsala qilganligi sababidan. Dengiz qisqichbaqasining oltita oyog'i, ikkita qisqichlari bor, holbuki ilon va ilonbaliqning uyasi bo'limasa, jon saqlashga boshpana topolmasdi, bu esa uning hafsalasiz-tiyiqsizligidan.

Syun-zi

\*\*\*

Yog'och duradgorning tizimchasidan o'tib to'g'ri bo'ladi; temir buyumlar qayroqtoshda qayralgach o'tkirlashadi.

"Syun-zi" kitobidan

\*\*\*

Bilim olishda yaxshi ustozga yaqin bo'lishlikdan ham ma'qulrog'i yo'q.

"Syun-zi" kitobidan

\*\*\*

Dononing ham ming o'yidan bir xato chiqar; nodonning ham ming o'yidan bir nima chiqar.

"Yan-zi. Bahor va kuz"<sup>32</sup> kitobidan

\*\*\*

Elga foydali ishni sharaf bilan sevib ado et, elga zararli ishlardan nafratlan.

"Yan-zi. Bahor va kuz" kitobidan

\*\*\*

Sabr-matonatli doim muvaffaqiyat qozonadi, muttasil olg'a intilgan hamisha maqsadiga yetadi.

"Yan-zi. Bahor va kuz" kitobidan

\*\*\*

Umrning poyoni bor, bilim esa cheksiz.

Juangzi<sup>33</sup>

<sup>32</sup> "Yan-zi. Bahor va kuz" - Xitoy tarixining Bahor-Kuz (Chun-Chyu, mil. avv. 770-mil. avv. 476-yy.) davridagi Chi podsholigi bosh vaziri Yan Yingning so'zлari, qilgan ishlari haqida yozilgan kitob, muallifi aniq emas, muallif sifatida vazir Yan Yingning o'ziga nisbat beradilar, Urushqoq podsholiklar (Jan-guo', mil. avv. 475-mil. avv. 221-yy.) davriga kelib kitob holiga kelтирсан, tarixiy ma'lumotlar va xalq naqllaridan tashkil topgan, ular orasida bosh vazir Yan Yingning davlat ishlariga hafsala qilishga, kayf-u safoning ketidan quvmaslik, xushxulq-is'tedodli kishilarni xizmatga olish, xalqni sevishga oid podshoga aytgan pand-nasihatlari ko'pchilikni tashkil qiladi. G'arbiy Xan davrida alloma Lyu Syang uni to'plab tartib beradi, tahrir qiladi, jami 8 tom 215 maqolatdan iborat.

<sup>33</sup> Juangzi (mil.avv. 369–mil.avv. 286-yy.)-Urushqoq podsholiklar davri nosiri, mutafakkir va faylasuf, So'ng podsholigidan bo'lgan. Ismi sharifi Juang Jou, hurmatli nomlari Zii-syu bo'lgan. Moddiy tomonidan garchi muhtojlikda yashasa-da, ma'naviy jihatdan favqulotda boy edi. Daosizm ta'limotining asoschilaridan biri. Adabiyotlarda uning nomi Laozi bilan birga tilga olinadi. Ularning falsafiy g'oyalar sistemasi "Lao-Juang falsafasi" deya ataladi. Asari: "Juangzi"; u "osmon va



\*\*\*

Oddiygina Inson qalbi egiz tog'lar va azim daryolardan ham xavfiroq bo'lisi mumkin, falak sirlaridan-da tushunish mushkul.

Juangzi

\*\*\*

Asossiz reja ahvoling tang qilg'usi, tayyorgarliksiz qilingan ish barbod bo'lg'usi.

Juangzi

\*\*\*

Kun chiqsa—mehnatga, kun botsa—hordiqqa, yer-u osmon orasida o'zingni emin-erkin his qil, ana shundagina qalbing istagiga erishgaysan.

Juangzi

\*\*\*

Olijanoblarning do'stligi suvdek chuchuk bo'ladi, xudbinlarning do'stligi sharob misol totli bo'ladi.

Juangzi

\*\*\*

Podsho kuchini yo'qotsa, to'ralar elga ega chiqar.

Xan Feyzi<sup>34</sup>

\*\*\*

Davr taraqqiy etgan bilan davlat boshqaruvida islohotlar qilinmsa, tartibsizliklar kelib chiqqay.

Xan Feyzi

\*\*\*

Ming sarjinlik katta to'g'onne birgina qumursqa-chumolining ini qulatib yuborishga qodir. Yuz gazlik baland imoratni mo'risi tirqishidan chiqqan birgina cho'g' kulini ko'kka sovurishi mumkin.

Xan Feyzi, "Xan Feyzi"<sup>35</sup> asaridan

---

inson birligi" g'oyasini yoqlab chiqqan. "Juangzi" asari o'zi va shogirdlari tomonidan yozilgan bo'lib, daosizm ta'limotining qomusiy asarlaridan biri hisoblanadi.

<sup>34</sup> Xan Feyzii (mil.avv. 281—mil.avv. 233-yy.) qadimgi Xitoy mutafakkirlaridan biri, faylasuf, siyosiy nazariyotchi, qonunchilik g'oyasi tarafdarlaridan. Urushqoq podsholiklar davridagi Xan podsholigidan bo'Igan. Fikr-mulohazalari asosan "Xan Feyzii" kitobiga jamlangan. Xan Feyzii o'z zamonasining yorqin materialist faylasifi bo'Igan. "Sag'ir nafrat", "Besh kuya", "Aytish qiyin" va boshqa asarlari mavjud.

<sup>35</sup> Xan Feyzi asari.





Ustomon va mug'ambir bo'lgandan ko'ra noshud va halol bo'lgan afzal.

“Xan Feyzi” asaridan

\*\*\*

Vazirlar xato gapirib qo'yishdan qo'rqishsa, kengashib bo'lmaydi.

Xan Feyzi

\*\*\*

Qildan qiyiq axtarmang.

Xan Feyzi

\*\*\*

Ko'p nohaqlik qilgan o'z boshini yeydi.

“Zuo' qissalari”<sup>6</sup> kitobidan

\*\*\*

Kim ham xato qilmaydi? Xatolaringni tuzata olsang, ezgulikning bundan-da ulug'i yo'q.

“Zuo' qissalari” kitobidan

\*\*\*

Mo'ynasi bo'lmasa, mo'yi qayga yopishsin?

“Zuo' qissalari” kitobidan

\*\*\*

Ilmga ixlos qo'ysang, ikkilanma.

“Zuo' qissalari” kitobidan

\*\*\*

Kishining yo'l qo'ygan birgina xatosini deb uning buyuk xizmatlarini yo'qqa chiqarib tashlab bo'lmaydi.

“Zuo' qissalari” kitobidan

\*\*\*

Farzandlaringizni sevsangiz, ularga ma'nnaviy (axloqiy) bilim bering, tokim noto'g'ri yo'lga kirmasınlar.

“Zuo' qissalari” kitobidan

<sup>6</sup> “Zuo' qissalari” — tarixiy va adabiy durdona asarlardan biri, shuningdek, konfutsiychilikning eng muhim klassik asarlaridan biri. Aytishlaricha, “Muhokama va bayon”da Konfutsiy hurmat bilan tilga olgan Zuo' Chyu Ming “Zuo' qissalari” asarining muallifidir.



Uzunning bir qisqasi bor, qisqaning bir uzuni; narsalarining bir kamchiligi bo'lsa, donolarning ham bilmaydigani bor.

Chu Yuan<sup>37</sup>

\*\*\*

Shirin qovoq achchiq mevaband qo'ynida,  
O'sar tikanlar aro chiroyli chilonjiyda.

"Qadimiy she'rlar" kitobidan<sup>38</sup>

\*\*\*

Tog' balandligidan bezmas, dengiz — chuqurligidan.

Sao Sao<sup>39</sup>

\*\*\*

Yo'lbars iniga kirmasang, yo'lbars bolasi qayda?

Fan Ye<sup>40</sup>, "Keyingi Xan kitobi"dan

\*\*\*

Irodali odamning ishi axiyri muvaffaqiyatli bo'lur.

Fan Ye, "Keyingi Xan kitobi"dan

\*\*\*

O'tgan ishlarni unutmasang, kelgusi ishlaringga saboq bo'lg'usi.

Liyu Syang<sup>41</sup>, "Urushqoq podsholiklar harbiy hiylalari" kitobidan

<sup>37</sup> Chu Yuan (mil. avv. 340—mil. avv. 278-yy.) — vatanparvar mutafakkir-shoir, ismi Chu Yuan, hurmatli nomlari Yuan, odatda Chu Yuan deya tilga olinadi, kechinchalik odamlar tomonidan "She'riyat otasi" deya ulug'langan. Urushqoq podsholiklar davri oxirlarida yashagan, Chu podsholigidan bo'lgan. U garchi Chu podshosi Xuay-vangga sadoqat bilan xizmat qilsa-da, bir necha marta siqib chiqariladi, Xuay-vang o'Igach, fisq-u fasod oqibatida shoir surgun qilinadi, oxir-oqibat milloddan avvalgi 278-yil eski taqvim bo'yicha 5-may kuni o'zini Miluo' daryosiga tashlab halok bo'ladi, xitoyliklarning milliy bayramlaridan biri Duanvu, aytishlaricha, aynan mana shu voqeadan kelib chiqqan. Chu Yuan Xitoyning eng buyuk romantik shoirlaridan biri, shuningdek, Xitoyning hozirda ma'lum bo'lgan eng qadimgi mashhur shoiridir. Asarlari: "To'qqiz qo'shiq", "To'qqiz maqolat", "Tug'yonni tark etub".

<sup>38</sup> Xan sulolasi davriga (eramizdan avvalgi 206 — eramizning 220-yy.) oid muallifi noma'lum asar.

<sup>39</sup> Sao Sao (155—220) — Sharqiy Xan sulolasi (25—220) davrining oxirlarida yashagan mashhur siyosatchi, harb ilmi bilimdoni, adib va kalligraf (xattot). Hurmatli nomlari Meng De, bir nomlari Ji Li (ma'nosi "Xayrli"), avval Sharqiy Xan sulolasida qo'mondon, bosh vazir bo'lib xizmat qilgan, keyinchalik Vey podsholigi qiroli bo'lgan. Vafotidan so'ng "Vey Vu-di", ya'ni "Veyning qurolda mohir podshosi" degan faxriy nom berilgan. Asarlari: "Bepoyon ko'k dengiz tomoshasi" va boshqalar.

<sup>40</sup> Fan Ye (398—445) — Janubiy sulolalar davridagi So'ng sulolasi (420—479) tarixchisi. Asari: "Keyingi Xan kitobi". Asar Sharqiy Xan bir sulolaning 196 yillik tarixini qamrab olgan. Tarixiy muhokamaga ishning mohiyati sifatida qaraydi, ayni shu jihat "Keyingi Xan kitobi"ning o'ziga xosligidir.

<sup>41</sup> Liyu Syang (taxminan mil. avv. 77—mil. avv. 6-yy.) — Konfutsiy klassikshunosi (Konfutsiy klassiklarini tadqiq qiluvchi), bibliograf, adib. Haqiqiy ismi Geng Sheng, hurmatli nomlari Zi-jeng. G'arbiy Xan davrida yashgan. Asarlari: "Chu so'zları" (she'rlar to'plami, Chuguolik (podsholik) Chu Yuan, So'ng Yu va boshqalarning asarlariga oid), "O'zgacha xotira"





\*\*\*

Yuz chaqirimlik yo'lning to'qsonini yursang endigina yo'lning yarimini bosib o'tibsan.

Liyu Syang, "Urushqoq podsholiklar harbiy hiylalari" kitobidan

\*\*\*

Qo'ylar yo'qolgach qo'yxonani tuzatishga hali ham kech emas.

Liyu Syang, "Urushqoq podsholiklar harbiy hiylalari" kitobidan

\*\*\*

Taqdirmi angagan Osmonga (Tangriga) zorlanmas, o'zini angagan o'zgadan nolimas.

Liyu Syang

\*\*\*

Oqar suv sasimas, eshik oshiq-moshig'ini qurt kemirolmas.

"Luy-shi. Bahor va kuz"<sup>42</sup> asaridan

\*\*\*

O'zingga razm solib, o'zgani bilish mumkin; bugunga razm solib o'tmishni bilish mumkin.

"Luy-shi. Bahor va kuz" asaridan

\*\*\*

Boshda qilcha yanglishsang, oxirda ming chaqirimcha xatolik. / Qilcha ketsang, qirqdan ketasan.

Ban Gu<sup>43</sup>, "Xan kitobi"dan

\*\*\*

Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal.

Ban Gu, "Xan kitobi"dan

\*\*\*

Daryo yoqasida baliqqa havas qilguncha uyga qaytib to'r to'qigan yaxshi.

Ban Gu, "Xan kitobi"dan

---

(bibliografik asar), "Urushqoq podsholiklar harbiy hiylalari" va boshqalar.

<sup>42</sup> "Lyuy-shi. Bahor va kuz" — Chin davlati bosh vaziri Lyuy Buvey tahriri ostida yaratilgan qadimgi ensiklopediya ko'rinishidagi asar. Kitob Urushqoq podsholiklar davrining so'nggi yillarida (taxminan mil.avv. 239-yil) yozilgan, "Lyuy lan" deb ham yuritiladi, 160 maqoladan iborat.

<sup>43</sup> Ban Gu (32—92) — Sharqiy Xan sulolasi davrida yashagan tarixchi, adib. Asarlari: "Xan kitobi" va boshqalar.



\*\*\*

Haddan tashqari toza suvda baliq bo'lmaydi, haddan ortiq talabchan odamning do'sti bo'lmaydi.

Ban Gu, "Xan kitobi"dan

\*\*\*

G'alaba qozonsang, kibrlanib ketma, mag'lub bo'lganda ta'na-malomat qilma.

"Shang hukmdori kitobi · Jang usullari bobি"dan"

\*\*\*

Dehqon dangasa bo'lsa, yer qarovsiz qoladi.

"Shang hukmdori kitobi"dan

\*\*\*

Bir boshga — bir o'lim, (lekin uning qiymati turlich) yo Tayshan tog'idan-da zalvorli, yo parqudan-da yengil.

Sima Chyen<sup>44</sup>, "Tarixiy xotiralar" kitobidan

\*\*\*

Fursat erishmoq mushkul, boy berib qo'yish esa oson narsadir.

Sima Chyen, "Tarixiy xotiralar" kitobidan

\*\*\*

Patlari yetilmagan qush yuksaklarda parvoz qilolmaydi.

Sima Chyen, "Tarixiy xotiralar" kitobidan

\*\*\*


Chittak oqqushning maqsadini qaydan ham bilsin!

Sima Chyen, "Tarixiy xotiralar" kitobidan

\*\*\*

<sup>44</sup> "Shang hukmdori kitobi" "Shan-zi" deb ham ahaladi, Urushqoq podsholiklar davrida yashagan Shang Yang hamda undan keyinlaming asarlari to'plami, hozirda 24 qismi mavjud, legistlar (qonunchilar) ilmiy maktabining tipik asari. Kitobda iqtisodiy, siyosiy, harbiy, qonuniy boshqaruv va boshqa masalalarga to'xtalib o'tiladi. Asarning aniq bir muallifi munozarali masala.

<sup>45</sup> Sima Chyen (mil. avv. 145 yoki mil. avv. 135—mil. avv. 87?) — Xitoyning qadimgi buyuk tarixshisi, adibi, mutafakkir, boshqa nomlari Tay Shi-go'ng ("Saroy tarivnavis") keyingi davrlarda "tarixnavis dohiy", "tarix otasi" kabi nomlar bilan ulug'langan. Hurmatli nomlari Zijang, G'arbiy Xan sulolasi davrida yashgan. 20 yoshda Chang-andan chiqib ketib juda ko'p yurtlarni sayohat qiladi. Chang-anga qaytgach, tabiblik qiladi. Imperator Xan Vu-di bilan birgalikda ham ko'p joylarga brogan. Sima Chyen 38 yoshida saroy tarixnavisi (solnomachisi) etib tayinlanadi. Uning eng buyuk xizmati Xitoyning birinchi umumiy tarixiga bag'ishlangan "Tarixiy solnomalar" ("Tarixiy xotiralar") asarini yaratdi. Mazkur asarda eng qadimgi afsonalardagi Xuangdi (Sariq podsho) davridan Xan Vu-digacha, jami 3000 yildan oshiq uzoq tarixiy davr qayd etilgan. Unda muallif tarixiy shaxslarga oid batafsil ma'lumotlarni ham keltiradi.





Kitob o'qib ming-ming jildin eskirtsang, olsang qo'lga qalam, go'yo ilohlar qarshingda hozir.

Du Fu<sup>46</sup>

\*\*\*

Shahar qopqasiga o't ketsa, handaqdag'i baliqqa ham qirg'in kelar.

Du Bi<sup>47</sup>

\*\*\*

Bordir butun olamda bizning chin qadrdon do'stimiz,  
Bu jahonning ul cheti ham eng yaqin tom qo'shnimiz.

Vang Bo<sup>48</sup>

\*\*\*

Ahli jahon qayg'usidan avval qayg'urgin, ahli jahon shodligidan so'ng shodlangin.

Fan Jo'ngyan<sup>49</sup>

\*\*\*

Yoshlikni behuda o'tkazmasang, qariganda hech narsadan afsuslanmaysan.

Yue Fey<sup>50</sup>

\*\*\*

O'zini hurmat qilganni odamlar ham hurmat qiladi, o'ziga humatsizlik qilganni odamlar ham behurmat qiladi.

Ju Si<sup>51</sup>

<sup>46</sup> Du Fu (712—770) — shoir va adib, hurmatli nomlari Zi-mey, "Du qariya", "Du Go'ng-bu" deb ham atashgan. Xitoyning Tang sulolasi davrida yashagan realist shoir, mamlakat va xalq uchun qayg'urgan yuksak insoniy fazilatlarga ega inson bo'lgan, undan taxminan 1400 dan ortiq she'rlar saqlanib qolningan; she'r yozishning yuksak mahorat cho'qqisini egallagan, Xitoy klassik she'riyatiga niyoyatda chuqur ta'sir ko'rsatgan. Du Fu odamlar tomonidan "she'riyat dohiysi" deya ulug'langan, uning she'rlari esa "she'riyat tarixi" deya atalgan. Asari: "Du Go'ng-bu to'plami".

<sup>47</sup> Du Bi (490—559) — qo'mondon, shuningdek, davlatning turli vazifalarida xizmat qilgan. Rahmdil va oliyhimmat, halol amaldor bo'lgan. "Laozining "Axloqnama"siga sharhlari" asari muallifi.

<sup>48</sup> Vang Bo' (649—675) — Tang sulolasi davrida yashab ijod qilgan shoir. Hurmatli nomlari Zi-an, "Ilk Tang to'rt mashhurlari" orasida birinchi o'rinda turadi. Yigirma yetti yoshida dengizdan o'tayotib cho'kib ketgan.

<sup>49</sup> Fan Jo'ngyan (989—1052) — Shimoliy So'ng sulolasi davri adibi, siyosiy arbob, mutafakkir, ma'tifatparvar. Hurmatli nomlari Si Ven.

<sup>50</sup> Yue Fey (1103—1142) — Xitoy tarixidagi mashhur strateg, harb ilmi bilimdoni, milliy qahramon. Hurmatli nomlari Peng-ju.

<sup>51</sup> Ju Si (1130—1200) — Janubiy So'ng (1127—1279) davridagi mashhur tabiiy fanlar bilimdoni, mutafakkir, faylasuf, ma'rifaiparvar, shoir. Hurmatli nomlari Yuan Xuey, Jo'ng Xuey, laqablari Xuey An, Xuey Veng... Konfutsiy, Mengzidan keyin, konfutsiychilikni taraqqiy ettirgan eng mashhur olim. Asarlari: "To'rt kitob boblari majmui", "Chu qo'shiqlari majmui", "Xuey An so'zi".



“Buyuk ta’limot” kitobida aytigan o’zini tarbiya qilib kamolotga erishish, oila badastirligi, xayrli el boshqaruvi, olam osoyishtalining asosi faqat ko’ngil to’g’riliqi, niyatning xolisligidadir.

Ju Si

\*\*\*

Donishmandlarning aytganlari ro’yirostdir.

Ju Si

\*\*\*

Kim ko’ngli ochiq bo’lsa, demak, u yaxshi odam.

Ju Si

\*\*\*

Azaldan avliyolar qalb pokligini eng asosiy o’ringa qo’yanlar.

Ju Si

\*\*\*

Har qachon chin, sadoqatli, xatolarimni menga ko’rsata oladigan kishilar hojatbaror-foydali do’stlardir; xushomadgo’y, yengiltak, takabbur, kufr ketganlar kishini yomon yo’lga boshlaydi, bundaylar zararli do’stlardir.

Ju Si

\*\*\*

Xatoing bo’lsa — tuzat, bo’lmasa — hushyor bo’l.

Ju Si

\*\*\*

Tog’lar har qancha baland bo’lmasin, albatta, o’targa so’qmog’i bo’lar; daryo qanchalik chuqur bo’lmasin, albatta, o’tgani kema topilar.

Vu Cheng-en<sup>52</sup>, “G’arbga sayohat” kitobidan

\*\*\*

Ko’nglingdan g’uborlarni chiqarib tashla, quloqlaringdan kirmi yuvib tashla. Jafo chekmay turib, buyuk odam bo’lish amri mahol.

Vu Cheng-en, “G’arbga sayohat” kitobidan

\*\*\*

<sup>52</sup> Vu Cheng-en (1501—1582) — Xitoyning Ming sulalasi (1368—1640) davrida yashab ijod qilgan qissanavis, Xitoydag’i to’rt mashhur asarlarning biri bo’lmish “G’arbga sayohat” asarining muallifi, hummadli nomlari Ju Jo’ng. “G’arbga sayohat” asari qadimgi romanlar orasida romantizmning eng yuqori cho’qqisidir. Bu asarni butun dunyo e’turof etadi.





Taqdirida bo'lsa, ming chaqiridan kelib diydor ko'rishar, taqdiriga bitilmagan bo'lsa, yuzma-yuz bo'lsa-da bir-birini uchratmas.

Shi Nayan<sup>53</sup>, "Suv bo'yi rivoyatlari" kitobidan

\*\*\*

Mamlakatning gullab-yashnashi va halokati uchun har birimiz javobgarmiz.

Gu Yanvu<sup>54</sup>

\*\*\*

O'qiganda (teran va cheksiz bilimlar qarshisida) o'zingizni o'zingiz kamsitmang, shuningdek, (ozgina o'rganib olib) havolanib ham ketmang.

Gu Yan Vu

\*\*\*

"Lii"(adab, odob-axloq qoidalari; udum) ga ko'ra, noqobillik uchtadir: faqat bo'yin egib, ota-onasining xatolariga ko'z yumib, nasihat qilmaslik ularni nohaqlik botqog'iga botirish, bu noqobilliklardan biridir; oilasi muhtoj, ota-onasi keksayib qolgan chog' bir amaldor bo'lib (bir kasb-kor egasi bo'lib) halol maosh bilan ularni yedirib-ichirolmaslik bu ikkinchi bir noqobillikdir; uylanmay ajdodlarining chirog'ini yoqadigan zurriyot qoldirmaslik naslning uzilishidir, bu noqobillikning uchinchisidir. Uchovining orasida zurriyot qoldirmaslik eng mudhishidir.

"O'n uch noma sharhlari"<sup>55</sup> kitobidan

\*\*\*

O'qisa-yu ma'nosini uqmasa, o'qimagan bilan bir; uqsa-yu qo'llamasala, ma'nosini uqmagan bilan barobar.

Huang Si<sup>56</sup>

\*\*\*

<sup>53</sup> Shi Nay-an (1296—1371) — Yuan sulolasi davrining oxiri, Ming sulolasi boshlarida yashab ijod qilgan adib, asli ismi Yan Duan, "To'rt mashhur asar"lardan biri "Suv bo'yi rivoyatlari"ning muallifi, astronomiya, geografiya, astrologiya sohalari bilimdoni bo'Igan. 19 yoshidayoq "syusay" ("o'qimishli odam") ilmiy darajasiga erishadi, 28 yoshida "ju-jen"lik darajasini oladi, 36 yoshida mirzolikka kiradi.

<sup>54</sup> Gu Yanvu (1613—1682) — mashhur mutafakkir, muarrix, tilshunos. Asl ismi Ji Kun, hurmatli nomlari Jo'ng Ching. Asarları: "Kundalik bilmlar", "Tovushlar ilmi haqida besh kitob", "Harbiy boshqaruva muhokamasi" va boshqalar.

<sup>55</sup> "O'n uch noma sharhlari" — Xitoy adabiy asarları to'plami, uning tarkibiga quyidagi asarlar kiradi: "Folnoma", "Nazmnoma", "Nasmoma", "Jou sulolasi udumlari", "Odobnoma" (yoki "Udumlar kitobi"), "Marosimlar odobi", "Qo'chqor terisi hikoyalari", "Gu-lyang hikoyalari", "Zuo' qissalari", "Qobilnoma", "Muhokama va bayon", "E-ya", "Mengzi" kabi o'n uch konfutsiychilikning mumtoz adabiyotlari.

<sup>56</sup> Huang Si — Shimoliy So'ng sulolasi zamonda yashagan, hurmatli nomlari Jing Vey. (Bu tarixiy shaxs haqida ma'lumotlar niyoyatda oz.--Tarjimon)



Boshda qilcha yanglighsang, tugalda ming sarjincha xato kutar.

Lu Jiyuyuan<sup>57</sup>

\*\*\*

Go'zal yoshlik ortiga qaytmaydi, bir kunda ikki tong bo'lmaydi.

Tao Yuanming<sup>58</sup>

\*\*\*

Kitob o'qisang yuz bor takror, ma'no-mag'zi bo'lar oshkor.

Chen Shou<sup>59</sup>, "Uch podsholik xotiralari"dan

\*\*\*

Yomonlikni zarracha bo'lsa ham qilma; zarracha bo'lsa ham yaxshilikdan erinma.

Chen Shou, "Uch podsholik xotiralari"dan

\*\*\*

Odamlarning yaxshiliklarini yodingda tut, xatoliklarini unut.

Chen Shou, "Uch podsholik xotiralari"dan

\*\*\*

O'r ganib o'zlashtirmaslik o'r ganmaganlikdir.

Yang Van-li<sup>60</sup>

\*\*\*

Daryolar mashriqqa qarab oqib dengizga quyiladi, qachon mag'rib (otri)ga qaytgan.  
Yosh-navqironlikda ilm olishga qunt qilmasang, qariganda qayg'u-o'kinch hamrohingdir.

"Xan-yue-fu"<sup>61</sup>


<sup>57</sup> Lu Jiyuyuan (1139—1193)—Xitoyning mashhur faylasuf-ma'rifatparvarlaridan biri, mashhur neokonfutsiychi alloma, uning nomi o'sha davrda dong'i chiqqan yana bir neokonfutsiychi Ju Si nomi bilan birga tilga olinadi; hurmatli nomlari Zi-jing, keyingi davrlarda "Luzi" deb atashgan; u Guysidagi Lo'ng-xu (Ajdaho-yo'lbars) tog'ida kulba qurib, shogird to'plab ma'ruzalar o'qigan, o'sha tog'ning tuzilishi filga o'xshagan bois o'ziga "Filtog' qariyasi" degan laqab qo'yadi, keyinchalik Ustoz Filtog' deb atashgan. "Sin-syue" nomli idealistik falsafiy ta'lilot yaratgan, Ming sulolasi davrida yashagan Vang Yang Ming uning ta'lomitini rivojlantirgach, Xitoy falsafa tarixidagi mashhur "Lu-Vang ilmiy maktabi"ga aylandi.

<sup>58</sup> Tao Yuanming (taxminan 365—427-yy.) — Xitoy tarixidagi Sharqi Jin davrining (317—439) oxiri—Janubiy sulolalar davri So'ng sulolasi boshlarida yashab ijod qilgan shoir, adib, qissanavis. Hurmatli nomlari Yuan Lyang, laqabi "Ustoz Beshtol"; bir muddat kichik amaldorlik qilgan, keyin istefo berib uyiga qaytadi va zohidona hayot kechiradi. Qishloq hayoti uning she'rlarining asosiy mavzusidir. Asarlari: "Mayxo'rlik", "Polizga qaytish", "Shaftoli gul..." .

<sup>59</sup> Chen Shou (233—297) — G'arbiy Jin sulolasi (265—316) davri yashagan tarixnavis, mashhur "Uch podsholik xotiralari" asari muallifi. Hurmalli nomlari Cheng Zuo'. "Uch podsholik xotiralari" jami 65 qismidan iborat, 60 yillik tarixiy voqealar yozilgan. Asardagi uch podsholik, bular: Vey, Shu va Vu. Muartix o'z asarida bu uch podsholik o'tasidagi "uch qarama-qarshi kuchlar nisba"ini mahorat bilan yoritadi.

<sup>60</sup> Yang Van Li (1127—1206)—Janubiy So'ng sulolasi (1127—1279) davrida yashagan atoqli shoir. Hurmatli nomlari Ting Siyu. Yang Van Li vatanparvarlikka oid 4200 dan oshiq she'rlar ijod qilgan.

<sup>61</sup> "Xan yue fu" — ya'ni "Xan kuylar saroyi", Xan sulolasi she'rlari. Asar tarkibidagi she'rlar asosan ikki qismga bo'linadi:





Bilimning teranligi o'rganishdan bezor bo'lmaslikka bo'gliq, bilim olishdan bezor bo'lmaslik mustahkam irodaga bog'liq.

Ge Xo'ng<sup>a</sup>

\*\*\*

Bir yillik reja qilsang, g'alla yetishtirgan yaxshi; o'n yillik reja qilsang, daraxt ekkan yaxshi; yuz yillik reja qilsang, iste'dodlarni yetishtirgan yaxshi.

"Guanzi"<sup>b</sup> asaridan

\*\*\*

O'z o'glini otasidan ham yaxshiroq biladigan yo'q.

"Guanzi" asaridan

\*\*\*

Tahqirlanishga qarshi kurashmaslik isnoddir.

"Go'ng Sun Lo'ng-zि"<sup>c</sup> asaridan

\*\*\*

Donolik o'z kamchiliklarini bilib, qunt bilin bilim olishdir, or qilib so'ramaslik sharmandalikdir.

Lin Bu<sup>d</sup>, "Ko'ngil tashvishlaridan xalos bo'lish" asaridan

\*\*\*

Zo'r dan zo'r chiqar, odamlar oldida kibrlanib maqtanma.

"Avlodlarga ogohlik maktublari"<sup>e</sup> kitobidan

birinchisi, hukmdorlarning ajodolariga atab qurbanlik qilish paytida foydalilanidigan ibodatxona she'rlari; ikkinchisi, xalq orasida tarqalgan xalqona kuyilar asosida. Bu asar "Nazmnoma"dan keyingi qadimgi xalq she'rlari to'plamidir.

<sup>a</sup> Ge Xo'ng (284—364 yoki 343-yy.) — Sharqiy Jin sulolasasi davrida yashagan daosizm ulamosi, tib va dorishunos olim; hurmatli nomlari Ji Chuan. Yuqumli kasalliklarga va ulami davolahsga oid asar tozgan.

<sup>b</sup> Xitoy tarixidagi Bahor-Kuz davri Chi podsholigidan bo'lgan mashhur siyosatchi, harb ilmi bilimdoni Guan Jo'ng (mil.avv. 723—taxminan mil.avv. 645-yy.) ismiga nisbat beriladigan asar. Yoshlikda muhtojlikda kun kechirgan. Qo'shinga ergashib Chi podsholigiga kelib qolgan, Chi podsholigining bosh vaziri darajasigacha ko'tarilgan, "Bahor-Kuzning birinchi vaziri" deb atalgan. Guan Jo'ngning fikr-mulohazaları "Davlat tili. Chi tili"da uchraydi, yana "Guanzi" kitobi orqali ham tarqalgan. "Guanzi" maqolalar to'plamidan iborat, yozilish davri Urushqoq podsholiklar davridan boshlanib to Chin, Xan sulolalari davrigacha, bir kishi tomonidan bir davrda yozilmagan. Asar 24 bo'lim, 85 maqolat bo'lgan, hozirgacha 75 maqolasi saqlanib qolangan.

<sup>c</sup> "Go'ng Sun Lo'ng-zি" — Xitoyning Chin sulolasidan avvalgi davrda yashagan mantiqchilardan asosan Go'ng-sun Lo'ngning muhim asari. "Xan kitobi"da keltirilishicha, "Go'ng-sun Lo'ng-zি" aslida 14 bo'limdan iborat, keyinchalik aksariyat qismi yo'qolib ketgan. Hozirda 6 bo'limi qolgan, xolos, u ham bo'lsa Ming sulolasasi davdiga oid "Dao-sang" ("Daoning saqlanishi") asari tarkibida saqlanib qolgan. Mazkur asar Go'ng Sun Lo'ng falsafiy qarashlari va mantiqqa oid ekrilarini o'rganishda qimmatli tarixiy materialdir.

<sup>d</sup> Lin Bu (967—1028) — Shimoliy So'ng sulolasining (960—1127) dastlabki yillarda yashagan shoir. Hurmatli nomlari Jun Fu. 40 yoshidan oshgach Xangjouda zohidlikda hayot kechira boshlagan. Asari: "Tog' bog'idagi jazzi qorao'tik" va boshqalar.

<sup>e</sup> "Avlodlarga ogohlik maktublari" — qissa-hikoyalar to'plami, Ming sulolasasi (1368—1644) davrining oxirlarida yashagan



Olijanob kishi podsho xizmatiga kirishsa, o'y-xayoli sadoqat bilandir, xoli bo'lganida fikr-u xayoli o'z xatolarini tuzatish bilan.

“Qobilnoma”<sup>67</sup> asaridan

\*\*\*

Ahli jahonga gar naf istading, ahli jahon quchog'in ochgay; gar ziyon yetkazursan, yuz o'girgay begumon.

“Olti harbiy jang san'ati”<sup>68</sup> kitobidan

\*\*\*

Kasal og'izdan kiradi, balo ham og'izdan chiqadi.

Fu Syuan<sup>69</sup>

\*\*\*

Qirmiziga<sup>70</sup> yaqinlashsang, qizili yuqar, siyohga yaqinlahsang — qorasi.

Fu Syuan

\*\*\*

Biror ishda haddan oshish xuddi uni maromiga yetkazib bajara olmaganlikka o'xshaydi, keragidan ortiqlik ham yetishmovchilik kabitidir.

Gu Yi<sup>71</sup>

\*\*\*

Xotirjamlik bilan o'zingni kamolga yetkaz, tejamkorlik bilan go'zal fazilatlarni tarbiyala.

Ju-ge Lyang<sup>72</sup>

Feng Meng Lo'ng tahriri ostida tuzilgan, uning “Kecha va bugunning hikoyalari” hamda “Avlodlarni uyg'otish” nomli qissa-hikoyalar to'plamlari bilan “uchlik” ni tashkil qildi.

<sup>67</sup> “Qobilnoma” — “Syao-jing”, konfutsiychilikning etikaga oid qadimiy asari. Rivoyltarga ko'ra, Konfutsiyning o'zi yozgan. Ching sulolasi davrida yaratilgan “To'rt xazina kitoblarining umumiy mundarjasi”da ko'rsatilishicha, mazkur asar Konfutsiyning yetmish shogirdidan qolgan. Chin-Xan sulolalari davrida kitob qilingan. Asarda qobil farzandlik fazilatlari markaziy o'rinn tutadi, konfutsiychilikning etikaviy g'oyalarini ham jamlagan holda bayon qiladi. Unda qobil farzand bo'lishlik barcha fazilatlarning negizidir, deyiladi: “Inson xatti-harakatlari ichra qobillikdan buyukrog'i yo'q”.


<sup>68</sup> “Olti harbiy jang san'ati” — qadimgi harbiy sohaga oid asar, muallifini aniqlashning iloji yo'q. Hozirda mazkur asarni Urushqoq podsholiklar davriga doir deb hisoblashadi.

<sup>69</sup> Fu Syuan (217—278-yy.) — G'arbiy Jin sulolasi davrining boshlarida yashagan siyosatdon, adib, mutafakkir. “Bes siyosiy qarash” asarini yozgan. Materialistik falsafiy qarashlar tarafidori bo'lган. O'z siyosiy qarashlarida “xalq asosiy” degan g'oya muhim o'rinn tutadi.

<sup>70</sup> Qirmizi — bu yerda: kinovar (qizil rangli mineral, simob rudasi, qizil bo'yoq tayyorlashda qo'llaniladi).

<sup>71</sup> Gu Yi (mil. avv. 200—mil. avv. 168-yy.) — G'arbiy Xan sulolasi davrining boshlarida yashagan mashhur publisist, adib. “Axloq nazariyasi” degan asar ham yozgan. Uning ijodi asosan nasriy va qofiyali nasriy (“Shoir Chu Yuanga aza tutib”) deb nomlangan ikki turga bo'lingan.

<sup>72</sup> Ju-ge Lyang (181—234) — Uch podsholik davri Shu podsholigining mashhur bosh vaziri, atoqli siyosatdon, harb ilmi





Fozil a'yonlarga yaqin, xudbinlaridan uzoq bo'lish Avvalgi Xan<sup>73</sup> sulolasining yuksalish sababidir. Xudbinlarga yaqin, fozil a'yonlardan yiroq bo'lish Keyingi Xan<sup>74</sup> sulolasing zaiflashuvi sababidir.

Ju-ge Lyang

\*\*\*

Insonda buyuk maqsadlar bo'lmosg'i kerak.

Ju-ge Lyang

\*\*\*

Mug'ambirning soxta ustomonligidan noshudning samimiyligi afzal.

Yan Ji-tuey<sup>75</sup>

\*\*\*

Chegara qo'rg'onidagi bir cholning oti yo'qolsa, buning baxtsizlik ekanin qaydan bilasan?

Lyu An<sup>76</sup>, "Xuay Nanzi" asaridan

\*\*\*

Bir ko'zli to'rda qush tutib bo'lmaydi.

Lyu An, "Xuay Nanzi" asaridan

\*\*\*

Burungi oljanoblar o'zlariga nisbatan qattiqqa'l hamda mukammal bo'lishni talab qilishgan, o'zgalarga nisbatan bag'rikeng ham kamsuqum bo'lishgan.

Xan Yu<sup>77</sup>

\*\*\*

---

bilimdoni, adib; hurmatli nomlari Ko'ng Ming. Du Fu o'zining "Shu vaziri" asarida Ju Ge Lyangga ijobiy baho beradi. Mashhur asari: "Lashkar tortish haqida kengash".

<sup>73</sup> Avvalgi Xan — G'arbiy Xan sulolasi, eramizdan avvalgi 206-yildan eramizning 25-yilgacha hukm surgan, Lyu Bang o'zini Xan podshosi deb e'lon qilgandan boshlangan. Poytaxt Chang-an shahri bo'lgan.

<sup>74</sup> Keyingi Xan — Sharqiyan Xan sulolasi, eramizning 25—220-yillarda hukm surgan, poytaxti Luo.yang shahri bo'lgan.

<sup>75</sup> Yan Ji-tuey (531—taxminan 595-yy.) — Xitoyning qadimgi adiblaridan biri, hurmatli nomlari Jye. Asari: "Janob Yanning oilani boshqarish haqidagi o'gidari", jami 20 qismidan iborat, bu Shimoliy sulolalar davri oxirlaridagi eng muhim nastriy asardir. Keyinchalik uning mazkur asari "oilaviy tarbiyaning mezonlari" deb atalgan.

<sup>76</sup> Lyu An (mil. avv. 179—mil. avv. 122-yy.) — G'arbiy Xan sulolasi imperator urug'idan Xuay Nan-vang, Xan sulolasi ulug' podshosi Lyu Bangning nevarasi, mutafakkir, adib. "Buyuk qahramonlik" asarini yozgan, bu asar "Xuay Nan-zi" deb ham yuriuladi. Mazkur asarda daosizmning "tabiiy osmon daosi" markaziy o'ringa qo'yilgan

<sup>77</sup> Xan Yu (768—824) — Tang davrida (618—907) yashagan shoir, adib, nosir, faylasuf, mutafakkir, siyosatchi, hurmatli nomlari Tuy-ji, o'zini "muzofotning martabali urug'idan chiqqan Changli" deb atagan. Tang davrida qadimiy yozuvni isloh qilish harakatining tashabbuskor. Asari: "Ustoz Changli to'plami".

Yaxshilik bo'sag'adan chiqmasdan, yomonlik ming chaqirim yo'l bosadi.

Sun Guangsyen<sup>28</sup>

\*\*\*

Daraxt baland o'ssin desang, ildizin mustahkam qil; mangu ravon oqsin desang, buloqboshin chuqurroq qil.

Vey Ji<sup>29</sup>

\*\*\*


She'r shunday narsaki, hissiyat — uning ildizi, tili — kurtak va yaproqlari, sadosi — uning gullari, ma'nosi uning mevasidir.

Bay Jyuyi<sup>30</sup>

<sup>28</sup> Sun Guang-syen (901—968) — hurmatli nomlari Meng Ven. Mashhur asari "Shimol shamoli haqida juz'iy so'zlar".

<sup>29</sup> Vey Ji (580—643) — Tang sulolasi siyosatchisi, hurmatli nomlari Syuan Cheng. Nasihatgo'y vazir vazifasiga tayinlangan. Halol va jur'atli nasihatgo'yligi bilan nom qozongan. Xitoy tarixidagi eng mashhur nasihatgo'y amaldor bo'lgan. Asarlari: "Suy kitobi", "Umumiy mulohazalar"; uning asosiy fikr-mulohazalri Tang sulolasi davrida yashagan Vang Fang Chingning "Vey Jeng-go'ng nasihatlari" asarida qayd etilgan. Vafotidan so'ng "Ven Jen" (sodiq) faxriy nomi berilgan.

<sup>30</sup> Bay Jyu-yi (772—846) — Xitoyda Tang sulolasi davrida yashagan buyuk realist shoir, Xitoy adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan shoir va adib. Boshqa nomlari: Bay Le-tyen (Bay Qanoatgo'y), Syang-shan Ju-shi (Syang tog'ida yashovchi olim), Bay Fu (Bay Ustoz), Bay Ven Go'ng. Hurmatli nomlari Le-tyen (ma'nosi "shukrona qilguvchi", "qanoatgo'y"); u Xitoyning Xenan o'lkasidan bo'lgan. Xalq dardini kuylab juda ko'plab she'rlar yozdi. She'rlari syujeti keng, so'zlari sodda-ravon, ommabop. Uni "she'riyat sehrgari" va "she'riyat sultoni" kabi nomlar bilan atashgan. Luo'yangdagi Syangshan tog'iga dafn etilgan.





## SAVOBLI YUMUSH

(*So'ngso'z o'rnida*)

*X*itoy qadimgi Sharq tarixida o'ziga xos sivilizatsiya vujudga kelgan davlatlardan biridir. Urf-odatlari, madaniyati, tafakkur tarzi va o'ziga xos me'moriy-san'at durdonalari ga ko'ra, qadim-qadimdan G'arb madaniyati rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Inson, jamiyat, borliq va tabiat o'rtasidagi munosabatlar majmuasi sifatida mustahkam negizlarda Sharq adabiyotida Kaykovusning "Qobusnama", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Hikmat"lari, Shayx Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va boshqalar qatori qadim Xitoy donishmandligining mumtoz namunalari bo'lmish "Odobnama", "Nasrnama", "O'zgarishlar kitobi", "Nazmnama", "Axloqnama", Konfutsiyning uning izdoshlari tomonidan yaratilgan "Muhokama va bayon", "Konfutsiy mulohazalari", tarixiy solnomalar, yuksak badiiy pafosga ega she'riyati vujudga keldi.

O'zbek kitobxonlariga ayni yuqorida qayd etilgan asarlarning ma'no-mag'zidan baxra olishda yosh tarjimon Ilhom Qosimovning izlanishlarining yana bir natijasi bo'lmish qo'lingizdag "Qadimgi Xitoy donishmandligi" tarjima risolasi juda qo'l keladi. Marjondek bir ipga terilgan hikmatlar asosidagi qadimgi Xitoy madaniyatiga bag'ishlangan mazkur risola tarjimonning ikkinchi ishidir. Dastavval Ilhom Xitoyning buyuk donishmandi, mutafakkir Konfutsiyning o'gitlari jamlanmasi bo'lmish "Muhokama va bayon" asarini o'zbek tiliga o'girib, keng kitobxonlarga taqdim etgan edi. Qo'lingizdag risola bilan tanishib chiqar ekansiz, bir haqiqatni anglaysiz: qadim donishmandlar haqiqatni aytish bilan birga unga erishish yo'llarini ham ko'rsatadi, ular haqiqatga to'n bichmaydilar, lo'nda ham gapning ayni "qaymog'i"ni so'zlaydilar. Ularni o'qib bugunni ham, bugungi odamlarni ham yaxshiroq tushuna, hayotni teranroq anglay boshlaysan kishi.

Ilhomning Xitoy madaniyati va adabiyotiga bo'lgan qiziqlishi uning bu sohada samarali izlanishlariga va odob-axloq me'yorlari mushtarak bo'lgan Xitoy xalq donishmandligi bilan o'zbek kitobxonlarining yaqindan tanishishlariga ko'prik vazifasini o'taydi. O'ylaymanki, uning tarjimonlik faoliyati Xitoy hikmatlaridan boshlanib Xitoy adabiyotining yirik namoyandalari asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishdek savobli ishda davom etajak.

To'lqin Xoljo'r rayev,  
Jizzax Davlat pedagogika instituti  
qoshidagi "Sayiljoy" akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



## XITOY MAQOLLARI<sup>61</sup>

(*Tarjimon Ilhom Qosimov*)

Ko'lda suzib yurgan katta zog'orabaliqdan dasturxonagi mitti tovonbaliq afzal.

\*\*\*

Tog'lik bola bo'ridan qo'rmas, shaharlik bola — to'radan.

\*\*\*

Qish ayozin ko'rmay turib ko'klam ilig'in bilmaysan.

\*\*\*

Inson hayotda toblanar, pichoq toshda charxlanar.

\*\*\*

Ko'na zanjabilning achchig'i xo'p, keksalarning tajribasi ko'p.

\*\*\*

Yuz eshitgandan bir ko'rgan afzal, yuz ko'rgandan bir — qilgan.

\*\*\*

Daraxt qarisa ildizi ko'payar, odam qarisa — bilimi.

\*\*\*

Yo'llar ming tarvaqay, haq yo'l esa bittadir.

\*\*\*

Tog'ning balandidan qo'rhma, oyoqning bo'shidan qo'rqa.

\*\*\*

Tog' bo'lsa, so'qmog'i ham bor, daryo bo'lsa, kechuvi ham bor.

\*\*\*

Yo'lbars baland tog'dan qo'rmas, baliq — chuqur suvdan.

\*\*\*

Daraxt qarisa tomiri chuqur botar, odam qarisa suyagi qotar.

\*\*\*

To'lqin qanchalik baland bo'lmasin, baribir kema ostida, tog' qanchalik baland bo'lmasin, baribir oyoq ostida.

\*\*\*

Bir kishi yomonlik qilsa, kasofati tumanga tatir.

\*\*\*

Tig' yarasi oson bitar, so'z yarasi qiyin bitar.

\*\*\*

Kichiklikdan igna o'grilasa, kattarganda tilla o'marar.

\*\*\*

It qopganga davo bor; odam qopsa, malham-davo yo'q.

\*\*\*

<sup>61</sup> Xitoy maqollarini o'zbek tiliga o'girish jarayonida ulami to'plash va ma'nosini tushunib olishimda menga yaqindan yordam bergan barcha xitoylik do'stlarimga o'z minnatdorchiligidagi bildiraman. — Tarjimon





Ming kun yaxshi o'qisang ham oz, bir kun yomon o'qisang ham ortiqcha.

\*\*\*

O'g'irlab yegan semirmas, o'g'irlik qilgan boyimas.

\*\*\*

Odamga boy yoqar; qambag'alni it qopar.

\*\*\*

O'zing xato qilsang, hisobmas-da, o'zga xato qilsa, ketiga ur ekan-da.

\*\*\*

Qimorga kirgan ota-onasin tanimas.

\*\*\*

Rohib shayton bor demasa, qopiga don to'lmas.

\*\*\*

Odam uzoqni o'ylamasa, g'am-g'ussaga yaqin bo'lar.

\*\*\*

Oyoqqa yarasha poyabzal kiygin.

\*\*\*

Yeyishdan oldin tatib ko'r, biror ish qilishdan oldin o'ylab ko'r.

\*\*\*

Olijanoblar og'iz juftlar, xudbinlar musht ko'tarar.

\*\*\*

Mingga suyan, tumanga suyan, yaxshisi o'zingga suyan.

\*\*\*

Yoshlikdagi mashaqqatdan qo'rqlama, qariganda kelar muhtojlikdan qo'rqlama.

\*\*\*

Hunar—jonli hazina, och qolmassan har joyda.

\*\*\*

Suv toma-toma toshni teshar; yotib yeganga tog' ham chidamas.

\*\*\*

Qush ko'paysa, burgutdan qo'rqlamas; odam ko'paysa, tog'ni tekislar.

\*\*\*

Askar qo'shindan ayrilmas, qush — to'dasidan.

\*\*\*

Bitta daraxt bilan o'rmon bo'lmas, yolg'iz tordan kuy bo'lmas.

\*\*\*

Oila ahil bo'lmasa, begonalar xo'rlagay.

\*\*\*

O'zgaga muruvvatli bo'l, o'zingga—qattiqko'l.

\*\*\*

Ko'p taom oshqozonga zarar, ko'p so'z tilga ziyon.

\*\*\*

Tuz ko'paysa sho'r bo'lar, so'z ko'paysa bezor bo'lar.



Qush qanoti bilan qadrli, inson aqli bilan aziz.

\*\*\*

Otning yaxshisi kishnagani bilan emas, odam go'zalligi aft-angori bilan emas.

\*\*\*

Xotinsiz oila bo'lmas, to'sinsiz-uy.

\*\*\*

Odam kasal bo'lsa, tobi bo'lmas; ko'chat kasal bo'lsa-doni.

\*\*\*

Chiroylimi-yo'qmi-o'z yurtimning daryosi; qarindoshmi-begona-o'z yurtingning odami.

\*\*\*

Kasal bo'lib tabibga yugurgandan dardning oldini olgan afzal.

\*\*\*

Qari ot yo'l bilar; qari bilgani hayot sinovidan o'tgan.

\*\*\*

Osmonda bulut bo'lmasa, yomg'ir yog'mas; dunyoda asossiz ish bo'lmas.

\*\*\*

Olamdag'i kamonlar bari egri, dunyodagi haqiqat bari to'g'ri.

\*\*\*

Yo'llar egri, haqiqat esa to'g'ridir.

\*\*\*

Inson irodasi bilan, bambuk bo'g'imi bilan.

\*\*\*

Yo'lning uzoqligidan cho'chima, irodaning kaltaligidan qo'rq.

\*\*\*

Chumchuqning tumshug'i bo'lguncha, chumolining oyog'i bo'lgan afzal.

\*\*\*

Chimirilgan qoshning tansiq taomidan ko'ra ochiq qosh-qovoqning bo'tqasini yegan yaxshi.

\*\*\*

O'tin kesay desang, toqqa chiq, qush tutay desang-daraxtga.

\*\*\*

Taom yesang-guruch ye, so'zlasang-gapning isbotin de.

\*\*\*

Til-etdan, haqiqat-metindan.

\*\*\*

Biliming sayozligidan qo'rqma, irodang kaltaligidan qo'rq.

\*\*\*

Kuchlini ko'rganda qo'rqma, ojizga yo'liqqanda turtma.

\*\*\*



Irodasizni boshidan tog'lar bosar, irodali tog'ni ham joyidan qo'zg'atar.

\*\*\*

Daraxt ildizi chirishidan qo'rqlisa, inson-irodasizlikdan.

\*\*\*

Bour bo'lsang-ajdar-yo'lbarsga chiqarsan, qo'rkoq bo'lsang-mushuk-quyon minarsan.

\*\*\*

Rasm-rusumin bilgandan urf-odatiga ergashgan yaxshi.

\*\*\*

Ot kuchi olis yo'lda bilinar, odam ko'ngli qandayligin vaqt ko'rsatar.

\*\*\*

Dushmanning asalin totgandan ko'ra, do'stning oq suvin ichgan afzal.

\*\*\*

Do'st mingta bo'lsa ham oz, dushman bitta bo'lsa ham ko'p.

\*\*\*

Gul to'kildim-qaytib ochilmas, fursat o'tdimi-qaytib kelmas.

\*\*\*

Uch yo'lovchi orasida biri menga ustozdir.

\*\*\*

Yaxshi xotiradan uchi siniq bo'lsa ham qalam yaxshi.

\*\*\*

Rost yolg'on bo'lib qolmas, yolg'on rost bo'lolmas.

\*\*\*

Tog'da yo'lbars bo'lmasa, maymun o'zin qirol bilar.

\*\*\*

Ko'ngli ochiq xufiya ish qilmas, rostgo'y yolg'on so'zlamas.

\*\*\*

Qarigancha ilm o'rgan.

\*\*\*

Oqmas suv sasib qolar, ilmsiz odam ortda qolar.

\*\*\*

Do'sting bittaga ko'paysa, yo'ling bittaga ko'payar; dushmaning bittaga ko'paysa, g'oving bittaga ko'payar.

\*\*\*

Qadrdon do'st diydoriga ming qadah may ham oz; bemavrid aytilgan so'zning yarimi ham ortiqcha.

\*\*\*

Taqdirida bo'lsa, ming chaqirim naridan ham kelib uchrashar, taqdida bo'lmasa, qarhisida tursa-da bir-birini tanimas.

\*\*\*

Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi, yaqin qo'shni yon qo'shniga yetmaydi.



\*\*\*

Uyda ota-onang—suyanch-ardog'ing, tashqarida do'sting—suyanar tog'ing.

\*\*\*

Yaxshi qo'shni tilla xazinadan a'loroq.

\*\*\*

Sekinlikdan qo'rqlma, to'xtab qolishdan qo'rqlma.

\*\*\*

Ming gapirgan bilan qorin to'ymas, bir hovuch oqar suv esa chanqog'ingni bosar.

\*\*\*

Chertilmasa do'mbiradan sado chiqmas; bahs bo'lmasa, haqiqat ham ayon bo'lmas.

\*\*\*

Qush qanoti bilan aziz, odam—irodasi bilan.

\*\*\*

Tanbalga ota bo'lguncha, mardga jilovdor bo'lgan yaxshi.

\*\*\*

Yo'lbarsni tog'ga qo'yib yuborsang, oqibati voy bo'lar.

\*\*\*

Bir gal ilon chaqqan uch yil maysa-arg'amchidan cho'chiydi.

\*\*\*

Pastkashning mag'turligi osmoncha, kichik soyning tovushi yer-u ko'kni tutar.

\*\*\*

Yo'lga chiqsang, osmon rangiga boq; ovqat qilsang — olov rangiga.

\*\*\*

Yuz hunarni chala bilgandan bir hunarning ustasi bo'lgan yaxshi.

\*\*\*

Birgina tish og'risa, butun og'izning tinchi yo'q.

\*\*\*

Oshxonaga kirishdan oldin qo'l yuv, o'choqqa urnaganda ko'p gapirma.

\*\*\*

Yon qo'shningdan ayrılma, olisdagi do'stdan uzoqlashma.

\*\*\*

Ot olsang, tishiga qarab ol, do'stlashsang, ko'ngliga qo'l sol.

\*\*\*

Yaxshi it tovuq qopmas, haqiqiy er xotin urmas.

\*\*\*


Kiyimning yangisi yaxshi, odamning — qadrdoni.

\*\*\*

Barakali qor mo'l hosil yildan nishona.

\*\*\*

Toza suvda baliq bo'lmas.



\*\*\*

Gavdasi tekis soyasi qiyshiqligidan qo'rqmas.

\*\*\*

Bir tog'da yo'lbars chiqsa, yuz xonadon cho'chqasiga qirg'in kelar.

\*\*\*

Osmon o-yu quyoshi bilan, inson vijdoni bilan.

\*\*\*

Qanoatli xotirjam, ochko'z baloga hamdam.

\*\*\*

Chumchuq dalaga don yegani qo'nar, tulki uyga tovuq o'margani kirar.

\*\*\*

Bitta rohib o'zi keltirib suv ichar; ikkita rohib ikkovlon keltirishib suv ichar; uchta rohib ichgani suvi yo'q o'ltirishar.

\*\*\*

Odam qancha vaqtichog'lik qilsa, shuncha yalqovlanar; og'iz qancha yesa, shuncha o'ch bo'lar.

\*\*\*

Birovni bir qarich hurmat qilsang, o'zgadan bir qulochlik hurmat ko'rasan.

\*\*\*

Qarini e'zozlasang, qarilik gashtin surarsan; boshog'in e'zozlasang, xazinaga ega bo'larsan.

\*\*\*

Yoshlikda kuchni ayamasang, qariganda yurakka tinim yo'q.

\*\*\*

Qizilga yaqin qizil yuqtirar, qoraga yo'liqqan — qorasin.

\*\*\*

Oltinning ranglisi bo'lmas, odamning — mukammali.

\*\*\*

Qayerda yiqilsang, o'sha yerdan emaklab turishni boshla.

\*\*\*

Kunduzi nima o'yda bo'lsang, tunda ham o'sha xayol bo'lar.

\*\*\*

Eshitganing yolg'on, ko'rganing rost.

\*\*\*

Hech kim avliyo emaski, beayb bo'lsa.

\*\*\*

Suv qayiqni ko'tarib turoladi, ton'tarib ham yuboroladi.

\*\*\*

Odam ko'paysa, reja kengayar, o'tin ko'paysa, alanga yuksalar.

\*\*\*

Fursatni boy bermang, vaqt ortiga qaytmaydi.



\*\*\*

Qush qanoti bilan go'zal, inson mehnatsevarligi bilan.  
\*\*\*

O'zgadan ibrat olib, o'z kamchiliklaringni to'ldir.  
\*\*\*

Bir tomchi yaxshilikka qaynar buloq javob qaytar.  
\*\*\*

Kamtarlik insonni kamol toptirar, manmanlik—zavol.  
\*\*\*

Mardlar bir zamonlardagi mardliklarin tilga olmas.  
\*\*\*

Kelganing — ko'nganing.  
\*\*\*

Yaltiragan narsaning hammasi ham tilla bo'lavermaydi.  
\*\*\*

Yaxshilik va yomonlikni har kim qilishi mumkin, balo va baxtni esa o'zing topgaysan.  
\*\*\*

Chilvir qirqa-qirqa yog'och bo'linar, suv toma-toma tosh teshilar.  
\*\*\*

O'n puling bo'lsa sarfla, bir puling bo'lsa teja.  
\*\*\*

O'n yil daraxt eksang, yuz yil salqinida dam olarsan.  
\*\*\*

Xudbinlar xusumatli, olijanoblar muruvvatli.  
\*\*\*

Kichiklikda nina o'g'irlasa, kattarganda tilla o'marar.  
\*\*\*

Safarda yaxshi yo'ldosh kerak, yashashga — yaxshi qo'shni.  
\*\*\*

Javohirot bilan o'zingga zeb berguncha, yaxshisi, bilim bilan o'zingni kamolga yetkaz.  
\*\*\*

Tog' ortida tog' bor, osmon ortida — osmon.  
\*\*\*

Tog'ning baland-pasti bo'lar, daryoning — chuqur-sayozi.  
\*\*\*

Baland tog'da baland daraxt, chuqur hovuzda muzdek suv.  
\*\*\*

Tog' katta bo'lgani bilan buloqni bo'g'ib qo'yolmas, ho'kiz katta bo'lgani bilan bitni ezib tasholmas.  
\*\*\*

Ezgulik va yovuzlik yo'ldosh bo'lmas, muz va ko'mir — qo'rdosh.



\*\*\*

Oz yesang, mazasi ko'p, ko'p yesang, qursoqqa jabr.

\*\*\*

To'g'ri so'z qulooqqa yoqmas, yurishingga foydali; yaxshi dori og'izni taxir qilar, kasalni tuzatishda foydali.

\*\*\*

Yo'li bir bo'lмаган bilan bitishib bo'lmas.

\*\*\*

Uzunning bir qisqasi bor, qisqaning bir uzuni.

\*\*\*

Sohibiga qorong'u, kuzatguvchiga ravshan.

\*\*\*

Odamni ko'rganda odamdek, jinni ko'rganda jindek gapir.

\*\*\*

Qiyinni o'zingga ol, osonni o'zgaga ber.

\*\*\*

Kasal og'izdan kirar, balo og'izdan chiqar.

\*\*\*

Xatolarini tuzata olish eng ulug' yaxshilikdir.

\*\*\*

Balo kelsa yolg'iz kelmas.

\*\*\*

Baxt-u balo bir eshikdan.

\*\*\*

Bilganga oson, bilmaganga qiyin.

\*\*\*

Tog'-daryolarni o'zgartirish oson, lekin bir odamning tabiatini o'zgartirish mushkul.

\*\*\*

Quduq suvi daryo suviga qo'shilmas.

\*\*\*

Pazanda xotin ham guruchsiz taom qilolmas.

\*\*\*

Xondan qo'rqma, oqsoqoldan qo'rq. (Amaldordan qo'rqma, xo'jadan qo'rq.)

道德经

DAO-DE JING

(*Dao va uning fazilatlari kitobi*)



*Xitoy tilidan* **ILHOM QOSIMOV**  
(伊力哈穆·卡西莫夫) tarjimasi

*Taqrizchilar:*  
**Erkin Musurmanov,**  
*SamDCHTI «Osiyo mamlakatlari tillari» kafedrasi dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi,*

**Saida Jo'rayeva,**  
*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi  
Matbuot va tahririyat bo'limi mudiri*

## LAO-ZI – MO'YSAFID DONISHMAND

Yo'l boshlovchi, ogoh etguvchi  
o'zining oqibatini bilmog'i lozimdir.  
**Zardusht,**  
«Avesto», Yasna, 48-hot'

Taqvolilar nusrat topgaylar!  
**Meng-zı**

*L*ao-zi – qadimgi Xitoy donishmandi, buyuk faylasuflaridan biri, mutafakkiri. Uning asl ismi Li Er (taxminan mil. avv. 571 – 471 y.) bo'lib, hurmatli nomlari Bo-yang, Lao-dandir.


Xitoy muarixi Sima Chyenning qayd etishicha, Lao-zi Chu podsholigiga qarashli Ku nohiyasida (hozirgi Xenan provinsiyasida) tug'ilgan. Xitoy xalqi orasida Lao-zining tug'ilishi bilan bog'liq shunday afsona yuradi.

Afsonalarga qaraganda, *Lao-zining onasi Lishi* bir kuni qishloq boshidagi daryoda kir yuvayotib suvda oqib kelayotgan sap-sariq olxo'rini ko'rib qolibdi. Darrov bir shox bilan mushtdekkina keladigan o'sha olxo'rini tutib olibdi. Tushga borib issiqdan chanqab ketgan *Lishi* boyagi olxo'rini yeb qo'yibdi. Shundan so'ng bo'yida bo'lib qolibdi. U homilasini sakson bir yil ko'tarib yurib, oxiri bir o'g'il ko'ribdi. Bola oq soch va qosh, selkillagan oppoq soqol bilan tug'ilgan ekan. Shuning uchun onasi unga Lao (Mo'ysafid) deb ism qo'yibdi. Lao-zi tug'ilganidayoq gapirishni bilgan ekan, onasiga hovlidagi olxo'ri daraxtini ko'rsatib: «Mening ismim Li (olxo'ri)», – degan ekan.

Lao-zining hayoti Xitoyning Chun-chiyu (Bahor-Kuz) tarixiy davriga (mil. avv. 770 – mil. avv. 476-yy.) to'g'ri keladi. Nihoyatda taqvodor inson bo'lgan. Uzoq umr ko'rgan, taxminan yuz yoshdan oshgan deyiladi. Yetuk bilim sohibi bo'lgan Lao-zi «dao» ta'limotiga asos solgan. Uning ta'limoti nainki Xitoy ilm-fani, ayniqsa, falsafa fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shdi, qolaversa, xan (xitoy) millati madaniyati, mentaliteti, fikrlash va yashash tarziga ham o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Lao-zi dialektik asoslash nazariyasini yaratgan.

Lao-zi bir muddat Jou sulolasiga saroyida kitobdor, ya'ni kitoblar toplash bilan shug'ullanuvchi amaldor (arkivchi, solnomachi) bo'lib xizmat qilgan. Shu sababdan teran bilim sohibi sifatida o'z zamonasida ham shuhrat qozondi. Xitoyning yana bir donishmandi

<sup>1</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.26.





Konfutsiy yoshligida atay Lao-zi huzuriga tashrif buyurib, Jou sulolasiga qoida-yo'sinlari haqida undan maslahatlar olgan.

Lao-zidan faqat besh mingtagina so'zdan iborat kitob qolgan, u «Dao-De-jing» nomi bilan mashhur, mazkur kitob donishmand nomi bilan «Lao-zi» deb ham ataladi. Ushbu kitobda inson zehnini boyituvchi juda ko'plab haqiqatlar haqida so'z boradi. Lao-zi shunday degan edi: «*Quchoqqa sig'adigan yo'g'on daraxt ham jajjigina niholdan o'sa boshlagan; ko'p qavatli baland minora ham birinchi kajava tuproqdan bino bo'la boshlagan; ming chaqirimlik olis safar ham oyoqlaring ostidagi birinchi qadamdan boshlanadi*».

Lao-zi odamlarni olamdagisi hech bir narsaga ziyon-zahmat yetkazmaslikka – daxil qilmaslikka («vu-vey»), bu foniylar dunyo haqida ortiqcha tashvish chekmaslikka («vu-shi»), qanoat va ezgu amallarni kanda qilmaslikka, nafratga (yomonlikka) himmat («de», yaxshilik) bilan javob qaytarishga chaqiradi.

Biz ba'zan hayotdan o'zimizga keragidan ortig'ini talab qilamiz, buning uchun jon koyitamiz, o'lib-tirilib harakat qilamiz, halovatimizdan, qalb oromimizdan ayrilamiz, istaganimizga ma'lum darajada erishganimizda esa o'sha nimarsalar halovatimizning o'g'irlangan onlarining ozginasiga bo'lsa ham arzimasligini tushunib qolamiz, ana shunda bizni donishmandona fikrlar chulg'aydi va sukutga cho'mamiz, o'tgan umrimizni sarhisob qilamiz, hayotning mohiyatini anglab yetamiz hamda baholi qudrat qolgan umrimizni ma'noli qilishga urinib ko'ramiz. Buning uchun keksalik gashtini surayotganlarning pandu nashatlariga quloq tutsak bas.

Xitoy xalqi orasida Lao-zi haqida juda ko'plab rivoyatlar yuradi, shulardan biri «Odam siyoqidagi hayvon» deb nomlanadi.

Rivoyat qilishlariga qaraganda, Yang Ju deganlari bir safar Lao-zini uyiga taklif etib, hurmat bilan undan maslahat so'rabdi. Yang Juning samimiyligini ko'rgan Lao-zi unga bir haqiqatni so'yabdi:

«Odamlarning tashqi ko'rinishiga qarab emas, asosan, ularning ko'ngil ra'yiga qarab muomala qilmoq kerak. Donishmandlarning barchasi kishilarning ko'ngil ra'yiga qarab ish tutganlar, tashiga qaramaganlar. Holbuki, kaltafahm chakana odamlar faqat tashqi ko'rinishingga qaraydilar, qiyofasi o'zlariga o'xshagan bo'lsa, yaqinlashadilar, o'zlariga o'xshamaganlardan uzoqlashadilar. Bir kishini olaylik, faqat tanasi, qo'l-oyoqlari, sochi, tishlari bo'lsa bo'lgani, uni inson deysan, lekin bu odamning biror yovuz niyati yo'qligi dargumon. Garchi qalbida hayvoniylik bo'lsa ham, lekin tashqi ko'rinishdan odamlar bilan bir xil, sen ham unga yaqinlashasan. Qanoti bor, shoxi bor, changalli, ucha oladigan, sakray biladiganlar qushlar va hayvonlardir. Holbuki, qushlar va hayvonlarda insoniylik bo'lishi ehtimoldan yiroq, ularda garchand insonlarga xos ayrim his-tuyg'ular bo'lsa ham, la... tashqi ko'rinishdan odamlardan farq qiladi, sen baribir ulardan uzoqlashaverasan. O't...»



Fu Si-shi (*Xitoy afsonalaridagi odamzodning ilk otasi*), Nyu Va-shi (*Xitoy afsonalaridagi odamzodning ilk onasi*), Shen No'ng-shi (*dehqonchilik homiysi*), Sya Xou-shi (*Sya sulolasipodsholaridan*) – barchasi ilon badanli, odam yuzli, sigir boshli, yo'lbars burunli bo'lishgan, insoniy ko'rinishlari bo'lмаган, lekin ular tengsiz muqaddas fazilatlarga ega edilar. Sya Jye (*Sya sulolasining so'nggi zolim hukmdori*), In Jou (*In sulolasining so'nggi zolim hukmdori*), Lu Xuan, Chu Mu (*ikkisi ham mustabid hukmdorlar*) – bu nusxalarning ko'rinishi odamnikibо'lса ham, lekin ularda hayvoniylig bor, odam siyoqidagi hayvon kabidirlar. Agar odamlar faqat tashqi ko'rinishlariga qarab ularda ham axloq va fazilat bor deb o'ylasalar, bu ularning pand yeb qolganlari emasmi? Qush-hayvonlarning ko'ngil ra'yи ham odamlarniki bilan o'xshash tomonlarga ega, masalan, ozuqa topib yeydilar, erkak-urg'ochi bo'lib o'zarajuftlashadilar, ona-boladek bir-birlariga yaqin bo'ladilar, dushman va xavf-xatardan qochib yashirinadilar,sovuqdan qochib issiqqa berkinadilar, to'da bo'lib yashaydilar, qator bo'lib yuradilar, yoshlari ichkarida turadi, balog'atga yetganlari sirtda yashaydi (uchirma bo'ladi), bir-birlariga ozuqa izlashga yordamlashadilar, xatarga duch kelganda to'da bo'lib qichqiradilar... Lekin qush va hayvonlarning ko'ngil ra'yи odamlarnikichalik emas, shuning uchun ham inson ularni izmiga sola oladi. Sariq podshoh (Xuangdi) va Yandi zamonida qo'ng'ir ayiq va bo'ri-qoplonlar jang maydoniga kiritilgan, burgut-kalxatlar ko'magida dushmanga hujum qilingan, buning barchasi kuch bilan qush va hayvonlarni qo'lga o'rgatish natijasidir. Yao oqsoqol (xitoy afsonaviy hukmdorlaridan biri, adabiyotlarda donishmandlik ramzi bo'lib keladi, taxminan mil. avv. 2357 – 2255-yillarda yashagan emish) o'zgacha yo'l tutgan, u musiqa yordamida yovvoyi hayvonlarni raqsga tushira olgan, nay chalib qaqnusni marosimnga chorlab, qushlarni kuylatgan. Buning bari qadim zamon odamlarining mo'tabarligidadir. Ular barcha mavjudotlarning ruhiy holatidan xabardor bo'lishgan, har xil tovushlarni yaxshi bilishgan, shu bois ularni qo'lga o'rgata olishgan, faqat donishmandlargina shunday qila oladi!»

Bu so'zlarni eshitgan Yang Ju nihoyatda chuqur va foydali bilimlarga ega bo'lganini his qilib, Lao-ziga bo'lgan hurmati yanada oshibdi.

Lao-zi o'z davrida favqulodda teran fikr yuritgan donishmand zotlardan edi. Bu, albatta, Xudo tomonidan unga berilgan iste'doddir. Hatto unga Konfutsiyning ham hurmati cheksiz bo'lgan, uni o'ziga ma'naviy ustoz sifatida ko'rjan.

O'zbek tilida Lao-zining «*Dao-De-jing*» asari haqida biror yirikroq ish qilinmagan, hatto asarning to'liq tarjimasи ham hanuzgacha yaratilmagan edi. Lao-zi hikmatli so'zlarining rus va ingliz tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilingan noto'liq namunalari mavjud, lekin ular donishmand fikrlarini uqish, hikmatlarini anglash uchun kamlik qilardi. Boz ustiga, asliyat bilan tanishib chiqish va uni ona tilimizga o'girish jarayonida avvalgi tarjimalarda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilganiga guvoh bo'ldik. Bunda, ehtimol,



asliyatdan tarjima qilinmaslikdan tashqari davriy va yondashuv tamoyillarining ham sezilarli ta'siri bordir. Ushbu ixchamgina kitobchani o'zbek tiliga o'girar ekanmiz, ba'zi o'rirlarda donishmandning bir jumla zamiriga turli ma'nolarni jo qilganligini tushunib, ana shunday o'rirlarda o'sha qismlarning bir necha xil tarjimalarini qavs ichida berib o'tishni lozim topdik. Bu, albatta, o'qiguvchida bir tasavvur hosil qilish uchun, xolos. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, «Dao-De-jing»ni o'zbek tiliga o'girar ekanman, asar oxirlashgani sayin tarjima og'irlashib boraverdi. Bu, ehtimol, ushbu ishni boshlash arafasida yetarlicha ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lmanim dandir.

Afsonalarga ko'ra, Lao-zi qarigan chog'ida Osmonosti (Chin yurti)ni tark etishga qaror qiladi va g'arbgaga qarab yo'lga chiqadi. Donishmandning «g'arb»ga safari haqida har xil qarashlar mavjud. Birlari Lao-zini mashhur fors kohinlari va xaldey donishmandlari bilan uchrashish uchun Eronga yo'l olgan desalar, ba'zilar hind brahmanlarining donishmandligiga erishishga qaror qilib sehrli o'lka – Hindistonga ketgan deydilar.<sup>2</sup> Afsonalarga ko'ra, g'arbgaga qilgan safari vaqtida mamlakat chegarasidan o'tayotganida uni soqchi tanib qoladi hamda xitob qilib Dao haqida so'zlab berishini so'raydi. «Dao haqida so'zlash – bu hech nima demaslikdir», – deb javob beradi Lao-zi hamda chegara nazoratchisiga daosizm ta'limotining mohiyatini ochib beruvchi «Dao-De-jing» risolasini qoldirib ketadi.

Dao ta'limotining asosiy kategoriyasi «dao» tushunchasidir, o'zbek tiliga tarjima qilinganda «yo'l» ma'nosini anglatadi, lug'aviy tarjimalariga kelsak, u, shuningdek, «haqiqat», «mohiyat», «aql», «to'g'ri yo'l», «ezgulik yo'li», «mezon», «aqida», «farz» kabi ma'nolarni ham bildiradi. Lao-zi unga yangi – yaratuvchanlik mazmunini yuklaydiki, Dao – Borliqning asosi, manbai, sarvari, garchi uning o'zi nomsiz bo'lsa-da. Lao-zi Daoning avvalda yakka va birinchi mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Dao Olamni Yo'qdan Bor qilgan Kuchdir. Donishmandning bu kabi qarashlari olamning yaralishi borasida Islom dini nuqtai nazariga juda yaqin kelganligini ko'rsatib turibdi. Daosizm ta'limotiga ko'ra, borliq Daodan paydo bo'lgan, uyg'unlik va muvozanat sarchashmasidir. Shuning uchun ham jamiki mayjudot: dov-daraxtlar, o't-o'lanlar, jonivorlardan tortib odamzotgacha – barcha-barchasi o'zlarining asl hollarida go'zal va mukammaldirlar hamda shunday bo'lib qolishi kerak. Bundan ko'rindaniki, daosizm butun borliqqa yaxlit, bir butun narsa sifatida qaraydi. Har bir mayjudot va har bir narsa bu uzlusiz oqimning bir qismidir. Shu o'rinda yana bir jihatga alohida to'xtalib o'tmasa bo'lmaydi. Qadimgi donishmandlar hayoti va hikmatlari bilan oshno bo'lar ekansiz; hayratomuz mushtarakliklarga duch kelasiz. Mazkur kitobda tilga olingan Dao kategoriyasining «yo'l» ma'nosini anglatishini yuqorida ta'kidlab o'tdik. E'tiborga molik

<sup>2</sup>Большая книга восточной мудрости / Оформление серии В. Терещенко; автор-составитель Олег Евтихов. – М.: ЭКСМО, 2011. – С.690.



jihatlardan yana biri shundaki, ikki daryo oralig'i bo'lmish xudo siylagan ona diyorimiz qadim O'zbekistonda kurtak yozgan zardushtiylik dinida ham yo'l tushunchasiga alohida urg'u berilgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi, qorusiy asar «Avesto»da shunday deyilgan: «Yo'l birdir va u Ashah – Haqiqat yo'lidir! Qolgan barcha yo'llar yo'lsizlikdir.»<sup>3</sup> («Avesto • Yasna», 72-hot) Konfutsiychilik ta'limotining yirik namoyandasi donishmand Meng-zı ham: «Haq yo'l yagonadir!» – deya xitob qilgan edi. Islom dini tasavvuf ta'limotining poklanish, komillik yo'li tariqatdir, bu so'zning ma'nosi ham «yo'l» demakdir. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, xudoning nazari tushgan bunday ulug' zotlarning o'gitlari, hikmatlarida bir umumiy jihatni ilg'ab olish qiyin emas: nomlari, sifatlari turlicha bo'lsa-da, lekin asli va maqsad birdir. Bu olamda haqiqatlarning asosi birdir, buni anglab yetgan kishilar fikrlarida ham mushtarakliklar bo'lmos'i tabiiy. Ashah – Haqiqat yo'li bo'ladimi yoki Dao yoxud Tariqat – barchasi ezgulikka eltuvchi ulug' yo'ldir. Donishmandlarning asl maqsadi esa kishilarni ezgulikka chorlamoq – hidoyatga boshlamoqdir!

Dao ta'limotiga ko'ra, Dao olam yaralishidan avval mavjud bo'lgan, ya'ni u birinchi mavjuddir. Dao aqldan, tasavvurdan ustun. Faqat Daogina abadiy va qoimdir. Qolgan barcha narsalar yaratilmish va o'tkinchi – omonat. Daoni anglash xosiyatli bo'lsa, undan begonalashish murtadlik va buning oqibati badbaxtlikdir, buning kasri ko'pga uradi. Shuningdek, Dao De (Xosiyat) bilan ayon va namoyon bo'ladi. De – Daoning inoyati, demakki, Dao o'zining inoyat-marhamati – xosiyati bilan mavjudotlarga namoyon bo'ladi. Bu, o'z navbatida, uning mavjudligidan bir darak, shuningdek, uning alomati va inkor etib bo'lmas isbotidir. Daoning sherigi va raqibi, unga qarama-qarshi bo'lgan kuch yo'q, bo'lishi ham ehtimoldan xoli. Uning o'zi yaratguvchi tanho va tanholigidan sira ham bezmas. U jamiki xilqatlarning sarvari va panogohidir. Lao-zi unga ko'r-ko'rona topinish emas, sidqidildan e'tiqod qo'yishga undaydi, bunga esa insonlar o'zlaridagi oddiylik va beg'uborlikni saqlash orqali erishadilar. Aslida, bu ikkisi ham Daoga uyg'un, lekin ayrimlar nafslarining domiga ilinib, o'zlaridagi bu asl xislatlarni bo'g'ib qo'yadilar, shundan so'ng ularni tiyib turish uchun ham odob, odamgarchilik, adolat, insof, qonun kabilalar joriy etildi. Lao-zi insonni o'zligiga qaytishga chaqiradi. Donishmandlarning donishmandligi shundaki, ular aytish bilan birga o'zları ham amal qilurlar. Lao-zining nazarida, inson ko'ngli turli bo'limg'ur hoyu havaslar bilan to'lib, chirkinlashgan, soxtalashgan, ya'ni Inson o'z-o'zidan uzoqlashgan, begonalashgan; uni chirkin xayollardan qanchalik xolilatsak, biz shunchalik oddiylikka, tabiiy holimizga – aslimizga qaytamiz.

Dao ta'limotiga ko'ra, Borliq ziddiy muqobil juftlik asosiga bunyod etilgan. Bu ziddiy juftlik bir-birini inkor etmaydi, bil'aks, bir-birini o'zaro to'ldiradi. Masalan, erkak va ayol,

<sup>3</sup> Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.104.





osmon va yer, kun va tun. Ya'ni ular muxolif emas, muqobil ziddiy juftliklardir. Yang va In – ikki qutblilik timsoli, har bir narsaga xos, qarama-qarshilik, shu bilan birga, bir-birini to'ldiruvchidir.

Shu o'rinda kitobchaning nomi haqida ikki og'iz so'z. «*Dao-De-jing*» asari o'zbek tilida ilk bora rus manbalaridan qilingan tarjimalar orqali «Ezgulik yo'li yoki Kuch va harakat haqidagi kitob»\* nomi bilan kirib kelgan edi. Kitob nomi ikki juzdan iborat: birinchi juz – «*Dao*», mazkur xitoy iyeroglifi ikki qismidan tashkil topgan bo'lib, «*bosh*» va «*bormoq*» so'zlaridan iborat; ma'nosi «yo'l» demak, ya'ni haqiqatga eltuvchi ulug' yo'l, haqiqatni anglash yo'li, hidoyat; ikkinchi juz – «de», tarjimasi «*axloq*», «*fazilat*», «*himmat*» va boshqalar. «*De*» tushunchasini «*xosiyat*» deya tarjima qilib ikki ma'noda qo'lladik: birinchisi *Dao* – Hidoyatga oshuftalik xosiyatli ekanligiga ishora bo'lsa, ikkinchi ma'nosi barcha ezgu fazilatlar yig'indisidir. Shu bois «*Dao-de-jing*» risolasini «*Dao* va Fazilatlar (yoxud Xosiyatlar) kitobi» deb tarjima qildik, ramziy ma'noda «Tariqat va uning xosiyatlari haqida kitob» deyish ham mumkin. Hozirgi kunda xitoy tilida «*dao*» va «*de*» so'zları birgalikda «*axloq*» ma'nosini anglatadi. (Shu sabab avvalgi tarjima kitoblarimizdan biri «Qadimgi Xitoy donishmandligi»da uni istihola bilan «*Axloqnama*» deya tarjima qilgan edik. Tabiiyki, o'sha vaqtida hali Lao-zi va uning «*Dao-De-jing*» risolasi haqida to'liqroq ma'lumotga ega emasdik.)

Rus tilidagi hamda hozirgi adabiy xitoy tilidagi tarjimalar o'ziga xos jihatlarga ega. Avvalo shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy xitoy tilidagi o'girmalar va rus tilidagi tarjima variantlari talaygina, bu quvonarli hol, albatta. Chunki har kim, hatto xitoyliklar ham qadimgi xitoy tilida bitilgan «*Dao-De-jing*» singari asarlarni asliyatdan o'qiyolmaydi, o'qisa-da, aksariyati tushunmaydi. Tarjimalarning ko'pligi ularni qiyosiy o'rganishdan tashqari solishtirishni ham taqozo etadi. Ba'zi tarjima matnlarida «tarjimaviy zo'riqish»ni sezgandek bo'lasiz, sababi, jumlalar bir tekisda ketmay, oshdan chiqqan toshdek tishga tegadi. Ustiga-ustak, asliyatdan emas, ikkilamchi manbalardan boshqa tillarga o'girish, ularni tarjima qilishdan ko'zlangan maqsad, shuningdek, tanlangan uslub hamda yondashuvga qarab ham tarjima bирyoqlama bo'lib qolgan vaziyatlarga duch kelish mumkin. Ba'zi o'rnlarda erkin tarjima mahsuli o'laroq haddan ortiq ijodiylikka berilib ketib, hikmatlarning nafaqat shakl-hajmi, balki ularning ma'no-mazmuniga ham jiddiy o'zgartirishlar kiritib yuborilganiga guvoh bo'lasiz. Bu ham, o'z navbatida, asliyatni tushunishga xalal beradi. Ana shunday kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun tarjima qilinayotgan til xususiyatlarini saqlab qolish juda muhim ahamiyatga ega. Bu ham tarjimon oldiga qo'yiladigan jiddiy talablardan biridir.

\*Хақиқат манзаралари. 100 мумтоҳ файласуф / Тўпловчи ва таржимон Саидда Жўраева. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.



Lao-zi ilohiyot haqida teran mushohada yuritadi, lekin bu, ayrim tadqiqotchilarining biryoqlama mulohaza va qarashlariga tayanib, uning o'zi va ta'limotini ilohiyashtirish uchun sabab va asos bo'lolmaydi. Xitoyda daosizm ta'limotiga diniy tus berish va uning asoschisi Lao-zini ilohiyashtirish tarixdagi bir guruh insonlar jamoasining noto'g'ri talqini mahsulidan o'zga narsa emas. Lao-zi bir inson qadar ulug' mutafakkir sifatida hech kimnikiga o'xshamagan fikrlarini dadil ifoda eta olgan donishmanddir. Yana bir bor ta'kidlash joizki, daosizm ham konfutsiychilik qatori diniy ta'limot emas, agar konfutsiychilik axloqiy-siyosiy ta'limot bo'lsa, daosizm axloqiy-falsafiy ta'limotdir. Ularda hech bir diniy unsurlar, jihatlar yo'q. Bu ikki ta'limotga din tusini berish keyingi avlodlarning jiddiy xatosi bo'ldi. O'yashimcha, Lao-zi ham, Ko'ng-zi (Konfutsiy) ham buni aslo istamagan bo'lur edi.


Lao-zi zarrada Butun Olam, Borliq zohir ekanligiga, bu zarraga ularni jo qilgan benazir g'oyibiy Qudrat mavjudligiga va Uning Ilk Mavjud ekanligiga, bu Mavjud Borlik va Yo'qlikdan ham Avvalligiga qat'iy ishongan. Lao-zi so'zi bilan aytganda, unga «baholi qudrat Dao» deya nom beradi, zero, uni hech bir so'z bilan atab yo ta'rifu tavsif etib bo'lmasa-da.

Lao-zi falsafasida ramziylik, qiyosiylik ustun. Donishmand bizning nazarimizda oddiy bo'lib ko'ringan holat va hodisalarga hamda narsalarga donishmandlik nazari bilan boqadi, bu holat, hodisot va narsalar mohiyati zamiriga tayangan holda ularni Daoni ifoda etishga ko'chiradi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, Olam Bir Butundir, undagi har bir holat, xilqat ana o'sha Butunlikka (yaxlitlikka) tutashadi, qovushadi.

Lao-zi ijtimoiy vogeliklarga baho berar ekan, o'z noroziliklarini ham qat'iy va keskin ifodalaydi. Bema'ni, mantiqsiz, bosqinchilik, zo'ravonlik urushlariga nafrat bilan qaraydi.

Lao-zining qachon, qayerda va qanday vafot etgani haqida hech qanday tarixiy ma'lumot mavjud emas.

*Tarjimon,  
2016-yil, Toshkent, O'zbekiston  
2018-yil, Sian, Xitoy*





# 道德经

## DAO-DE JING

### DAO VA UNING FAZILATLARI KITOBI

道经

#### DAONOMA

##### 第一章

道可道，非常道；  
 名可名，非常名。  
 无名，天地之始；  
 有名，万物之母。  
 故常无欲，以观其妙；  
 常有欲，以观其微。  
 此两者同出而异名，同谓之玄，  
 玄之又玄，众妙之门。

##### I

Dao<sup>5</sup> – ta'riflash mumkin bo'lsa, bebaqo Daodir;  
 Nom<sup>6</sup> – atash mumkin bo'lsa, bebaqo Nomdir.<sup>7</sup>  
 Yo'qlik – Nomi erur Osmon-u Zamin Ibtidosining,  
 Borlik – ta'rividur jamiki mavjudot (*borliq*) Onasi (*manbai*)ning.

<sup>5</sup> Dao – Lao-zi falsafasining o'zagini tashkil etuvchi maxsus atama va tushuncha, bu so'zga ixchamgina «Dao-De-jing» risolasida ko'p bor duch kelamiz, lekin turli joyda turliche ma'nolarni ham anglatadi. Asosan uch ma'noda keladi: birinchisi – avvali o'zgarmas, azaliy va abadiy (metafizik) haqiqiy mavjudiyat, ya'ni borliqning birlamchi asosi; ikkinchisi – olamdag'i jamiki mavjudotlarning vujudga kelishi, mavjud bo'lishi, rivojlanishi va harakati qonuniyatini; uchinchisi – kishilik jamiyatidagi mavjud mezon-me'yorlar. Bu o'rinda birinchi ma'noda kelgan, ya'ni Dao borliqdagi jamiki mavjudotning manbai va mohiyati. Uni his qilish, sezish mumkin, lekin ko'rib bo'lmaydi, shakl-u shamoyilsiz, lekin haqiqatan mavjud; u borliq mavjudotlarni paydo qiluvchi substantsiya (materiya)dir; olamda hech bir narsa yo'qki, unga tayanmagan bo'lsa; u borliqdagi mavjudotlarning harakati, o'zgarishlarini belgilab beradi, lekin uning o'zi abadiy va qoimdir; Dao betun, benazir, bemisl, bezavol va beg'arazdir. Lao-zi dunyo asli Yo'qdan paydo bo'lgan deb hisoblaydi, «Dao» uni «Yo'q»dan yaratadi hamda idora etadi. Hech qanday so'z bilan bunday Daoni mukammal ta'riflab bo'lmaydi, ta'rifa til va so'z bisoti ojizdir.

<sup>6</sup> Nom – ot, ism, bu o'rinda Lao-zi falsafasidagi maxsus atama Daoga nisbatan muayyan murojaat belgisi hisoblanadi, atoq va ma'no-mazmun mujassamligi anglashiladi.

<sup>7</sup> Hozirgi xitoy tilidagi izohlarda ikkinchi xil variant ham uchraydi: Daoni ta'riflash mumkin, g'ayrioddiiy Daodir; Nomin atash mumkin, g'ayrioddiiy Nomdir.

Shu bois doimo Yo'qlikda uning g'aroyibotlarin kuzat;  
doimo Borlikda uning sarhadlarin (*alomatlarin*) kuzat.  
Bu (*Yo'qlik va Borlik*) ikkisin kelib chiqishi (*manbai*) bir,  
lek nomlari bo'lakcha, xolos, birdek sirli deyilgay.  
Sirlidan sirliki, jamiki tilsimotning (*g'aroyibotning*) eshidir.

## 第二章

天下皆知美之为美，斯恶矣；  
皆知善之为善，斯不善矣。  
故有无相生，难易相成，  
长短相形，高下相倾，  
音声相和，前后相随，恒也。  
是以圣人处无为之事，行不言之教，  
万物作焉而不辞，生而不有，  
为而不恃，功成而弗居。  
夫唯弗居，是以不去。

## II

Osmonostida barcha go'zallikning go'zal ekanligini bilganlari zahoti xunuklik (*haqidagi qarash ham*) paydo bo'lgan.  
(*Osmonostidagi barchago'zal deb bilguvchigo'zallik bu xunuklikning mavjudligidandir.*)  
Barcha ezgulikning ezgulik ekanligini bilganlari zahoti yovuzlik (*haqidagi qarash ham*) paydo bo'lgan.  
(*Barcha ezgulik deb bilguvchi ezgulik bu yovuzlikning mavjudligidandir.*)  
Borlik va yo'qlik bir-birin paydo qiladi (*o'zaro mavjud*);  
qiyin va oson o'zaro hamdam;  
uzun va qisqa o'zaro namoyon;  
baland va past bir-birini to'ldiradi;  
tovush va ovozlar o'zaro uyg'unlashadi;  
avval va keyin o'zaro ergashadi,  
abadul-abad (shunday).  
Binobarin, donishmand odam<sup>8</sup>  
ishlarni xatti-harakat (daxl) qilmay yo'lga qo'yar,

<sup>8</sup> Donishmand odam – dao ta'limoti tariqatchilarining nazdidagi eng oliy ideal shaxs; lekin u konfutsiychilik ta'limotidagi «donishmand odam»dan mazmunan farq qiladi, Komil Inson; Lao-zi bu istilohga avliyo ma'nosini ham yuklagan.

<sup>9</sup> Xatti-harakat qilmay (daxl qilmaslik) – harakatning o'ziga xos turi, xitoycha «vu-vey», Lao-zi qo'llagan muhim



So'zlamasdan ma'rifat ulashar<sup>10</sup>  
 (donishmandning sukut qilishida ham hikmat bordir);  
 jamiki mavjudotlarning jonlanishiga qo'yib berar,  
 lek (shashtin) qaytarmas;  
 dunyoga keltirar, lek egallab olmas;  
 madad berar, lek minnat qilmas;<sup>11</sup>  
 jasorat ko'rsatar, lek pesh qilmas.  
 Modomiki jasoratlarin pesh qilmas ekan,  
 shuning uchun mahrum bo'lmas<sup>12</sup> (ziyon ko'rmas).

### 第三章

不尚贤，使民不争；  
 不贵难得之货，使民不为盗；  
 不见可欲，使民心不乱。  
 是以圣人之治，  
 虚其心，实其腹，弱其志，强其骨。  
 常使民无知无欲，使夫智者不敢为也。  
 为无为，则无不治。

### III

Qobiliyatli ham fazilatli kishilarni hadeb boshqalardan ustun ko'ravermasang,  
 odamlar ham ziddiyatga bormasdilar (*shuhrat-martaba talashmaydilar*);  
 yetishmoq mushkul bo'lgan matohlarni qadrlayvermasang,  
 odamlar ham o'g'ri-qaroqchilik qilmasdilar;  
 hirsni qo'zg'ovchi narsalarni ko'rsatmasang.

tushunchalardan biri, ba'zi tarjimalarda «faoliyatsizlik» deb talqin qilinadi. Lao-zi nazarda tutgan «harakatsizlik» hech narsa qilmaslik emas, bil'aks, insoniylikka zid, tabiiy irodaga yot, qalblarimizni bo'g'adigan, inson tabiatini bulg'aydigan, badnom qiladigan jirkanch ishlarni qilmaslikdir, ya'ni, oddiygina qilib aytganda, insoniylikka daxl qilmaslik, olam bilan o'zaro ixtiologa bormaslik, bir so'z bilan aytganda, «uyilish»dir. Harakatsizlik – o'zboshimchalik qilmasdan, tabiat qonuniyatariga muvofiq harakat qilish, hamma narsaning tabiiy bo'lishi demak. Harakatsizlik Lao-zi va dao ta'limoti tarafдорлари yoqlab chiqqan o'ziga xos xulq-atvor mezoni, tirkchilik tarzi, shuningdek, Lao-zining falsafiy qarashi hamdir, u inson hayotining barcha sohalariga mos keladi deyiladi. Tushunmovchiliklardan saqlanish uchun biz tarjimalarimizda o'mi kelganda uni daxl qilmaslik deya qo'lladik.

<sup>10</sup> So'zlamasdan ma'rifat ulashar – doasizm ta'limotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, podshoh so'z bilan nasihat qilmay, o'z axloq-fazilatdari bilan xalqqa o'mak bo'lishi kerak, ana shundagina sultanatda chin ma'nodagi osoyishtalik bo'ladi.

<sup>11</sup> Ikkinci xil tarjimas: «Berganin minnat qilmas».

<sup>12</sup> Ayrim tadqiqotchilar «ko'rsatgan jasoratlaridan mahrum bo'lmaydi» desalar, boshqalari «xalqning qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lmaydi» degan fikri ilgari suradilar.



odamlarning ko'ngliga g'ulg'ula tushmasdi.  
 Binobarin donishmand odamning yo'rig'i shundayki,  
 ko'nglin bo'shatib (*qalblarini poklab*), qornin to'ldirar;  
 (*odamlar ko'nglidan g'amni yo'q qilar, qorinlarini to'q qilar*)  
 mayllarini zaiflashtirib,  
 suyaklarini kuchaytirar (*jism-u ruhini toblaydi*).  
 Doim odamlarni mahmadanalik qilishdan va nafslarini tiyib tursang,  
 aqlilar o'zboshimchalik qilishga botinolmasdi.  
 Xatti-harakat (daxl) qilmay bajara (boshqara) olsang,  
 unda beboshliklar ham bo'lmaydi.

#### 第四章

道冲，而用之或不盈。  
 深兮，似万物之宗；  
 挫其锐，解其纷，和其光，同其尘；  
 湛兮，似或存。  
 吾不知谁之子，象帝之先。

#### IV

Dao Buyuk Sabr Kosadir, holingga yarar, to'lmas hech qachon  
 (*Dao Bo'shliqdir, lek ishlatib ado qilolmassan*),  
 Naqadar Tubsiz! Go'yo borliqning (*jamiki mavjudotning*) aslidir!  
 Damini qaytar, g'avg'osidan qutul,  
 nurini so'ndir, xoki-turob bo'l.  
 (*Nafsning keskir*) damin qaytar (*shashtini sindir*),  
 g'avg'osidan xalos bo'l (*araz-adovatlarni arit*),  
 nurini so'ndir (*shon-shavkatdan o'zingni tort*),  
 xoki-turob bo'l (*kamtar bo'l*).  
 Naqadar G'oyibona! Tag'in go'yo mavjudek.  
 U kimning surriyoti (*nasli*) ekanin bilmasman  
 (*men uning qayerdan paydo bo'lganini bilmayman*),  
 go'yo Falak Hukmdorining<sup>13</sup> ajdodidek.<sup>14</sup>

<sup>13</sup> Har xil bo'limg'ur xayollardan tozalaydi. Bu yerda «ko'ngil» deyilganda miya va tafakkurga ishora bor, chunki o'sha davrda yurakka (qalb, ko'ngilga) tafakkur qiluvchi a'zo sifatida qaralgan.

<sup>14</sup> Falak Hukmdori – Osmon hukmdori, Osmon ilohi; ma'bud, iloh.





## 第五章

天地不仁，  
以万物为刍狗；  
圣人不仁，  
以百姓为刍狗。  
天地之间，  
其犹橐籥乎？  
虚而不屈，  
动而愈出。  
多言数穷，  
不如守中。

## V

Osmon-u Zamin uchun rahmdillik (*ko'ngilchanlik*) ahamiyatsizdir<sup>15</sup>,  
jamiki mavjudot uning uchun poxol kuchukcha, xolos.  
Donishmand odam uchun ham rahmdillik (*ko'ngilchanlik*) ahamiyatsizdir,  
olomon u uchun poxol kuchukcha, xolos.<sup>16</sup>  
Osmon-u Zamin orasi – u xuddi damqopchiqqa<sup>17</sup> o'xshamasmi?  
Bo'shliq esa-da, lek sira ado bo'lmaydi;  
harakatga kelgani sayin shunchalik (*hayot nafasini*) ufuradi.  
Ko'p gapirgan ko'p pand yer;  
mo'tadillikni saqlagan afzaldir!<sup>18</sup>

## 第六章

谷神不死，  
是谓玄牝。  
玄牝之门，  
是谓天地根。  
绵绵若存，  
用之不勤。

<sup>15</sup> Ya'ni borliq paydo bo'lishidan ham avval Dao mavjud edi, U mavjudi avvaldir.

<sup>16</sup> Hissiyotlarga, ehtiroslarga berilmas, hammaga birdek demoqchi.

<sup>17</sup> Poxol kuchukcha – qadimgi Xitoya: poxoldan eshib tayyorlangan kuchuk shakli, u Osmon va Zaminga qurbanlik paytida foydalanish uchun maxsus yasalgan, marosim tugagach, tashlab yuborilgan. Xitoyning «Uch podsholik xotiralari» kitobida shunday qayd etilgan: «Poxol kuchukchaki, ilohlarga qurbanlik buyumidir».

<sup>18</sup> Osmon-u Zamin jamiki mavjudotga, Donishmand odam olomonga ko'ngil qo'ymas.

## VI

Dara Muakkili<sup>19</sup> boqiydir,  
 Sirli Karomat Moda<sup>20</sup> (Onalik) deyilgay.  
 Karomat Moda qopqasi<sup>21</sup>  
 Osmon-u Zaminning ildizi (manbai, sarchashmasi) demakdir.  
 Sim-sim (muttasil) mavjud,  
 bitmas-tuganmasdir.

## 第七章

天长地久。  
 天地所以能长且久者，  
 以其不自生，故能长生。  
 是以圣人后其身而身先，  
 外其身而身存。  
 非以其无私耶！  
 故能成其私。

## VII

Osmon abadiy, Zamin azaliy.  
 Osmon va Zamin shuning uchun ham abadiy va azaliyki,  
 chunki ular o'zlar uchun mavjud emas,  
 shu bois boqiy mavjud.  
 Donishmand odam o'zini o'zgalardan keyinga qo'ygani uchun ham hammadan  
 oldindadir;  
 o'z jonining huzurini chetga surib qo'ygani uchun ham joni omondir.  
 Bu uning beg'arazligidanmasmi?!  
 Shunday qilib, murodi hosil bo'lgay.

## 第八章

上善若水。  
 水善利万物而不争，

<sup>19</sup> Dara muakkili (ilohi, ruhi) – Xitoyning Chin sulolasidan oldingi madaniy tarixini tadqiq qilish va qadimiy kitoblar matnini solishtirib tuzatish ishlari bilan shug'ullangan mutaxassis Gao Xengning (1900 – 1986) ta'kidlashicha, «dara muakkili» (dara ruhi) degani Daoning boshqa nomidir. Qadimgi xitoy qomusiy lug'ati «Er-ya»da bu istiloh «yaratmoq, dunyoga keltirmoq, tug'moq» ma'nolariga ega. Shulardan xulosa qilish mumkinki, Dao – bu buyuk yaratuvchi qudrat.

<sup>20</sup> Moda – urg'ochi, onalik; bu yerda Daoning jamiki mavjudotlarni dunyoga (vujudga) keltirishiga ishora, ya'ni bitmas-tuganmas yaratuvchanlik qudratiga ega Daoga ishora qilinmoqda. Donishmandning fikricha, Dao olamdag'i jamiki mavjudotlarni yaradti, ularni yaratish chog'i Dao beun va betindir.

<sup>21</sup> Karomat Moda qopqasi – ayollik jinsi, hazna, qin; bu yerda jamiki mavjudotlarni vujudga keltiradigan Dao nazarda tutilmoxda.



处众人之所恶，故几于道。

居善地，

心善渊，

与善仁，

言善信，

正善治，

事善能，

动善时。

夫唯不争，故无尤。

## VIII

Eng ulug' ezgulik bamisoli (barakotli) suv kabitdir.  
 Suv borliqqa (jamiki mavjudotga) baraka olib keladi,  
 ular bilan hech narsani talashmaydi,  
 odamlar irganadigan puchmoqlarga oqib borib to'xtaydi,  
 shuning uchun ham Daoga yaqin kelgan.  
 (Ulug' ezgu insonlar) yashashga joy tanlashni yaxshi biladi,<sup>22</sup>  
 qalbini teran saqlashni yaxshi biladi,  
 o'zgalarga mehribon bo'lishni yaxshi biladi,  
 va'daga vafo qilishni yaxshi biladi,  
 to'g'rilik bilan idora qilishni yaxshi biladi,  
 ishni uddalashni yaxshi biladi,  
 harakatning mavridini yaxshi biladi.  
 (Yashash yaxshi joyi bilan go'zal;  
 qalb teranlik bilan go'zal;  
 saxovat himmati bilan go'zal  
 (mehr ulation bilan go'zal);  
 va'da vafosi bilan go'zal;

## 第九章

持而盈之，不如其已；

揣而锐之，不可长保。

金玉满堂，莫之能守；

富贵而骄，自遗其咎。

功遂身退，天之道也。

<sup>22</sup> Ushbu jumlada «Ezgu kishilar (yaxshilarning a'losi) istiqomat qilgan yerlar obod bo'lur» degan ma'no ham mujassam.



## IX

Tutganini limmo-lim to'ldirgandan ko'ra mavridida to'xtatgan afzal  
 (nafsn qondirishdan o'zni to'xtatgan afzal).  
 Urib o'tkirlangani uzoqqa bormas.<sup>23</sup>  
 Garchi uy to'ladir tilla-javohirga,  
 Saqlash nasib etmamish hech kimga.  
 Boylig-u obro'ying bilan kibrlanganing –  
 o'zingni baloga duchor qilganing.  
 Muvaffaqiyat qozongach o'zi uzlatga chekinish (o'zini chetga olish) – bu Samoviy  
 Daoga xos(lik)dir (Samoviy Hidoyatdir).  
 (Jasorati – inoyati,  
 Kokisorlik – fazilati,  
 bu Falakning Hidoyati!)

## 第十章

载营魄抱一，能无离乎？  
 专气致柔，能如婴儿乎？  
 涤除玄鉴，能无疵乎？  
 爱民治国，能无为乎？  
 天门开阖，能为雌乎？  
 明白四达，能无知乎？  
 生之畜之。  
 生而不有，  
 为而不恃，  
 长而不宰，  
 是谓“玄德”。

## X


Ruh va jon<sup>24</sup> Birga<sup>25</sup> qovushib,  
 ayrilmaydigan bo'lish mumkinmi?<sup>26</sup>

<sup>23</sup> Majburlikdan qilingan narsa uzoqqa bormaydi.

<sup>24</sup> Jon deyilganda jism, tan ham nazarda tutilgan.

<sup>25</sup> Bu yerda «Bir (butunlik)» Daoga ishoradir. Ya'nii tan va ruh Yagona Daodan ekaniga ishora. Dao bilan qovushgan ruh va tan zavol topmasligiga, umrboqiylikka ham ishora bor.

<sup>26</sup> Ushbu jumlada ruh va jism bir butunligini saqlashga da'vat etilgan, lekin buni ko'pchilik eplolmasligiga ham ishora mavjud.





Quvvai moya to'planib mayinlikka evrilib,  
 misoli bir go'dakdek bo'lish mumkinmi?  
 Tilsimot Ko'zgusi<sup>27</sup> yuvib poklanib,  
 begard-benuqson bo'lish mumkinmi?  
 Xalqni sevib davlatni idora etib,  
 buni xatti-harakat (daxl) qilmay eplash mumkinmi?<sup>28</sup>  
 Samoviy (tug'ma) Darchalar<sup>29</sup> ochib-yopilganda  
 nazokatli bo'lish mumkinmi?  
 (hissiyotlar junbishga kelganda xotirjam bo'lish mumkinmi?)  
 Ko'p narsani tushunib yetganda,  
 bilarmonlik qilmaslikni eplash mumkinmi?<sup>30</sup>  
 (Dao) borliqdagi jamiki mavjudotni yaratadi (dunyoga keltiradi),  
 ularni parvarish qiladi;  
 jamiki mavjudot Daoning marhamati bilan tug'iladi (yaraladi),  
 lek Uning o'zi hech nima tama qilmaydi  
 (ularni biron narsaga ega bo'lish uchun yaratmagan, ya'ni Dao behojatdir!)  
 qilganlarini pesh qilmaydi (himmat etar, lek minnat etmas);  
 jamiki mavjudotlar Sarvaridir,  
 lekin ular ustlaridan hukmronlik qilmaydi,<sup>31</sup>  
 (Sarvari koinot, lek uning ustidan hukmronlik qilmaydi!)  
 bu Sirri Xosiyat demakdir.

第十一章  
 三十辐，共一毂，  
 当其无，有车之用。  
 塾埴以为器，

<sup>27</sup> Tilsimot ko'zgusi deganda inson qalbi nazarda tutilmoqda. Haqiqatni anglash uchun inson qalbi pok va sodda, ya'ni asl holida bo'lishi kerak.

<sup>28</sup> Davlatni xatti-harakat (daxl) qilmay idora etish – bu daosizm ta'lilotining muhim tushunchalaridan biridir, risolada bir necha bor uchraydi, u tabiat qonunlariga daxl etmasdan, Dao (buyuk yaratuvchi qudrat) irodasiga bo'ysungan holda elni idora qilish deganidir. Qilingan har qanday xatti-harakat tabiiylikka putur yetkazadi, bu esa Dao tamoyillariga ziddir. Dao ta'lilotidagi chinakam xatti-harakat (daxl) qilmaslik darajasiga avliyo kishilar yetushi mumkin.

<sup>29</sup> Samoviy darchalar – odamdagisi Xudo tomonidan ato etilgan sezgi a'zolari bo'lmish ko'z, quloq, og'iz va burun bo'shilqlari, «Qadimgi xitoy tili lug'ati»da faqatgina «burun teshiklari» (kataklari) deya izoh berilgan; ularning «ochib-yopilishi» deganda tashqi olam bilan hayotiyga kirishishi hamda hissiyot nazarda tutilgan.

<sup>30</sup> Qadimgi xitoy tili matniga asoslanib bu jumlani o'zbek tiliga boshqacharoq tarjima qilish ham mumkin: «Hamma narsa ochiq-oydin turganda bilmaslik mumkinmi?» Lekin bu asl matndan kelib chiqib ilgari surilgan bir faraz, xolos.

<sup>31</sup> Yana bir qarashga ko'ra: «(Dao) barchadan ulug', lekin (ular ustidan) hukmronlik qilmaydi»; boshqasida: «(Dao) jamiki mavjudotning rahnamosidi, lekin ular ustidan hukmronlik qilmaydi».

当其无，有器之用。  
 凿户牖以为室，  
 当其无，有室之用。  
 故有之以为利，  
 无之以为用。

## XI

G'ildirakning o'ttizta kegayi  
 hammasi bir gupchakka yig'ilar,  
 (gupchakning) o'rtasi yo'q<sup>32</sup> (bo'shliq) bo'lgani uchun  
 aravaning keragi (ahamiyati) bordir;  
 gilni qorib idish yasaydilar,  
 (idishning) o'rtasi yo'q<sup>32</sup> (bo'shliq) bo'lgani uchun  
 idishning keragi (ahamiyati) bor;  
 eshik-deraza ochib uy quradilar,  
 (eshik-deraza) ichi (to'rt devor orasi) yo'q (bo'sh, bo'shliq) bo'lgani uchun  
 uyning keragi (ahamiyati) bor.  
 Shunday ekan, borlik uning nafi bo'lsa,  
 yo'qlik uning hajatidir.

## 第十二章

五色令人目盲，  
 五音令人耳聋，  
 无味令人口爽，  
 驰骋畋猎，令人心发狂，  
 难得之货，令人行妨。  
 是以圣人为腹不为目，  
 故去彼取此。

## XII

Besh xil rang<sup>33</sup> odamlarning ko'zlarini ko'r qiladi;

<sup>32</sup> Bu yerda g'ildirak gupchagini o'rtasidagi o'q o'tishi uchun mo'ljallangan teshikning ichi bo'sh (yo'q)ligi nazarda tutilgan.

<sup>33</sup> Idishlarning, masalan, ko'za yoki choynakning ichi bo'sh, shuning uchun ham ahamiyatlari (turmushimizga yaraydi). Yuqorida shunga ishora.

<sup>34</sup> Besh rang – moviy, sariq, qizil, oq va qora. Bu yerda turfa xil ranglar, rang-baranglik haqida gap ketmoqda, ularning odamlar ko'zini olishiga, ularga qaraganda odamlar ko'zi o'ynab ketishiga ishora.





besh xil ohang<sup>35</sup> odamlarning quloqlarini kar qiladi;  
 besh xil ta'm<sup>36</sup> odamlar og'iz sezgisini o'ldiradi;  
 ot choptirib, ov ovlab tarallabedod qilib yurish  
 odamlar qalbini jazavaga soladi<sup>37</sup>  
 (odamlar ko'nglini tiyiqsiz qilib qo'yadi);  
 yetishish qiyin bo'lgan narsalar  
 odamlarning yurish-turishiga putur yetkazadi.<sup>38</sup>  
 Shu bois donishmand odam  
 qorni to'ysa bo'lgani, ko'zlarini to'ydirishni o'ylamas;  
 shunga ular biridan voz kechib, boshqasiga ega bo'ladilar  
 (vasvasaga berilmay, qanoat qilib yashaydilar).

### 第十三章

宠辱若惊，贵大患若身。  
 何谓宠辱若惊？  
 宠为下，得之若惊，失之若惊，  
 是谓宠辱若惊。  
 何谓贵大患若身？  
 吾所以有大患者，  
 为吾有身，及吾无身，吾有何患？  
 故贵以身为天下，  
 若可寄天下。  
 爱以身为天下，  
 若可托天下。

### XIII

<sup>35</sup> Besh ohang – qadimgi xanzu (ya'ni xitoy) musiqasidagi besh (darajali) ohang, ular: «gong» – hozirgi oddiy notadagi «1» («do» – musiqiy gammaning birinchi notasi)ga to'g'ri keladi; «shang» – oddiy notada «2» («rye» – musiqiy gammaning ikkinchi tovushi va notasi)ga to'g'ri keladi; «jyue» – hozirgi oddiy notadagi «1», «2», «3», «5», «6» («do», «re», «mi», «sol», «lya» – musiqiy tovushlari va shu tovushlarni ifodalovchi notalar)ga to'g'ri keladi; «ej» – hozirgi oddiy notadagi «5» («sol» – musiqiy gammaning beshinchchi notasi)ga to'g'ri keladi; «yuy» – oddiy notadagi «6» («lya» – musiqiy gammaning oltinchi notasi)ga to'g'ri keladi. Bu yerda turli xil tovushlarga, ularning kishi quloqlarini qomatga keltirishi, eshitish qobiliyatini o'tmaslashtirishiga ishora.

<sup>36</sup> Besh ta'm – nordon, taxir, shirin, sho'r, achchiq. Bu yerda lazzatli yeguliklar nazarda tutilmoqda, ular odamlar og'zidagi ta'm bilish qobiliyatini shikastlaydi.

<sup>37</sup> Odamlar qalbini vasvas qilib qo'yadi.

<sup>38</sup> Odamlarning muttahamlik, g'alamislik qilishlariga sabab bo'ladи.




Sharaf va sharmandalik vahima kabi,  
 ulug' musibatni qadrла tan-jondek.  
 Sharaf va sharmandalik vahima kabi – bu ne demak, o'zi?  
 Sabil qolgur sharaf,  
 unga erishmoqdan hayiqarsan goh,  
 uni yo'qotmoq ham hukitar seni.  
*(unga erishmoqning o'zi bir vahma,  
 undan ayrilsang ham, bosar vahima.)*  
 Sharaf va sharmandalik vahima kabi – mana, ne demak!  
 Ulug' musibatni (*qazoi kabirni*) ham qadrла jism-u joningdek – bu ne demak?  
 Boshimda bor ulug' musibat, qazo,  
 menda bor-chun jism-u jon illo;  
 agar jism-u jonim bo'lmasa mening,  
 axir qaydan menda musibat, jafo?!

Ulug' musibatni ham qadrла jism-u joningdek – mana, ne demak!  
 Shu bois sultanatni o'z jism-u jonidek qadrlaguvchi insonga  
 sultanatni topshirmoq mumkin ishonib.  
 kimki osmonostidagilarni o'z jism-u jonidek sevsа,  
 sultanatni unga havola qilish mumkin.

#### 第十四章

视之不见，名曰夷；  
 听之不闻，名曰希；  
 搏之不得，名曰微。  
 此三者不可致诘，故混而为一。  
 其上不皦，其下不昧，  
 绳绳兮不可名，  
 复归于无物。  
 是谓无状之状，  
 无物之象，是谓惚恍。  
 迎之不见其首，  
 随之不见其后。  
 执古之道，以御今之有。  
 能知古始，是谓道纪。





Unga qarasang-da, ko'rolmaysan,  
 ko'rinas (shaklsiz) deb atalgay<sup>39</sup>;  
 Unga qulq solsang-da, eshitolmaysan,  
 eshitilmas (sassiz) deb atalgay;  
 Uni tutmoq bo'lsang-da, erisholmaysan,  
 sezilmas (jismsiz) deb atalgay.<sup>40</sup>  
 Bu uchchovin surishtirib tagiga yetib bo'lmaydi,  
 chunki ular, aslida, qo'shilib Bir butun bo'lib ketgan.<sup>41</sup>  
 Uning usti yorqin emas, osti ham qorong'i emas;  
 u shu qadar quralib payvasta bo'lib ketganki,  
 so'z bilan ta'riflab bo'lmas,  
 jismsiz holatiga (shakl-u shamoyilsizlikka) qaytadi.<sup>42</sup>  
 Bu shaklsiz shakl demakdir;  
 u jismsiz bir timsolki,  
 g'ira-shira, elas-elas narsa demakdir.  
 Unga peshvoz chiqib boshini ko'rmagaysan,  
 uning ortidan ergashib oxirin ko'rmagaysan.  
 Azaliy Buyuk Daoda<sup>43</sup> sobitqadam bo'lsang,  
 bugungi borlik (jamiki narsa)ni tizginlagaysan<sup>44</sup>.

### 第十五章

古之善为士者，<sup>45</sup>  
 微妙玄通，深不可识。  
 夫唯不可识，故强为之容：  
 豕兮若冬涉川；  
 犹兮若畏四邻；  
 僻兮其若客；

<sup>39</sup> Xitoy tilidagi asl variantda «i» so'zi ishlatilgan, bu istiloh daosizm (tariqatchilik)da shaklsiz, hidsiz va tutib bo'lmaydigan narsani anglatadi. Ba'zi tadqiqotchilar «shaklsiz» o'miga «rangsiz»ni ishlatishgan.

<sup>40</sup> Ko'z bilan ko'rib bo'lmaslik, qulq bilan eshitib bo'lmaslik, qo'l bilan tegib ushlab bo'lmaslik – bu yerda gap Dao haqida ketmoqda, inson ko'zlarini uni ko'rishga, qulqlari eshitishga, qo'llari ushlab ko'rishga qodir emas. Agar Daoning shakl-u shamoyili, ovozi va jismi bo'lganida, u abadiy Dao bo'lmay qolardi.

<sup>41</sup> Bu jumlada ham «bir» so'zi Daoni anglatadi.

<sup>42</sup> Ya'ni Daoning suvratu, jismi yo'q demoqchi, borliq suvratsiz Daodan paydo bo'ldi va yana unga qaytadi.

<sup>43</sup> Daoning boshlang'ich nuqtasi.

<sup>44</sup> Idora qilish.

<sup>45</sup> Ayrim adabiyotlarda «古之善为道者» tarzida uchraydi: «土»ning o'miga «道» iyerogolfi.



涣兮其若冰之将释；  
敦兮其若朴；  
旷兮其若谷；  
混兮其若浊。  
孰能浊以静之徐清？  
孰能安以动之徐生？  
保此道者，不欲盈。  
夫唯不盈，故能敝而新成。

## XV

Qadimda Dao ulamolari ajib va g'aroyib, sirli va uquvli,  
tushunib bo'lmas darajada teran bo'lishgan.<sup>46</sup>  
Baayni aql bovar qilmas darajada bo'lganlari uchun ham  
zo'r-bazo'r tasvirlagaymiz  
(baholi qudrat ta'rifin keltirishga urinib ko'rgaymiz):  
(u) shunchalar ehtiyotkorki,  
go'yo qishda oyoqyalang daryodan o'tayotgandek;  
shunchalar hushyorki,  
go'yo to'rt tarafdag'i qo'shnilaridan hayiqayotgandek;<sup>47</sup>  
shunchalik sipo-vazminki,  
go'yo ziyofatning muhtaram mehmonidek;  
shunchalar bamaylixotirki,  
go'yo eriyotgan muz bo'lagidek;  
shunchalik oddiy-to'poriki,  
go'yo yo'nilmagan jo'n yog'ochdekk;  
shunchalar bag'rikengki,  
go'yo tog' darasidek;  
shunchalar g'ira-shiraki,  
go'yo loyqa suvdek.  
Kim ham loyqalikni halovat bilan  
asta-sekin musaffo qila olar?  
(Kim ham bulg'ançlik aro xotirjamlik ila o'zini pok saqlay olar?)  
Kim ham sukunat aro

<sup>46</sup> Ularni oddiy odamlar tushunishmagan.

<sup>47</sup> Bu yerda to'rt taraf qo'shnilar deganda atrofdagi qo'shni podshohliklar ham nazarda tutilgan.





evrilib ohista hayot kechira olar?  
 (Qalbida) Daoni saqlay olgan inson o'zidan qoniqmas,<sup>48</sup>  
 ko'ngli to'lmanligi bois ham ko'nani<sup>49</sup> yangilay olar.

### 第十六章

致虚极，守静笃。  
 万物并作，吾以观复。  
 夫物芸芸，各复归其根。  
 归根曰静，静曰复命。  
 复命曰常，知常曰明。  
 不知常，妄作凶。  
 知常容，容乃公，  
 公乃王，王乃天，  
 天乃道，道乃久，没身不殆。

### XVI

(Ko'ngil dunyoyi hoyu havaslardan) butkul xoli bo'lsagina halovatda yuksak maqomga yetgay.  
 Jamiki mavjudot baralla unib-o'sgay, men ularning qaytalanishlarini<sup>50</sup> kuzataman:  
 mavjudotlar g'uj-g'uj bo'lishib, har biri yana o'z ildiziga (asliga) qaytar,  
 ildiziga (asliga) qaytish halovat (osudalik) demak, halovatga cho'mish hayotga qaytish demak,  
 hayotga qaytish abadiyat<sup>51</sup> demak (Xudoning irodasiga qaytmoq abadiyat demak);  
 abadiyatni anglash donishmandlik demak.  
 Bu Abadiyat qonunin anglamasdan yengiltaklik qilish xosiyatsizdir;  
 Bu Abadiyat qonunin anglagan insongina chinakam bag'rikeng bo'la olgay,  
 bag'rikenglik qilsa xolis<sup>52</sup> bo'la olgay, xolislik qilsa to'kis<sup>53</sup> bo'la olgay,

<sup>48</sup> O'zidan ko'ngli to'lmas.

<sup>49</sup> Ko'narmoq – eskirmoq: aslida, ko'hna – eski, ko'proq so'zlashuvga xos.

<sup>50</sup> Davriy takrorlanish, hayot silsilasi.

<sup>51</sup> Abadiyat – mangulik mohiyati, abadiyat qonuniyati.

<sup>52</sup> Odil, insofli ma'nolari ham mujassam.

<sup>53</sup> Kamolga yetgan, mukammallikka ishora.

## 第十七章

太上，不知有之；  
 其次，亲而誉之；  
 其次，畏之；  
 其次，侮之。  
 信不足焉，有不信焉。  
 悠兮，其贵言。  
 功成事遂，百姓皆谓»我自然»。

## XVII

Hukmdorlarning eng sarasi shundayki,  
 xalq uning borligini sezmaydi;  
 undan quyiroq hukmdorga xalq yaqinlashadi ham maqtaydi;  
 yanada quyiroq hukmdorlardan esa xalq hayiqadi;  
 eng yomon hukmdorni xalq qarg‘aydi.  
 Samimiyat yetishmagan yerda ishonch yo‘qoladi.  
 (Kimniki bo‘lmagay vafosi,  
 Unga ham bo‘lgay bevafolik.)  
 Hukmdorlarning sarasi naqadar bamaylixotir,  
 qadrlagay har bir so‘zni ham.<sup>54</sup>  
 Ishlari ko‘ngildagidek amalga oshib, murodi hosil bo‘lgach,  
 odamlar hammasi: «Bizlar aslida ham shunday edik», – derlar.

## 第十八章

大道废，有仁义；  
 智慧出，有大伪；  
 六亲不和，有孝慈；  
 国家昏乱，有忠臣。

<sup>54</sup> Bu yerda so‘z deganda amr-u farmonlar nazarda tutilgan, ya’ni bo‘lar-bo‘lmas amr-u farmonlar chiqaravermas deyilmogda.





## XVIII

Buyuk Dao (Muazzam Haqiqat) unutilgach<sup>ss</sup>,  
 insonparvarlik va insof (haqida da'vatlar) paydo bo'ldi  
 (odamgarchilik va insofga da'vat qilish ehtiyoji paydo bo'ldi);  
 aql-u zakovat yuzaga chiqqach,  
 ulkan riyokorlik ham paydo bo'ldi;  
 olti qarindoshlar totuv (oila bahamjihat) bo'limgach –  
 ota-onas nomehribon,  
 farzand noqobil,  
 og'a-ini bemehr,  
 eru xotin noahil –  
 ana shunda qobillig-u mehribonlik paydo bo'ldi;  
 el-u yurtni notinchlik chulg'aganda  
 sadoqatli a'yonlar paydo bo'ladi.

## 第十九章

绝圣弃智，民利百倍；  
 绝仁弃义，民复孝慈；  
 绝巧弃利，盗贼无有。  
 此三者，以为文不足，  
 故令有所属，  
 见素抱朴，少私寡欲。

## XIX

Aqlilik (*mahmadanalik*)ni bas qilsalar,  
 odamlarning o'zlariga yuz karra foyda.  
 Rahmdillik va insof yuzasidan qilishni tashlasalargina  
 odamlar qobillik va mehribonliklariga<sup>\*x</sup> qaytadilar.  
 Ustomonlikdan voz kechib, manfaat(parastlik)ni tashlasalar,  
 qaroqchi-o'g'rilar ham bo'limgay.  
 Bu uchchovi kamchiliklarni bezab ko'rsatishgadir, xolos,  
 elni idora qilmoqqa yaramas.

<sup>ss</sup> Ülug' Haq Yo'l – Daodan yurmay qo'yilgach, jamiyatda odamgarchilik va insof haqidagi da'vatlar ko'payadi, agar Daodan yurilganida, bunga ehtiyoj bo'lmas edi.

<sup>\*x</sup> Ota-onaga qobillik va ota-onaning farzandga mehribonligi – bular insonning tug'ma tabiatidandir, agar odamgarchilik va insof yuzasidan qilishni tashlasalargina tabiiy qobillik va mehribonlikka qaytiladi.



Shu bois asli qanday bo'lsang – shunday bo'l!  
Aslingni saqla, oddiy-sodda bo'l;  
hoyu havaslarni kamaytir.”<sup>57</sup>

## 第二十章

绝学，无忧。  
唯之与阿，相去几何？  
美之与恶，相去若何？  
人之所畏，不可不畏。  
荒兮，其未央哉！  
众人熙熙，  
如享太牢，如春登台。  
我独泊兮，其未兆；  
沌沌兮，如婴儿之未孩；  
儡儡兮，若无所归。  
众人皆有余，而我独若遗。  
我愚人之心也哉！沌沌兮！  
俗人昭昭，我独昏昏。  
俗人察察，我独闷闷。  
澹兮，其若海；  
飁兮，若无止。  
众人皆有以，  
而我独顽似鄙。  
我独异于人，而贵食母。

## XX

Bid'atlardan voz kechilsagina g'am-kulfatlar bo'lmas!  
«Ey»<sup>58</sup> bilan «hm»ning<sup>59</sup> farqi qanchalik?  
(Hurmat bilan malomatning orasi qancha?)  
Ezgulik bilan yovuzlikning orasi qancha?

<sup>57</sup> Nafsingni tiyib tur.

<sup>58</sup> «Ey» – chaqirganda yoshlarning kattalarga javob tovushi, xo'p deyish, rozilik, unashlik, ma'qullah, maqtov, tahsin, hurmat bilan javob berish ma'nolarini anglatdi.

<sup>59</sup> «Hm» – chaqirganda kattalarning kichi klarga javob tovushi, bepisandlik, behurmatlik belgisi hisoblangan.





Odamlar qo'rqqanidan qo'rqa masab bo'lmas.  
 Azal-azaldan shundoq, uning adog'i yo'qdek!  
 Barcha odamlarning kayfi chog',  
 xuddi shohona ziyo fatdan bahramanddek,  
 xuddi bahor chog'i ko'shkka chiqib,  
 ajib manzaradan sarxush – jonsarak.  
 Yolg'iz meninggina parvoym falak,  
 yo'qdir alomat;  
 ovsar-no'noqman  
 go'yo hali qiqirlab kulishni ham bilmaydigan bir go'dak kabi;  
 sarson-sargardonman,  
 go'yo boshpanasiz bir darbadar.  
 Odamlarning barchasida ortig'i bilan bo'lsa,  
 yolg'iz menda go'yo chaladek.  
 O, mening telba<sup>40</sup> yuragim! Ovsar-no'noqsan!  
 (Mening faqat birgina telbalardek yuragim bordir, xolos!)  
 (O, mening telba yuragim! Go'l-u lodonsan!<sup>41</sup>)  
 Dunyoyi odamlar – barcha ro'shnolikdadir,  
 yolg'iz mengina g'ira-shiralikda bir to'pori kimsa.  
 (Barchaga ravshan-u ayon haqiqat,  
 yolg'iz menga go'yo bari qorong'i!)  
 Dunyoyi odamlar sinchkov ham pishiq,  
 yolg'iz menman g'o'r va anoyi.  
 Naqadar osuda, xuddi bahri bepoyondek;  
 darbadar kezaman shiddatli shamol kabi – besar-u betin!  
 Odamlarning qo'llaridan ko'p ishlar kelar,  
 yolg'iz men nodonman ham noshud banda.  
 Mening birgina o'zgalardan farqim<sup>42</sup> –  
 jamiki mavjudotlarni rizqlantiruvchi Onani<sup>43</sup>  
 hamma narsadan aziz bilganimdadir!

<sup>40</sup> Telba – go'l, to'pori odam, bu so'zni to'g'ri va yuzaki ma'noda tushunmaslik kerak; Lao-zi bot-bot tilga olgan telba bu dunyoyi odamlardan farq qiladigan buyuk insondir, uning asosiy sifatlari soddalik, oddiylik, tabiiylikdir. U dunyo ishlaridan yaxshi xabardor, odamgarchilikni tushunadi, hayot haqidagi tushunchalari esa dunyoyi odamlarnikidan anche yuksak. Telba – Lao-zi idealidagi insonlardan biridir.

<sup>41</sup> Lodon – so'zlashuvga oid: nodon.

<sup>42</sup> «Farq» deganda ustunlik, afzallikka ishora.

<sup>43</sup> Ona – bu yerda jamiki mavjudotning yaratuvchisi bo'lmish barchaga rizq berguvchi Dao, u hayotiylik manbaidir.



## 第二十一章

孔德之容，惟道是从。  
道之为物，惟恍惟惚。  
惚兮恍兮，其中有象；  
恍兮惚兮，其中有物；  
窈兮冥兮，其中有精，  
其精甚真，其中有信，  
自今及古，其名不去，以阅众甫。  
吾何以知众甫之状哉？以此。

## XXI

Buyuk De (Xosiyat) tajassumi yolg'iz Daodandir! (Dao faqatgina o'z Xosiyatlari bilan namoyon bo'ladi!)

Dao shundayin Mavjudki,  
elas-elas, g'ira-shiradir.  
Shunchalar elas-elas, shunchalar g'ira-shiraki,  
uning ichida suvrat mujassamdir.  
(Buyuk Siyrat ichra suvrat mujassam.)  
Shunchalik g'ira-shira, shunchalik elas-elaski,  
uning ichida turfa narsalar mujassamdir.  
Shunchalik teran, shunchalik pinhoniysi,  
uning ichida javhar<sup>64</sup> majassam;  
javhari g'oyat chinakamdir,  
uning ichida haqiqat nishonasi mujassam.  
Bugundan to azal-azalgacha  
uning nomi abadul-abad yo'qolib ketmas,  
uning bilangina borliqning ibtidosiga razm solish mumkindir.  
Borliq ibtidosining ahvolotin kamina qaydan bilurman?  
Baayni Daodan.<sup>65</sup>

## 第二十二章

曲则全，枉则直，  
洼则盈，敝则新，

<sup>64</sup> Bu yerda eng kichik zarra.

<sup>65</sup> Dao orqali olamni anglash mumkinligiga ishora.





少则得，多则惑。  
是以圣人抱一为天下式。  
不自见，故明；  
不自是，故彰，  
不自伐，故有功；  
不自矜，故长。  
夫唯不争，故天下莫能与之争。  
古之所谓曲则全者，岂虚言哉？  
诚全而归之。

## XXII

*Qayishgan butun bo'lar;  
egilganni to'g'rilasa bo'lar;  
chuqurni to'ldirsa bo'lar;  
eskini yangilasa bo'lar;  
kamsuqum murodiga yetar;  
ko'pning payida bo'lgan (ochko'zlar) gumroh bo'lar.  
Inchunin, donishmand odam ko'ngliga Daoni tugib,  
Osmonostidagilarga ibrat bo'lar.  
O'zini (bilarmon qilib) ko'rsatmas – bu uning donoligidandir;  
o'zini haq deb turib olmas, bil'aks, haqiqatni oydinlashtirar;  
lof urmas, bil'aks, jasorat ko'rsatar;  
kibrlanmas, shuning uchun uzoq yashar.  
Hech kim bilan tortishmas,  
shuning uchun Osmonostida ham hech kim u bilan tortisholmas.  
Burungilarning «Qayishsang – butunsan» degan naqli  
qanday qilib quruq gap bo'lishi mumkin axir?!  
Chindan-da butunlay unga qaytilur.  
(Haqiqiy mukammallik U (Dao)ning o'zigagina xosdir.)*

## 第二十三章

希言自然。  
故飘风不终朝，  
骤雨不终日，  
孰为此者？  
天地。

“Maqtanmas; o'zini ko'z-ko'z qilmas.



天地尚不能久，  
而况于人乎？  
故从事于道者，同于道，  
德者同于德；  
失者同于失。  
同于道者，道亦乐得之；  
同于德者，德亦乐得之；  
同于失者，失亦乐得之。  
信不足焉，有不信焉！

## XXIII

Nodir kalom tabiatga uyg'undir!<sup>67</sup>  
 Shuning uchun bo'ronning suroni tonggacha bo'lmas,<sup>68</sup>  
 jala kun bo'yil quymas.<sup>69</sup>  
 Kim qilar bularni?  
 Osmon va Zamin.  
 Hatto Osmon bilan Zamin aro hech narsa abadiy emas  
 (osmon va zamin aro barchasi o'tkinchidir),  
 inchunin, Odamzodga yo'l bo'lsin!  
 Shuning uchun o'zini Daoga bag'ishlagan kishi borki,  
 Dao ham hamisha u bilan birgadir,  
 o'zini De (Xosiyat)ga bag'ishlagan kishi borki,  
 De (Xosiyat) ham hamisha u bilan birgadir.  
 Gumrohlar esa gumrohlik bilan birgadir.  
 Hamisha Dao bilan birga bo'lgan kishiga  
 Dao ham bajonidil yetishgay (inoyat qilgay);  
 (Doimo Dao bilan birga bo'lguvchi kishilar Uning inoyatidan masrurdirlar.)  
 Hamisha De bilan birga bo'lgan kishiga  
 De (Xosiyat) ham bajonidil yetishgay.  
 (Doimo De bilan birga bo'lguvchi kishilar (Daoning) Xosiyatidan masrurdirlar.)  
 Gumrohlik bilan birga bo'lguvchi kimsalar  
 o'z gumrohliklaridan ham quvonib yurarlar.  
 Samimiyat yetishmagan yerda ishonchsizlik paydo bo'ladi.

<sup>67</sup> Nodir kalom – bu bo'lar-bo'lmas amr-u farmonlardan tiyilish, shu yo'sin xalqni ovora qilmaslik tabiatga uyg'un jihatdir. Shuningdek, Lao-zu ham so'z-kalomga muqaddas narsa sifatida qaraydi, shuning uchun faqatgina kerakli so'zlarni aytishga, keraksiz joyda tilni tiyishga chaqiradi.

<sup>68</sup> Kuchli shamol tez tinishiga ishora.

<sup>69</sup> Bu yerda: Lao-zu bo'ron va jala misolida zolimona hukmronlik, istibdodga ishora qilmoqda.





## 第二十四章

企者不立；  
跨者不行；  
自见者不明；  
自是者不彰；  
自伐者无功；  
自矜者不长。  
其在道也，曰余食赘形。  
物或恶之，故有道者不处。

## XXIV

(Baland bo'laman deb) oyoq uchida turgan muvozanatin saqlolmas;  
(Tez yuraman deb) katta qadam tashlagan uzoqqa borolmas;  
O'zini ko'z-ko'z qilgan nodondir;  
faqat o'zini haq deb bilgan betayindir;<sup>70</sup>  
o'zini maqtaguvchi noshuddir;  
o'ziga bino qo'ygan uzoqqa bormas.  
Bu (hovliqmalik va maqtanchoqlik kabi) qilg'iliklar, Dao nuqtai nazarida,  
«sarqit ovqat-u oshiqcha et» demak."  
Odamlar hazar qiladigan narsalardir,  
shu bois qalbida Dao bo'lgan (taqvodor) inson aslo bunday qilmas.

## 第二十五章

有物混成，先天地生。  
寂兮寥兮，独立而不改，  
周行而不殆，  
可以为天地母。  
吾不知其名，强字之曰：道；  
强为之名曰：大。  
大曰逝，逝曰远，远曰反。  
故道大，天大，地大，人亦大。

<sup>70</sup> O'zini har doim haq sanaguvchi kimsalar rost-u yolg'onning farqiga bormaydigan farosatsiz betayin kimsalardir.

<sup>71</sup> Ovqatning ortib qolishi, sarqitga chiqarib tashlash – isrofgarchilik, oshiqcha et – haddan ko'p yeb semirib ketish. Bu ikkisini odamlar xushlamaydi. Lao-zi ushbu jumla orqali odamlarni bu kabi illatlardan tiyilishga da'vat etmoqda.

域中有四大，而人居其一焉。  
人法地，地法天，天法道，道法自然。

## XXV

Quralib Bir Butun bo'lgan Mavjud borki,  
U Osmon-u Zamindan avval ham bo'lgan.  
O, U sassiz (*unsiz*), shakl-u shamoyilsiz (*bo'shliq*)!  
U Tanho (*mustaqil turur – hech narsaga boqim emas*) va Qoim (*o'zgarmas*)!  
Azaldan aylanib (*takrorlanib*) tursa ham, aslo holsizlanmas (*tin olmas*).  
Uni Osmon-u Zaminning Onasi (*manbai*) deyish mumkin.  
Men uning asl Nomin bilmasman,  
baholi qudrat bir so'z bilan uni Dao deb atayman,  
tag'in baholi qudrat Uning Nomini Buyuk degayman.  
Buyuk – bu muttasil harakatda demak,  
muttasil harakatda – bu olislarga uzayib ketgan demak,  
olislarga uzayib ketgan – bu yana qaytadi demak.  
Shu bois Dao buyuk,  
Osmon buyuk,  
Zamin buyuk,  
Inson-da buyuk.  
Olamda shu to'rtov buyuk bor,  
Inson esa ulardan biridir, xolos.  
Inson Zamindan ulgi olar,  
Zamin Osmondan o'rnak olar,  
Osmon Daodan ibrat olar,  
Dao qonuniyati tabiiy shundaydir.<sup>72</sup>

## 第二十六章

重为轻根，静为躁君。  
是以君子终日行不离辎重，  
虽有荣观，燕处超然。  
奈何万乘之主，  
而以身轻天下？  
轻则失根，躁则失君。

<sup>72</sup> Daoga hech narsa o'rnak bo'lolmaydi, u o'z tabiiy holati bilan barchadan yuqoridir.





## XXVI

Og'irlilik (bosiqlik) – yengillik (yengiltaklik) ildizi,<sup>73</sup>  
 Xotirjamlik hovliqmalik shohidir.  
 Shuning uchun ham donishmand odam  
 kun bo'yи yursa-da, kerakli yukidan ajralmas.  
 Garchi Sharaf qasri<sup>74</sup> bo'lsa ham,  
 o'zining halovatgohida tinchgina umrguzaronlik qilar.  
 Qanday qilib o'n ming chog'li jang aravalis<sup>75</sup>  
 katta davlat podshohi bo'la turib  
 tag'in yengiltaklik va hovliqmalik bilan sultanatni idora qilish mumkin?  
 Yengiltak bo'lsa ildizidan ayrilar,  
 Hovliqsa shohligidan ajralar.

## 第二十七章

善行，无辙迹；  
 善言，无瑕谪；  
 善数，不用筹策；  
 善闭，无关键而不可开；  
 善结，无绳约而不可解。  
 是以圣人常善救人，故无弃人；  
 常善救物，故无弃物。  
 是谓袭明。  
 故善人者，不善人之师；  
 不善人者，善人之资。  
 不贵其师，不爱其资，  
 虽智大迷，是谓要妙。

## XXVII

Yurishni yaxshi bilgan izvoshchi iz qoldirmas;  
 so'zlashni yaxshi bilgan ayb topishlariga imkon qoldirmas;

<sup>73</sup> Yengiltaklikni og'ir-bosiqlik bilan boshqarish mumkin, chunki u ildiz – asosiydir.

<sup>74</sup> Hashamatli qast, saroy – bu yerda aslzodalar o'yin-kulgi qiladigan joy ma'nosida, serhasham hayot tarziga ishora.

<sup>75</sup> Qadimgi Xitoyda davlatning kattaligi uning jang aravalari soni bilan belgilangan, bu jumlada katta podsholikka ishora.



hisobni yaxshi bilganga sanoq cho'pning keragi bo'lmas;  
yopishni yaxshi bilgan tambasiz berkitgan eshikni ham ochib bo'lmas;  
bog'lashni yaxshi bilgan arqonsiz tukkanini ham yechib bo'lmas.  
Donishmand doim odamlarni qutqarishga mohirdir,  
shu sabab, uning nazdida, tashlandiq kishi bo'lmas;  
hamma narsani doim o'z o'rnila ishlatishni yaxshi bilar,  
shu sabab, uning nazdida, tashlandiq (*nokerak*) narsa bo'lmas.  
Buni botiniy donishmandlik degaylar.  
Shuning uchun yaxshi odamlar yomon odamlarga ustoz bo'lsa,  
yomonlar yaxshilar uchun ibratdir.  
Ustozin qadriga yetmaslik,  
ibrat olishni ep ko'rmaslik,  
garchi dona sanar o'zin, lek bu ishi g'irt gumrohlik.  
Bu teran va nozik haqiqat deyilgay.

### 第二十八章

知其雄，守其雌，为天下溪。  
为天下溪，常德不离，复归于婴儿。  
知其白，守其黑，为天下式，  
为天下式，常德不忒，复归于无极。  
知其荣，守其辱，为天下谷。  
为天下谷，常德乃足，复归于朴。  
朴散则为器，  
圣人用之，则为官长，  
故大制不割。

### XXVIII

Erkaklik chayirligin (baquvvatligin) anglab,  
ayollik nazokatin saqlay olgan  
Osmonostining jilg'asidir.  
Osmonostining jilg'asi bo'lsa,  
Abadiy Xosiyat (De<sup>6</sup>)dan mosuvo bo'lmas,  
ma'sum va sofdil go'daklikka qaytar.  
Ro'shnolik neligin bilib,  
qorong'i g'aribona kulbasida qanoatda bo'lgan

<sup>6</sup>Barcha axloq-fazilatlarni, eгу xislatlarni ham o'zida mujassam etgan Xosiyat.





Osmonostidagilarga ulgi (ibrat) bo'lar.  
 Osmonostidagilarga ulgi (ibrat) bo'lsa,  
 Abadiy Xosiyat (De) benuqsondir,  
 Cheksiz oliy ibtido – asliga qaytar.  
 Shon-u shavkatni anglab, haqirlikda ham qanoatni kanda qilmagan  
 Osmonostining (tabarruk) darasi bo'lar.  
 Osmonostining darasi bo'lsa,  
 Abadiy Xosiyat (De) yetarli bo'lar,  
 asli g'o'r-oddiylikka<sup>77</sup> qaytar.  
 G'o'rlik tarqab, anjom<sup>78</sup> (paydo) bo'lar.  
 (Daoning inoyati har tarafga yoyilib jamiki mavjudot paydo bo'ldi.)  
 Donishmand odam u (oddiy-soddalik) bilan  
 barchaga rahnamo bo'lgay.  
 Shu bois buyuk (mukammal) tartib bo'linmasdir.<sup>79</sup>

### 第二十九章

将欲取天下而为之，  
 吾见其不得已。  
 天下神器，  
 不可为也，不可执也。  
 为者败之，执者失之。  
 是以圣人无为，  
 故无败，故无失。  
 夫物或行或随；  
 或觑或吹；  
 或强或羸；  
 或载或隳。  
 是以圣人去甚、去奢、去泰。

### XXIX

<sup>77</sup> Tadqiqotchilar «g'o'r-oddiy» deyilganda Daoga ishora bor deb hisoblashadi, chunki unga hech kim va hech nima ishlov berolmaydi, shuning uchun o'zining asl g'o'r – ishlov berilmagan oddiy holatini saqlaydi va olamdag'i jamiki narsalar undan paydo bo'ladi.

<sup>78</sup> Olamdag'i jamiki narsalar.

<sup>79</sup> Bu yerda Lao-zi bir necha xil ma'noni ko'zda tutgan: 1) Dao joriy etgan olam tartibi o'zgarmasligiga ishora; yuqoridagi Jumla da shu jihat hisobga olingan; 2) mukammallik bo'linmasligini bildiradi, misol uchun, Daoning o'zi ham mu-kammaldir va bo'linmasdir.



Kimki Osmonostini (zo'rlik bilan) qo'lga kiritishga qasd qilar ekan, mening nazarimda, u murodiga yetolmas.

Osmonosti<sup>80</sup> tabarruk (muqaddas) narsadir, unga qasd qilmoq mumkinmas,<sup>81</sup> (xalq irodasiga daxl qilmoq mumkinmas,) uni changallab – kuch bilan qo'lga olib<sup>82</sup> bo'lmas; qasd (daxl) qilguvchi mag'lub bo'lar, changallaguvchi undan ayrilar.

Va, inchunin, donishmand odam qasd (daxl) qilmas, shuning uchun mag'lub bo'lmas, changallab olmas, shuning uchun ayrilmas.

Olamdagi mavjudotlar ba'zilar oldinda yursalar, ba'zilar (ortidan) ergashadilar; ba'zilar yengil nafas olsalar, ba'zilar puflar; ba'zilar baquvvat bo'lsalar, ba'zilar nimjon; ba'zilar turg'un, ba'zilar omonat.

Va, inchunin, donishmand odam haddan oshish, mukkasidan ketish, quyushqondan chiqish (kabi illatlar)dan yiroqdir.


### 第三十章

以道佐人主者，  
不以兵强天下，其事好还。  
师之所处，荆棘生焉。  
大军之后，必有凶年。  
善有果而已，不敢以取强。  
果而勿矜，  
果而勿伐，  
果而勿骄，  
果而不得已，  
果而勿强。  
物壮则老，是谓不道，不道早已。

<sup>80</sup> Osmonosti deyilganda bu yerda xalq nazarda tutilmoxda.

<sup>81</sup> Xalqning irodasiga qarshi borib uni idora qilib bo'lmaydi.

<sup>82</sup> Boshqarmoq, idora qilmoq.



## XXX

*Dao tamoyiliga tayanib podshohga yordam berguvchi kishi  
quro bilan Osmonostida(gilarga) zo'ravonlik qilmas.<sup>83</sup>  
Chunki bu qilmishi uning o'ziga qaytajak!<sup>84</sup>  
Lashkarlar qadami yetgan yer borki,  
tikanli chakalakzorga aylanar;  
katta janglar ketidan  
shum yil – qahatchilik bo'lar muqarrar.  
Mohir sarkarda murodiga yetsa – qo'shin koriga yarasa<sup>85</sup> – bas,  
(u) yulg'ichlik va zo'ravonlik qilishga botinmas.  
(U) g'alaba qozonsa ham, kibr-havoga berilmas;  
g'alaba qozonsa ham, o'zini maqtamas;  
g'alaba qozonsa ham, mag'rurlanib ketmas;  
g'alaba qozonsa ham – bu noilojlikdan;  
g'alaba qozonsa ham, zo'rman deb chirans.  
Yaratilmish narsalar quromiga yetgach futurdan keta boshlaydi.  
(Inson qirchillama yoshga yetgan chog'dan keksalik tomon odimlaydi.)  
Bu ularning Dao emasliklaridan demak,  
Dao emaslar erta o'tkinchidir.<sup>86</sup>  
(Daodan o'zga barcha narsa omonatdir.)*

## 第三十一章

夫兵者，不祥之器，  
物或恶之，故有道者不处。  
君子居则贵左，用兵则贵右。  
兵者不祥之器，  
非君子之器，  
不得已而用之，  
恬淡为上，胜而不美，

<sup>83</sup> Xalqqa zo'ravonlik qilmas.<sup>84</sup> «Qaytar dunyo» demoqchi; boshqacharoq tarjimasi: «Har kimning qilmishiga yarasha ajr-u mukofot qaytur».<sup>85</sup> G'alaba qozonsa.<sup>86</sup> Ikkinchchi xil tarjimasi: «Demak, Daoga uyg'un emasdир, Daoga uyg'un bo'limganlar erta zavol topар».

而美之者，是乐杀人。  
 夫乐杀人者，  
 则不可得志于天下矣。  
 吉事尚左，凶事尚右。  
 偏将军居左，上将军居右。  
 言以丧礼处之。  
 杀人之众，以悲哀莅之，  
 战胜以丧礼处之。

## XXXI

Qurol bexosiyat narsadir,  
 odamlar undan irganadi,  
 shuning uchun qalbida Dao bo'lgan taqvodorlar uni aslo ishlatmas.<sup>¶</sup>  
 Olijanoblar, odatda, so'lni qadrlaganlar,<sup>¶</sup>  
 jangda o'ngni qadrlashgan.  
 Qurol bexosiyat matohdirki,  
 oljanoblarning narsasi emas,  
 noilojlikdangina undan foydalanadilar, xolos;  
 parvosiga ham keltirmaslik yaxshidir;  
 g'alaba qilsangiz huzurlanmang,  
 g'alabadan huzurlanish – ermak uchun odam o'ldirishdir.  
 Odamlarni o'ldirishni ermak bilganlar  
 Osmonostida murod-maqsadlariga yetolmaslar!  
 Xosiyatli ishlarda so'l avlodir,  
 xosiyatsiz ishlarda – o'ng.  
 Jangda kichik qo'mondon so'lda turgay,  
 oliy qo'mondon o'ngda bo'lgay,  
 bu urushni motam marosimi deb bilish demakdir.  
 (Bu urushga motam marosimidek qarash demakdir!)  
 Odamlar halok bo'lar janggohda,  
 Shuning-chun qayg'u-hasrat-la (aza tutib) kiringiz jangga.  
 G'alabaga motam marosimidek qarang!

<sup>¶</sup> Unga ishi tushmas, tegmas.

<sup>¶</sup> Qadimgi xitoyliklar chap tomonni «yang», o'ng tomonni «in» deb hisoblaganlar, «yang» hayot, «in» esa mamot (o'lim) ni anglatgan. «So'lni muhim deb (afzal, ma'qul) bilish», «o'ngni muhim deb bilish», «so'lga hurmat», «o'ngga hurmat», «so'lda turish», «o'ngda turish» kabilarning hammasi qadimgi qoida-yo'sinlaridan.

## 第三十二章

道常无名、朴。  
虽小，天下莫能臣。  
候王若能守之，  
万物将自宾。  
天地相合，以降甘露，  
民莫之令而自均。  
始制有名，名亦既有，  
夫亦将知止，知止可以不殆。  
譬道之在天下，  
犹川谷之于江海。

## XXXII

Dao abadiy benom<sup>89</sup>, oddiy.  
Garchi murg'akkina (choqqina)<sup>90</sup> bo'lsa-da,  
lek Osmonostida hech kim uni o'ziga tobe etolmas.  
Podshoh agar Dao tamoyillariga rioya qilib saltanatni idora qilsa,  
jamiki mavjudot o'z-o'zidan unga el bo'lgay.<sup>91</sup>  
Osmon-u Zamin (aro Muannas-In va Muzakkar-Yang ikki moya) bir-biri bilan  
qovushganida  
(ko'kdan) totliq shabnam<sup>92</sup> ingay,  
xalqning buyurishlariga<sup>93</sup> ham hojat yo'q,  
uning o'zi (barchaga) bab-barobardir (bir maromdadir).  
Ibtidoda (Buyuk Evrilishda) xilqatlar nomi bilan yaraldi,<sup>94</sup>  
modomiki nomi ham bor ekan,  
tiyilishni (me'yorni) ham bilmox kerak.  
O'zini tiya bilganga xavf-xatar yo'qdir.

<sup>89</sup> Garchi odamlar uni Dao deb atasalar ham, lekin uning asl nomi noma'lum.

<sup>90</sup> Uni inson ko'zi ilg'ay olmasligiga ishora.

<sup>91</sup> Bu yerda: chiqishmoq, murosa qilib yashamoq, bo'ysunmoq, bosh egmoq.

<sup>92</sup> Totliq shabnam – «mazali shudring»; qadimgi xitoyliklar mazali shudringga yaxshilik alomati, xayr-u baraka nishonasi sifatida qaraganlar.

<sup>93</sup> So'rashlariga.

<sup>94</sup> Dao jamiki mavjudotni nomi bilan yaratdi, bu ularni turlarga bo'ldi degani, masalan, erkar va ayol, osmon va yer, hayvonlar, o'simliklar...

(Me'yorini bilgan xatar bilmas.)

Dao Osmonostida  
misoli jamiki daryo-yu jilg'alar borib quyiladigan  
Bahri<sup>95</sup> muborakdir.

### 第三十三章

知人者智，  
自知者明。  
胜人者有力，  
自胜者强。  
知足者富，  
强行者有志，  
不失其所者久，  
死而不亡者寿。


### XXXIII

Odamlarni yaxshi bilgan – dono,  
o'zini anglagan donishmanddir.  
Odamlarni yenggan – kuchli,  
o'zini yenga olgan qudratlidir.  
Qanoatgo'y chin badavlat,  
sobitqadam – irodalidir.  
O'zligini yo'qotmagan boqiydir.  
(Jisman) o'lib, lek zavol topmagan umri uzoqdir!

### 第三十四章

大道汜兮，其可左右。  
万物恃之以生而不辞，  
功成而不有。  
衣养万物而不为主，  
常无欲，可名于小；  
万物归焉而不为主，  
可名为大。

<sup>95</sup> Bu yerda bahr, ya'ni dengiz, ummon «Dao»ni angatsa, daryo-yu jilg'alar jamiki mavjudotni bildiradi. Ya'ni jamiki mavjudot yana uning o'ziga qaytadi. Ushbu jumlada, shuningdek, jamiki mavjudot uning irodasiga bo'y sunishiga ishora bor.





以其终不自为大，  
故能成其大。

XXXIV

O, to'lib-toshgan Buyuk Dao!<sup>\*\*</sup>  
U o'ng-u so'lida – hamma yerda.  
Jamiki mavjudot uning inoyati ila hayotdir,  
lek lom-mim demas<sup>\*\*</sup>;  
jasorat ko'rsatar, lek shon-shuhrat ko'yida bo'lmas;  
jamiki mavjudotni parvarish qilsa ham,  
lek xo'jayinlik qilmas;  
mangu behojatdir<sup>\*\*</sup>,  
choqqina deyish mumkin (ehtimol);  
olamdag'i jamiki narsa faqat uning o'zigagina tegishli bo'lsa-da,  
lek egalik qilmas,  
(shuning uchun uni) Buyuk deb atamoq joiz.  
Hech qachon o'zini buyuk deb hisoblamas, ayni shuning uchun ham buyukdir!  
(Hech qachon o'zini buyuk hisoblamaganligi ham  
uning buyukligidandir.<sup>\*\*</sup>)

第三十五章  
执大象，天下往。  
往而不害，安平太。  
乐与饵，过客止，  
道之出口，  
淡乎其无味，  
视之不足见，  
听之不足闻，  
用之不足既。

XXXV

<sup>\*\*</sup> Daoning cheksiz, bepoyonligiga ishora.

<sup>\*\*</sup> Bosh tortmas, o'zini olib qochmas.

<sup>\*\*</sup> Orzu-istiklardan xoli, unda nafs-hirs, biror narsaga moyillik bo'lmas, garchi barchasini o'zi yaratgan esa-da, lek uning o'ziga jamiki mavjudotdan hech nima kerak emas.

<sup>\*\*</sup> Buyukning o'zini buyuk deb bilmaganiyoq uning buyukligidandir!



Kimki Buyuk Siymoni<sup>100</sup> mahkam tutsa,  
 Osmonostidagilar unga talpinadilar.  
 Kelaveradilar, lek bir-birlariga ziyon yetkazmaslar,  
 shu tariqa barcha tinch-farog‘atda bo‘lgay.  
 Ta’sirchan kuy va tansiq taomlar (o‘ziga rom etib bir zumgagina)  
 o‘tkinchilarni to‘xtatib qolar (yo‘ldan qoldirar).  
 Dao haqida og‘iz ochsam,  
 u ta’msiz ham hidsiz,  
 unga qarashninggina o‘zi ko‘rish uchun kifoya qilmas;  
 unga qulq solishninggina o‘zi eshitish uchun kifoya qilmas;  
 undan barcha bahramand bo‘lib ham ado qilolmas.  
 (Unga qaraysan-u, ko‘rolmaysan,  
 qulq solasan-u, eshitolmaysan,  
 bahramand bo‘lasan-u, ado qilolmaysan.)

### 第三十六章

将欲歛之，必固張之；  
 將欲弱之，必固強之；  
 將欲廢之，必固興之；  
 將欲取之，必固與之。  
 是謂微明<sup>101</sup>，柔弱勝剛強。  
 魚不可脫于淵，  
 國之利器不可以示人。

### XXXVI

Yig‘moqchi bo‘linganni avval yoymoq lozim;  
 zaiflashtirmoqchi bo‘linganni avval kuchaytirmoq lozim;  
 tashlamoqchi bo‘linganni avval ko‘tarmoq lozim;  
 olmoqchi bo‘linganga avval bermoq lozim.  
 Bu ko‘z ilg‘amas (haqiqat)ning ravshan bo‘lishi demakdir.<sup>102</sup>

<sup>100</sup> Buyuk Siymo – dao ta’limoti taraf dorlari (tariqatchilar) tilga olgan borliqning birlamchi asosi, ya’ni Buyuk Dao yoki uning tamoyillari, shuning uchun bu o‘rinda Dao qonuniyatiga rioya qilish nazarda utilgan. Dao osmon-u zaminni paydo qildi, u hamma joyda mavjud, olamdag‘ eng buyuk siymodir. U shakl-u shamoyilsiz siymodir.

<sup>101</sup> 微明：知幽眇之理而收显著之效。

<sup>102</sup> 1. Bu ko‘z ilg‘amas teran haqiqatni anglamoq demakdir. 2. Bu ko‘z ilg‘amas haqiqatni anglab, bundan qalb qo‘ri charog‘on bo‘lishi demakdir.





Yumshoq va nozik qattiq va kuchlini yenga olar.  
 Baliq kamarin<sup>103</sup> tark etolmas (baliq suvsiz yasholmas);  
 davlatning o'tkir qurollarin xalqqa ko'z-ko'z qilmoq (o'qtalish) noravodir.<sup>104</sup>

第三十七章  
 道常无为而无不为。  
 候王若能守之，  
 万物将自化。  
 化而欲作，  
 吾将镇之以无名之朴，  
 镇之以无名之朴，  
 夫将不欲。  
 不欲以静，天下将自定<sup>105</sup>。

### XXXVII

Dao abadiy xatti-harakatsiz<sup>106</sup>,  
 (Dao hech narsaga harakat qilmas)  
 lekin U barcha narsaga qodir.  
 (Dao aslo daxl etmas,  
 lekin unga doxil bo'limgan narsaning o'zi yo'qdir.)  
 Podshohlar agar Uning aqidalariga amal qilsalar,  
 jamiki mavjudot o'z-o'zidan iyib ketar.<sup>107</sup>

<sup>103</sup> Suv ostidagi chuqur joy, bu yerda sayoz bo'limgan suv.

<sup>104</sup> Davlatning o'tkir qurolin xalqqa peshlash noravodir. Xalq – suv, podsho – baliq, baliq suvsiz yashay olmaganidek, davlat ham, podshoh ham xalqsiz ko'pga bormaydi. Bu jumlada, shuningdek, davlatning o'tkir qurollari deyilganda jazolovchi amr-u farmonlar ham nazarda tutilgan.

<sup>105</sup> «自定» ayrim manbalarda «自正» tarzida yozilgan.

<sup>106</sup> Xatti-harakatsiz – bu tabiiylikka uyg'unlikdir, har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan xolilikdir, Dao garchi hech narsaga harakat qilmasa-da, lekin u hamma narsaga qodir, olamdagи jamiki narsa uning marhamatidan yaralgan. Shuning uchun bu atamani bироqlama va yuzaki «hech narsa qilmaslik, bekor o'tirish» ma'nosida tushunmaslik kerak. Shuningdek, Lao-zи tilga olgan Dao va donishmand odam (avliyo)larning sa'y-harakatsizliklari orasida ham farq bor. Daoning hech narsaga harakat qilmasligining sababi U hech narsaga muhtoj va boqim emasligidadir, agar shunday bo'limganida, demak, Uning ham ehtiyoji bo'ligan bo'lardi va endi bu Dao bo'lmay qolardi. Donishmand odamlarning sa'y-harakatsizligi – bu endi hech narsaga daxl qilmaslik, Dao (Xudo) o'matgan qonuniyalarga og'ishmay amal qilishlik, oddiygina qilib aytganda, Xudoning irodasiga qarshi hech nima qilmaslik, nojo'ya xatu-harakatlardan tiyilish, tabiiy bo'lishlikdir. (*Torjimanining boshqa o'rinnlarida ham bu otama izohiga to'xtalgan.*)

<sup>107</sup> «O'z-o'zidan iyib ketar» deganda jamiki majdudotning tug'ilishi va rivojlanishi, tabiatning yaratuvchanlik salohiyat va faoliyati nazarda tutiladi. Bu gapning ma'nosи shundayki, agar podshoh Dao aqidalariga rivoj etgan holda elni idora qilsa, jamiki narsa o'z tabiiy holida rivoj topadi, o'z maromida bo'ladi.

Ular iyib ketsalar-u, lek nafslari qo'zg'alssa,  
men ularni Nomsiz Oddiylik<sup>108</sup> (Dao) bilan bosib qo'ygum (tinchlantirgum).  
Nomsiz Oddiylik bilan bosib qo'yilgach,  
nafslari hakalak otmas.  
Nafslari hakalak otmasa,  
Osmonosti (saltanat) ham o'z-o'zidan osoyishtalikka chulg'anar.

## 德经

**FAZILATNOMA  
(XOSIYATNOMA)**

## 第三十八章

上德不德，是以有德；  
下德不失德，是以无德。  
上德无为而无以为；  
下德无为而有以为。  
上仁为之而无以为；  
上义为之而有以为。  
上礼为之而莫之应，  
则攘臂而扔之。  
故失道而后德，  
失德而后仁，  
失仁而后义，  
失义而后礼。  
夫礼者，忠信之薄，而乱之首。  
前识者，道之华，而愚之始。  
是以大丈夫处其厚，不居其薄；  
处其实，不居其华。  
故去彼取此。

## XXXVIII

Yuksak fazilatli kishi o'zini fazilatli qilib ko'rsatishga urinmas, bu ham uning fazilatligidandir;  
quyi fazilatli kimsa fazilatlardan mosuv bo'lganin bilmas, bu ham uning fazilatsizligidan

<sup>108</sup> Oddiylik – Daoning asosiy sifatlaridandir, ya'ni Dao oddiy, unda g'araz, soxtalik, g'ayirlik bo'lmas.



(bexosiyatligidan)dir.

(Axloqan tuban kimsalar o'zlarini axloqli qilib ko'rsatishga urinar, bu ham ularning axloqsizliklaridandir.)

Yuksak fazilatli kishi (Dao irodasiga qarshi) hech nima qilmas<sup>109</sup> va buni u biror narsa ilinjida ham qilmas (beg'arazdir)<sup>110</sup>;

Quyi fazilatli kimsa (Dao irodasiga qarshi) hech nima qilmasa ham, buni iddao (tama) bilan (biror narsa ilinjida) qilur.

Odamiyligi yuksak kishi neki qilsa tamasiz qilur (biror narsa ilinjida qilmas);  
insofi yuksak kishi neki qilsa bir ilinj bilan qilur;  
odobi yuksak kishi boshqalarga neki qilsa, lek hech kimdan sado chiqmasa,  
unda yeng shimarib unga ergashishlariga majbur qilur.

Binobarin, Daodan ayrligandan keyingina axloq-fazilatlar paydo bo'lar; fazilat (xosiyat) lar yo'qolgachgina so'ng odamgarchilik paydo bo'lar; odamgarchilik yo'qolgachgina so'ng insof paydo bo'lar; insof ham yo'qolgachgina so'ng odob paydo bo'lar.

(Daoni yo'qotdilar hamki, de (xosiyat) paydo bo'ldi;  
Xosiyatni yo'qotdilar hamki, odamgarchilik paydo bo'ldi;  
Odamgarchilikni yo'qotdilar hamki, insof paydo bo'ldi;  
Insofni yo'qotdilar hamki, odob paydo bo'ldi.)

(Binobarin, Daodan mahrum bo'lishgach, oqibat axloq-fazilatni saqlab qolish ilinjida bo'linur; axloq-fazilatdan ham mahrum bo'lishgach, oqibat odamgarchilikni saqlab qolish ilinjida bo'linur; odamgarchilik ham yo'qolgach, oqibat barcha insofni asrab qolish ilinjida bo'lur; insof ham yo'qolgach, oqibat hech bo'limganda odobni asrab qolish ilinjida bo'lur.)

Odob saqlash deganlari e'tiqodga sodiqlikning sustligidanadir (omonatligidanadir)<sup>111</sup> ham balo-qazolarning bosh(lanish)idir.

Bashoratgo'y<sup>112</sup> deganlari bu Daoning yuzaki jilosi, xolos,  
shuningdek, nodonlikning boshlanishidir.

<sup>109</sup> Hech nima qilmaslik – biror nimaning payiga tushmaslik, biror iddao ilinjida harakat qilmaslik, dunyo lazzatlariga ruju qo'ymaslik, shuningdek, tabiat qonunlariga zid harakat qilmaslik nazarda tutiladi, tarjimaning turli o'rinalarida bu istiloh «hech nima qilmaslik», «daxil qilmaslik» tarzida uchraydi.

<sup>110</sup> Biron narsa ilinjida, qasddan, atayin qilmas, unday kishilarda hamma narsa tabiiy bo'ladi.

<sup>111</sup> Odobga targ'ib – yuksak fazilatlardan mosuvu bo'lgan jamiyatda e'tiqod ham sustligidan nishona. Jamiyatda Dao, axloq-fazilat, odamgarchilik, insof kabilar tanazzulga yuz tutganida odob paydo bo'ladi, ya'ni odamlar odobl bo'lishlikni targ'ib qila boshlaydilar, ya'ni qayerdadir insofli bo'lishga chaqirilsa, demak, u yerda insofga ehtiyoj bor, bu, o'z navbatida, odamlarda oliv insoniy tuyg'ular qatori insof ham yo'qolib borayotanidan nishonadir, bunday voqelik esa, Lao-zi nazarida, insoniyat tanazzulining boshlanishidir. Agar odamlar Dao aqidalaridan og'ishmaganlarida jamiyatda har xil ezgu fazilatlarni targ'ib qilishga hojat qolmas edi. Bu esa Lao-zi nazaridagi ideal jamiyatdir.

<sup>112</sup> «Bashoratgo'y» deganda donolikka ishora. Chunki Dao shundayin ilohiy qudratki, inson aql-u zakovati uni qamrab olmoqqa ojiz, Daoning qarhisida inson donoliklari hech narsa emas. Jumlaning ma'nosi shundayki, aqlililar o'zboshimchalik bilan Daoga zeb-jilo bera boshlaydilar, bu esa Daoning asosiy sifatlaridan biri bo'lmish oddiylikka ziddir, uni soxtalashlurishdir, zeb berish haqiqiylikka putur yetkazadi, shu bois Lao-zi yuqoridagi gapni aytgan.



Shuning uchun ulug' er kishi<sup>113</sup> e'tiqodin mustahkamlar,  
sustkashlik qilmas;  
asli-to'poriligicha qolar, (o'ziga ham, so'ziga ham) oro-zeb bermas.  
Shuning uchun sustkashlig-u soxtalikdan kechib,  
mustahkam e'tiqod va asllikni tanlar.

### 第三十九章

昔之得一者，天得一以清；  
地得一以宁；  
神得一以灵；  
谷得一以盈，万物得一以生；  
候王得一以为天下贞。  
其致之也，谓天无以清，将恐裂；  
地无以宁，将恐废；  
神无以灵，将恐歇；  
谷无以盈，将恐竭；  
万物无以生，将恐灭；  
候王无以贞(贵高)，将恐蹶。  
故贵以贱为本，高以下为基。  
是以候王自称孤、寡、不谷。  
此非以贱为本邪？非乎？  
故至誉无誉。  
是故不欲琭琭如玉，珞珞如石。

### XXXIX

Azalda Daoga tuyassar bo'lganlar shu alfoz edilar:  
Osmon Daoga tuyassarlikdan musaffo bo'lgan;  
Zamin Daoga tuyassar bo'lgach osudalikka cho'mgan;  
Karomat narsalar Daoga erishgach ro'yobga chiqqan;  
Jilg'alar Daoga tuyassarlikdan limmo-lim to'lgan;  
Jamiki mavjudot Daoga tuyassarlikdan unib-o'sgan;  
Podshohlar Daoga tuyassar bo'lgach Osmonosti (sultanat)ni to'g'ri (diyonat bilan)  
idora qildilar.  
Ular barchasiga Daoning sharofati (marhamati) bilan erishdilar.  
Holbuki, Osmon musaffo bo'limganida,

<sup>113</sup> Buyuk er kishi: bu yerda donishmand odam degani.





ehtimolki, yorilib ketgan bo'lur edi;  
 zero, Zaminda osudalik bo'lmanida,  
 ehtimolki, o'pirilib ketgan bo'lur edi;  
 zero, karomatlarning ro'yobi bo'lmanida,  
 ehtimolki, yo'qolib ketgan bo'lur edi;<sup>114</sup>  
 zero, soy-u jilg'alar to'lib oqmaganida,  
 ehtimolki, qurib bitgan bo'lur edi;  
 zero, jamiki mavjudot unib-o'smaganida,  
 ehtimolki, butunlay qirilib bitgan bo'lur edi;  
 zero, podshohlar sultanatni to'g'ri idora qilmaganlarida<sup>115</sup>  
 (zero, podshohlarning oljanobliklariga futur yetganida),  
 ehtimolki, ag'darib tashlangan bo'lur edi.  
 Binobarin, qadrga haqirlik asos (qadrning asosi haqirlikkadir),  
 yuksakka tuban poydevor (yuksaklikning negizi tubanlikkdadir).  
 Inchunin, podshohlar o'zlarini  
 faqir, notavon, g'arib<sup>116</sup> deb ataydilar.  
 Bu haqirlikni asos deb bilgani emasmi?  
 Shunday emasmi?  
 Binobarin, eng yuksak shon-sharaf beta'rifdir.<sup>117</sup>  
 (Eng yaxshi maqtov maqtab yubormaslikdir.)  
 Hirs qo'ymang nefritdek yal-yal yonmoqqa,  
 Bo'lingiz bir toshdek qattiq-mustahkam.

第四十章  
 反者道之动，  
 弱者道之用。  
 天下万物生于有，  
 有生于无。

<sup>114</sup> Ba'zi hozirgi xitoy tiliga o'girilgan kitoblardagi izohlarda ushbu jumlaning ikkinchi xil tarjimasi ham uchraydi:  
 Ehümolki, Inson zehni bo'lmanida, odamzodning nasli qurigan bo'lurdi.

<sup>115</sup> Bu parchaning ikkinchi xil tarjimasi: «Podshohlar obro' va martabalarini so'f saqlolmaganlarida (oljanob xislatlarini yo'qotsalar), ehtimolki, qulagan bo'lur edilar».

<sup>116</sup> Qadimgi Xitoya podshohlar kamtarlik belgisi sifatida o'zlarini «faqir», «notavon», «g'arib» deb atashgan.

<sup>117</sup> Eng yuksak shon-sharaf ta'rif-u tahsinlarga muhtoj emas.

## XL

Qaytalanish Daoning harakatidir  
*(Qaytalanib o'zgarishlar Dao harakatidir),*  
 Daoning ta'siri nozikdir.  
 Osmonostidagi jamiki mavjudot  
*Bordan tug'ilgan (paydo bo'lgan, vujudga kelgan),*  
*Borlik esa Yo'qdan tug'ilgan (paydo bo'lgan).*

## 第四十一章


上士闻道，勤而行之；  
 中士闻道，若存若亡；  
 下士闻道，大笑之。  
 不笑不足以道。  
 故建言有之：明道若昧，  
 进道若退，夷道若類。  
 上德若谷；  
 大白若辱；  
 广德若不足；  
 建德若偷；  
 质真若渝。  
 大方无隅；  
 大器晚成；  
 大音希声；  
 大象无形；  
 道隐无名。  
 夫唯道，善贷且成。

## XLI

Axloqan yetuk insonlar Dao haqida eshitishlari bilanoq uni amalga oshirishga tirishadilar

*(axloqan yetuk insonlar Hidoyat Yo'li (Haq Yo'l) haqida eshitishlari bilanoq undan yurishga jiddu jahd qiladilar);*

axloqi o'rtamiyona kishilar Dao haqida eshitib, ba'zida yodda tutsalar, gohida unutib qo'yadilar





(axloqi o'rtamiyona kishilar Hidoyat Yo'li (Haq Yo'l) haqida eshitib, goho ko'ngillari unda bo'lsa ham, gohida uni yo'qotib qo'yadilar (undan chalg'iydilar);

axloqan tuban kimsalar Dao haqida eshitganlari bilan, qahqaha otib kuladilar

(axloqan tuban kimsalar Hidoyat Yo'li (Haq Yo'l) haqida eshitganlari bilan xaxolab kulib yuboradilar).

Ustidan kulishmaganlarida, haqiqiy Dao deb hisoblashga kifoya qilmasdi.

Shuning uchun naql qilishlaricha:

yorug' Dao (Yo'l) g'ira-shira ko'rinar

(Daoni anglagan odam go'yo telbaga o'xshar);

olg'a siljigan Dao ortga tislanganga o'xshar

(bu Yo'lga kirgan odam go'yo ortda qolganga o'xshar);

tekis-ravon Dao (Yo'l) o'nqir-cho'nqirga o'xshar.

Yuksak Xosiyat (fazilat) vodiy (dara)ga o'xshar

(buyuk fazilat egalari bag'rikenglikda daraga o'xshaydilar);

buyuk oqlik dog'liga o'xshar;

to'kis fazilat kamchilikka o'xshar;

kuchli fazilat beparvolikka o'xshar

(matonatlilik beg'amlikka o'xshab ko'rinar);

sof haqiqat go'yo loyqaga o'xshaydi

(oddiy haqiqat puchga (bema'nilikka) o'xshar);

buyuk to'g'rilikning burchagi bo'lmaydi;

katta idish erta tayyor bo'lmas

(buyuklar sekinroq (kechroq) yetiladi);

buyuk sado sassiz (eng buyuk sado sukunat sasidir);

buyuk siymo shakl-u shamoyilsiz (ko'rinsadir);

Dao pinhon-u benomdir.

Faqat Daogina inoyat qilish va madad berishga qodirdir!

(Yaxshi boshlab, tag'in xayrli tugallashga qodir.)

## 第四十二章

道生一，一生二，  
二生三，三生万物。

万物负阴而抱阳，  
冲气以为和。  
人之所恶，唯孤、寡、不谷，  
而王公以为称。

故物或损之而益，  
或益之而损。  
人之所教，我亦教之。  
强梁者不得其死，  
吾将以为教父。

## XLII

Dao Birdan-Bir Mavjud edi<sup>118</sup>  
(Dao mavjudi avvaldir);  
birdan ikkisi (yang va in) tug'ildi (paydo bo'ldi);<sup>119</sup>  
ikkovidan uchi tug'ildi<sup>120</sup>;  
uchchovи borliqni (jamiki mavjudotlarni) vujudga keltirdi.  
Borliq ortida In, to'shida Yang<sup>121</sup>  
(Jamiki mavjudot Inni opichlab, Yangni quchgancha),  
moyalarning junbishga kelishidan uyg'unlik hosil bo'ldi.  
Odamlarning yomon ko'rgani  
aynan faqir-u notavon-u g'ariblikdir;  
lekin podshohu beklar o'zlarini shu so'zlar bilan ataydilar<sup>122</sup>.  
Shuning uchun bo'lsa kerak,  
nimaniki ba'zan ozaytirmoqchi bo'lsang, aksincha, ko'payar,  
ba'zan esa ko'paytirmoqchi bo'lsang, aksincha, ozayar.  
Odamlar o'rgatganlarini men ham o'rgatmoqdaman.  
«Zo'ravon o'z ajali bilan o'lmas!»  
(Zo'ravonga o'limning yaxshisi buyurmas!)  
Men buni pand-u o'gitlar buzrugij<sup>123</sup> deb bilgum.

<sup>118</sup> Ya'ni Daoning sheri bo'limgan, u tengsizdir.<sup>119</sup> Ayrim tadqiqotchilar bu ikkisini Yer-u Osmon deb taxmin qiladilar.<sup>120</sup> Bu yerdagi «uch» so'zi borasida turlichqa qarashlar mavjud: ba'zilar ularni yang, in va yel desalar, ayrimlar in, yang – bu ikki moya birikuvidan hosil bo'lgan uyg'unlik holati deydilar, yana bir xil qarashga ko'ra, bu yerdagi «uch» so'zi miqdorning ko'pligiga ishora, xolos.<sup>121</sup> In va Yang – muannas va muzakkars, Xitoy falsafasidagi ikki turg'un tushunchalar. Qadimgi xitoyliklar borliqdagi jamiki narsalar shu ikki moyaning quvushib (quralib) o'zgarishiga bog'liq deb hisoblaganlar; muzakkars bilan muannas, ya'ni Yang bilan In joniqlarning o'sib yetilishiha biri kam bo'lishi mumkin emas. Ba'zi xitoy olimlari In va Yangni Osmon va Yerga nisbat beradilar. In qadimgi Xitoy falsafasidagi ayollik ibtidosi bo'lsa, Yang erkaklik ibtidosidir. Adabiyotlarda ular bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi, haqiqatan ham, ular bir-birining aksidir. To'laroq tushuncha bosil bo'lsin uchun lug'atlardagi bu ikki so'z ma'nolarini qayd etib o'tishni lozim ko'rdik: Yang – 1) muzakkars; 2) shams, quyosh, kun, oftob; 3) kungay; 4) zakar (erlik jinsiyl a'zosi); 5) hayot, odam va foniyl dunyo; 6) issiqlik; 7) musbat; In – 1) muannas; 2) oy, qamar; 3) soya; 4) hazna (ayollik jinsiyl a'zosi); 5) u dunyo, boqiy dunyo; 6) sovuqlik; 7) manfiy.<sup>122</sup> Qadimgi Xitoya podshoh va feodallar o'zlarini shunday atashgan, kamina ma'nosini anglatgan.<sup>123</sup> Ya'ni ilk saboq, pand-u o'gitlarning bosh hikmati demoqchi.



### 第四十三章

天下之至柔，  
驰骋天下之至坚。  
无有入无间，  
吾是以知无为之有益。  
不言之教，  
无为之益，  
天下希及之。

### XLIII

Osmonostidagi eng yurnshoq narsa  
 Osmonostidagi eng qattiq narsalar aro yeldek uchadi.  
 YO'QLIK<sup>124</sup> tirqishsiz narsalar ichiga ham kira oladi.  
 Men shundan xatti-harakat (daxl) qilmaslikning foydali ekanligini anglab yetdim.  
 So'zsiz saboq berish (Sukut sabog'i)<sup>125</sup>,  
 Xatti-harakat (daxl) qilmaslikning foydasi –  
 Osmonostida kamdan-kam odamlargina bunga yetishgaylar.

### 第四十四章

名与身孰亲?  
 身与货孰多?  
 得与亡孰病?  
 甚爱必大费，  
 多藏必厚亡。  
 故知足不辱，  
 知止不殆，  
 可以长久。

<sup>124</sup> Suvratsiz, shakl-u shamoyilsiz narsa.

<sup>125</sup> Daoism ta'lomidagi muhim tushunchalardan biri bo'lib, inson tabiatdan iibrat olishga, borliqni o'ziga ustoz bilishi kerakligini anglatadi, bunda faqatgina alomatlar bilan anglash mumkin.

## XLIV

Nom<sup>126</sup> va jon – qay biri qadrdonroq?  
 Jon va mol (boylik) – qay biri zalvorliroq (azizroq)?  
 Shuhrat-u boylikka erishish va jondan mahrum bo'lish – qay biri zararliroq  
 (ayanchliroq)?  
 Binobarin shuhratparastlikning badali, shubhasiz, og'ir bo'lgay!  
 (Haddan ortiq mukkangdan ketarsan – katta yo'qotishlar muqarrar!)

Molparastlikning oqibati, shubhasiz, fojealidir!  
 (To'plashga o'ch bo'lsang – judolik ham ko'p bo'lar!)

Qanoatni bilganga xo'rlik yo'q;  
 (Agar qilsang qanoat, ko'rmagaysan malomat!)


Tiyilishni (me'yorni) bilganga xatar yo'q.  
 (Bu haqiqatni anglab yetganlar) uzoq umr ko'ra olgay.

第四十五章  
 大成若缺，  
 其用不弊。  
 大盈若冲，  
 其用不穷。  
 大直若屈，  
 大巧若拙，  
 大辩若讷。  
 静胜躁，寒胜热。  
 清静为天下正。

## XLV

Buyuk mukammallik kemtikka o'xshar  
 (*Eng bekam-u ko'st narsa kemtikka o'xshaydi*),  
 kori benuqsondir (*lek aslo kuchdan qolmas*)  
 (*behisob narsalarga asqatadi*).  
 Limmo-lim narsa go'yo bo'shliqqa o'xshar  
 (*eng to'liq narsa go'yo bo'shga o'xshaydi*),  
 (*lekin*) uning kori bitmas-tuganmas  
 (*bitmas-tuganmas narsalarga asqatadi*).  
 Buyuk to'g'rilar egriga o'xshar,  
 buyuk mahorat go'yo noshudlikka o'xshar

<sup>126</sup> Shon-shuhrat, dovrug, obro'.





Ozaygandan-ozayadiki,  
oqibat xatti-harakat qilmaslik<sup>122</sup> (daxl qilmaslik) darajasiga yetilgay.  
Xatti-harakat qilma va ilojsiz narsaning o'zi bo'lmaydi!<sup>123</sup>  
Sohibi sultanat bo'lmoq istasang,  
hamisha beg'urbat yurgiz siyosat;  
agarki aylantirsang uni g'urbatxonaga,  
noloyiqsan sultanatga sohib chiqmoqqa.

#### 第四十九章

圣人常无心，  
以百姓之心为心。  
善者，吾善之；  
不善者，吾亦善之，德善。  
信者，吾信之；  
不信者，吾亦信之，德信。  
圣人在天下，  
歙歙焉为天下浑其心，  
百姓皆注其耳目，  
圣人皆孩之。

#### XLIX

Donishmandlar hamisha beg'arazdir,  
xalqning maqsadi uning maqsadidir.  
(xalq murod-maqsadini (o'zlarining) maqsad-muddaosi deb bilgaylar.)  
Yaxshilarga yaxshilik qilgum;  
yomonlarga ham yaxshi bo'lgum  
(Yaxshilarga yaxshiman,  
yomonlarga ham yaxshiman),  
buning xosiyati yaxshilikdir.<sup>124</sup>  
Lafzi halol kishilarga ishongum;

<sup>122</sup> Lao-zi nazarda tuigan «xatti-harakat qilmaslik», aslida, umuman hech narsa qilmaslik emas, u daxl qilmaslik, xalal bermaslikdir, hamma narsaga ham aralashavermaslik, tarjimada o'mi bilan bu so'zni «daxl qilmaslik» deb qo'lladik. Bu «Dao-De kitobi»dagı muhim siyosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. U podshohning xalq bilan ixtilofga bormasligi, xalq irodasiga ko'ra ish yuritish, ahmoqliq qilmaslik ma'nolarini anglatadi. Bularni amalgalashuvda podshoh Daodan ulgi olishi mumkin, chunki u hech nima qilmaslik maqomida hamma narsaga qodir. Shuning uchun Lao-zi podshohlarni Dao qonuniyati bilan siyosat yurgizishga, oddiy xalqni esa unga ko'ra hayot kechirishga undaydi.

<sup>123</sup> «Xatti-harakat qilma va ilojsiz narsaning o'zi bo'lmaydi!» – bu Lao-zi ta'limotidagi kulminatsion nuqtadir.

<sup>124</sup> «Odamlarni yaxshilikka undaydi» demeoqchi.



lafzi yo'q kimsalarga-da ishongum,  
 buning xosiyati lafzi halollikdir.<sup>135</sup>  
 Donishmand Osmonostini (saltanatni) idora etgudek bo'lsa,  
 o'zini (nafsi) tiyib,  
 Osmonostidagilarni soddadillikka undar.  
 Odamlarning hammasi diqqat bilan tikiladilar, eshitadilar,  
 donishmand esa ularga bolalaridek qaraydi.

### 第五十章

出生入死，  
 生之徒，十有三③；  
 死之徒，十有三；  
 人之生，动之于死地，亦十有三。  
 夫何故？  
 以其生生之厚。  
 盖闻善摄生者，  
 陆行不遇兕虎，  
 入军不被甲兵。  
 兜无所投其角，  
 虎无所措其爪，  
 兵无所容其刃。  
 夫何故？  
 以其无死地。


### L

Dunyoga kelish – tug'ilish, yerga kirish – o'lish.  
*(Hayot dunyoga kelish bilan boshlanib, vafot etib yerga (go'rga) kirish bilan yakun topadi.)*

Yashong'uvchilar (*uzoq yashovchilar*) toifasi o'ndan uch ulushcha bor;  
 juvonmarglar (*qisqa umr ko'rguvchilar*) toifasi-da o'ndan uch ulushcha bor;  
 ayrim odamlar borki, aslida, uzoqroq umr ko'radilar, lekin o'z qilmishlari sabab qazogohiga yetib qolib, ajalidan burun o'lib-netib ketadilar, bundaylar ham o'ndan uch ulushcha bor.

Buning sababi nimada?  
 Ular hayotga qattiq hirs qo'yganliklari uchundir.

<sup>135</sup> «Odamlarni lafzi halol, samimiy bo'lismaga undaydi» demaqchi.





Men mohir jontumorlar<sup>126</sup> haqida eshitganmanki,  
 ular quruqlikda yurishganida karkidon va yo'lbarslarga duch kelmas;  
 ularga janglarda shikast yetmas;  
 karkidon o'tkir shoxlari bilan tashlanmas;  
 yo'lbars o'tkir panjalari bilan chang solmas;  
 yarog'ning o'tkir dami unga o'qtalmas.  
 Buning sababi nimada?  
 Chunki ular o'zlarini ajal domiga otmaslar.

### 第五十一章

道生之，德畜之，  
 物形之，势成之。  
 是以万物莫不尊道而贵德。  
 道之尊，德之贵，  
 夫莫之命而常自然。  
 故道生之，德畜之，  
 长之育之，亭之毒之；  
 养之覆之。  
 生而不有，为而不恃，  
 长而不宰，是谓玄德。

### LI

Dao (*borliq mavjudotlarni*) yaratar,  
 De (*Fazilat, Xosiyati bilan*) parvarish qilar,  
 borliq shakl berar,  
 sharoit voyaga yetkazar.  
 Inchunin, borliqdagi narsalar orasida  
 Daoni e'zozlamaydigan va  
 Deni qadrlamaydigan yo'qdir.  
 Dao shuning uchun ham mo'tabarki,  
 De shuning uchun ham ardoqliki,  
 chunki (Dao) ularga daxl qilmas,  
 o'z hollariga qo'yib berar.  
 (chunki Dao jamiki mavjudotni yaratса-da, lek taqdirlariga aralashmas, azaldan  
 ularni o'z hollariga qo'yib berar.)

<sup>126</sup> Jontumor – hayotini xatarga qo'ymaydigan, jonini asrashni eplaydiganlar nazarda tutilgan; bu so'zning lug'aviy tarjimasi «jonini asrashga mohirlar». Albatta, jontumor so'zini sharqli ravishda oldik.



Inchunin, Dao jamiki mavjudotni yaratadi,  
 De ularni parvarish qiladi;  
*(jamiki mavjudotlarni) ulg'aytiradi, tarbiyalaydi,*  
*yetiltiradi, pishiradi,*  
*rizq beradi, panohida asraydi.*  
 Dunyoga keltiradi, lekin egalik qilmas  
*(Daoning marhamati bilan jamiki mavjudot tug'iladi, lekin uning o'zi hech nima tama*  
*qilmaydi);*  
 ado etar, lekin pesh qilmas  
*(himmat etar, lekin hech minnat qilmas);*  
 tarbiyalab voyaga yetkazar, lekin ularga ega chiqmas  
*(barcha narsadan ulug'dir, lekin hech ular ustidan hukmronlik qilmaydi).*  
 Bu (Azaliy) Sirli De (Xosiyat) demakdir!

## 第五二章

天下有始，  
 以为天下母。  
 既得其母，  
 以知其子；  
 既知其子，  
 复守其母，  
 没身不殆。  
 塞其兑，闭其门，  
 终身不勤。  
 开其兑，  
 济其事，终身不救。  
 见小曰明，  
 守柔曰强。  
 用其光，  
 复归其明，无遗身殃；  
 是为袭常。



LII

Osmonosti(dagi jamiki narsalar)ning Ibtidosi mavjud,  
U Osmonostining Onasi (manbai)dir<sup>125</sup>.  
Agar Onasi ekanligini anglab yetsang,  
unda farzandlarining (jamiki narsalarning) mohiyatini bilgaysan;  
agar farzandlari (barcha narsalar)ning mohiyatini bilsang, tag'in Onasi (Dao)ni mahkam  
tutgaysan,  
ana shunda umring bo'yi xavf-xatar yo'qdir.  
Nafsing domini berkitsang,  
eshiklarin yopsang mahkamlab,  
butun umr jafo chekmassan;  
domini ochib yuborsang,  
g'avg'olar ham kelar qalashib,  
bir umr xalos bo'lolmassan.  
Mayda (ko'z ilg'amas narsa)larni ham ko'ra olish ravshannazarlikdir;  
ojizlarni himoya qila olish kuchlilikdir.  
Ma'rifat ziyosi ila  
qalbingni charog'on qil,  
ana shunda balolarga duchor bo'lmassan.  
Bu Qoimlik (Dao)ga ergashmoqdir!<sup>126</sup>

第五三章

使我介然有知，  
行于大道，  
唯施是畏。  
大道甚夷，  
而人好径。  
朝甚除，田甚芜，  
仓甚虚，服文采，  
带利剑，厌饮食，  
财货有余，是谓盗竽。  
非道也哉！

<sup>125</sup> Dao nazarda tutilgan, u borliqning Onasi va Ibtidosidir, hamma narsa undan yaralgan.

<sup>126</sup> Qoyimlik ham Daoning sifatlaridan biridir.

## LIII

Agarda ozgina bilimim (es-hushim) bo'lsa,<sup>129</sup>  
 Buyuk Yo'ldan yurgan,  
 faqatgina qing'ir yo'lga kirib qolishdan qo'rqqan bo'lardim  
 (To'g'ri Yo'ldan og'ib ketishdan qo'rqqan bo'lardim).  
 Buyuk Yo'l (Dao) naqadar tekis (ravon) bo'lsa-da,  
 Lek, afsuski, odamlar qing'ir yo'llardan yurishni yaxshi ko'radilar.  
 Saroyda chirkinlik (razolat) avjida,  
 ekinzorlar nihoyatda qarovsiz-payhon,  
 omborlar esa bo'm-bo'sh, ship-shiydam;  
 vallamatlar esa bashang kiyinib,  
 o'tkir shamshir osib olgan (beliga),  
 ichkilig-u yeguliklardan bo'kib qolishgan,  
 mol-dunyosi oshib-toshib yotibdi,  
 bundaylarni qaroqchilar boshlig'i derlar.  
 O, bu xilofdir Daoga qanchalar!  
 (Bu Dao – Haq Yo'ldan yuz o'girishdir!)  
 (O, bu qanday razolat!)

## 第五十四章

善剑者不拔，  
 善抱者不脱，  
 子孙以祭祀不辍。  
 修之于身，其德乃真；  
 修之于家，其德乃余；  
 修之于乡，其德乃长；  
 修之于邦，其德乃丰；  
 修之于天下，其德乃普。  
 故以身观身，  
 以家观家，  
 以乡观乡，  
 以邦观邦，  
 以天下观天下。

吾何以知天下然哉？以此。

<sup>129</sup> Ushbu jumlada «men» deya ba'zi bir hukmdorlarga ishora qilinmoqda.



## LIV

Yaxshilab qadalganni sug‘urib bo‘lmas<sup>140</sup>,  
 yaxshilab quchgan tushirib yubormas<sup>141</sup>,  
 agarda o‘g‘il-nabiralar shunga amal qilsa,  
 nazr-chiroq marosimlari kanda bo‘lmas  
 (ajdodlarning chirog‘i o‘chmas).  
 Kimki o‘zini shunday tarbiyat qilsa<sup>142</sup>,  
 uning fazilati (*xosiyati – De*) haqiqiydir;  
 kimki o‘z oilasini shunday tarbiyat qilsa (*hidoyatga boshlasa*),  
 uning fazilati (*xosiyati – De*) yanada ziyoda bo‘lgay;  
 kimki qishlog‘ini shunday tarbiyat qilsa (*hidoyatga boshlasa*),  
 uning fazilati (*xosiyati – De*) hurmat-e’tibor topgay;  
 kimki yurtini shunday tarbiyat qilsa (*hidoyatga boshlasa*),  
 uning fazilati (*xosiyati – De*) barakotli bo‘lgay;  
 kimki Osmonostini tarbiyat qilsa (*hidoyatga boshlasa*),  
 uning fazilati (*xosiyati – De*) hammayoqni tutgay.  
 Shuning uchun o‘zingni tarbiyalab kamolotga yetkazish bilan o‘zgaga razm sol,  
 o‘z oilangni ko‘zdan kechirish bilan o‘zganing oilasiga razm sol,  
 o‘z qishlog‘ingni ko‘zdan kechirish bilan o‘zganing qishlog‘iga razm sol,  
 o‘z yurtingni ko‘zdan kechirish bilan o‘zga yurtlarga razm sol,  
 o‘z saltanatingni ko‘zdan kechirish bilan o‘zga saltanatga razm sol.  
 Men Osmonostining bundayligin qanday bilurman?  
 Ana shulardan.

## 第五十五章

含德之厚，  
 比于赤子。  
 毒虫不螫，  
 猛兽不据，  
 捷鸟不搏。  
 骨弱筋柔而握固。  
 未知牝牡之合而胶作，  
 精之至也。

<sup>140</sup> Mohirlik bilan axloq qoidalarini o‘zi uchun me’yor qilib olgan kishi ikkilanmas.

<sup>141</sup> Mohirlik bilan o‘zi anglab yetgan axloqiy me’yorlarga amal qilgan kishi umidsizlikka tushmas.

<sup>142</sup> Yuqoridagi hikmatga amal qilsa, ya’ni o’sha fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirsa...


终日号而不嗄，  
和之至也。  
知和曰『常』，  
知常曰『明』，  
益生曰祥，  
心使气曰强。  
物壮(12)则老，  
谓之不道，  
不道早已。

## LV

*Fazilatlarga boy – xosiyatli insonlar  
bamisoli go'dakka o'xshaydilar.*  
*Zaharli hasharot-u ilonlar chaqmas,  
vahshiy hayvonlar hamla qilmas,  
yirtqich qushlar chang solmas.*  
*Go'dakning suyaklari yumshoq, mushaklari nimjon bo'lgani bilan,  
lekin mahkam changallaydi;*  
*erkak-ayol qovushuvidan bexabar esa-da,  
jazzi zakari vaqtı-vaqtı bilan qo'padi,  
bu quvvai javhari avjidandir;*  
*kun bo'yı chinqirib yig'lasa-da, bo'g'ilib qolmaydi,  
bu uyg'unlikning avjidandir.*  
*Uyg'unlikni anglash abadiyatni<sup>143</sup> anglash demak,  
abadiyatni anglash donishmandlik demak.*  
*Hayot lazzatlariga ruju qo'yish xosiyatsizdir!*  
(*Hayot lazzatlariga ruju qo'yan balo-qazoga duchor bo'libdi.*)  
*Nafs ruhni izmiga salsa, kuchlilik ham chirinish demak.*  
*Jamiki mavjudot quromiga yetgach, futurdan keta (qariy) boshlaydi,  
bu Dao emasdir (*Daoga xos emas*)<sup>144</sup>,*  
*Daoga xos bo'limganning qismati erta o'limdir!*  
(*Yo'lsizning kuni erta bitar!*)

<sup>143</sup> Abadiyat – bu yerda: odamzod tabiatining azaliy va abadiy tabiiy qonuniyati nazarda tuulmoqda.

<sup>144</sup> Mangulik faqat Daogagina xosdir.





## 第五十六章

知者不言，  
言者不知。  
塞其兑，闭其门；  
挫其锐，解其纷；  
和其光，同其尘，  
是谓玄同。  
故不可得而亲，  
不可得而疏；  
不可得而利，  
不可得而害；  
不可得而贵，  
不可得而贱；  
故为天下贵。

## LVI

Bilguvchi so'zlamaydi,  
so'zlaguvchi bilmaydi.  
(Bilguvchi har narsa deb gapirovemas,  
har narsani gapiraveradiganlar hech nima bilmas.)  
Nafsing domini berkit,  
eshiklarin yopgin mahkamlab,  
(keskir) damini qaytar (shashtini so'ndir),  
g'avg'osidan xalos bo'l (nizolarini bartaraf qil, adovatlarin arit),  
nurini so'ndir (shon-shavkatdan o'zingni tort),  
xoki-turob bo'l (g'uboriga qorish fanoning),  
bu Buyuk Tilsimiy Yaxlitlik deyilgay.  
Shuning uchun unga yaqinlashib bo'lmaydi,  
undan uzoqlashib ham bo'lmas;  
unga foyda keltirib bo'lmaydi,  
unga ziyon yetkazib ham bo'lmas;  
uni ulug'lab bo'lmaydi,  
uni kamsitib ham bo'lmas,<sup>145</sup>  
Shuning uchun ham Osmonostida eng qadrlidir.

<sup>145</sup> Bu jumlaning ma'nosi shuki, Buyuk Tilsimiy Yaxlitlik daraja-maqomiga yetishgan odam qarindosh-u begona, foyda-yu ziyon, obro'-yu kamsitilish kabi maishiy qarashlardan xolidir.

## 第五十七章

以正治国，  
以奇用兵，  
以无事取天下。  
吾何以知其然哉？  
以此：天下多忌讳，  
而民弥贫；  
人多利器，国家滋昏；  
人多伎巧，奇物滋起；  
法令滋彰，盗贼多有。  
故圣人云：  
“我无为，而民自化；  
我好静，而民自正；  
我无事，而民自富；  
我无欲，而民自朴。”

## LVII

Elni to'g'rilik bilan boshqar,  
Qo'shinni mahorat bilan ishlat,  
Saltanatni beshikast idora et.  
(Xalqqa jabr qilmasdan sultanatni idora et.)  
Bundayligin men qaydan bilurman?  
Mana bundan:  
saltanatda qatag'on (taqiq)lar qanchalik ko'p bo'lsa,  
xalq shunchalik qashshoqlashib boraveradi;  
xalqda qurol-yarog' qanchalik ko'p bo'lsa,  
mamlakat shunchalik alg'ov-dalg'ov bo'lgay;  
odamlar qanchalik ustasi farang-aqlli bo'lib ketishsa, g'alati narsalar (buzuqlik va  
bachkanalik) shunchalik urchigay;  
amr-u farmonlar qanchalik shafqatsiz bo'lsa,  
qaroqchi-o'g'rilar ham shunchalik ko'payib boraveradi.  
Inchunin, donishmand odam degayki:  
«Men xatti-harakat qilmasam (daxl qilmasam),  
xalq o'z-o'zidan kamolotga erishgay;  
men osoyishtalikni yaxshi ko'rsam,





xalq ham o'zini rostlab olgay;  
men monelik qilmasam (*xalal bermasam*),  
elda farovonlik bo'lgay;  
men badnafs-tamagir bo'lmasam,  
xalq o'z-o'zidan sodda-samimiy bo'lgay».

### 第五十八章

其政闷闷，  
其民淳淳；  
其政察察，  
其民缺缺。  
祸兮，福之所倚；  
福兮，祸之所伏。  
孰知其极：其无正也。  
正复为奇，善复为妖。  
人之迷，其日固久。  
是以圣人方而不割，  
廉而不刿，  
直而不肆，  
光而不耀。

### LVIII

Siyosati g'ira-shira bo'lsa,  
xalq ham oddiy-sodda bo'lar  
(*siyosatda kengfe'l bo'linsa,*  
*Xalq ham diyonatli-vafodor bo'lar*);  
siyosatning tekshir-tekshiri ko'p bo'lsa,  
xalqning u yo'q-bu yo'q deyishi qolmas.  
(*siyosatda haddan ortiq qattiqqo'llik qilinsa,*  
*xalq ham noshukr-mug'ambir bo'lar*)  
O, baxtsizlik! U baxtning tayanchidir!  
O, baxt! Unda pinhon erur baxtsizlik!  
Chek-u chegarasin kim bilar ularning!  
Ular beqarordir!  
To'g'rilik qing'irlilikka aylanib qolar,



yaxshilik bo'lib chiqar makr, ehtimol.  
*(Ezgulik yovuzlikka aylanar zumda.)*  
 Odamlarning gumrohliklariga ancha zamonlar bo'ldi.  
 Shuning uchun donishmandlar  
 to'g'ri, ammo beo'xshov bo'lmas,  
*(so'zi) o'tkir, ammo odamlarga jarohat yetkazmas,*  
*dangalchi, ammo haddidan oshmas,*  
*yorqin, ammo ko'zni qamashtirmas.*


### 第五十九章

治人事天，莫若啬。  
 夫唯啬，是谓早服；  
 早服谓之重积德；  
 重积德则无不克；  
 无不克则莫知其极，  
 莫知其极，可以有国；  
 有国之母，可以长久。  
 是谓根深固柢，  
 长生久视之道。

### LIX

Elni idora qilish va Falakka mulozamat etishda<sup>146</sup>  
*(xalqni idora etish hamda tan va qalbni asrashda)*  
 uni (ruh – javharni) asrab-avaylamoqlikdan muhimrog'i yo'qdir.  
 Ruhni asrab-avaylamoqlik barvaqt hozirlik demakdir;  
 barvaqt hozirlik fazilatlarning muttasil jam bo'lishi deganidir;  
 fazilatlar muttasil jam bo'laversa,  
 unda uddalab bo'lmaydigan ish qolmas;  
 uddalab bo'lmaydigan ish qolmasa,  
 u holda uning avjin (kuchin) charmalab bo'lmas;  
 avjin (kuchin) charmalab bo'lmas ekan,  
 davlatga egalik qilsa ham bo'lur;

<sup>146</sup> Falakka mulozamat etish – Falak (Xudo) amriga ko'nish, irodasiga bo'ysunish, Uning marhamati bilan yaralgan tan va ruhni asrash nazarda tutilgan.



davlatning Onasiga<sup>147</sup> (sarchashmasiga) muyassar bo'lingach,  
uzoqqa borgay;  
demak, chuqur ildiz otgan, o'q tomiri mahkam botgan bo'lsa,  
bu barhayotlik Yo'lidir!  
davlatning Onasiga<sup>148</sup> (sarchashmasiga) muyassar bo'lingach,  
uzoqqa borgay;  
demak, chuqur ildiz otgan, o'q tomiri mahkam botgan bo'lsa,  
bu barhayotlik Yo'lidir!

### 第六十章

治大国，若烹小鲜，  
以道莅天下，其鬼不神。  
非其鬼不神，  
其神不伤人。

非其神不伤人，  
圣人亦不伤人。  
夫两不相伤，  
故德交归焉。

### LX

Katta davlatni boshqarish  
bamisol mayda baliqni pishirishdek.  
Dao bilan Osmonostiga yuzlansang  
(*Dao bilan sultanatni idora qilsang*),  
jinlar ham koringga yaramay qolar;  
nafaqat jinlar korga yaramay qolar,  
ma'bud ham odamlarga zarar yetkazmas;  
nafaqat ma'bud ham odamlarga zarar yetkazmas,  
donishmandlar ham odamlar umriga zomin bo'lmas.  
Hech kim bir-biriga ziyon yetkazmas,  
chunki ezgu fazilatlar tutashganligidandir.

<sup>147</sup> Davlat onasi – davlatga ega bo'lish asosi, qonuni, ya'ni bu yerda Daoga ishora. Gapning ma'nosi shundayki, agar podshoh davlatni boshqarish mahorati va tamoyiliga ega bo'lsa, unda davlatni uzoq yillar idora qila olgay.


<sup>148</sup> Davlat onasi – davlatga ega bo'lish asosi, qonuni, ya'ni bu yerda Daoga ishora. Gapning ma'nosi shundayki, agar podshoh davlatni boshqarish mahorati va tamoyiliga ega bo'lsa, unda davlatni uzoq yillar idora qila olgay.

## 第六十一章

大邦者下流，  
天下之牝，  
天下之交也。  
牝常以静胜牡，以静为下。  
故大邦以下小邦，则取小邦；  
小邦以下大邦，则取大邦。  
故或下以取，或下而取。  
大邦不过欲兼畜人，  
小邦不过欲入事人。  
夫两者各得所欲，  
大者宜为下。

## LXI

Buyuk davlat daryoning quyi oqimidek bo‘lmog‘i kerak,  
shunda Osmonostining Modasi (*xokisori*) bo‘lur,  
ana shunda Osmonostidagi jamiki daryo suvlari unga borib quyilur (*qovushar*).  
(*bu Osmonostidagi (jamiki narsalar) qovushguvchi (tutashguvchi) dargohdir.*)  
Moda doimo xotirjamlik ila narni mahv etgan,  
bu xotirjamlik bilan o‘zlarini xokisor tutganlaridandir.  
Shu bois katta podsholik kichik podsholiklarga nisbatan kamtarlik qilsa (*qayishsa*),  
ularning ishonchini qozongay;  
kichik podsholiklar ham katta podsholikka nisbatan kamtarlik qilsalar,  
uning ishonchini qozongaylar.  
Inchunin, yo kamtarlik (*xokisorlik*) bilan ishonchingni qozonurlar,  
yo kamtarinlik (*xokisorlik*) bilan o‘zgalarning ishonchiga noil bo‘lursan.  
Katta podsholik odamlarni o‘ziga og‘dirib olishga qasd qilmasa  
(*katta podsholik kichik podsholikni o‘ziga qo‘sib olishga qasd qilmasa*),  
kichik podsholiklar (*ham aslo*) o‘zgaga mulozamat qasdida bo‘lmaslar.  
Ikkovlari ham o‘z murodlariga yetmoqlari uchun,  
Ayniqsa, katta podsholik kamtarin bo‘lmog‘i (*qayishmog‘i, yon bermog‘i*) lozim.



## 第六十二章

道者，万物之奥，  
善人之宝，不善人之所保。  
美言可以市尊，  
美行可以加人。  
人之不善，何弃之有？  
故立天子，置三公⑤，  
虽有拱璧以先驷马，  
不如坐进此道。  
古之所以贵此道者何？  
不曰：求以得，有罪以免邪⑨？  
故为天下贵。

## LXII

Dao borliq (jamiki mavjudot)ning valine'matidir!  
(Dao jamiki mavjudotning panogohidir!)  
(U) yaxshi odamlar uchun tabarruk bo'lsa,  
(u) yomon kimsalarning ham asraguvchisidir.  
Go'zal kalima (ezgu so'z) hurmat keltirar,  
go'zal amal (ezgu amal) odamiylikni orttirar.  
Odamlarning yomonlariki,  
ulardan voz kechmoqqa qanday ko'z qiyar?<sup>149</sup>  
Inchunin, Osmon O'g'li (podshoh) taxtga chiqqach,  
uch amirni<sup>150</sup> tayinlaganda,  
garchi to'rt otilq muhtasham aravalari  
qo'shqo'l javohir chambarlar<sup>151</sup> bo'lsa-da,  
(ularga) Dao hikmatini armug'on qilganlari afzaldir.  
Azaldan Daoni qadrlashlarining boisi nedir?

<sup>149</sup> Lao-zi yovuz kimsalami ham yaxshi tomonga o'zgartirish mumkin, dunyoda voz kechilgan odamlar bo'lishi kerak emas deb hisoblaydi. Buning uchun esa ezgu so'z va ezgu amaldan foydalanish lozim.

<sup>150</sup> Uch amir – podshoh qo'l ostidagi qo'shin va hukumat ishlariga mas'ul oliy qo'mondonlar, ular podshohga davlatni boshqarishga yordam beriganlar. Turli davrlarda har xil nomlar bilan atalgan. Xitoyning Jou sulolasi davrida (taxminan mil. avv. 1046 – mil. avv. 256-yy.) ta'sis etilgan bo'lib, «tay-shi», «tay-fu» va «tay-bao» deb yuritilgan, ularni o'zbek tiliga sharli ravishda «amiri lashkar», «amiri muhofazat» va «amiri noib» deb o'girdik. Xan sulolasi davriga (mil. avv. 206 – mil. 220 y.) kelib shunchaki lavozim saqlanib qolgan esa-da, lekin amalda huquq va vakolatlari qolmagan edi.

<sup>151</sup> Qo'shqo'l javohir chambar – o'rtasida yumaloq teshigi bor dumaloq ko'zgusimon nefrit toshi, qimmatbaho sovg'a hisoblangan, qo'shqo'llab ko'tarilgani uchun ham shunday nomlangan. To'rt otilq arava – to'rt bosh ot qo'shilgan arava, qadimda faqat osmon o'g'li (podshoh), vazirlargina o'tirishi mumkin bo'lgan arava. «Qo'shqo'l javohir chambari oldinda, to'rt otilq arava ortida» – bu sovg'a qiliishning qadimgi bir taomili bo'lib, ancha tantanavor hisoblangan.

Bu: «Izlangan – (unga) muyassar bo'lar (yetishar),  
 (intilgan – murodga yetar)  
 Bor gunohlaringni afv etar», – degani uchun emasmi?  
 Shuning uchun ham Osmonostidagilar uni (Daoni) qadrlaydilar!

### 第六十三章


为无为，事无事，味无味。  
 大小多少。  
 报怨以德。  
 图难于其易，  
 为大于其细；  
 天下难事，必作于易；  
 天下大事，必作于细。  
 是以圣人终不为大，  
 故能成其大。  
 夫轻诺必寡信，  
 多易必多难。  
 是以圣人犹难之，  
 故终无难矣。

### LXIII

Xatti-harakat (daxl) qilmay ado et,  
 Ish qilsang beg'urbat (betashvish) qil,  
 Ta'msizni ta'm bil<sup>152</sup>.  
 Kichikka katta bilan, ozga ko'p bilan<sup>153</sup>,  
 nafratga himmat bilan javob qaytar.  
 Osonidan kirishsang, qiyinda bas kelursan;  
 maydasidan tirishsang, buyuk ishlar qilursan;  
 Osmonostidagi (olamdag'i) qiyin ishlar, albatta, osonlaridan boshlanadi;  
 Osmonostidagi buyuk ishlar, albatta, maydalaridan boshlanadi.  
 Donishmandlar hech qachon buyuklik da'vo qilmagan,  
 shu sabab buyuk bo'la olganlar.  
 Yengil-yelpi va'daning vafosi bo'lmas,

<sup>152</sup> Borliqdagi barcha narsada ta'm, lazzat bo'lib, lekin ular xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Donishmandlar mazali bilgan ta'm, lazzat oddiy odamlarnikidan farq qiladi, ya'ni donishmandlar Dao ta'midan lazzat topurlar. Bu yerda «ta'msiz» deyilganda Daoga ishora bo'lib, u donishmandlar uchun jon va ruh huzuridir.

<sup>153</sup> Bu jumlaning turli xil tarjimalari mavjud: «katta kichikdan bunyodga kelmish, ko'p ozdan boshlanmish»; «kichigin katta bit, ko'p bilgin ozin», «katta berib kichigin ol, ko'pin berib ozin ol».





(yengil so'z bevadir, xolos)  
 ishni ko'p oson deganning mashaqqati ham bisyordir, albat.  
 Shuning uchun ham donishmand  
 har ishga qiyindek qarar,  
 shu sabab axiri chekmas mashaqqat.

### 第六十四章

其安易持，  
 其未兆易谋；  
 其脆易泮，其微易散。  
 为之于未有，  
 治之于未乱。  
 合抱之木，生于毫末；  
 九层之台，起于累土；  
 千里之行，始于足下。  
 为者败之，执者失之。  
 是以圣人无为故无败，  
 无执故无失。  
 民之从事，常于几成而败之。  
 慎终如始，则无败事。  
 是以圣人欲不欲，  
 不贵难得之货，  
 学不学，复众人之所过，  
 以辅万物之自然而不敢为。

### LXIV

Nimaiki tinch turgan bo'lsa, uni saqlash oson;  
 nimaniki hali alomati bo'lmasa,  
 unga reja (*mo'ljal*) qilmoq oson;  
 nimaiki mo'rt bo'lsa, uni ushatmoq oson;  
 nimaiki mayda bo'lsa, sochilib ketmog'i oson.  
 Bir balo bo'lmasidan harakatingni qilib qol;  
 bir g'avg'o chiqmasidan oldini ol.  
 Yo'g'onligi quchoqdek keladigan ulkan daraxt ham  
 qilchaligidan unib-o'sgan;

to'qqiz qavatlik baland minora ham  
 kajava tuproq uyumidan qad rostlagan;  
 ming chaqirimlik olis safar ham  
 oyoqlaring ostidan (*birinchi qadamdan*) boshlanadi.  
 Chirangan yutqazar,  
 tarmashgan yo'qotar.  
 Shuning uchun donishmand odam  
 chiranmaydi, shunga yutqazmaydi;  
 tarmashmaydi, shunga hech narsasin yo'qotmaydi ham.  
 Odamlar biror nima qilgudek bo'lalar  
 doim muvaffaqiyatga bir bahya qolganida yengiladilar.  
 Oxirigacha ham xuddi boshidagidek astoydil kirishsang,  
 o'ngidan kelmaydigan ishning o'zi yo'qdir.  
 Shuning uchun donishmandlar  
 boshqalar intilmaydigan narsalarga intiladilar;  
 yetishish mushkul bo'lgan mol-dunyoga parvo ham qilmaydilar;  
 (*donishmandlar*) odamlar o'rganmaydigan narsalarni o'rganadilar;  
 odamlarni xato qilishdan qaytaradilar.  
 Borliq (mavjudot)ning o'z tabiiy qonuniyatiga ko'maklashadi,  
 o'zboshimchalik qilishga botinolmas.

### 第六十五章

古之善为道者，  
 非以明民，将以愚之。  
 民之难治，以其智多。  
 故以智治国，国之贼；  
 不以智治国，国之福。  
 知此两者，亦稽式。  
 常知稽式，是谓玄德。  
 玄德深矣，远矣，与物反矣，  
 然后乃至大顺。

### LXV

Burungi Dao sohibkorlari xalqqa aqli-pishiq bo'lsin uchun emas,  
 sodda-samimiyl bo'lsin deb ta'lim-tarbiya bergenlar.  
 Xalqni idora etishning mashaqqati –





ularning haddan ortiq aqli-mahmadana bo'lib ketishlarida.  
 Chunki mahmadanalik bilan davlatni boshqarish elning sho'ridir;  
 davlatni boshqarishda mahmadanalik qilmaslik elning baxtidir.  
 Bu ikkisini bilish ham karomat ibratdir.<sup>154</sup>  
 Doimo uni karomat ibrat deb bilish (undan hikmat chiqarish)  
 Tilsimiyl Fazilat (De) demakdir.  
 Tilsimiyl Fazilat naqadar teran, naqadar olis!  
 Borliq bilan asliga qaytar,  
 shundan keyingina Buyuk Xokisorlik darajasiga yetilgay.

### 第六十六章

江海之所以能为百谷王者，  
 以其善下之，故能为百谷王。  
 是以圣人欲上民，  
 必以言下之；  
 欲先民，必以身后之。  
 是以圣人处上而民不重，  
 处前而民不害。  
 是以天下乐推而不厌。  
 以其不争，故天下莫能与之争。

### LXVI

Daryo va dengizlar shuning uchun ham yuzlab jilg'alar hukmdoridirki,  
 chunki ular o'zlarini past tutishni afzal ko'rurlar,  
 shuning uchun ham yuzlab jilg'alar hukmdori bo'la oldilar.  
 Inchunin, donishmand u –  
 istasa xalq boshiga ko'tarishin dast,  
 shartidir albat so'zda kelmoq past (*so'zida kamtarin bo'lmosh'i shart*);  
 gar xalqin oldida bo'lmoq istar,  
 albatta, avvalo, o'zin xalqdan keyin ko'rар  
 (*o'z manfaatini xalq manfaatidan keyinga qo'yar*).  
 Inchunin, donishmand odamni xalq boshida ko'tarib yurur,  
 lek bu xalqqa hech og'irlilik qilmas,  
 oldinda tursa ham, xalqqa zarracha ziyoni tegmas (*to'g'anoq bo'lmas*).

<sup>154</sup>Davlatni (elni) boshqarish qonuniyatı.



Inchunin, Osmonostidagilar uni  
 bajonidil o'zlariga rahnamo deb bilurlar,  
 lek aslo undan bezor bo'lmaslar.  
 U hech kim bilan baslashmas,  
 shuning uchun ham Osmonostida unga bas keladigan topilmas.

### 第六十七章

天下皆谓我“道”大，似不肖。  
 夫唯大，故似不肖。  
 若肖，久矣其细也夫！  
 我有三宝，持而保之：  
 一曰慈，二曰俭，三曰不敢为天下先。  
 慈故能勇；  
 俭故能广；  
 不敢为天下先，  
 故能成器长。  
 今舍慈且勇；  
 舍俭且广；  
 舍后且先；死矣！  
 夫慈，以战则胜，以守则固。  
 天将救之，以慈卫之。

### LXVII

Osmonostidagilar mening Dao (*Yo'l*)imni nihoyatda buyuk deyishdi,  
 o'xshashi (*qiyosi*) yo'qdir.  
 Buyuk bo'lganligi uchun ham o'xshashi yo'qdir (*hech narsaga o'xshamaydi*).  
 Agar nimagadir o'xshaganida,  
 unda allaqachonlar maydalashib ketgan bo'lur edi!  
 (*arzimas narsaga aylanib qolgan bo'lardi!*)  
 Mening uch xazinam bor,  
 ularni mahkam tutdim va asrab-avayladim:  
 birinchisi mehr-shafqat (*mehribonlik*) deyilgay,  
 ikkinchisi kamsuqumlik deyilgay,  
 uchinchisi Osmonostida hamidan oldinga o'tib ketishga botinmaslik (*xokisorlik*)  
 deyilgay.





Mehribon bo'lsagina mardlik qila olgay,  
 Kamsuqum bo'lsagina bag'rikenglik (*saxiylik*) qila olgay,  
 Osmonostida hammadan oldinga o'tib ketishga botinmaslik sharofati bilan barcha  
 narsalarga rahnamo bo'lish mumkin.

Hozirda mehr-shafqatdan kechib,  
 tag'in mardlik qilmoqchi bo'ladilar,  
 kamsuqumlikdan kechib,  
 saxiylik qilmoqchi bo'ladilar,  
 ortda qolishdan kechib,  
 oldinga o'tmoqchi (*hammadan o'zib ketmoqchi*) bo'ladilar,  
 bundaylarning ajali yetgandir!  
 Mehr-shafqatki, u bilan jangga kirishsang,  
 g'alaba qozongaysan;  
 u bilan himoyalansang sobit turgaysan.  
 Osmon (*Xudo*) kimga madadkor bo'lsa,  
 mehr-u shafqati ila uni O'z panohida asragay!

第六十八章  
 善为士者，不武；  
 善战者，不怒；  
 善胜敌者，不与；  
 善用人者，为之下。  
 是谓不争之德，  
 是谓用人之力，  
 是谓配天古之极。

## LXVIII

Mohir sarkarda jangari bo'lmas;  
 mohir jangchi jizzaki bo'lmas;  
 mohir g'olibga jangning hojati bo'lmas;  
 boshqalarni ishga solishga mohir odam kamtarin bo'lur.  
*(Sarkardalar sarasi qurolsiz jasorat ko'rsatganidir;*  
*jangchilarining sarasi o'zini g'azabdan tiya olganidir;*  
*g'oliblarning sarasi raqib bilan olishuvga o'rinn qoldirmaganidir;*

*(podsholarning sarasi kamtarinidir.)*

Bu jang qilmaslik xosiyati demak;  
bu odamlarni ishga solish salohiyati demak;  
bu Falakning Azal toqiga munosibligi demak.

### 第六十九章

用兵有言：

“吾不敢为主，而为客；  
不敢进寸，而退尺。”  
是谓行无行；  
攘无臂；  
扔无敌；  
执无兵。  
祸莫大于轻敌，  
轻敌几丧吾宝。  
故抗兵相若，哀者胜矣。

### LXIX

Lashkarboshilardan biri shunday degan ekan:  
«Janggohda «mezbon»<sup>155</sup> bo'lishga botinmayman,  
«mehmon»<sup>156</sup> bo'lishga jazm eturman  
(«Hujumga o'tishga botinmayman,  
lekin mudofaaga jazm eturman»);  
bir qarich olg'a siljishga botinolmayman,  
lek bir qadam ortga tislanganim afzalroq».<sup>157</sup>  
Bu (jangovar tartib bo'la turib xuddi) tuzgani safi yo'qdek,  
(qo'llari bo'la turib xuddi) ko'targani qo'li yo'qdek  
(shimargani yenglari yo'qdek),  
(dushmanga ro'baro' bo'la turib xuddi) hujum qilgani dushmani yo'qdek,  
(quroli bo'la turib xuddi) tutgani quroli yo'qdek deganidir.  
Kulfatlar ichida dushmanga napisand bo'lishdan ham mudhishrog'i yo'qdir;  
agar dushmaningni nazarga ilmasang,

<sup>155</sup> Jangda hujumni boshlovchi tomonga ishora.

<sup>156</sup> Jangda himoyalanishga majbur bo'lgan tomon nazarda tutilmoxda.

<sup>157</sup> Bu yerda «qarich» va «qadam» so'zлari shardli ravishda tarjimada qo'llangan, xitoycha aslida qarich o'mida «sun», qadam o'rнida «chi» xitoycha uzunlik o'chov birligi ishlatalgan: sun – 3,33 sm, chi – 0,33 m.



bisotingdan judo bo'lishga ham bir bahya qolibdi.  
 (Gar bo'lsang dushmaningga napisand,  
 Musibat ostonangga zanjirband.)  
 Shuning uchun ikki qo'shin kuchlari teng kelganida  
 g'alaba g'ambodalarga (hasrat ila jangga kirganlarga) nasib bo'lgay.

### 第七十章

吾言甚易知，甚易行。  
 天下莫能知，莫能行。  
 言有宗，事有君，  
 夫唯无知，是以不我知。  
 知我者希，则我者贵。  
 是以圣人被褐而怀玉。

### LXX

So'zlarimni tushunish nihoyatda oson,  
 amal qilish-da nihoyatda osondir.  
 Lek Osmonostida tushunishga qodir kimsa yo'q,  
 amal qilguvchi-da topilmas.  
 So'zlarning aslini so'zla,  
 ishlarning shohini qil!  
 (So'zlariningda mohiyat bo'lsin,  
 Ishlarningda asos bo'lsin.)  
 Ular (*odamlar*) g'aflatda qolganliklari bois  
 (*bu haqiqatni tushunmaganlari bois*),  
 inchunin, meni-da tushunmagaylar.  
 Meni tushunguvchilar naqadar ozdir!  
 Menden ulgi olguvchilar naqadar aziz!  
 Inchunin, donishmandlar egnida dag'al kiyim,  
 qo'ynilarida javohirot asragan kishilardir.

### 第七十一章

知不知，尚矣；  
 不知知，病也。  
 圣人不病，以其病病。

夫唯病病，是以不病。

## LXXI

Bilmaganini bilish fazilatdir,  
 Bilmasa-da, bilag'onlik qilish illatdir.  
*(Bilmasligini bilish – donolik,  
 Bilmasa-da, bildim deyishlik nodonlikdir.)*  
 Donishmandlar beillatdir,  
 chunki ular uchun illat illatdir.  
 Ular illatni illat deganlari bois  
 illatlarini tuzata olgaylar – beillat bo'lgaylar.

## 第七十二章

民不畏威，  
 则大威至。  
 无狎其所居，  
 无厌其所生。  
 夫唯不厌，是以不厌。  
 是以圣人自知不自见，  
 自爱不自贵。  
 故去彼取此。

## LXXII

Xalqning kuch-qudratdan hayiqmay qo'ygani –  
 eng mudhish tahdidning yaqinlashib kelgani.  
 Xalqni istiqomatgohlaridan bezdirmang,  
 tirikchiliklariga to'g'onoq bo'lmaning.  
*(Podsho) zug'um qilmasa,*  
*(xalq) hazar qilmas.*  
*(podsho zulm qilmasa, xalq hazar qilmaydi;*  
*nafratlantirmasangiz, nafratlanmaslar;*  
*jabr qilmasangiz, jafo chektirmas.)*  
 Shuning uchun donishmand odam o'zini yaxshi bilar,





lekin o'zini ko'rsatishga urinmas;  
o'z qadrini bilar,  
lekin izzattalablik qilmas.  
Shunga biridan voz kechib,  
boshqasiga sazovor bo'ladi.

### 第七十三章

勇于敢则杀，  
勇于不敢则活。  
此两者，或利或害。  
天之所恶，孰知其故？  
是以圣人犹难之。  
天之道，不争而善胜，  
不应而善应，  
不召而自来，  
禪然而善谋。  
天网恢恢，疏而不失。

### LXXIII

Botirman deb chiransangiz,  
Balo-qazo – qismatingiz.  
Botirlik ham evi bilin  
Bo'lsa, sog'dir tan-joningiz.  
Bu ikkisin biri foyda,  
Yana biri zararlidir.  
Falak nafratlanganin  
Kim ham bilar boisin?!

Shu sabab hatto donishmandlar ham  
tushuntirib berishi qiyin narsalar bordir.  
Samoviy Dao (Charxi Falak)<sup>154</sup>  
kurashmaydi, lek yengishga qodir;  
so'zlamaydi, lek hozirjavob;

<sup>154</sup> Samoviy Dao – xitoy tilida «tyen-dao», so'zma-so'z tarjima qilinganda «Osmon Yo'li», «Samoviy yo'l», tabiat harakatlarining qonuniyatlarini anglatadi; shuningdek, bu so'zning «osmon hodisalari», «Falak ra'y» (xudoning irodasi) kabi ma'nolari ham bor. Bu so'z mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanilgan «Charxi Falak» istilohiga ancha yaqin ma'noni anglatgani uchun ham ba'zi o'rinnlarda shartli ravishda shu nomdan foydalandik. – I.Q.

chorlamasang ham, o'zi hozir-u nozir;  
 imillagan, lek sohibi tadbir.  
 Osmon to<sup>159</sup> kengdan-keng,  
 garchi siyrak esa-da,  
 hech narsani o'tkazib yubormaydi.

### 第七十四章

民不畏死，  
 奈何以死惧之。  
 若使民常畏死，  
 而为奇者，  
 吾得执而杀之，孰敢？  
 常有司杀者杀。  
 夫代司杀者杀，  
 是谓代大匠斫，  
 希有不伤其手者矣。


### LXXIV

Xalq o'limdan hayiqmay qo'ysa,  
 qanday qilib uni o'lim bilan qo'rqtasan?  
 Agar xalq doimo o'limdan hayiqib turganida  
 manfur kimsalarni tutib keltirib qatl qilsam,  
 yana kimning ham (*gustohlik qilishga*) haddi sig'ardi?!  
 Azaliy Jon Olguvchi bordir;  
 Jon Olguvchi o'rniga jallodlik qilish –  
 bu xuddiki buyuk duradgor o'rniga yog'och kesishdek gap:  
 bunday buyuk duradgor o'rniga yog'och kesuvchilarning  
 o'z qo'llarini kesib olmaganlari kamdan-kamdir.

### 第七十五章

民之饥，  
 以其上食税之多，是以饥。  
 民之难治，

<sup>159</sup> Osmon to'ri – Osmon (Tangri) qo'ygan to'r. Hozirgi kunga kelib Lao-zining ushbu «Osmon to'ri kengdan-keng» so'zları «Xudo jazosini beradi», «Tangrining jazosidan hech kim qochib qutulolmaydi», «Xudoning so'rovidan qochib qutulolmaysan» kabi ma'nolarda qo'llaniladi.





以其上之有为，是以难治。  
民之轻死，  
以其上求生之厚，是以轻死。  
夫唯无以生为者，是贤于贵生。

LXXV

Xalqning ochligiga  
hukmdorning ochko'zligidan soliqlarning ko'payib ketganligi sababdir,  
shuning uchun ocharchilik sodir bo'lган.  
Xalqni idora qilish qiyinligi  
hukmdorning qilg'iliklaridandir,  
shuning uchun ham idora qilish qiyin bo'lib qolgan.  
Xalqning o'limga yengil qarashi  
hukmdorning o'z joni rohati, kayf-u safoga ruju qo'yganidandir,  
shuning uchun xalq o'limdan ham tap tortmaydi.  
Faqat o'z joni va tirikchilagini o'ylamaydigan odamlargina  
anavi jonlarini haddan ortiq ayaydigan kimsalardan avlodir.

第七十六章

人之生也柔弱，  
其死也坚强。  
草木之生也柔脆，  
其死也枯槁。  
故坚强者死之徒，  
柔弱者生之徒。  
是以兵强则灭，木强则折。  
强大处下，柔弱处上。

LXXVI

Inson tug'ilganida yumshoq va mayin,  
o'lganida esa qattiq va bukilmas bo'lib qoladi.  
Dov-daraxt va o't-o'lanlar – jamiki mavjudot  
nozik va nimjon holda dunyoga keladi,  
o'lgach esa qurib-qaqshab qoladi.  
Shu bois qattiqlik o'limga xos



(*qattiqlik o'lim toifasidandir*);  
 yumshoqlik tiriklik belgisidir  
 (*yumshoqlik hayot toifasidandir*).  
 Shuning uchun qudratli qo'shinni ro'kach qilgan halokatga yo'liqar  
 (*qurol kuchi bilan maqtanganning halokati muqarrar*);  
 baquvvat daraxt boltaga yo'liqar.  
 Qudratli va yiriklar pastga inadi,  
 yumshoq va noziklar yuksakka intiladi.

### 第七十七章

天之道，其犹张弓与？  
 高者抑下，下者举之，  
 有余者损之，不足者补之。  
 天之道，损有余而补不足。  
 人之道，则不然，  
 损不足以奉有余。  
 孰能有余以奉天下，唯有道者。  
 是以圣人为而不恃，  
 功成而不处，  
 其不欲见贤。

### LXXVII

Samoviy Dao,  
 u bamisoli yoy tortishga o'xshamasmi?  
 Balandlab ketgan bo'lsa, biroz indiriladi,  
 pasayib ketgan bo'lsa, biroz ko'tariladi;  
 ortig'ini biroz ozaytirsa,  
 yetmaganini biroz to'ldiradi.  
 Samoviy Daoki,  
 ortig'ini ozaytirib, yetmaganni to'ldiradi.  
 Insoniy Dao esa undoq emas:  
 o'zi yetmay yotganini ozaytirish bilan  
 ortig'iga taqdim qiladi.  
 Kim ortig'i bilan Osmonostidagi yetmaganlarni to'ldira oladi?  
 Yolg'iz taqvodorlargina (*sohibi daolargina*).  
 Inchunin, donishmand odam  
 xizmat ko'rsatsa ham, o'ziga bino qo'ymarydi;



muvaffaqiyat qozonsa ham, o'ziniki qilib olmaydi;  
 o'zining iste'dodini ko'rsatishni istamaydi.  
*(Inchunin, donishmandlar  
 xizmat qilsalar-da, bir nima ilinjida bo'lishmas;  
 erishgan muvaffaqiyatlarini yolg'iz o'zlariniki qilib olishmas;  
 o'zlarini dono qilib ko'rsatishni istashmas.)*

### 第七十八章

天下莫柔弱于水，  
 而攻坚强者莫之能胜，

以其无以易之。

弱之胜强，柔之胜刚，

天下莫不知，莫能行。

是以圣人云：

“受国之垢，是谓社稷主；

受国不祥，是为天下王。”

正言若反。

### LXXVIII

Osmonostida suvdan-da halimroq<sup>160</sup>, nozikroq narsa yo'qki,  
 biroq pishiq-mustahkam narsalarni mavh etishda ham undan o'tadigani yo'q.  
 Chunki uning o'rmini bosa oladigan narsa ham yo'qdir.  
 Nozikning kuchlini yenga olishini,  
 Halimning qattiqni yenga olishini  
 Osmonostida bilmaydigan kimsa yo'q,  
 (lek bu haqiqatni) ro'yobga chiqara oladigan hech zog'-da yo'q.  
 Inchunin, donishmand odamlar shunday degaylar:  
 «Yurt or-nomusin o'z zimmasiga olgan  
 Zamin va Ziroat muakkili<sup>161</sup> – Davlat egasi demakdir;  
 el boshiga tushgan musibatni o'z zimmasiga olgan  
 Osmonostiga (saltanat, elga) hukmdor bo'lgay».  
 To'g'ni so'z go'yoki telba-teskari.

<sup>160</sup> Muloyimroq.

<sup>161</sup> Zamin va Ziroat muakkili – bu yerda davlat degani. Er muakkili – Zamin ilohi, Ziroat muakkili – Ziroat ilohi; qadimda Xitoy podsholari Yer va Ziroat ilohlariga atab qurbanliklar qilishi kerak bo'lган, shuning uchun ham keyinchalik ular davlat ramziga aylangan.

## 第七十九章

和大怨，必有余怨；  
安可以为善？  
是以圣人执左契，而不责于人。  
有德司契，无德司彻。  
天道无亲，常与善人。

## LXXIX

*Murosa qilinsa, arir mudhish adovat,  
Lek qolg'usi albat sarqit xusumat;  
Qaydan mumkin buni demoq ezgulik?!  
Inchunin, donishmand odam  
ilgida so'lparcha g'arov tilxat<sup>162</sup> bo'lsa-da,  
lek odamlarga malomat qilmas (qarzini talab qilib qistamas).  
Xosiyatli<sup>163</sup> kishilar olijanob tilxatchidek bag'rikeng,  
Bexosiyat kimsalar g'addor o'lponchidek<sup>164</sup> mug'ambir.  
Charxi Falak (Samoviy Dao, Falak Yo'rig'i) xolis-beg'araz  
(uning uchun insonlarning qarindosh-u begonasi bo'lmas),  
Yaxshilarga hamisha yordir!  
(Doimo yaxshilar bilan birgadir!)*

## 第八十章

小国寡民。  
使有什伯之器而不用；  
使民重死而不远徙；  
虽有舟舆，无所乘之；  
虽有甲兵，无所陈之。  
使人复结绳而用之。

<sup>162</sup> G'arov tilxat – qadimgi Xitoyda buyum, pul, guruch yoki boshqa yegulik qarz oldi-berdisida qo'llangan tilxat, vasiqa; g'arov (bamruk) yoki taxtachadan bo'lgan, ustiga o'yib xat tushirilgan; tilxat o'rtasidan teng ikkiga bo'lingan hamda chap (so'l) parchasi qarz beruvchida qolgan, o'ng parchasi qarz oluvchida saqlangan; ushbu tilxat qarz haqidagi kelishuvga dalil hisoblangan.

<sup>163</sup> «Xosiyatli» deganda yuksak fazilatli, axloqli kishilarga ishora. Quyida esa «bexosiyat» so'zi qo'llanilgan, bunda fazilatsiz, badxulq manfur kimsalar nazarda tutilgan.

<sup>164</sup> O'lponchi – bu yerda: Xitoning Jou sulolasi davrida joriy qilingan yer solig'ini yig'ish bilan shug'ullanuvchi kichik amaldor.





至治之极。  
甘美食，美其服，  
安其居，乐其俗，  
邻国相望，鸡犬之声相闻，  
民至老死不相往来。

## LXXX

Mamlakat ushoqqina, nufusi-da ozgina.  
Quroq-yarog'i o'n-u yuz hissa bo'lsa-da, ularga hojat bo'lmas;  
xalqni o'limga jiddiy qarashga (hayotni qadrlashga) o'rgat,  
shunda ular (jonlarini xavf-xatarga qo'yib) olislarga darbadar ketmas;  
garchi kema-yu aravalari bo'lsa ham, ularga o'tirishga zarurat bo'lmas;  
garchi sovut-salohlari bo'lsa ham, ularni ishlatishga zarurat qolmas.  
Xalqni arqon tugib (ishlarni) qayd etib qo'yadigan burungi zamonlarga qaytaradi.  
El maromiga yetkazib idora etilsagina,  
totlidir yeganlari, go'zaldir kiyganlari,  
osoyishta makonlari, xursandchilik – odatlari.<sup>165</sup>  
Qo'shni yurtlar bir-biriga ko'rinish tursa ham,  
hatto xo'rozlarining qichqirig'i-yu itlarining hurishi bir-birlariga eshitilib tursa ham,  
odamlari keksayib vafot etgunlaricha bir-birlariga o'tib-qaytib<sup>166</sup> (ovora bo'lib)  
yurmaydi.

## 第八十一章

信言不美，美言不信。  
善者不辩，辩者不善。  
知者不博，博者不知。  
圣人不积，  
既以为人已愈有，  
既以与人已愈多。  
天之道，利而不害。  
圣人之道，为而不争。

## LXXXI

<sup>165</sup> Donishmand bu o'rinda: «El a'lo darajada idora etilgandagina jamiyaida fayz-u baraka bo'ladi», – demoqchi. Ya'ni: bunday yurt odamlari uchun oddiy yegulik ham mazali taom kabitdir, qanoat ularning ko'zlarini ham, qursoqlarini to'q tutar; kiyib yurganlari ham odmigina, biroq ularga ko'rak bag'ishlab turar; yurt tinch, odamlarning ko'ngillari xotirjam; to'y-tomoshalar ularning odatlariga aylangan, har kunlari xursandchilikka boy.


<sup>166</sup> «Qadimgi xitoy tili lug'ati»da bu o'rinda «o'zaro bordi-keldi qilib yurmaydi» deb talqin qilingan.




Chin<sup>167</sup> so'zlar chiroyli bo'lmas,  
 Chiroyli so'zlar chin bo'lolmas.  
 (Rost so'zlar go'zal bo'lmas, go'zal so'zlar rostakam bo'lmas.)  
 Xokisorlar chechan<sup>168</sup> bo'lmas,  
 Chechanlar xokisor bo'lmas.  
 Donolar aqlilik qilmas,  
 Aql o'rgatuvchi hech vaqoni bilmas.  
 Donishmandlar (boylik) to'plamas,  
 odamlarga qanchalik yordam qilsalar,  
 o'zлari ham shunchalik muyassar bo'lg'ay;  
 o'zgalarga ehson qilganlari sayin  
 o'zlariniki shunchalik ziyoda bo'lg'ay  
 (odamlarga qanchalik ehson qilsalar, o'zlariniki shunchalik ko'payar).  
 Osmon yo'rig'i (Charxi Falak) shundayki,  
 naf keltirur, lek ziyon yetkazmas.  
 Donishmand yo'rig'i shundayki,  
 yordam berur, lek talashmas.


<sup>167</sup> Bu yerda «chin» so'zi o'mida «samimiyy», «haqiqat» istilohlarini ham qo'llash mumkin: «Samimiy so'zlar chiroyli bo'lmas, Chiroyli so'zlar samimiy bo'lmas».

<sup>168</sup> Chechan – gapga usta, gapdon, so'zamol, ezma odam.





KONFUTSIY  
MUHOKAMA VA BAYON



Xitoy tilidan tarjima va izohlar muallifi

**ILHOM QOSIMOV,**

Toshkent gumanitar fanlar universiteti xitoy tili o'qituvchisi, Xalqaro Konfutsiychilik  
Assotsiatsiyasi a'zosi

Taqrizchilar:

**Baxtiyor Nazarov,**

filologiya fanlari doktori, akademik

**Muhabbat Sharafutdinova,**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yulduz Qayumxo'jayeva,**

Xitoy tili o'qituvchisi

## KONFUTSIY O'ZBEK TILIDA SO'ZLAMOQDA...

*K*onfutsiy insoniyat e'tirof etgan jahon miqyosidagi daho zotlardan biridir. Bu Xitoy faylasufi va mutafakkirining ta'limoti vatani tuprog'ida shakllanib, kamol topgan esa-da, yillar, asrlar o'tib dunyodagi ko'plab xalqlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-madaniy va axloqiy-ma'rifiy tafakkuriga barakali ta'sir ko'rsatdi.


Konfutsiy miloddan avvalgi 550-yillar atrofida tug'ilib, miloddan avvalgi 479-yilda vafot etgan. Harbiy ish bilan mashg'ul oilada tarbiyalanib, voyaga yetgan. Ota-bobolari yuqori tabaqaga mansub kishilardan bo'lган. Keyinchalik mashhur bo'lajak uning falsafiy-axloqiy qarashlari, davlat va boshqaruv, shaxs va jamiyat haqidagi mushohadalar, dastlab tarbiya topgan ana shu oilaviy sharoitda shakllana bordi hamda bora-bora o'zining hayotiy tajribalari bilan to'yinib kamol topdi.

Mutafakkir Konfutsiy yoshligidan ta'lim-tarbiya olish barobarida, o'zi ham hayotning bu dolzarb sohasi bilan maxsus shug'ullandi va Xitoyda zamonasining katta hurmatga sazovor muallimi sifatida shuhrat qozondi. U asos solgan maktabda oddiy xalq vakillaridan tashqari, yuqori mansab-martabali kishilarning farzandlari ta'lim oldi va tarbiya topdi. Konfutsiy maktabda bola asosan to'rt fanni, albatta, bilishi va chuqur egallashi shart, deb tushundi. Uning fikricha, bu ilmlarsiz kishi tom ma'nodagi kamolotga erishuvi mumkin emas. Bular: til, adabiyot, axloq va siyosat fanlaridir.

Aksar daholar kabi, Konfutsiy hayotda ko'pdan-ko'p qarshiliklarga duch keldi, fitna-fujurlardan qalbi yaralandi. Davlat idoralarida yuksak martabalarni egallab turganida ham muxoliflari unga qarshi g'iybatlarini to'xtatmadilar. Shu bois uning ko'pdan-ko'p chuqur falsafiy mushohadalariga, aforizm darajasiga ko'tarilgan dono mulohazalariga uning muallifi ilm egallash tufayli qo'lga kiritilgan natijalar sifatida emas, o'zining shaxsiy hayotiy tajribalaridan chiqarilgan xulosalar tarzida ham qarash to'g'ri bo'ladi. Muhtaram kitobxon ushbu kitobchada mutafakkirning ana shunday qator dono fikrlariga duch keladi.

Buyuk faylasuf Konfutsiyning katta hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalari uning "Musohaba va mushohada" ("Muhokama va bayon" — I.Q.) nomli kitobida aks etgan.

Tarixda qiziq bir paradoksga duch keladi kishi. Bu ayrim daholarning buyuk asarlari muallifning o'z qo'li bilan yozilmay, ular tomonidan yuritilgan mushohadalar, xulosalar, suhbatlar, qilingan ma'ruzalar yoxud aytib turilgan fikrlar, misralarning



o'zgalar tomonidan, ko'pincha suhbatdoshlar, shogirdlari tomonidan yozib olingan, kelajak avlodlarga yetkazilishi, tarix mulkiga aylantirilishidir.

Bunga Sharqdan ham, G'arbdan ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Mavlono Jaloliddin Rumiyning ko'plab buyuk misralari uning shogirdi tomonidan qog'ozga tushirilgani ma'lum. Sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklar'i ham kotib tomonidan yozib olingan. Gegelning estetikaga doir mashhur asarlari faylasuf ma'ruzalarining talabalar tomonidan yozib olingan konspektlari asosida jamlangan. Konfutsiyning yuqorida e'tirof etilgan "Musohaba va mulohazalar" nomli jahonga mashhur kitobidan o'rinni olgan fikrlar ham asosan shogirdlar, suhbatdoshlar, zamondoshlarning Konfutsiyga mansub fikrlarni to'plashlari, jamlashlari asosida yuzaga kelgan ekan. Bamisolli buyuk hadislar singari.

Konfutsiy nomi, shaxsi, ta'limoti o'z davridan boshlaboq shu qadar katta hurmat-e'tiborga sazovor bo'lganki, uning qabri joylashgan ibodatxona miloddan avvalgi 450 yillar atrofidayoq nainki oddiy avom, balki Xitoy imperatorlari ham kelib sig'inadigan muqaddas ziyyaratgohga aylangan. Hozirda mavjud bu ibodatxonaning jami besh yuzga yaqin xonalarini jahon sayyoohlari muntazam tavof qiladilar.

Konfutsiy ta'limotidagi, falsafasidagi ajralmas uch birlik: insonparvarlik (jen), odob va axloq (li) hamda xosiyat (de) — uning deyarli aforizm darajasiga ko'tarilgan dono fikrlarining ham asosini tashkil etadi, deyish mumkin. Siz ushbu kitobni o'qib, bunga ishonch hosil qila olasiz.

Konfutsiy va bizning Sharq donishmandlarimizning odob va axloq, ma'rifat va ma'naviyatga doir qarashlari o'rtasida ko'plab yaqin jihatlarni uchratish mumkin. Masalan, Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, odob nechog'lik takomillashsa, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilsa, jamiyat shunga monand taraqqiy etishi mumkin. Adolatning zamiri odobdadir. Odob va burch mushtarakligi, Konfutsiy xulosasiga ko'ra, jamiyatning axloq kodeksini tutib turuvchi ustunlar kabidir. Biz bunga yaqin bo'lgan qarashlarni Forobiy, G'ijduvoniy, Behbudiylarning falsafiy qarashlarida, Navoiy, Bobur, Ogahiyarning badiiy asarlarida duch kelamiz. Nazarimizda, Konfutsiy ta'limotining ayrim qirralari bilan tasavvuf ta'limotining komil shaxs xususidagi ayrim nuqtalari o'rtasida mustahkam bog'lanish bordek ko'rindi.

Konfutsiy qarashlarida, shuningdek, qonun va jamiyat, shaxs va huquq, adolat va ma'naviyat, hokimiyat va mas'uliyat masalalari muhim o'rinni tutadi. Masalan, qonunchilikda maydalashib ketmaslik kerak, deydi u. Bu masaladagi maydalashuv, uning fikricha, shaxs va jamiyat aro munosabatlар parokandaligini yuzaga keltirishi mumkin.

Ko'rindiki, Konfutsiy bizga tarixan nechog'lik qimmatli bo'lsa, zamonaviy jihatdan ham qator masalalarda shunchalik yaqin va ahamiyatlidir.

Biroq bu Konfutsiy ta'limoti biz uchun, zamonamiz uchun mutlaqo bekamu ko'st degani ham emas, albatta. Uning ta'limotida, falsafasida o'z davri bilan izohlanuvchi chekalanishlar, bироqlамаликлар yo'q emaski, ular bizning zamonamiz bilan hamqadam bo'lolmaydi, albatta.

Donishmandning umumbashariy qadriyat kasb etuvchi ta'limot va qarashlari biz uchun azizdir. Chunonchi, insoniyat taqdiri muammosida u oila fenomeniga juda katta ahamiyat beradi. She'riyat va musiqaning shaxs kamolotidagi o'rnini birinchilar qatorida deb biladi. She'riyat shaxsning barkamollashuviga ko'maklashishdan tashqari, jamiyatni kamol toptirishda podshohga yordam berishi kerak, degan fikrni aytadi. Xitoy tilidagi "ven-suye" — "adabiyot" so'zining asosini tashkil etuvchi "ven" ifodasini muomalaga Konfutsiy olib kirgan deguvchi qarashlar ham bor.

Bizda Konfutsiyga e'tibor XX asrda jadidlar davridanoq ko'zga tashlanadi. Jadid ziylilari ma'rifatparvarlik g'oyalarini, shaxs kamoloti va tarbiya muammolarini, xalq va millat taraqqiyoti yo'lida adolat, e'tiqod, maslak, burch va jasorat tushunchalarini talqin etishda o'zimizning Sharq daholari, fransuz ma'rifatchilari qatorida Konfutsiy ta'limotidagi qator nuqtalarga tayanganliklariga Behbudiy, Fitrat, Ibrat, Avloniylar ijodi va qarashlaridan ko'plab misollar keltirish mumkin. Bunga Avloniyning ikki jildlik tanlangan asarlaridan qator misollarni dalil keltirish mumkin. Xususan, uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari yuzaga kelishida Sa'diyning "Bo'ston" va "Guliston"idan tashqari, nazarimizda, Konfutsiyning odob va axloq haqidagi qarashlari ham sezilib turadi.

#### Muhtaram kitobxon!

Konfutsiyning dono fikrlaridan namunalar bilan siz shoir Sa'dulla Ahmad tarjimalari orqali ma'lum darajada tanishgansiz. Sa'dulla Ahmad Xitoy mutafakkirining dono fikrlaridan bir dastasini nihoyatda go'zal va shoirona tarzda o'girib, "Jahon adabiyoti" jurnali orqali o'zbek kitobxonlariga tuhfa qilgan edi.

Ushbu kitobdagi jazzi "asarlar" tarjimasini ana shu mehnatning uzviy va mantiqiy davomidir. Lekin bu tarjimaning avvalgisidan asosiy farqi shundaki, ular o'zbekchaga asliyatdan, ya'ni bevosita xitoy tilidan o'girilgandir. Badiiy, falsafiy-axloqiy asarlarning yoxud ayrim parchalar, namunalar bo'lishidan qat'i nazar, ularning o'zbek tiliga bevosita xitoy tilidan o'girilishi, ma'naviy hayotimizda e'tirof etishga munosib hodisadir. O'zbek adabiyoti umuman tarjimaga boy adabiyot. Jahon adabiyotining ko'pdan-ko'p namunalari tilimizga o'girilgan. Ular ichida bevosita asliyatdan ham, bavosita boshqa bir til orqali o'girilganlari ham oz emas.

Lekin asliyatdan — bevosita xitoy tilining o'zidan o'zbek tiliga o'girilgan asarlar uzoq asrlik tarix davomida ham, hozirgi kunimizda ham nihoyatda ozdir.



Shu ma'noda yosh mutarjim — Ilhom Qosimov tajriba jihatidan ham, yosh jihatidan ham hali nihoyatda navqiron. U O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining talabasi. Bu oliy dargohdagi xitoy tili guruhini bakalavriatini tugatish arafasida. Talabalik chog'idanoq bu qadar mas'uliyatli ijodiy ishga — tarjimaga qo'l urish, ochig'i, hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun tilni bilishdan tashqari, o'ziga yarasha jur'at kerak.

Ikkinchidan, Konfutsiydek dahoning fikrlesh tarzi ham, mushohada yuritish yo'sini ham, obrazli tafakkuridagi uslub ham, ilgari surayotgan g'oyalari asl bo'lgan falsafiy dunyosi hamda ularni bir tizimga soluvchi tili, so'z boyligi, yuzaga chiquvda ularning joylashish konstruksiyasi va hokazolar ham o'ziga yarasha va mutanosib bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, Konfutsiydek mutafakkir va faylasufni asliyatdan o'qish oson emas. Bu ishni boshqa xalqlarning juda kam bilimdonlari va ko'p tajribaga ega tarjimonlari amalga oshirganlar.

Konfutsiy dahosidan tashqari, xitoy va o'zbek tilidagi qonuniyatlarning bir-biridan naqadar yiroq ekanligi, xitoy tilidagi murakkablikning nechog'lik o'ziga xosliklarini, xitoy va o'zbek xalqlari aro mentalitet, hayot kechirish tarzi, an'ana, urfatot va hokazolarning nechog'lik farqli ekani, bu masalalardagi yaqinlik va uzoqlik tarjima masalasida hamda tarjimon faoliyatida nechog'lik muhim o'rinn tutishini inobatga oladigan bo'lsak, yosh mutarjim Ilhom Qosimov nechog'lik mas'uliyatli ishga qo'l urgani ayon bo'ladi.

Muhtaram o'quvchi ushbu kitobni qo'lga olar ekan, uning, shubhasiz, muvaffaqiyatiga ham, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ayrim kamchilik yoxud nuqsonlarga ham yuqorida e'tirof etilgan omillarni nazardan qochirmagan holda yondashsa, intiluvchan, umidbaxsh yosh tarjimonni ham uning mehnatlarini to'g'ri baholay olgan bo'ladi degan umiddamiz. Fikrimizcha, ushbu tarjima mehnatini yoshlarga davlat miqyosida ko'rsatilayotgan e'tibor mevasi, unga munosib javob berishga harakat deb ham qarash mumkin.

Ushbu tarjima O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Xalqaro jurnalistika kulliyotining ham, bu yerda tahsil olayotgan talaba Ilhom Qosimovning ham ana shu tadbirlarni ijrosi uchun qo'ygan dadil qadamlari sifatida ham e'tiborlidir.

BAXTIYOR NAZAROV,  
filologiya fanlari doktori, akademik  
2010-yil

## KONFUTSIY YOXUD HAYOT SABOQLARI

(O'zbekcha tarjimaga so'zboshi o'rniда)

*K*onfutsiy (mil. avv. 551–479-yy.) – Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri, ma'rifatparvar, faylasuf va konfutsiylik oqimining asoschisi, siyosiy arbob. Konfutsiy qadimgi davning ulkan maktabini yaratgan, dunyo tamadduniga behisob hissa qo'shgan buyuk tarixiy shaxsdir. Uning hikmatlari, ikki yarim ming yildirki, Sharq olamida ham, G'arbda ham hali-hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Qadimgi Xitoy tarixchisi Sima Chyen Konfutsiyning tarjimayi holi, hayoti va ijodiga alohida urg'u bergen. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Konfutsiy miloddan avvalgi 551-yil 9-oyning 28-sanasida (ya'ni sentyabrda) Lu bekligiga qarashli Zouyi muzofotida (hozirgi Xitoy Xalq Respublikasining Shando'ng o'lkasi Chufu nohiyasining janubi-sharqida) tug'ilgan. Xan millatiga mansub bo'lgan. Konfutsiy tug'ilganida otasi Shu Lyang-xe 70 yoshga to'lgan edi. Shu Lyang-xening to'qqiz nafar qizi va bir nafar Bo' Ni ismli oqsoq o'g'li bo'lgan. Odatga ko'ra, nogiron farzandlar marhum ajdodlari uchun qurbanlik keltirishlari mumkin bo'lmasan. Shundan so'ng atoqli jangchi Shu Lyang-xe Chufu shahrining mashhur xonadonlaridan biri – Yanlar oilasining kenja qiziga og'iz soladi...

Va nihoyat uzoq kutilgan o'g'il – merosxo'r tug'iladi. Konfutsiyning ismi Chyu, hurmatli nomlari Jo'ngni bo'lgan. Konfutsiy nomining asliy xitoychasi Ko'ngzidir. Xitoycha transkripsiada–Kongzi, uyg'urcha o'qilishi–Ko'ngzi; yevropaliklar Confucius tarzida o'zlashtirishgan bo'lsa, rus adabiyotlari orqali bizga ham "Konfutsiy" holida ko'chdi ("Konfutsiy"— "Ko'ng fuzi"ga ishora, "Hurmatli Ustoz Ko'ng" degani). (Rus adabiyotlarida – Kun; o'zbek tili xususiyat-imkoniyatlaridan biri "o'"lashishdir, talaffuzda chalkashliklar bo'lmasin uchun asl manba va uyg'urcha talaffuzlarga asoslanib, "Ko'ng" holida haqiqiy talaffuzga yaqinroq tarzda o'zlashtirildi, chunki xitoy tilida "kun" talaffuzli so'zlar ham talaygina. – I.Q.)

Konfutsiy Xitoy tarixidagi Chun-chiyu (Bahor va kuz, Chun-Qiu) davrining oxirlarida yashagan. Shuningdek, u xitoylik yana bir donishmand Lao-zi (mil. avv. 579-499-yy.), Budda Shakya Muni (mil. avv. 556-476-yy.), yunon donishmandi Efeslik Buqröt (Geraklit, taxminan mil. avv. 535-475-yy.) kabi shaxslar bilan tarixiy bir davrda yashagan. Konfutsiyning ajdodlari So'ng bekligining aslzoda-oqsuyaklaridan, Yin sulolasining podsholik urug'iga mansub bo'lishgan. Isyonlar tufayli Lu podsholigi (bekligi)ga ko'chib kelib o'mashib qolishgan. Konfutsiylar shajarasi uning beshinchisi



bobosi Mu Jin-fu davridayoq tanazzulga yuz tuta boshlagan. Konfutsiy tug'ilgan vaqtida ularning xonadoni allaqachon oddiy xalq darajasiga tushib qolgan edi. Konfutsiyning otasi Shu Lyang-xe Lu podsholigiga qarashli Zouyi muzofotida amaldor-dafu bo'lgan. Konfutsiy uch yoshligida (mil. avv. 549-yil) otasi Shu Lyang-xe vafot etadi, oilasi muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shundan so'ng Konfutsiy yolg'iz onasi Yan-shi xonim qo'lida qolgan. "Shi"- xonim, turmushga chiqqan ayolning familiyasi oxiriga qo'shib aytildi; odatda shu ayol familiyasining oldiga erining familiyasi qo'shib aytigan; o'zbekcha muqobil tarjimasi "beka" yoki "og'ocha"dir. Beka Yan o'sha paytlarda Chufuning nasl-nasabli xonadonidan bo'lgani uchun Konfutsiy yoshligidan yaxshi ta'lim-tarbiya olgan, bunga uning mustahkam irodasi va tirishqoqligi ham katta yordan bergen, albatta. Konfutsiy 17 yoshga to'lganida (mil. avv. 535-y.) onasi ham olamdan o'tadi.

Konfutsiy o'z ustida tinimsiz ishlar hamda boshqalardan ham olgan bilimlarini takrorlab turishlarini talab qilardi. Uning shaxs sifatida alohida tomonlari haqida "Muhokama va bayon" asarida batafsil ma'lumotlar mavjud. Donishmand yoshligida omborxona mudiri, kichik chorvador nazoratchi amaldorning kotibi bo'lib xizmat qilgan. O'n to'qqiz yoshida So'ng Chiguan bekaga uylanadi. Miloddan avvalgi 532-yil o'g'li Zi Lu tug'iladi, keyinchalik u Bo'-yu hurmatli nomlarini olgan.

Konfutsiy 22 yoshidan ta'lim berish bilan shug'ullanib, keyinchalik Xitoyning eng mashhur o'qituvchisi sifatida shuhrat qozongan. U o'zi ochgan maktabda 4 ta fan: axloq, til, siyosat va adabiyotdan ta'lim bergen. Muxlislari uni "Ko'ng fuzi" deb ulug'lashgan, "fuzi" "ustoz", "hazrat" demakdir. Qadimgi Xitoya hurmat-ehtirom ma'nosini ham anglatgan, umuman dafu darajasidagi amaldorlar "fuzi" deb atalgan. Konfutsiy 50 yoshida siyosiy faoliyatni boshlab, Lu podsholigida yuqori amaldor bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun shogirdlari uni "fuzi" deyishgan. Bora-bora bu nom "Ko'ng Fuzi", ya'ni "Ulug' ustoz Ko'ng" degan faxrli nomga aylangan. XVII asrda Xitoya kelgan iyezuit-missionerlar xitoylik donishmand ta'limoti bilan yaxshi tanishib, uni Yevropa madaniyatining ham vakiliga aylantirish maqsadida Confucius (Konfutsiy) deb atay boshlaganlar. Shundan bu nom jahonga tarqaldi va tanildi.

Konfutsiyning yaxshi kunlari uzoqqa cho'zilmaydi. Hokimiyatni qo'liga olgan janob Ji bilan o'rtalarida ziddiyat kelib chiqadi, shuningdek, fitnalar sabab uning o'z vazifasidan iste'fo berishdan bo'lak boshqa chorasi qolmaydi. Shogirdlarini boshlab yurt kezadi, bundan uning asosiy ko'zlagan maqsadi "xizmat" (ish, vazifa) uchun bo'lib, buning ma'nosи shuki, biror podsholikda o'zining axloqiy-siyosiy qarashlarini yoyishdir. Avval Vey bekligida, so'ngra Chen davlatida bo'ladi. Kuang yerida mahalliy aholi tomonidan qamalga olinadi. Undan qutulib Veyga qaytadi, shundan so'ng Sao

va Jeng davlatlariga boradi. Sariq daryo (Xuangxe)gacha yetib boradi va yana ortiga qaytadi... Ko'p yillik sarson-sargardonliklardan keyin, joylarda o'z g'oyalarini ro'yobga chiqarolmagach, Konfutsiy 68 yoshida Lu bekligi begi Lu Ay-go'ng davridagi amaldor-to'ralardan Ji Kang-zi (Ji Sun-fey)ning taklifiga binoan yana Luga qaytib keladi. Ayrim manbalarda hammasi bo'lib o'n to'rt yillik uzoq va mashaqqatli safardan so'ng yana Lu podsholigiga qaytib kelgan deyiladi. 3000 nafar shogirdlari orasidan 72 nafari ustozlarini aslo tark etishmagan.

Konfutsiy umrining oxirlarida asosan madaniyatga doir qadimiylarini tartibga keltirish ishlari bilan shug'ullangan. Umrining oxirlarida og'ir judoliklarga uchraydi. Miloddan avvalgi 483-yil o'g'li Ko'ng Li qazo qiladi; miloddan avvalgi 481-yil sevimli shogirdi Yan Xuey, yana bir yidan so'ng Veyda tag'in bir shogirdi Jo'ng You (Zi-lu) olamdan o'tadi.

Miloddan avvalgi 479-yil ulug' ma'rifikatparvar, faylasuf Konfutsiy 73 yoshida vafot etadi. Konfutsiy o'zi uchun, avlodlari va yaqin shogirdlari uchun mo'ljallangan qabristonga dafn etiladi. Uning uyi esa muqaddas ziyyaratgohga aylangan.

O'sha davrlarda faqatgina oqsuyak-amaldorlar farzandlarininggina ta'lif olishga qurbi yetgan. Konfutsiy esa "kim bo'lmasin — hamma bilim olishi kerak" tashabbusi bilan chiqadi. U shogirdlikka olar ekan, kishilarning jamiyatda tutgan o'mining yuqori-tubanligidan qat'i nazar, barchasiga birdek ta'lif-tarbiya bergen. Konfutsiy barchanining shaxsiy bilim olishini yo'lga qo'ygan, xususiy muktab ochib, amaldor-to'ralarning madaniyat va maorifaga nisbatan tanho egalik an'analari (monopol huquqi)ni parchalab tashladi. Ba'zi manbalarda Konfutsiy 30 yoshida o'z ta'lifotidan saboq bera boshlaganligi haqida ma'lumot keltiriladi. Konfutsiy faylasuflar Pifagor va Suqrot kabi faqat og'zaki ta'lif bergen. Shuning uchun undan bir satr ham qo'lyozma qolmagan. Bizga ma'lum asarlari shogirdlari tomonidan yozib qoldirilgan. Bu jihatdan uni Hazrat Navoiyning birinchi devoniga muxlislari tomonidan tartib berilganligi haqidagi tarixiy voqelikka qiyos qilsa bo'ladi. Konfutsiy zamondoshi Laozi bilan uchrashgan, undan maslahatlar olgan, uni o'ziga ma'naviy ustoz deb bilgan.

Konfutsiy ta'lifotida umuminsoniy qadriyatlar tarannum etiladi. Aytib o'tish kerakki, Konfutsiy bir tizimli falsafani rivojlantirmagan, lekin Konfutsiylik axloqiy-siyosiy ta'lifot sifatida turli jihatdan etik-falsafiy dunyoqarashlarning nazariy-amaliy taraqqiyotiga samarali hissa qo'shdi. Konfutsiy odamlar o'tasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilib, bu borada foydali maslahatlar bergen. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotga o'xshab Konfutsiy ham insonni diqqat markaziga qo'yadi, "rahmdillik", ya'ni "insonparvarlik" Konfutsiylik g'oyalarining o'zagi-mohiyatini tashkil qiladi. Donishmandning "rahmdillik", "haqqoniylilik" va "olijanoblik" to'g'risidagi



hikmatlari, pand-nasihatlari, falsafiy mushohadalari ming yillar osha odamlarni ezgulikka chorlab kelmoqda. U nainki Xitoy madaniyatiga, balki jahon tafakkur xazinasiga ham samarali hissa qo'shdi. "Muhokama va bayon" asari esa faqat Xitoyninggina emas, butun Sharq xalqlari donishmandligining ham durdona asarlaridan biridir. Mazkur asar o'quvchiga badiiy ozuqa berishdan tashqari, kishida chuqur bilim va ko'nikma hosil qiladi. Shuning uchun bu asar ham adabiy, ham ilmiy ahamiyatga ega. Konfutsiying ko'plab mulohazalari jahonning ilg'or mutafakkirlari ijodiga ilhom bag'ishlagan va hanuzgacha uning xalqona va hayotiy g'oyalarini o'rganishga ehtiyoj seziladi. Shu boisdan biz ham so'nggi yigirma yil ichida qadimgi buyuk donishmandlardan Zardo'sht, Konfutsiy va boshqa ulug' allomalarining axloqiy-falsafiy g'oyalariga nisbatan o'rganilish pozitsiyasining ijobiy tomonga o'zgarganligini alohida e'tirof etib, avvalo, Sharq mutafakkirlari ijodida sharqona uyg'unlik, mushtaraklik asosida taraqqiy topgan falsafiy qarashlarning umumiy mezonlarini o'rganish hamda Konfutsiy shaxsi va axloqiy-siyosiy ta'limotining ular orasida tutgan o'rmini ilmiy-mantiqiy asosda isbotlashni maqsad qilib qo'yidik. Ikkinchidan, donishmandning hayotiy-falsafiy qarashlari jamlangan "Muhokama va bayon" asarini ona tilimizga o'girib, uning ilmiy-badiiy, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini xolis va haqqoniy o'rganish, shuningdek, g'oyaviy, ilmiy, amaliy, ijodiy tomonlarini tadqiq va tahlil qilishga hamda ularni xalq naqlari, boshqa ko'plab Sharq donishmandlarining fikrlari bilan qiyosiy o'rganishga harakat qildik.

"Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar" (Abdulla Qodiriy). Shuning uchun biz oddiy-soddaligi bilan qalblarimizni hayratga chulg'agan mumtoz badiiyatga qayta-qayta murojaat qilaveramiz, har safar undan bugun insoniyat boshiga tushgan global muammolarning oqilona yechimlarini, qiyayotgan savollarga munosib javoblarni topgandek bo'laveramiz; aytolmayotgan so'zlarimizning dohiyona oddiy talqiniga duch kelaveramiz; qalblarimiz purma'no hikmatlardan nur emar ekan, ruhiyatimizda ajib sokinlikni his qilamiz; hayotimiz ma'no kasb etar ekan, fayzu tarovatga chulg'anib borarkan, cheksiz huzur va qoniqish hosil qilamiz-ayni shudir qalblarimiz muddaosi. Tamaddunlar va fanlar tarixida beqiyos o'rin tutgan muhtaram zotlarning o'gitlariga qulq osar ekanmiz, o'zimiz uchun hayratomuz ibratli xulosalar chiqaramiz, ularni o'zimiz uchun dasturulamal qilsak, nur ustiga a'lo nur bo'lur edi. Abdulla Ansoriy as'holariga vasiyat qilib shunday der ekanlar: "Har pirdan bir so'z eslab qoling, agar bu qo'lingizdan kelmasa, ularning ismini yod oling, bundan bahra topasiz". Bobomiz mohir sarkarda, hassos shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ta'kidlaganlaridek: "Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo". Qalblarimizni ilmu hikmat nuri ila yoritaylik!

Nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969) insoniyat tarixini "o'q davri" ("o'zak davr") deb nomlangan muhim bosqichlarga ajratadi. Faylasufning fikriga ko'ra, aynan

eramizdan avvalgi VIII-II asrlar oralig'idayoq zamonaviy sivilizatsiyalarga asos solingan edi. Turli madaniy hududlarda bir vaqtning o'zida va bir-biridan mustaqil ravishda insoniyatning ma'naviy yuksalishida sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi, dunyonи prinsip jihatidan yangitdan idrok qilish imkoniyati tug'ildi. K. Yaspers yangi munosabatlarning xabarchilari qatorida Eronda (aslida dastlab Turon zaminda, qadimgi Xorazm hududlarida-I.Q.) Zaratustra (Zardo'sht) va Xitoyda Konfutsiy va Lao-zilar dunyoga kelganini ham alohida qayd etib o'tadi. Hozirgi nazariy sotsiologiya muammolarini tadqiq qilishga katta hissa qo'shgan eng yirik sotsiologlardan biri Entoni Giddens "Sotsiologiya" kitobida (tarjimonlar: N.Mamatov, J.Begmatov) Konfutsiy va uning ta'limoti haqidagi fikrlarini shunday bayon qiladilar: "Konfutsiy, Yaqin Sharqdagi diniy dohiylarga o'xshab payg'ambar bo'lman, o'qituvchi bo'lgan. Konfutsiy o'z izdoshlari tomonidan ilohiylashtirilmagan, aksincha, u "dono odamlarning eng donosi" hisoblangan. Konfutsiychilik esa o'tmish ajdodlar hurmatini joyiga qo'yishga ahamiyat berib, insoniyat hayotini ichki tabiiy qonunlar bilan uyg'unlashuviga erishtirishni ilgari suradi". Lekin, afsuski, Konfutsiyning ezgu g'oyalari turli davrlarda hukmron sinflarning manfaatlariga bo'ysundirildi yoki jamiyat uchun zararli deya inkor etildi, shu sabab ma'lum yo'qotilishlarga uchradi. Sho'rolar davrida ko'pgina allomalar qatori Konfutsiy shaxsi va uning ta'limoti ham qoralandi, unga "o'z qarashlarida hukmron sinf – aristokratlar manfaatlarini yoqlab chiqqan", "hukmdor hokimiyatini ilohiylashtirgan", o'tgan asrning ikkinchi yarmida "XXRda shaxsga sig'inishning tarqalishida ma'lum rol o'ynamoqda", "asrlar davomida Xitoy, Yaponiya, Koreya, Vietnamda ekspluatatsiya tuzumini oqlab, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy fikr, fan va texnika taraqqiyotini bo'g'ib, xalqni ma'naviy asoratda saqlab keldi" degan asossiz ayblar qo'yildi, bo'htonlar yog'dirildi, odamlar sun'iy ravishda "bezdirildi", bunda ular ayniqsa ba'zi bir Xitoy hukmdorlarining tarixiy xatosi bilan Konfutsiylik ta'limotiga nisbatan paydo bo'lgan "konfutsiychilik-diniy ta'limot" degan noto'g'ri qarashdan o'z manfaatlari yo'lida unumli foydalandilar, amalgaloshirilgan tarjimalarda ham mafkuraviy tazyiqning asoratlari bo'rtib turar, ularda g'oyaviy og'ishlar yaqqol sezilib qolardi. Bunday ayanchli hol donishmandning o'zi tug'ilib-yashab o'tgan yurtida ham sodir bo'lganiga tarix guvoh. Konfutsiyning inson haqidagi hayotiy falsafasining mintaqamizda hali-hanuzgacha yaxshi o'rganilmay kelinganining sabablaridan biri ham mana shu. Aslida Konfutsiyning xalqona va hayotiy o'gitlari yuqoridaq ayblovlarning barchasini inkor etadi, bunga javoblarni donishmandning o'z fikr-mulohazalaridan ham uqib olish qiyin emas.

Turli suhbatlarda Konfutsiy yoki uning hikmatlaridan so'z ochsak, odamlar: "Konfutsiylik o'zi qanaqa din?" qabilidagi savollarni berishadi, buning sababi aslida o'tgan zamonlarda Konfutsiylikka din nisbatini berishdek xatolikdan kelib

chiqdi, shuningdek, afsuski, hozirda ham ba'zi bir dinshunoslikka oid darsliklarda Konfutsiylikka din sifatida qarash nazariyalari saqlanib qolmoqda. Konfutsiylik hech qanday diniy ta'limot emas, u axloqiy-siyosiy ta'limotdir, oddiygina qilib aytsak, "inson va borliq haqidagi hayotiy haqiqatlar tizimi". Xitoycha adabiyotlarda Konfutsiychilikning zamon talabiga qarab jamiyatda ayrim diniy funksiyalarni bajarib kelgani haqida munozarali fikrlar bildiriladi. Donishmand o'zini ilohiylashtirmasliklarini shogirdlariga qattiq tayinlab, nimagaki erishgan bo'lsa, qunt bilan o'qib-o'rganib, sabr-qanoat qilib yetishganini ta'kidlaydi. Konfutsiy ba'zi bir ruhoni, falsafiy ta'limot tarafdorlari singari olamdan qochishga emas, odamlarni dunyoga, hayotga moslashishga chaqiradi, uning qarashlarida inson va borliq yaxlit birlik hosil qiladi.

Mustaqillik o'tmish, bugun va kelajakka haqqoniy qarash imkoniyatini yaratdi. Ma'naviy-ma'rifiy jamiyat va davlat qurayotgan zabardast xalqimiz juda qisqa vaqt ichida o'zining haqqoniy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini tiklabgina qolmay, jahon tajribasi, abadiyatga daxldor durdona asarlami, qadim donishmandlarning purma'nno hikmatlarini xolisona o'rganish va baho berish – o'z so'zini aytish imkoniyatiga ham ega bo'ldi. Konfutsiy hikmatlarini asliyatdan o'zbek tiliga o'girar ekanmiz, Konfutsiycha qisqa-lo'ndalik, oddiy-soddalik, "sharqona ruh" yoki "sharqona ta'm"ni va xalqchillikni saqlab qolishga intildik. Hozirda Xitoya konfutsiychilik ta'limotining zamonaviy taraqqiyot mezonlariga uyg'un jihatlari borasida davlatchilik turkumi ostida maxsus yirik tadqiqot ishlari olib borilmoqda.


Sharq – qadim-qadimdan to'xtamay qaynab chiqayotgan tafakkur bulog'i. Yuqorida "sharqona uyg'unlik" haqida so'z ochgan edik, sharqlik donishmandlarning hikmatlaridan bahramand bo'lar ekanmiz, "sharqona bir ta'm"ni tuyamiz, yuraklarga iliqlik olib kiruvchi hissiyot. Bu xalqlarimiz o'rtasida qadimdan shakllanib kelgan mustahkam tarixiy-madaniy aloqalardan darak beradi. Ustozlardan akademik Baxtiyor Nazarov "Konfutsiy. Muhokama va bayon" asarining o'zbek tilidagi ilk tarjimamiz nashriga yozgan so'zboshisida juda qiziq ma'lumotlarni keltiradilar: "Konfutsiy va bizning Sharq donishmandlarimizning odob va axloq, ma'rifat va ma'naviyatga doir qarashlari o'rtasida ko'plab yaqin jihatlarni uchratish mumkin. Masalan, Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, odob nechog'lik takomillashsa, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilsa, jamiyat shunga monand taraqqiy etishi mumkin. Adolatning zamiri odobdadir. Odob va burch mushtarakligi, Konfutsiy xulosasiga ko'ra, jamiyatning axloq kodeksini tutib turuvchi ustunlar kabidir. Biz bunga yaqin bo'lgan qarashlarni Forobiy, G'ijduvoni, Behbudiyarning falsafiy qarashlarida, Navoiy, Bobur, Ogahiylarning badiiy asarlarida duch kelamiz. Nazarimizda, Konfutsiy ta'limotining ayrim qirralari bilan tasavvuf ta'limotining komil shaxs xususidagi ayrim nuqtalari o'rtasida mustahkam bog'lanish bordek ko'rinadi".

Haqiqatan ham, tarjima-tahlil jarayonida hikmat-naqlar o'rtasida hayratomuz o'xshashliklarga duch kelamiz. Buni xitoylik donishmandlardan yana biri Mengzining bir hikmati bilan izohlamoqchimiz: "Avvalgi donishmandlar bilan keyingi donishmandlarning yo'li (o'Ichov mezonlari, fikru yodi) birdir". O'xshashliklar faqatgina mashoyixlarning hikmatlari yoki roviylarning rivoyatlaridagina emas, xalq og'zaki ijodi: ertak, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, iboralar va boshqalarda ham uchraydi. Xalqlar o'rtasidagi bunday mushtarakliklar, albatta, o'zining mustaqil asoslariga, tarixiy ildizlariga ega.

Konfutsiyning siyosiy-falsafiy qarashlarini umumlashtirib, tahlil qilib, bu borada o'zbek tilida ilk tadqiqot ishlari olib borgan Viktor Alimasov o'zining "Konfutsiylik va Sharq davlatchiligi" (2006) nomli kitobining kirish qismida afsus bilan shunday yozadilar: "Chet mamlakatlarda Buyuk Ustoz (ya'ni Konfutsiy) ta'limotiga bag'ishlangan yirik tadqiqotlar o'tkazilgan, son-sanoqsiz asarlar chop etilgan. Ming afsuski, Konfutsiylik o'zbekistonlik tadqiqotchilar e'tiboriga tushmagan, "xalqni boshqarishda aldashdan xoli", "bir butun xalqning qadimiy an'analarini va axloqiy prinsiplarini o'ziga jo etgan" (Volter), "kishilarni poklashdek oliy ezgulikka o'rgatuvchi haqiqiy (ulug') ta'limot" (L. N. Tolstoy) – Konfutsiylik bilan hanuz o'zbek o'quvchilari tanish emas". Buni tan olmasdan ilojimiz yo'q.

Biz bu galgi tarjimalarimiz uchun Li Ze-fey tartib bergan "Muhokama va bayon"ning Konfutsiy hikmatlarining bugungi xitoy tilisiga o'girilgan nusxasi va undagi sharhlardan asosiy manba-qo'llanma sifatida foydalandik, asar tarjimasi borasidagi avvalgi urinishlarimiz, asarning hozirgi xitoy tilisiga uyg'unlashtirilgan boshqa variantlari (Jin Lyang-nyen, Lii Yu-xua va boshqalar, shuningdek, mavjud o'zbekcha tarjimalar, uyg'urcha, ruscha tarjima nusxalari) bilan solishtirib, ma'nolarini jamlashga, ularni qiyoslashga, shuningdek, mazkur mumtoz asar izohlarini o'zbekona talqinlar bilan boyitishga harakat qildik. Shuningdek, izlanishlarimiz davomida umumfalsafiy bilish tamoyillari: umumiyy o'zaro aloqadorlik, taraqqiyot, kompleks (ya'ni uyg'un birlik tashkil etgan voqeа-hodisalar, xatti-harakat, belgi va shu kabilar yuzasidan majmuiy) yondashuv, determinizm, ya'ni muayyan hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikning qonuniyatli, zaruriy va sababiy ravishda ro'y berishini, hodisalarning hozirgi holati ularning avvalgi holati bilan yoki aksincha, uzviy tarzda bog'liq ekanligini e'tirof etish kabi tamoyillarga imkon qadar amal qildik.

ILHOM QOSIMOV





## MUHOKAMA VA BAYON

(Asardan parchalar)

### BIRINCHI QISM

Konfutsiy dedi: “Ilm olgach, vaqtı g’animatda uni teztez takrorlab turmoq ko’ngilga huzurlik baxsh etmasmi? Do’sting olis yo’ldan yo’qlab kelar bo’lsa, sevinch asli shu emasmi? O’zgalarning tushunmasliklaridan aslo zorlanmagan olijanob emasmi?”

Izoh (eslatma: birinchi qismda har bir hikmatdan so’ng izoh-sharh berib boriladi). Bu yerda tarjimarisolamizni ikki qismga ajratish shartlidir. Birinchi qismdan izohli hikmatlar, ikkinchi qismdan esa hali izohlanmagan hikmatlar o’rin olgan. Aslida “Muhokama va bayon” yigirma qismdan iborat asardir. O’tgan galgi tarjimalarimizda asardan bir chimdimini olib o’zbek o’quvchilari e’tiboriga havola qilgan edik.

“Konfutsiy” nomi xitoycha asl qadimiy nusxada “Zi” tarzida uchraydi, bu “hazrat”, “ustoz”, “taqsir” degani. Qadimgi Xitoya ilmli va fozil kishilarga odatda “Zi” deb murojaat qilingan. “Muhokama va bayon”dagi “Konfutsiy dedi...” asl nusxada “Ustoz dedilar” tarzidadir, istilohdagi “Ustoz” birdek Konfutsiyga (mil. avv. 551 – mil. avv. 479-yy.) qaratilgan. Shu sabab biz ham ayrim o’rnarda ma’no va til-tarjima me’yor talabiga ko’ra, “ustoz” deya tarjima qildik. Konfutsiyning shogirdlaridan faqat You-zu va Zeng-zhi ikkisi “zi” (ya’ni ustoz, mavlono, hazrat) deb atalgan. So’ng sulolası falsafa maktabi bo’lmish neoKonfutsiychilik vakillari “Muhokama va bayon”ni You-zu va Zeng-zining shogirdlari kitob holiga keltirishgan deb hisoblaydilar. Shunga Konfutsiydan tashqari, faqat bu ikki kishi ham ustoz, ya’ni “zi” deb ulug’lanadi. Konfutsiyning ismi Chyu (Qiu), hurmatli nomlari Jo’ng-ni (Zhongni)dir. Ma’lumot o’mida aytib o’tish joizki, qadimgi xitoyliklarning ismlari bo’libgina qolmay, balki ularning ikkinchi, norasmiy, boshqalarning o’ziga nisbatan hurmat-ehtiromi belgisi sifatida qo’llaniladigan nomlari ham bo’lgan, u “zi” deb atalgan, lekin uni taxallus bilan adashtirib yubormaslik kerak (o’tgan galgi tarjimalarda biz uni “taxallus” deya tarjima qilib jiddiy xatolikka yo’l qo’ygandik – I.Q.).

“Zi” (ya’ni “hurmatli nomlari”) kichiklarning yoshi ulug’lar, oddiy kishilarning martabasi ulug’ insonlar yoki boshqa odamlarga nisbatan hurmat-ehtiromi belgisi sifatida qo’llanilgan, ko’pincha ularning ismlarini to’g’ridan to’g’ri aytib murojaat qilish odobsizlik hisoblangan. “Zi” Xitoy madaniyatining o’ziga xos tomonlaridan biridir, hozirgi Xitoy jamiyatida u allaqachon urfdan chiqib ketdi. Agar “zi” tanlash tarixiga

nazar tashlaydigan bo'lsak, ism va hurmatli nom bir-biriga juda bog'liqligini ko'ramiz. "Zi" ismnинг sekin-asta o'zgarishi natijasida kelib chiqqan, shuning uchun birgalikda "ming-zi" (hozirgi xitoy tilida keng iste'molda bo'lgan "ism", "nom") deb ataladi. Kishilararo munosabatlarda "ming" (ya'ni "ism") odatda kamtarlik, kansuqumlik nomi sifatida ishlataladi yoki kichiklarni, martabali kishilarning quyidagilarni izzatlab atashlari uchun bo'lgan; "zi" (hurmat-ehtirom nomi) bo'lsa kichiklarning yoshi ulug'larga, quyidagilarning yuksak martabali kishilarga hurmat-ehtiromi belgisini anglatgan. Qadimgi xitoylar "ming uning zisi bilan" deganlar, bu ularning bir-biriga bog'liqligini anglatadi. Masalan, biz Konfutsiy deb ataydigan Ko'ngzi (Kongzi)ning ismi Ko'ngchyu (Kong Qiu), hurmatli nomlari Jo'ngni bo'lgan. Ismdagi "chyu" "tepalik" degani yoki shunga aloqadorlikni bildiradi. Ko'ngzining onasi Yan Jeng xonim Nichyu (Ni Qiu) tog'iga borib ibodat qilib farzand tilaydi, so'ngra Ko'ngziga homilador bo'ladi. Konfutsiy Nishan (yoki Nichyu) tog'ida tug'iladi. Konfutsiy tug'ilganda boshining tepe qism o'rtasi past, atrofi baland bo'lib, Nichyushan tog'iga o'xshab ketgan. Shuning uchun ismi Chyu (Qiu), hurmatli nomlari Jo'ngni bo'lgan. Ko'ngchyudagi "chyu", Jo'ngnidagi "ni" bir tog' nomidan olingan. Shuningdek, Konfutsiy oilada ikkinchi o'g'il bo'lgan. Ilgari Xitoyda bir oiladagi aka-uka qarindoshlar yosh tartibi bo'yicha "bo" (bo; o'zbek tilida "to'ng'ich" – katta o'g'il), "jo'ng" (zhong), "shu" (shu), "ji" (ji; o'zbek tilida "kenja" – kichik o'g'il) deb tizilgan, "jo'ng" ikkinchiga ishora. Shunga "jo'ng" va "ni" birikib Konfutsiuning hurmat-ehtirom belgisini anglatuvchi ikkinchi, norasmiy nomiga aylangan. Demak, Konfutsiuning "zi"siga qarab uning tug'ilishi va oiladagi holati haqida qisman bilib olish ham mumkin ekan.

Eslatma: xitoy tilida hurmat-ehtirom belgisini anglatuvchi ikkinchi norasmiy nom – "zi" (zi) bilan "ustoz", "hazrat" ma'nosini beruvchi (masalan, "Ko'ng-zi"dagi "zi" (zi) iyerogif va ma'no jihatdan farqlanadi).

Yuqoridagi hikmat "Muhokama va bayon"ning dastlabki bobi birinchi hikmat-maqolati bo'lib, ilm olish borasidagi maxsus qismdir, ilm olish chora-tadbirlari, unga bo'lgan munosabat bayon etiladi. Hikmatning ilk bandi xalqimiz maqolini yodimizga soladi: "Haqiqiy ilm istasang, takror qil", ya'ni olgan bilimlarining takrorlab mustahkamlab borgin. Mana, ikki ming yillardiki, donishmandning mazkur hikmati ziyojolar orasida keng qo'llanilib kelinmoqda hamda o'zining nihoyatda chuqur ta'sirini o'tkazdi. "Muhokama va bayon"ning boshqa yerida Konfutsiy o'zining ilm o'rganish haqidagi mazkur fikr-mulohazalarini davom ettirib, uni yana bir daraja izohlaydi: "Eski (bilim)larni mustahkamlab, yangilarini o'zlashtira olgan kishigina ustoz bo'laoladi". Konfutsiy "o'rganishdan bezor bo'lmaslik va o'zgalarga o'rgatib ham charchamaslik"ni o'zining ibratli hayot yo'li misolida tasdiqladi. "Muhokama va bayon"ning ilm mavzusi



bilan boshlanishidayoq o'zi bir katta hikmat yotibdi. Chunki ilmli, ma'naviyatli insongina hayotga teran ko'z bilan qaray oladi. Ma'nolar maxzanining kaliti ilmdadir. "Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi", deydilar bobomiz Abu Rayhon Beruniy. Demak, bilimsiz, ma'naviyatsiz kishilarda olijanoblik fazilatlari bo'lishi ham amri mahol.

Ba'zi bir kimsalar ilm qiymatini boylik orttirish bilan o'lchaydilar, biroq ilmning mohiyati uning kishini qanchalik boybadavlat qilishida emas, balki insonni qanchalik kamolot cho'qqisiga olib chiqishidadir. Lekin bu aslida kerakli bilimlarni olish va amalda q'llash bilan ro'yobga chiqadi.

Hozirgilar (oshib borsa) bilim olish uchun o'qiydilar, burungilar bo'lsa kamolotga erishmoq uchun ilm talabida bo'lganlar. Bu ham donishmand chiqargan hayotiy xulosalardan biridir. Ilm ta'limiy-axloqiydir, Sharqda ilm deganda ta'lim-tarbiya birdek tushuniladi, chunki ilm kishini har jihatdan kamolot cho'qqisiga olib chiqadi. Uni birlina so'z bilan "tarbiya" (pedagogika) deb ham atashgan. Chunki ilm aql-zakovatimizni boyitishdan tashqari, axloq-fazilatimizni ham go'zallashtiradi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasida shunday yozadilar: "Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: "Beshikdan to qabrga borguncha ilm o'rgan", demishlar. Bu hadisi sharifning ma'nosini bizlarga dalildur. Hukamolardan biri: "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'lidur", demish... Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidur". (Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. II jild, to'plovchi Begali Qosimov) Demakki, millatu xalq va davlat taqdiri undagi yoshlarning qanchalik bilimli va axloqiy fazilatlarga ega ekanligi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy kamolotiga bog'liqdir. Imom G'azzoliy ilm olishni fazilatli deydi, bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy "... goh ulamo majlisida ilm nuridin ko'ngulni yoruttum" deya zikr qilganlar.

Olijanoblik fazilatiga ega inson, ya'ni "olijanob kishi" – "Muhokama va bayon"da tez-tez uchraydigan istiloh bo'lib, odatda ilmli, ziyoli, go'zal axloqli, olihimmat, jamiyatda o'z mavqe-e'tiboriga ega kishi nazarda tutiladi, ya'ni jamiyatning ajralmas bir bo'lagi. Konfutsiy hikmatlari bilan tanishar ekanmiz, olijanoblikning barcha ezgu xislatlarni o'zida mujassam etgan insoniy fazilat ekanligiga amin bo'lamiz. Mantiqan olganda, xudbin, tuban, pastkash va johil kimsalarga nisbatan qarshi qo'yiladi. Mavlono Abdurahmon Jomiy o'zlarining "Bahoriston" (forsiydan Sh.Shomuhamedov tarjimasi, 1997-yil) kitobida kishilarni olijanoblikka da'vat etib shunday deganlar:

"Birov ahmoqona ish qilsa senga,  
Olijanoblik qil, ozorin unut.

Nafs-havo, jaholat kelmasin g'olib,  
Aqling farmoniga muvofiq ish tut".

Hazrat Jomiyning mazkur misralarida ham olijanoblik, bag'rikenglik, oqillik fazilatlari ulug'lanib, badxulqlik, jaholat illatlari qoralangan. Aslida kishining o'zgalarga qilgan bir olijanobligi o'ziga qilgan yaxshiligidir. Olijanob inson – Konfutsiy qalbidagi yuksak insoniy fazilatlar mezoni. Ixchamgina "Muhokama va bayon" asarida "olijanob" so'zi yuz martadan ko'p uchraydi. Konfutsiy o'rni bilan olijanoblarning fazilatxislatlarini birma-bir bayon etar ekan, har bir kishi olijanob bo'la olishini oddiygina hayot mantig'i, shuningdek, o'z xatti-harakatlari bilan isbotlaydi. Olijanob inson va tuban kishi qarama-qarshiligi "Muhokama va bayon"da juda ko'p o'rirlarda muhokamaga qo'yilgan. Olijanob inson Konfutsiy nazaridagi barkamollik timsoli, ya'ni komil inson muammoсидир. Konfutsiy, har bir kishi o'zida olijanoblik xislatlarini shakllantirishi, uni o'z tabiatiga aylantirishi kerak, deydi. Hikmatdan ko'rinish turibdiki, komillik sari yo'l har bir kishining qalbidan boshlanadi, o'z qalbini poklashdan boshlanadi. G'azal mulkining sulton, ulug'larning ulug'i bobomiz Alisher Navoiy ham komil shaxs muammoсини ilgari surgan edilar. Aytadigan bo'lsak, barcha buyuk donishmandlar bu masalaga birdek yoki o'zaro o'xshash nuqtayi nazardan turib yondashishganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Yana bir misol: nemis faylasufi F. Nitshe o'z idealidagi shaxsni "a'lo odam" deb yuritadi. Hozirgi kunda ham respublikamizda barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berilayotir. Chunki barkamol inson, mukammal jamiyat insoniyatning eng yuksak orzusidir. Unga intilgan shaxs va davlatninggina kelajagi porloq va boqiydir.

Do'st – hikmatdagи ushbu so'z ayrim alohida xususiyatlarga ega. Qadimiyo izohida "ustozi bir saboqdoshlar", "maslakdoshlar", "hamfikr" degan ma'nolarni bildiradi. Do'stlar tashrifi – haqiqiy quvonch. Zero, shoir aytganidek: "Dunyo shodliklari yig'ilsa butun, Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun". Dono xalqimizda do'st haqida juda ko'plab maqollar bor: "Do'stni do'stidan tani", "Odamning qandayligi do'stlaridan ma'lum", "Do'stning do'stligi boshingga ish tushganda bilinadi", "Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim", "Bodom – po'sti bilan, odam – do'sti bilan", "Do'st achitib gapirar, dushman – kuldirib", "Do'sti nodondan dushmani dono yaxshi", "Do'sting ming bo'lsa ham oz, dushmaning bir bo'lsa ham ko'p"... Haqiqatan ham, kimning qanday do'stlari borligiga qarab uning qanday odam ekanligini bilib olish mumkin. "Uyda ota-onangga suyansang, tashqarida – do'stleringga", deb odamlar bejizga aytishmaydi. Konfutsiy biror kishining qanday odam bo'lib voyaga yetishida do'stning roli beqiyos ekanligini ta'kidlaydi, bu masalaga nihoyatda jiddiy yondashadi. U diyonatli, samimiy va bilimdon do'stlarni foydali, xushomadgo'y, ikkiyuzlamachi (munofiq) va lofchi do'stlarni zararli do'stlar deydi; birinchilari bilan do'stlashsak, yuzimiz yorug' bo'ladi, ikkinchi bir xillaridan



ulfatimiz bo'lsa, pand yeyishimiz aniq, buning uchun juda katta badal to'laymiz. Pekin Pedagogika universiteti professori Yu Dan o'zining "Muhokama va bayon" saboqlari" kitobida donishmand hikmatlaridan ilhomlanib do'st haqidagi mulohazalarini quyidagicha ifodalaydi: "Biror do'st tanlash aynan biror hayot tarzini tanlashdir... O'zining fe'l-atvorini tarbiya qilish (ya'ni o'z kamoloti haqida qayg'urish) yaxshi do'st bilan tanishmoqlikning dastlabki shartidir". Shunday ekan, do'st tanlash masalasiga, do'stlar bilan bo'ladigan munosabatlarga aslo yengil qarab bo'lmaydi.

O'mi kelganda, kamina do'st borasidagi fikrlarimni ham bayon etmoqchiman. Do'st haqida Yaratgandan tilagim shuki, har kimni sinasa do'sti bilan sinasin; siylasa do'sti bilan siylasin; suyuntirsas do'sti bilan suyuntirsin ekan. Shu uchovi jam bo'lsa, kishi o'zini baxtiyor his qilmog'i shubhasiz.

Ba'zilar mazkur hikmatdagi jumlalar orasida hech qanday ichki bog'liqlik yo'q deyishi mumkin. Ayrimlar esa bu kabi qarash uning asl ma'no-mohiyatiga to'g'ri kelmaydi, deydilar. "Ilm olish" bu shunchaki o'qish-o'rghanishning o'zigina emas, ta'limot va qarashlar tizimini ham anglatadi, "vaqt" esa odatiy, aksar vaqt emas, balki zamon va jamiyatga ishora, "takrorlash" bu mustahkamlashgina emas, balki tadbiq qilish hamdir. Demakki, hikmatdagi uch jumla bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Ular shunday izoh beradilar: agar ta'limoting jamiyatga tadbiq qilinsa, naqadar quvonchli voqeа; bordiyu qo'llanilmaganda ham, do'stlar qo'llab-quvvatlasa, yo'qlab kelishsa hamda suhbatlari bilan ko'ngilni shod qilishsa, bu ham bir baxt; agarda jamiyatda ro'yobga chiqmas bo'lsa, odamlar tushunmasalar, ulardan nolimaslik, hasrat qilmaslik ham oljanoblik emasmi? Bu kabi izohlarda ham ma'lum ma'noda haqiqat bor.

So'ng sulolasasi mashhur ulamosi Ju Si (Zhu Xi) (1130–1200) mazkur hikmatga yuqori baho berib shunday degan edi: "(U) dao (ilmu hikmat; tariqat) eshigi, axloqning asosidir". Hikmat ma'nosи kishilarga tushunarlidir: bilim olishni xursandchilik, quvonchli voqeа deb bilish kerak, bunda Konfutsiyning qunt bilan ilm o'rghanish va o'zgalarga o'rgatib charchamaslik haqidagi qarashlari aks etgan; maslakdosh do'st tashrifi shodiyona ekanligi; so'ngra birovlarning tushunmasliklaridan nolimaslik, g'arazgo'y-badxohlik qilmaslikka chaqiriladi. Shuningdek, mazkur hikmatda Konfutsiyning bilimga tashnalik, qunt bilan o'rghanish, shu yo'l bilan diqqat-e'tiborini o'zini kamolotga yetkazishga qaratish hamda buning barchasida har kimning o'zi jonbozlik ko'rsatishi kerakligi talabi ifoda etilgan. Bu kabi hikmatlarni "Muhokama va bayon"da ko'plab uchratish mumkin, ular mazkur hikmat ma'no-mohiyatini yanada teranroq tushunishimizga yordam beradi.

\*\*\*

Tolibi You-zi dedi: "Agar kimki ota-onasiga qobil farzand bo'la olsa, yoshi ulug'larni hurmat qilsa-yu, valekin martabasi yuqori kishilarni ranjitishni yaxshi ko'rish hollari nihoyatda kam uchraydi; gunoh-jinoyatni yomon ko'radigan, biroq isyon-noma'qulchilikni yoqtiradigan kimsalar hech bo'lмаган. Olijanoblar butun fikru zikrini muhim oliy maqsad yo'liga qaratgaylor, murod-maqsadga yetsalar, shuning bilan "dao" (odob-axloq mezoni) paydo bo'lgay (ya'ni ular o'zgalarga ibrat bo'lgay). Ota-onaga qobil farzand bo'lish, kattalarni hurmat qilish — rahmdillikning asosidir".

You-zi – Konfutsiyning shogirdi, familiyasi – You (You), ismi – Juo' (Ruo). Konfutsiydan 13 yosh kichik bo'lgan, ba'zi manbalarda 33 yosh deyiladi.

Tarjimalarimizda tez-tez uchrab turadigan "tolibi" so'zi "Konfutsiyning tolibi (shogirdi, muridi)" degan ma'nodadir, ya'ni "Tolibi You-zi" ayni "Konfutsiyning tolibi You-zi"dir. Mazkur so'z asl nusxada bu tarzda uchramaydi, biz uni Konfutsiy shogirdlarining asardagi boshqa tarixiy shaxslardan farqlanib turishligi uchun aniqlik sifatida kiritdik, bu o'quvchilarga ham ma'qul keladi degan umiddamiz.

Rahmdillik, ya'ni "jen" (ren) – insonparvarlik, insoniylik. "Jen" – Konfutsiy falsafiy g'oyalaring eng yuqori kategoriyasi, shuningdek, axloq, etika me'yorlari hamdir. Bu Konfutsiy qalbidagi eng yuqori axloqiy mezонни anglatguvchi istilohdir, u turli izohlarga ega. Mazkur hikmatda u insonparvarlik, insoniylik (odamiylik)ni ko'rsatadi. Konfutsiy ta'limoti (falsafasi)dagi "jen" yaxlit olinganda "rahmdillik" degani. Quyida esa bu so'zning mukammal lug'atlardan jamlangan tarjimalarini uning ma'nosini aniq va to'liqroq tushunib, anglab olish uchun keltiramiz: "mehribonlik", "rahmdillik", "vafodorlik"; "mehribon", "rahmdil", "vafodor kishi", "insonparvar"; "shafqatli", "oq ko'ngil"; "odamgarchilik", "insoniylik", "oq ko'ngillik", "muloyimlik"; (siyosatda) "insonparvarlik (rahmdillik, adolat) bilan idora qilish", ya'ni insonparvar siyosat yuritish; "hamdardlik qilmoq"; "mag'iz"; "inson"; "yaxshi ko'rmoq" va boshqalar. Ko'rinish turibdiki, ma'no jihatidan barchasi bir-biriga juda yaqin. Konfutsiy nazdidagi "rahmdil kishi" – Komil Inson, ya'ni komillikning bir alfozi (yorqin namoyishi). Unda barcha ezgu xislatlar mujassam: mehr-shafqat, xokisorlik, hotamtoylilik, mulohazakorlik, marhamatlilik, mustahkam e'tiqod, sadoqat, oq ko'ngillik, lafzi halollik, to'g'ri so'zlik, bilimga ishtiyoqmandlik, so'zu amal birligi va boshqalar.

Konfutsiy o'zining purma'no hikmatlari bilan kishilarni olijanob, rahmdil va go'zal xulq egasi bo'lishga undaydi, bu yo'lda o'zi jonbozlik ko'rsatadi, xatti-harakatlari bilan o'zgalarga o'rnak bo'ladi, ta'limotini ham shu asosga quradi, odamlarga shundan



sabog beradi. Donishmand barchasining tabiiy, samimiy va haqqoniy bo'lishi kerakligini uqtiradi. Shundagina har bir kishi o'z hayotining mazmun-mohiyatini anglab yetadi.

"Muhokama va bayon"da ko'p marta tilga olingan "jen" atamasiga ushbu hikmatda ilk bor duch kelinadi. Rahmdillik Konfutsiyning markaziy g'oyasidir (ya'ni aniqroq qilib aytsak, fikratinining mohiyatidir), unga "davlatni idora etishning bebaho sabog'i" deb ham qaraladi.

Konfutsiyning shogirdlari, izdoshlari, ta'limoti tarafdorlari ota-onaga qobil farzand bo'lish va kattalarga hurmat-ehtiromli bo'lishni rahmdillik (insoniylik)ning asosi deb hisoblashadi. Odob-qoida (ya'ni "tuzuk", odob-axloq me'yorlari, adab-yo'sin) bilan ular tartibga solib turiladi, tuzuk (odob-qoida, adab-yo'sin) bo'lmasa, qobillic ham, demakki, rahmdillik ham bo'lmaydi. Konfutsiy nazaridagi rahmdillikning asosi o'z yonimizdagি kishilarni tushunish va ularni qadrlash, izzat-hurmat qilishdan boshlanadi. Xitoy maqolida aytiganidek: "Qobil farzandlik – ming yaxshilikning avvalidir". Qomusiy bilim sohibi, turkiy tilda ijod qilgan adiblarning peshqadami Yusuf Xos Hojib ijodida ham Konfutsiychilik ta'limoti mohiyati – "rahmdillik" konsepsiyasining mustahkam asoslariga mushtarak fikrlarni uchratamiz:

Jahonda odatdir ulug' izzati,  
Ulug' kelsa turmoq – kishi odati.  
Ulug'ga kichik hurmatidir husn,  
Kichik ham ulug'dan ko'rар hurmati.

("Qutadqu bilig"dan, nashrga tayyorlovchi va tarjimon Qayum Karimov)

Kishining axloq-fazilati arzimas o'rirlarda ham uni ahamiyatli qilib ko'rsatadi. Konfutsiy, qobillic va tavozeni bilgan kishi noma'qul ishga qo'l urmaydi, o'z e'tiqodiga qarshi bormaydi, deydi.

"Dao" – Xitoydagи qadimgi g'oyalar tizimini anglatguvchi so'z, ko'p ma'nolarga ega. Bu yerda Konfutsiy da'vat etgan rahmdillikdir, ya'ni rahmdillikning mohiyatan barcha axloqiy g'oyalar sistemasi ekanligi hamda uning real hayotdagi mujassamligidir. Oddiyroq qilib aytadigan bo'sak, davlatni idora qilish hamda halol odam bo'lishlikning asosiy prinsipidir. "Dao" – Yo'l degani, u "Ezgulik yo'li", ezgulikka boshlovchi yo'l, "Haq yo'l". Xitoylik faylasuflardan yana biri Lao-zi (mil. avv. 579–499-yy.) "dao" ta'limotini yaratgan, uning "Dao-De-jing" ("Dao va fazilatlari kitobi") nomli kitobida "dao"ning mohiyati haqida so'z boradi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Xushomadgo'y va ikkiyuzlamachi kishi (munofiq)larda rahmdillik (insoniylik, odamiylik) fazilati juda nochor bo'ladi".

Xitojlik Gu Yan Vu (Gu Yan Wu) o'zining "Kundalik xotiralar" kitobida shunday yozadi: "Dunyoda ikki xil berahm (bag'ritosh) odamlar bo'ladi: biri isyonchi-ig'vogar kimsalar bo'lsa, ikkinchisi xushomadgo'y-ikkiyuzlamachi (munofiq) kishilardir". Bunday kishilar o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida hech narsadan, hatto jinoyat qilishdan ham tap tortmaydilar. Ushbu hikmatda Konfutsiy munofiq kishilarda rahmdillik fazilatining oz bo'lishidan ogohlantiradi. Ularning tili va dili boshqa, so'zi va ishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi, samimiyligi yo'q, ichi qora kimsalardir. Dinimiz Islomda ham munofiqlik qattiq qoralanadi.

Bu yerda Konfutsiy xudbin kimsalarda rahmdillik fazilatining "nochor"ligiga nisbatan o'z noroziligini bildirgan. Munofiqlik iymon-e'tiqod sustligining alomati hamdir. Donishmand odamlarni ogoh bo'lishga, avvalo o'zimizga, insoniyligimizga, so'ngra o'zgalarga munosib bo'lishga chaqiradi.


\*\*\*

Tolibi Zeng-zi dedi: "Men har kun(im sarhisobida) uch bora o'z-o'zimni taftish qilaman: o'zgalar uchun sidqidildan qo'limdan kelguncha biror nima qila oldimmiyo'qmi? Do'stlarimga samimiyligi bo'la oldimmiyo'qmi? Ustozim bergen saboqlarni mustahkamlay oldimmiyo'qmi?"

Zeng-zi – Konfutsiyning shogirdlaridan biri Zeng Shen, "zi"si, ya'ni hurmatli nomlari Zi-yu, miloddan avvalgi 505-yil tug'ilgan, luguolik (ya'ni Lu davlatidan) bo'lgan, Nanvucheng (Xitojning hozirgi Shando'ng provinsiyasida joylashgan yer nomi) shahridan bo'lgan, Konfutsiydan qirq olti yosh kichik bo'lgan. Konfutsiy shogirdi Zeng-zidan nihoyatda mamnun bo'lgan. Qobil farzand deya nom qozongan edi. Aytishlaricha, "Syaojing" ("Qobilnama") asarini ham aynan Zeng-zi yozgan.

Hikmatdag'i "uch bora" iborasi "ko'p marta" degan ma'noni bildiradi. Xitojning qadimiy kitoblarida "uch", "to'qqiz" sonlari takrorlanish darajasining ko'pligini ifodalagan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, "Muhokama va bayon" Konfutsiyning shogirdlari tomonidan kitob holiga keltirilgan. Undan Konfutsiy hikmatlari, suhbatlari va





mulohazalaridan tashqari, ustozlarining pandnasihatlari, o'gitlari ta'sirida tug'ilgan shogirdlarining fikrmulohazalari ham keng o'rinn olgan. Shuningdek, kitobda Konfutsiy shogirdlari va boshqa tarixiy shaxslarning xotiralari ham jamlangan.

Yuqoridagi hikmatda Zeng-zi o'zini taftish qiladi, xatolari ustida o'ylanadi va fikrmulohazalarini dadillik bilan o'ziga tanbeh berish, murojaat sifatida bayon qiladi. Zengzining "o'z-o'zini taftish qilishi", bu uning Konfutsychilik ta'limotining "rahmdillik" qoidalariga qat'iy rioya qilganligini anglatadi.

Hikmatda fidoyilik, samimiyat va bilmuni doimo mustahkamlash kabi uch muhim xislat ulug'langan. O'zgalarga samimiyl, beminnat yaxshilik qilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan. Dono xalqimiz: "Yaxshilik qilib ko'lga ot, baliq bilar, baliq bilmasa, Xoliq bilar", deydi. Ota-bobolarimiz beg'araz, beminnat yaxshilik qilishga chaqirganlar. "Yaxshilik qil, egasidan qaytmasa, Xudodan qaytadi" kabi hikmatli so'zlar bekorga emas. Bir o'ylab ko'ring-a: kimgadir yaxshilik qilgansiz-u, lekin undan zarracha ham yaxshilik ko'rmadingiz, ustiga-ustak u odam sizga nisbatan g'arazgo'ylik qildi ham deylik. Lekin hayotingizda juda mushkul ahvolga tushib qolganingizda, Xudo yo'l ko'rsatib, qilgan yaxshiliklaringiz mukofoti sifatida mushkulingizni oson qilmaganmi?! Har bir insonning hayotida bunday ibratli voqealar talaygina, faqat ularni bir aql tarozusiga solib mulohaza yuritishlik lozim. Har birimiz qo'limizdan kelguncha sidqidildan muhtoj kimsalarga yordam qilaylik! Har kunimizni yaxshiliklar ila bezaylik!

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ixtiyorida ming chog'li to'rt otliq harbiy aravalari bo'lgan katta podsholikni idora qilishda har ishni jiddiy, astoydil hamda ehtiyyotkorlik bilan hal etmoq kerak bo'ladi; xalq ishonchini qozonmoq, sarfu xarajatda tejamkorlik va amaldorlarni asramoq kerak; mavrid va me'yori bilan xalqni dehqonchilikdan bo'sh vaqtlardagina hasharga safarbar etish lozim".

"Ixtiyorida ming chog'li to'rt otliq harbiy aravalari bo'lgan podsholik" – "katta podsholik". Qadimgi Xitoya davlatning kuch-qudrati uning harbiy aravalari soniga qarab belgilangan, mingta harbiy aravasi bo'lsa, uni katta podsholik hisoblasa bo'lardi. Jang aravalari o'sha davr uchun qo'shinda eng asosiy hujum qiluvchi kuch edi. O'sha davrda Xitoy qo'shinlarining asosi janggovar arava, otliq qo'shin va piyodalardan tashkil topgan edi. Qadimda xitoyliklar to'rt ot qo'shilgan jang aravasini "sheng" deb atashgan.

Konfutsiy bu yerda hukmdorlar uchun muhim bo'lgan besh bandni ko'rsatadi: xizmatiga fidoyilik (ya'ni o'z ishiga astoydil bo'lish, qunt bilan ishlash), xalq ishonchini

qozonish, tejamkor bo'lish, ziyoli va martabasi ulug' kishilarni asrab-avaylash, ommani mavridi bilan safarbar etish (davlatning safarbarlik ishlariga jalb etish). Bu qadim Xitoyda demokratik tasavvurlarning kurtak yozishi edi.

Konfutsiyning "rahmdilik" ta'limoti kishilar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar nazariyasi, shuningdek, davlatni idora qilish amaliyoti hamdir. Hukmdor agar faqatgina davlat xazinasini qanday to'ldirishni o'ylab, aksincha xalq hayotini farovon qilishni xayoliga ham keltirmasa, u rahmdil, odil shoh emas, insonparvar siyosat yurgizolmabdi. Konfutsiyning "rahmdilik" g'oyasi siyosiy-ijtimoiy sohada demokratik boshqaruv usuli tamoyillaridan biri sifatida ham ahamiyatlidir. Biror davlatning qudrati faqatgina davlat xazinasining to'laligi, hukumatning kuchliligi bilangina o'lchanmaydi, kuchli jamiyat qura olsa, xalq hayoti farovon bo'lsagina haqiqiy ma'nodagi qudratli davlat va farovon jamiyatga aylanadi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Yoshlar ota-onaga oldidagi farzandlik burchini bekamu ko'st ado etmoqlari, ostona hatlab chiqsalar, kattalarni hurmat qilishlari kerak; ehtiyyotkor hamda lafzi halol, barchaga birdek mehribon bo'lmog'i, rahmdil fazilatli kishilarga yondoshmoqlari kerak. Shu alfoz zohidlik amaliyotidan so'ng, magar tag'in ziyoda kuch-g'ayrati bo'lsa, uni-da maxsus kitoblar mutolaasi bilan bilimin oshirishdek bama'ni mashg'ulotga sarf etgani durust".

Konfutsiyning nabirasi Zi Si (mil.avv. 483–402-yy.) o'zining "Mo'tadillik" ("Jo'ng-yo'ng" – "Zhongyong") kitobida Konfutsiy bilan Lu podshosi Lu Ay Go'ng o'rtasidagi savol-javobni keltiradi. Lu Ay Go'ngning siyosat haqidagi savoliga Konfutsiy javob berayotib shunday deydi: "... Rahmdilik, bu aynan odamlarni sevishdir, o'z ota-onasini sevib-ardoqlash rahmdillikda eng ulug' ishdir". Bu hikmatda Konfutsiy insonlarga mehr-oqibatli bo'lishni ta'kidlaydi. Ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbatni Konfutsiy asosiy insoniy fazilat (rahmdilik) deb hisoblaydi.

Ko'rinib turganidek, Konfutsiy ta'limotida axloq va fazilat qadrlanadi, yoshlarning axloqiy-estetik tarbiyasi muhim o'ringa qo'yiladi. Konfutsiy ta'limoti shu jihatlari bilan ham o'sha davr hamda hozirgi jamiyat talab va ehtiyojlariga uyg'un edi va hamon o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Yuqorida aytilganlarni bajarish oddiy-osondek tuyulsa-da, lekin nihoyatda mas'uliyatlari, mushkul hamdir. Farzand sifatida ota-onaga qobil, itoatgo'y bo'lish, kichik sifatida kattalarni hurmat qilish kerak. Nuroni otaxon va onaxonlarimiz



hamisha bizga shunday pand-nasihat qilishgan. Demakki, Konfutsiy kabi daholar hikmati xalq donishmandligi bilan uyg'undir. Ezgulik, ezgu fazilatlar har qaysi davr va xalqda ham qadr topgan.

\*\*\*

Tolibi Zi-sya dedi: "Rafiqangizning xusni jamolin emas, xusni xulqin qadrlang; ota-onangiz xizmatida bor kuch-g'ayratingizni ayamang; podshoh xizmatiga kirganda fidoyilik ko'rsating; Do'stga samirmiy-to'g'riso'z bo'ling. Bunday kishi kamtarlik qilib o'qimaganligin aytgan bilan, shubhasizki, uni bilimdon deb atagan bo'lur edim".

Zi-sya – Konfutsiyning shogirdi Bu Shang, hurmatli nomlari Zi-sya. Konfutsiyning keksalik davridagi shogirdlaridan, ustozidan 44 yosh kichik bo'lgan, adabiyotda shuhrat qozongan.

Ushbu hukmatda Zi-sya ustozи Konfutsiy ta'llimotida axloq-fazilatga katta ahamiyat berilganligini ta'kidlaydi. Xusni xulq, ya'ni axloq-fazilat kishining chiroy-suvratidan ustundir. Bu yerda tashqi jihatlarga emas, ichki jihatga, ya'ni qalbga e'tibor qaratiladi, ma'naviy kamolot haqiqiy go'zallik timsoli sifatida qadrlanadi. Zi-syaning mulohazalariga yaqin fikrni biz Yusuf Xos Hojib ijodida ham uchratamiz:

Xotin olsang, o'zdan quyiroqni ol,  
Sevinch-la kechir kunlaring bermalol.  
Husn istama, xushfe'lin izlagin,  
Agar bo'lsa xushfe'l, toparsan kamol.  
(“Qutadg'u bilig”dan, tarjimon Qayum Karimov)

Bilim olishning samarasi xatti-harakatlarimiz bilan sinovdan o'tadi, avvalo har kim o'zida odamlar bilan muomala qila olish ko'nikma-fazilatini tarbiyalamog'i kerak, undan keyingina madaniy bilimlar haqida gapiriladi. Axloqiy tarbiya birinchi o'rindadir, aqliy tarbiya esa ikkinchidir, ikkisining aloqalari nihoyatda aniq-ravshan. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar madaniy bilimlarni o'rganmoqchi bo'lsangiz, bilim asli nima ekanligini anglamoq kerak, kishilar bilan muomala qilish tasavvuri, hayotiy tajribalardan boshlasakkina bilim olishda biror muvaffaqiyatga erisha olamiz, o'rganganlarimizni esa hayotga tadbiq eta olamiz, aksincha kitobparast, rasmiyatichi bo'lib qolmaymiz.



Hikmatda besh jihat bir o'rinda tilga olingan: go'zal xulq, qobil farzandlik burchi, fidoyilik, samimiy-to'g'riso'zlik hamda kamtarlik. Zi-syaning ta'kidlashicha, bular bilimdonlikning belgilari dir.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar agar og'ir-vazmin bo'lmasalar, salobati bo'lmas, o'rganganlari ham mustahkam bo'lmas. Sadoqat va samimiyat – ikkisin bosh mezon deb bilmog'i kerak. O'zingizga nomunosib (axloqan tuban) kishilar bilan do'stlashmang. Xatoni tuzatishdan qo'rwmang".

Bu hikmatda Konfutsiy oljanob kishi ega bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlarni sanab o'tadi: ular asosan vazmin-salobatli bo'lish, qunt bilan bilim olish va uni mustahkamlash, sadoqat va samimiylik, do'stlashganda ehtiyot bo'lishlik, xatoni tuzatishga o'zida jur'at topa olishlik. Savlat-salobat shuki, kishining o'zini munosib tutishi, ya'ni yurish-turishi, so'zu amoli o'ziga yarashib turishidir. Kishi avvalo o'ziga, o'zligiga munosib bo'lishi lozim. Agar bachkana, yengiltak bo'lib, o'zgalarda o'zboshimchilik taassurotini qoldirsa, unda kishilar orasida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lishi amri mahol.

Do'stlashish masalasiga kelsak, bunda ikki xil qarash mavjud: birinchisi, axloq-fazilati o'zingizdan nochor kishilar bilan do'stlashish maqsadga muvofiq emas; ikkinchidan, maslaksiz yoki g'ayrimaslakli kishilar, ya'ni tanlagan yo'li o'xhash bo'lmanan kishilar bilan do'st tutinish maqbul emas. "O'zingizga nomunosib" deyilgani ayni shu ma'nodadir, bu o'rinda Sizdan ham o'zgalar do'st tutishga munosib bo'lishlik talab etiladi. Donishmand Konfutsiy kishilarning obro'-martabasi, mol-dunyosiga qarab emas, yaxshi tomonlarini, axloq-fazilatini inobatga olib ular bilan do'stlashishga chaqiradi, badxulq kimsalar bilan ulfat bo'lish o'z-o'zimizga choh qazish, o'zimiz o'tirgan shoxga bolta urish bilan barobardir. Yaxshi kishilar bilan do'st bo'lishning foydasi shuki, o'z xato-nuqsonlarimizni tuzatmoqqa, shu tariqa kamolot cho'qqisin zabit etishimizda bir ajoyib imkondir. Dono xalqimizda bir maqol bor: "Do'st achitib gapirar, dushman — kuldirib". Haqiqiy do'st xatoingizni sizdan yashirmaydi, o'zgalarga ovoza ham qilmagay.

Islom tarixida "hujjat ul-islom" nomi bilan mashhur olim Abu Homid G'azzoliy "Riyozatun-nafs" kitobida nafsdagi ayblarni bilish yo'llaridan biri sifatida haqiqiy sodiq, ziyrak va diyonatli do'st tanlash kerakligini ta'kidlaydi: "Go'yo bu do'st uning nafsi ustidan kuzatuvchi vazifasini o'taydi. Shunda u do'stining tanbehu maslahatlariga qarab o'zining ahvolu fe'llaridan, zohiru botin xulqlaridan ogoh bo'ladi..." (Abu Homid





G'azzoliy. Riyozatun-nafs. / tarjimon Rashid Zohid. —Toshkent: "Movarounnahr", 2006 y., 43-bet)

Ushbu hikmatda bo'lgani kabi, "Muhokama va bayon"ning ko'pgina o'rinalarda fikrlar tarqoqdek ko'rinsa-da, lekin ular ichki mantiqiy yaxlitlikka, izchillikka ega. Masalan, yuqorida bayon etganimiz — do'st tutish va xatolarni tuzatish borasidagi mulohazalar fikrimizning tasdig'i idir.

\*\*\*

Tolib Zeng-zi dedi: "Marhumlar dafn marosimlari qoida-yo'sinida puxta bo'linsa, ajdodlar ruhi yod etib turilsa, avom xalq ham o'z-o'zidan insofga kelgay".

Marhumlar deyilganda avvalo bu yerda o'tib ketgan ota-onanazarda tutilgan, ajdodlarni yod etish esa ularni esga olib qurbanliklar qilishga ishora. "Ota-onaning dafn marosimlari taomiliga puxta yondashish va ajdodlar ruhini yodga olish" azal-azaldan qobililik deya ta'riflab kelingan. Garchi Konfutsiy ruhning mavjudligi haqidagi mulohazalarini oshkora bayon qilmasa-da, dafn va qurbanlik marosimlariga jiddiy ahamiyat bergen. Konfutsiychilik ta'limoti marhumni izzat-ikrom bilan dafn etish kerakligini uqtiradi, qurbanlik, nazr-chirog' marosimlarini qadrlagan, umuman dafn va qurbanlik marosimlariga axloqiy tus beradi. Konfutsiyning nuqtayi nazariga ko'ra, qurbanlik nainki bir marosim, balki u qobil farzandlikning bir ifodasi hamdir, ya'ni marhumlarni yod etib turish ham bir farzandlik burchini ado etishdir. Konfutsiychilik qobil farzandlik odobiga jiddiy e'tibor qaratadi, chunki qobililik sodiqlik, vafoning asosidir, ota-onasiga qobil farzand bo'la olmagan kishi Vataniga ham sodiq bo'lomaydi. Sadoqatmandlik qobililikning davomidir, bu ham bir yuksak odob, har bir a'molimiz esa odob bilan go'zaldir.

Mazkur hikmatda nazarda tutilgan muhim jihatlardan yana biri shundaki, taomilga amal qilish va o'tganlarni xotirlash xalqni g'aflat uyg'otishning, isyon va parokandalikdan saqlashning diqqatga sazovor tadbirchoralaridan biridir. Bunday jamiyat kishilar halol, pok niyatli va vijdonli bo'lib boradi, bunday xalqning niyati ham, amali ham xayrli bo'lgay. Aslida ota-onanayotlik chog'laridayoq ularga qobil farzand bo'lish ayni saodat. Agar bandalikni bajo keltirsalar, ularni oq yo'lga kuzatishlik, so'ngra haqlariga duo qilib, savob yog'dirib, qabrlarini ziyyarat va obod qilib turishlik ham qobililik sanaladi. Bu odobda ham, dinda ham ulug'langan. Sodiqlik, qobililik haqidagi mulohazalar "Muhokama va bayon"da tez-tez uchrab turadi, bu esa Konfutsiychilikning bu ikki axloq me'yorlariga nihoyatda jiddiy qaraganligini anglatadi. Konfutsiychilikdagi

odob-qoida (tuzuk) ta'limi garchi diniy ko'rinishga ega bo'lmasa-da, qadimgi Xitoy jamoalarida ma'lum miqyosda shunga yaqinroq rolni bajardi, shu bois keyinchalik Konfutsiychilikni diniy ta'limot degan xato talqinlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

\*\*\*

(Konfutsiyning shogirdlaridan biri) Zi-chin Zi-go'ngdan so'rab shunday debdi: "Ustozi (fuzi)miz har safar biror davlatga borsalar, albatta, uning siyosiy ishlariga qulqoq tutardilar. O'zları bir niyat bilan bunga muvaffaq bo'lardilarmi yoki o'zga kimdir tashabbus ko'rsatarmikin?" Zi-go'ng shunday javob qilibdi: "Ustoz xushfe'llik, mehribonlik, kamoli ehtirom, sopolik va kamtarlik kabi besh axloqiy fazilatlarga tayanib murodiga yetgay. Hazratning muvaffaq bo'lish usuli o'zgalarnikiga o'xshamasa kerak".

Zi-chin (Zi-qin) – Konfutsiyning shogirdlaridan biri, familiyasi Chen (Chen), ismi Kang (Kang), Zi-chin uning hurmatli nomi. "Tarixiy xotiralar" kitobining "Jo'ngni shogirdlari tarjimayi hollari" bobida Zi-chin qayd etilmagan, shu bois ba'zi bir talqinlarga ko'ra, u Konfutsiyning shogirdi emas.

Zi-go'ng (Zi-gong) – Konfutsiyning shogirdi, familiyasi Duanmu (Duan-mu), ismi Si (Ci), hurmatli nomlari Zi-go'ng, Vey (Wei) podsholigidan bo'lgan, ustozidan 31 yosh kichik bo'lgan. Zi-go'ng miloddan avvalgi 520-yil tug'ilgan. U bahs-mubohasaga mohir bo'lgan. Konfutsiy uni katta bir davlatning vaziri a'zami bo'lishga loyiq deydi. "Tarixiy xotiralar"da qayd etilishicha, u Vey podsholigidagi mashhur savdogarlardan biri bo'lgan.

Fuzi (fu-zı) – qadimda qo'llanilgan hurmat belgisini bildiruvchi nom. Dafulik (qadimgi Xitoya o'rta darajadagi amaldorlik) qilgan kishilarga hurmat bilan shunday murojaat qilingan. Konfutsiy bir muddat Lu podsholigida "si-koulik" lovozimida xizmat qilgan, shu sababdan shogirdlari Konfutsiyni ham "fuzi" deb atashgan. Shunga ko'ra, keyinchalik ustozlarni shu nom bilan ulug'lab atash an'anaga aylangan. Si-kou mansab egalari adliya va tartibni saqlovchi mirshablik, ya'ni huquq-tartibot ishlarini boshqargan. U G'arbiy Jou (Xi-zhou) davrida ta'sis etilgan o'rta darajadagi mansab nomi, Chun-chyu ("Bahor-kuž"—"Chun-qiу") va Jan-guo ("Urushqoq podsholiklar"—"Zhang-guo") davrida ham foydalanilgan. "Muhokama va bayon"dagi "fuzi" Konfutsiy shogirdlarining uni hurmatlab atashlaridir. "Konfutsiy" nomi ham "Ko'ng fu-zı"dan kelib chiqqan.

Konfutsiy yurtma-yurt kezib yurganida, qaysi davlatga bormasin, avvalo ishonch qozonib "uning siyosatini eshitgan", hukumat ishlariga diqqatini qaratgan. Afsuski, hech bir podsho uning ta'limotini hayotga tadbiq qilishdek og'ir mas'uliyatni o'z



zimmasiga olmaydi. Siyosat va siyosiy vazifalar davlatning o'zagi sifatida mamlakatning gullab-yashnashi, hayot-mamotiga daxldor, xalqning turmushi, baxt-saodati bilan chambarchas bog'liq, har bir fuqaroning manfaatdari bilan aloqador, har birimiz bu haqda qayg'urishimiz lozim. Hikmatda ikki shogirdining suhbati asosida Konfutsiyning qanday odam ekanligi, uning axloqiy sifatlari ochib berilgan. Konfutsiy podsholarning qadrlashi va yuksak bahosiga sazovor bo'lishining sababi uning xushfe'l-muloyimlik, mehru shafqat, hurmat-ehtirom, oddiy-soddalik va kamtar-kamsuqumlilik kabi axloqiy sifatlarga ega bo'lganligidadir. Konfutsiy mana shu sifatlari bilan mahorat kasb etadi. Kamtarinlik sifatini oladigan bo'lsak, bu xislat insonning obro'-e'tibor, qadr-qimmat topishida muhim rol o'ynaydi. "Kamtarga – kamol, mammanga – zavol", deydi dono xalqimiz. Bu mazkur naqlning Konfutsiy fe'l-atvori, hayoti misolida yana bir bor o'z tasdig'ini topgani emasmi?! Kamtarinlik nima? Oddiygina qilib aytganda, u foydamanfaatga kelganda hammadan keyinda, burch-majburiyatga kelganda esa hammadan oldinda turishlikdir. Mazkur hikmat, shuningdek, shogirdlarining ustozlariga nisbatan bergen yuksak bahosi hamdir.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Otasi hayotlik chog'ida uning maqsadiga razm soling; otasining o'limidan so'ng uning xatti-harakatini diqqat bilan ko'zdan kechiring: agar uch yillarcha otasining yo'l-yo'riqlarini o'zgartirmasa, qobil farzand deyish mumkin".

Hikmatni umumlashtiradigan bo'lsak: "Otasi hayotlik chog'ida ham, vafotidan so'ng ham ota o'gitlariga xiyonat qilmagan farzand qobil farzanddir".

"U" – bu yerda farzandga ishora. "Uch yillarcha" – "ancha vaqt" ma'nosida, qadimda ko'plik ma'nosini anglatgan. Yo'l-yo'riqlar, ya'ni "dao" – ota tayinlagan axloq mezonlaridir. Mazkur hikmatda farzandlik burchini ado etishlik va noqobillikni tekshirish usuli haqida so'z yuritilgan, unda Konfutsiy o'z fikrini aniq va lo'nda bayon etadi. Agar farzand otasi tayinlagan axloq me'yorlariga og'ishmay amal qilsa va bundan uning ko'ngli to'q bo'lsa, u qobil farzand deya atalishga loyiq. Albatta, bu yerda "o'zgartirmasa" so'ziga biryoqlama qaramaslik lozim. Asl ma'noni kishilarga yetkazib berishda uni qanday talqin etish ham muhim rol o'ynaydi. Bunda so'zlovchining so'zlash mahorati, til nozikliklarini ham inobatga olish kerak. Ba'zi kishilar Konfutsiyning mazkur hikmatiga asoslanib, uni eskilikka undovchi, mutaassib va isloh qilishga qarshi fikriyochi degan biryoqlama fikrga kelishlari mumkin, tarixda shunday ham bo'lgan, ko'plab siyosatdonlar undan o'z maqsadlariga yetishishda foydalanganlar. O'g'il-qizlar

qobil farzand bo'lishlari, keksa avlodning yaxshi tomonlaridan o'rnak olishlari, ularning to'g'ri ko'rsatmalariga, pand-nasihatlariga hurmat bilan qulq solishlari shart. Lekin bular xo'jako'rsinga bo'lmasin, shuningdek, ularga ko'r-ko'rona ergashmaslik ham kerak. Aniq bir daraja – mezonga ega bo'lish talab etiladi.


Hammamiz xom sut emgan bandamiz, shuning uchun ishimiz, so'zimizda juz'iy xatolik o'tishi mumkin, xatolarni tan olish va ularni o'z vaqtida tuzatishga o'zimizda jur'at topa olish haqiqiy mardlik sanaladi. Shu bois yoshlar esli-hushli bo'lib, o'zları fikr yuritsalar, kattalarning afzal tomonlaridan o'rnak olsalar, har narsaga ibrat ko'zi bilan boqsalar, nur ustiga a'lo nur bo'lur edi.

\*\*\*

Tolib You-zi dedi: "Lii" (odob-qoida)ning ahamiyati mutanosiblik ("he")ning muhimligidadir. O'tgan oqil podsholar tutgan yo'l shuning bilan go'zal edi, kattayu kichik ishlarida u dasturulamal bo'ldi. Ba'zi o'rirlarda unga rioya qilmaganlar, boisi mutanosiblik faqat mutanosiblik uchungina bo'lib qolganidadir, lekin u odob-qoida bilan tiyib turilmas ekan (ya'ni odob-qoida doirasida bo'lmas ekan), ro'yobga chiqarib ham bo'lmaydi".

Konfutsiy bu hikmatda kishilarни odob-qoida doirasidan chiqmaslikka chaqiradi. "Lii" – odob-qoida o'zi nima? Neytral-xolis bo'lish, yanada kengroq qilib aytadigan bo'lsak, ayni tinchlikdir. So'zimizga izoh kiritaylik. Kishilar o'rtasida ba'zan tafakkur evrilishlari, fikriy og'ishlar ham yuz berib turadi, biror xatti-harakatga nisbatan turlicha qarashlar shakllangan bo'ladi, bu esa ziddiyatlì munosabatni keltirib chiqaradi. Bu ziddiyatlarni qanday bartaraf qilish, og'ishlarni tartibga solish mumkin? "Lii"ga tayanib", ya'ni odob-qoida me'yorlariga tayangan holda, deyiladi Li Ze-fey (Li Zi-fei) tartib bergen "Muhokama va bayon"da ("Beifang lianhe" bosma-media aksiyadorlik mas'uliyati cheklangan jamiyat "Wanjuan" nashriyot korxonasi nashri; 2010-yil yanvar, 3-nashr, 7-bet).

"Lii", bu – o'sha Konfutsiy yashagan Chun-chyu davri nuqtayi nazaridan, umuman olganda quidorlik jamiyatidagi qonunlar to'plami va axloq me'yorlari. Holbuki Konfutsiy nazarda tutgani Jou "lii"si, ya'ni Jou sulolasining tuzuklari, odob-axloq me'yorlari, taomil, urf-odatlar tizimi, shuningdek, kishilarning fe'l-atvor mezonlarini ham ko'rsatadi. Agar "lii" bo'lmasa, jamiyatda tartib, demakki, barqarorlik, osoyishtalik bo'lmaydi, shu bois kishilar o'rtasidagi munosabatlarda odob saqlash, biror ishda qoidaga amal qilish kerak. Odob-qoidaning ahamiyati esa "mutanosiblikni muhim deb bilish"da





va ayni muvozanatni saqlashdir. "Xe" – mutanosiblik yoki uyg'unlik, to'g'ri-monandlik, muvofiq, munosiblik; boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, har ishni ayni muddaodagidek bajara olish, me'yor talabida bo'lish; xalq tili bilan aytganda, sixni ham, kabobni ham kuydirmaslik; shuningdek, murosasozlikni ham nazarda tutadi; yanada aniqlashtirsak, o'rtamiyona, mo'tadilga to'g'ri keladi. Odatda Konfutsiychilikda mutanosiblik mo'tadillik bilan birga tilga olinadi. Agar olamda mutanosiblik bo'lmasa, unda go'zallik, mo'tadillik ham bo'lmaydi. So'z va xatti-harakat mutanosibligi, til va dil mutanosibligi, botin va zohir mutanosibligi – bular olijanoblarning sifatlaridir. Ohanglar uyg'unligi – hamohanglik, ranglar uyg'unligi haqiqiy san'at asarlarining dunyoga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Hatto tabiiylik va g'ayritabiylilik o'rtasida ham yuksak mutanosiblik mavjud, u alomatlarda zohir.

Kezi kelganda bir narsani alohida ta'kidlab o'tishni joiz deb topdik: bu yerda birlgina Konfutsiychilik ta'limoti misolida aks etgan Sharq tafakkurining o'ziga xos jihatlaridan biri oydinlashadi: ma'nolar xazinasi birlgina so'z zamirida yashirin. Ya'ni birlgina so'z bilan juda ko'p narsalarni anglatish mumkin. Mutanosiblik Konfutsiychilik alohida tashabbus ko'rsatgan etikaviy, siyosiy va ijtimoiy prinsip hisoblanadi. Konfutsiy "lii"ni hayotga tadbiq qilish va qo'llashda eng muhimmi uyg'unlik (mutanosiblik)dir, deydi. Barcha ishda mutanosiblikka amal qilish kerak, shu bilan birga beadablik qilishdan ham saqlanish lozim. Ya'ni aytish mumkinki, har bir inson jamiyat va hayotdagi o'z o'mini yaxshi bilgan holda, o'zaro munosabatlarda nomutanosib qilmishlardan tiyilganlari ma'qul. Masalaga nazariy jihatdan yondashadigan bo'lsak, Konfutsiy holbuki odob-qoidaning qo'llanilishida mutanosiblik (uyg'unlik) muhim deya ta'kidlagan ekan, shuningdek, "mutanosiblikka erishish uchungina mutanosiblik payida bo'lmaslik"ni, odob-qoida bilan tiyib turish lozimligini ham eslatib o'tadi, odob-qoida doirasidan chiqmaslik kerakligini uqtiradi. Ko'rinish turganidek, Konfutsiy da'vat etgan mutanosiblik mutlaqo prinsipsiz uyg'unlik emas, aql-idrokka asoslanganligi (oqilonaligi) bilan ham ahamiyatlidir. Konfutsiyning mazkur hikmatdagi nuqtayi nazari ma'lum mazmunga egaki, uni yaxshiroq tushunish uchun donishmand yashagan davr ijtimoiy-siyosiy ahvoidan qisman bo'lsin xabardor bo'lish talab etiladi.

Qadimgi Xitoyda Chun-chiyu davri (mil. avv. 770–mil. avv. 476-yillar)ga kelib jamiyatda qaror topgan an'anaviy tartiblar yemirila boshlandi, mamlakatda fisqu fasod avj oldi, amaldorlarning shohga suiqasd qilishlari, padarkushlik kabi voqealar teztez uchrab turardi. Shu bois Konfutsiyning shogirdi You-zi ziddiyatlarni biroz bo'lsin yumshatish, jamiyatda osoyishtalikni qaror toptirish maqsadida "mutanosiblik muhim" degan fikrni ilgari suradi. You-zi mutanosiblikni odob-qoida ("lii")ning eng yuqori darajasi deb hisoblaydi, lekin u odob-qoida doirasidagi mutanosiblik (uyg'unlik) bo'lishi shart.

“O’tgan podsholar” – Xitoyning qadimgi afsonaviy podsholari: Yao, Shun va Yu oqsoqollar, shuningdek, Tang, Ven, Vu, Jou-go’ng kabi podsholariga ishora. Ularning yo’li (“dao”si) birdir, bir prinsipga og’ishmay amal qildilar. Bu prinsip esa har qanday xatti-harakat, xulq-atvor va faoliyatning boshlang’ich qoidalari, ya’ni faoliyat uchun asos qilib olinadigan qonun-qoidalalar, shu bilan birgalikda mutanosiblik mezoni hamdir. “U” deyilganda podsholarga dasturulamal bo’lgan shu prinsip nazarda tutilgan. Sharq adabiyotida Anushiravon, ba’zi manbalarda No’shiravon deb ham yuritilgan shoh voqeanolalardaadolat timsoli sifatida shuhrat qozongan; Hotamtoy saxovatpeshalik, olijanoblik ramziga aylangan. Turli adiblar o’z davrining podsholariga ularni ibrat qilib ko’rsatishgan.

Xulosa shuki, Sharqda qadimdan avval o’tgan odil podsholar, donishmandlarni ibrat namunasi qilib ta’rifu tavsif qilish an’anasi mavjud, ular haqida hikoyatlar, afsonalar bitilgan. Konfutsiy va uning izdoshlari ham shu an’anani qadim Xitoy diyorida boshlab berishgan. Aslida “ibrat” tushunchasi va amaliyoti kishining ulg’ayish jarayonida muhim ahamiyatga ega, avvalo biz yon-verimizdagilarga qarab o’rganamiz – ulgi olamiz, kelajakda qanday odam bo’lib voyaga yetishimiz ko’p jihatdan bizni qurshab turgan muhitning qandayligiga bog’liq.

\*\*\*

Tolib You-zi dedi: “Berilgan va’da haqqoniy bo’lsagina, amalda vafosi ham bo’lgay. Izzat-hurmatda odob-qoidaga yaqin bo’lsang, isnoddan yiroq bo’lgaysan. Suyanchiq tuqqan-tug’ishganlariga oqibatli bo’lishlikda ibrat bor”.

Konfutsiyning shogirdi You-zi mazkur hikmatda “ishonch” (va’da) va “hurmat” haqida fikr yuritadi, bu uning ikkisiga nihoyatda jiddiy qaraganligidan guvohlik beradi. “Va’da” va “hurmat” uchun mezon Jou sulolasini odob-qoidalari dir. Konfutsiy va shogirdlari Jou sulolasini ibrat sifatida ko’rsatishlari, unga qayta-qayta murojaat qilishlarining sababi shundaki, tarixiy nuqtayi nazardan Jou sulolasidan so’ng mamlakatda boshboshoqlik, parokandalik avj olishi natijasida jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy jihatdan tanazzulga yuz tuta boshlagan edi, buning salbiy oqibatlarini oldindan ko’ra olgan Konfutsiy podsholar va xalqni ogohlilikka da’vat etadi va bu yo’lda u o’zining qadimgi fozil podshohlar yo’li va Jou sulolasini tuzuklari asosi ustiga qurilgan axloqiy-siyosiy ta’limotini hayotga tadbiq etishga urinadi. G’oyaviy-nazariy jihatdan esa o’z ta’limotini muayyanlashtiradi, ya’ni unga aniqlik kiritib hayotiy ruh beradi. Odob-qoidaga muvofiq bo’lmasa so’zlanmaydi, so’z berilmaydi, aks holda, “ishonch”ga putur



yetadi. Odob-qoidaga zid ishlar qilinmaydi, aks holda "hurmat"ga putur yetadi. Bu ayni inson kabi yashash haqidagi asosiy nuqtayi nazardir.

Va'daga vafo qilish – haqiqiy vafodorlik, odillikdir, ayni mardonalitykdir. O'zbek maqolida aytiganidek, "Arslon izidan qaytmas, botir – so'zidan". So'zining ustidan chiqadigan kishi mahmadanagarchilik, afsatabozlik qilmaydi, quruq gapni gapirmas, chunki berilgan va'dasining ustidan chiqish kerak. Avvalo berilajak va'da haqiqatga yaqin,adolatga uyg'un bo'lsin, shundagina uning ustidan chiqish ehtimoli bo'ladi. Va'da vafosi bilan go'zal.

Hikmatda so'z "yi"ga muvofiq bo'lishi kerak deyilgan, "yi" – adolat, haqqoniyat, odillik, to'g'rilik, konfutsiychilik ta'limotining etikaviy (axloqiy) kategoriyasidir. Bu g'oyaviy va amaliy jihatdan ma'lum bir belgilangan me'yorga mos kelishlikdir. Ushbu mezon esa odob-qoida (tuzuk)dir. Hurmat odob-axloq qoidalariga muvofiq bo'lishi shart, ya'ni hamma narsa odob-axloq me'yorlari doirasida bo'lishi kerak. Bunda tashqi fe'l-atvor garchi muhim bo'lsa-da, botiniylik yanada muhimroqdir. Shu o'rinda bir muhim jihatni qayd etishni lozim deb topdik: G'arba zohiran namoyishkoronalik yetakchi o'rinda turadi, Sharqda esa botiniylik birinchi o'rindadir. G'arba ochiq-oshkoronalik tabiiy hol. Sharqona taomilga ko'ra, andisha qilinadi, so'zlanmaydi, balki anglanadi, ifoda-izhor mahfiy kechadigan jarayondir. Shu singari misollar ota-onva farzandlar o'tasidagi, kishining jamiyat bilan bo'lgan turli munosabatlarida, dunyoqarashida ham yaqqol aks etadi. Hikmat orasida ishlatilgan "yaqin" so'zi muvofiq, mos, to'g'ri kelishni anglatadi. Adab inson nafosatidir, u kishining jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini ham belgilab beradi. Shunday ekan, bizning so'zu xatti-harakatimiz unga muvofiq bo'lmosg'i lozim. Qarindoshlar, do'st-birodarlar orasida suyanishga arzigulik oqibatlilari bo'ladi va ularga ergashish, ulardan ibrat olish lozim. Ota-onva biz – farzandlarning suyanch tog'imizdir. Mazkur hikmatning tag ma'nosi shuki, axloqiy tarbiyani yonimizdagি kichik ishlardan boshlagan durust.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar taomda qornini to'yg'azish hamda badastir, rohat-farog'atda yashash ko'yida bo'lmaydi, mehnatda tiyrak-uddaburon, so'zda ehtiyyotkor bo'lsa, har doim axloqli kishilardan o'mak olib o'z nuqsonlarini tuzatsa, uni haqiqiy ilmsevar deyish mumkin".

Bu hikmatda oljanoblar oldiga qo'yilgan ilm ishtiyoqmandligi borasidagi bir necha xil axloqiy talablar bayon etilgan bo'lib, ta'rifdagi oljanob kishi yaxshi fazilatlarga

ega bo'lgan inson, ilmga ishtiyoqmand deganda asosan ilm amali, xatti-harakat, axloqiy tarbiya nazarda tutiladi. Faqat kitoblar mutoalasi bilangina bunga erishib bo'lmaydi. Konfutsiy axloqli kishi o'zining yeb-ichishi va yashashiga haddan tashqari diqqat-e'tiborini qaratmasligi kerak, shuningdek, unday kishi mehnatda tirishqoq va uddaburon, ehtiyyotkor bo'lishi, tag'in o'zini tanqid qila olishi, so'zu amallarini sarhisob qilib, axloqli kishilardan o'rnak olib xatolarini tuzatishni bilishi kerak, deb hisoblaydi. Aynan o'sha "bilish" ilm olishga ixlosmandlik darajasini belgilaydi.

O'z-o'zini bilishga intilish haqiqiy ilmparvarlikdir. Kishining har bir xatti-harakati zamirida o'z-o'zini kamolotga erishtirishdek oliv maqsad yotishi kerak. Konfutsiy ta'limotidagi ilmga ishtiyoqmand bo'lishlik g'oyasi umuman olganda ilmga chin e'tiqod qo'yish, tirishqoqlik va hafsalal bilan bilim olish talabida bo'lish, o'rganganlarini amalgatdbiq qilish kabi ma'nolarni o'zida mujassamlashtirgan.

Shuningdek, mazkur hikmatda nafsni tiyish, qalb xastaliklarini davolashda aql-farosat va ibratning xosiyati haqida fikr-mulohaza bildirilgan. Olijanob sifatida kishi o'zining moddiy narsalar beradigan huzurga bo'lgan o'chlik ishtiyoqini tiyib turishi, butun diqqat-e'tiborini o'zining axloqiy sifatlarini kamol toptirishga qaratishi kerak, bu ibrat olishga arzigulik ishdir. Nafsni tiyish, sabr-qanoatli bo'lish, aql-farosat bilan ish yuritish, tiliga erk bermaslik, har narsaga ibrat ko'zi bilan boqish – bular olijanoblikning sifatlaridir.

\*\*\*

Tolibi Zi-go'ng ustozi Konfutsiydan so'radi: "Faqir bo'lgan bilan lagarbadorlik qilmasa, badavlat bo'lgan bilan kibru havoga berilmasa qandoq?" Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Durust, biroq bu kifoya qilmaydi, faqirlikda mammuniyat ila axloqi kamoloti uchun ham qayg'ura olsa, davlatmandlikda ham adab ixlosmandi bo'lishga yana nima yetsin". Zi-go'ng yana dedi: "Nazmnoma"da aytiganidek:

"Go'yo olib fil dandoniyu suyagu muguz, qoshtoshni,  
Sayqal topsin desang gar, kanda qilma taroshlashni", –  
ayni shu mazmundami?"

"Ey Si, sening bilan "Nazmnoma" haqida suhbat qilmoq fursati yetibdi, – debdi Konfutsiy. – Chunki senga bir narsa haqida so'z ochgudek bo'lsam, o'zing birni bilish orqali qolganlarini uqib olar bo'libsan".

Si ( Ci – Si) – Zi-go'ngning ismi, Konfutsiy shogirdlariga odatda ularning ismini aytib murojaat qilgan. Bu hikmat bir jihatdan konfutsiychilik ta'limotida ta'lim



berish holatini aks ettirgan. Mohirlik bilan ta'lim-tarbiya berish, birni bilish orqali boshqasini fahmlash, ya'nii birni bilib mingga yetish – Konfutsiyning o'qitish usulidir. Qashshoqlikda ham kamolot haqida, boy bo'lsa ham adab haqida qayg'urishlik – Konfutsiyning o'qitish talablaridir. Konfutsiy Zi-go'ngga o'z-o'zini tarbiya qilish faqatgina yaxshi amallar qilish emas, asosiysi bundan shodu xurram bo'lishlikda ekanligini o'rgatadi. Yaxshi o'qituvchigina tanqid qilishni ham, taqdirlashni ham biladi. Konfutsiy shogirdlari hamda barcha odamlarni faqirlikda ham "dao" (tariqat)dan quvonish, boy bo'lsa ham adabni xush ko'rishdek yuksak bir darajaga yetishlaridan umid qilgan. Shu boisdan odadiy darslarida Konfutsiy shogirdlariga bu g'oyalaridan saboq beradi, agar donishmand aytganidek bo'lsa, jamiyat osoyishtaligini saqlash mumkin. Konfutsiy tolibi Zi-go'ngdan mamnun, bu qisqagina savol-javobdan anglashiladiki, Zi-go'ng mustaqil fikr yurita oladi, birni bilish bilan mingga yetadi, shuning uchun ham ustozining maqtoviga sazovor. Shuningdek, Zi-go'ng bu o'rinda tag'in bir haqiqat – bilimni to'xtovsiz chuqurlashtirib borish kerakligini tushunib yetadi. Ushbu hikmatda bayon etilganlari Konfutsiyning ta'lim berish g'oyalarining muhim bir jihatni hisoblanadi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Boshqalarning meni tushunmasliklaridan og'rinmayman, boshqalarni tushunmasligim meni tashvishga soladi".

Bu bir og'iz jumla Konfutsiyning shogirdlariga o'rgatgan insondek yashash hikmatidir. Uning tag ma'nosи shuki, o'zgalarni tushunishing asnosida boshqalarga ham o'zingni tushunishlariga yo'l ochasan. Boshqacha qilib aysak, o'zgalarni tushunish barobarida kishi o'zini ham yaxshi anglab boradi. O'zingni anglamasang, boshqalarni tushunmaysan, o'zgalarni tushuna boshlaganing sayin o'zingni, hayot va borliqni yanada teranroq anglay boshlaysan. Bu "tushunishlik" turli yo'sinda, masalan, bag'rikenglik, mehr-muhabbat, fidokorlik, samimiylilik kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Kishi o'zgalarga marhamatli bo'lishdan oldin o'ziga nisbatan bag'rikeng, iltifotli bo'lmog'i kerak. Birovga muhabbat bog'lashdan avval inson o'zini haqiqiy ma'noda seva bilmoq kerak, yo'qsa tuyg'ulari uni manfaatparastlikka, xudbinlikka yetaklaydi. Ichi torlik, ichi qoralik kabi illatlarga qarshi kengfe'llik, mehru shafqat bilan kurashmoq lozim.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Elni axloq bilan idora qila olgan podshoh misli Qutb (Oltin qoziq) yulduzidek o'z o'mida mustahkam tura olgay hamda behisob yulduzlar uni qurshab muhofaza qilib turgay".

Qutb yoki Oltin qoziq yulduzini qadimgi odamlar osmonning markazi deb ataganlar. Yer shari o'zining aylanish o'qi bo'ylab harakatlanadi, shimoliy yarimshardagi odamlar nazarida yulduzlarning hammasi go'yo osmondag'i bir nuqta atrofida to'planib aylanayotgandek tuyuladi, bu nuqta aynan osmonning Shimoliy qutbidir. Qadimda kuzatish usullarining cheklanganligi sababli, odamlar Shimoliy qutb ba'zi yulduzlar bilan jipslashgan deb hisoblaganlar, shunga ushbu yulduzni "Qutb yulduzi" deb atashgan. Keyinchalik bu kabi tushunchalarining noto'g'ri ekanligi ma'lum bo'ldi. Lekin Konfutsiuning ushbu tashbehi ramziylikka ega. Agar podshoh axloq ila elni idora qilsa, vazir, raiyat — barchasi uni qurshab himoya qilgay.

Ushbu hikmatning ma'nosi shuki, davlat ishlarini idora qilishda axloqiy tarbiyani birinchi o'ringa qo'yish kerak, ya'ni u siyosiy jihatdan ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aqliy tarbiya axloqiy tarbiya asosida shakllantirilsagina ezgulikka xizmat qiladi. O'zo'zini tarbiyalab kamolotga yetkazish nafs tarbiyasi hamdir. Xalqqa axloqiy kuch bilan ta'sir etish, ya'ni insonparvarlik idora usuli Konfutsiuning adab (odob-qoida) bilan elni idora qilishga doir siyosiy qarashlarining muhim tarkibiy qismidir.

Mazkur hikmatdan anglashiladiki, konfutsiychilikning elni idora qilish haqidagi eng asosiy prinsipi axloq ila idora etish usulidir, aksincha shafqatsiz jazo choralarini yoki qattiq qonunlarni joriy qilish emas. Inson xoh o'zini idora qilsin, xoh davlatni, bu jarayonda axloq asosiy rol o'ynaydi. Kishining o'z-o'zini kamolotga erishtrishga bo'lgan urinishida, oilasini tuzashi yoki davlatni idora qilish, dunyo tinchligiga o'zining hissasini qo'shishida axloq nihoyatda muhimdir. Axloqli, fazilatli bo'lsa, kishining tabiatи ham go'zal bo'lgay, odamlarni o'ziga tortadigan hamda kuchli ta'sirchanlik quvvatiga ega bo'lgay, xalq ulug'lab boshlariga ko'targay, obro'-e'tibori yuksalgay. Yuqoridagi hikmatdan fahmlash qiyin emaski, Konfutsiiga xos xislat uning qarashlarida o'z aksini topgan, ya'ni axloqli idora usulida avvalo podshoh o'zining yaxshi xulqi bilan raiyatga o'rnak bo'lsin. Tarixdan ma'lumki, juda ko'plab xonlik-sulolalar birgina saroyda avj olgan axloqsizlik, fisqu fasod oqibatida tanazzulga yuz tutgan. Jamiyat va davlat xotirjamligi, obodligi va ravnaqi undagi har bir fuqaroning axloqiy kamoloti bilan chambarchas bog'liqdir.

\*\*\*



Konfutsiy dedi: "Nazmnoma" uch yuz qismdir, birligining so'z bilan aytganda, u "beg'arazdir".

Mazkur hikmat qadim yunon faylasufi Epikurning so'zlarini tasdiqlaydi: "Donishmandgina she'riyat va musiqaga to'g'ri baho bera oladi".

"Nazmnoma" hammasi bo'lib 305 qism-she'rdan iborat, "uch yuz" miqdorning ko'pligiga ishora. Bu asar o'tgan bobda Konfutsiy va shogirdi Zi-go'ng o'rtalaridagi savol-javobda ham tilga olingan edi. "Nazmnoma" konfutsiychilik ta'limotining mumtoz asarlaridan hisoblanadi. Konfutsiyning tahriri va tartib berishi natijasida yuzaga kelgan, biroq aslida u Konfutsiygacha ham mavjud edi. Boshqa bir qarashlarga ko'ra, asar uzoq davrlar mobaynida tarqalib, og'izdan-og'izga o'tib bir tartibga kelgan. Konfutsiy o'sha nusxasiga asoslanib qayta tahrir qilgan, xolos. Nima bo'lganda ham, bu ikkisi bir-birini inkor etmaydi. Albatta, "Nazmnoma"ning bugungi kungacha yetib kelishida Konfutsiyning buyuk xizmatlari bor. Konfutsiy mazkur asarni nihoyatda chuqur tadqiq qilgan. "Beg'araz" so'zi "Nazmnoma"ning "Luga qasida" faslidagi "Arg'umoqlar" she'ridan olingan, biz she'rning bir bandini keltirib o'tamiz:

Semiz va baquvvat ayg'ir otlar,  
Yaylovi olis, ovloq kimsasiz joylar.  
Semiz va baquvvat otlar ular,  
Oq-qora otlar, oq-qizil dog'dor otlar,  
Oyoqlari yoldor otlar, kokildor otlar,  
Aravalarga bop kuchli zotdor otlar.  
Benuqson, beg'araz g'aroyib otlar,  
Bu otlar uchqur otlar, ajoyib otlar.

She'r to'rt banddan iborat bo'lib, yuqoridagi parcha o'sha she'rning so'nggi bandidir. Konfutsiy bu birligining so'z bilan asarning bid'atdan, yovuz g'oyalardan xoli ekanligini ta'kidlaydi. Bu hikmat Konfutsiyning "Nazmnoma" g'oyalari ma'nomazmuniga nisbatan bergen bahosi, shu bilan birga, Konfutsiyning san'at asarlarini baholash mezoni hamdir. "Nazmnoma" o'sha davrlardayoq Misr, Mesopotamiya, Eron, Hindiston va Turon kabi Sharq o'lkalari qatori Xitoyda ham estetik g'oyalarning vujudga kelganidan guvohlik beradigan qimmatli manbalardan biridir. She'riyat, kuy-qo'shiq estetik zavq berishi bilan birga, kishining axloqiy takomilida muhim rol o'yndaydi. Axloqiy go'zallik va ma'nana yetuklik birligi haqiqiy olijanoblar sifatidir. Shunday ekan,

estetik qarashlarning yuzaga kelishi va rivojlanishida konfutsiychilik g'oyalarining ham o'z o'rni bor.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Raiyat amr-u farmonlar bilan idora qilinib, jazo choralar bilan tizginlab turilsa, garchi xalq faqat jinoyat sodir etishdan vaqtincha forig' bo'lsalar-da, jinoyatning isnod ekanin his qilmaydilar. Axloqiy me'yorlar bilan idora qilinib, adab-taomil (ma'rifat) bilan tiyib turilsagina raiyat halol va or-nomusli bo'libgina qolmay, balki o'zini o'nglab ham olgay".

"O'zini o'nglab olgay" deganda xatolarini tuzatish, tartib-qoidalarga amal qilish, bo'yinsunush ma'nolari anglashiladi. Mazkur hikmatda Konfutsiy bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki xil davlat idora usullarini muhokamaga qo'yadi. Konfutsiy, qattiq jazo choralar faqatgina odamlarni jinoyatlardan vaqtincha saqlay olishi mumkin, biroq ularga jinoyatning isnod ekanligini anglatolmaydi, deb hisoblaydi. Faqat amru farmon va jazoviy qonunlar bilan xalqni idora qilish garchi samara bersa-da, lekin mukammal bo'lolmaydi, axloqiy tarbiya bilan boshdan-oxir bezamoq kerak. Axloqiy tarbiya jazoga nisbatan anchayin oqilona yo'ldir. Bu yerda Konfutsiy siyosiy ishlarda ham axloqni birinchi o'ringa qo'yish bilan qonunlar va jinoyatga yarasha jazo choralarini also inkor etayotgani yo'q. Har ishning asosida axloq bo'lsagina undan ijobiy natijalar kutish mumkin. Hikmatda qonunlar yo'li va adab yo'li qiyoslanadi, xulosa: adab-ma'rifat idora usuli jazolovchi-qonuni boshqaruvdan a'loroq.

Konfutsiy Xitoyning buyuk ma'rifatparvar donishmandi ham edi, u adab va taomillar (urf-odat, udumlar)ga, tarixiy an'ana va ajdodlar merosiga hurmat ma'rifat ulashishning asosidir, deb hisoblaydi. El-yurt taqdiri ma'rifatga chambarchas bog'liqdir. Ma'rifatli elda har bir fuqaro nainki o'z taqdiriga, balki xalq va Vatan taqdiriga ham bee'tibor bo'lmaydi. Ilm-ma'rifatsiz xalq gumrohdir, ya'ni adashgan, u hech qanday razillik, gustohlikdan toymaydi. "Qobusnoma"da aytilganidek: "Podshoh uchun eng yomon ish xalqning gustohlig'idur". Shu boisdan Sohibqiron Amir Temur ham ilm-fan, san'at, madaniyat va adabiyotga homiylik qilganlar. Jadidchilarimiz ham ma'rifat yo'li bilan o'zligimizni namoyon etishni maqsad qilib qo'ygan edilar.

Xulosa shuki, axloqiy bilish o'z-o'zini anglash faoliyatidir, u kishilar va jamiyatni turli bo'hron hamda og'ishlardan asraydi. O'z-o'zini anglagan odam o'zligini tushungan insondir. Jazolardan qo'rqish hissi garchi kishilarni o'z xatti-harakatlarida ehtiyyot bo'lishga undasa-da, lekin bu bilan axloqan o'z-o'zini idora qilish mushkul.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men yoshimning o'nu beshida ilm olishga jiddu jahd qildim; qironim-o'ttizimda rostlandim; qirchillama-qirqimda sarosimaga tushmadim (shubhalardan forig' bo'ldim); ellikni qoralab taqdirdan voqif bo'ldim; oltmisni oralab hamma narsaga quloq osa bildim; yetmishga yetib inon-ixtiyorum o'zimda bo'ldi hamda qoida-me'yorda quyushqondan chiqmadim".

Mazkur hikmatda Konfutsiyning o'z hayot yo'li aks etgan. Donishmand o'z umr yo'lini umumlashtirib olti davrga bo'ladi. Biz ushbu hikmatning izohi sifatida Pekin Pedagogika universiteti professori Yu Danning "Muhokama va bayon" saboqlari" kitobidan ham misollar keltirishni lozim deb topdik. Hikmat izohiga kirishar ekan, Yu Dan xonim uni "bir xomaki hayotiy koordinatalar" deb ataydi. Uning bugungi kishilarga yana qanday ibratli ahamiyati bor?

Avvalo, bilim olish xususida. Bu dunyoni keksalarimiz "besh kunlik", "bevafo", "o'tkinchi" deydilar, inson umri qisqa bo'lishiga qaramay, u abadiyatga daxldor. "Konfutsiyning "o'n besh yoshimda ilmgaga jiddu jahd qildim" degan so'zlari o'zining boshlang'ich nuqtasi, shuningdek, shogirdlari oldiga qo'ygan bir talabi hamdir", deydi Yu xonim. Qadimda bolalar o'n besh yoshga to'lganlarida oliy maktablarga kirib hayot voqeliklariga asoslangan "ulug'lar sabog'i"ni o'rganishgan. Konfutsiy tez-tez shunday edi: "Men bilimdon bo'lib tug'ilman, qadimgilarga ixlos qo'ydim, tirishqoqlik bilan ilm o'rgandim, xolos". Olima axborot asri haqida gapirib, e'tiborimizni asqotadigan narsalarnigina o'qishga qaratishimiz kerakligini aytadi: "Axborot portlashi davrida biz uchun eng katta qiyinchilik yangiliklarning haddan ortiq ko'pligi, bizni qiyayotgan eng katta muammo tanlash muammosidir, shuning uchun ayniqsa saralab, reja bilan ilm olish zarur". Haqiqatan ham, hozirgi kunda cheksiz axborot oqimida o'zimizga keraklisini tanlay ola bilishimiz zarur, yo'qsa, umrimizning bekor o'tgani qoladi. Miyamizni har xil narsalar bilan to'ldirib tashlayvermasdan, cheklangan bilimimizning mohiyatini to'laroq anglab, uni hayotimizga olib kirsak qanday yaxshi! Konfutsiy o'qiganlarimiz ustida fikr yuritishimiz, ularni hayotga tadbiq qilishimiz lozimligini uqtiradi. Ana shunday o'qish, o'z ustumizda tinimsiz izlanib-ishlash orqali asta-sekinlik bilan o'sib boramiz.

"O'ttiz yoshda rostlanishlik qalbda o'ziga bo'lgan ishonchning paydo bo'lishidir". Bu hayotdagи muhim bosqichdir, xitoycha "li" (li) deyiladi, tarjimasi "oyoqqa turmoq", "hayotda, jamiyatda o'z o'mnini topmoq", "o'ziga tayanmoq", "qaddini rostamoq". Konfutsiy "li"ni shunday izohlaydi: "Li" adab-taomil bilandir"; yana aytadiki: "Odob-

qoida (“lii”)ni bilmasdan oyoqqa turib bo’lmaydi”. “Rostlanmoq uchun adab-taomilda bo’lishlik”ning eng so’nggi talabi haddan oshmaslik, qoidalardan chetga chiqmaslikdir. Bu haqda sal keyinroq batafsil to’xtalamiz.

“Zuo xotiralar” (“Zuo-zhuan”) kitobida ham qayd etilishicha, Meng Si-zi otliq kishi o’z o’g’liga borib, Konfutsiydan odob-qoidani o’rganishni buyurganida ham shunday degan ekan: “Odob-qoida, bu odam sinchidir, uningsiz oyoqda turish yo’q”. Yu Dan xonimning ta’kidlashicha, “o’ttiz yoshda tikka turish” avvalo ichki (botiniy) rostlanishdir, shundan keyingina jamiyatdagi o’z o’mini topishdir. “O’ttiz yosh ko’ngilda o’zingga bo’lgan ishonchni qaror toptiradigan yoshdir... Konfutsiy har doim shogirdlariga oddiygina yashash tarzini o’rgatib kelgan, u ham bo’lsa avvalo ko’z oldidagi ishlarni qoyilmaqom qilib bajarish, keraksiz narsalar to’g’risida tashvish chekmaslikdir”. Misol uchun, Konfutsiy afsonaviy narsalar (g’aroyibotlar), jin-ajinalar to’g’risida bahs yuritishni istamas edilar, bu uning diqqat-e’tiborini reallikka qaratganligining ifodasidir. Biz o’rgana olishimiz mumkin bo’lgan narsalarni o’rganishimiz lozim, shuningdek, oz-ozdan o’rganib borsak, vaqt(soati kelib haqiqatan qaddimizni rostlay olamiz. Yu Dan xonim “rostlanish”ni tashqi ijtimoiy hodisod emas, ichki-botiniy voqelik sifatida tushuntiradi, hayotda o’z-o’zingni to’laqonliroq anglay boshladingmi-yo’q – bu ichki qalb mezoni orqali o’lchanadi, shu bilan birga, qilayotgan ishlaringga nisbatan o’zingga bo’lgan ishonch va qat’iyatga erishmog’ingdir.

Qirchillama qirq yoshda inson qanday qilib yurakdagi g’ashliklarni bartaraf eta oladi? Buning uchun donolik zarur. Kishi yoshlikdan o’qib-o’rgandi va ularga tayanib rostlandi, qirq yosh esa kishining bir yetuklik davridir, rostlanish va ushbu rasolik davri inson hayotidagi eng go’zal damlardir. “Moddiy narsalar qanchalik ko’p bo’lsa, kishi shunchalik oson o’zini yo’qotib qo’yadi” (Yu Dan). O’ttiz yoshdan o’tib inson saralash va ayirib tashlashni o’rganib oladi, qalb uchun hojati bo’limgan narsalardan voz kecha boshlaysan. “Sarosimaga tushmaslik” – o’zni yo’qotib qo’ymaslik, miyasi gangib qolmaslik yoki dovdirab-esankirab, hovliqib qolmaslik. Yanada aniqroq qilib aytganda, talvasa-vasvasaga tushmaslik. Sarosimaga tushmaslik, bu “Kishining o’zi anglagan holda mo’tadillik g’oyasiga muvofiq fikr yuritishi, harakat qila olishidir” (Yu Dan). Mo’tadillik – yuksak faoliyat mezoni, falsafiy jihatdan so’z yuritganda, u eng muvofiq “daraja”dir. “To’rt kitob” orasida “Mo’tadillik” nomli asar ham bor. Mazkur asar dastlab “Adabnama”ning bir qismi bo’lgan, boshqalar uni Konfutsiyning nabirasi Zi-si (mil. avv. 483-mil. avv. 402-yy.) qalamiga mansub deb hisoblaydilar. “Mo’tadillik”da aytiganidek: “Muhabbat-nafratni, qayg’u-quvonchni bilintirmaslik “jo’ng” (o’rtalik – “zhong”) deyilur, yuzaga chiqarganda ham haddan oshmaslik “xe” (mutanosiblik, uyg’unlik – “he”) deyilur. “Jo’ng” — olamdagi buyuk mohiyat (mijoz;



asos), “xe” esa olamdagi (jamiki insoniyat bosib o’tadigan) ulug’ yo’ldir. Jo’ng-xe (mo’tadil-mutanosiblik) darajasiga erishilsa, yer-u ko’k har biri o’z o’rnida bo’lib, barcha mavjudotlar ham bernalol unib-o’sgay”. “Ulug’ yo’l” – amal qilinishi kerak bo’lgan umumiyligini qoidalar. Demak, olam mavjudligining asosida ham mo’tadillik hukmron. “Muhokama va bayon”da Konfutsiy shunday deydi: “Mo’tadillik ham bir turli axloqdir, eng yuksagi desa ham bo’lur! Afsuski, odamlarda bu fazilatning kamyob bo’lib qolganiga ko’p zamonlar bo’ldi”.

Shu o’rinda yuqorida nomi zikr etilgan “Mo’tadillik” asaridan parcha keltirib o’tishni joiz deb topdik: “Ikkinci qism. Konfutsiy dedi: “Olijanoblarning fe'l-atvori mo’tadillikka uyg’undir, xudbinlarning qilmishi mo’tadillikka ziddir. Olijanoblar shuning uchun ham olijanobdirlarki, ular har vaqt mo’tadillikning ichindadir; xudbinlar shuning uchun xudbinlarki, ularda mo’tadillikdan hayiqishhadik bo’lmaydi...

Yettinchi qism. Konfutsiy dedi: “Odamlar “Men donoman”, derlar, biroq nafslarining tuzog’idan qanday qutulishni bilmaydilar. Tag’in odamlar “Men donoman”, derlar-u, bir oycha ham mo’tadillikka qurbilari yetmaydi”.

Abu Homid G’azzoliy “Riyozatun-nafs” (“Nafs tarbiyasi”, tarjimon filologiya fanlari nomzodi Rashid Zohid, Toshkent: “Movarounnahr”, 2006) kitobida shunday yozadi: “... axloqdagagi mo’tadillik qalbning sog’lomligidan, mo’tadillikdan og’ish esa qalbda illat borligidan darak... Inson mijozining aslida mo’tadillik hukmron. Faqat tashqi ta’sirlar tufayli bu mo’tadillik buziladi. Shuningdek, har bir inson toza fitrat bilan mo’tadil holda tug’iladi”. Demakki, mo’tadillik qalb bilan aloqadadir. Qalbimiz toza-sog’lom bo’lsa – mo’tadillikka muvofiq bo’lsa, har qanday vaziyatda ham o’zimizni yo’qotib qo’ymaymiz, sarosimaga tushmaymiz. Ko’rinib turibdiki, Konfutsiy, G’azzoliy singari Sharq mutafakkirlari ijodida mo’tadillik konsepsiyasi yetakchi o’rinda turadi. Konfutsiychilik ta’limotining yirik namoyandalaridan biri Meng-zı shunday deydi: “Avvalgi donishmandlar bilan keyingi donishmandlarning o’lchov mezonlari (yo’li) birdir”. Shuning uchun biz tez-tez donolar o’gitida o’xshashliklarni uchratamiz.

“Taqdirdan voqif bo’lish” deganda Konfutsiy nimani nazarda tutgan edi? Taqdir, bu – Yaratganning irodasi; xitoychada “tyen-ming” deyiladi, ya’ni “Osmon irodasi”dir. Osmon – qadimgi xitoyliklarda xudo timsoli. Konfutsiy shunday degan edi: “Yaratganga hasrat qilmadim, bandasidan zorlanmadim; ilm olishga kirishdim va haqqa yetishdim”. “Haqqa yetishlik” – taqdirning nima ekanligini tushunishlik. “Taqdirni bilish”da “bilish” muhim ahamiyatga ega, o’z taqdiriga ko’nish Tangrining irodasiga bo’yinsunishdir. Konfutsiy dedi: “Olijanoblar ko’kka intiladilar, xudbinlar tubanlik sari”. Olijanoblar o’z dillariga buyuk e’tiqod va maqsadlarni tuyadilar. Taqdirni tushunishlik olijanoblikning sifatlaridan, Konfutsiy shunday deydi: “Taqdirni bilmagan olijanob bo’lolmaydi.

Adabni bilmagan rostlana olmaydi. So‘zning farqiga bormasang, odamlarni ham yaxshi bilmaysan”. “Taqdirmi tushunish bilan Konfutsiy aytgan olijanoblik darajasiga yetiladi” (Yu Dan). Taqdirga “oldindan belgilangan hayot yo‘li” deya izoh beriladi, borliq narsalar, mavjudotlar va voqeа-hodisalarning yolg‘iz Yaratganning irodasi bilan bog‘lovchi diniy tasavvurdir, u haqida fikrlar turlicha, shunisi ma’lumki, uni anglab yetish ko‘rko‘rona tan olish emas. Ba‘zilar, holbuki barchasi peshanaga yozib qo‘yilgan ekan, kuyib-kuymalanishning nima keragi bor (?), yaxshining peshanasiga yaxshi bo‘lishligi, yomonnikiga yomon bo‘lishlik muhrlab qo‘yilgan ekan, deyishadi. Bu johillikdir, ayni taqdir tushunchasiga yuzaki qarash bo‘lur edi. Shuningdek, taqdirmi inson o‘zi yaratadi, deyishlik ham xatodir, bu haddan oshish, quyushqondan chiqishdir. Tangri bu borliqni undagi borki narsalar bilan mo‘tadilmutanosib – mukammal qilib yaratgan, agar aql ko‘zi bilan qaralsa, undagi har bir narsa mo‘jizakor. Ana o‘sha mukammallik manziliga eltuvchi sinovli yo‘l – umr bor, omonat tanimiz – ulov bor, ilohiylikka dahldor ruhimiz yoki manzilga eltilajak avvalda pok qilib yaratilgan qalb bor. Kamolot yo‘li ulug‘ yo‘l, haq yo‘ldir. Inson mukammal mavjudot sifatida komillikka erishish ehtiyoji va imkonи bilan yaratilgan. Shuni anglab yetish – taqdirdan voqif bo‘lishdir. Taqdir, oddiygina qilib aytganda, bu beshak haq yo‘ldan og‘ishmay umr kechirishdir. Bu yo‘lni qanday bilish, tanish mumkin? Bunga ilmu ma‘rifat orqali haq yo‘l alomatlarini bilish vositasida yetishish mumkin bo‘ladi. Mavlono Jaloliddin Rumiy aytganlaridek, yo‘llar ko‘pdir, Haq yo‘l esa yagonadir.

Oltmish yoshda “quloq sola bilish” qanday gap bo‘lishidan qat‘i nazar, barchasini tinglay olish, haq-nohaqni ajrata bilishdir, o‘zgalarni hurmat qilish, har bir narsaning mavjudligin sababin tushunishlikdir. Yana shuki, eshitgan har bir so‘zning mag‘zin chaqib, uni haqiqat bilan bog‘lay olish hamdir, ya’ni har jumladan bir hikmat chiqarib, boshqalarga taqdim etishlik. Kishilar aytishlari mumkin, bu gap donishmand aytadigan gapmi, deya. Haqiqatan ham, donishmandlar shu qadar oddiy so‘shlashganki, ba‘zan ular kishi ko‘nglida gumonsirashga o‘xhash hissini uyg‘otishi mumkin, lekin aslida ular donishmand bo‘lganlari uchungina shu qadar oddiy so‘zlaydilar. Donolar aytganidek, eng buyuk haqiqat eng oddiy haqiqatlardir. “Quloq sola bilish” – buni har kim ham aytishi mumkin, dersiz, lekin uni oltmish yil yashab, bilim-hikmat va tajribasiga tayanib so‘zlay olgan inson esa haqiqiy donishmanddir. Unda chiqaradigan xulosayu “fikrlash lazzati” (Viktor Alimasov) mutlaqo o‘zgacha bo‘ladi.

Ko‘pincha turli davralarda bo‘lganimizda, bir jihat ko‘ngilga og‘ir botadi: hamma gapiradi-yu, lekin eshita oladigan zog‘ topilmaydi, bu juda xunuk holat. So‘z rostmi-yolg‘on, avval uni tinglamoq joiz, buning uchun esa kamida sabrli va jur‘atli bo‘laylik. To‘g‘ri gap qulogqa yoqmas bo‘ladi, shuning uchun ham har qachon kishilarni eshita



olishimiz lozim, ya'ni so'zlashdan tashqari, tinglashni ham o'rganishimiz kerak. Bu ham bir mahorat. Diqqat bilan qaralsa, har bir aytilgan so'z zamirida ma'lum ma'noda haqiqat yashirin bo'ladi, faqat uni fahmlay olish, ajrata bilish kerak. Biz har kuni turli xarakter va kayfiyatdagi odamlarga duch kelamiz, ular bilan bo'lgan muloqotda qanchalik mo'tadil bo'la olsak, odob-qoidaga ham shunchalik amal qila olgan bo'lamiz. Agar kishi o'zinikini ma'qullayvermay, o'zgalarni ham tinglay olsa, demak, o'zini yana bir odim kamolotga yaqinlashtiribdi. "Konfutsiy aytgan "qulq osa bilish" darajasi aslida tashqi borliq haqiqatlarning qalbda mujassam bo'lishidir" (Yu Dan). Bu bosqichdan "inonixtiyori o'zida bo'lib haddan oshmaslik" darajasiga o'tiladi.

"Quyushqondan chiqmaslik" – yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan, belgilangan chegaradan tashqari chiqmaslik; belgili talab, odob-axloq, me'yor va shu kabilar doirasiga xilof ish qilmaslik; nojo'ya xatti-harakatdan tiyilish. Quyushqondan chiqish haddan oshishdir. Bu vaqtga kelib kishi uchun xatti-harakat va fe'l-atvor qoida-mezonlari uning avval odati, so'ngra hayot tarzi va hatto mazmuniga aylangan bo'ladi, toki unda axloqiy asosga qurilgan ilm qo'rg'oni bo'lsa, rostlanib o'zining to'g'ri yo'nalishini topa olgan, borliq va hayot mohiyatini anglab yetgan bo'lsa. Bir vaqtlar majburiyat yuzasidan qilgan amallarni endilikda qalban ado etishga kirishadi, shunday qilsagina ko'ngli xotirjam bo'ladi. Bu bosqichda kishi o'zini o'zi anglashning yuksak darajasiga erishadi. Yoki boshqacha qilib aytganda, Konfutsiy nazdida, inson o'z hayotining oltinchi bosqichida axloqiy tarbiya jihatidan oliy darajaga yetishadi. Konfutsiy aytgan axloq tarbiyasi aql-idrokka asoslangan, ya'ni ratsional holatdir. Birinchidan, bu birdaniga erishiladigan narsa emas, balki uzoq vaqt o'qib-o'rghanish va toblanish mahsuli, bosqichma-bosqich kechadigan jarayondir. Ikkinchidan, axloqning eng yuqori darajasi – tafakkur va so'zu amalning ajralmas birlik hosil qilishi, o'zi anglagan holda axloqiy me'yorlarga rioya qilish. Bu ikki jihat har bir kishi uchun ahamiyatli.

Hikmatda Konfutsiy o'zining ilm olish va o'zini tarbiyalab kamolotga yetish jarayonini bayon qilgan. U inson yoshiga qarab tafakkur darajasi sekin-asta o'sib boruvchi jarayondir. Birgina tafakkur jihatdan gapiradigan bo'lsak, butun bosqichni shartli ravishda uchga bo'lish mumkin: (1) o'rghanish-anglash, (2) xotirjamlik bilan rostlanish va taqdiri azalni tushunib yetish, (3) subyektiv ong bilan kishining o'zini tuta bilish qoidalari mujassamligi. Mazkur hikmat Konfutsiyning eng mashhur so'zlaridan biri bo'lib, hozirgi kunda ham xitoyliklar o'z yoshlарini u bilan bog'lashni yaxshi ko'radilar: masalan, rostlanish yoshi ayni qiron yoshi, "taqdirdan voqif bo'lish yoshiga to'lish" kabi. Bundan ko'rinadiki, Konfutsiyning so'zu amallari ibrat namunasi sifatida to bugungi kungacha xitoy xalqi orasida dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. "Xitoyda har bir xitoylik konfutsiychi" degan so'zlar ham bekorga emas.

\*\*\*

(Lu podsholigi dafu (amaldor)laridan biri) Meng Yi-zi qobil farzandlik burchi nima ekanligini so'raganlarida, Konfutsiy: "Adab-taomil ("lii")ga xiloflik qilmaslikdir", deya javob beribdilar.

Bir kuni shogirdlaridan Fan Chi ustozi Konfutsiyga jilovdorlik qilib borar ekan, hazrat shunday dedilar: "Meng-Sun mendan qobillikning ne ekanligin so'rab edi, odob-axloq me'yorlari va taomilga xiloflik qilmaslikdir, deb javob berdim". Fan Chi: "Bu ne demak, ustoz?" – deb so'rabdi. Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Ota-onang hayotlik chog'ida ularning xizmatida adabli bo'l; olamdan o'tsalar, adab-qoida (taomil) (lii)ga ko'ra, dafn qilmoq, tag'in adabtaomil (lii)ga muvofiq yod etib ma'rakalarini o'tkazib turmoq kerak".

Meng Yi-zi – Lu podsholigi amaldorlaridan biri Jo'ng-Sun Xe-ji (Zhong-Sun Heji). "Yi" – uning vafotidan so'ng berilgan unvoni, ma'nosi "nafosat", "fozil" demak. Ji-Sun va Shu-Sunlar bilan birga Lu podsholigining eng mashhur aslzodalari bo'lishgan. Otasi Meng Si-zi (Meng Xi-zi) o'limidan oldin unga Konfutsiydan adab ilmini o'rganishlikni tayinlagan.

Fan Chi – Konfutsiyning shogirlaridan biri, ismi Syu (Xu), familiyasi Fan, hurmatli nomlari Zi-chi. Chi (Qi) podsholigidan bo'lgan, ba'zi manbalarda u Lu podsholigidan deyiladi. Konfutsiyga jilovdorlik qilgan, ya'ni ustozining aravasini boshqargan. "Tarixiy solnomalar" kitobining "Jo'ngni shogirdlarining tarjimayi hollari" bobida keltirilishicha, Fan Chi ustozi Konfutsiydan 36 yosh kichik bo'lgan.

Konfutsiyning "lii" istilohida "kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me'yorlari majmui, adab va taomil" birdek tushuniladi, u insonning xulq-atvori, yurish-turishini belgilab beradi, shuningdek, "lii"nainki axloqiy, balki u siyosiy ahamiyat ham kasb etadi. Ba'zi bir adabiyot darsliklarida uni "tuzuk" deya tarjima qilishgan, bu ham haqiqatga anchayin yaqin. Hikmatda "lii" – "jamiyatning barcha a'zolari uchun amal qilinishi zaruriy bo'lgan odob-axloq me'yorlari", "adab-yo'sin". Adab – jamiyatda, kishilar bilan muomalada o'zini tuta bilish, odob-axloq, tarbiya va uning me'yorlari, yo'sin – yo'l-yo'riq, rasm, tartib-qoida, taomil, urf-odat, marosim. Shu ikki istiloh birgina "lii"ga mujassamlashtirilgan. Jamiyat ham, davlat ham shu asosda idora qilinadi, u elning barqarorligi va farovonligi garovi bo'lib xizmat qiladi.

Konfutsiy qobil farzandlik burchini nihoyatda qadrlagan, kishilardan o'z otanonalariga nisbatan ularning hayotlik paytlarida ham, vafotlaridan so'ng ham farzandlik

burchlarini to'kis va beminnat ado etishlarini talab qilgan. Biroq buni ado eta turib odob-qoidaga xiloslik qilmaslikka chaqiradi, aks holda, u haqiqiy qobililik emas. Demakki, qobililik quruq, o'zboshimchalik bilan qilinadigan qilmish emas, oqilona xatti-harakatdir, odob-axloq me'yorlari doirasida bo'lishlik shart, unga tayanib harakat qilish haqiqiy qobillikdir. Qobil farzandlikning mohiyati odob-axloq me'yorlariga mos kelishlikdadir. Konfutsiylik ta'limotida ota-onaga qobil farzand bo'lish va kattalarga hurmat-ehtirom rahmdillikning asosi hisoblanadi. Qadimgilar ham odatda "rahmdillik-qobililik" deya ularni birgalikda tilga olishgan. Konfutsiyning ushbu nuqtayi nazariga yaqin fikrni biz Kaykovus nasihatnomasida ham uchratamiz. Unsurulmaoliy Kaykovus qalamiga mansub "Qobusnama"ning "Ota va ona haqini bilmak zikrida" bobida shunday qayd etiladi: "Agar ular (ota-onang) haqida kamchiliklar qilsang, taqsir ko'rguzsang, sen hech yaxshilikka sazovor emasdursan, nedinkim, har kishi aslini yaxshilig'in bilmasa, o'zganing ham yaxshilig'in bilmag'usidur". Hikmatdag'i "aslin" so'ziga diqqat qiling, asarning o'sha bobidan bunga javob topasiz: "Ey farzand, bilg'ilkim, aql yuzasidan farzandg'a ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim, uning asli ota va onadur". Binobarin biror kishi o'z asliga (ota-onasiga) qobil, sadoqatmand farzand bo'lolmas ekan, u hech qachon millat, xalq va Vatanga sodiq bo'lolmaydi. Shu boisdan ham Konfutsiy qobil farzandlik va tavozeni rahmdillik asosi deb bilgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, odob-qoida Konfutsiy qadrlagan ushbu qobillikning tarkibiy qismidir. Odobli farzand ota-onasining hayotligida va vafotidan so'ng ma'rakalarida ham hamisha odob-axloq me'yorlariga loyiq amallarni qiladi, shundagina uni qobil farzand bo'libdi deyish mumkin. O'zbek xalqimizda "Odobli bola elga manzur", "Qobil farzand – jonga payvand", "Qobil o'g'il otga mindirar, noqobili otdan tushirar" kabi ko'plab maqollar bor. Ular xalqimizning azaliy purma'no hikmatlaridir, mingyilliklar osha o'z tasdig'ini topib kelayotir. Bordi-yu odob-axloq bo'lmasa, qobililik ham bo'lmagay, demak, o'z-o'zidan rahmdillik ham bo'lmaydi. Bunday jamiyatning o'zi ham, ma'naviyati, an'analari ham munqariz bo'ladi. Bu xalqu millat uchun isnoddir.

Achinarlisi shuki, zamon taraqqiy etgani sari, yashash qulayliklari ortgani barobarida ba'zi bir jamiyat kishilari o'rtasidagi munosabatlarda "bo'shliqlar" paydo bo'layotir, ular qalb xotirjamligini yo'qotib, jazavaga tushmoqdalar, oila madaniyati yemirilish jarayonida, o'zlikdan chekinish, bachkanalik va xunrezliklar avj olayotir, bularning bari axloqiy me'yorlardan uzoqlashish, mo'tadillik va mutanosiblikning unutilayotganligidandir. Kerak bo'lsa, global muammolarning tag-zamirida ham odob-axloq me'yorlaridan chekinishning salbiy oqibat-asoratlari yuz ko'rsatib turibdi. Shunday ekan, barchasini farzand tarbiyasidan boshlamoq joiz. Qobil farzand oila hamda elu yurt or-nomusi, shon-sharafidir.

Moddiy jihatdan hech narsaga zoriqtirmaslik, parvarish qilish yoki kundalik muomalada "lii"ga rioya qilish ota-onan haqini bilish deganidir. Misol uchun olaylik: ularning so'zlariga qulq solishlik, gap qaytarmaslik ham odob saqlashdir. Shuningdek, ularga tashvish keltirmaslik, xohish-irodalariga qarshi bormaslik, odob-axloq me'yorlarini buzmaslik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Kishi ota-onasiga qanday muomalada bo'lsa, farzandan ham xuddi shunday oqibat ko'rur. Buva-buvilarimiz, ota-onalarimiz pand-nasihatlari, duolari bizlarga doimo asqatadi.

\*\*\*

Meng U-bo' qobil farzandlik a'moli nima ekanligin so'rab murojaat etganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Ota-on, baski, birgina ularning xastaliklaridangina tashvishmand bo'lishidir".

Meng U-bo' (Meng Wubo) – Meng Yi-zining o'g'li Jo'ng-Sun, ismi Ji (Zhi). "U" – uning vafotidan so'ng berilgan unvoni, ma'nosi "dovyurak", "jangari" demak.

Bu hikmatda qobil farzandlik a'molining eng boshlang'ich talabi bayon etilgan. "Ular" – kishilik olmoshi, ba'zilar uni ota-onaga ishora desalar, ba'zilar farzandlar nazarda tutilgan deyishadi. "Birgina" so'zidan ikki xil ma'no anglashiladi: (1) hatto va (2) faqatgina, mazkur hikmatda ikkinchi ma'nosi. Konfutsiyning ushbu hikmati Meng Yi-zining o'g'li Meng Vu-bo'ning savoliga javobidir. Mazkur hikmat borasida azaldan uch xil izoh mavjud: 1) ota-on o'z farzandini jonidan ham ortiq ko'radi, hamisha unga ziyon-zahmat yetishidan, kasalga chalinishidan xavfsiraydi, shuning uchun o'g'il-qizlar ularning ushbu kayfiyatini tushunib, qadrlab, o'zlarini ha deganda o'qqa-cho'qqa uravermasdan, kundalik hayotda ehtiyyotkor bo'lishi ham ayni sadoqatmandlik (qobililik)dir; 2) farzand kasalga chalingandan tashqari hollarda ota-onasini urintirmasligi, tashvishga qo'ymasligi ham qobililikning bir alomati; 3) o'g'il-qizlar ota-onalarining sihat-salomatligi to'g'risida doimo qayg'urishlari kerak, boshqa tomonlardan unchalik tashvish chekmasalar ham mayliga; bu o'rinda "birgina" so'zining "hatto" ma'nosi ham bor, ya'ni "farzand hatto ota-onasi qarib-qartayib, kuch-madordan qolgan damda ham aslo ulardan mehr-muhabbatini ayamasligi, ular haqida qayg'urishni kanda qilmasligi shart", axir farzandlikning saodati ham, kamoloti ham asli shunda. Lii Yu Xuaning "Muhokama va bayon"ni hozirgi xitoy tiliga qilgan tarjimasida ham ko'plab adabiyotlardagi sharhlar qatori farzandlarning ota-onaga bo'lgan munosabati tarzida talqin etilgan: "(Qobililik bu farzandning birgina) ota-onasi bermorligida ham ular haqida qayg'urishidir". Lii Ze Fey tartib bergen "Muhokama va bayon"da esa aksincha, ota-onaning farzndlarga bo'lgan



munosabati tarzida sharhlanganining guvohi bo'lamiz: "(Qobillik bu) farzandning birgina o'z xastaligi bilangina ota-onasini tashvishga qo'yishidir". Ya'ni: "Farzand bo'l mish ota-onasini birgina bemorligidan tashqari tashvishga qo'ymasligi ham qobillikdir". 5-sinflar uchun "Adabiyot" darslik-majmuasida hikmatning quyidagicha tarjimasini o'qishimiz mumkin: "Men Ubo tavozekor o'g'il qanday bo'ladi, deb so'radi. Ustoz aytdi: – Faqat betobligi bilangina ota-onasini tashvishga soladigan o'g'il". ("Adabiyot", Naim Karimov, Umarali Normatov, 2002 yil) Bu xuddi o'zbek maqolida aytilgan fikrga o'xshash: "Onangga boshingni xam qil, otangga g'amingni kam qil". Ko'rinib turganidek, mazkur hikmat sharhi borasidagi hukmlar turlicha, lekin ular odob-axloq me'yorlariga aslo zid kelmaydi, aksincha, bir-birini boyitadi, ma'nolarini keng va chuqurroq tushunishimizga, mulohaza yuritishimizga yordam beradi.

Ota-onasi farzandi betob bo'lib qolsa, g'amga botadi, ikki dunyo ko'zlariga qorong'u, Yaratgandan farzandin dardiga shifo tilaydi. Bu yerda gap tagida gap bor: farzand bo'l mish kasalga chalinishdan tashqari, boshqa narsalar bilan ota-onasini xavotirga solmasligi ham bir qobillik sanaladi, shuningdek, farzand ota-onasi dardga chalinganda ham ular haqida qayg'urib, yonlarida turib, dardiga malham bo'lishligi ham qobillikning bir alomatidir. Xitoy maqolida aytilganidek, "Darding uzaysa farzanding qobiligin ko'r" yoki "Dardisarlik – noqobillik alomati", bularda farzandning ota-onaga bo'lgan munosabati nazarda tutilgan.

\*\*\*

Tolibi Zi-You qobil farzandlikning nima ekanligin so'rab murojaat etganida, ustoz Konfutsiy shunday javob qildilar: "Hozirda qobil farzand deya faqat ota-onasini boqa olgan kishilarni aytish kifoya qilib qoldi, holbuki ot va it kabi jonivorlar ham boquvdan bahramand. Bordi-yu ko'nglingda ota-onangga zarracha izzat-hurmating bo'lmasa, ularni parvarish qilganing otu it boqqanedingdan nima farqi bor?!"

Zi-You – Konfutsiyning shogirdi, Vu podsholigidan bo'lgan, familiyasi Yan (Yan), ismi Yaan (Yan), hurmatli nomlari Zi-You (mil. avv. 506-mil. avv. 443-yy.), Shu-shi deb ham atalgan. Konfutsiydan 45 yosh kichik bo'lgan. Kamtar va ilmparvar bo'lgan, adabiyotni chuqur egallagan, bir muddat Lu podsholigida harbiy istehkom ma'muri lavozimida xizmat qilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, adab-yo'sin va musiqa bilan xalq ommasiga ma'rifiy hamda axloqiy ta'sir ko'rsatgan, Konfutsiyning olqishiga sazovor bo'lgan.

Mazkur hikmatda ham qobil farzandlik muhokama qilingan, izzat-hurmat qobillik (sadoqatmandlik)ning asosidir. "Ot va it kabi jonivorlar ham boquvdan bahramand"

jumlesi haqida turli xil fikrlar mavjud: 1) odamlar ot va itlarni parvarish qiladilar, ya'ni ular odamlarning qaramog'ida; 2) jonivorlar odamlarni boqadi, ya'ni it hovli-joyimizni qo'riqlasa, otlarni aravaga qo'shib, yuk ortamiz, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi; 3) jonivorlar ham o'z ota-onalarini boqadi. Bu hikmat yuzasidan ko'pchilik tahlilchilar birinchi variantni maqbul topishgan, chunki u anchayin mos.

Hikmatdan anglashiladiki, Konfutsiy qobil farzandlik burchi va adab-yo'sin munosabatlarini bayon qiladi, "hurmat" va "behurmatlik" inson hamda jonivorlar o'rtaсидаги farq ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni "adab" bor-yo'qligi inson va jonivor o'rtaсидаги tafovutlardan biridir. Konfutsiychilik ta'limoti qobil farzandlik me'yoriga bo'lgan munosbati orqali nafaqat farzandning ota-onaga bo'lgan faoliyat mezonini belgilab berdi, ota-onaning hayoti umrida parvarishi, dafn-ma'rakalariyu shodu xurramligini ham farzand zimmasiga yuklaydi.

Sharq so'z san'atida qadimdan didaktik, ya'ni ibratlari, pand-nasihat mazmunidagi asarlar yetakchilik qilib kelgan. Konfutsiy da'vat etgan qobil farzandlik burchi turli jihat va izchillikni mujassamlagan, qonun-qoida talablarini aks ettirdi, shu boisdan o'sha davr jamiyat ehtiyojlariga mos keldi. Konfutsiy nazarda tutganidek, odam nafaqat adab-yo'sin me'yorlari asosida ota-onna xizmatin qilmog'i kerak, qolaversa u buni sidqidildan ado etmog'i shart. Ana shundagina qobil farzand nomiga munosib bo'lish mumkin. O'zbek o'quvchilarining 5-sinflari uchun mo'ljalangan "Adabiyot" (2002-yil) darslik-majmuasida mazkur hikmat quyidagicha keltiriladi: "Sziyu tavozeli o'g'il qanday bo'ladi, deb so'radi. Ustoz javob berdi: "—Hozir ota-onasini boqishga qurbi yetadigan o'g'ilni tavozeli deb bilishadi. Lekin itlar va otlarni ham boqadilar. Agar ota-onaga hurmat bo'lmasa, buning nima farqi bor?" Majmua mualliflari (Naim Karimov, Umarali Normatov) qobil farzandlik burchi yoxud "qobil (sadoqatmand) farzand" istilohini "tavozeli o'g'il" deya talqin etishadi. Tavoze aslida qobil farzandlik fazilati bo'lib, xokisorlik, kamtarinlik, hurmat-ehtiromni o'zida mujassamlashtiradi. Shunday bo'lsa-da, hikmatning asliga putur yetmagan, ziyrak o'quvchi gap nima haqida borayotganini uqib olgay.

Shu o'rinda biz Konfutsiyning "Muhokama va bayon" asari nomining o'zbekcha atalishiga ham qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb topdik, zero, ko'plab adabiyotlarda u tirliche tilga olinadi: "Lunyuy" yoki "Suhbatlar va muhokamalar" ("Adabiyot" darslik-majmua, Naim Karimov, Umarali Normatov, 2002-yil), "Lun yuy" yoki "Suhbatlar va mulohazalar" (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, V том, 2003-yil; "Falsafa: Qomusiy lug'at", tuzuvchi f.f.d. Qiymoddin Nazarov, 2004-yil) va boshqalar; bular bilvosita tarjima, ya'ni ikkilamchi manbadan (misol uchun, rus tilidan) o'zlashtirishning ta'siridir. "Muhokama va bayon" xitoychada "Lun-yu" deyiladi,



“lun” (lun) – “muhokama, mulohaza”, “yu” (yu) – “so‘z”, “so‘z yuritmoq”, “bayon qilmoq”. Uyg‘ur tilida ham mazkur asar “Muhokama va bayon” deb ataladi. Asar nomini o‘zbekcha muayyanlashtirishda ona tilimiz imkoniyatlari va qardosh uyg‘ur tilidagi mushtarakliklardan foydalandik. Demak, “Lun-yu” “fikran yuritilgan mulohaza-muhokama va ularning so‘zdagi ifoda-bayoni”dir, asar inson va insoniylik haqidagi falsafiy-hayotiy mulohazalardan tarkib topgan.

\*\*\*

Tolibi Zi-sya qobil farzandlikning nima ekanligin so‘rab murojaat etganida, ustozni Konfutsiy shunday javob qilibdi: “Xushro‘y-muloyimlik mushkuldir. Yumushlarini o‘g‘il-qizlar ado etsalar, oshu sharobidan avval ota-onasin bahramand qilsalar, (va bu odatni kanda qilmaslar,) axir qobil farzandlik maqomi shu emasmikan?”

Ayon bo‘ldiki, yuqoridagi hikmatlar qobillik masalasiga bag‘ishlangan. Hikmatdagi “oshu sharob” so‘zi “lazzatli taom va xushta’m ichimliklar” ma’nosida kelgan. Ushbu hikmatda ham Konfutsiy yana bir bor qobillik a’moli haqida so‘z yuritadi. Ota-onaga nisbatan farzandning zohiridan to botinigacha “hurmat-ehtirom” bo‘lishligini uqtirib o’tadi, ota-onaga bo‘lgan hurmat farzandning chehrasida aks etib turishligi ham qobillikning bir belgisi ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu hikmat “Katta kelsa – oshga, kichik kelsa – ishga” xalq maqolimizni yodga soladi. Farzand ota-ona qoshida doimo ochiq yuz, xushmuomala, shirinso‘z bo‘lmog‘i zarur, garchi bu qanchalik mushkul bo‘lmasin. O‘z vaqtida ular seni o‘zi yemay – yedirdi, ichmay – ichirdi, tunlari bedor, tepangda tonglar ottirdi, sening baxtu kamoling uchun butun umrlarini sarf qildi va bularning barchasin beminnat qildi. Farzand bo‘lmish “ota-onam bo‘lsa-bo‘lsin, og‘zi-burni bo‘lmasin” qabilida ish tutmasligi kerak. Chunki “Ota-ona – oltin qanot”. Ular borki, xonadonimizda fayzu baraka, ishimizda unum bor. Shuning uchun ular xizmatin qilganda, aslo qisinmaslik, zorlanmaslik kerak.

Ota pandiga san tugal qil amal,  
Yurarsan bo‘lib baxtiyor har mahal,  
Otangni , onangni sevintir tamom,  
Bu xizmat yetirgay tilakka tugal.

(Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, tarjimon Qayum Karimov, 1971)



Noqobillik, nobakorlik eng yomon illatdir, o'zbek maqolida aytiganidek: "Ota-onasin tanimagan – tangrisin tanimas", "Ota-onasin hurmat qilgan bola-chaqasidan hurmat ko'radi". (O'zbek xalq maqoli)

Dunyoda eng mudhish nadomat ota-onha haqin vaqtig'animatda ado etolmaslikdan kelgan pushaymonlikdir. Ota-onha haqini bilmaslik eng mudhish xiyonatdir. Shu boisdan biz ba'zi bir o'rirlarda "qobillik" so'zini "sadoqatmandlik" so'zi bilan bir ma'noda qo'lladik.


\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tolibim (Yan) Xueyga uzzu-kun saboq berdim, undan esa sado chiqmadi, go'yo telbalardek. U ketgach, zimdan uning so'zu amolin kuzatib, o'zini namoyon qila olganin ko'rdim: o'rgatganlarimni taraqqiy ettirdi. Bildimki, Yan Xuey telbalar sirasidan emas ekan".

Xuey (Hui) – Konfutsiyning eng sevimli shogirdi Yan Xuey, hurmatli nomlari Zi-yuan, luguolik (Lu podsholigidan) bo'lgan. Miloddan avvalgi 521-yilda tug'ilib, miloddan avvalgi 481-yil olamdan o'tgan, "Tarixiy solnomalar"ning "Jo'ng-ni shogirdlari tarjimayi hollari" bobida keltirishilicha, u Konfutsiydan 30 yosh kichik bo'lgan, ba'zi manbalarda 40 yosh deyiladi.

Mazkur hikmatda Yan Xuey endigina o'qishni boshlagan chog'larida ustozni Konfutsiyning unga nisbatan bergen bahosi hamda taassurotlari haqida so'z ketadi. Ya'ni Konfutsiy Yan Xueyning o'qishga bo'lgan munosabatini ta'rifu tavsif etish bilan birga, o'zining ta'lif-tarbiya berish borasidagi qarashlari hamda usulini mahorat bilan bayon etadi. Konfutsiy dastlab "undan sado chiqmadi" deya shogirdining biror e'tiroz-mulohaza bildirmaganini, telbalardek turaberganini tanqid ostiga oladi. Garchi dars davomida hech bir mulohaza bildirmasa-da, savollarga tutavermasa-da, Yan Xuey ustozni o'rgatganlarini taraqqiy ettirib, boshqalar bilan bo'lgan o'zaro suhbat-munozalarda ularni kengaytirib tushuntirardi. Uning bu jihatni, hikmatdan ham sezilib tiribdiki, Konfutsiyga juda ma'qul keladi. Konfutsiy e'tiborini qaratgan o'qitishning "o'zaro mukammallashuv" g'oyasi diqqatga sazovor. U o'quvchilar ta'lif olishlari jarayonida kallalarini ishlatib, masalalar yuzasidan mustaqil fikr yuritishlari, ustoz o'rgatganlarini kengroq tushunishlaridan umid qiladi. Shu boisdan fikr qilmaydigan kishilarni befahm deb hisoblaydi.

Tolibi Yan Xuey haqida qiziqarli va ibratli hikoyalar ham mavjud. Quyida shulardan birini havola etamiz.





Bir safar Konfutsiy shogirdlari bilan qiyinchilikka duch kelib, yetti kuncha guruch ta'min totmabdilar. Bir kun tushda shogirdlaridan biri Yan Xuey qayerdandir biroz guruch topib kelib bo'tqa pishirishga kirishibdi. Ovqat pishay deganda Konfutsiy daf'atan shogirdi Yan Xueyning qozondagi ovqatni changallab yeyayotganini ko'rib qolibdi. Konfutsiy ataylab o'zini ko'rmaganlikka olibdi. Yan Xuey kirib ustozni ovqatlanishga taklif qilganida, Konfutsiy o'midan turib shogirdiga saboq bo'lsin degan niyatda shunday debdi: "Hozirgina Meng Li ajdodlari menga aytdiki, taomni avval muhtaram yoshi kattalarga tortiq qilgachgina tanovul qilish lozim. Nahot oldin o'zi yeb olsaya?"

Buni eshitgan Yan Xuey shoshapisha tushuntirib debdi: "Hazratim noto'g'ri tushunibdilar. Boya qozonga cho'g' uchib tushganini ko'rib edim, shunga bulg'angan ovqat rezalarini terib yegandim".

Buni eshitgan Konfutsiy chuqur xo'rsinib shunday debdi: "Odamning ishongani ko'zlaridir, biroq o'z ko'zimiz bilan ko'rganimizga ham suyanib bo'lmaydigan vaqtlar bo'lar ekan. Ishonganimiz — yuragimiz, lekin bu ham kifoya qilmaydigan chog'lar bo'ladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "(Gar kishining qandayligin bilmoqchi bo'lsang) avval uning a'moli mayli (niyat, sababi)ga boq, so'ngra qay yo'llar bilan ado etmog'in kuzat, tag'in ayni fursatda ko'ngil xotirjamligiga razm sol. Shunda ham bu odam asl qiyofasin berkita olurmi? Bas, bu odam asl qiyofasin qanday yashirsin?!"

Ushbu hikmatda Konfutsiy odamlarning qandayligin bilish sir-asrori to'g'risida so'z yuritadi. Mazkur hikmatda "yo'l" istilohi usuldan tashqari, "kishining boshidan o'tkazganlari" ma'nosini ham beradi. Donishmandning fikriga ko'ra, kishining qilgan ishiga, uni bajarishda qo'llagan tadbiriga hamda qilganlaridan mamnunligiga qarab uning qanday odam ekanligini bilib olish qiyin emas.

Lii Ze Fey tomonidan bugungi kun xitoy tilisiga uyg'unlashtirilgan "Muhokama va bayon"da mazkur hikmat yuzasidan quyidagicha izoh beriladi: "Biror narsani tahlil qilayotganda nafaqat ma'lum bir tegishli davrni qamrab olish, shuningdek, rivojlanish jarayonidan ham kelib chiqib tekshiruv olib borish kerak; nafaqat umumiyl, balki tafsiliy ravishda ham tahlil qilish kerak bo'ladi; nafaqat tasavvur etilish jihatdan, tag'in ichki mayl hamda hissiy idrok etish nuqtayi nazaridan ham tahlil etish kerak". Konfutsiy, agar kimnidir bilmoqchi bo'lsang, uning so'zlariga quloq solish hamda xatti-harakatlarini

ko'zdan kechirish, tag'in ruhiyatiga razm solish kerak, deydi. So'zu faoliyatidan tortib ko'ngil mayligacha yaxshi bilib olganidan so'ng u odam tag'in qanday qilib o'zini bekita olsin?! Bu jarayonda eng qiyini kishining ko'ngil holatin bilishlikdir, zero, maqolda aytiganidek: "Kishi ko'ngli o'zgaga qorong'u".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Eski bilimlarni mustahkamlab, yangisini o'zlashtira olgan insongina ustoz bo'la oladi".

Bu hikmat Konfutsiyning pedagogika sohasidagi ulkan xizmatlardan biridir, unda bilim olishning o'ziga xos usuli bayon etilgan. Mazkur hikmat bo'yicha qadimgilar ikki xil tushuntirish berishgan: 1) eskidan mavjud bo'lgan bilimlarni mustahkamlash orqali yangi tasavvur-tushunchalarga ega bo'lish; 2) eski bilimlarini unutmagan holda yana yangisini o'rganishga rag'bat. Shu sababdan hozirda ham hikmat borasida ikki xil tarjima-izohlar uchraydi. Lii Ze Fey, Lii Yu Xua izohlarida birinchi qarash ta'sirini ko'ramiz. Kishi o'rgangan ilmini mustahkamlash bilan yangi bilimga erishishi mumkin. Ushbu bilim olish usuli nafaqat qadimda, hozirda ham o'z ahamiyatini aslo yo'qotgan emas.

Yangi bilimlar har doim ham oldingi bilimlar asosida rivojlanib kelgan. Jin Lyang Nyen (Jin Liang Nian) tartib bergan "Shangxay qadimiy kitoblar" nashriyotida (2004 yil) nashr qilingan "Muhokama va bayon"da esa ikkinchi qarashning guvohi bo'lamiz. Konfutsiy, o'rgangan bilimlarni tez-tez takrorlab, mustahkamlab turish, shu bilan bir vaqtida yangilarini ham o'rganishga beparvo qaramaslik kerak, deydi. O'zbek tilidagi mavjud tarjimalarda ham ikkinchi nuqtayi nazar sezilib turadi: "Ustoz aytardi: — Eskilikni o'zlashtirib olgan va yangilikni anglashga qobil kishi ustozlik qila oladi". (5-sinflar uchun "Adabiyot" darslik-majmua, Naim Karimov, Umarali Normatov, 2002-yil) Konfutsiyning ushbu so'zlariga yaqin fikri ulug' vatandoshimiz "qomusiy bilim sohibi" Abu Rayhon Beruniyning hikmatlarida ham uchratamiz: "Biliming shunday narsaki, u yalang'och bo'lganida ham o'zingda qoladi, hammomga kirsang, suv bilan yuvib bo'lmaydi. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir". (Hamidjon Homidiy, "Ko'hna Sharq darg'alari", 2004-yil, 38-bet) Beruniy bu o'rinda bilim o'rganganlarini takrorlash, ya'ni mustahkamlash mevasi ekanligini ta'kidlamoqda.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar naf'i bir turlik buyum emaslar".





Konfutsiychilik ta'limotida olijanoblikka anchayin mukammal axloq talabi sifatida qaraladi. Konfutsiy o'z shogirdlari bilan tez-tez olijanoblarning mezon-o'lchamlari to'g'risida muhokamalar olib borardi. Olijanob inson – Konfutsiy qalbidagi yuksak insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan favqulotda shaxs. Olijanoblargina elni idora qilishdek og'ir mas'uliyatni bo'yinlariga olsalar, tashqi ham ichki masalalarda odilona siyosat yurgizib, tegishli hukumat ishlarini, dolzarb muammolarni hal qila olurlar. Shu boisdan Konfutsiy olijanob inson oqil va fozil, ko'p qirrali iste'dod sohibi bo'lishi, birgina jihatni bilan chegaralanib qolmasligi, ya'ni "olijanob degani faqat bir narsa uchungina yaraydigan idish-oyoqqa o'xshab qolmasligi" kerak deydi.

Olijanoblarning jamiyatdagi roli qanday? Pekin Pedagogika universiteti professori Yu Dan o'zining "Muhokama va bayon" saboqlari kitobida mazkur hikmatga izoh berar ekan, jumladan shunday deydi: "Olijanoblarning ijtimoiy roli (sharoitga muvofiq) tez moslashuvchanlik, vaqtisoati bilan yuzaga chiqadigan narsadir. Olijanob odam uchun muhimi uning faoliyatida emas, balki faoliyati ortidagi uni shunga undovchi (istak uyg'otuvchi) sabab (ichki turtki)dadir. Ular jamiyatning vijdonidir". Haqiqatan, olijanoblardan sharoit taqozosi bilan sohibi tadbir bo'lmoqlari ham talab etiladi. Xalqimizda tez-tez qulog'imizga chalinib turadigan bir maqol bor: "Yigit kishiga yetmish hunar oz". Bu maqolning ma'no-mag'zi donishmand hikmatini xalqona soddalik bilan izohlab turibdi.

"Olijanob kishi" "Muhokama va bayon"da eng ko'p uchraydigan so'zdir, uning mohiyati hamisha oddiy, ilqlik baxsh etuvchidir, har bir odam hozirdanoq qilsa bo'ladi; o'sha orzu, o'sha maqsad esa ham yuksak va olis, ham yetishib bo'lmaydigan darajada yiroq emas; u aslida shundoqqina qarshimizda hoziru nozir ham har birimizning qalbimizda mavjud. Shu ma'noda aytadigan bo'lsak, har birimiz haqiqiy olijanob bo'lishimiz mumkin". (Yu Dan) Biz ko'z o'ngimizdagи narsalar bilangina chegaralanib qolmay, balki ularning ortiga ham nazar tashlamog'imiz kerak. Shundagina hayotimiz biror ma'no kasb etadi.

\*\*\*

Tolibi Zi-go'ng qanday qilib olijanob bo'lishni so'raganida, Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Avval (o'z) so'zingga amal qilib, shundan keyingina so'zlagin".

(Ya'ni: "Avval o'z so'ziga amal qilib, shundan keyingina so'zlay olgan kishi olijanobdir".)

Ushbu hikmat oldinroq o'zbek kitobxonlariga yetib borgan edi: "Szigun haqiqiy er qanday bo'ladi, deb so'radi. — Avval o'ylaganini ado etadi, — dedi Ustoz, — ana undan keyingina buni gapiradi". (Naim Karimov, Umarali Normatov, "Adabiyot" darslik-majmua, 2002 yil) Bu yerda "olianob inson" "haqiqiy er" istilohi bilan berilgan. Buni shunday talqin etish mumkin: "er" so'zining "erkak" ma'nosi bilan birga, "mard, oljanob kishi" ma'nosi ham mavjud. Xalq og'zaki ijodida bunga juda ko'p duch kelamiz: "Er yigit maydonda bilinar", "Er so'zidan qaytmas, sher — izidan", "Er aytmas, aytса qaytmas". Yusuf Xos Hojibning quyidagi to'rtligi Konfutsiy hikmatlarini yanada yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi:

So'zi chin bo'lishi kerak beg kishi,  
Berib va'da, tonmoq emas er ishi.  
Kishi mardi tonmas degan so'zidan,  
So'zidan tonuvchi — zaiflar ishi.

(Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", tarjimon Qayum Karimov)

Adib oljanoblarni "bek kishi", "er kishi", xudbin kimsalarni esa "zaiflar" deb ataydi. So'zu a'mol birligi, ya'ni tili ham, amali ham bir-biriga muvofiqlik, samimiylilik va lafzi halollik insoniylikning asoslari. Xalqimizda bir maqol bor: "Va'dani berishga shoshilma, va'dani bajarishga shoshil". Yana: "So'z qadrini bilmagan – o'z qadrini bilmas", "Avval o'yla, keyin so'yla". Bu kabi hikmatli so'zlar xalq farzandlarini oljanoblikka da'vat etishning o'zginasi emasmi?! Avom xalq ko'ngliga yaqin, dardiga hamdard donishmand ham baayni shularni nazarda tutmaganmikin?! Hayotda va'dasiga vafo qilolmagan kishilarni ko'rghanmiz, ehtimol, bu savdo har birimizning boshimizga tushgandir va buning uchun bir umrlik vijdon azobida qiynalayotgandirmiz ham. Xushxulq, oqilu fozil bir oljanob inson bo'lishlik Konfutsiy shogirdlarining murod-maqsadi edi. Konfutsiy oljanob kishi quruq so'zlagan bilan bo'lmaydi, avval ado etib, so'ng so'zlashi kerak, deydi. Chunki "Aytmoq oson, qilmoq qiyin", "Aytilgan so'z esa otilgan o'qdir". (O'zbek xalq maqolları) Ya'ni avvalo hammasining amaliy bo'lishi kerakligini uqtiradi, nazariy jihatlarga esa keyin ham o'tilsa bo'ladi. Shundagina odamlarning ishonchiga sazovor bo'lish mumkin. Anushiravor (No'shiravon) shunday nasihat qiladilar: "Agar xalq sening so'zing bila ish qilmog'in tilasang, sen o'z so'zing bila ish qilg'il". (Kaykovus, "Qobusnomá · Anushiravon pandlarin yod olmoq zikrida") Har bir odam avvalo o'zining husni xulqi, yurish-turishi bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak, shundan so'nggina ular haqida har qancha gapirsa – yarashadi. So'z vafosi bilan go'zal, amali bilan qimmatli.



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar elga qo'shilgay, razil kimsalar bilan til biriktirmas; xudbinlar qabih kimsalar bilan til biriktirib, aslo elga qo'shilmas".

Mazkur hikmatda olijanoblar va xudbinlar o'rtasidagi farqli jihatlardan biri ko'rsatib berilgan. Olijanoblik va tubanlik konfutsiychilik ta'limotidagi o'zaro qaramaqarshi holatlardir, olijanoblik yuksak fazilat bo'lsa, tubanlik yoki xudbinlik illatdir. Xudbin kimsalar har qanday qabihlik, razilikdan qaytmaydi, shu sabab o'zi kabi badxulq, badbin kimsalar bilan til biriktirib, qora niyatlariga yetishmoqchi bo'lishadi, ular ma'naviyat, millat va jamiyat kushandalaridir. Xalqimizda bunday kishilarga qarata aytilgan: "Ko'r ko'mi qorong'ida tanibdi" degan maqol bor. Xudbinlar aslo odamlarga el bo'lmaydi, ko'pchilikka qo'shilmaydi, qo'shilsa ham g'arazini qo'ymaydi. Olijanoblar bo'lsa bag'rikeng, keng fe'ldirlar, ular xalqning do'stu hamdamidir.

Konfutsiy ushbu hikmati bilan olijanob insonlar misolida kishilarни xalqparvar, millatparvar, vatanparvar bo'lishga chaqiradi, odamlarni jamoatchilik, uyushqoqlik, hamjihatlik, inoqlikka da'vat etadi, xudbinlik kabi illatlardan esa qaytaradi, buni hikmat ortiga mohirona jo qilgan. Olijanob kishilar o'zbilarmonlik, mahmadonalik qilmaydi, boshqalar bilan bamaslahat ish qiladi, olijanob hukmdor kengash bilan elni idora qiladi, axir xalqimiz "Kengashli ish buzilmas" deydi. Xalqimizda shunday maqollar bor: "Elga qo'shilsang, er bo'larsan, eldan ajralsang, yer bo'larsan", "Er bolasi — el bolasi", "Er yigit elga tortar", "Elning g'ami — ernen g'ami", "Er davlati — elida", "Elning baxti — erving baxti", "El bo'lmasa, er bo'lmas", "Erning ishi el bilan", "Erning kuchini el sinar", "Erning otini el chiqarar" va hokazo. ("O'zbek xalq maqollari", tuzuvchilar: To'ra Mirzayev, Asqar Musoqulov, Bahodir Sarimsoqov, 2003 yil) Maqollardagi "er kishi" aynan "olijanob inson"dir.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "O'qigan bilan fikr qilmasa, vasvos bo'lib qoladi; xomxayollarga berilib o'qimaslik xatarlidir".

Bu hikmatda Konfutsiy o'qish va fikrlash, boshqacha qilib aytganda, ilm va tafakkur munosabatlarini bayon qilgan, ularni birgalikda olib borish kerakligini ta'kidlaydi, aks holda ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Konfutsiy shogirdlaridan

ilm olish jarayonida mustaqil fikrlashni talab qilgan. Agar fikr qilmasa, kishi boshiga bir savdo tushganda osongina sarosimaga tushar, es-hushdan ayrilib, vasvos bo'lib qolgay.

Ustoz shunday deydi: "Ilm bo'lmasa, a'mol qayda? Fikr bo'lmasa, yutuq qaydan? Yoshlar, (ikkisiga) qunt qilingiz! Bunday kishi ustoz bo'lishga munosib". "Muhokama va bayon"da juda ko'p o'rnlarda ushbu ikki masala tilga olinadi. Konfutsiy ilm olish jarayonida o'qish va fikrlash – ikkisidan birontasiga ham biryoqlama qaramaslik, birortasini ham tashlab qo'ymaslik kerakligini uqtiradi. Lii Ze Fey o'z sharhlarida keltirishicha, tafsirchilardan biri Yang Shu Da "Muhokama va bayon" nodirliliklari" kitobida mazkur hikmatni yuqoridagi "eskisini mustahkamlab, yangisini o'zlashtirish" mazmunidagi hikmat bilan uzviy bog'laydi: "Eski bilimlarni mustahkamlab, lekin yangisini o'zlashtirolmagan kishi o'qib, ammo fikr qilmagan kishidir; eskilarini mustahkamlamasdan yangisini bilishni istagan kishi bo'lsa xomxayollarga berilib, o'qishni esdan chiqargan kishidir". Konfutsiy bu hikmatida o'qib, ammo fikrlamaslik kaltabinlik ekanligini ko'rsatadi, shuningdek, quruq xayollarga berilib, ammo o'qimislik manfaatparastlik, suiiste'mollik illatlari ekanligini aytib ogohlantiradi.

O'qish va fikrlashni birga olib borishni uddalagan kishigina o'zini ham axloqan, ham aqliy jihatdan kamolga yetkiza olmog'i mumkin. Bu g'oya hozirgi pedagogika sohasi uchun nihoyatda qimmatlidir. Ta'lim muassasalarida o'qitish va mustaqil fikrlashga o'rgatishni keng joriy qilish ijobiy natijalar beradi. O'qib ham fikr yuritish o'rganganlariga jon baxsh etishdir.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Bid'atlarga zarba bersakkina balo-yu ofatlar ham barham topgay".

Bid'at nima? 1) hukmron din aqidalariga xilof ish, harakat yoki ta'limot; 2) umumiy tartib-qoidalarga, odatdagи qarashlarga xilof ish, fikr, xatti-harakat yoki ta'limot. Oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak, bid'at, bu – axloqsizlik, buzuqlik, o'zlikdan chekinish, odamgarchilikdan chiqish. Yanada soddaroq tushuntirsak, g'ayriaxloqiy ta'limotdir. Bid'at mo'tadillikning ikki tomonidir, ya'ni mo'tadillikdan og'ishdir.

Konfutsiyning mazkur hikmatini hozirgi xitoy tiliga Jin Lyang Nyen boshqacharoq o'girgan: "G'ayriaxloqiy (bid'at) ta'limotlarga mukkasidan ketishlik haqiqiy baloyu ofatdir". Axloqsizlik, ma'naviyatsizlik – insoniyatning halokatidan nishona. Hikmatni boshqacharoq talqin qilsak: "Axloqsizlik domiga tushish insoniyatning inqirozga yuz tutishidir".

Hozirgi kunda dunyo sahnida yuz berayotgan har qanday salbiy vogelik, u xoh mayda jinoyatlar bo'ladimi, xoh turli balandparvoz shiorlar, "ezgulik niqobi" ostida



olib borilayotgan har qanday urushlar bo'ladimi, dardi bedavolikdan tortib to ekologik halokatlargacha – barchasi ma'lum miqdorda inson axloqsizligining ta'siri natijasidandir. Natija xatti-harakat mahsulidir. Insoniyatni qiynayotgan muammolar yechimini qadimgi donishmandlar ro'yi-rost aytib qo'yibdilar, ularga amal qilib, o'z-o'zligimizni anglash esa har birimizning vijdonimizga havola.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ey You, qulq sol, senga oqillik nima ekanligin aytayin. Bilganingni bildim, bilmaganingni bilmadim deganining haqiqiy bilimdonlikdir".

You (mil. avv. 542-mil. avv. 479-yy.) – familiyasi Jo'ng (Zhong), ismi You (You), hurmatli nomlari Zi-ludir, Konfutsiyning shogirdi, "Tarixiy solnomalar · Jo'ngni shogirdlari tarjimayi hollari"da qayd etilishicha, ustozidan 9 yosh kichik bo'lgan. Uzoq yillar Konfutsiyiga hamroh bo'lgan. Dovyurak bo'lgan, tabiatan rostgo'y-dangalchi edi. Hukumat ishlarida shuhrat qozongan.

Mazkur hikmatda Konfutsiy chin ma'nodagi oqillikka baho bera turib, qunt bilan bilim olish, o'z ustida betinim ishlash kerakligini ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, o'qish uchun sabr-toqat, hafsal kerak. Konfutsiy haqiqatni hayotdan izlagan, uning bu fazilati barcha qarashlarida aks etgan, shu jumladan, o'qish borasidagi fikr-mushohadalarida ham. Yuqoridagi hikmat ham donishmandning bilimga nisbatan ana shunday munosabatda bo'lganini tasdiqlaydi. Konfutsiy, har qanday narsaga kamsuqumlik bilan, samimiy va vijdonan yondashish kerak, deydi. Bilganingizni bildim deng, bilmaganingizni esa bilmadim deb tan oling, mahmadanalik qilish aslo yarashmaydi. Haqiqiy bilim muhtoj bo'linganda asqatganidir. Inson qanchalik bilimdon bo'lmasin, baribir u bexabar bo'lgan narsalarning adog'i yo'qdir. Bu haqda xitoyliklarda Konfutsiy shaxsi bilan bog'liq bir masal ham bor.

Chun-chiyu (Bahor va kuz) davrida yashagan buyuk donishmand Konfutsiy Sharqqa qarab olis safarga chiqibdi. Yo'lda bir-birlari bilan qizg'in bahslashayotgan ikki bolakayga duch kelibdi, yonlariga borib, nima uchun tortishayotganlarini so'rabi. Ulardan biri quyoshni ko'rsatib shunday debdi: "Quyosh endigina chiqqan paytda odamlarga yaqin bo'ladi, tushda esa bizdan uzoqlashib ketadi, shundaymasmi?" Boshqa biri esa besabrlik bilan oraga suqilibdi: "Yo'q, yo'q, undaymas. Quyosh chiqqanda odamlardan uzoq bo'lishi, tushga kelib esa yaqin bo'lishi kerak". Konfutsiy bilibdiki, ular quyoshning odamlardan qancha uzoqlikda ekanligi borasida tortishayotibdilar. Birinchi bolagay so'zida davom etibdi: "Quyosh endi chiqqanida xuddi arava soyabonidek

kattakon, tushda bo'lsa piyoladek kichkina bo'p qoladi. Bu uzoqdan kichkina, yaqindan ka-at-ta bo'lib ko'ringani uchunmasmi?" Ikkinci bolakay norozi ohangda debdi: "Sirayam unaqamas-da. Quyosh endigina chiqqanda havo salqin bo'ladi, tushga kelib xuddi qaynoq suvdek kuydiradigan bo'lib qoladi. Axir, quyosh yaqinligida issiq, uzoqligida salqin bo'lmaydimi?" Konfutsiy eshitibdi-yu, lekin kim haq, kim nohaqligi haqida bir qarorga kelolmabdi. Shunda bolakaylar kulib Konfutsiyga shunday debdi: "E, kim aytadi sizni eng bilimdon odam, deb".

Shu tariqa Konfutsiydek bir donishmand odam ham ikki bolakaydan tanbeh eshitgan ekan. Qissadan hissa shuki, Konfutsiy haqiqatni amaliyotdan izlagan, shuningdek, koinot cheksiz, bilim esa bitmas-tuganmas, chek-chegarasizdir, inson qanchalik aql-zakovatga ega bo'lmasin, baribir u bilmaydigan nimadir bo'ladi. Xalq maqolimizda aytilganidek: "Ilm — tubsiz quduq", "Olamning keti yo'q, bilimning cheki yo'q". Shuning uchun yana dono xalq naqliga amal qilgan ma'qul: "Ilm ko'p-u, umr oz, keragin ol-u, toshga yoz". (O'zbek maqoli, "Hikmatnomalar: o'zbek maqollarining izohli lug'ati"dan, Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov, 1990) Yuqorida keltirilgan Konfutsiy haqidagi masal beixtiyor Umar Xayyomning bir ruboysi yodimizga soladi:

Bir lahza dilim ilmdan mahrum emas,  
Dunyoning biror siri menga mavhum emas.  
Naq yetmish ikki yil tunu kun o'y surdim,  
Ma'lum bo'ldi: hech nima ma'lum emas.

Konfutsiyning yuqoridagi hikmati bir voqeani yodimga soldi. Tumanimizda yoshlari ulug', ko'pni ko'rghan, bilimli, uzoq-yaqinda hurmat-e'tibor qozongan kishi bo'lardi, tabiatan og'ir-bosiq, xushmuomala, kamtarin, nihoyatda samimiy hamda yoshga yoshdek, keksaga keksalardek muomala qilardi. Suhbatlarimizning birida otam o'sha kishi haqida so'z ochib qoldilar. Dedilarki: "U kishining nihoyatda ajoyib bir odatlari bor: bilmagan narsasini bilmadim deydilar". Esimda: rahmatli katta otamlar (buvamlar) qo'limdan ushlab u kishining yonlariga olib borgandilar, meni uzoq duo qilgandilar o'shanda. Shundan keyin ham u kishini to'y-ma'rakalarda ko'p ko'rdim. Boshqalar savolga tutsalar, agar bilgudek bo'lsalar, ishini qo'yib bo'lsa ham shoshilmasdan javob berardilar. Bexabar bo'lsalar, bema'ni savollar berilsa, kimdir shunchaki hech bir maqsadsiz yoxud biror g'ayirlikni ko'zlab savolga tutsa, doim xotirjam ohangda oddiygina qilib: "Bilmasam", deb qo'ya qoladilar. O'sha so'z shunchalar samimiy-soddalik bilan aytillardiki, uning so'zlaguvchisiga bundan biron ziyon-zahmat yetganini aslo ko'rmaganman.





Lii Ze Fey o'z sharhlarida shunday yozadi: "Inson uchun tushunmaslik qo'rqinchli emas, qo'rqinchlisi yolg'ondan o'zini tushungan qilib ko'rsatishlikdir". Odamlar aqlli bo'lib tug'ilmaydilar, bunga tinimsiz o'qish, boshqalardan ibrat olish, o'rganganlarini mustahkamlab hayotga tadbiq etish orqali erishiladi. Inson qanchalik bilgani sayin bilimning chek-chegarasi yo'q ekanligini anglab boradi.

\*\*\*

Tolibi Zi-jang martaba-maoshga erishmoq haqida maslahat so'rab murojaat etganida, Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Ko'proq tingla hamda shubhali-chigallarini vaqtincha qo'yib turgin-u, qolganlari haqida ehtiyyotkorlik bilan so'zlagin, shunda xatolar ham kam bo'ladi; ko'proq kuzat hamda shubhali-chigallarini tag'inam vaqtincha qo'ya tur, qolganlari ehtiyyotkorlik bilan ro'yobga chiqar, shunda afsus-nadomat ham kamayardi. Tilida xatosiyu amalida pushaymoni kam bo'lsa, martabayu maoshga erishmoq hikmati shundadir".

Zi-jang (Zi-zhang) – Konfutsiyning shogirdi, familiyasi Juan-sun (Zhuan-sun), ismi Shi (Shi), hurmatli nomlari Zi-jangdir. Miloddan avvalgi 503-yil tug'ilgan, chenlik (Chen podsholigidan) bo'lgan, "Tarixiy solnomalar · Jo'ngni shogirdlari tarjimayi hollari"da qayd etilishicha, u ustozidan 48 yosh kichik bo'lgan.

Mazkur hikmat bilan donishmand demoqchiki, boshqalarning fikrini ham ko'proq tinglagin va agar shubhali, chigal masalalarga duch kelsang, ularni hozircha bir yoqqa qo'ya tur, boshingni qotirma va o'zingni bilimdon qilib ham ko'rsatmagin, ko'nglingning bir chetiga tugib qo'ygin-u, qolganlari to'g'risida esa yaxshilab ehtiyyotkorlik bilan mulohaza yuritgin, shunday qilsang, xatolarga kamroq yo'l qo'ygan bo'lasan. Yana o'zgalarning xatti-harakatlarini qayta-qayta kuzat, agar shubhali jihatlari bo'lsa, ularni ham vaqtincha bir chetga surib turgin hamda qolganlarini amalga oshir, ibrat ol, shunda pushaymon qilmagaysan, ta'na-malomatga qolmaysan. Yo'qsa "So'nggi pushaymon — o'zingga dushman" bo'ladi. Kishi shu ikkisini ado etoldimi, demak, tutgan yo'li to'g'ri, martabasi ulug', maoshi haloldir.

Konfutsiy kishilarni tilda ham, amalda ham ehtiyyotkor bo'lishlikka chaqiradi. Ehtiyyotkorlik – oldi-ketini o'ylab so'zlash yoki ish tutishlik. Bu olamga odam bo'lib keldikmi, odamdek yashash kerak, buning uchun esa so'zu amalimizni bir sarhisob qilaylik. Ko'proq tinglaylik hamda ko'ngilsiz gap-so'zlarni bir yonga qo'ya turing, ezgularini so'zlaylik, bu munosabat amallarimizga ham tegishlidir. Konfutsiy shogidrlarining amal-martabaga bo'lgan intilishlarini qoralamagan, "Muhokama va

bayon”da “ilm olib amaldor bo’lish” g’oyasi ilgari surilgan. Konfutsiyning o’zi ham ijtimoiy va siyosiy-axloqiy g’oyalarini amalga tadbiq qilish uchun yurtma-yurt sarson-sargardon kezadi, afsuski, hech bir hukmdor uning ezgu maqsadini tushunmaydi, tushunganlari ham uni ro’yobga chiqarishga jur’at topmaydi. So’zu amalda ehtiyyotkorlik fuqarolikdan tortib hukmdorlikning ham muhim shartlaridandir.

Bu hikmatda ikki muhim jihat mavjud: biri shuki, amaldorlikka bo’lgan ehtiyyotkor munosabat, yana biri ilm olgach, uni qo’llash amaliyotidir. Tilga ehtiyyotkorlik haqida turkiygo’y donishmandlardan ham qutlug’ satrlar qolgan. Yusuf Xos Hojibning hatto xalq maqoliga aylangan tilga ehtiyyotkorlik haqidagi hikmatida shunday deyiladi:

“So’zingga ehtiyyot bo’l, boshing ketmasin,  
Tilingga ehtiyyot bo’l, tishing sinmasin”.


(Hamidjon Homidiy, “Ko’hna Sharq darg’alari” kitobidan)

Nizomulmulk podshohlik ishlarida shoshilmaslik haqida shunday deydi: “Ishlarda shoshilmaslik kerak, negaki keyinchalik pushaymon qilishning ma’nosи yo‘q”. (Nizomulmulkning “Siyosatnoma”sidan, forschan Shodmon Vohid va Aftondil Erkinovlar tarjimasi)

Bobomiz Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida tilga ehtiyyotkorlik borasida durdona fikrlar bildirganlar: “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz! Harzago’ykim, ko’y takallum surgay, itdekdurkim, kecha tong otquncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko’ngliga jarohat yetkurur, o’z boshig’a ham ofat yetkurur. Nodonning muvahhish harzag’a bo’g’zin qirmog’i – eshakning jihatsiz qichqirmog’i. Xushgo’ykim, so’zni rifq va musovo bila aytg’ay, ko’ngulga yuz g’am keladurg’on bo’lsa, aning so’zidan qaytg’ay. So’zdadur har yaxshiliqni imkonli bor, munda debdurlarki, nafasning joni bor... Tiliga iqtidorlig’ – hakimi xiradmand; so’ziga ixtiyorsiz – laimi najand... Odamne til bila soyir hayvondin mumtoz bo’lur va ham aning bila soyir insong’ a saraafroz bo’lur...”

Ortiqcha izohga hojat ne, ayonki, barcha donishmandlar tilga ehtiyyotkor bo’lishda yakdil, hamfikrdirlar. Konfutsiy mazkur hikmatida shogirdi Zi-jangning martaba-maosh to’g’risidagi savoliga vijdonli, halol odam bo’lish nuqtayi nazaridan javob qaytaradi. Martaba-maoshga erishmoq uchun dastlab kishi o’zini qanday tutishni o’rganmog’i, muomalasini tuzatmog’i kerak bo’ladi. Shundan keyingina biror amalga o’tirib, xalqqa foydasi tegadigan ishlar qilish mumkin.

\*\*\*





Ay-go'ng: "Xalqni nima bilan itoatda tutmoq mumkin?" deya so'raganlarida, Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Insofli kishilarni noinsoflardan yuqori ko'tarsang, xalq ham bo'yinsungay; noinsoflarni insofli odamlardan yuqori ko'targudek bo'lsang, xaloyiq ham itoat etmas".

Ay-go'ng – Lu davlati podshosi Ji Jyang (Ji Jiang). "Ay" – uning vafotidan so'ng berilgan faxriy nomi, ma'nosi "g'amzada".

Konfutsiy ham luguolik (Lu podsholigidan) bo'lganligi uchun Ay-go'ngga "Lu" so'zi qo'shilмаган. Ba'zi manbalarda miloddan avvalgi 494–468-yillar hukmronlik qilgan deyilsa, Jin Lyang Nyen sanalarni mil. avv. 494–466-yillar deb ko'rsatadi. Mil. avv. 494-yil hokimiyat tepasiga kelgani rost, o'sha yili Konfutsiy 58 yoshda edi. Ay-go'ngdan oldin Lu Syang-go'ng (Lu Xiang-Gong, mil. avv. 542-yigacha), Lu Jao-go'ng (Lu Zhao-Gong, mil. avv. 510-yilgacha), Lu Ding-go'nglar (Lu Ding-Gong, mil. avv. 494-yilgacha) podsholik qilishgan.

Lu – Jou sulolasi zamonidagi davlat, hozirgi Shando'ng provinsiyasi Chufu hududlariga to'g'ri keladi.

Insof nima? Adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, biror bir faoliyatda, kishilar bilan bo'lgan munosabatda halollik, to'g'rilik. Insofli odam deb insof va adolat bilan ish qiluvchi, halol, vijdonli kishilarga aytildi. "Insofi yo'qning – imoni yo'q", deydi dono xalqimiz. "Olijanoblarga yaqinlashish, pastkash kimsalardan uzoqlashish" – Konfutsiyning o'zgarmas maslagidir. Hukmdor sifatida kishilarni biror martabaga tayinlash masalasida ham xuddi shunga amal qilinadi. Yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan iste'dod sohiblarini topib, martabasin ko'tarish Konfutsiyning axloq orqali davlatni, jamiyatni adolatli boshqarish g'oyasining muhim tarkibiy qismidir. Konfutsiychilikning "odamlarning xushaxloq va iqtidorlilarini vazifaga tayinlash" g'oyasi hanuzgacha o'zining qimmatli ahamiyatini yo'qotgan emas. Hukmdor xalq ko'nglini o'ziga moyil qilish, uning qo'llab-quvvatlashiga erishishi uchun mamlakatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirmog'i shart. Shunda fuqarolar ham hukmdorning amru farmonlariga, qonunlarga ongli ravishda og'ishmay amal qiladi.

Saljuqiy shohlarga 30 yil halol vazirlik qilgan "qilich va qalam sohibi" Nizomulmulk (1018–1092) "Siyosatnoma" (fors tilidan Shodmon Vohid va Aftondil Erkinovlar tarjimas) asarida amallarni loyiq va pokdil kishilarga berish haqida so'z yuritib, jumladan, shunday deydi: "Hamma zamonda ham diyonatli va e'tiqodli aslzoda kishilarga vazifa bergenlar. Agar qabul qilmasa, majbur qilib bo'yniga qo'yganlar, toki amal·arzimas kishining qo'liga o'tib ketmasin. Shunda raiyat tinch bo'lib, mulk yaxshi nom qozonib, podshoh esa farog'atda yashagan".

Konfutsiylik – qanday qilib insofli, oljanob bo'lishlikni o'rgatadigan ta'limot. Konfutsiylik ta'limotining siyosiy g'oyalarining birinchi mezoni ham insof-diyonatli, adolatli-xolis va to'g'ri-halol bo'lishlikdir. Konfutsiyning siyosiy qarashlari markazida davlat ishlarida kishilarni to'g'ri tanlab lavozimga qo'yish muammosi turadi. Bu esa uning ezgulikka yo'g'rilgan idoraviy usuli, ya'ni axloq-yo'sin me'yorlari bo'yicha davlatni idora qilish talablariga asoslangan. Konfutsiylik ta'limoti insonni faollikka undaydigan nazariyadir, biroq u nazarda tutgan amaldor aslo mirg'azab, buyruqboz yoki mustabid hokim holida emas, balki xalq uchun beminnat xizmat qiladigan insofli, halol odam misolidadir. Mazkur hikmatda Konfutsiy odilonaga siyosat elu yurtni boshqarish mezoni ekanligini ko'rsatib bergen. Buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur ham "Kuch – adolatdadir!" deganlar hamda uni o'zining siyosiy faoliyatining bosh mezoniga aylantirgan.

\*\*\*

Ji Kang-zi: "Xalq hurmatin qozonmoq, ular sadoqatli hamda tirishqoq bo'lmoqliklari uchun nima qilmoq zarur?" deya so'raganlarida, Konfutsiy shunday javob bergen ekan: "Ularga jiddiy munosabatda bo'lsang, hurmatingni ham joyiga qo'yurlar; ota-onani hurmat qilsang, kichiklarga mehribon bo'lsang, ular ham senga vafodor bo'lishgay; yaxshilarning martabasin oshirib, qobiliyatsizlarni tarbiyat qilsang, ular bundan ruhlanib g'ayratlariga g'ayrat qo'shilgay".

Ji Kang-zi – podsho Lu Ay-Go'ng zamonidagi davlatning yuqori amaldorlaridan biri, familiyasi Ji-sun, ismi Fey (Ji-Sun Fei), Lu podsholigi aslzodalaridan Ji Sun-shining avlodlaridan, "Kang" uning vafotidan keyin berilgan faxriy nomi, ma'nosi "omon", "behbud". Lu Ay-go'ng zamonida Ji Kang-zi katta huquqqa ega edi.

Konfutsiyning ushbu hukmati ham elni idora qilish masalasidadir. Siyosiy masalalarda Konfutsiy davlat va jamiyatni axloq bilan idora qilish – "ezgu siyosat", ya'ni elni odob-axloq me'yorlari – "lii" bilan idora etishning bir qancha aniq usullari va ularning mazmunini bayon qilgan. Elni idora qilishning birinchi yo'li qonunlar vositasida boshqaruv: bunda kishilar qo'rqqanliklari, hurmatlari uchun itoat etadi, el har xil tartibga soluvchi va jazolovchi amru farmonlar bilan idora qilinadi; qadimgi Xitoy faylasuflaridan yana biri Xan Fey-zi (mil. avv. 288–233 yy.) bu borada qonunchilik siyosatini birinchi o'ringa qo'ygan maxsus ta'limot yaratadi, jazo va mukofot har bir qonunning ikki tayanchidir, deydi faylasuf; aslida davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqat, zaruriy shartdir, ammo bunga erishish yo'llari, vositalar va undan



ko'zlangan maqsad elu yurt kelajagiga turlicha ta'sir etishga olib keladi; ikkinchi yo'li – ma'rifatli boshqaruv usuli: ommaga ilmu ma'rifat ularashiladi, axloqi go'zallantiriladi, zehni ravshanlashtiriladi, shunda xalq ongli ravishda qonunlarga ham astoydil riox qiladi; o'tgan asrning boshlarida jadidchilar asosan shu yo'lni tutgandilar, shu bois ular ma'rifatparvarlar nomini oldilar, o'sha davrda yaratilgan asarlarda xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otish, ma'rifat yo'li bilan jahonga yuz tutish va shu asosda Turkiston xalqlarini istibdod zulmidan ozod qilishdek ezgu g'oyalar goh yashirin, goh oshkora aks ettirilgan; uchinchi yo'l – yaxshi kadrlardan foydalanish: bu yaxshi fazilatlarga ega va iste'dodli kishilarni tanlab, ularga davlatning muhum vazifalarini topshirish, aksincha, badxulq, noshud, kaltafahm kimsalarni lavozimidan ozod etish bilan amalga oshiriladi; tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, buyuk davlat arboblari o'z yonlarida sadoqatli va zakiy odamlarni saqlaganlar.

Yuqorida bayon qilingnlarni umumlashtirib aytish mumkinki, bu yerda asosiy mexanizm avvalo "rahmdillik" prinsipidir, boshqacharoq qilib aystsak, "odamlarga ezgulik ularashish"dir. Xitoycha naqlida aytilganidek: "Odamiylik – go'zal xulqlarning o'zaro ta'sirlanishi", yoki bo'lmasa "go'zal xulq bilan go'zal xulqlarni uyg'otish"lik. Haqiqatan ham, ezgulik yordami bilan yaxshi fazilatlarni kamol toptirish zarur. Sahibqiron Amir Temur bobomiz yuqorida qayd etilgan uch xil idora usulini uyg'unlashtirib xalq va mamlakat manfaati uchun istifoda qila olganlar, Temuriylar davlatini tuzganlarida u kishining yonlarida yoshlikdagi sodiq do'stlari bor edi, birgalikda mo'g'illarni O'rta Osiyodan quvib chiqardilar; shuningdek, ma'rifatparvarlik siyosatini ham yurgizdilar, ilm-fanga homiylik qildi; qonunchilik siyosatida esa amru farmonlarining saltanatning u burchidan to bu chekkasigacha qat'iy amal qilinishini ta'minladi, "Temur tuzuklari" davlatchilik tarixidagi buyuk voqealardan biri bo'lib, jahonshumul ahamiyatga ega. Bular Amir Temurning uzoqni ko'ra olganliklaridandir.

Konfutsiyning "adab siyosati", "ezgu (xayrli) siyosati" nafaqat oddiy xalqqa qaratilgan, balki hukmdorlarga ham birdek tegishlidir. Chunki podsho o'zi og'ir-vazmin, salobatli, ota-onasiga qobil farzand, kichiklarga mehr-muruvvatli bo'lsa, oddiy xalq ham unga hurmat-ehtirom ko'rsatgay, sadoqatli hamda serg'ayrat bo'lgay. Ya'niki shoh xalqqa ibratdir, xalq ham shohga quvvatdir.

\*\*\*

Bir kishi Konfutsiyga murojaat qilib: "Siz nechun (amaldor bo'lib) siyosatga kirishmaysiz?" deya so'raganlarida, Ustoz shunday javob beribdilar: "Nasrnoma"da aytilganidek: "Qobil farzandlik (sadoqatmandlik) shuki, ota-onaga izzat-hurmatda, og'a-

inilarga mehr-muruvvatda, uni shul tariqa hukumat ishlari qadar joriy qilishlikdadir”. Bu ham siyosat qilgancha bo’lur. Unda nechun amaldorlik qilsagina hukumat ishlariga ishtirok etgan hisoblanur?”

“Nasrnoma” – “Shang-shu” (“Buyuk kitob”), qadimiy hujjatlar majmui. Ma’lumotlarga ko’ra, bu kitobga Konfutsiy tartib bergan, shu orqali kitob holiga keltirilgan. Konfutsiy mazkur asar bo'yicha ham chuqur tadqiqotlar olib borgan. Konfutsiylikning mumtoz asarlardan biri bo'lib, “Adabnama”, “Nazmnoma”, “Folnama” (yoxud “O’zgarish”) asarlari qatoridagi to’rtinchı “noma” hisoblanadi. “Muhokama va bayon”da mazkur asar nomi ham “Nazmnoma” singari bir necha marta tilga olinadi.

Qadimda davlatga oilaning keng ko’rinishi sifatida qaralgan, shu boisdan oilani boshqarish va davlatni boshqarish yo’li mushtarakdir. Davlat – katta oila, oila – kichik bir davlat. Bu qarash keyinchalik “Katta ta’limot” (“Da-syuye”) kitobida “o’z-o’zini kamolotga yetkizish, oilani tuzash, davlatni idora qilish, olam tinchligi” tarzida to’laroq tushuntirib berildi. Mazkur hikmatda ham Konfutsiyning ikki tomonlama g’oyaviy qarashlari aks etgan: biri shuki, davlat siyosatida qobil farzandlik (sadoqatmandlik) ni asos deb bilish, ota-onasiga qobil farzand bo’lgan, og’a-inilariga mehr-muhabbatli kishilargina davlat amaldorlari bo’lish layoqatiga ega, ya’ni amal-martabaga tayinlashda kishilarning ilmiy salohiyatidan tashqari, ularning axloqiy fazilatlari ham inobatga olinishi shart. Bu esa Konfutsiyning “ezgu siyosat” yoki “adab yo’sinida elni boshqarish” haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Ikkinchidan, ta’lim berish nafaqat talabalarga dars berish masalasi, ustiga-ustak ularga ta’lim berish orqali bilvosita davlat siyosatiga ishtirok etishdir, maorifning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ham shunda, bu Konfutsiyning ta’lim-tarbiya berish borasidagi g’oyalarining mohiyatidir, shuningdek, siyosatga ishtirok etishning bir ko’rinishi hamdir.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: “Ishonchsiz (lafzsiz) kishilar, bilmam, qandoq bo’lur. (Bundaylar) go’yo mixcho’psiz katta arava, chuvcho’psiz kichik arava kabidir, u qandoq qilib yura olsin”.

“Ishonch” (ya’ni “sin”, xitoycha fonetik transkripsiysi “xin”) – konfutsiylik ta’limotining odatiy axloq me’yorlaridan biridir. Konfutsiy ishonchni kishining rostlanishi hamda hayot kechirishining tayanch nuqtasi, deb biladi. “Muhokama va bayon”da “ishonch”ning ikki xil ma’nosи bor: birinchisi ishonish, ya’ni o’zgalarning ishonchini



qozonmoq; ikkinchisi va'daga vafo, lafzi halollik, ya'ni so'zining (va'dasining) ustidan chiqish, va'dasiga vafo qilish, chin so'zli bo'lish. "Muhokama va bayon"ning juda ko'p o'rinalarida ishonch haqida so'z boradi.

Katta arava – qadimgi buqalar qo'shiladigan arava, odamlar uni shunday deb atashgan. Mixcho'p – buqalar qo'shilgan arava shotisi oldidagi gorizontal (yotiqlig) yog'och uchlaridagi yog'och moslama, chuvcho'p; arava shotisini baldoq bilan tutashtiradigan mixcho'p, xitoycha fonetik transkriptsiyasi "ni", uyg'urcha "chuluk" deyiladi. Kichik arava – ot-arava, qadimda otlar qo'shilgan aravalari shunday deb atalgan. Chuvcho'p (yoki chuv, tiqin) – ot-arava shotisi oldidagi yotiqlig yog'ochga o'rnatilgan mixcho'p, chuv deb ham ataladi, yog'ochdan tayyorlangan.

"Muhokama va bayon"da Konfutsiyning "ishonch"ga bag'ishlangan muhokamalari talaygina, biroq ishonch (ishonish, lafz, va'da) bo'ladimi, ishonchli (sodiq) bo'ladimi, barchasi birgina "ishonch" kategoriyasidan ajralmaydi. Konfutsiyning nazarida, xalqning ishonchiga sazovor bo'lish har narsadan muhim. Agar o'zgalarning ishonchini qozonolmasang, ishingda unum bo'lmaydi. Ishonch ikki taraflamadir, o'zgalarning ishonchini qozonmoqchi bo'lsang, avvalo o'zing so'zingning ustidan chiqqin, lafzi halol bo'l. Yana bir jihat shuki, kishining o'ziga bo'lgan ishonchi. Insonning o'ziga bo'lgan ishonchsizligi unda o'zgalarga nisbatan shubha, ishonchsizlik hissini uyg'otadi. Shu bois kishida o'ziga bo'lgan qat'iy ishonch o'zgalarning ishonchini qozonishning ham dastlabki shartlaridandir.

\*\*\*

Tolibi Zi-jang: "O'n avloddan so'ng nelar bo'lishin avvaldan bilish mumkinmi?" deb so'raganida, Ustoz shunday javob berdilar: "Yin sulolasi Sya sulolasi adab-taomil an'analar ("lii")ga amal qildi, qisqartgan-qo'shganlarin bilib olsa bo'lur. Jou sulolasi esa Yinning adab-taomil an'analariga rioya qildi, qisqartgan-qo'shganlarini fahmlab olsa bo'lur. Kelgusida Jou an'analarini meros qilib olguvchi bo'lsa, hatto yuz avlod keyinni ham bilish mumkin bo'lardi".

"O'n avlod" – qadimda Xitoya 30 yil bir avlod hisoblangan, ba'zilar "avlod" deyilganda sulolalar nazarda tutilgan, deya tushuntiradilar.

In (yin) – qadimgi sulola nomi, yana bir nomi Shang, Shang sulolasi poytaxtni Inga (hozirgi Xenan provinsiyasi Anyang shahri shimoli-g'arbidagi kichik qishloq o'mida bo'lgan) ko'chirgandan so'ng sulola nomi Yinga o'zgargan. Miloddan avvalgi XVI asrda Sya sulolasi qulagandan so'ng asos solingan. Miloddan avvalgi XI asrga kelib

Jou sulolasini tomonidan tugatilgan. Ba'zi manbalarda In sulolasini miloddan avvalgi XIV asrda miloddan avvalgi XI asrgacha hukm surgani qayd etilgan.

Sya (xitoycha fonetik transkripsiysi "Xia") – qadimgi sulola, Xitoy tarixidagi ilk sulola, oqsoqol Yuning o'g'li tomonidan miloddan avvalgi XXI asr boshlarida asos solingan, miloddan avvalgi XVI asrga kelib Shang sulolasini tomonidan barham berilgan. Ayrim manbalarda Sya sulolasini miloddan avvalgi XXII oxirlari–miloddan avvalgi XXI asr boshlaridan to miloddan avvalgi XVII asr boshlarigacha hukm surganligi qayd etiladi. Ba'zi manbalarda oqsoqol Yu Sya sulolasining birinchi podshosi, sulola asoschisi deya talqin etiladi. Xitoy manbalarida ham bu ma'lumotlar afsonalar holida uchraydi. Afsonaga ko'ra, oqsoqol Yu toshqin suvlarni jilovlab, elini balolardan qutqargan.

Jou (Zhou) – Xitoydagi qadimgi sulolalardan birining nomi, unga miloddan avvalgi XI asrda Shang sulolasini barham topgach asos solingan. Ikkiga bo'lingan: G'arbiy Jou (miloddan avvalgi XI asrda miloddan avvalgi 771-yilgacha) hamda Sharqiy Jou sulolalari (miloddan avvalgi 770-yildan miloddan avvalgi 256-yilgacha). Miloddan avvalgi 256-yil Chin sulolasini tomonidan tugatilgan.

Konfutsiy mazkur hikmatida "o'tmishga boqib kelajakni ko'rish" ma'nomatig'ini tushuntirib bergen. Bu o'rinda biz Abdulla Qodiriyning bir so'zini yodga olmasdan ilojimiz yo'q: "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar". Davlatlarning gullab-yashnashi hamda inqirozga yuz tutishi ularning tarixdan qanday xulosalar chiqqaniga borib taqaladi.

Hikmatda Konfutsiy "qisqartgan-qo'shganlari" degan muhim bir tushunchani ilgari suradi, bu o'zidan oldingi sulolalarning qonun-qoida tuzumi, adab-taomil kabi me'yorlariga vorislik qilishi, ularning an'analarini davom ettirish bilan birga isloh qilish, ularni boyitishni ham bildiradi. An'analarga vorislik – o'zlikni, ma'naviyatni saqlab qolish demak, shuningdek, o'sha qadriyatlar asosida yangi taraqqiyot tamoyillarini ishlab chiqish hamdir. "O'tmishdagi shonshuhrat, muvaffaqiyat va parvozlar yaxshi narsa, albatta! Ammo ular shunaqa narsaki, har bir yangi avlod bu shuhratga shuhrat qo'shib turmasa, eski yutuqlar qatorini yangilari bilan boyitib bormasa, millatning qanoti qayrilib, parvozi susayib qoladi", degan edilar ustoz Ozod Sharafiddinov.

O'z tarixi, tili va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda ma'naviyatini saqlab qola olmagan xalq yo'qlikka mahkumdir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur hikmat Konfutsiyning o'z tilidan uning eskilik tarafdori – mutaassib kishilardan bo'lmasligini aytib turibdi, shuningdek, u islohotlar tarafdori. Konfutsiy shohu fuqarolarni o'tmishdan ibrat olishga chaqiradi, lekin bu shunchaki ko'r-ko'rona yoki xo'jako'rsinga ham bo'lmasligi kerak, aks holda, mo'tadillik konsepsiyasiga amal



qilinmagan bo‘ladi. Konfutsiylikda esa hamma narsada me’yor bo‘lishi kerakligi qayta-qayta uqtiriladi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: “Yetti yot begona kishilar ruhiga qurbanliklar qilish yaldoqlikdir; adolatni ko‘rib qo‘l qovushtirib turish qo‘rqaqlikdir”.

Konfutsiy bu hikmati orqali kishilarni har bir ishda mo‘tadil bo‘lishga, ya’ni haddan oshmaslik (masalan, nazr-chiroq — qurbanlik marosimlarida) hamda me’yordan past ham kelmaslikka (masalan, adolat qarshisida qo‘rqaqlik qilmaslikka) chaqiradi.

Jou sulolasini tuzumiga ko‘ra, nazr-chiroq yoqish (ya’ni qurbanlik) marosimlari davlat miqyosidagi katta voqeadir, nihoyatda murakkab va mukammal tuzilishga ega edi. Biroq Jou sulolasining oxirgi davrlariga kelib juda ko‘p podsholar (knyazlar, beklar) Jou sulolasining qurbanlik marosimlariga amal qilmay qo‘yishgan edi. Konfutsiy ushbu gapni aytgan paytda Jou sulolasini adab (“lii”) tuzumini himoya qilish nuqtayi nazaridan turib fikr yuritgan bo‘lsa-da, shu asnoda qurbanlik marosimining mohiyatini ochib bergen.

Xitoyda qadimdan ajdodlarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish va ularni xotirlashga nihoyatda jiddiy e’tibor berilgan, har yil bayramlarda ularga atab nazr-chiroq marosimlari o’tkazilib turiladi. Qadimgi odamlar yaqinlarini xotirlab nazr-chiroq marosimlari tashkil qilishgan, bu avlod va ajdodlarning ruhiy-ma’naviy hisdoshligidir, buni marhumlar xotirasiga nisbatan hurmat-ehtirom belgisi, ayniqsa qobil farzandlik burchi deb bilishgan. Shu bois Konfutsiy o‘z yaqinlari xotirasiga emas, yetti yot begonalar ruhiga atab chiroq yoqishni kishi ko‘nglini behuzur qiladigan yaldoqlik deb ataydi.

Bu hikmatda Konfutsiy yana “adolat” va “mardlik” konsepsiyanlarini tilga oladi, bular konfutsiylik ta’limotining olijanob insoniy fazilatlarni shakllantirish me’yorlaridir. Odamlar amalga oshirishi kerak bo‘lgan ish adolatdir. Mardlik, bu jur’at va qat’iylik. Konfutsiy “mardlik”ni rahmdillikni amalga oshirish shartlaridan biri deydi, “mardlik” “rahmdillik, adolat, adab va oqillik”ka muvofiq kelmog‘i shart, aks holda, u “intizomsizlik”, “beboshlik”dir. Mardlik insonning oliy fazilati hisoblanadi, qo‘rqaqlik, nomardlik esa illatdir. Dono xalqimiz mardlikni kishining husni deydi. Konfutsiyning mardlik haqidagi qarashlarini yaxshi tushunishlik uchun tez-tez qulog‘imizga chalinadigan birgina o‘zbek xalq maqolimizni misol keltiramiz: “Mard maydonda bilinar”. Demakki, haqiqiy mardlar mushtumzo‘rlar emas, balki haqqoniyat, burch qarshisida yeng shimarib, uni ado etishga kirishgan kishilardir. Hassos shoir, yengilmas

pahlavon, "Xorazm Xayyomi" nomi bilan shuhrat qozongan, o'zining mardligi va saxovati bilan barchaga ibrat bo'lgan ulug' inson Pahlavon Mahmudning (1247–1326) go'zal falsafiy ruboiylari kishilarni asrlar osha mardlikka chorlab kelmoqda:

"O'z nafsiga kim bo'lsa amir, uldir – mard,  
Hech kimsaga bo'lmasa asir, uldir – mard.  
O'tmak sira mag'lubni tepib mardlik emas,  
Tutsa qo'lidan zabunni er, uldir – mard."

Shoir aytganidek, o'z nafsiyi tiya olsa, olijanoblikni odat qilsa, nomardlarning ishin qilmasa – haqiqiy mard shudir. Konfutsiy kabi donishmandlar kishilarni haqqoniyat, adolat, burch qarshisida loqayd, befarq bo'lmaslikka chaqiradi. Misol uchun, ogohlik – davr talabi, xalq, millat va Vatan taqdiri uchun fidoyilik har birimizning burchimiz – odilona xatti-harakatdir.

\*\*\*

Konfutsiy janob Ji haqida so'zlab shunday degan ekan: "Ba-yi – "Sakkiz saf" raqsini o'z hovlisida qo'llashdek bag'ritoshlik qilibdimi, tag'in qanday shafqatsizlik borki, uning qo'lidan kelmasa?"

Mazkur va quyida bir necha hikmatda asosan "lii" ("adab-qoida") masalasi haqida so'z boradi, birda uning mohiyati bayon etilsa, yana boshqa bir o'rinda "lii" bilan siyosat munosabatlari muhokama qilinadi. "Lii"ning (davlat) tuzumi, odob-axloq me'yorlari borasidagi turli-tuman qoidalarini himoya qiladi. Ba'zi hikmatlarda qurbanlik marosimi haqida gap ketsa, boshqa birida kuy tilga olinadi. "Lii"ni qanday qilib saqlab qolish masalasini muhokamalarning diqqat markaziga qo'yadi. Donishmand "surat chizish oq matogadir" (buning ma'nosi shuki, yaxshi sifatlarga ega bo'lsagina kamolotga yetkazish uchun ishlov bersa bo'ladi) hukmini ilgari surib, o'zining odob-axloq me'yorlariga oid g'oyalari hamda "podsho adab-qoida doirasida amaldorlar xizmatidan foydalansa, amaldorlar ham podshoga sadoqatli bo'lgay" degan siyosiy-axloqiy qarashlarini bildirgan. Konfutsiy "lii"ning davlat tuzumi, odob-axloq me'yorlari borasidagi turli-tuman qoidalarini saqlab qolish uchun kurashgan va uning bu jonbozligi hikmatlarida aks ettirilgan.

Janob Ji – "Muhokama va bayon"da ko'p bor tilga olingen amaldorlardan biri. Bu yerda uch nafar shaxsga ishora bor: biri Ji Ping-zi, aynan Ji Sun; ikkinchisi Ji Kang-zi;





yana biri Ji Xuan-zi. Mazkur hikmatda esa o'sha zamonlar Lu podsholigida hokimiyatni o'z qo'liga olgan zodagonlardan Ji Sun-shi (ya'ni Ji Ping-zi) nazarda tutilgan. U o'sha paytda Lu Jao-go'ng (Lu podshosi)ni surgunga yuborgan edi.

"Ba-yi" — "Sakkiz saf" qadim zamondagi bir xil kuy-raqs. Jou sulolasimperatorlari uyushtiradigan davlat miqyosidagi yirik marosimlarda ijro etilgan bo'lib, "Osmon o'g'li"ning cheksiz hurmatining ramzi bo'lgan. "Ba" — sakkiz soni, "yi" esa qadimda raqsdagi qator, saf degani, bir "yi"da sakkiz kishi, sakkiz qatorda esa 64 nafar kishi bo'lgan. "Jou marosimlari"da belgilab qo'yilganidek, faqatgina Jou Tyen-zi (Osmon o'g'li, ya'ni imperatori)gina sakkiz qatorli raqs ("Bayi")ni qo'llashi mumkin edi; feodalbeklar olti qator, shunda har qatori oltitadan — jami o'ttiz olti nafar kishi; amaldor-to'ralar to'rt qator, to'rt-to'rt kishi bo'lib tizilganda jami 16 kishi; ziylolar (intelligensiya — qadimgi Xitoyda dafu-to'ralar va oddiy xalq o'rtasida joylashgan sotsial guruh) ikki qatordan foydalanishi belgilab qo'yilgan.

Janob Ji amaldordir, taomilga ko'ra to'rt safni qo'llashi mumkin edi, sakkiz qatordan foydalanishi podsho nomini suiiste'mol qilish — haddan oshishlikdir. Chun-chyu (Bahor-kuz) davri (mil. av. 770—mil.av. 476 yy.)ning oxirlarida quldorlik tuzumi jamiyatni qulagan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan ma'naviy negizlar — asriy taomillar va adabkuy halokat yoqasiga kelib qolgan bir jarayonda Jou sulolasim rasmi-rusumlarini buzish hollari, isyonlar muttasil sodir bo'lib turar edi. Bu voqealar feodal tuzumning quldorlik tuzumi o'rnini egallashi jarayonida o'zini muqarrarnamoyon etishidir. Janob Ji Sunning o'z hovlisida "Sakkiz saf" raqsini qo'llashi Jou taomillari buzilishining yaqqol misolidir. Shu boisdan Konfutsiy o'zining cheksiz noroziligini izhor etib, "shunday bag'ritoshlik qilishga-da tob-toqati yetibdimi, tag'in qanday shafqatsizlik borki, uning qo'lidan kelmasa?" deydi. Bu hikmatda Konfutsiyning Ji Sun to'ra qilmishiga nisbatan asosiy munosabati aks etgan.

Konfutsiy "lii" (adab-yo'sin me'yorlari)ning fidoiy kurashchisidir, u "lii"da haddan oshish xatti-harakatidan nihoyatda g'azablangan. Konfutsiyning nazarida, Ji Sun taomilga putur yetkazdi, bu uning bag'ritoshligidan nishona. Jou sulolasim davridan shakllanib kelgan siyosiy-ijtimoiy, axloqiy-falsaviy qarashlar Konfutsiy yashagan zamonda ham jamiyatda asosiy ustqurma bo'lib xizmat qilgan. Aslida har qaysi jamiyatda har qaysi davrda ham taomilga e'tibor berilishi kerak, G'arbda bo'ladimiyo Sharqda, qadimdamasi yoki hozirda, bundan qat'iy nazar, odob-axloq me'yorlari va taomil bir buzildimi, barqarorlik va uyg'unlik boy beriladi hamda bu jamiyat izdan chiqib ketadi. Boshboshoqlik hokimiyatning, axloqsizlik xalqu millat hamda davlatning tanazzuli demak. Konfutsiyning mana shu bir og'iz so'zi tarixiy nuqtayi nazardan o'sha davr siyosiy-ijtimoiy voqeligini to'liq tasavvur qilishimizga yordam beradi, chunki



qisqa va lo'nda hikmatlar borliqdagi juda ko'p tomonlarni qamrab oladi, shu sabab "Muhokama va bayon" asari tarixiy ahamiyatga ham egaligi bilan ajralib turadi. Unda tarixiy shaxslar misolida real voqeliklarga katta o'rin berilgan, tarixiy voqe-a-hodisalar bayoni bir donishmand qarashlari misolida aks ettiriladi, muhokama va tahlil qilinadi.


\*\*\*

Uch xonodon "Yo'ng" she'ri ila (qurbanlik buyumlarini) saranjom qilgan bo'ldilar. Bundan xabar topgan Ustoz shunday dedi: "Yo'ng" she'rida bunday deyilgan:

"Atrof-jonibdan beklar kelar ko'makka — dastyor,  
Qurbanlikka bosh-qosh bunda Osmon o'g'li —  
Salobat-la turar xotiri jam, baxtiyor!"  
Bunday she'r ul uchchovining ibodatxonasida qanday qilib qo'llansin?"

Bu yerda uch xonodon deyilganda Lu podsholigida hokimiyat boshida turgan to'ralar: Meng Sun, Shu Sun va Ji Sunlar nazarda tutilgan. Ular o'z ajdodlariga atab qurbanlik marosimi o'tkazayotganlarida xuddi podsholar kabi tadbir so'ngida "Yo'ng" she'rinu kuylashib qurbanlik buyumlarini yig'ishtirdilar, marosimni yakunlaganlar. Mazkur qismda ham yuqoridagisi singari Lu podsholigida o'sha davrlarda hokimiyat tepasida turgan ma'murlarning "lii" udumlarini buzganliklari haqida gap ketadi. Bunday "lii"da haddan oshishdek qilmishlar Konfutsiuning g'azabini keltirgan. Odob-axloq qoidalari va taomil ("lii") tuzumiga bo'lgan hurmat-ehtirom hamda ularda me'yordan oshishdek xatti-harakatlarga nisbatan g'azab ifodalaridan ko'rinib turibdiki, "lii" tuzumi masalasiga konfutsiylik nihoyatda jiddiy yondashgan. Osmon o'glining Osmon o'glilik "lii"si, feodallarning feodallik odob-axloq qoidalari va taomillari bor, har kim o'z "lii" qoidalariiga rioya qilsa, shundagina osmon ostida osoyishtalik hukm suradi. Shu sababli "lii" Konfutsiuning siyosiy goyalari sistemasidagi muhim kategoriya hisoblanadi. Yuqoridagi ikki hikmatda "lii" — tuzukka rioya qilmaslik holatlariga tipik misollar keltirilgan. Bu hikmatlar markaziy hokimiyat allaqachonlar o'z nufuzini yo'qotganligidan, jamiyatning parokanda va tartibsiz ahvoldan guvohlik berib turibdi.

O'qiguvchiga yanada tushunarliroq bo'lsin uchun mazkur kitobga she'rning to'liq tarjimasini ham keltirdik.



HALIM

(“Nazmnama • Jouga qasida • Yo’ng”)

Bir zot kelar halim, xushfe'l, benazir,  
Yetib manzil vazmin hamda muhtaram.  
Dastyorlikka faqat beklar shay-hozir,  
Osmon o'g'li salobatli, royish ham.

O, atalgan katta buqa — so'qimlik,  
Menga ko'mak tizmog'imda nazrlik ham.  
O , mo'tabar, xushro'y otam rahmatlik,  
Qobil o'g'lin qilar ko'nglin xotirjam.

Oqilligi tatir yurtga — donishmand,  
O'tkir qalam, harb ilmida ham sulton.  
Saodati Haq amriga rost-payvand,  
Avlodlari kelajagi farovon.

Tilar har nav saodatim, chun tole yor,  
Berib taskin, uzoq umr-la siylagay.  
Ki qahramon buzrukvorim madadkor,  
Ham rahmatli mushfiq onam qo'lllagay!

Mazkur she'r podsho U (U-vang) otasi podsho Ven (Ven-vang) sharafiga nazr-chiroq (ya'ni qurbanlik) marosimi o'tkazayotgandagi kuy-qo'shiqdir. She'rda nazr-chiroq marosimidagi holat tasvirlangan, podsho Venning axloq-fazilati va buyuk xizmatlari madh etilgan, shuning bilan birga podsho Venning osmondagi ruhi uning avlodlarini qo'llab turishidan umidvorlik hissi bilan yo'g'rilgan.

\*\*\*

Ustoz dedilar: “Kishida rahmdillik fazilati bo'lmasa, adab (odob-axloq me'yorlari va taomil)ning unga nima ma'nisi bor? Kishida rahmdillik bo'lmasa, kuydan unga nima ma'ni?”

Mazkur hikmatda Konfutsiy “lii” (odob-axloq me'yorlari va taomil), kuy va rahmdillikni muhokamaga qo'ygan. Bu yerda “lii” va kuy bir qatorga tizilgan, aslida

kuy ham “lii”ning bir turidir. Musiqa odamlarning o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ularini izhor etishning bir shaklidir. Qadimgi Xitoyda u etika va taomilning ajralmas bir qismi bo‘lgan. Kuyni himoya qilish “lii”ni himoya qilish uchundir. Konfutsiy fikrini aniq-ravshan bayon qilmoqda. Eng asosiysi inson har ishni qalban ado etishi kerak, yo‘qsa u soxtadir. Kuy-qo‘sish inson ruhiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kishilarni ezgulikka chorlaydigan yurakdan ijro etilgan kuy-qo‘sishqlargina haqiqiydir. Odob-axloq qoidalar va taomil ham xuddi shunday: uning mohiyati kattalarni hurmat qilish, kichiklarni sevishni kishilarga o‘rgatish, o‘zimizning go‘zal fazilatlarimizni tarbiyat qilishdir. O‘zbek xalq maqolida aytilganidek: “Kattaga – hurmatda, kichikka – izzatda” bo‘lishlik insonparvarlikning asosidir. Agar odamlarning qalbida rahmdillik bo‘lmasi, odob-axloq me’yori va taomil hamda kuy buziladi, avvalgi xususiyatlarini yo‘qotadi, ya’ni odamlarning hirsu nafslari tomonidan bulg‘anadi.

\*\*\*

Lin Fang odob-axloq me’yori va taomil (“lii”)ning mohiyati nimada ekanligini so‘raganida, Ustoz shunday javob qildilar: “Bu savol naqadar beqiyos ahamiyatga ega-ya! Odob-axloq me’yori va taomil isrofgarchilikdan ko‘ra tejamkorlikni afzal bilishlikdir; dafn marosimida dabdabalilikdan ko‘ra chin dildan motam tutmoqlikning afzalligidadir”.

Lin Fang – hurmatli nomlari Zi-shang, Lu podsholigidan, ba’zilar uni Konfutsiyning shogirdi deb hisoblashadi. Biroq “Tarixiy solnomalar”ning “Jo‘ngni shogirdlarining tarjimayi hollari” bobida uning nomi keltirilmagan, shu boisdan boshqalar uning Konfutsiyning shogirdi ekanligi haqidagi fikrga qo‘silmaydilar.

“Lii”, butun mamlakat miqyosida olib qaraydigan bo‘lsak, asosiy qonun, tuzukdir, etika va rasm-rusumlar ham uning ichida. U har bir fuqaro uchun, ma’lum bir guruh uchun ham va hamma uchun umumiylardan alohida xususiyatlarga ega. Misol uchun, “kattaga – hurmat, kichikka – muhabbat” hamma uchun barobar, ya’ni umumiyyidir; “Sakkiz saf” raqsi esa taomilga ko‘ra podsholar uchun, ya’ni alohidadir.

\*\*\*

Ustoz dedilar: “Yi-di ajnabiylar yurtida garchi hokimi mutlaq bo‘lsa-da, Xuasya podshosiz qolganchalik bo‘lolmaydi”.





Yi-di – qadimda O'rta Tekislik (Jo'ngyuan) hududida yashovchi kishilar atrofdagi yerlarni qisqartirib shunday atashgan; yi – Xitoy sharqida yashagan qadimgi millat, di – Xitoy shimolida yashagan qadimgi millat. Yi-di hududi madaniy jihatdan anchayin qoloq bo'lgan.

Xuasya – qadimgi Xitoyning nomlanishi, asl manbada "Butun Sya" deb keltirilgan. Butun Sya – qadimgi O'rta Tekislik hududidagi Xuasya urug'i o'zlarini shunday atashgan.

\*\*\*

Yao dedi: "Eh! Shun, Falak gardishi sening gardaningga tushmoqda. Uni idora etishda Haq Yo'li (adolat)da sobitqadam bo'lgin. Agar to'rt dengiz oralig'i (Osmon osti, el)ni qashshoqlik qurshab olgudek bo'lsa, Osmon (Tangri)ning siylovi abadiy to'xtagay".

Shun ham ushbu so'zlardan Yuni ogoh etgan edi.

(Cheng Tang shunday) dedilarki: "Men – haqiru notavon Lyu, qora buqa qurbanlik qilishga botinib, buyuk Osmon hukmdoriga ochiq arzi hol qilishga jur'at etdim: gunohkorlarni o'zboshimchalik bilan afv etishga haddim sig'mas, Osmon hukmdorining xizmatkorlarini esa yashirishga botinolmasman, barchasi Osmon hukmdorining qalbida tanlanur. Mabodo mening o'zim gunohkor bo'lsam, tabaa (fuqaro)larimni bunga tortmagin (sherik qilmagin); bordi-yu ular gunoh qilib qo'ysalar, javobgarlik mening gardanimdadir".

Jouni Osmon hukmdori mukofotlar bilan siyladi, yaxshi odamlarning davlatlari ziyoda bo'ldi. (Jou Vu Vang) dedilarki: "Garchi Jou podsholik urug'idan yaqin qarindoshlar bo'lsa ham, mening rahmdil (yaxshi fazilatlarga ega) kishilarimga arzimaydi. Xalqimdan gunoh-xatolik o'tsa, javobgarligi bir o'zimning bo'ynimdadir". U (Jou Vu Vang) qadoqtosh-o'lchov asboblariga jiddiy e'tibor berdi, qonunchilik tizimini sinchiklab ko'rib chiqdi va mustahkamladi, bekor qilingan lavozimlarni qayta tikladi, amru farmonlarini chor tarafda hamma qabul qildi. (U) zavol topgan mamlakatni tikladi, uzilib qolgan shajarani yana davom ettirdi, go'shanishin arboblarni martabaga ko'tardi, osmon ostidagi xalq ham unga sidqidildan itoat etdi.

Xalqqa, uning oshlig'iga, motam hamda qurbanlik marosimlariga alohida e'tibor qaratmoq kerak. (Agar shoh) oliyhimmat bo'lsa, xalqni o'ziga moyil qilishga erishgay; diyonatli bo'lsa, xalq ishonchini qozongay; ziyrak bo'lsa, buyuk jasoratlar ko'rsatgay; adolatli bo'lsa, xalq bundan mamnun bo'lgay.

Oqsoqol Yao – qadimgi Xitoy afsonalaridagi donishmand podsho, “besh podsho”dan biri. Ularning birinchisi Xuang-di (Huang-di), ya’ni Suan Yuan-shi (Xuan Yuan-shi) bo’lib, afsonaga ko’ra, Xitoydagи dastlabki qabilalar ittifoqining boshlig’i bo’lgan, Yan-di va Chi Yoularni yengib, Jo’ngyuhan (O’rta Tekislik) hududini birlashtirgan. Jo’ngyuanga Xuangxe – Sariq daryoning o’rtta va quyi oqimidagi yerlar, shu jumladan, Xenan o’lkasining katta hududlari, Shando’ng o’lkasining g’arbiy qismi va Xebey, Shansi o’lkalarining janubi kirgan. Uning rafiqasi Ley (Lei) ipak qurtini boqishni – pillachilikni kashf qilgan deyiladi. Shuningdek, Xuang-dining Sang Je (Cang Jie) ismli solnomachisi ham bo’lgan, unga xitoy iyerogliflarning ijodkori deya nisbat beriladi, ehtimol, qadimda iyerogliflarni tartibga solgan ramziy bir shaxs bo’lishi mumkin.

Ikkinchisi Juan Syu (Zhuan Xu), uchinchisi Di Ku, to’rtinchisi Tang Yao (ya’ni Yao oqsoqol, ism oldidagi Tang – u tuzgan afsonaviy sulola nomi), beshinchisi Yu Shundir (Shun oqsoqol, ism oldidagi Yu – u tomonidan tuzilgan afsonaviy sulola nomi).

Afsonalarda aytishicha, Yao Tang nomli sulola tuzgan. “Muhokama va bayon”da Konfutsiy Yao, Shun va Yu podshohlarning nomlarini bot-bot tilga oladi, ularni ibrat qilib ko’rsatadi. Yao taxtni Shunga in’om qilgan.

Oqsoqol Shun – afsonalarda keltirilgan eng qadimgi podshohning ismi, aytishlaricha, Yu nomli sulola tuzgan. Rivoyatlarga qaraganda, Jyuyishan tog’iga dafn etilgan. Mazkur tog’ hozirgi Xunan o’lkasi Ningyuan nohiyasi janubida joylashgan bo’lib, “jyu” “to’qqiz”, “shan” “tog” degani, chunki tog’da bir-biriga o’xshash to’qqizta cho’qqi mavjud.

“Falak gardishi” – taqdir, tole, taqdirning taqozosi, nasiba. Xitoychadan so’zmaso’z tarjima qilib izohlaganda “oyu quyosh, yulduzlar va kunning aylanish qonuni” degan ma’noni anglatadi, bu yerda taqdir, shuningdek, o’z navbatida “Osmon (Tangri) tomonidan o’rnatilib meros bo’lib o’tgan hokimiyat”ga ishora.

Yu – Sya sulolasi (eramizdan avvalgi XXII asr oxiri–XXI asr boshlaridan to XVII asr boshlarigacha) asoschisi. Aytishlaricha, Yu suv toshqinlarini bartaraf etib, uni izga sola olgan.

Cheng Tang – Shang sulolasi (mil. avv. XVII — mil. avv. XI asrlar) asoschisi, ismi Lyu.

Jou U-Vang og’irlik o’lchov sistemasini birlashtirgan, ularni butun mamlakat bo’ylab teng va keng joriy qildi, ya’ni mamlakatning hamma yerida birdek qo’llanilishiga erishgan. Qonunlarni mustahkamladi, bu o’rinda qonun deganda “lii” tuzumi nazarda tutilmoxda. Yangi konfutsiychilik oqimining asoschisilaridan Ju Si o’zining “Jiju” (“Jizhu”–“To’plamga sharhlar”) kitobida keltirishicha: “Odob-taomil va kuy (lii)

tuzumi-barchasi birdek". Bekor qilingan lavozimlarni qayta tikladi, haqiqiy iste'dod sohiblarini izlab topib ularni martabalarga ko'tardi. Liu Bao Nanning "Adolat" asari "To'rt kitobni takrorlab" bobida shunday deb yozadi: "Lavozim bo'lsa-yu, unga yarasha amaldor bo'lmasa, amaldor bo'lsa-yu, uni munosib lavozimga ko'tarmaslik — barchasi hayfdir".

Mazkur muhokama, aytish mumkinki, "Muhokama va bayon"dagi Konfutsiyning elni idora etish, osmon osti tinchligi borasidagi g'oyalarini umamlashtirib xulosa yasaydi. O'tmishdan ideal shaxs izlash barcha davrlarda mavjud bo'lib keldi. Misol uchun, Sharq adabiyotida Hotam nomi saxiylik timsoli bo'lib qolgan; voqeanolmalarda Anushiravon (No'shiravon) adolat timsoli sifatida zamon shohlariga ibrat qilib ko'rsatilgan. Firdavsiy "Shohnoma"da Jamshidning o'g'li Faridunni adolatli shoh obrazida talqin etadi. Bu borada bobomiz Alisher Navoiy ham benazir asarlar yaratdi. Lekin bu o'rinda Konfutsiyni, ba'zi bирyoqlama tadqiqotchilar nazarda tutganidek, konservativizm tarafdoi deyolmaymiz, chunki donishmand o'tmishdagi faqatgina arzirli, ibratomuz jihatlaridangina o'mak olishga, o'rganish-o'zlashtirishga, xatolardan saboq chiqarishga chaqiradi.

"Temur tuzuklari"da bobomiz Sohibqiron Amir Temur o'z amaliyotidan kelib chiqib saltanatni boshqarishning o'n ikki tuzugini keltiradilar. Jumladan, oltinchi tuzukda shunday deyiladi: "... adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in'omlar ulashdim". Bundan ayon bo'ladiki, Amir Temur saltanatni adolat tug'i ostida idora etgan, unga aslo xiloslik qilmagan: "Kuch — adolatdadir!" Mazkur parcha quyida keladigan navbatdagi hikmat mazmunini ham shohona satrlar bilan bezaydi. Zero, unda ham muruvvat, oliyhimmatilik, kamtarinlik haqida so'z ketadi.

Shaxy Abdurahmon Jomiy hazratlari o'zlarining "Bahoriston" (forsiyidan Sh. Shomuhamedov tarjimas) nomli asarlarida shunday hikoyat keltiradilar: "Ibn Muqaffa shunday hikoya qiladi:

"Hind donishmandlari yozgan kitoblar yuz tuyaga yuk bo'ldi. Ular podshosi qisqartirishni talab qildi, ular ikki tuya yukiga keltirdilar; yana qisqartirilsin dedi, bari to'rt kalimaga keltirildi. Birinchi kalima podsholarni adolatga chaqirar edi.

Agar podsho ishi bo'lsa adolat,  
Katta-kichik hayotinda farog'at.



Dili vayron yig'lar sina chok,  
Demak, unga zulm qilmish bir nopoq.  
Gar zamona ofatlari balodir,  
Faqat podsho adolati davodir.


Ikkinci kalima yaxshilik qilish va shoh farmonlarini bajarish haqida raiyatga nasihat edi.

Shoh zulmi tuxmidan xalq ichra doim qo'zg'alon,  
Bug'doy olmish qay kishi shudgorga sochib arpa don".  
(“Bahoriston”, Toshkent: “Yozuvchi”, 1997-yil; 13-bet)

Demakki, Amir Temur, Konfutsiy va Jomiy hazratlarining fikrlari bir yerdan chiqmoqda: podsho adolatni shior qilib olsa, bu yo'lida sobitqadam bo'lsa, sultanatda osoyishtalik hukm surgay, xalq hayoti farovon bo'lgay, raiyat ham shoh amru farmonlarini mammuniyat bilan kutib olgay. Buning uchun podsho o'zida ezgu insoniy fazilatlarni mujassamlashtirmog'i kerak.

\*\*\*

Zi-jang Konfutsiydan so'rab dedi: "Qanday qilib davlatni muvaffaqiyatli idora etsa bo'ladi?" Ustoz shunday dedilar: "Besh turli go'zal fazilatlarni qadrlab, to'rt xil yaramas odatlarni yo'qotsang, shundagina davlatni muvaffaqiyatli idora etish mumkin". "Besh go'zal fazilat qaysilar?" — deb so'rabdi Zi-jang. Ustoz shunday javob qildilar: "Hukmdor muruvvat ko'rsatayotib isrofgarchilik qilmasa; xalqni mehnatga safarbar qilayotib ularning noroziligiga sabab bo'lmasa; biror orzu-istagi bo'lsa-yu, lek ochko'zlik qilmasa; vazmin-u, biroq takabbur bo'lmasa; salobatli (amr-farmo)-yu, ammo yovuz bo'lmasa". "Muruvvat ko'rsatib, lek isrofgarchilik qilmaslik nima degani?" — deb so'rabdi tolibi Zi-jang. Ustoz dedilar: "Xalqqa biror nafi tegsagina ularga foyda keltirish — muruvvat qilayotib isrofgarlikka yo'l qo'ymaslik shu emasmi?! Xalqni (ularga) asqotib qoladigan yumushlarga qulay fursatini bilib safarbar etsa, kim ham hasrat qilar edi?! Rahmdillikni tilab unga erishsa, bu yerda ochko'zlikka o'rinn bormi?! Kam-ko'pligiga qaramasdan, katta bo'ladimi, kichik bo'ladimi, hatto hukmdor ham hech biriga bepisandlik qilmasa, ayni shu vazmin-u, biroq takabburlik qilmagani emasmi?! Hukmdor libosi va tojini tartibga keltirayotib, viqor-la tursa, haybatidan kishilar hayiqlar (salobati bosar), salobatli, lek yovuz bo'lmaslik shu emasmi?" "To'rt xil yaramas odatlар qaysilar?" —





deb so'rabdi Zi-jang. Ustoz shunday deb javob beribdi: "Ma'rifat ulashmay odamlarni o'ldiraverish vahshiylikdir; ogoh etmay darhol natijani talab qilmoq hovliqmalikdir; amru farmonlarda sustkashlik qilib, biroq ularni ijro etishga qistash muttahamlikdir; shuning singari kishilarga biror narsa berishda ayni fursati kelganda ziqlalik qilish pastkashlikdir".

Mazkur hikmatda Konfutsiy amaldor bo'lib hokimiyat ishlarini yuritishning eng muhim tomonlarini umumlashtirgan. "Besh go'zal fazilat va to'rt yaramas odat" Konfutsiy siyosiy qarashlarining asosini tashkil qiladi. Davlatni idora qilishga bag'ishlangan mazkur hikmat zamirida mo'tadillik konsepsiysi yotibdi, ya'ni hukmdor elni idora qilishda mo'tadillikka amal qilsa, chin ma'nodagi adolat ayni shudir.

Mo'tadillik yuksak darajadgi xattি-harakat mezonidir, u falsafada bayon etilgan eng munosib "daraja"dir. Shuningdek, u ilmiy tilda "muvozanat", "oltin o'rtalik", "murosai madora" ham deyiladi, so'zlashuvda oddiygina qilib "o'rtalik" deyishga odatlanganmiz. Agar hukmdor o'z siyosatida mo'tadillikka amal qilmasa, bu turli illatlarni keltirib chiqaradi. Konfutsiy ana o'shalardan ogohlantirmoqda.

Konfutsiy o'z qarashlarida inson va insoniylik (rahmdillik)ni markaziy o'ringa qo'yadi. Buni yuqoridagi hikmat ham isbotlab turibdi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, insoniy qadriyatlar qadr topgan diyordan fayzu baraka aslo arimaydi. Baloyu ofatlar undan yiroq bo'lgay.

\*\*\*

Ustoz dedi: "Taqdirdan bexabar oljanob bo'lolmaydi; odob-axloq me'yorlari va taomildan bexabar rostlana olmaydi; so'zdan bexabar o'zgalarni tushunmaydi".

Mazkur hikmatda Konfutsiy oljanob insonlarning jamiyatda o'z o'rnini topishlari hamda yashashlarining uch talabini bayon etadi, ular: "taqdirdan xabardorlik", "odob-axloq va taomildan boxabarlik" hamda "so'zdan xabardorlik". Konfutsiyshunoslardan Jin Lyang Nyen "Muhokama va bayon: tarjima va izohlar" kitobida keltirishicha, neokonfutsiychilik oqimi namoyandas Ju Si shunday yozadi: "Bu uchovidan voqif kishida oljanoblik sharti taxtdir".

Taqdir — yozmish, Osmon (Tangri) irodasi; Konfutsiyning nazdida, inson taqdidi Osmon tomonidan belgilanadi, shu boisdan taqdirdi bilmaslik mumkin emas, mabodo bexabar bo'lsalar, bu oljanoblik fazilatiga ziddir. Demakki, taqdirning nimaligin bilmagan kishi haqiqiy oljanob bo'lolmaydi. "Lii" — "Osmon yo'li"ning kishilar

hayotida aks etishi, qad rostlash, jamiyatda mustahkam o'ringa ega bo'lish va yashash asosi.

"Lii", ya'ni odob-axloq me'yorlari va taomilni bilmasa, kishilar bilan bo'lgan munosabatlarda muammolarga duch kelinadi. Hikmatda "so'z" deyilganda o'zgalarning gap-so'zlarini tushuniladi, kishilarning gap-so'zlaridan ularning botiniy jihatlarini ham bilib olsa bo'ladi. Kishilarning so'zlarini farqlay bilish kerak, aks holda, haq-nohaqni, yaxshi-yomonni ajrata olmaydi. Shuningdek, so'zning ma'no-mag'zini anglamasa, zalvorini his qilmasa, unda ko'p kishilarning diliga ozor beradigan bo'ladi.

Konfutsiy mazkur hikmatida ham ezgu insoniy fazilatlarga ega o'z idealidagi olijanob podsho qanday bo'lishi kerakligini uqtiradi, olijanoblik bilan elni idora qilish, saltanat osoyishtaligini saqlashga da'vat etgan. Bundan kelib chiqadiki, Konfutsiy davlatchilik nazariyasi va amaliyoti, siyosatshunoslik, jamiyatshunoslik va boshqa turli ijtimoiy fanlarning nazariyoti va tarixiy taraqqiyotiga samarali hissa qo'shgan. Uning o'gitlari asrlar davomida oddiy xalqdan tortib shohlargacha dasturulamal bo'lib xizmat qilib keldi.

### IKKINCHI QISM

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar uchun bahsdovlashuv a'moli yo'q. Agar bo'lsa, u ham, shubhasiz, o'q-yoy musobaqasidir. Avvali o'zaro takallufla qo'shqo'llab salomlashgach maydonga chiqarlar, bellashuv tamom bo'lgach, tag'in qo'shqo'llab ko'rishibgina maydonni tark etarlar, so'ngra birga hurmat sharobin sipporarlar. Shunday bellashuvgina olijanoblar bahsidir".


\*\*\*

Tolibi Zisya so'rab dedilar:

"Kulgichli yuzlarning tabassumi chiroyli biram,  
Maftunkor ko'zlarning boqishlari jon olur har dam,  
Tag'in oqla oro berib nazokatin boyitmish sanam".

Ustoz, neki ko'zda tutilmish, ushbu uch misra she'rga jo bo'l mish?"

Ustoz shunday javob qildilar: "Surat chizmoq uchun avvali nusxa olinur, so'ngra oq ipak kashta ipi ila chiziq tortilgay". "Unda odob-axloq va navo rahmdillikning keyinidan paydo bo'lurmi?" debdi Zisya. Konfutsiy shunday debdi: "Ey mening tafakkurzehnimga turki bera olguvchi maqomiga sazovor tolibim Bu Shang (Zisya)! Endi sening bilan "Nazmnama"ni muhokama qilsa bo'lur".





\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men Sya sulolasining tuzugi (adab-qoidasi) haqida ishonch bilan so'zlay olaman, lekin Syadan keyingi Chi podsholigining esa tekshirib isbotlashga arzigulik yeri yo'q. Men tag'in Yin sulolasining tuzugi haqida ham so'zlay olaman, lekin Yindan keyingi So'ng podsholigining tekshirib isbotlashga arzirli jihat bo'lma'bdi. Bu Chi va So'ng ikkisida qadimiy kitoblar va oqilfozil kishilarning yetarli emasligi sababidandir. Agar aksincha bo'lganida edi, shubhasiz, uni o'rgangan hamda isbotlab e'tirof etgan bo'lardim".

\*\*\*

Ajdodlarga bag'ishlab qurbanliklar qilinganda go'yo ular buni haqiqatan ham qabul qilgandek. Xudoga atab qurbanlik qilinayotgan mahal Xudo ham xuddi shu yerda hozir. Konfutsiy shunday degan ekan: "Agar kaminaning shaxsan o'zi nazrchiroy (qurbanlik) marosimida ishtirok etmasam, qurbanlik qilganimning qilmaganimdan hech qanday farqi yo'q".

\*\*\*

Dafuto'ralardan biri Vang Sunya so'rab debdi: "Uy homiysi (iloh) Aoga xushomad qilgandan ko'ra o'choqxona homiysi iloh Zaoning ko'nglin ovlagan ma'qul". Bu maqolning ma'nosi ne?" Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Undoq emas. Osmon (Tanri) dilin siyoh etsang (shak keltirsang) gar, toatibodat ham bo'lur besamar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "O'q-yoy mahoratidan bellashganda sharti yoy o'qini mo'yna-nishonni teshib o'tkazishdan bo'lmasin, negaki hammaning kuchi barobar emas. Bu azaldan qolgan qoida axir!"

\*\*\*

Tolib Zigo'ng har oyning birinchi kuni podsho ajdodlari ibodatxonasi (ehromi) da "Birinchi kun xabari" munosabati bilan uyushtiriladigan qurbanlik marosimida bo'g'izlash uchun atab qo'yilgan qo'yni xayf deya, ayab tejab qolmoqchi bo'libdi. Buni eshingan Konfutsiy shunday debdi: "Eh, Tolibim Siya! Sen bir bosh qo'yni ayabsan, men bo'lsam tuzukka (adabtaomilga) kuyamanda".



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Podshoga baholi qudrat odob-axloq me'yorida mulozamat qilish ba'zi kimsalar nazdida laganbardorlikdir".

\*\*\*

Ding Go'ng deganlari: "Podsho amaldorlarni ishga solmog'i, amaldorlar podshoga sidqidildan xizmat qilmoqlari uchun nima qilmoq kerak?" deb so'rabdi. Konfutsiy shunday javob beribdi: "Podsho adab-qoida doirasida amaldorlar xizmatidan foydalansa, amaldorlar ham podshoga sadoqatli bo'lgay".

\*\*\*

Bir safar tolibi Zay Vo'ga tanbeh berib, Konfutsiy shunday degan ekan: "Bo'lgan ishga ortiqcha izoh ne hojat, tamomlangan ishga nasihat qilma, o'tgan ishga salovat".

\*\*\*

Konfutsiy Lu podsholigi usta sozandasiga musiqa ilmi nazariyoti haqida so'zlay turib, shunday degan ekan: "Kuyga solib ijro etilgan jarayonni boshdan kechirish mumkindir. Kuy boshlanishi bilan tinglovchining qalbiga inib, uning ruhiyatiga ko'tarinkilik baxsh etgay; yanada kengaytirib turfa sozlar teng ohang avj pardalarida chalinsa, kuy qanchalar hamohang, qanchalar tiniq va qanchalar yangroq! Musiqa shu taxlit yakun topar".

\*\*\*

Vey podsholigi Yi muzofotining mudofaa ishlari amaldori Konfutsiy bilan ko'rishish ishtiyoqida ekan. Donishmanddan uni qabul qilishlarini so'rab debdi: "Olijanob fozil bir inson bu yerga qadam ranjida qilgan ekan, istiqbollariga bormasam aslo bo'lmaydi". Konfutsiyning (unga) hamroh shogirdlari uni ustozlarining huzuriga boshlab kelibdilar. Boyagi kishi Konfutsiyning yonlaridan chiqqach, uning shogirdlariga qarata shunday debdi: "Taqsirlar, sizlarning ustozlaringiz amalmartabasidan mahrum bo'lganlari qandoq ko'rgilik! Dunyo ni dunning chorasisiz ham zulmatli kunlariga xiyla zamonlar bo'ldi. Ustozlaringiz muduo'yog'och qo'ng'irog'i bo'lib, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otmoq va ezgulikka da'vat etmoq uchun Tangrining o'zl yetkazibdi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Hukmronlik qo'lida bo'lsa-yu, qilcha muruvvat qilolmasa, odob-qoida rioyasida jiddiy va taqvoli bo'lolmasa, a'zaga yo'liqqanda zarracha qayg'urmasa, bundoq kimsalarni ko'rarga qandoq ko'zim bo'lsin?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Rahmdillik bor yerda yashash — juda soz (baxtiyorlikdir). Kishi yashash uchun rahmdillik bor yerni tanlamasa, qandoq qilib dono hisoblansin?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Berahm kimsalar uzoq muddatli muhtojlikda kun kechirolmaydilar, rohatfarog'at ham ularga ko'p tatimas. Rahmdil kishilar rahmdillikdangina qanoatda, oqil kishilar bo'lsa rahmdillikdan naf ko'rgay".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Rahmdil kishilargina xolisonillo yaxshilarni suygay, yomonlardan hazar qilgay".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Agar kimning maqsad-muddaosi rahmdillik bo'lsa, u hargiz yomonlik qilmagay".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Molu dunyo va amalmartaba har kimning xohish-istagidir. Halol yo'llar bilan ularga erishilmas ekan, olijanoblar bunday boylikmartabidan aslo xotir jam bo'lmaslar. Qashshoqli va naslu nasabsizlikdan hamma ham hazar qiladi, agar to'g'ri (halol) tadbirda ulardan xalos bo'linmasa, olijanoblar uchun bu ham xoru zorlikdir, undan qutulolmaslar. Olijanoblar rahmdillikdan voz kechsalar, qandoq obro'-e'tibori bo'lsin? Olijanoblar bir mahallik taom vaqtি bo'lsin (bir lahza ham) rahmdillikdan yuz o'girmaslar; shoshilinchlig'iz fursatlarda ham doimgidek rahmdillik bilan birgadir, sarson-sargardonlikda ham uning bilandir".



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Rahmdillik muhiblarini uchratmaganimda, ehtimolki, berahmlikdan hazar qilguvchi kishilarnida ko'rmagan bo'lardim. Rahmdillik muhibi uchun olamda rahmdillikdan ustun narsa yo'qdir; berahmlik (shafqatsizlik) dan nafratlanguvchi kishi bu savdo o'z boshiga tushib qolmasligi uchun ham undan hazar qiladi. Uzzu kun kuchin rahmdillikka baxshida eta oladigan bormi? Rahmdillik qilgisi boru, lek quvvati yetmagan kishini ko'rmadim. Bo'lsa bordir, sira uchratmadim".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Odamlarning xatolari ham ularning o'zlaridekayricha (turlicha). Kishining yo'l qo'ygan xatosiga qarab ham unda rahmdillik fazilati bor-yo'qligini bilish mumkin".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tongda haqiqatdan xabar topsam, tunda qazo ham rizolidir".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Ilmu tolib tariqat ("dao", Haq yo'l) talabida bo'lsayu, lek juldur libosu g'aribona oshtuzidan or qilsa, bundaylar haqiqatni ular bilan muhokama qilishga arzimaydilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblarning olam haqidagi nuqtayi nazarlari qotib qolmagay, ular johil emaslar, haqqoniyat (adolat)ga muvofiq (oqilonqa) ish tutgaylor".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblarning fikru zikri axloq bilandir, xudbinlar bo'lsa bir go'shai maishat g'amida bo'lgaylar; olijanoblar qonunadolat haqida kuyunar, xudbinlar manfaat deb jon kuydirar".





Ya'ni: "Olijanoblar doim adolat muddaosida, xudbinlar mudom manfaat iddaosidadirlar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Beandisha manfaatparastlik adovatni qo'zg'aydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tuzuk (adabqoida) ixtiyorida elni idora qilishning nima qiyinchiligi bo'lsin. Davlat tuzuk bilan idora qilinmasa, adabqoida haqidagi quruq gapdan nima naf?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Amalmartabasi yo'qligidan emas, layoqatsizlikdan andisha qilmoq kerak. Seni tushunguvchi biror kimsa yo'qligidan kyunavermay, el aro tanitguvchi bir mahorat kasb etmoq ko'yida bo'l".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ey tolibim Zeng Shen! Mening ta'limotim mohiyatini birligina qat'iy tushuncha bilan ipidan ignasigacha oydinlashtirish mumkin". Tolibi Zengzi (Shen): "Haq gap", dedilar. Ustoz chiqib ketishlari bilan boshqa shogirdlar Zengzidan: "Buning ma'nisi nedur?" deb so'raydilar. Zengzi shunday javob beribdi: "Ustoz ta'limoti ayni sadoqat-olihimmatlilikdir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar adolatdan so'zlaydi, xudbinlar esa manfaatin ko'zlaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Fozil kishilarni ko'rganda ibrat ol, fosiqlarga yo'liqqanda es-hushingni yig'ib ol".

Ya'ni: "Oqilga yondosh, nodondan qoch".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Padari buzrukворингиз ва validai muhtaramangiz parvarish-xizmatida, agar ularning noo'rin jihatlarini sezgudek bo'lsangiz, xushmuomalalik bilan e'tirozingizni bildiring; ular chin yurakdan qulog solmagan taqdirda ham, odatdagidek hurmat-ehtiromin joyiga qo'yinglarkim, aslo dilin ranjitmangiz, garchi chekkan mashaqqatingiz malol kelsada, ulardan qilcha zorlanmanglar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ota-onangiz hayotligida olisga safar qilmang; noiloj bo'lsangiz, borar manzilingiz tayin bo'lsin hamda ota-onangiz roziliği bilan yo'lga chiqing".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Otasi vafotidan so'ng ham uzoq yillar ota yo'l-yo'rig'idan og'ishmaganlarni qobil farzand deyish mumkin".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ota-onangizning tabarruk yoshlarini har on yodingizda tutmasangiz bo'lmaydi: bir tomondan ularning uzoq umr ko'rganliklaridan quvoning, yana bir tomondan kun sayin keksayib borayotganliklaridan qayg'uring".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Qadimgilar andishasizlarcha va'da berishni ma'qul topmaganlar, chunki ular uchun lafzida turmaslik isnoddir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "O'z nafsiyi tiyib yanglishganlar nihoyatda ozdir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar oz so'zlar — soz so'zlar, tiliga erk bermas; mehnatda tirishqoq, uddaburon bo'lishadi".



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Axloqi go'zal kishi yolg'izlanib qolmaydi, shubhasiz, unga talpinguvchilar bo'lgay".

\*\*\*

Tolibi Ziyou dedi: "Podshoga hadeb nasihat qilaversang, oqibat xor bo'lasan; do'stingga hadeb dashnom beraversang, do'stga zor bo'lasan".

\*\*\*

Konfutsiy o'z shogirdlaridan biri Go'ngye Chang haqida shunday degan ekan: "Qizimni unga turmushga bersam bo'ladi. Garchi u zindonband qilingan bo'lsa-da, begunohdir". Shuning bilan Konfutsiy qizini Go'ngye Changga uzatgan ekan.

\*\*\*

Konfutsiy yana bir shogirdi Nan Jo'ng haqida so'z ochib, shunday degan ekan: "Davlat siyosati nurafshonligida u amalidan olinib yaroqsizga chiqarilmaydi; davlat siyosati zulmatga cho'mganda ham u jazodan omon qolgay". Shuning bilan Konfutsiy jiyanqizini tolibi Nan Jo'ngga turmushga bergen ekan.

\*\*\*

Konfutsiy tolibi Zijyenga baho berib shunday degan ekan: "O, u olajanob bir kishidir! Agar Lu podsholigida olajanob inson bo'lmanida, u bundayin yuksak fazilatni qaydan olardi?"

\*\*\*

Tolibi Zigo'ng ustozni Konfutsiydan so'rab debdi: "Kamina Si haqida fikringiz qanday?" "Sen bir anjomidishga o'xshaysan", — debdi Konfutsiy. Zigo'ng: "Qandoq idishga?" — deb so'rabdi. Konfutsiy shunday javob beribdi: "(Podsho ajdodlari ibodatxonasidagi oshliq saqlab qo'yiladigan) tabarruk xulyenga".



\*\*\*

“Tolib Yo'ng rahmdilu, ammo so'zga no'noqdir”, debdi bir kishi. Buni eshitgan Konfutsiy shunday degan ekan: “Gapga chechanlikdan ne hojat? Gapdonlik qilib o'zgalarni og'iz ochgani qo'ymasa, kishilarning joniga tekkay. Jang Yo'ng rahmdil deyishga arziydimi yo yo'q — bilmayman, biroq so'zamollikka ne hojat?!”

\*\*\*

Konfutsiy tolibi Chidya Kayni amaldorlikka buyuribdi, tolibi Kay: “Kamina bundoq yumushni hali o'zimga ishonolmayman”, deya rad etibdi. Ustoz buni eshitib tolibining oqilligidan behad quvondilar.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: “Ishongan ta'limotim bu makonda ro'yobga chiqmas. Solga o'tirsamu, dengizga chiqsam, shunda ortimdan, ehtimol, birgina tolibim You ergashmoqqa jur'at topgay”. Tolibi Zilu (You) buni eshitib o'zida yo'q quvonib ketibdi. Ustoz yana qo'shib qo'ydilar: “Ey You! Sening mardliging menikidan oshib tushgay, attang, shundan bo'lak tilga olgulik iqtidoring ham yo'q”.

\*\*\*

Meng Vu Bo' deganlari: “Tolibingiz Ziluni rahmdil desa bo'lurmi?”—deb so'rabdi Konfutsiydan. Ustoz: “Bilmadim”, dedilar. Meng Vu Bo' qayta so'raganlarida ustoz shunday javob qildilar: “Jo'ng You (Zilu)mi, uni ming sonli to'rt otliq arava qo'shinga ega bir katta davlatning harb ishlariga mas'ul etib tayinlasa bo'ladi, lekin unda rahmdillik fazilati boryo'qligiga kelsak, bunt bilmadim”. Meng Vu Bo' tag'in so'radilar: “Toliblaringizdan Jan Chyu qandoq?” Ustoz shunday dedilar: “Chyuga kelsak, uni ming xo'jalikli bir shaharqo'rg'on yoki yuz sonli to'rt otliq arava qo'shinga ega suyurg'oldagi katta qal'akent bosh boshqaruviga tayinlasa bo'ladi. Rahmdillik fazilati haqida hech narsa deyolmayman”. Meng Vu Bo' yana savolga tutdilar: “Go'ngsi Chi qanday?” Ustoz shunday dedilar: “Chiga kelsak, unga marosim libosini kiydirib, saroyda mehmonlarni kutguvchi mehmonog'alikka tayinlasa bo'ladi, U rahmdilmi yo yo'q — buni bilmadim”.





\*\*\*

Konfutsiy tolibi Zigo'ngga dedi: "Sen bilan Yan Xuey, qay birlaring kuchliroq?" Zigo'ng shunday javob beribdi: "Kamina o'zimni birodarim Yan Xuey bilan qiyoslamoqqa haddim sig'mas. Yanmi, birni tinglab, o'nni fahmlagay; kamina bo'lsa birga quloq solib ikkini uqaman, xolos". Buni eshitgan Ustoz mamnun bo'lib shunday dedilar: "Sening unga bas kelolmasliging rost, hatto senu men unga tenglasholmaymiz".

\*\*\*

Tolibi Zay Yu kunduzlari ham uxlар edi. Ustoz shunday dedilar: "Chirigan yog'ochga naqsh solib bo'lmas; go'ngguvala devorni suvab bo'lmas. Zay Yudan tag'inam nega gina qilay?" Ustoz yana dedilar: "Boshda men o'zgalarga nisbatan ularning so'ziga quloq tutibda xatti-harakatlariga ishonardim. Endilikda so'zlarini eshitib, harakatlarini ham kuzatar bo'ldim. Zay Yuning shu qilmishidan so'nggina o'z yondashuvmunosabatimni o'zgartirdim".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Irodasi bukilmas odamni sira uchratmadim". Bir kishi: "Shogirdlaringizdan Shen Cheng shunday kishilardan", deganida, Konfutsiy tag'in shunday dedilar: "Chengmi, uning nafsi har narsani tusaydi, qanday qilib matonatli bo'la olsin?!"

\*\*\*

Tolibi Zigo'ng dedi: "O'zgalar har neniki mening gardanimga zo'rlik bilan yuklashlariga toqatim yo'q, o'zimning ham o'zgalarga zo'ravonlik qilgim yo'q". Buni eshitib Konfutsiy shunday debdi: "Si(Zigo'ng)ya, bu sening qo'lingdan keladigan narsa emasda".

\*\*\*

Tolibi Zigo'ng dedi: "Ustozning ilm-u hikmatin tinglab uqib olish mumkindir, ustoz agar mohiyat va tabiiy qonuniyatdan so'z ochgudek bo'lsalar, quruq quloq osgan bilan anglab bo'lmaydi".



\*\*\*

Tolibi Zilu bir haqiqatdan xabar topsa, uni ro'yobga chiqarmaguncha tag'in boshqasini eshitib qolishdan hayiqib yurgan.

\*\*\*

Tolibi Zigo'ng so'rabdi: "Ko'ng Vengzi nedan "fozil" ("ven") faxriy nomiga loyiq ko'rilmish?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "U uddaburon hamda ilmga shunchalar o'chki, hatto martaba va bilimda o'zidan quyi kishilardan ham so'rab o'rganishdan or qilmagani bois "fozil" maqomini olmishdir".

\*\*\*

Konfutsiy tolibi Zi Changa baho berib, shunday degan ekan: "Unda olijanoblikning to'rt alomatfazilati bor: nihoyati tavozeli fe'latvor sohibi, podshoga hurmat-ehtiromi baland, avomdan muruvvatin darig' tutmas, fuqarolarni odilona ishga sola bilgay".


\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Janobi Yan Ping Jo'ng kishilar bilan do'stlashishga juda mohir, qancha vaqt o'tsa hamki mudom izzat-hurmatda".

\*\*\*

Tolibi Zijang so'rab debdi: "Vaziri a'zam Zi Ven uch bor vaziri a'zamlik lavozimiga tayinlanibdi, kishilar uning suyunganin ko'rmabdilar; uch bor vazifasidan olib tashlansada kishilar uning yuzida g'azab ifodasin ko'rmabdilar. (Har safar) burungi mingyillik siyosatidan vazifasiga yangi kelgan bosh vazirni xabardor etardi. Bu qanday odam?" Konfutsiy: "Sadoqatli deyishga arziydi", debdi. Zijang yana so'rabdi: "Rahmdil hisoblasa bo'lar?" Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Bilmam, uni rahmdil degani bo'larmibo'lmasmi?"

Tolibi Zijang yana so'rabdi: "Dafuto'ra Suyzi o'z Chi podshosining joniga qasd qilib uni o'ldirdi; dafulardan boshqa biri Chen Venzining qirq oti bor edi, barchasidan voz kechdi — kori bo'lmasdi, o'zga bir davlatga bordi, dediki: "Bu yerning vazirlari bizning Suyzi dafu kabi ekan". Shuning bilan bu mamlakatni ham tark etdi va tag'in





boshqa bir podsholikka yetdi, yana dediki: "Bu yerning vazirto'ralarining ham bizning Suyzi dafudan unchalik farqlari yo'q ekan". Shunday qilib u bu podsholikdan ham chiqib ketibdi. Uni qanday odam deyish mumkin?" Konfutsiy shunday debdi: "Pokdomon" (sofdil). Zijang tag'inam: "Rahmdil hisoblasa bo'larmi?" deb so'rabdi. Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Bilmam: rahmdilmi yo yo'q".

\*\*\*

Mirzo Ji Venzi har ishni uch martalab o'ylab, so'ngra unga kirishar edi. Bundan xabar topgan Konfutsiy shunday debdi: "Ikki bora mulohaza yuritsa ham bo'lardi".

\*\*\*

Konfutsiy elma-el kezib yurganda Chen davlatidaligida shunday degan ekan: "Qaytamiz! Ortga qaytamiz! Yurtimning bu navqiron o'g'lonlari, buyuk maqsadlarni diliga tukkan, biroq amalda g'o'ru hafsalasizdir, garchi ajoyib iste'dod sohibi bo'lsalarda, hali o'zlarini tiyishni bilmaydilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Bo' Yi va Shu Chi og'a-ini ikkisining ko'nglida azaldan o'ch-adovat bo'lмаган, shu bois ularga adovat ko'zi bilan qaraydiganlar, tabiiyki, nihoyatda oz".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Kim aytadi Vey Sheng Gaoni rostgo'y odam deb? Bir kishi undan sirka so'rab kirganida, (u o'zida yo'qligin aytmay) qo'shnisidan olib boyagi kishiga keltirib bergen ekan".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tilyog'lamatik, laganbardorlik va sertakallufni Zuo Chyu Ming mirzo isnod deb bilgan, kamina uchun ham isnoddir. Dilida kekadovat saqlaydigan, ko'rinishdan esa o'zgalarga go'yo do'stulfat — bunday ikkiyuzlamalikni Zuo Chyu Ming mirzo isnod deb bilgan, kamina uchun ham isnoddir".

\*\*\*

Tolibi Yan Yuan va tolibi Ji Lu (ya'ni Zilu) yonlarida edi, Konfutsiy shunday dedilar: "Nechun murodingiz haqida so'zlamaysiz?" Zilu dedi: "Men o'zimning otaravam va teri po'stimnimni do'stim bilan o'zaro baham ko'rsam deyman, eskirsada afsus chekmasman". Yan Yuan dedi: "Men o'z ustunliklarim bilan maqtanmaslik va ko'rsatgan xizmatlarimni elga doston qilmaslikni istayman". Tolibi Zilu tag'in dedi: "Taqsirimning murodin eshitmoqqa orzumandmiz?" Ustoz shunday javob qildilar: "Murod-maqсадим shulki, keksalarga huzur-halovat, do'stlarga ishonch, yoshlarga g'amxo'rlik".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Bas! Xatolarini ko'ra olgan va dildan o'zini ayblagan kishini uchratmadim".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "O'n chog'li xonardonli choqqina qishloqchada ham, shubhasiz, sadoqatsamimiyatda meningdek kishi topilgay. Faqat ilmni sevishda menga tenglasholmas, xolos".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tolibim Jang Yo'ngni janubga yuzlantirish joizdir".  
(Ya'ni: "Jo'ng Yo'ng bilim va fazilatda amaldorlikning asosiy talablariga yetishibdur, uni amaldorlikka tayinlash mumkin".)

\*\*\*

Tolibi Jo'ng Go'ng-zi Sang Bo'zi deganlarining qanday odamligini so'rab murojaat etganida, Ustoz shunday dedilar: "Uning soddaligi haqqatirost". Jo'ng Go'ng yana so'radi: "Qo'li mehnatdayu dilda taqvoli, harakatlari oddiyigina, bunday odamlar bilan elni boshqarib ham bo'lmasinmi? Agar ichida har narsaning oddiyosonini ko'zlasa, harakatlari ham g'o'ranoyilarcha bo'lsa, bu haddan ortiq soddalik emasmi?" Ustoz shunday javob qildilar: "Yo'ng, so'zlariningda jon bor".





\*\*\*

Lu begi Lu Ay Go'ng Konfutsiydan so'radi: "Shogirdlaringiz orasida qaysi biri bilimga o'ch?" Konfutsiy javob berib shunday debdi: "Yan Xuey otliq bir shogirdim haqiqiy ilm ixlosmandi edi; u alamini o'zgalardan olmas, bir xatoni takror sodir etmasdi. Baxtga qarshi, umri qisqa ekan, dunyodan yosh o'tib ketdi. Hozir undaylar topilmaydi, ilmin oshirishga ishtiyoqmand kishining qaytib daragin topmadim".

\*\*\*

Tolibi Zixua Chi podsholigiga elchilikka ketganida, tolibi Janzi uning onasi uchun biroz tariq so'rab murojaat qilganida, Konfutsiy: "Bir "fuu" (olti pud) beringlar", debdi. Janzi yana qo'shishlarini iltimos qilganida, Konfutsiy: "Yana bir "yu" (ikki pud) qo'sha qolinglar", debdi. Jangzi tag'inam besh "bing" (o'n olti pud) don beribdi. Buni ko'rgan Konfutsiy shunday debdi: "Zixua Chi podsholigiga jo'nab ketayotganida aravasiga semiz otlar qo'shilgan, o'zining egnida esa harir teri po'stin edi. Men, olijanoblar boy-badavlat kishilarga emas, muhtojlarga yordam qo'lin cho'zadilar, – deb eshitgandim".

\*\*\*

Tolibi Yuan Si Konfutsiy xonadonida bosh ish boshqaruvchi bo'lib xizmat qilar edi. Konfutsiy unga maosh sifatida to'qqiz yuz "dou" (pud) tariqoshliq bersa, tolibi rad etibdi. Buni ko'rgan Konfutsiy shunday debdi: "Rad etma. Olib borginda hamyurtlaringga ulashgin".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Eh, Yan Xuey! Uning qalbi hech vaqt rahmdillik fazilatiga xiloflik qilmagan. Qolganlar bo'lsa ahyon-ahyonda rahmdillikni bir pasga esga oladilar, xolos".

\*\*\*

Ji Kangzi mirzo Konfutsiydan so'rabdi: "Shogirdingiz Jo'ng Youni davlat ishlariga tayinlasa bo'ladimi?" Konfutsiy: "You har ishda qat'iyatli, hukumat ishlariga kelsak, buning unga nima qiyinchiligi bo'lsin?!" debdi. Ji Kangzi yana so'rabdi: "Tolibingiz Si-

chi? Uni davlat ishlariga qo'ysa bo'ladimi?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "Sining zehni juda o'tkir, ishning ko'zini biladi, davlat ishlariga kelsak, buning unga nima qiyinchili bor?!" Ji Kangzi tag'in so'rabdi: "Chyuchi, unga hukumat ishlarini idora qilishni topshirsa bo'ladimi?" "Chyu serqirra iste'dod va mahorat sohibi, hukumat ishlariga kelsak, buning unga nima qiyinchiligi bor?!" deb javob beribdi Konfutsiy.

\*\*\*

Tolibi Bo' Nyu dardga chalinibdi. Konfutsiy uning holidan xabar olgani boribdi. Derazadan qo'l uzatib Bo' Nyuning ilgidan tutib afsus bilan shunday debdi: "Qazoi haq! Taqdiri azal bu! Shunday ajoyib inson bunday dardga yo'liqibdi. Shunday ajoyib bir inson oqibat bu dardga chalinsa-ya!"

\*\*\*

Ustoz dedilar: "Tolibim Yan Xuey munchalar go'zal fazilatli fozil kishi-ya! Bir bambuksavat yemagi, bir cho'michqovoq suviga qanoat qilib tor ko'chali kulbasida yashardi. Boshqalar chidayolmagan faqirlikning g'am-g'ussasida Yan Xuey o'z xushvaqtligin qilcha yo'qotmadi. Munchalar fazlu kamoling, tolibim Yan Xuey!"

\*\*\*


Tolibi Jan Chyu dedi: "Men aslida ustoz ta'limotin xushlamayman emas, balki unga qurbim yetmayotir". Ustoz javoban shunday dedilar: "Modomiki qurbimadoring yetmasligin bahona qilbsan, go'yo yarim yo'lida oyoq-qo'siz (turib) qolbsan. Hozir sen (sustkashlik qilib) o'zingni cheklasang, mutlaqo olg'a yurolmaysan (istiqboling bo'lmaydi)".

\*\*\*

Konfutsiy tolibi Zisyaga nasihat qilib shunday degan ekan: "(Axloq tarbiyasin olgan) olijanoblardek ulamo bo'l, zinhor xudbinnusxa bir bilimdon bo'lib qolma".

\*\*\*

Tolibi Ziyou Vucheng qal'asi hokimi edi. Ustoz undan so'radir: "Sen u yerda biror iste'dodli kishiga yetishdingmi?" Ziyou shunday javob beribdi: "Tantay Myeming ismli bir kishi bor: hech qachon qing'ir yo'lga qadam bosmagan; gar hukumat ishi bilan bo'lmasa, hech qachon (o'z yumushi bilan) mening huzurimga kelmagan".





\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Lu amaldorlaridan Meng Ji Fan o'zini hech maqtamas ekan. (Chi podsholigi bilan bo'lgan urushda o'ng qanot qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab chekinayotganlarida) u asosiy kuchlardan orqada qolib, chekinayotgan qo'shinni ta'qibdan himoya qilibdi. Qal'a darvozasidan kirish oldidan (odamlar uni olqishlab maqtasalar) u kamtarlik bilan otini yengil qamchilab shunday debdi: "Ortda qolib ketganim jur'atimdan emas, hamma balo otimning imillab chopishida".

\*\*\*

Ustoz dedilar: "Agar Ju Tuodek yaxshi notiqlar bo'lmay, aksincha, So'ng podsholining xushsurat bekzodalari bo'lganida bu zamonning balo-qazolaridan omon qolishi qiyin edi".

\*\*\*

Ustoz dedilar: "Kim ham ostona hatlamay tashqariga chiqa oladi? Nечун Haq (rahmdillik va adab) Yo'lidan hech kim yurmaydi?"

\*\*\*

Ustoz dedilar: "Asliyati adabiy iste'dodini bosib tushsa — beo'xshovyovvoyilar xilidandir; adabiy iste'dodi asliyatini yengib qo'ysa — mubolag'aga mukkasidan ketgan saroy solnomachilaridandir. Adabiy iste'dodi va asliyati uyg'unlashgandan so'nggina olijanob bo'loladi".

\*\*\*

Ustoz dedilar: "Insonlarning umrguzaronligi ularning to'g'riligidan; egri kimsalarning ham yashab qolgani bu ularning tolei kulib baloqazolardan saqlanib qolganliklaridan".

\*\*\*



Ustoz shunday dedilar: "Ilmu hunarga sohib bo'lgan uni sevadiganga yetmaydi, ilmu hunarni sevadigan u bilan mashg'ulligidan dili shod bo'lguvchiga yetmaydi".

\*\*\*

Ustoz dedilar: "Aqliy salohiyatda o'rtahol kishilarga ilmu hikmatdan chuqur saboq berish mumkin; o'rtahol saviyadan quyi – kaltabin kimsalarga chuqur bilim berib bo'lmaydi".

\*\*\*

Fan Chi degan kishi: "Nima qilsagina dono hisoblanadi?" deya so'raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Bor aqlu kuchingni ishga solib elni haq (to'g'ri) yo'lga boshlay olsang, xudo va jinlar masalasida izzating barobarida masofa saqlay (mo'tadil bo'la) olsang, donolik ayni shudir". Fan Chi tag'in so'rabdi: "Qanday qilib rahmdil bo'la olish mumkin?" Konfutsiy javob berib debdi: "Rahmdil inson mashaqqat deganda hammadan oldinda, foydasiga kelganda hammadan keyindadir, shundaylarni rahmdil deydilar".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Donolar suv (daryo)ni yaxshi ko'radilar, rahmdillar – tog'ni. Donolar doimo harakatda, rahmdillar hamisha xotirjam (bosiq). Donolarning vaqtı chog'dir, rahmdil kishilarning umri uzoq bo'lar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Chi podsholigida bir islohot bo'lsa, Lu podsholigining darajasiga yetar. Luda islohot bo'lsa, marhum donishmand podsholar yuritgan rahmdil siyosat yo'liga muvofiq kelgay".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Jom gar jomga o'xshamas, uning jomligi qolurmi? Tag'in jom bo'lurmi?"





\*\*\*

"Agar kimdir rahmdil kishiga: "Bir rahmdil inson quduqqa tushib ketibdi", desa, u ham ketidan quduqqa sakraydimi?" – deb so'rabdi tolibi Zay Vo'. Konfutsiy shunday javob beribdi: "Nega bunday qilishi kerak? Olijanob inson bir iloj qilib quduqdagi kishini qutqaradi, aslo uni chohga itarmaydi. Olijanoblar aldanishi mumkindir, ammo sarosimaga berilmaydilar".

\*\*\*

Ustoz dedilar: "Olijanoblar barcha mumtoz adabiy ilmlarni keng doirada o'qib-o'zlashturib, odobqoida bilan o'zlarini tiyib tursalar, olijanoblikka xiyonat qilmagan bo'ladilar".

\*\*\*

Konfutsiyning Vey podsholigi malikasi Nanzi xonim iltimosiga ko'ra, uning huzurlariga ketayotganini eshitgan tolibi Zilu bundan ranjigandek bo'libdi. Konfutsiy (osmonga ishora qilib) qasam ichib debdi: "Gar nojo'ya ish qilgudek bo'lsam, Osmon (Xudo)ning g'azabiga duchor bo'lay! Osmonning g'azabiga yo'liqay!"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Mo'tadillik ham bir turli axloq bo'lib, eng yuksagi desa ham bo'lur. Biroq odamlarda bunday fazilat kamyob bo'lib qolganiga ancha zamonlar bo'ldi".

\*\*\*

Tolibi Zigo'ng dedi: "Bir kishi himmat kamarin bog'lab, xalqqa keng ko'lamda iltifot ko'rsatib yordam qo'lin cho'za qandoq? Chin ma'nodagi rahmdil(lik) deyish mumkindir?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "Qanday rahmdillik bo'lsin, shubha yo'qli, bu donishmandlikdir! Yao va Shun oqsoqollarning, ehtimolki, arang shunga qurbilari yetgandir. Rahmdillik, bu — hayotda o'zi erishmoqchi bo'lganiga baayni o'zgalar ham tuyassar bo'lishlari uchun ulardan yordamin ayamaslik; o'zining aqli bokamolini o'ylagani holda o'zgalarning ham ma'nan yuksalishi haqida qayg'urishdir. Ayni zamon o'zgalarga jonkuyarlik, o'zini boshqalarning o'rniga qo'yib ko'rib mulohaza yuritishlik rahmdillikni ro'yobga chiqarishning chorai a'moli deyish mumkin".



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "An'analarga vorislik qilib, o'zboshimchalik bilan yangilarini yaratib olmay, qadimiyl madaniyatga mehr qo'yib e'tiqod qilishda, kamina o'zimni yeng ichida Yin (In) sulolasi zamonidagi a'yonlardan biri Lao Pengga qiyos qilaman".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ko'rgan-eshitganlarini unutmaslik, qunt bilan ilm olishdan to'ymaslik, boshqalarga o'rgatishdan charchamaslik va xunob bo'lmaslik — men bularning qay birini qila oldim?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Axloqfazilatini tarbiyalamaslik, bilimin mustahkamlab o'rgatishga sa'yharakat qilmaslik,adolat qarshisida sustkashlik qilishlik, xatosini tuzatmoqqa jur'at topolmaslik — ayni shular meni tashvishga soladida".

\*\*\*

Ustoz Konfutsiy uyida yumushdan xoli bo'lganlarida ko'rinishdan bamaylixotir, ochiq yuz xushfe'l inson edilar.

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Qartayib kuch-quvvatdan qoldimku! Jou Go'ngni qaytib tush ko'maganimga xiyla zamonlar bo'ldi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Iroda tariqatda ("dao"da), asosi fazilatda, tayanchi rahmdillikda, ko'ngil xushligi ilmu hunar san'atda bo'lishi kerak".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Shogirdlarimga ta'limtarbiya berishda, ular fikr yuritmoqchi bo'lishsa, tag'inam aqli yetmay qolgan fursat kelmagunicha tushuncha (turtki) bermay





sabr qildim; so'zlamoqchi bo'lishsa, tag'inam aniqtiniq ifodalab berolmay qolgan fursat kelmaguncha aql o'rgatmay turdim. Masalaning bir uchini chiqarsamu, shunda ham boshqa uch jihatini fahmlay olmasa, undaylarga qayta o'rgatishning hojati yo'q".

\*\*\*

Ustoz Konfutsiy azador kishi yonida hech vaqt taomdan to'yib tanovul qilmas edilar.

\*\*\*

Konfutsiy qaysi bir motam kuni yig'lagan bo'lsa, o'sha kun kuylamas edilar.

\*\*\*

Konfutsiy tolibi Yan Yuanga shunday dedi: "Asqotib qolgudek bo'lsam, o'z g'oyalarimni hayotga tadbiq qillardim; foydam tegmasa, xilvatga chekinib osoyishta hayotimni kechiraman. Faqat men va sengina shundaymiz, xolos". Bir chetda turgan tolibi Zilu so'rabdi: "Agar siz uch qo'shin bosh qo'mondoni bo'lib, jang qilishingizga to'g'ri kelsa, kim bilan hamkorlik qilgan bo'lardingiz?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "Quruq qo'lida yo'lbars bilan olishmoqchi, yalang oyoq katta daryodan kechib o'tmoqchi bo'lgan, shu qilmishi tufayli o'lib-netib ketishdan pushaymon ham bo'lmaydigan odamlar bilan kengashib ish qilmagayman. Men hamkorlik qiladigan kishi, albatta, har bir ishda ehtiyotkor, tadbirli bo'lmos'i kerak".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Agar molu dunyo tilab ketidan quvib yetib bo'lganida edi, yugurdak qamchindor og'alikni men ham qilgan bo'la olardim. Magar tilab topgani bo'lmas ekan, unda o'zim sevgan ishimni qilaveraman".

\*\*\*

Konfutsiy ehtiyotkorlik bilan qaragan narsalar uchtadir: parhez, urush va xastalik.

\*\*\*

Jan You degan bir kishi: "Ustoz Vey podshosini qo'llaydilarmi?" – deb so'rabdi. Tolibi Zigo'ng: "Xo'p, yaxshi, men u kishidan borib so'raychi", deya ichkaraga kirgach, shunday deb so'rabdi: "Bo' Yi va Shu Chi qanday odamlar edi?" "Qadimgi fozil kishilardan edi", debdi Konfutsiy. Zigo'ng tag'in so'rabdi: "Ularning ko'nglida hech afsus-nadomat (xusumat) bo'lganmi?" Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Ular yakdillik bilan rahmdillik fazilatiga intilganlar hamda rahmdillikka noil bo'lganlar. Qanday qilib tag'in nadomat bo'lsin?" Zigo'ng tashqariga chiqib, haligi kishiga: "Hazratim Vey podshosi (ota-o'g'il o'rtaсидаги тоju taxt talashuvi)ni aslo qo'llab-quvvatlamaydilar", debdi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Yegani qora non, ichgani quruq suv, bilagin qayirib yostiq qilib yotsa — gar bilsang, huzur-halovat bor ayni shunda ham. Nohaq erishilgan boylik-martaba esa xuddi osmondag'i o'tkinchi bulut kabidir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Umrim uzayib, bir necha yil ortiq yashay yolsam, ellik yoshimda "Folnoma" ("O'zgarishlar")ni o'rghanardim, shunda katta xatolarim bo'lmasmidi".

\*\*\*

Konfutsiy ba'zan "nafis til"da so'zlar edi, "Nazmnama", "Nasrnoma"larni mutoala qilgan chog'lari va marosim tartiblarini (rasm-rusumni) ijro qilishda hamma vaqt "nafis til"da so'zlardi.

\*\*\*

She nomli muzofot hokimi Zi Gao otliq kishi tolibi Ziludan Konfutsiyning qanday odam ekanligini so'raganida, Zilu javob qaytarmagan ekan. Bundan xabar topgan Ustoz tolibi Ziluga shunday debdi: "Sen nega mana bunday demading: ular (Ustoz) shunday kishiki, ilmga berilganlaridan taomni ham unutib qo'yadilar; qalbi quvonganida g'am-anduhni unutadilar; hatto o'zlarining qarib munkillab qolayozganlaridan ham bexabar. Shugina, xolos".





\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men ham bilimdon bo'lib tug'ilмаганман, qадим маданиятга mehr qo'yган, qunt va tuyg'unlik ila ilм olгuvchi kishiman".

\*\*\*

Konfutsiy g'aroyibot, zo'ravonlik, isyon va g'oyibiy (ilohiy) narsalar haqida suhbatlashmasdi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Uch yo'lovchi orasida menga ustoz bo'lg'udek biri topiladi: uning a'lo tomonlarini saralab o'rnak olsam, kamchiliklaridan ham saboq chiqarib, xatolarimni tuzatgum".

\*\*\*

"Arshi a'lordan menga shunday fazilatlar ato qilingan ekan, raqibim Xuan Tuy deganlari menga nima ham qilolardi?!" degan edi Konfutsiy.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Shogirdlarim, sizlarningcha, men nimanidir sir tutayapmanmi? Mening sizlardan sir saqlaydigan hech vaqoim yo'q! Sizlarga oshkor qilmaydigan hech narsam yo'q axir, ayni shudir mening Ko'ng Chyu (Konfutsiy) bo'lganim!"

\*\*\*

Konfutsiy shogirdlariga to'rt jihatdan ta'limtarbiya bergen: adabiyqomusiy bilim, axloq amaliyoti, samimiy sadoqatmandlik, lafzi halol bo'lishlik.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Donishmandni uchratmadim, olijanob kishini uchratolganimda ham mayli edi". Konfutsiy yana dedi: "Xokisor insonni uchratmadim, qat'iyat ko'rsatib

ma'naviy fazilatlarini, qalbi pokligini saqlab qola olgan pokdomon kishini uchratolsam ham kifoya. Yo'g'ini bor qilib ko'rsatadigan, puch bo'lsa to'q qilib ko'rsatadigan, qashshoq bo'lgan bilan o'zini boy qilib ko'rsatadigan kishilarning ma'naviy fazilatlari (diyonati)ni saqlab qolishlari amri maholdir".

\*\*\*

Konfutsiy baliq tutsa to'r bilan tutmas, qush ovlasa uyasidagi qushni ovlamas edi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "O'zlarini bilimdon qilib ko'rsatadigan nodonlar ham borki, men bundaylar xilidan emasman. Ko'p qulqoq tutdim va eshitganlarim orasidan yaxshilarini tanlab ergashdim; ko'p ko'rdimkuzatdim va esda saqladim. Bunday erishilgan bilim "tug'ma bilimdon"likdan atigi bir pag'ona quyiroqdir".

\*\*\*


Xusyang degan yerlik kishilar bilan til topishish nihoyatda qiyin edi. Konfutsiy o'sha yerlik bir yigitni qabul qilganida, shogirdlari g'oyatda taajjublanishibdi. Konfutsiy shunday debdi: "Men faqat uning taraqqiy etishini qo'llab-quvvatlagayman, tanazzulini aslo ma'qul topmasman. Buning nimasi quyushqondan chiqish? Odamlar qalblarini poklab (yaxshi niyat bilan) tashrif buyursalar, men ham ularning poklanishlariga xayrixohman. (Hadeb uning o'tmishiga yopishib olish yaramaydi.) Uning ertasiga esa men ham kafil bo'lolmayman".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Rahmdillik nahotki bizlardan shunchalik yiroq bo'lsa? Rahmdillikni chin dildan istasak, uning o'zi darhol yetib kelgay".

\*\*\*

Kunlarning birida Konfutsiy shunday degan ekan: "Men naqadar baxtliman-a! Agar xato qilgudek bo'lsam, o'zgalar darrov bilib oladilar".



\*\*\*

Konfutsiy biror kishi bilan qo'shiq aytса, agar o'sha kishi rosa maromida kuylasa, albatta, undan yana kuylab berishini so'rardi, so'ngra o'zi ham u kishining ohangiga ergashib xirgoyi qilardi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Adabiy bilimlarda mening o'zgalardan deyarli unchalik farqim yo'q. O'z tajribasidan o'tkazib, bor kuchi bilan amalda ko'rsatadigan olijanob bo'lishga kelsak, bu oliy maqomga men hanuz erisholganimcha yo'q".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Donishmand va rahmdil kishilar haqida so'z ochilsa, mening bunday atalishga aslo haddim sig'maydi. Biroq ilm olishdan bezor bo'lmaydigan, o'zgalarga ta'lim-tarbiya berishdan charchamaydigan kishiman, xolos". Buni eshitgan tolibi Go'ng Sixua shunday debdi: "Tolib bo'lib hanuz o'rganolmaganimiz ham ayni mana shudir!"

\*\*\*

Konfutsiy og'ir betob bo'lib qolganida, tolibi Zilu ibodat qilishlarini o'tinib so'rabi. Konfutsiy: "Shunday ishlar ham bo'lurmi?" debdi. Zilu javob berib debdi: "Shundoq, Ustoz. Axir "Ta'ziyanoma"da aytilganki: "Sening uchun Osmon va Yer ilohlariga ibodat qilaman!" Buni eshitgan Konfutsiy shunday debdi: "Ko'ng Chyu (Konfutsiy) juda uzoq ibodat qilgan".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ortiqcha zebu ziynat va isrofgarchilik kishini kibru havoga burkaydi; tejamkorlik va sipolik bo'lsa kishini nochor-notavon ko'rsatishi mumkin. Takabburlikdan ko'ra notavon ko'rinishlik afzalroqdir".

\*\*\*



Konfutsiy dedi: "Olijanoblar bag'rikeng bo'lar, tor ko'ngilli xudbinlar esa hasratda kuyar".

\*\*\*

Konfutsiy tabiatan xushfe'l bo'lishi bilan birga talabchan, salobatli hamda muloyim, xokisor va vazmin kishi edilar.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Bek Tay Bo'ni axloq-fazilatda yuksak maqomga yetgan deyish mumkin. U uch bora sultanat taxtini qo'sh qo'llab kenja inisi Ji Li ixtiyoriga topshirgan ekan. Avom xalq uni vasf etmoqqa munosib so'z topolmay xijolat emish".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Izzat-ikromni kanda qilmaydigan tavozeli va lekin beadab bo'lsa — jafokashdir; ehtiyotkor yashagan bilan va lekin beadab bo'lsa — vohma-quyon yurakdir; dovyurak va ham beadab bo'lsa — serg'alva to'palonchi bo'lib qoladi; rostgo'y va ham beadab bo'lsa — og'uzabon dilozordir. Olijanoblar avvalo o'z yaqinlariga samimiyl, sadoqatli bo'la olishsa, avom ham bundan ruhlanib rahmdilligi uyg'ongay; oljanoblar qadrdon kishilarini esdan chiqarmasa, avom ham sovuqqonbag'ritosh bo'lmagay".

\*\*\*

Og'ir dardga chalinib, o'limi yaqinlashganini sezgan tolibi Zengzi, shogirdlarini yoniga chorlab debdi: "Oyoqlarimga bir qarang! Qo'llarimga boqing! "Nazmnama"da shunday deyilgan: "Ehtiyot bo'l, ehtiyot! Go'yo tubsiz choh labida turgandek! Go'yo omonat muz ustida yurgandek!" Bundan buyon menga ortiq biror ziyon-zahmat yetmasligiga aqlim yetib turibdi, shogirdlarim!"

\*\*\*

Zengzi betob bo'lib qolganida, (siyosiy raqibi) Meng Jingzi otliq kishi undan xabar olgani kelibdi. Zengzi unga shunday degan ekan: "O'layotgan qushning sayrashi mungli-





ayanchli; ajal to'shidagi kishining so'zлari xayrixohlikdir. Olijanoblar hayoti umrida ahamiyat berishi kerak bo'lgan adab masalasi uchtadir: doimo ochiq yuz, samimiy bo'la olsa, o'zgalarning qo'pollik va behurmat qilishlarining oldini olgan bo'ladi; salobatli va vazmin bo'lsa, ishonchga yaqinlashtiradi; so'zu ohangiga hamisha diqqat qilsa, kaltafahm betarbiyalikdan yiroq bo'ladi. Qurbanlik masalasiga kelsak, tabiiyki, marosimlar kotibi bor".

\*\*\*

Zengzi (do'sti Yan Yuanga ishora qilib) shunday debdi: "(Vaqtি kelsa) o'zi iqtidorli bo'la turib salohiyatsiz kishilardan ham maslahat olardi; bilimi teran bo'lsa-da, bilimi sayoz kishilardan maslahat so'rashdan or qilmas edi; ilmli-yu, go'yo ilmsizdek, bilimga limmolim, go'yo ichi bo'shdek; boshqalar uning dilini besabab ranjitsalar ham u bahslashib o'tirmasdi. Bir zamonlar mening shunday do'stim bo'lar edi".

\*\*\*

Zengzi olijanob inson haqida gapirib shunday dedi: "Sag'ir go'dakni uning ixtiyoriga topshirsa bo'ladi; yuz chaqirimli el taqdirini unga ishonib topshirish mumkin; og'ir sinovlarga duch kelganda ham, mamlakatning hayot-mamot masalasi hal bo'ladigan pallada ham irodasini bukmaydi. Bunday odamni olijanob desa bo'ladimi? U, shubhasiz, olijanobdir".

\*\*\*

Zengzi dedi: "Ziyoli odam keng fe'l, metin irodali bo'lmasligi mumkin emas; vazifasi og'ir, yo'li esa olis. Chunki rahmdillikni qaror toptirishni o'zining muqaddas burchvazifasi deb bilar ekan, nahot og'ir bo'lmasin!? So'nggi nafasgacha olg'a intilishdan (niyatidan) qaytmaydi, tag'in olis bo'lmasinmi!?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Nazmnom" xohish-irodamizni ruhlantiradi, odob-axloq mavqeimizni mustahkamlaydi, kuy insoniy fazilatlarni kamolga yetkazadi".  
("She'r — qalb qo'rining qalovi, odob-axloq — mavqe ustuni, kuy — insoniy fazilatlar toblantiruvchisi".)



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Avom xalqni jo'yali ishga sola olish mumkin, biroq nima uchunligini ularga tushuntirish mushkul".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Mardlikni sevib, qashshoqlikdan hazar qilishlik ham bir turli balo; berahmlardan haddan ortiq nafratlanish ham bir baloi ofatdir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Biror kishi Jou hukmdorlaridek ajoyib iqtidor va mahorat sohibi bo'lgan bilan, agar takabbur va baxil bo'lsa, uning qolgan afzalliklari hech vaqoga arzimaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Necha yillar ilm olib, hargiz tariq (amaldor bo'lib mo'maygina maosh) muddaosini qilmagan kishini uchratish amri maholdir".


\*\*\*

Konfutsiy dedi: "E'tiqodni mustahkamlab, qunt bilan ilm olib, jon tikib ezgulikdek ulug' yo'lni qattiq himoya qiling. Xavf-xatarga to'la elga yo'lamang, isyon-xunirezliklar avj olgan elda yashamang. Osmon osti (saltanat) osoyishtaligida yuz ko'rsating, notinchlik hukm surganda xilvatga chekining. Davlatning siyosati charog'onligida qashshoqligi ustiga tag'in haqir bo'lib qolaverish isnotdir; davlat siyosati zulmatga cho'lg'onganida boylik orttirib martabali bo'lib olish ham isnotdir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Vazifangga kirmagan ishga reja qilma".

\*\*\*





Konfutsiy dedi: "Bema'ni va g'ayir, g'o'r va quv niyatli, ko'rinishdangina samimiy lafzida turmaydigan kimsalar, bilmadim, nima uchun shunday ekan".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ilmni tutib olmasa aslo bo'lmaydigandek quvlash, yetishgach esa boy berib qo'yishdangina qo'rqish kerak".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Naqadar olijanoblik! Shun va Yu oqsoqollar butun sultanatga ega bo'lib ham qilcha o'z manfaatlarini ko'zlamabdilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Yu oqsoqol haqida men biror tanqidiy fikr aytishga ojizman. Yemakichmagi nochor bo'lsada, eng yaxshi narsalarni ixlos bilan iloh va ruhlar uchun qurbanlikka atardi. Odatda egnida odmigina ko'ylak, marosimlar chog'ida esa ustida go'zal shohi guldar libosu boshida toj. Turar joyi pastakkina kulbai koshona bo'lsa-da, bor kuchini ariq qazib elu yurt obodligi uchun sarflagan. Shuning uchun oqsoqol Yu to'g'risida tanqidiy so'z aytishga ojizman".

\*\*\*

Ustoz Konfutsiy manfaatdan kamdan-kam so'z ochardilar, taqdir va rahmdillik fazilati haqida suhbat qurishni ma'qur ko'rardilar.

\*\*\*

Bir kishi: "Konfutsiy chindan ham naqadar ulug'a! G'oyat bilimdon bo'lsa-da, biror kasbhunar bilan nom chiqarmagan", debdi. Konfutsiy buni eshitgach, shogirdlariga shunday degan ekan: "Men nimani o'rganay? Aravakashliknimi? Yoxud yoyandozliknimi? Tag'inam aravakashlikni o'rganganim ma'qulmi deyman".

\*\*\*



Konfutsiy to'rt illatdan saqlangan: xomxayollarga berilish (asossiz qiyos qilish), g'arazgo'ynoxolis bo'lish (mutlaq bo'lganni e'tirof etmaslik), o'z fikrida qo'rslik qilib turib olish, faqat o'zinigina haq deb bilish.

\*\*\*

Konfutsiy Kuang degan yerda qurshovda qolganlarida, shunday degan ekan: "Podsho Jou Ven Vang vafotidan so'ng Jou sulolasining madaniyati menda qolmabmidi?! Agar Tangri bu madaniyatning tanazzulini ixtiyor etganida kamina uni egallay olmagan bo'lardim. Modomiki, Tangri bu madaniyatning zavolin istamas ekan, kuangliklar mena nima ham qilolardi?!"

\*\*\*

Tayzay (vazir) tolib Zi Go'ngdan: "Konfutsiy avliyo odammi? U qanday qilib bunchalar serqirra iste'dod sohibi bo'la olgan?" deb so'rabdi. Tolibi Zi Go'ng shunday debdi: "Bu Tangri uni ham avliyo, ham hamma ishga mohir qilib yaratganligidan". Bundan xabar topgan Konfutsiy: "Vazir meni qaydanam bilsin? Men yoshligimda muhtojlikda yashadim, shuning uchun qora mehnat qilib anchagina past kasb-hunarlarini ham egallab oldim. Yuqori martabali olijanoblarda shunchalik hunar nima qilsin?! Unchalik ko'p bo'lmaydiyov!" degan ekan.


\*\*\*

Tolibi Zilao Konfutsiy haqida shunday zikr qiladi: "Ustoz: "Meni amaldorlikka tayinlamagunlaricha burunroq ko'p hunarlarni o'rgandim", degan edi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men bilimlimanmi? Haqiqatan nodonman. Bir dehqon mendan ba'zi bir narsalarni so'raganda, kallam tamoman bo'sh-bo'shdek edi: hech nimani uqmadim. Biroq savolning tafsiloti ham o'ngu so'lini surishsurib bilganimdan so'ng mening beradigan javobim tayin bo'ldi".

\*\*\*





Konfutsiy ham motam va marosim libosidagi hamda ko'zi ojiz kishilarni ko'rganda, ular yosh bo'lsa ham, albatta, o'midan turardi. Ularning qarshisidan o'tayotganda ham , albatta, qadamlarini tezlatardi.

Konfutsiyning asliyatdan tarjima qilingan mazkur "Muhokama va bayon" (yoki "Hikmatlar muhokamasi"— tarjimon) asari memuar, tazkira asar xususiyatlariga ega. Ushbu asar Konfutsiy yashagan zamon haqida batafsilroq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz uchun qimmatli manba hamdir. Unda davr ruhi insonlarning o'zaro munosabatlari va taqdirlari orqali aks ettiriladi. "Muhokama va bayon"— boshdan-oyoq didaktik ruhdagi asar.

\*\*\*

Konfutsiy jyuyi qabilalari yashaydigan yerga ko'chmoqchi bo'lganida, bir kishi: "U yerlar nihoyatda qoloq-ku, qanday yashaysiz?" deb so'rabi. Konfutsiy shunday javob qilgan ekan: "Olijanob kishi ul yerda istiqomat etsa, qoloqlikdan ortiq asar qolarmidi?"

\*\*\*

Konfutsiy daryo qirg'og'ida turib shunday degan ekan: "Vaqt misoli daryo suvidek: kecha-kunduz to'xtamay oqib o'taveradi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men go'zallikni sevgandek axloqni sevadigan kishini uchratmadim".

\*\*\*

Konfutsiy tolibi Yan Xuey haqida gapirayotib, unga baho berib shunday degan ekan: "Attang, u yosh qazo qildi! Men uning to'xtamay faqat olg'a intilganini ko'rdim, aslo to'xtagan fursatini ko'rgan emasman".

\*\*\*



Konfutsiy dedi: "Kishilar bilan munosabatda diyonatli ham samimiy bo'ling, va'daga vafo qiling. Axloq-fazilatda o'zingizdek bo'limgan kishilar bilan do'st bo'limgan. Qilgan xatoingizni tuzatishdan qo'rwmang".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Qo'shin sarkardasini o'zgartirish mumkin, lekin oddiy bir odamni irodasini o'rgartirishga majburlab bo'lmaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Egnida ko'na-yamoq chophonli asl tulki terisidan tikilgan zarbof kiygan kishi bilan birga tursa, hech xijolat bo'lmaydi. Bundaylardan faqat shogirdim Jo'ng You bir o'zi qolgandir, balkim? Xuddi "Nazmnama"da aytilganidek: "Hasad qilmasa, ochko'z bo'lmasa, qandoq yomonligi bo'lsin, axir?" Zilu (Jo'ng You) umr bo'yi bu ikki jumla she'rni yod etib yurdi. Konfutsiy tag'in shunday debdi: "Bu ikki jumla she'rni yodda saqlamoq lozim. Shundoq bo'lsa-yu, tag'inam qanday qilib yaxshilikda bekamu ko'st hisoblanmasin?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Qora qish kelibgina, eng so'ngida qarag'ay (og'ir sinovlarga bardosh berib) barglarini to'kadiganligi bilinadi".


\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Donolarda shubha, rahmdil odamda g'am-g'ussa, mard odamda qo'rquv bo'lmaydi".

\*\*\*

Taom tanovul qilayotgan mahal birov bilan gaplashilmaydi, uxlayotganda ham so'zlanmaydi.

\*\*\*





Yaxshilab solinmagan bo'yra ustida o'tirib bo'lmaydi.

\*\*\*

Konfutsiy o'zga eldag'i do'stiga salom yo'llaganda, salomini yetkazguvchi kishiga ikki marta ta'zim qilib, shundan so'nggina uni yo'lga kuzatar ekan.

\*\*\*

Kunlarning birida qo'tonga o't ketganda, Konfutsiy o'rdaga qaytib kelibdi-yu: "Hech kimga zarar yetmadimi?" deb so'rabdi. Otlar haqida so'z ham ochmabdi.

\*\*\*

Bek Konfutsiyni huzuriga chorlasa, arava tayyor bo'lishini ham kutib o'tirmay, o'zi oldin piyoda yo'lga tushardi.

\*\*\*

Birodari o'lib, oxiratligini bajaradigan kishisi bo'lmasa, Konfutsiy: "Dafn marosimlarini o'zim ado etgum", der ekan.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Avval odob-tuzuklarni o'rganib, so'ngra amaldor bo'lganlar avom xalq orasidan chiqqan kishilardir; avval amaldor bo'lib olib, so'ngra odob-tartiblarni o'rganadiganlar oqsuyak-amaldorlarning farzandlaridir. Agar iste'dodlilarini tanlashga to'g'ri kelsa, men, albatta, avval o'rganib, so'ng amaldor bo'lganlarni tanlardim".

\*\*\*

Konfutsiyning shogirdlari orasida axloqli ham fazilatlilari-da bor edi: Yan Yuan, Min Zichien, J(r)an Bo' Nyu, Jo'ng Go'ng; so'zamol voizlari-da bor edi: Zay Vo', Zi Go'ng; mohir amaldorlari-da bor: J(r)an You, Ji Lu; shuningdek, qadimgi adabiyotlarni puxta egallahsga o'zini baxshida qilganlari ham bor ekan: Zi You, Zi Sya.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Yan Xuey tolibim menga yordam bera olmaydigan kishidir, chunki hikmatlarim orasida bir kalima ham yo'qki, uning ko'ngliga xush yoqmasa".

\*\*\*

Ji Kang Zi ismli bir kishi so'radi: "Toliblaringiz ichida qaysi birining bilimga ishtiyogi zo'r?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "Bir Yan Xuey oqliq tolibim haqiqatan bilim gadosidir. Baxtga qarshi, u qisqa umr ko'rdi. Hozirda uningdek bilim muhiblari qolmadidi".

\*\*\*

Tolibi Zilu: "O'lim qanday hodisot?" deb so'radi. Konfutsiy : "Hayotning mohiyatini tushunmagan odam o'limning ma'nisini qaydan bilsin!?" deb javob beribdi.

\*\*\*

Konfutsiy Kuang degan yerda muhosarada qolganida, tolibi Yan Yuan eng oxiri qochib qutulgan ekan. "Men seni o'lган degan xayolga borib yuribman", debdi uni ko'rgan Konfutsiy. Tolibi Yan Yuan javoban shunday debdi: "Siz hamonki omon-eson ekansiz, mening avval o'lishga qanday haddim sig'sin".

\*\*\*

Sima Nyu degan kishi rahmdillikning nima ekanligini so'raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Rahmdil kishilar andisha qilmay gapirmaydilar". "Demak, nimaiki haqida o'ylamay-netmay so'zlamaslik, bu rahmdillik ekan-da", debdi Sima Nyu. "Rahmdillikka muvofiq ish qilmoq mushkul bo'lsin-u, so'zlaganda ehtiyot bo'lmaydimi?!" deb javob beribdi Konfutsiy.

\*\*\*

Sima Nyu, qanday qilsagina olijanob hisoblasa bo'ladi, deb so'raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Olijanoblar tushkunlik-qayg'uga berilmaydilar, qo'rquv-vahimaga tushmaydilar". Sima Nyu yana so'rabdi: "Qayg'uga botmasa, qo'rquvni





bilmasa, bundaylarni oljanob hisoblasa bo'lar ekan-da?" Ustoz Konfutsiy: "O'zining xatolari ustida o'ylansa, oq ko'ngil bo'lsa, tag'in nimadan ham qayg'urib, nimadan ham hayiqsin?!" degan ekan.

\*\*\*

Bek Chi Jing Go'ng elni qanday idora qilishni so'raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Elni idora qilish uchun podshoh — podshohdek bo'lishi, vazir — vazirdek bo'lishi, ota bo'l mish — otadek, o'g'il — o'g'ildek bo'lishi kerak". Chi Jing Go'ng shunday debdi: "Bu so'zlar nihoyatda to'g'ri aytilgan! Agar podshoh — podshohga o'xshamasa, vazirning vazirlik surobi bo'lmasa, ota — otaga, o'g'il esa o'g'ilga o'xshamasa, garchi yeyarga non-oshlig'im bo'lsa ham, tuz totish nasib qilarmidi?!"

\*\*\*

Lu begi Ji Kang Zi qaroqchi-o'g'rilarining ko'payib ketganidan tashvishga tushib, Konfutsiydan buning biror chorasi so'rabdi. Unga Konfutsiy shunday debdi: "Agar sening o'zing mol-dunyoga o'ch bo'lmasang, marhamatli bo'lsang, hech bir zog' o'g'ri-talonchilikka qo'l urmagay".

\*\*\*

Ji Kang Zi ismli bir kishi Konfutsiydan davlatni qanday idora qilish kerakligini so'rab debdi: "Agar axloqsiz-beburd kimsalarni o'ldirib, axloqli kishilarga yaqinlashsa, qanday bo'ladi?" Konfutsiy unga shunday javob beribdi: "Sen elni idora qilmoqchi bo'lsang, odam o'ldirishning nima keragi bor? Faqat ilojini topib, ezgu amallar bilan davlatni idora qila olsang, avom ham o'z-o'zidan yaxshilanadi, mamlakat obod bo'ladi. Olijanoblarning fazilati bamisli shamol bo'lsa, quyi kishilar (faqiru fuqaro)ning fazilati maysa kabidir: shamol qayoqqa yelpisa, maysa ham o'sha yoqqa og'adi".

\*\*\*

Yan Chi degan bir kishi rahmdillikning nima ekanligini so'raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Rahmdillik, bu ayni boshqalarni sevishdir!" Yan Chi yana: "Oqillik (donishmandlik) nimadir?" deb so'rabdi. "Oqillik, bu ayni odamlarni mohirlik ila

farqlay bilishdir!” deb javob beribdi Konfutsiy. Yan Chi buning ma’nisini tushunmagach, Konfutsiy shunday debdi: “Halol, vijdonli kishilarning mavqeini oshirib, vijdonsiz, razil kimsalar ustiga qo’yilsa, ularni ham insofga chaqirib, diyonatli qila oladi”. Yan Chi chiqib ketgach, Zi Syani uchratib qolib debdi: “Hozirgina Ustozni ko’rdim. Ul zotdan oqillikning nima ekanligini so’ragandim, “Halol, vijdonli kishilarni o’rlatib, noplak, vijdonsizlar ustiga qo’ysa, ularni ham insof-diyonatli qila olur”, dedilar. Buning ma’ni nedir?” Tolibi Zi Sya shunday javob qilibdi: “Bu so’zlar naqadar purma’no! Shun va Tang podshohlar butun saltanatga ega bo’lgach, xalq orasidan salohiyatli kishilarni tanlab olib, ularning martabasin oshiribdi, shunda berahm kimsalar mamlakatni tark etib, olislarga qochibdi, yurtga rahmdil kishilarning qadami qutlug’ kelibdi”.

\*\*\*

Tolibi Zi Go’ng: “Do’stga qanday muomala qilgan ma’qul?” deb so’raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: “Unga chin ko’ngildan nasihat qilgin, sabr-toqat bilan tushuntirgin. U so’zlaringga qulq solmasa ham mayliga, o’zingni haqoratlamagin”.

\*\*\*

Tolibi Zilu elni qanday idora qilishni so’raganida, Konfutsiy: “Avvalo, o’zi bosh-qosh bo’lib, undan so’ng fuqarolarni tirishib ishlashga undamoq kerak”, deb javob beribdi. Zilu ustozi Konfutsiydan bu haqda yanada ko’proq so’zlashni so’raganida, ul zot: “Sustkashlik ham tanballik qilmagin”, dedilar.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: “Hukmdorning o’z fazilati durust bo’lsa, amr etmasa ham, avom xalq ijro qiladi. O’z fazilati nodurust bo’lsa-yu, qattiq amr-u farmon bergen bilan fuqarolar itoat qilmaydilar”.

\*\*\*

Konfutsiy Vey bekligiga borganida, uning ot-aravasini J(r)an You ismli shogirdi haydab boribdi. “Vey bekligida odamlar munchalar ko’p bo’lmasa!” debdi Konfutsiy. Tolibi J(r)an You: “Aholi ko’paygandan keyin nima qilish kerak?” deb so’rabdi. “Ularni davlatmand-farovon qilmoq kerak”, deb javob beribdi Ustoz. Tolibi J(r)an You yana



so'rabdi: "Davlatli ham qildik, so'ngra tag'in nima qilish kerak?" Konfutsiy shunday debdi: "Ularga ta'lif-tarbiya beringlar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Agar kimdir meni elni idora qilishga tayinlasa, bir yildayoq baharnav yangilik kirgizaman, uch yilda, so'zsiz, katta muvaffaqiyatlar qozonaman".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Oq ko'ngil kishi elni yuz yil idora qilsa, jaholatni yo'qotib, o'lim jazosini (jazoyi yasoqni) bekor qiladi. Ushbu gap nihoyatda to'g'ri aytilgan!"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "El-u yurt farovonligini deb shoh bo'lgan kishi o'ttiz yildan so'ng ham rahm-shafqatl siyosat yurgizishi kerak".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "O'zini tarbiya qila olgan kishi uchun elni idora qilishning nima qiyinchiligi bo'lsin? Agar o'zining qilmishini tuzata olmasa, unda o'zgalarning fazilatini qandoq qilib tuzatsin?!"

\*\*\*

Bek Lu Dinggo'ng: "Bir og'iz so'z bilan elni obod qilsa bo'larmish, shundaymi?" deb so'raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Bir og'iz so'zdangina bunchalik ulkan natijalarni umid qilib bo'lmaydi. Odamlar demish: "Bek-xon bo'lmoq qiyin, vazir bo'lmoq ham oson emas". Agar bek bo'lib elni idora qilmoqning qiyinligini bilgan kishi bir og'iz so'z bilan elni obod qilmoq mumkinligiga juda yaqin kelgan bo'lmasmi?" Lu Dinggo'ng yana so'rabdi: "Bir og'iz so'z bilan elni xarob qilmoq mumkin emish, bu qanchalik haqiqatga yaqin?" Konfutsiy shunday javob beribdi: "Bir og'iz so'zning bunchalar dahshatli oqibatlari bor degan g'arazga borish ham yaramaydi. Bir odam demish: "Men o'zimning bek bo'lismidan quvonmay, faqat nima desam, qarshilik qilishiga jur'at topgudek odam ham yo'qligini xursandchilik deb qarayman". Agar so'z

to'g'ri-o'rinali bo'lsa, hech kim unga qarshi chiqmaydi, bu eng yaxshi bo'lgani emasmi? Agar so'z to'g'ri bo'lmasa va hech kim e'tiroz bildirmasa, bu ham bir og'iz so'z bilan elni xarob qilish ehtimoliga yaqin kelgan bo'lmasmi?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblarning qo'l ostida ishlamoq oson, lekin ularning mehrmuhabbatiga noil bo'lmoq mushkul. Muvofig yo'llar bilan uning mehrini qozonmoqning hech hojati yo'q, u buni yoqtirmaydi; odamlarni ishlatishga kelganda, u har kimning kuch-iqtidoriga qarab vazifasiga qo'yadi. Xudbinlarning qo'l ostida ishlamoq juda qiyin bo'lsa ham, ularga yoqish xamirdan qil sug'urgudek. To'g'ri yo'l bilan emas, bir noma'qulchilik qilib ham ko'ngliga yoqib, uni xursand qilsa bo'ladi; odamlarni ishlatishga kelganda, kishilarni kuch-iqtidoriga qarab vazifaga qo'ymaydi ham qildan qiyiq axtarib, ishni qoyillatmading deb yozg'iraveradi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Irodasi kuchli, qat'iyatli, soddadil, so'zda ehtiyyotkor bo'lgan to'rt xil fazilatga ega kishilar rahmdillikka yaqin keladi".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Oq ko'ngil kishi xalqqa yo'lboshchilik qilib yetti yil ta'lim bersa, hatto undan qo'shin tuzib jangga ham sola loladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Harbiy ta'lim ko'rmagan xalqni urushga yo'llash ularni bekordan-bekorga o'lim changaliga tutib bergen bilan barobar".

\*\*\*

Tolibi Yuan Siyen: "Isnod nimadir?" deb so'raganida, Konfutsiy: "Mamlakat (el) siyosati munavvar (qonunga muvofig) bo'lganda, amaldor bo'lib, maosh-oshliq (ta'minot) olsa bo'ladi; mamlakat siyosati zulmatga (jaholatga) chulg'anganda, amaldor bo'lib, maosh-oshliq (ta'minot) olish isnoddir", deb javob beribdi. Tolibi Yuan Siyen





yana so'rabdi: "Izzattalablik, maqtanchoqlik, adovat va badnafslik kabi to'rt illatdan o'zini tiya olgan ham xiyonat qilmagan kishini rahmdil hisoblasa bo'ladimi?" Konfutsiy: "Bunday fazilatga erishmoq anchayin mashaqqatli deyish mumkin. Rahmdillik maqomiga yetgan-yetmaganligiga kelsak, bunda men hukm qila olmayman", deb javob bergen ekan.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Toliblar o'zining orombaxsh oila turmushidan haddan ortiq mehrini uzolmasa, shogirdlikka yaramaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Davlatning siyosati ravshan ham odil bo'lsa, so'zu amol durust bo'ladi. Davlat siyosati zulmatga chulg'anib jaholatga botsa, harakati durust bo'lsa-da, so'zda tuban bo'ladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Fozil kishi bama'ni so'zlay oladi, lek ma'noli so'zlay oluvchi kimsaning axloqli bo'lmog'i noma'lumdir. Rahmdil odamning mard bo'lishi muqarrar, lek jur'atli kishining rahmdil bo'lmog'i mubhamdir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanob odamlar orasida rahmdillik qilmaydiganlari onda-sonda bor, biroq xudbinlar orasida rahmdillik qila oladiganlari yo'q".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Qashshoqlikda gina-adovatning bo'lmasligi mushkul, garchi boy bo'lganda mag'turlikdan saqlanmoq oson".

\*\*\*

Tolibi Zilu: "Qanday qilib komil bo'lish mumkin?" deb so'ranganida, ustoz

Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Agar vazir Zang Vujo'ngning donoligi, Meng Go'ngchuo'ning diyonati, Biyen Juangzining mardligi, tolibim J(r)ang Chiyuning serqirra mahoratiga ega bo'lsa, yana odob-yo'sin ila adabiy iste'dodini o'stirib, qalami charhlangan bo'lsa, bundaylarni bir komil inson desa bo'ladi". Konfutsiy so'zlashda davom etib, yana shunday debdi: "Hozirgi komillikka intiluvchilar, so'zsiz, mana shundoq bo'lishi kerakmi? Mol-dunyoni ko'rganda avvalo adolatni o'ylasa, mushkulotga yo'liqqanda fidokorlik qila olsa, uzoq muddat qashshoqlikda ham ko'zlagan oliy maqsadva'dasini unutmasa, bundaylarni yana ham komil inson desa bo'ladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Agar biror kishi istihola qilmay katta gapirsa, uning qo'lidan bir ish kelmog'i amri maholdur".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar rahm-shafqatga molik bo'ladi. Xudbinlar esa mol-dunyonigina biladi".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Qadimgi ilm ahli o'z bilimini oshirmoq uchun ta'lim olishgan, hozirgilar bo'lsa o'zgalarga ko'z-ko'z qilish uchungina tahsil oladilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar uchun ko'p gapirib oz ish qilish — isnoddir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblarning mundoq og'ishmaydigan uch maslagi bo'ladi, men ularning birortasiga ham amal qila olmadim: rahmdil kishilar g'am-qayg'udan holi bo'ladi, dono kishilar esankirab qolmaydi, haqiqiy mardlar qo'rquv bilmaydi". Buni eshitgan tolibi Zi Go'ng shunday lutf qilgan ekan: "Bu so'zlar ayni Ustozning kamtarligidan nishona!"





\*\*\*

Tolibi Zigo'ng odatda boshqalarni g'iybat qilishni yaxshi ko'rар edi. Bir kun Konfutsiy unga shunday degan ekan: "Ey tolibim Si (Zigo'ng), sening shu qilig'ing yaxshimi? Mening bo'lsa bunga bekor vaqtim yo'q!"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Boshqalarning o'z iqtidorini bilmasliklaridan g'am chekmayman, ularning meni bilmasliklari ham xavotirga solmaydi, balki o'zimda iqtidorning yo'qligidan tashvishlanaman".

\*\*\*

Konfutsiy bir kuni shunday debdi: "Meni bilguvchi kimsa yo'q!" Tolibi Zigo'ng so'rabdi: "Qandoq qilib Sizni hech kim bilmisin?" Shunda Konfutsiy javob berib debdi: "Tangridan yozg'irmadim, bandasidan ranjimadim, hayotdagi voqealar saboq bo'ldi ham Haqqa olib chiqdi. Shunga meni bilguvchi faqat Tangri bo'lsa kerak".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Oliy martabadagilar odob-qoidaga amal qilsa, avom xalqni boshqarmog'i, mehnatga safarbar etmog'i oson bo'ladi".

\*\*\*

Birodari Yuan J(r)ang ikki oyog'ini uzatib, kerib o'tirgancha\* Konfutsiyni kutayotsa, Konfutsiy kelib qolib, uning bunday odobsizligini ko'rib: "Kichikligingda quloqsiz, gapuqmas eding, ulg'ayib ham hech bir nafing tegmadi, qarib-churib ham yana tinchgina o'lmay yurasan, haqiqatan, bir zararkunandasan", debdi-yu, hassa-tayog'i bilan Yuan J(r)angning boldiriga bir urgan ekan.

\*Yerga o'tirib, ikki oyog'ini qiyshaytirib uzatish; oyoqlarini kerib o'tirish. Qadimgilar bu xil o'tirish-turishni mensimaslik, odobsizlikning bir ifodasi deb hisoblashgan.

\*\*\*

Konfutsiy Chen davlatida non-tuzdan uzilibdi, unga hamroh bo'lib yurgan shogirdlarining barchasi och-nahorlikdan kasalga chalinibdi: ularning oyoqqa turishga ham madori yetmasdi. Tolibi Zilu yuz-ko'zida mahzunlik zohir bir holda Ustozi Konfutsiyni ko'rgani kelibdi-yu, ich-ichidan ezilib shunday debdi: "Olijanoblarning boshida ham shunday ko'rgiliklar bormidi?" Buni eshitgan Konfutsiy shunday debdi: "Olijanoblar muhtojlikni ham xotirjamlik bilan qarshi oladilar. Xudbinlar muhtojlikka yo'liqdimi, shu zahoti noma'qulchilik qiladilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "O, tolibim Si (Ci)! Sen meni ko'p o'qib bilimdon bo'lган deb o'ylaysanmi?" Zigo'ng javob beribdi: "Ha-da! Aslida ham shunday emasmi?" Konfutsiy debdi: "Aslo. Men asosiy nuqtayi nazарим bilan ularни bir ipga tiza олган kishiman, xolos".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Shogirdim Jo'ng You, axloq-fazilatni tushunadigan odamlar nihoyatda kamyob bo'lib qolganidan kuyinaman!"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Irodali ham insonparvar zotlar aslo shirin jonini saqlab qolish payida o'z vijdonini sotib rahmdillikka ziyon yetadigan ishlар qilmaydi. Aksincha, o'zini qurban qilib bo'lsa ham rahmdillikni ro'yobga chiqaradilar".

\*\*\*

Tolibi Zigo'ng qanday qilib rahmdillikni ro'yobga chiqarmoq mumkinligini so'raganida, Konfutsiy shunday javob beribdi: "Ishchi ishini qoyilmaqom qilib bajarmoqchi bo'lsa, avval mehnat quollarini sozlab olmog'i kerak. O'zi yashayotgan elning amaldor-to'ralari orasidagi oqil-fozil kishilarni hurmat qilmoq, ziyolilar orasidagi rahmdil kishilar bilan do'stlashmoq kerak".





\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Agar kimki uzoqni o'ylamasa, g'am-kulfatga yaqinlashgan bo'ladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Bo'ldi, bas! Men go'zal fazilatni sohibjamolni sevgandek yaxshi ko'rgan kishini sira uchratmadim".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Zang Ven Jo'ng amaldorlik o'mini zo'rlik bilan egallab olgan ekan. U Lyu Syaxueyning donishmandligini bilib turib, uni amaldorlikka tayinlamabdi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Aybni o'zingizdan izlang, o'zgalarni kam aybsiting. Shunday qilinsagina odamlarning adovatidan saqlaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Biror ishga yo'liqgudek bo'lsa, "Endi qandoq qilamiz? Nima qilish kerak?" demaydigan kishiga nisbatan men ham nima qilishni bilmayman".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Uzzu-kun odamlar ila kunini o'tkazuvchi, aytganlarida mantiqqa to'g'ri keladigan bir nima yo'q, beburd, o'zini dono ko'rsatib suyunadigan odamni haqiqatan tarbiyat qilmoq mushkul".

\*\*\*

  
Konfutsiy dedi: "Olijanob odamlar o'zida iqtidorni yo'qligidan cho'chiydi, hargiz boshqalarning o'zini tushunmasliklaridan xavotirga tushmaydi".



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar o'zidan yaxshi nom qolmasligidan xavotirlanadilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanob kishi hamisha o'ziga suyanadi, xudbinlar bo'lsa boshqalarning kuchiga".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar o'zini sipo tutadilar hamda o'zgalar bilan nizo-ixtilofga bormaydilar. Ahli jamoaga el bo'ladi, aslo bir hovuch kimsalar bilan til birikurib olib qabih ishlarga qo'l urmaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar ba'zi kishilarni bir-ikki og'iz shirin so'zi uchun martabasin oshirmaydi hamda ba'zi kishilarni xato-gunohi uchun ularning durust so'zilariga beparvo ham bo'lmaydi".


\*\*\*

Konfutsiy dedi: "O'zingga tilamaganni o'zgaga ham ravo ko'rma".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men o'zgalar haqida kimni qoralab, kimni maqtaganman? Agar maqtagan bo'lsam, u so'zsiz sinovdan o'tgan kishidir. Sya, Shang, Jou kabi uch sulola kishilarining hammasi shunday edi. Shunga bu uch sulolaning yurar yo'li ravon bo'lgan, el mehr-shafqatga cho'mgan".

\*\*\*





Konfutsiy dedi: "Men yana tarixiy kitoblarda gumanli masalalarning ochiq qolgan hollarini ko'rdim. Oti borlar avvallari otini boshqalarga minish uchun bergan ekan. Bunday odamlar ham ishlar hozirda yo'qolib ketdi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tilyog'lomalik odamning axloqini yemiradi. Agar arzimas ishlarda o'zingni tuta olmasang, buyuk ishlaringni barbos qiladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Hamma bir kimsadan hazar qilsa, albatta, uning muayyan sabablarini tekshirib ko'rgin; hamma biror kishini suysa, tag'in, albatta, uning ham muayyan arzirli sabablarini ko'zdan kechirgin".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Kishining iqtidori axloqini taraqqiy qildirib kengaytadi, axloq aslo kishining iqtidorini to'liqlamaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tuzatilmagan xato haqiqiy xatolikdir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men kun bo'yи tuz totmay, tun bo'yи mizg'imay fikr yurgizdim, hech bir nafi bo'lindi, magaram ilm olmoqqa yetmas ekan".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar qalban tariqatga intiladilar, aslo havoyi nafsga berilmaydilar. Dehqonchilik qilganda, albatta, och qolgan chog'lari ham bo'ladi. Bilim olsa, amaldor bo'lib, haqqi-halol maosh ham oladi. Olijanoblar tariqatga erisha olish-olmaslikdangina tashvishlanadilar, aslo qashshoqlikdan xavfsiramaydilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Aql-farosat bilan amaldorlik rutbasiga erishsa bo'ladi, agar rahmdillik bilan uni tutib turolmasa, amalidan ham quruq qoladi. Aql-farosat bilan amaldorlikka yetishsa ham rahmdillikka tayansa-yu, agar o'z burchini astoydil ado etolmasa, fuqarolar ham hurmat va itoat qilmaydi. Aql-farosat bilan amal-martabaga erishsa, uni rahmdillik bilan saqlab qolsa, o'z burchini astoydil ado etsa-yu, agar axloq-qoidalarga muvofiq tadbir bilan elni idora qilolmasa, bu ham komil bo'lolmaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblarga mayda-arzimagan ishlarni qildirib bo'lmaydi, ularga muhim vazifalarni ishonib topshirsa bo'ladi. Xudbinlarga bir jiddiy vazifani topshirib bo'lmaydi, ularga mayda ishlar ham bo'laveradi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Oddiy xalqqa rahmdillik suv va olov ehtiyojidan ham ko'ra zarurroq. Men suv va o't balosiga yo'liqib halok bo'lganlarni ko'p ko'rghanman. Biroq rahmdillik qilganlarning halokatga yo'liqqanin also ko'rmadim".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Rahmdil bo'lmoq uchun ustozdan izn so'ralmaydi".


\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar Haq yo'ldan toymaydilar, aslo mayda ishonch bilan andarmon bo'lib qolmaydilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Shohu beklarning xizmatini qilganda, avvalo, o'z burchimi astoydil ado etmoq lozim, maosh-moyana masalasini esa keyinga qo'ymoq kerak".

\*\*\*





Konfutsiy dedi: "Odam zotining barchasiga ta'lim-tarbiya bermoq zarur". ("Men har bir kishiga ta'lim-tarbiya beraman, ularni boy-kambag'al, oqsuyak-past deb ajratmadim".)

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Maqsad yo'li o'xshash bo'limgan kishilar bilan maslahatlashib, kengashib bo'lmaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Aytgan har bir so'zining ma'nosini to'liq ifodalab berolsa bo'lgani".

\*\*\*

Ustoz Miyen\* Konfutsiyni yo'qlab kelibdi. Zinapoya qarshisiga yetib kelganida, Konfutsiy ul zotga: "Bu — zinapoya", debdi. Bo'yra yoniga kelishganda, Konfutsiy yana: "Mana bu bo'yra", debdi. Davrada hozir bo'lganlarning barchasi yaxshilab o'tirib olishgach, Konfutsiy Ustoz Miyenga tag'in debdi: "Bu yerda odamlar bor, bu yerda odamlar jam bo'lishgan". Ustoz Miyen chiqib ketgandan so'ng, tolibi Zi Jang so'radi: "Bu ko'r odamlar bilan so'zlashmoq usulimi?" Konfutsiy debdi: "Xuddi shunday, sizlar guvohi bo'lganingiz azaldan aynan ko'zi ojiz kishilarga yordam berish usulidir".

\*Ustoz Miyen — Miyen nomi bilan mashhur bo'lgan usta sozanda.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Hojatbaror do'st uch turlidir, zararli do'st ham uch xil bo'ladi. To'g'ri so'z, samimiyl, ko'pni ko'rgan oqil kishilar bilan do'stlashmoq foydalidir. Yo'ldan ozgan noplak, ikkiyuzlamachi, xushomadgo'y kimsalar bilan ulfat bo'lmoq koni zarar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblarining xizmatida bo'lganda osongina bu uch xil xatolikni sodir etish mumkin: so'zlash fursati kelmagan bo'lsa-da, luqma tashlab qo'yish

— bu shoshqaloqlikdir; so'zlashi kerak bo'lgan fursat kelganda aksincha, lom-mim demaslik — yashirganlikdir; o'zgani yuz-xotir qilmay og'ziga kelganni so'zlash — bu po'pisa qilish demakdir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar uch narsadan saqlanmog'i kerak: yosh chog'i qoni qaynoq bo'ladi, shunga ayollarga berilishdan tiyilmog'i kerak; balog'at yoshiga yetgach, qiziqqon bo'ladi, shunga g'urbat-janjaldan saqlanmog'i kerak; keksayib madori ketganda ochko'zlikdan saqlanmog'i kerak".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar uch turli narsadan hayiqadi: taqdirdan, martabasi ulug' kishilardan hamda donishmandlarning so'zidan. Xudbinlar esa taqdirning nima ekanligini tushunmaydi, shunga hayiqishni bilmaydi, martabasi ulug' zotlarga iltifot ko'rsatmaydi, donishmandlarning so'zini pisand qilmaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Tug'ma bilim sohiblari oliy martabali kishilardir. Qunt ila o'qib ilm olganlar bir pog'ona quyi turadilar. Qiyinchilikka yo'liqibgina o'qishga jazm etganlar tag'inam quyi pog'onadadirlar. Qiyinchilikka duch kelib ham bilim olishni ixtiyor etmaganlar eng tuban pog'onadagi kishilardir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Olijanoblar mundoq to'qqiz jihatni nazardan chetda qoldirmasliklari kerak: qaraganda ravshan ko'rgan-ko'rmanligini; eshitganda aniq eshitgan-eshitmaganligini; rang-ro'yida muloyim-muloyim emasligini; muomalada odob-hurmatga riosa qilgan-qilmaganligini; so'zlaganda samimiylafzi halol bo'lgan-bo'lmanligini; a'molda astoydil-astoydil emasligini; ko'ngilda shubhayu gumoni bo'lsa, o'zgalardan qanday maslahat olishni; qahru g'azab otiga minar bo'lsa, uning yomon oqibati ham nadomatni o'ylab ko'rmoqligi; boylik ham foydani ko'rganda odillikka muvofiq kelgan-kelmaganligini mulohaza qilib ko'rmoq".



\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Oq ko'ngil odamni ko'rganda go'yo yetisholmay qoladigandek unga hafsalal bilan intilmoq kerak. Razil odamni ko'rganda xuddi qaynoq suvga qo'l solgandek jonining boricha o'zini tortishi kerak. Men mana shunday kishini ko'rganman ham mana shunday so'zlarni eshitganman. Zohidlikda o'z irodasini saqlab qolib,adolat bilan o'zining oliy ezgu g'oyasini amalgaga oshirish maqsadida uni tark etmoq kerak. Men mana shunday so'zlarni eshitganman, ammo mana shunday kishilarni ko'rgan emasman".

\*\*\*

Chi Jing Go'ng otliq boyning to'rt ming oti bo'lardi. O'lar vaqtin yetganda , xalq nazdida uning hech bir maqtagudek yaxshi axloq-fazilati yo'q ekanligi ma'lum bo'libdi. Himmati keng Bo'yi va Shuchi og'a-ini ikkisi tog'u toshlarda ochlikdan qazo qilishgan, biroq xalq hali-hanuz ularning nomini hurmat-ehtirom bilan tilga oladi. "Nazmnama"da naql qilishlaricha: "Chindan ham uning (Chi Jing Go'ngning) boy-badavlat bo'lganligi sababidan emas, balki ularning (ikki og'a-inining) fazilati a'lo oddiy kishilar bo'lganliklaridan shu darajada hurmatlanar". Aytiganlar ayni shu ma'noda emasmi?

\*\*\*

Konfutsiyning shogirdlaridan biri Chen Gang kunlarning birida Bo' Yu dan\* so'rabi: "Sen ustoznikida qandaydir alohida saboq tinglamaganmisan?" Bo' Yu shunday javob qilibdi: "Yo'q. Bir kuni ul zot uyda yolg'iz o'ltirardilar. Men hovlida chopib yurgan edim. Ustoz: "Nazmnama"ni o'qiganmisan?" deya so'rab qoldilar. Men: "Yo'q, hali", dedim xijolat chekib. Ul zot yana aytdiki: "Nazmnama"ni o'qimasang, so'zlay olmaysan". Men shu zahotiyoq ortimga aytib, "Nazmnama"ni o'qishga tutindim. Yana bir kuni tag'in ul zot uyda yolg'iz edilar. Hovlidan shoshib o'tib ketayotgandim. "Nizomnama"ni\*\* o'qiganmisan?" deb so'radir. "Yo'q", deb javob berdim. Ul zot aytdilar: "Nizomnama"ni o'qimasang, qat'iy fikring, jamiyatda munosib mavqeing bo'lmaydi". Men darhol ortimga qaytib, "Nizomnama" mutolaasiga kirishdim. Kamina otandan ushbu ikki narsani o'rgandim, xolos". Chen Gang ortiga qaytgach, quvonchi ichiga sig'may shunday degan ekan: "Men bir narsani so'rab edim, buni qarangki, uch haqiqatni bilib oldim: "Nazmnama"ning mazmun-mohiyatini, "Nizomnama"ning foydasini, yana Ustozdek oljanob bir insонning o'z o'g'liga saralangan bilimlarini o'rgatishda aslo yon bosmaganligini bilib oldim".

\*Bo' Yu – Konfutsiyning o'g'li: ismi – Ko'ng Li , taxallusi – Bo' Yu.

\*\*"Nazmnoma" va "Nizomnoma"ni she'r va qoida deb tushunish biryoqlamalidir. "Nizomnoma" deganda – odob-qoidalar, me'yor, "Nazmnoma" deganda – so'zi sihatlik, donishmandlik, hozirjavoblik kabi a'lo fazilatlar birdek tushuniladi.

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Kishilarning tabiati (mijozi) aslida yaqin bo'ladi, muhit ta'sirini qabul qilishlari o'zgacha bo'lganligidan farqlar ham chuqurlashib ketgan".

\*\*\*


Konfutsiy dedi: "Eng aqli kishilar bilan eng nodon kishilarnigina o'zgartirib bo'lmaydi". ("Eng aqli kishilar bilan eng ahmoq kishilargina mijozini o'zgartmaydi".)

\*\*\*

Tolibi Zi Jang Konfutsiydan qanday qilsagina rahmdil bo'lishi sirini so'raganida, ustoz shunday degan ekan: "Olamda besh turli fazilatga ega bo'lgan kishi rahmdil bo'la oladi". Zi Jang yana ul besh fazilatning qaysiliginini so'rabdi. Konfutsiy shunday deb javob bergen ekan: "Bu besh fazilat ushbu: izzat-ikrom, bag'rikenglik, samimiylilik, mehnatsevarlik, muruvvat. O'zgalarga hurmatda bo'lsa, haqoratga uchramaydi. Bag'rikeng bo'lsa, ommaning qo'llab-quvvatlashiga erishadi. Samimiylilik bo'lganda, boshqalar biror yumushni ishonib topshiradilar. Mehnatsevar bo'lsa, yuksak muvaffaqiyatlar qozona oladi. Mehribon, saxiy bo'lsa, boshqalarni osongina o'z ortidan ergashtira oladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Hoy, shogirdim Jo'ng You, sen olti turli fazilatning o'ziga xos olti xil nuqsoni borligini eshitganmisan?" Tolibi Zi Lu: "Yo'q, ustoz", deb javob beribdi. Konfutsiy shunday debdi: "Bo'lmasa, o'tirgin! Aytganlarimni jon qulog'ing bilan tingla. Rahmdillikni suyganlar ilmni sevmasa, uning nuqsoni shulki, kishilarga osongina ahmoq bo'ladi; aqli bo'lishga orzumand kishi aksincha ilmni sevmasa, nuqsoni ulkim, bebosh-o'zboshimcha bo'lib qoladi; samimiylilik bo'lib-da, lek ilmni sevmasa, uning nuqsoni shulki,





o'z-o'ziga ziyon qiladi; rostgo'ylikni sevsayu, ilmni sevmasa, aytar so'zi tikandek botar ham zaharxanda bo'ladi; botirlikka uchib, ilmni sevmasa, uning nuqsoni shulki, osongina olatasir-to'polon chiqaradigan bo'ladi; sobitqadamlikni suysayu, lek ilmni sevmasa, uning nuqsoni shulki, osongina yengiltak ham savdoysi bo'lib qoladi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Eh, odob, odob degani qimmatbaho toshlardan yasalgan marosim bezaklarimidi? Eh, soz, soz degani marosimlardagi do'mbiraga o'xshash cholg'umidi?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ko'rinishdangina kuchlidek, lekin irodasi zaif kishilarni xudbinlarga muqoyasa qilganda tom teshib-devor oshadigan bosqinchiga o'xshaydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Munofiqlik – axloq-fazilatning dushmanidir!"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Mish-mish, g'iybatlardan saqlanmoq – axloqdandir".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Qadimgi odamlarda uch xil illat bor ekan. Bu uch xil illat, balkim, hozirgilarda yo'qolgandir. Burungi savdoyilar hali betakalluf esa-da, mayda-bo'limgur ishlar bilangina ovora bo'lishmagan; hozirgi savdoyilar bo'lsa bebosh ham fosiq bo'lib ketdi. Qadimgi kalondimog'lar hali qahri qattiq esa-da, harna diyonati bo'lgan; hozirgi mutakabbirlar bo'lsa muttaham bo'lib ketdi. Burungi ahmoqlar xo'p aqli to'mtoq, sodda xayol, xokisor bo'lishgan; hozirgi kaltafahm (ahmoq)lar bo'lsa nuqul firibgar ham hiylagar bo'lib qoldi, xolos".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Xushomadgo'y, ikkiyuzlamachi odamlar kamdan-kam xushxulq ham rahmdil bo'ladilar".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Men ortiq so'zlamoqchi emasman". Tolibi Zigo'ng: "Siz hech narsa demasangiz, unda biz toliblar nimalarga vorislik qilamiz?" deb so'rabdi. Konfutsiy shunday javob qilibdi: "Boqing, tabiat nimalarni so'zlaydi? Yil-fasllar aylanishida bir ulgi bor, borliq narsalarning o'sish-o'zgarishida bir hikmat bor. Tabiat nimalar haqida so'zlamaydi?"

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Ayol va xudbin kishilar bilan birga yashamoq naqadar mushkul: ularga juda yaqin bo'lsangiz, haddidan oshadilar; yiroqlashgudek bo'lsangiz, sizdan nafratlanib o'ch olishni o'laydi".

\*\*\*

Konfutsiy dedi: "Kishi agar qirq yoshga kirib ham boshqalarning nafratiga yo'liqsa, u umr bo'yи hech narsadan umid qilmabdi".

\*\*\*


Chi bekligi odamlari Lu bekligiga juda ko'p go'zal qo'shiqchi-raqqosa qizlarni sovg'a qilib jo'natishibdi. Bek Ji Xuan Zi ularni qabul qilib, maishatga berilib, kengash chaqirmay, davlat ishlari ham qarovsiz qolibdi. Konfutsiy shundagina Lu bekligini tark etgan ekan.

\*\*\*

Tolibi Zi You dedi: "Qadrdomim Zi Jang qadrlashga arzigulik kishi bo'libdi, shunday bo'lsa ham u hali rahmdillik qila olmabdi".

\*\*\*

Tolibi Zi Go'ng dedi: "Olijanoblarning xatosi go'yo quyosh va oyning tutilishiga o'xshaydi: xatolik o'tdimi, har bir kishi uni ko'ra oladi; xatosini tuzatar chog'i esa har qanday kishi ham ko'kka bir ilinj bilan boqqandek unga umid bilan qaraydi".





\*\*\*

Lu bekligi (knyazligi) dafu-to'ralaridan Shusun Vushu kunlarning birida imperator saroyida shunday degan ekan: "Shogirdi Zigo'ng qobiliyat va donolikda ustoz Konfutsiydan kuchlidir". Saroy a'yonlaridan yana biri Zifu Jingbo' ushbu so'zlarni Zigo'ngga aytganida, u shunday deb javob bergan ekan: "Donolikni bir devorga qiyos qilaylik. Mening devorim balandligi atigi odam yelkasicha bor: har kim undan mo'ralab, uy-imorat ichinda neki go'zallik bor – ko'rmog'i mumkin. Ustozim esa egizligi misli bir necha janglik\* (sarjinlik) devordir. Agar u devorning darvozasin topa olmasangiz, ichkariga kirmoqning hech imkon yo'q. Devor ortidagi podshoh ajdodlari ibodatxonasining go'zalligiyu hashamatli binolarning betakrorligidan hech qachon baha ololmaysiz. Darvozasin topa olgan kishilar, balkim, nihoyatda ozdir. Shusun Vushuning bu so'zlari soxta, havoyilikdan o'zga narsa emasmi?"

\*Jang – 10 chiga teng uzunligi o'lchov birligi; 1 chi – metrning uchdan biriga teng uzunlik o'lchov birligi; 1 jang – 3.33 metrga teng; asl nusxada: j(r)en – qadimgi uzunlik o'lchov birligi; sakkiz gazga teng; gaz – 0.71 metrga teng; 1 sarjin – 3 gaz; 2.134 metrga teng.


\*\*\*

Chen Zi Chin degan kishi Zigo'ngga shunday debdi: "Sen hazrat Konfutsiyni nihoyatda hurmat qilasan-a? U salohiyatda sendan donoliroqmi?" Buni eshitgan Zi Go'ng shunday javob bergan ekan: "Olijanob kishining bir og'iz so'zidan uning donoligini bilsa bo'ladi, uning bir og'iz so'zidan nimani bilmasligi ham oydin bo'ladi. So'zda ehtiyyotkorlik, ya'nikim noo'rin so'zdan tiyilmoqlik lozim. Donolikda o'zgalar ustozimga yetolmaydi. U zotning donoligi go'yo narvon bilan ham chiqib bo'lmaydigan osmon kabidir. Ustozim agarda elni idora qilmoq martabasiga tuyassar bo'lsa, men aytganimdek bo'lar: oddiy xalqning jamiyatda o'z o'rnila bo'lishini istasa, avom ham o'z munosib o'mida bo'ladi; xalqqa yetakchilik qilmoqchi bo'lsa, xalq ham, shubhasiz, unga ergashadi; xalqni farovon, xotirjam qilmoqchi bo'lsa, xalq ham unga el bo'ladi; xalqni yo'lga solmoqchi bo'lsa, xalq ham bir yoqadan bosh chiqarib, maqsadning amalgalishi uchun bor kuchini ishga soladi. Ul zotning hayot bo'lmosg'i sharaflidir, vafoti odamlar uchun qayg'ulidir. Shunday ekan kamina qanday qilib Ustozga yeta olsin?!"



\*\*\*

Ilm bilan fazilatga osonlikcha erishib bo'lmaydi.





## MANGU IBRAT YOXUD OLTIN ZANGLAMAS

(So'ngso'z o'rnida)

*Sh*arq tafakkuri – abadiyat bulog'idir, ming yildirki, insoniyat uning *shayotbaxsh* suvlaridan bahramand. Biz o'rganayotgan Konfutsiy singari Xitoy mutafakkirlari bu buloqning bir qatrasidir. Lekin bu qatralarning birginasi olam-jahonga tatigulik.

Konfutsiy – Sharq falsafasining ajralmas qismi bo'lgan Xitoy falsafa mакtabining yorqin namoyandalaridan biri, konfutsiychilik ta'limotining asoschisi, ma'rifatparvar, faylasuf, ulug' mutafakkir. Qanchadan-qancha buyuk siymolar bu donishmandning hikmatlaridan ilhomlangan. Uning hikmatlari xalqona va hayotiyligi uchun kishilar tomonidan o'ng'ay qabul qilinadi. Xalqonaligi – insonparvar, xalqparvarligida, sodda til va oddiyligida. Konfutsiy hikmatlari har qanday "jimjimadorlik"dan xoli. Hayotiyligi, bu donishmand o'z hikmatlari orqali o'rtaga tashlagan muammolar yechimi hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmaganligidadir. Buyuk insonlarning fikru yodi birdir.

Donishmandning katta hayotiy tajribalaridan chiqargan xulosalari, mulohazalari uning "Muhokama va bayon" asarida aks etgan. Mazkur asar mavzu jihatidan boy. Unda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa mavzulariga doir dono fikr-mulohazalarlar mavjud, inson mohiyati haqida teran mushohadalar yuritilgan va ular ramziy timsollar, hayotiy misollar bilan muxtasar bayon etilgan. Konfutsiy hikmatlarini o'rganish, ularni xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bir jihat alohida e'tiborimizni tortdi: bu ham bo'lsa Konfutsiy hikmatlarining o'zbek xalq donishmandligi bilan o'xshash tomonlarining mavjudligi. Donishmandning purma'no hikmatlari nuroni otaxonlarimizning pand-nasihatlari kabi qulog'imizga juda tanish va yoqimli eshitiladi. "Konfutsiy shunday dedi: "Qobil farzand bo'lism, kattalarga hurmat — bular rahmdillikning asosidir". Bu hikmatda rahmdillik so'zi insonparvarlik, odarniylik istilohlari bilan ma'nodosh. Xitoy maqolida aytiganidek: "Qobil farzandlik ming yaxshilikning avvalidir". Dono xalqimizda esa "Qobil o'g'il otga mindirar, noqobili otdan tushirar", "Kattaning hurmati – qarz" kabi maqollar bor.

Rahmdillik Konfutsiyning markaziy g'oyasidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, insoniylikning mazmun-mohiyatidir. Mutafakkir nazdidagi rahmdillikning asosi o'z yonimizdagи kishilarni tushunish va qadrlashdadir. Rahmdillik eng yuqori axloq mezonini anglatadigan istiloh sanaladi. Yuqorida aytilgan "o'xshash jihatlik"lar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. "Muhokama va bayon"ning birinchi hikmatida



shunday deyiladi: "Ilm olgach vaqt g'animatda doimo uni takrorlagin, bu-da ko'ngilga huzurlik baxsh etmasmi?.." Asarning ilm haqidagi hikmat bilan boshlanishidayoq bir ramziylik bor. Ilmu ma'rifat insonning o'zini anglashida, ya'ni komillikka erishuviga muhim omildir. Konfutsiy g'oyalarida har bir narsa uch qirralidir, misol uchun ilm: unga erishmoq yo'lida ixlos va sabr-qanoat kerak, erishilgan payt — saodat hamda uchinchisi uni mustahkamlab, boyitib borish lozim, lekin aslo boy berib qo'ymaslik. Amaldorlik masalasida: unga munosib, loyiq bo'lishlik; unga erishmoqlik; unga vafodor bo'lishlik, ya'ni o'z vazifasini sidqidildan ado etish. Donishmand uchallasiga ham bee'tibor bo'imaslik kerakligini ta'kidlaydi.

"Muhokama va bayon"da "Ilm olish — jonga huzur", "odob-qoidaning ahamiyati uyg'unlikda bebaholigidadir" va me'yor-mo'tadillik kabi tushunchalarga, shuningdek, rahmdillik, qobil farzandlik va lafzi halollik singari axloqiy kategoriyalarga alohida urg'u berilgan. Asarni o'qir ekanmiz, unda asosan Konfutsiyning "elni axloq ila idora qilish" haqidagi g'oyalari, qanday qilib amal-martabaga sazovor bo'lishlik va amaldor bo'lib hukumat ishlarida ishtirok etishning eng muhim qonun-qoidalari, axloqiy-ma'naviy talablari, o'qish va fikrlash munosabatlari, Konfutsiy o'zining ilm olish hamda o'z-o'zini kamolotga yetkazish jarayoni, eski bilimlarni mustahkamlab yangisiga erishish singari o'qish usuli, odam va olam, hayot masalalari to'g'risida so'z boradi. Konfutsiy oqil va odil podshoh boshqaruvidagi a'lo bir jamiyat, komil inson, olijanoblar mamlakati g'oyasini ilgari suradi. Keyinchalik bobokalonimiz Forobi "Fozil odamlar shahri" asari bilan bu qarashlarning nazariy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar.

Konfutsiy so'zu amal bir bo'lishligini, ya'ni aytar so'zning qilar ishga muvofiqligini talab qilgan va, avvalo, o'zi bunga amal qilgan. U o'z xatti-harakatlari bilan atrofdagilarga o'mnak bo'lgan. Shu bois hikmatlarini o'zgalar qadrlagan.

Konfutsiy bir kuni daryo qirg'og'ida turib shunday degan ekan: "Vaqt misoli daryo: kecha-kunduz to'xtamay oqib o'taveradi". O'tayotgan vaqt va umrni oqayotgan daryo suvgaga qiyos qilishni, ehtimol, Konfutsiy ayni mana shu so'zları bilan boshlab bergandir. Vaqt tushunchasiga jiddiy ahamiyat berib, donishmand shogirdlariga bergen saboqlarida tezzez "g'animat vaqt"ga ishora qiladi. Bu bilan mutafakkir kamolot yo'li olis yo'l ekani, ilmning chek-chegarasi yo'qligini ta'kidlab, bir soniya bo'lsin, o'z-o'zimizni tarbiya qilish va ilm olishdan to'xtamaslikka chaqiradi.

Tajribali tarjimonlar shoh asarlarni o'sha asar yozilgan tilda o'qilsa, tarjima variantidan ko'ra yaxshiroq huzur berishiga iqror bo'lishgan. Misol uchun «O'tkan kunlar»ni o'zbek tilida o'qishga nima yetsin?! Aytmoqchimanki, menda xitoy tilida o'qish imkoniyati bo'la turib, "Muhokama va bayon" singari asarlarni o'z tilida o'qimasligim, bu mening o'z-o'zimni Konfutsiyning asl so'zidan chiqarajak xulosam va





undan hosil bo'lajak "fikrlash lazzati" dan mahrum etish bilan barobar. Donishmandning ikki hikmatini "tirikchiligidasturi" qilib olganman. Birinchisi: "Tongda haqiqatdan xabar topsam, tunda qazo ham rizolidir". Ikkinchisi: "Uch yo'lovchi orasida menga uztoz bo'lg'udek biri topiladi: uning a'lo tomonlaridan o'rnat olsam, kamchiliklaridan ham saboq chiqarib, xatolarimni tuzatgum".

Vaqt to'xtamay o'taveradi, biroq o'sha vaqt sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan donishmand o'gitlari sira eskirmagay! Oltin aslo zanglamas!


**ILHOM QOSIMOV**



孟子

MENG-ZI

(suhbatlar, munozaralar, hikmatlar)



**Tarjimon ILHOM QOSIMOV,**  
Toshkent gumanitar fanlar universiteti xitoy tili o'qituvchisi, Xalqaro Konfutsiychilik  
Assotsiatsiyasi a'zosi

Taqrizchilar:  
**Baxtiyor Nazarov,**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Jang Xong-jyuan (Zhang Hongjuan),**  
O'zDJTU xitoy tili o'qituvchisi

**Hakimova Shahnoza,**  
O'zDJTU xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri

**Yunusova Nodira,**  
O'zDJTU xitoy tili o'qituvchisi, XXR Dalyan Hay-shi universiteti yuridik fanlari doktori



## KONFUTSIYNING BUYUK SHOGIRDI

**О**zbek va xitoy xalqlari qadim zamonalardan buyon iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarning turli yo'nalishlarida o'zaro aloqa va hamkorlikda bo'lib keladi. Eramizdan avvalgi ikkinchi asrdan boshlab muayyan muntazamlashuv bosqichiga kirgan Buyuk Ipak yo'li bois bir-biridan yaqinroq xabar topgan bu xalqlar taqdirida o'zaro ta'sir natijasida taraqqiyotning yangidan-yangi belgilari namoyon bo'la bordi.

Bir tarafdan avval xalq og'zaki ijodi namunalari asosida to'planib, so'ng "Avesto" nomini olgan buyuk asar namunalari, parchalari og'izdan-og'izga o'tib Xitoy tomonga ham siljidi. Shuningdek, xitoy xalqining qadim o'tmishdagi og'zaki ijod namunalaridan tashkil topib, keyinchalik Konfutsiy tomonidan "Nazmnama" va "Nasrnoma" tarzida tartib berilgan kitoblardagi asar motivlari hamda donishmandning o'ziga mansub (shogirdlari tartibga solgan) "Suhbatlar va munozaralar" kitobidagi ilg'or va mutaraqqiy fikrlar, hikmatlar og'izdan-og'izga o'tib Buyuk Ipak yo'li bo'y lab Turonzaminga ham yoyilib turgani shubhasiz.

Konfutsiy ta'limoti o'z davridayoq tez va keng tarqala boshladi. Uning ko'plab izdoshlari, shogirdlari paydo bo'ldi. Faylasufning ana shunday buyuk sermahsul shogirdlaridan biri qo'lingizdag'i kitob muallifi Meng-zidir.

Ustozidan taxminan bir yarim asr keyin yashab ijod etgan Meng-z, aytish mumkinki, butun umrini uning asarlari, g'oyalari, ta'limotini o'rghanish, targ'ib qilishga bag'ishladi; muttasil ravishda hayotga singdirishga intildi va Xitoya Konfutsiyidan so'ng "Ikkinci donishmand" degan nomga sazovor bo'ldi. Xuddi ulug' Forobiyni Aristoteldan keyingi "al-Muallim as-soniy", ya'ni "Ikkinci muallim" deganlaridek.

To'g'ri, Meng-z va Forobi yashagan davrlar orasida deyarli bir ming uch yuz yillik tarix yotadi. Forobiyning falsafiy qarashlari izchil ta'limot asosida qat'iy tizimga solingan. Meng-zining asari, qarashlari esa asosan suhbat-murojaat shaklida ifodalangan bo'lib, ko'proq adabiy-falsafiy yo'nalishdadir. Lekin hozir gap bu haqda emas, men aytmoqchi bo'layotgan fikr shundan iboratki, Meng-z va Forobiyning turli yo'nalishdagi qarashlarida juda ko'p o'xshashliklarga, yaqinlikka, mushtaraklikka duch kelamiz. Ba'zan ularning asarlardagi ifoda shakli, ko'tarilayotgan muammolar, ilgari surilayotgan g'oyalari bir-biriga juda yaqilashib keladi. Masalan, Forobiyning "Falsafiy savollar va ularga javoblar" asari bor; Meng-zining ko'plab falsafiy mushohadalari savollarga javoblardan tashkil topgan. Meng-z ustozi Konfutsiyning donishmandlik haqidagi mushohadalarini sharhlashga katta e'tibor beradi, o'zi ham shu asnoda



donishmandlikning mohiyati haqida ko'p fikr yuritadi. Forobiyning esa "Donolikning asoslari" degan maxsus asari mavjud ekanini bilamiz. Forobiy musiqa va she'riyatga bag'ishlangan buyuk asarlar yozdi, "Musiqa haqida katta kitob"i, "She'r va qofiyalar haqida" asarlarining o'ziyoq bunga yorqin dalil. Meng-zı Konfutsiy ta'limotini tahlil qilar ekan, uning she'riyat, musiqa xususidagi qarashlari asosida o'zi ham bu masalalar haqida teran fikrlarni ilgari suradi. Bu ikki buyuk faylasufning mazkur masalalarga qarashlarida farq ham kuchli, albatta. Biri Xitoy, ikkinchisi asosan musulmon she'riyati va musiqasiga tayanib mulohaza yuritadi. Lekin musiqa va she'riyatning inson hayoti va jamiyatdagi o'rni haqida umumnazariy xossalari, axloq va odobning tarbiyada, qonunning kishilik turmushidagi o'rni xususida bildirilgan fundamental qarashlarda bu ikki olim o'rtasidagi mushtaraklik, yaqinlik kishini hayratga soladi. Bunga Siz qo'lingizdag'i kitobni o'qib ishonch hosil qilishingiz mumkin. Bu o'xshashlik, yaqinlikni ta'kidlash nima uchun zarur? Shuning uchunki, badiiy ijodda o'zaro ta'sir mavjud bo'lganidek, falsafada ham ta'sirning o'rni katta. Va ayni vaqtda badiiy ijodda o'zaro ta'sirlarsiz tipologik yaqinlik tufayli mushtaraklik mavjud bo'lganidek, xuddi shu qonuniyat falsafa tarixida, falsafiy qarashlarda ham zohir bo'lishi mumkin ekan. Bu qonuniyatning o'ziga xosliklarini aniqlash, ko'rsatish, tadqiq etish yangi-yangi ijodiy samaralar bera oladi.

Meng-zining qo'lingizdag'i suhbatlari, munozaralari, hikmatlari faqat falsafiy mushohadalargina emas, ma'lum ma'noda adabiy-falsafiy asarlar hamdir. Zotan, ularning ifoda shaklida badiiy unsurlar mo'l uchraydi. Bu suhbat, munozaralarda sujet, kompozitsiya, konflikt, tarixiy shaxslar bor; ularni o'qib, ayrim obraz, xarakter, portretlarga duch kelamiz. Fikrlar talqinida falsafiy maqsad yotsa-da, ularning tahlilida aksar hollarda badiiy komponentlar bo'rtib turadi. Ayrim tabiat manzaralari, jonli munozara, ruhiy-psixologik holatlar, jug'rofiy manzillar, tarixiy shaxslar va sulolalarga oid ma'lumotlar tarixiy hujjatlarga suyanish asosida adabiy shakl oladi va uning zamiridan falsafiy g'oyalari sizib chiqadi.

Meng-zı hikmatlari, suhbat-murojaatlari paydo bo'lgan vaqt bilan zamonamiz o'rtasida deyarli ikki ming uch yuz yillik tarix yotishini ham unutmaslik lozim. Demoqchimanki, bu hikmatomuz ayrim fikrlar, bahs natijasidagi ba'zi mulohazalar ichida bizning davrimiz uchun birmuncha eskirganlari - o'z davri, tuzumi, sharoiti bilan bog'liq qarashlar ham uchrashi mumkin. Bunday hollarda tarixiy asos va asliyatga putur yetkazilmaganini, asar qahramonlaridagi dunyoqarash, fe'l-atvor saqlanganini nazar-e'tibordan qochirmaslik kerak bo'ladi.

Meng-zı hikmatlari, dono fikrlari ichida bugungi davr uchun qimmatini yo'qotmagangina emas, hatto zarur va muhim bo'lganlari bisyordir. Ulardan har kim o'z uchun qimmatli g'oyalarni topa biladi. Davlat arbobi davlatni boshqarish, jamoat



vakillari jamiyat va raiyat aro aloqa hamda rishtalarni yanada mustahkamlash, muallim va murabbiy ta'lim-tarbiya ishi bilan shug'ullanishda o'zi uchun muhim saboqlar topa oladi.

Endi ikki og'iz kitob tarjimonini va tarjimasini haqida so'z.

O'zbekistonda katta tajribaga ega, xalqaro miqyosda tan olingen professor A. Xo'jayev, professor M. Mahmudxo'jayev, yosh tadqiqotchilardan filologiya fanlari nomzodi S. Nosirova va boshqa ko'plab xitoy tili mutaxassislari, olimlarimiz bor. Ularning sa'y-harakatlari bilan xitoy tili, madaniyati, tarixi, bugungi kuniga oid turli xil ilmiy-tadqiqot asarlari, qo'llanmalar yaratilgan. Biroq, shunga qaramay, bevosita xitoy tilidan o'zbek tiliga ilmiy-tarixiy va ayniqsa badiiy asarlarni o'gira oladigan mutaxassislarimiz nihoyatda oz.

Xitoy tili, Xitoy tarixi, umuman, Xitoy Xalq Respublikasiga aloqador masalalar bilan maxsus shug'ullanadigan mutaxassislarni tayyorlash O'zbekistonda Mustaqillik sharofati tufayli, istiqlol davridagina boshlandi.

Qo'lingizdagagi kitob tarjimonini - Ilhom Qosimov ana shunday yangi avlod vakillaridan biridir. U O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakultetining xitoy tili guruhini tugatgan. Xitoyda safarda bo'lib, malakasini oshirib qaytdi. Xitoy tilida erkin so'zlashadi, yoza oladi, o'qiy oladi. Uning tarjimasidagi Konfutsiyning izohlari bilan tayyorlangan "Muhokama va bayon" kitobi qisqa muddatda o'zbek tilida ikki marta nashr etildi. Xitoy donishmandlarining hikmatli so'zları va xitoy xalq maqollaridan tashkil topgan uning tarjimasidagi "Qadim Xitoy donishmandligi" nomli ixchamgina kitobi o'quvchilar tomonidan iliq kutub olindi. Bir necha kundayoq kitob rastalaridan olib ketildi. Kattagina hajmlli xitoycha-o'zbekcha so'zlashgichi nashr etilish arafasida.

O'zbek tiliga Konfutsiy, Meng-zidek daholar ijodidan, buning ustiga, to'g'ridan-to'g'ri asliyatdan tarjima qilingan asarlar yo'q hisobi.

Bu ishga qo'l urganlardan biri Sa'dulla Ahmaddir. U Konfutsiy hikmatlaridan qator namunalarni o'zbek tiliga chiroyli tarjima qildi. Biroq ular asliyatdan emas, rus tilidagi matnlar asosida amalga oshirildi.

Meng-zi hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar ham shu vaqtgacha (Saida Jo'rayevaning "Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf" kitobida keltirilgan qisqacha ma'lumot va tarjima qilingan bir nechta hikmatlarini hisobga olmaganda) o'zbek tilida yo'q hisobi.

Shu ma'noda qo'lingizdagagi kitob Xitoyda Konfutsiydan so'ng ikkinchi donishmand deya e'tirof etilgan Meng-zi hayoti va ijodi haqida nisbatan kengroq ma'lumot beruvchi dastlabki qadamlardan biridir.





Konfutsiy va Meng-zı kabi buyuk siymolar adabiy-falsafiy asarlarining shu vaqtgacha asliyatdan o'zbek tiliga o'girilmay kelinishining sababi umuman mutaxassislarimizning xitoy tilini yaxshi va chuqur bilish yo bilmasliklarda emas. Avvalambor, bu daholar yashab ijod etgan davrdagi qadimgi xitoy tili ma'no nozikliklari va qonuniyatlarini puxta bilmaganliklari va qolaversa, asosiysi ular ijod etgan davr, tarix, buyuk shaxslarning fikrlash tarzi, uslubi, mentalitet bilan aloqadorlikdagi adabiy-falsafiy tilni yetarlicha egallamaganlikda. Hamda eng muhimi bu kabi zakiylar tilidagi atamalar, ularning ko'chma ma'nolari yetarlicha o'zlashtirilmaganida, deb qaramoq to'g'ri bo'ladi. O'ylab ko'ring: tasavvuf istilohlarining ma'no-mohiyatini bilmay turib, tasavvufga oid asarlarni tarjima qilish haqida gap bo'lishi mumkinmi? Konfutsiy va Meng-zilar tili ham, bu — oddiy bir badiiy, tarixiy yoxud adabiy til bo'lmay, Xitoyning qudratli falsafiy fikrlash yo'sini bilan sug'orilgan xos xitoy tili bo'lib, o'ziga nihoyatda jiddiy e'tiborni talab qiladi. Bunday asarlar mutarjimdan shunchaki tarjimon bo'lishni emas, tarix, falsafa, madaniyat, an'ana, urf-odat, qadriyatlar tarixi va rivojini biluvchi tadqiqotchi-tarjimon bo'lishni talab etadi. Yosh mutarjim Ilhom Qosimovda Xitoy tarixi, falsafasi, madaniyatiga katta mehrdan tashqari, ana shunday talablarni egallahash yo'lidagi fidoiy izlanishlar, ana shunday bilimlarga intilish iqtidori ham bor. Bunga ushbu kitobdagagi Meng-zı hikmatlari, suhbatlari, bahslaridagi istiloh va turli tushuncha, iboralarga berilgan o'nlab, yuzlab izoh va iqtiboslarni o'qib guvoh bo'lasiz.

Tarjima bilan tanishish davomida kitobxon bisyor tarixiy va jug'rofiy nomlar, sulolalar, urf-odat va an'analar, xalq turmush tarzi va saroy hayotiga oid tushunchalar, o'lchov birliklariga, osor-atiqalar, ruhiy, falsafiy atamalarga duch keladiki, ularga tegishli izoh va tushuntirish olmasdan matnning o'zi orqali kutilgan maqsadga yetish burmuncha qiyin - mohiyatini anglash mushkul, eng yomoni hatto noto'g'ri, yanglish xulosa chiqarib qo'yish ham hech gap emas.

Tarjimon Ilhom Qosimov bularni izchil nazarda tutadi hamda o'girilayotgan asar, undagi fikr-mulohazalar, g'oyalar, maqsadlar haqida to'g'ri, asliyat zamiridagi ma'lumot va tushunchalarni yuzaga olib chiqishga intiladi. Bu xususiyat yosh, izlanuvchan mutarjim Ilhom Qosimov tabiatida katta miqyoslarga munosib, erinmay mehnat qiluvchi, halol, iqtidorli olim shakllanib kelayotganini ko'rsatadi. Lekin bu Ilhom izlanishlari kamchiliklardan mutlaq holi degan ma'noni bildirmaydi, albatta. Ba'zan izohlarga keragidan ortiq darajada berilib ketish, kitobxonni asosiy matndan chalg'itishga olib keladigan holatlar ham uchraydi. Demak, u akademik tarjima bilan keng kitobxonlar ormmasi uchun amalga oshiriladigan tarjima prinsiplarini yanada chuqurroq o'zlashtirishga harakat qilmog'i kerak, deb o'ylayman. Shunday bo'lsa-da, asosiysi uch-to'rt bosma toboglik mo'jazgina ushbu tarjima uchungina shunchalar katta




va jiddiy sabr-toqat topa olishning o'ziyoq Ilhom ijodiy fe'l-atvori chuqur hurmatga munosibdir deyishga hamda kelgusida bu yo'nalishda yanada salmoqli ishlarni amalga oshira olishiga ishonch bilan qarashga asos bo'la oladi. Masalan, Konfutsiy va Meng-z'i suhbatlari, ijodida "Osmonosti" istilohi ko'p qo'llaniladi. Bu istiloh ostida aniq nima nazarda tutilayotganini anglamay turib, kitobxon asosiy mazmundan biroz chalg'ib ketishi mumkin. Shu bois bu kabi so'z, istilohlar aniq tushuntirishni talab qiladiki, tarjimon uni imkon qadar bajaradi: "Osmonosti-mamlakat, ya'ni Xitoy podshohligi tasarrufidagi hudud; ba'zi o'rirlarda "to'rt dengiz oralig'idagi yerlar" deb izoh beriladi". Matnda kelishiga qarab, bu so'zning boshqa, qo'shimcha ma'nolari bo'lishi ham mumkin ekan. Shunday holda tarjimon ularga ham izoh beradi: bu istilohga Meng-z'i ba'zida butun yer yuzi ma'nosini ham yuklagani ma'lum bo'ladi. Bir o'rinda Meng-z'i "Osmon ahli" iborasini qo'llaydi. Kim nazarda tutilyapti ekan, deb o'ylab qolasiz, albatta. Tarjimon bu o'rinda "Meng-z'i "tyan-min" (tyan-osmon, min-xalq, odamlar) iborasini qo'llagan, ya'ni daho kishilarga ishora qilmoqda", deb izoh beradiki, kitobxonga masala oydinlashadi. Yana bir misol: Meng-z'i o'z suhbatlarida tez-tez "Nazmnama" kitobini tilga oladi. Bu qanday kitob ekan, deb boshingiz qotgandir? Uni xitoysunoslar balki darhol anglar, lekin oddiy kitobxon bilmasligi mumkin. Tarjimon darrov izoh beradi: "Xitoyning eng qadimgi she'rlar to'plami. Jami 305 she'rdan iborat. Unga Konfutsiy tartib bergan. Konfutsiychilikning mumtoz asarlaridan biri sifatida ham e'zozlanadi".

Tarjimon aksar hollarda Meng-z'i qarashlari, fikrlarini aniq-tiniq va ixcham ifodalashga astoydil harakat qiladi. Mana faylasufning ayrim o'gitlari: "Xalqingni asrabavayla va hukmronlik qil! Shunda hech kim yo'lingga g'ov bo'lolmaydi!" "Haq yo'lni tutganga madad bisyor, haq yo'ldan ozgan ko'makka zor". "Agar podsho xursandchiligini xalq bilan baham ko'rsa, haqiqiy hukmdor bo'lgay!"

Konfutsiy va Meng-zilarga xos fikrlash uslubidagi nuqtalardan biri shuki, ular o'z qarashlarini hikmat, aforizm, maqol darajasida ixcham va tiniq ifodalay oladilar. Tarjimon ularning fikrlash yo'sinidagi bu xususiyatni aynan saqlab qolishga va namoyon etishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Ba'zan asar qahramonlari asliyatda falsafiy, irfoniy fikrlashdan tashqari, xalqona mulohaza yuritadilar, shunga munosib ibora, so'zlar qo'llaydilar. Tarjimon buni ham nazardan qochirmaydi va o'zbek tilidan asliyatga mos xalqona so'zlarni izlaydi: "Insonparvarlikka ziyon yetkazganni "bosqinchi" deydilar; adolatga ziyon yetkazganni "battol" deb ataydilar. Battol va bosqinchi odamni yakkamaxov-raddi mardun derlar!"

Hushyor kitobxon ushbu tarjima asardan umuman hayot va turmushdan tashqari, aynan hozirgi kunlarimiz uchun zarur, dolzarb hikmatlarni ham topa oladi. Shu ma'noda bundan deyarli ikki ming uch yuz yil avval yaratilgan Meng-z'i hikmatlari, suhbatlari





nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyatga ham egadir: "Qadimgi zamon oljanob kishilari xato qilsalar, xatosini darhol tuzatganlar; hozirgi oljanoblar xato qilsalar, xatosiga erk beradilar". Meng-zı dedi: "Odamlarni sevsangiz-u, lekin ularning mehrini qozonolmasangiz, "Yetarlicha insonparvarlik qila oldimmi?" deb o'zingizga savol bering; odamlarni idora qilsangiz-u, lekin buni yaxshi eplay olmasangiz, "Men yetarlicha oqilmanmi?" deb o'zingizga savol bering; odamlarga xushmuomala bo'lsangiz-u, lekin shunga yarasha javob ololmasangiz, "Hurmatlarini yetarlicha joyiga qo'ya oldimmi?" deb o'zingizga savol bering. Xatti-harakatlaringizda kutganingizga erisha olmasangiz, sababini o'zingizdan axtaring. Kimki to'g'ri bo'lsa, Osmonosti shunikidir!"

Matnga, asar muallifiga chuqur mehr ba'zan mutarjim Ilhom Qosimovda shoirona kayfiyatni uyg'otib yuboradi. "Nazmnoma"dagi ushbu kichik parchaning quyidagi tarjimasi shunday deyishga asos beradi:

Taqdiri azalga uyg'un to abad,  
O'zi ham topgaydir nurg'un saodat.

"Nazmnoma"dagi ushbu parcha tarjimasi yuqoridagi o'girikning tasodif emasligiga, mutarjim haqiqatan ham shoirona ko'ngil egasi ekani va buni amalda isbotlashga harakat qilishiga yana bir dalildir:

Ko'kdan kelgan balodan,  
Jonga oro panadan.  
O'zing qilgan balodan,  
Qochib bo'lmas qazodan.

Tarjimon yuqoridagi to'rtlikka "Ushbu satrlar "O'zing qilgan baloga, qayga borasan davoga!?" degan o'zbek xalq maqolini esga soladi" deb izoh ham berib o'tadi. Bu arzimasdek tuyuluvchi izohda chuqur bir ma'no bor. Bu dini, tili, an'analari, urfatlari boshqa-boshqa bo'lgan xalqlarning fikrlash tarzidagi ayrim mushtarakliklar mavjud ekaniga ishoradir.

Shu o'rinda kichik bir fikrni aytib o'tishga to'g'ri keladi. Konfutsiy va Mengzining falsafiy mushohadalari bilan tanishar ekansiz, ulardagi qaysi bir nuqtalar, xususan, xoliq, yashashning ma'nosi, qalb, yurak, nafs, ruhiyat haqidagi qarashlar, shuningdek, insonparvarlik,adolat, axloq-odob, vijdon va o'zlik haqidagi ayrim xuddi shunga yaqin hikmatlar bilan avval ham qayerdadir tanishgandek his etasiz o'zingizni. O'ylay-o'ylay, ular menga islom falsafasidagi ayrim nuqtalar, va ayniqsa, tasavvuf falsafasidagi ba'zi g'oyalar orqali tanish edi, shekilli, degan xulosaga kelgandek bo'lasiz. Nazarimda, Konfutsiy va Meng-zı falsafasidagi qator qarashlar bilan o'zimizning tasavvuf ta'limotidagi qator g'oyalar o'tasida muayyan yaqinlik, mushtaraklik bordek ko'rindi. Agar shunday bo'lsa, keljakda bu masalani chuqur va atroficha o'rganish mutaxassislar




oldidagi muhim vazifalar qatorida turishga arziguqlikdir. Masalaga bunday yondashuv tasavvuf falsafasi va ta'limotining ildizlari va taraqqiyotini ham tipologiya, ham ta'sir asosida qadimgi Xitoy falsafasi, xususan, konfutsiychilik ta'limoti bilan qiyosan o'rghanish imkonini beradi.

Ushbu kitob Sizni Konfutsiy falsafasining muhim qirralari, konfutsiychilik ta'limotining hayotiy yo'naliishlari hamda donishmandning ulkan shogirdlaridan biri Meng-z'i hikmatlari va suhbatlaridagi nodir va noyob fikrlarga oshno qilishdan tashqari, bundan salkam ikki yarim ming yil avvalgi davrdagi Xitoy tarixi, bu tarixning ulkan namoyandalari, xalqining urf-odatlari, an'analar, ijtimoiy-axloqiy, adabiy-estetik qarashlari haqida atroflicha va go'zal ma'lumotlar beradi. Ular nainki tarixiy, balki ayni vaqtda zamonaviy ahamiyatga ega ekani bilan ham qimmatlidir.

O'zbekistonning Xitoy bilan sermiqyos yo'naliishdagi aloqalari, hamkorligi tarixda hali hech qachon hozirgidek rivojlangan emas. Bu xalqaro miqyosda obro'-e'tibori yildan yilga yanada ko'tarilib borayotgan O'zbekistonning barcha tinchliksevar xalqlar bilan o'zaro hamkorlik yo'lida muhim rol o'ynovchi insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ichki va tashqi siyosatining yaqqol ko'rinishlaridan biridir.

Ushbu kitobni ham yangi bosqichdag'i ana shu o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning kamtarona bir ifodasi sifatida qabul qilasiz degan umiddamiz!

*Baxtiyor Nazarov,*  
filologiya fanlari doktori, akademik



## MENG-ZI

*Kimki odamlarga ezgulikni o'rgatmish,  
Ul-da ahli jahon qalbini zabt etmish!*

*Meng-zı*

Inson hayoti ilohiy irodaga tobelligi, inson tabiatи ezguligi nazariyasini ilgari surgan Xitoy donishmandlaridan biri Meng-zı<sup>1</sup>, ya'ni "Ustoz Meng" (xitoycha 孟子, Meng-zı; rus tili adabiyotlarida Men-szi tarzida, ingliz tilida Mencius holida uchraydi) haqida so'z ochsak, bu nom hali o'zbek kitobxonlariga deyarli tanish emas. Deyarli deyishimizning boisi, Meng-zining shonli hayoti va faoliyati haqidagi ilk o'zbek tilidagi ma'lumotlar, uning hikmatlari tarjimalari Saida Jo'rayevaning "Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf"<sup>2</sup> kitobida uchraydi. Biz ham bir necha yillik tarjimonlik mehnatimizning mahsuli o'laroq o'zbek kitobxonlari hukmiga havola etilgan "Qadim Xitoy donishmandligi"<sup>3</sup> kitobimizda donishmandning sara hikmatlaridan namunalarni xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan edik.

Meng-zı qadimgi Xitoy donishmandi, faylasufi, notiq va Xitoy madaniyatining mag'zi hisoblangan konfutsiychilik ta'lilotining Konfutsiydan keyingi eng yirik namoyandasidir. O'z yurti Xitoyda garchi uning nomi va hikmatlari hech bir xitoylik uchun yangilik bo'lmasa ham, lekin tarixiy hujjatlarning yetishmasligi sabab haligacha Meng-zining hayoti to'g'risida kishilar juda oz ma'lumotga ega. Odatta uning tug'ilgan va o'lgan yillarini taxminan eramizdan avvalgi 372-289-yillar yoki taxminan eramizdan avvalgi 385-302-yillar deb belgilaydilar. Keyingi variant anchayin ishonchlirok deguvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Xitoy muarixi Si Ma Chyanning "Tarixiy xotiralar" asarida Meng-zining tug'ilgan joyi, ismi, sayohatlari va asari haqida qisqacha ma'lumotlarni uchratamiz. Shuningdek, "Meng-zı" asarining ba'zi o'rinalarda uning hayotiy faoliyatiga oid parchalarga duch kelamiz. Shularga asoslanib, Meng-zining hayotiga ta'rif beriladi.

<sup>1</sup> Zi – qadimgi Xitoya ustozlar, oqil-u fozil kishilarga nisbatan qo'llaniladigan chiroyli murojaat shakli, o'zbek tiliga uni ustoz, taqsir deb tarjima qilish mumkin, musulmon dunyosida o'rtalarda shu ma'noda mavlono istilohi qo'llanilgan. Qadimgi Xitoya to'g'ridan-to'g'ri kishilarning ismini aytib chaqirish odobsizlik bo'lgan, shu bois noqlaylikni yumshatish uchun ishlataladigan pardali so'z – "zi" dan foydalanishgan: masalan, Ko'ng-zı (Ustoz Ko'ng, ya'ni Konfutsiy), Meng-zı (Ustoz Meng), Syun-zı (Ustoz Syun) va hokazo. Bu so'z, shuningdek, kishiga nisbatan hurmat belgisi hisoblangan.

<sup>2</sup> Жўраева С. Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф.– Тошкент: "Янги аср авлоди", 2002.

<sup>3</sup> Qadim Xitoy donishmandligi (hikmatli so'zlar va maqollar) / Xitoy tilidan Ilhom Qosimov tarjimasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodи", 2014.



Meng-zining asl ismi Ke (柯) bo'lib, Xitoy tarixidagi Urushqoq podsholiklar (Jan-guo) davri o'rtalarida Zou<sup>4</sup> bekligida (hozirgi Shando'ng provinsiyasi Zou nohiyasi atroflarida) yashagan. Otasining ismlari Ji, hurmatli nomlari Gong-i bo'lib, hayoti noma'lum. Onasi Jang beka. Shuni ishonchi bilan aytish mumkinki, Meng-zining otasi onasidan oldin qazo qilgan. Ehtimol, shuning uchun bo'lsa kerak, Meng-zining hayotida onasining ta'siri nihoyatda katta.

Xitoy xalqi orasida Meng-zi va uning oqila onasi bilan bog'liq talaygina ibratlari hikoyalari yuradi. Shulardan biri Meng-zi onasining o'zi to'qiyotgan mato ipini qirqib yuborib o'g'liga nasihat qilgani haqidadir. Hikoya qilishlaricha, Meng-zi yoshlikda o'qishga unchalik xushi bo'lmagan. O'g'lining ilm olishiga hafsalasizligini ko'rgan ona o'zi to'qib o'tirgan mato ipini qirqib yuborib, biror ishni yarim yo'lida tashlab ketishning oqibati mana shunday voy bo'lishligini uqtirib farzandiga nasihat qiladi. Mato to'qish ona-bolaning tirikchilik manbai edi, Meng-zi buni bilmaligi mumkin emasdi. Qattiq ta'sirlagan Meng-zi shundan so'ng erta-yu kech qunt bilan o'qib-o'rghanishga kirishadi. Bu kabi ibratomuz hikoyalari Meng-zi onasining ta'lim-tarbiyani muhim o'ringa qo'yanligidan dalolat beradi.

Ana shunday hikoyalardan yana biri Meng-zining onasi o'g'lining kelajagi uchun, uning qobil va oqil inson bo'lib voya yetishi uchun yaxshi muhit izlab joyma-joy ko'chib yurgani haqida.

Meng-zi yoshligidayoq otasi vafot etib ketgan edi. Beva bo'lib qolgan onasi qayta turmushga chiqmaydi. U farzandi Meng-zining tarbiyasiga nihoyatda katta e'tibor bergen, o'g'lining bir kuni xalqqa nafi tegadigan inson bo'lib yetishishiga umid qilardi. Dastlab ona-bola bir qabriston yaqinida istiqomat qilishardi. Meng-zi qo'shni bolalar bilan katta odamlarning tiz cho'kib, ho'ngrab yig'lashlarini o'rganib olib, o'zlarini ham dafn qilish o'yinini o'ynay boshlaydilar. Buni ko'rgan onasi qoshlarini chimirib: "Yo'q! Men o'g'limning bunday joyda yashashiga yo'l qo'yolmayman!" debdi-yu, Meng-zini olib ko'chib ketibdi. Ular yangi ko'chib borgan joy bozor yonida ekan. Meng-zi bu yerga kelgach, qo'shni bolalar bilan savdogarlarning baqirib-chaqirishlarini o'rganib, bozor-bozor o'ynay boshlabdi. Onasi yana tashvishga tushibdi: "Bu yerlar ham o'g'limning yashashiga to'g'ri kelmaydi!" Shunday debdi-yu, yana Meng-zini olib bir qushxonasi yaqiniga ko'chib o'tibdi. Meng-zi bo'lsa bu yerda mollarni olib-sotish, bo'g'izlashni o'rgana boshlabdi. Bundan xabar topgan onasi yana qoshlarini chimirib: "Bu yer ham oldingilaridek bolamning yashashiga to'g'ri kelmaydi!" Shunday qilib ular yana ko'chib ketishibdi. Bu gal ular bir maktab yaqiniga ko'chib kelib joylashibdilar. Shu orada

<sup>4</sup>Zou — Xitoyning Jou sulolasiga (er. avv. taxminan XI asrdan er. avv. 221 yilgacha) davridagi davlat nomi, hozirgi Shando'ng o'lkasi Zou nohiyasi hududlarida bo'lgan.



ibodatxona ham bo'lib, har oyning birinchi kuni amaldorlar bu yerga kelib, bir-birlariga ta'zim qilib salomlashib, o'zaro hurmat ko'rsatardilar, Meng-zí bir ko'rishdayoq birma-bir hammasini eslab qola boshlabdi. Ana shundagina onasining ko'ngli joyiga tushib, bosh silkib debdi: "Faqat shu yer o'g'lim yashashi lozim bo'lgan joydir!" Shundan so'ng ona-bola o'sha yerda yashab qolgan ekanlar.

Keyinchalik hamma "Meng-zí onasi uch ko'chgan" iborasini odamning yaxshilarga yaqinlashish kerakligini, ana shundagina yaxshi odatlarni o'rganish mumkinligini ifodalash uchun qo'llaganlar. Bu "Qirmiziga yaqinlashsang qizili, siyohga yaqinlashsang qorasi yuqadi" degan xitoy maqolini ham tasdiqlaydi, muhit kishining qiziqliklari va odatlarini o'zgartirib yuborishini ko'rsatadi.

Meng-zining onasi uch marta ko'chib, axiyri o'g'lining to'g'ri ulg'ayishi uchun yaxshi muhit yaratib berdi, lekin bu bilan Meng-zining ta'lim-tarbiyasini aslo bo'shashtirmagan. Uning nazarida, agar o'zida hafsalha bo'lmasa, barchasi besamardir. Shu bois o'g'lining tarbiyasini mahkam tutib, doimo uni qunt bilan o'qishga undagan.

Shu o'rinda bir qiziq holatga to'xtalib o'tishni lozim topdir: buyuklar taqdirlaridagi o'xshashliklar kishini chuqr mulohaza yuritishga undaydi. Konfutsiy va Meng-zí ikkisi ham otadan yosh yetim qolib, onalarining tarbiyasi bilan voyaga yetadi. Mo'tabar Onalar garchi donishmand emas, lekin donishmandlarni dunyoga keltirib voyaga yetkizdilar! Ikki donishmand ham jahongashtalik qildi, g'oyalarni hayotga tadbiq qilish uchun ko'ngillaridagi qobil hukmdorni topolmagach, qariganlarida ona-yurtlariga qaytib qolgan umrlarini butkul ilmga bag'ishlaydilar. Konfutsiyning "Muhokama va bayon"i ham, Meng-zining "Meng-zí" asari ham ularning shogirdlari, izdoshlari tomonidan kitob qilingan.

Meng-zí ustozining nomi hech bir adabiyotlarda uchramaydi, o'sha davrda unchalik katta ta'sirga ega bo'lman deb taxmin qilish mumkin. "Meng-zí" kitobida Meng-zí to'g'ridan to'g'ri Konfutsiyga shogird bo'lomaganidan nihoyatda afsusda ekanligi, shundoq bo'lsa ham uning g'oyalarni o'rganishdan faxrlanishini bildiradi. Xitoy solnomachisi Si Ma Chyan uni "Zi-si eshigida tahsil olguvchilardan" deb yozadi, bu haqiqatga ancha yaqin. Chunki Meng-zí va Zi-si g'oyalari yo'nalishi nihoyatda mos keladi. Zi-si Konfutsiyning nabirasi Ko'ng-jidir, u ham Urushqoq podsholiklar davri mutafakkirlaridan biri; aytishlaricha, unga Konfutsiyning qarilik davridagi mashhur shogirdlari biri Zeng-shen ustozlik qilgan. Zeng-shen esa "Buyuk ta'limot" kitobini yozgan Zeng-zidir. Zi-sining asosiy g'oyalari "Jo'ng-yong" ("Mo'tadilik") asarida aks etgan. Keyingi davr olimlari Meng-zí va Zi-si g'oyalarni tendensiyasiga asoslanib, ularning ilmiy maktablarini birlashtirib "Si-Meng ilmay maktabi" deb ataganlar. Meng-zí Konfutsiy g'oyalarni soddalashtirib tushuntirib berdi va ularni yanada



rivojlantirdi, Konfutsiy hikmatlaridagi shakliy tarqoqlikni izchil va mantiqiy izohlar bilan bog'lab, ularni yaxlit tizim qilib birlashtirdi. Konfutsiychilik ta'limot sifatida mavjud edi, xolos, Meng-zi uning nazariy va amaliy jihatlarini ro'yobga chiqarishga urindi. Konfutsiychilikning yanada keng tarqalishiga salmoqli hissa qo'shgan Meng-zi adabiyotlarda Konfutsiy nomi bilan birga tilga olinishi ham bejizga emas.

Meng-zi kichik podsholiklar o'rtasida o'zaro urushlar avj olgan tarixiy bir davrda yashadi. Bekliklar nima qilib bo'lsa ham kuchlarini mustahkamlashga intilar, katta davlatlar sultanatni birlashtirishni orzu qilishsa, kichik-kichik podsholiklar o'zlarini saqlab qolish uchun bor kuchlarini sarflashardi. Shunday bir vaziyatda iste'dodli odamlarni topish dolzarb masalaga aylanadi. Konfutsiydan keyin ilm-fan markazi aholining quyi qatlamlariga ko'chib, xalq maorifi rivojlanishi natijasida "mirzolar" tabaqasi oldingi byurokratlar sinfi, quyi aslzodalar tabaqasidan asta-sekinlik bilan nisbatan mustaqil jamoa bo'lib shakllandi. Bu hozirgi kundagi ziyorolar guruhiga to'g'ri keladi. Mirzolar o'zlarining siyosiy qarashlari haqida podsholarga va'z o'qiganlar, insonparvar va adolatli siyosat yurgizishga ularni undaganlar. Shu ma'noda Meng-zini haqli ravishda insonparvarlik va adolat kuychisi deyish mumkin. U o'zining otashin nutqlarida hech narsadan hayiqmasdan podsho va amaldorlarning shafqatsizliklari, adolatsizliklari, axloqsizliklarini oddiy va achchiq haqiqatlar, mantiqli fikrlari bilan fosh etib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishga harakat qiladi. Xalqsevar, haqiqatgo'y, dovyurak donishmand sifatida nom chiqaradi.


"Tarixiy xotiralar" asarida Meng-zining sayohatlari haqida juda qisqa ma'lumotlar mavjud. Biroq "Meng-zi" asaridagi Meng-zining podsholarga qilgan va'zları va nasihatlari haqidagi qaydnomalar bizga donishmandning faoliyat tarzi xususida bilimlarimizni boyitishga katta hissa qo'shadi. Bu hujjatlardan ma'lum bo'ladiki, Meng-zi asosan Zou, Lu, Chi, Teng, So'ng va Vey davlatlarida siyosiy faoliyat olib borgan. U ham o'zining ma'naviy ustozni Konfutsiyga o'xshab ko'pgina donishmandlar qatori jahongashtalik qilgani ma'lum bo'ladi.

Zou har holda kichik davlat edi, Meng-zi o'zining g'oyalarini amalga oshirish uchun nigohini tez orada Chi podsholigiga qaratadi. Meng-zining birinchi marta Chiga kelishi podsho Vey-vang davriga to'g'ri keladi. Vey-vang O'rta Tekislikka<sup>5</sup> mutlaq hokim bo'lishni, quroq kuchi bilan Osmonostini<sup>6</sup> istilo qilishni istardi, Meng-zining

<sup>5</sup> Meng-zi yashagan davrda qadimgi Xitoydag'i katta-kichik podsholiklar.

<sup>6</sup> O'rta Tekislik – o'sha zamondag'i Xitoy hududi, bunga Xuangxe daryosining (Sariq daryoning) o'rta va quyi oqimidagi yerlar kiradi: Xenan provinsiyasining katta qismini, Shando'ngning g'arbiy va Xebey, Shansining janubiy qismlarini o'z ichiga oladi.

<sup>7</sup> Osmonosti – butun mamlakat, ya'ni Xitoy podshohi – "tyan-zi" (osmon o'g'li) tasarrufidagi hudud; ba'zi o'tinlarda "to'rt





insonparvarlikka oid siyosiy qarashlariga qarshi chiqadi. Maqsadsiz sultanat inqirozga yuz tutishi muqarrarligini (Alisher Navoiy) yaxshi bilgan, hech qanday muhim vazifaga loyiq ko'rilmagan Meng-zи Chini tark etadi. Ketayotgan payt podsho hadya qilgan yuz oltin yombini ham olmagan, uning nazarida podshoning hech bir sabablarsiz pul sovg'a qilishi pora berib o'z tomoniga og'dirib olishidir, olijanoblar esa pulga uchmaydilar. Shundan so'ng donishmand yana bir qancha davlatlarga boradi, lekin orzuidagi hukmdorni uchratmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Meng-zining isonparvarlik bilan idora qilish haqidagi siyosiy qarashlarini hayotga tadbiq qilishga urinishlari zoye ketadi. Orzulari armonga aylangan, umidlari chippakka chiqqan Meng-zи saroy xizmatlaridan ham voz kechadi.

Meng-zи yetmish yoshdan oshgach, yurtma-yurt kezib yurishga ortiq xohishi qolmaydi. Shunday qilib Van Jang, Go'ng Sun Chou kabi shogirdlarini olib ona-yurtiga qaytadi. Keyingi o'n yildan ortiq vaqt mobaynida Meng-zи shogirdlari bilan birgalikda "Nazmnoma", "Nasrnoma" kabi konfutsiylikning qator qadimiy kitoblarini tadqiq qilib, o'zining ilmiy g'oyalalarini tartibga solib, "Meng-zи" asarini tuzadi. "Meng-zи" boblari sonini Si Ma Chyan o'zining "Tarixiy xotiralar" kitobida yettita deb qayd etgan. Ular quyidagilar: "Lyanglik Xuey-vang", "Go'ng Sun Chou", "Teng Ven Go'ng", "Li Lou", "Van Jang", "Gaozi" hamda "Jin-sin" (ya'ni "Jonu dili bilan..."). Boblar nomiga to'xtaladigan bo'lsak, ular hech qanday alohida bir ma'nolarga ega emas, Konfutsiyning "Muhokama va bayon" asarida bo'lgani kabi, shunchaki bob boshidagi asosiy so'zdan olingan. Sharqiy Xan sulolası davri olimi Jao Chi o'zining "Meng-zи jangjyu" ("Meng-zи" boblari hamda iboralari") asarida mazkur asarni asosan hajmiga qarab avvalgi va keyingi qismlarga ajratgan. Shu sabab "Lyanglik Xuey-vang. Avvalgi qism", "Lyanglik Xuey-vang. Keyingi qism" deb ataladigan o'n to'rt boblik "Meng-zи" paydo bo'ldi. Asar turli katta-kichiklikdagi 250 dan ortiq maqolatlardan tashkil topgan bo'lib, mavzuviy jihatdan xilma-xildir. Ularda axloq, siyosat, harb ilmi, iqtisod, dehqonchilik, musiqa, mantiq, e'tiqod va boshqa sohalarga oid dolzarb masalalar ilgari surilgan.

Kishi diqqatini tortadigan yana bir tomoni shundaki, Meng-zи hikmatlarida Konfutsiyda bo'lganidek reallik yaqqol sezilib turadi, bu uning ma'naviy ustozni singari haqiqatni amaliyotdan izlaganligini anglatadi. Qadim Xitoy donishmandlaridan biri Lao-zi ijodida majoziylik, Ko'ng-zida (Konfutsiyda) majoziy-mantiqiylik, Meng-zida bo'lsa ko'proq mantiqiy yondashuvni sezish mumkin. Meng-zи insonparvarlik va adolat tuyg'ularining kuychisiga aylandi; Konfutsiyning hikmatlaridan ilhomlanib inson tabiatida ezgulik bilan dunyoga kelishi, ya'ni "inson tabiatи ezguligi" nazariyasini dengiz oralig'idagi yerlar" deb qayd etiladi.



yaratdi; odamlarning ezgulik qilishi – ularning asliga xosdir, ularning yovuzligi esa asliga (insoniylikka) xilof ish qilishidir (xiyonatlaridir), degan qarashlarni ilgari surdi. Keyinchalik konfutsiychilik ta'limoti namoyandalaridan yana biri Syun-zi<sup>8</sup> Meng-zi nuqtayi nazarlarining aksi o'laroq "inson tabiat yovuzligi" qarashlarini yoqlab chiqdi.

"Meng-zi" kitobining donishmand va podsho suhbatlaridan, hikmatlardan saralab ilk bor o'zbek tiliga tarjima qildik. Shu o'rinda tarjima haqida ikki og'iz so'z.

Meng-zi o'gitlarini o'zbek tiliga o'girar ekanman, ularda bugungi kun kishisini o'ylantirayotgan juda ko'plab og'riqli masalalarning oddiy va mantiqiy yechimini topgandek bo'ldim. Har gal yangi hikmatini tarjima qilib bo'lishim bilan aqalli bitta savolimga javob topgandek his qilaman o'zimni. Asar tarjimasiga kirishgan ilk chog'larimda aksariyat maqolatlar anchayin qiyin, tushuniksiz tuyulgan edi. Tarjima qilish jarayonida Meng-zining dardu armonlarini his qila boshladim va bora-bora dastlab nihoyatda murakkabdek tuyulgan jumlalar mohiyati menga ayon bo'la boshladi. Bundan ruhlanib ketdim va aynan mana shu narsa ham mashaqqatlarni yengib o'tishimda muhim rol o'ynadi.

Shu kabi hikmatlarni O'zbek tiliga tarjima qilar ekanman, yana bir muhim haqiqatni – ona-tilimizning naqadar go'zalligi, tarovatini, ifoda qudratiyu mislsiz imkoniyatlarini teran anglab yetdim. Tarjimon uchun o'z ona tilisini puxta bilishlik tarjima qilayotgan tilini yaxshi bilishlikdan ko'ra muhimroqdir.

Tarjimondan

<sup>8</sup> Syun-zi (taxminan er. avv. 313–er. avv. 238-yy.) — Xitoy mutafakkiri, adibi, siyosat arbobi, konfutsiychilik ta'limotining yirik namoyandalaridan biri. Ismlari Kuang, hurmatli nomlari Ching bo'lib, Xitoyning Urushqoq podsholiklar davridagi Jao podsholigidan bo'lgan; "Syun-zi" nomli asari bor.

# MENG-ZI

## 孟子

BIRINCHI BOB

Lyang Xuey-vang. Avvalgi qism

Meng-zı Vey<sup>9</sup> podshosi Lyang Xuey-vang<sup>10</sup> bilan ko'rishganlarida, hukmdor unga shunday debdi: "Oqsoqol" ming chaqirimlik olis yo'l bo'lishiga qaramay bu yerkarda kelibdilarmi, demak, mening davlatimga foyda keltiradigan aqlli maslahatlari ham bordir?"

Meng-zı javob berib debdi: "Podsho nechun aynan foyda haqida so'zlashlari kerak? Axir insonparvarlik vaadolat ham bor-ku, faqat shular haqida so'zlasalar bo'lgani. Agar podsho: "Mening davlatimga qanchalik foyda keltiradi?"-desa, dafu-to'ralar<sup>11</sup> ham: "Bizning yer-mulklarimizga qay darajada foydali?"-deb so'raydilar, mirzolar va oddiy xalq ham: "Bizga bundan nechog'lik foyda?"-deb so'ragay. Yuqori va quyidagilar o'zaro manfaatparastlikka berilsalar, el xavf-xatar ostida qolgay.

O'n minglik harbiy aravalarga ega davlat<sup>12</sup> podshosiga suiqasd qilguvchi albatta ming sonli jang aravalari bo'lgan beklardir; ming sonli jang aravalari bo'lgan bek joniga albatta yuz chog'lik harbiy aravalari bo'lgan to'ralar qasd qilurlar. O'n mingdan ming, mingdan esa yuz olur, shunday qilmaydiganlari ko'p bo'lmas. Agar adolatni keyinga, manfaatni oldinga qo'yib harakat qilsang, o'sha kimsalar hamma narsangni tortib olmagunlaricha to'ymaydi.

<sup>9</sup> Vey – Xitoy tarixining Urushqoq podsholiklar davridagi (eramizdan avvalgi 475 – eramizdan avvalgi 221-yillar) podsholiklardan biri.

<sup>10</sup> Lyang Xuey-vang – ya'ni Vey Xuey-vang, ismi Ing. Vey podshosi; hukmronlik vaqt poytaxt Anidan Da-Lyang shahriga ko'chiriladi (bugungi Xenan provinsiyasi Kayfeng yerlariga to'g'ri keladi, shu bois Vey o'miga Lyang nomi ham ishlataladi), shuning uchun Vey Xuey-vang yana Lyang Xuey-vang deb ham ataladi: Vey – ixtiyoridagi davlat nomiga ishora, Xuey – o'limidan so'ng berilgan unvon, vang – podsho, qiroq degani. Xitoya podsholar nomi bilan atalmagan, ularning ismi o'miga sulola yoki podsholik nomi, keyin o'limidan so'ng berilgan faxriy unvon hamda podsholik yoki beklik darajasini anglatuvchi istulohlar, masalan, "vang" (podshoh), "gong" ("go'ng" – gersog, bek).

<sup>11</sup> Bu yerda Meng-zı nazarda tutilmoqda.

<sup>12</sup> Dafu – qadimgi Xitoyda mansab nomi, siyosiy tabaqqa, to'ralar; darajasiga ko'ra vazirlardan past, mirzolardan yuqori turishgan.

<sup>13</sup> To'rt ot toradigan jang aravasi, qadimgi Xitoyda podsholiklarning katta-kichikligi ularning ixtiyorida mavjud bo'lgan jang aravalari oz-ko'pligiga qarab belgilangan.



Insonparvar bo'la turib o'z ota-onalarini tashlab ketganlar hech bo'limgan; adolatparvar bo'la turib o'z podshosiga iltifotsizlik qilguvchilar ham bo'limgan.

Eh, podsho, faqat insonparvarlik va adolat haqida so'ylaylik, vassalom. Nechun aynan manfaat haqida so'zlanishi kerak?"

- Katta-yu kichik barchasi manfaatparastlikka mukkasidan ketgan el, shubhasiz, xavf-xatar ostida qolgay.
- Insonparvar bo'la turib o'z ota-onalarini tashlab ketganlar hech bo'limgan; adolatli bo'la turib o'z podshosiga iltifotsizlik qilguvchilar ham bo'limgan.

\*\*\*


Meng-zi podsho Lyang Xuey-vang bilan ko'rishibdi. Podsho hovuz labida oqqush, yovvoyi g'oz, los<sup>14</sup> va bug'ularga termulib turar edi, Meng-zidan so'rabdi: "Xushxulq kishilar ham bulardan quvonadilarmi?"

Meng-zi javob berib shunday debdi: "Xushxulq bo'lsalargina bunday baxtiyorlikdan baxramand bo'la olurlar. Badxulq kimsalar garchi bularga ega bo'lsalar ham, baxtiyor bo'lolmas. "Nazmnoma"da<sup>15</sup> aytilganki:

Reja qilinmishdi ajib minora,  
Ishlar mahorat-la bo'lar saranjom,  
Avom g'ayrat ila kelib junbishga,  
Go'yoki kun o'tmay hozir bo'ldi u.  
Aslida minora oshig'ich emas,  
Xalqi – qobil o'g'li ko'rsatti o'zin.  
Ul podsho sayr etar ajib bog' aro,  
Bug'ular betashvish yotar yaslanib.  
Bug'ular semiz ham ranglari yal-yal,  
Oq qushlar charx urar oppoq tovlanib.  
Podsho turar ajib hovuz labida,  
Hovuz to'la baliqlar sakrar sho'x-shodon.

<sup>14</sup> Los – bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon.

<sup>15</sup> "Nazmnoma" – Xitoyning eng qadimgi she'rlar to'plami, jami 305 ta she'rda iborat. Xitoy donishmandlaridan biri Konfutsiy unga tartib bergan. Konfutsiychilikning mumtoz asarlaridan biri sifatida e'zozlanadi.





Hukmdorlardan Ven-vang<sup>16</sup> xalq kuchi bilan ham minora, ham hovuz qurdirdi, xalq bundan juda sevindi. O'sha minoraga "Ajoyib minora" deb nom berdi, hovuzni ham "Ajoyib hovuz" deb atadilar. U yerda los va bug'ular, baliq va toshbaqalar borligidan xalqning sevinchi ichiga sig'masdi. Burungi oqil podsholar xalq bilan birga sevindilar, ular shu uchun ham sevina olganlar.

"Tang qasami"<sup>17</sup> shunday deyiladi: "Bu quyosh<sup>18</sup> qachon zavol topgay?! Sening bilan birga o'lsak ham mayli!"

Minoru hovuzlari, bog'larida qush va yovvoyi hayvonlari bo'lган podsho bulardan xalqi uning o'limin istab, hatto hech bo'lмагanda u bilan birga o'lishga ham shay turganida nahotki yolg'iz o'zi bahramand bo'la olsa?"

- Go'zal xulq sohiblarigina baxtiyorlik gashtin sururlar; badxulq kimsalar unga ega bo'lsalar ham, baxtiyorlikdan bebahradirlar.
- Burungi oqil podsholar xalq bilan birga sevinganlar, shuning uchun ham haqiqiy baxtiyorlikdan bahramand edilar.

\*\*\*

Podsho Lyang Xuey-vang xitob qilibdi: "Men el ishiga jon-dilimni berdim. He-ney<sup>19</sup> muzofotida qahatchilik bo'lганida yerlik aholining bir qismini Xe-dongga<sup>20</sup> ko'chirdim, shuningdek, He-neyya oziq-ovqat yetkazib berdim. He-dongda qahatchilik bo'lsa, yana xuddi shunday bartaraf eturman. Qo'shni davlatlar yurgizayotgan siyosatni kuzatsang, ular orasida menchalik kuyib-pishadigani yo'q. Biroq qo'shni davlatlarning nufusi kamayib qolayotgani yo'q, mening fuqarolarim ham ko'payib qolgani yo'q. Nega shunday?"

<sup>16</sup> Ven-vang (er. avv. 1185-1135-yy.), haqiqiy ismi sharifi Ji Chang; Jou sulolasi asoschisi U-vangning otasi.

<sup>17</sup> "Tang qasami" – "Shang-shu" ("Kitob")dagi boblardan birining nomi, unda Shang sulolasi (taxminan er. avv. XVI asr-er. avv. XI asrlar) hukmdori Shang Tangning Sya sulolasining (taxminan er. avv. XXI asr-er. avv. XVI asrlar) so'nggi hukmdori Sya Jyega qarshi yurishi oldidan ichgan qasami qayd qilingan.

<sup>18</sup> Bu yerda Sya sulolasi hukmdori Jye nazarda tutilmoxda. U Sya Jye nomi bilan ham ma'lum, Sya sulolasi va davlatining so'nggi hukmdori, o'zini "Quyosh" deb atagan, zolim podsho o'tgan. O'zining shafqatsiz idora usuli bilan xalqqa ko'p azob bergen. Eramizdan avvalgi 1766 yil jasur Tang boshchiligidagi bosh ko'targan qo'shin va xalq tomonidan mamlakatdan qubib yuborilgan. Jye va Jou (In-Shang sulolasining so'nggi hukmdori) ikkisi eng qadimgi davring atoqli va saxovatpesha hukmdorlari Yao va Shunlarga qarshi qo'yildi.

<sup>19</sup> He-ney – Vey podsholigi yerkari, Huanghe daryosi (Sariq daryo)ning shimoliy sohilidagi Ji-yuan hududlari (hozirgi Xenan provinsiyasi)ga to'g'ri keladi.

<sup>20</sup> He-dong – Vey podsholigi yerkari, Huanghe daryosining sharqiy sohilidagi An-i hududlariga (hozirgi Shansi provinsiyasiga) to'g'ri keladi.



Meng-zi shunday javob beribdi: "Podsho jang qilishni yoqtiradilar. Ijozat etsangiz, urush misolida o'xshatish qilsam. Jang nog'oralari gumburlab, jangchilarining tig'lari bir-biriga tekkan mahal askarlaringizdan bir guruhi dubulg'a-qalqonlarini tashlab, qurolini surgab qochishga tushibdi. Ayrimlari yuz qadam qochib borib to'xtabdilar, ba'zilari ellik qadam qochib borib to'xtabdilar. Ellik qadam yugurganlar yuz qadam yugurganlarning ustidan kulishsa, Siz bunga qanday baho bergen bo'lur edingiz?"

"Bunga yo'l qo'yagan bo'lur edim. Ular shunchaki yuz qadamgacha chopib borolmagan, xolos, lekin bu ham qochishdir", – deb javob beribdi podsho.

Meng-zi shunday debdi: "Modomiki podsho shu haqiqatni tushunib yetgan ekan, unda xalqingizning qo'shni davlatlarnikidan ko'p bo'lishini umid ham qilmang.


Dehqonchilik mavsumiga xiloflik qilmasang, yeb ado qilolmaydigan oshlig'ing bo'lur; zinch to'qilgan to'rni hovuzga tashlamasang, baliq va toshbaqalarini ham yeb tugatolmaysan; mavsumi bilan bolta ko'tarib tog'-o'rmonga borsang, yog'och-taxtalarining ham ado bo'lmas. Yeb ado qilib bo'lmaydigan oshliq va baliq-toshbaqalar, ishlatib tamom qilib bo'lmaydigan yog'ochlar bo'lgach, xalqda bu tug'ilganlarni boqish va o'lganlarni dafn etishda hech narsadan qisinmaslik imkonini tug'dirur. Tug'ilganlarni boqish va o'lganlarni dafn etishda xalqning armoni bo'limasa, xayr-saxovatli idora qilish siyosatining ibtidosi ayni shudir.<sup>21</sup>

Hamma besh mu<sup>22</sup> hovlisiga tut daraxti o'tqazsa, unda ellik yoshga kirganlarning barchasida kiygani shoyi ko'ylagi bo'ladi. Parranda va uy hayvonlarini parvarish qilganda vaqtini boy bermasangiz, yetmish yoshga kirganlar to'yib go'sht yegaylar. Yuz mu ekin maydonidan dehqonchilik mavsumida odamlarni chalg'itmasang, shunda ko'p kishilik oila ochlik nimaligin bilmagay. Maktab ta'limida ehtiyyotkor ish tut sangiz, ota-onaga qobil farzand bo'lish va kattalarni hurmat qilishning mohiyatini yoshlarning qulog'iga quysangiz, unda soch-soqoli oqargan keksalar og'ir yukni orqalab, boshlarida ko'tarib yurishlariga hojat qolmaydi. Yetmish yoshdagilarigacha shoyi kiyib, go'sht tanovvul qilsa, xalqi ochlik neligin bilmasa, sovuqda qolmasa, shunda ham bunday hukmdor sultanatga hokimi mutlaq bo'limasligi mumkin emas.

It va cho'chqalarni odamlarning ovqatlari bilan boqib, tejab-tergashni bilmaslik, yo'lda ochidan o'layotgan kishini uchratib qolib, holbuki omborini ochib yordam berishni bilmaslik – bunga aql bovar qilmaydi. Odam ochidan o'lib bo'lgach, tag'in: "Bunga men aybdor emasman, barcha ayb yilning shundoq kelganida!" – deydi. Buning bir boyaqish bechorani nayza sanchib o'ldirib, so'ngra: "Bunga men aybdor

<sup>21</sup> Meng-zi ko'nglidagi xayr-saxovatli idora qilish siyosati insonparvarlik va adolat bilan sultanatni boshqarishdir. Mengzi bu idora qilish siyosatining o'ziga xos xususiyatini "go'zal fazilatlar bilan insonparvarlikni ro'yobga chiqarish"da deb hisoblaydi.

<sup>22</sup> Mu – Xitoyda maydon o'Ichov birligi, 1/15 gektarga teng.





emasman, hamma ayb qurolda!” – degandan nima farqi bor? Podsho aybni hosilsiz yilga to’nkamasa, osmonostidagi<sup>23</sup> xalqlar o’zlari huzuriga kelgaylor”.

- Dehqonchilik mavsumiga xiloflik qilmasang, yeb ado qilolmaydigan oshlig‘ing bo’lur.
- Tug‘ilganlarni boqish va o’lganlarni dafn etishda xalq hech narsadan qisinmay, bearmon yashasa, xayr-saxovatli idora qilish siyosatining ibtidosi ayni shudir.
- Hamma besh mu hovlisiga tut daraxti o’tqazsa, unda ellik yoshga kirganlarning barchasida kiygani shoyi ko‘ylagi bo‘ladi.
- Maktab ta’limida ehtiyyotkor ish tut sangiz, ota-onaga qobil farzand bo‘lish va kattalarni hurmat qilishning mohiyatini yoshlarning qulog‘iga quysangiz, unda soch-soqoli oqargan keksalar ko‘cha-ko‘yda og‘ir yukni orqalab, boshlarida ko‘tarib yurishlariga hojat qolmaydi.
- Bir odam ochidan o’lsa, tag‘in: “Bunga men aybdor emasman, barcha ayb yilning shundoq kelganida!” – deyishlikning bir boyaqish bechorani nayza sanchib o‘ldirib, so‘ngra: “Bunga men aybdor emasman, hamma ayb qurolda!” – degani o‘rtasida nima farq bor?
- Podsho aybni hosilsiz yilga to’nkamasa, osmonostidagi xalqlar o’zlari huzuriga kelgay.

\*\*\*

Lyang Xuey-vang dedi: “Men sening o’gitlaringni bamaylixotir eshitishni xohlayman”.

Meng-zı unga javoban shunday debdi: “Odamni tayoq bilan kaltaklab o‘ldiring nima-yu, tig‘ sanchib o‘ldirding nima – qanday farqi bor?”

Dediki: “Hech qanday farqi yo‘q!”

Meng-zı yana so‘rabdi: “Tig‘ sanchib o‘ldirding nima-yu, siyosiy yo‘llar bilan juvonmarg qilding nima – qanday farqi bor?”

Yana dediki: “Hech qanday farqini ko‘rmayapman!”

Meng-zı shunday dedi: “Oshxonangiz yog‘li go‘shtlarga to‘la, otxonangizda semiz otlar bog‘log‘liq, lekin xalq ochlikdan ozib-to‘zib ketgan, xarobalarda odamlar ochdan o‘layotirlar. Bu o‘zi bosh bo‘lib odamlarni yirtqich hayvonlarga yem qilgan bilan barobardir. Odamlar hatto yirtqich hayvonlarning bir-birlarining go‘shtini yeishlarini-da ko‘rga ko‘zları yo‘q. Xalqning ota-onasi bo‘la turib hukumat ishlarini joriy qilishda

<sup>23</sup> Osmonosti – ikki xil ma’noga ega: 1) bu yerda: butun Xitoy yoki butut mamlakat; sultanat; 2) butun dunyo.



“o’zi bosh bo’lib odamlarni yirtqich hayvonlarga em qilish”dan saqlolmasa, undaylarni yana qanday qilib xalqning ota-onasi deyish mumkin? Jo’ng-ni (Konfutsiy) shunday deganlar: “Birinchi bo’lib yog’och va loy qo’g’irchoqlar yasab birga dafn qilingan kishilar nasli quriganlardir”.<sup>25</sup> Bu qo’g’irchoqlar odamlarga o’xshatib yasalgani uchun ham birga ko’mishda ishlatilgan. Biroq xalqini ochidan o’ldirgan odamni yana nima qilsa bo’ladi?”<sup>26</sup>

- Odamni tayoq bilan kaltaklab o’ldiring nima-yu, tig’ sanchib o’ldirding nima-qanday farqi bor? Tig’ sanchib o’ldirding nima-yu, siyosiy yo’llar bilan juvomarg qilding nima-qanday farqi bor?
- Podsho oshxonasida yog’li go’shtlar, otxonasida semiz otlari bo’la turib, lekin xalqi ochlikdan ozib-to’zib, xarobalarda odamlar ochdan o’lsalar, bu o’zi bosh bo’lib odamlarni yirtqich hayvonlarga yem qilgan bilan barobardir.
- Konfutsiy dedi: “Birinchi bo’lib yog’och va loy qo’g’irchoqlar yasab birga dafn qilingan kishilar nasli quriganlardir”.

\*\*\*

Podsho Lyang Xuey-vang dedi: “Bir zamonlar osmonostida mening Jin podsholigimdan<sup>27</sup> qudratliroq davlat yo’q edi, mo’ysafid, bundan sening xabaring bor. Biroq menga qolganida, sharqda Chi podshosidan mag’lub bo’ldim, katta o’g’lim ham qurban bo’ldi; g’arbdagi mag’lubiyatdan so’ng yetti yuz li” yerlarim Chin podsholigi tasarrufiga o’tib ketdi<sup>28</sup>; janubda bo’lsa Chu podsholigini tahqirlashlariga chidab kelayapmiz<sup>29</sup>. Men isnodga qoldim, o’lib ketganlar haqqi-hurmati sharmandaliklarni

<sup>24</sup> Arxeologik qazish ishlari shuni ko’rsatdiki, Xitoya eramizdan avvalgi 3000 yil oldin tirik odamlarni o’lganlar birga qo’shib ko’mish mavjud bo’lgan. Ayniqsa Xitoyning In (Shang) sulolasi bunga yaqqol misol bo’la oladi. Hozirgi Anyang atrofidagi In davri xarobalaridan topilgan qabrdagi yigirma uchinchisi avlod Shang podshosi Vu-dingga qo’shib xotinlari ham dafn etilgan, birga qo’shib ko’milganlarning soni 16 kishidan ortiq. Tirik odamlarni birga qo’shib ko’mishdek jirkanchli odat G’arbiy Jau sulolasi davriga kelib asta-sekin yo’qolgan. Konfutsiy, haddan ortiq odamga o’xshatib yasalgan odamsimon qo’g’irchoqlarni qo’shib ko’mish ham mumkin emas, deb hisoblagan. Donishmandning yugorida keltirilgan so’zlari uning birga qo’shib ko’mishdek yomon odatdardan niyoyatda qattiq nafratlanganligini bildiradi.

<sup>25</sup> Mengzi bu yerda marhumlar ruhiga munosabati bilan xurofotchi, bid’adchilarga qarshi fikr bildirgan.

<sup>26</sup> Jin — bu yerda Vey podsholigiga ishora. Urushqoq podsholiklar davridagi (er. avv. 475-er. avv. 221 – yy.) Vey Chun-chyu (Bahor va Kuz) davridagi (er. avv. 770-er. avv. 476 – yy.) Jin davlatidan ajralib chiqqan.

<sup>27</sup> Li-1) Xitoya: uzunlik o’lchov birligi, 0,5 kmga teng; 2) Xitoya qadimgi ma’muriy birlik.

<sup>28</sup> Vey podsholigi Chin (秦) podsholigi tomonidan ko’p bora mag’lubiyatga uchratiladi, natijada Vey Xesi (daryoning g’arbi) yerlari va o’n besh nohiya-shaharlaridan ajraladi.

<sup>29</sup> Vey qo’shinlari Chu (楚) qo’mondoni Jao Yang tomonidan mag’lub etilgach, sakkiz kentidan ajraladi.



yuvib tashlashni istayman. Bu niyatim amalga oshishi uchun nimalar qilmog'im kerak?"

Meng-zí shunday javob beribdi: "Yuzlab chaqirim yerlarning to'rt tomoniga hukmdor bo'lish mumkin. Podsho, agar xalqingizga nisbatan insonparvar siyosat yurgiszangiz, jazo choralarini yumshatsangiz, boj va soliqlarni kamaytirsangiz, yerni chuqur haydab begona o'tlarni o'toq qilish mashaqqatini yengillatsangiz; yoshlarda bo'sh vaqtlarida qobil farzandlik va kattalarni hurmat qilish, sadoqat va vafodorlik tuyg'ularini tarbiyalab kamolga yetkizdirsa, ular uyda ota va og'alarining xizmatini sidqidildan ado etur, uydan hatlab chiqsalar, yoshi kattalar va yuqoridagilarga xizmat ko'rsaturlar. Ana shundagina Siz ularni hatto qo'llarida kaltaklar bilan ham g'anmlaringiz Chin va Chu podsholarining tish-tirnog'igacha qurollangan zirhli qo'shiniga qarshi bemalol yo'llasangiz bo'laveradi.

Xalqini ziroat uchun qulay fursatdan mahrum qilgan hukmdor, ularga o'z vaqtida yerni yaxshilab haydab, o'toq qilib, mo'l hosil olib ota-onalarini boqishlariga yo'l qo'ymagan bo'ladi. Ularning ota-onalari och-yalang'och, og'a-inilar, xotin va bala-chaqalar peshanalarida bir-birlaridan ayrolik qismati. O'sha podsholar o'z xalqini azob-uqubatlar girdobiga g'arq qilgan ekan, ularga qarshi yurish qilsangiz, qay birlari sizga bas kela olur? Shuning uchun ham aytadilarki: "Insonparvarlik xislatiga ega kishining raqibi bo'lmas!" Iltimos, podsho bunga shubha qilmasinlar!"

---

- Podsho agar xalqiga nisbatan insonparvar siyosat yurgizsa, jazo choralarini yumshatsa, boj va soliqlarni kamaytirsa, dehqonchilik mashaqqatlarini yengillatsa; yoshlarda bo'sh vaqtlarida qobil farzandlik va kattalarni hurmat qilish, sadoqat va vafodorlik tuyg'ularini tarbiyalab kamolga yetkizdirsa, ular uyda ota va og'alarining xizmatini sidqidildan ado etadigan, uydan hatlab chiqsalar, yoshi kattalar va yuqoridagilarga beminnat xizmat ko'rsatadigan bo'lsalar, shundan so'ng ularni hatto qo'llarida kaltaklar bilan ham dushmanning tish-tirnog'igacha qurollangan zirhli qo'shiniga qarshi bemalol yo'llash mumkin.

- Insonparvarlik xislatiga ega kishining olam-jahonda raqibi bo'lmas!

\*\*\*

Meng-zí hukmdor Lyang Syang-vang<sup>30</sup> bilan uchrashibdi. Uning oldidan chiqib odamlarga shunday debdi: "Uzoqdan razm solib podshoga o'xshatmadim, yaqin borib qaradim, amrfarmolik vajohatini-da ko'rmadim. Itifoqo shunday savol berdilar: "Osmonostida nima qilsa osoyishtalik bo'ladi?"

<sup>30</sup> Lyang Syang-vang – Lyang Xuey-vangning o'g'li.



Men: "Birlashsagina osoyishtalik hukm surgay", – deb javob berdim.  
"Kim uni birlashtira oladi?"  
Men yana javob berib dedimki: "Odam o'ldirishga ruju qo'ymagan hukmdorgina uni birlashtira olgay!"  
"Kimlar unga ergashadi?"

Men shunday javob berdim: "Osmonostida unga ergashmaydigan kimsa topilmas. Hukmdor, maysani bilsalar kerak? Agar yettinchi va sakkizinchi oylar<sup>31</sup> oralig'ida qurg'oqchilik bo'lsa, maysalar qovjirab qoladi. Agar osmonni bulut qoplab, sharros yomg'ir yog'sa, maysalar yana gurkirab unib-o'sa boshlaydi. Shunday bo'lgach, ularga kim ham to'sqinlik qila olardi?

Hozirda osmonostidagi hukmdorlar orasida odam o'ldirishga ruju qo'ymaganlari yo'q. Mabodo odam o'ldirishga ruju qo'ymagan birortasi bo'lsa, unda osmonostidagi xalqlar bo'yinlarini cho'zib unga umid bilan qaraydilar. Agar haqiqatan ham shunday bo'lsa, xalqlar go'yo suv pastga oqqani kabi unga itoat qilishga shoshiladilar. Suv jo'sh urib oqsa, uni kim ham to'xtatib qola olardi?"

- Odam o'ldirishga ruju qo'ymagan hukmdorgina mamlakatni birlashtira olgay!
- Mabodo odam o'ldirishga ruju qo'ymagan birorta hukmdor bo'lsa, unda osmonostidagi xalqlar bo'yinlarini cho'zib unga umid bilan qaraydilar. Agar haqiqatan ham shunday bo'lsa, xalqlar go'yo suv pastga oqqani kabi unga itoat qilishga shoshiladilar. Suv jo'sh urib oqsa, uni kim ham to'xtatib qola olardi?

\*\*\*

Chi podshosi Syuan-vang Meng-zidan so'radi: "Chi hukmdori Xuan va Jin hukmdori Venlarning<sup>32</sup> ishlari haqida sendan nimadir eshitsak bo'ladimi?"

Meng-zi javob berib dedi: "Jo'ng-ni (Konfutsiy) shogirdlaridan biror kim Xuan va Venlar xususida hech nima demaganlar, shu bois keyingi avlodlarga yetib kelmagan, kaminai kamtarin ham ular haqida hech nima eshitmagan. Na iloj! Elga hukmronlik qilish haqida so'zlasam-chi?"

<sup>31</sup> Bu yerda Jou sulolasi taqvimi qo'llanilgan, Sya sulolasi taqvimida beshinchи va oltinchi oylarga to'g'ri keladi. Shuni ma'lumot o'mida ayub o'tish joizki, Meng-zи yashagan davrda Xitoyda yil kuzdan boshlangan (hosil yig'ib olingandan so'ng, taxminan, sentabr yoki oktabrda), bahor yettinchi oydan kirgan (ya'ni, fevralning o'nasi yoki oxirlaridan).

<sup>32</sup> Xuan va Vey – Bahor va Kuz davridagi besh zolim podsholardan ikkitasi, birinchisining ismi Syao Bay, keyingisiniki Cho'ng Er.





Syuan-vang so'radi: "Hukmron bo'lish uchun qanday fazilatlarga ega bo'lmoq kerak?"

Meng-zı javob berdi: "Xalqingni asrab-avayla va hukmronlik qil. Shunda hech kim yo'lingga g'ov bo'lomaydi".

Syuan-vang so'radi: "Menga o'xshagan odam xalqni asrab-avaylay oladimi?"

Meng-zı dediki: "Uddalay oladi".

Syuan-vang so'radi: "Uddalay olishimni qayerdan bilsa bo'ladi?"

Meng-zı dediki: "Kaminai kamtarin vaziringiz Xu Xedan eshitganmanki, bir safar siz, on hazratlari, sud mahkamasida savlat bilan o'tirganingizda, mahkama pastidan kimdir bir buqa yetaklab o'tayotganiga ko'zingiz tushibdi va undan: "Buqani qayga olib ketayapsan?" deb so'ragan ekansiz. Haligi kishi: "Yangi qo'ng'iroqqa qon chiqargani" olib ketayapman", debdi. Shunda siz unga shunday amr etdingiz: "Buqani qo'yib yubora qol. Uning dag'-dag' titrashiga chidab turolmayman, xuddi bir begunohni qatlgohga olib ketayotganga o'xshaydi". Haligi kishi norozi ohangda dedi: "Yangi qo'ng'iroqqa qon chiqarib nazr qilish marosimini bekor qilasizmi?" Siz shunday javob qilibsiz: "Qanday bekor qilish mumkin?! O'mniga bir bosh qo'y so'yinglar!" Bilmadim, haqiqatan shunday bo'lganmidi?"

Syuan-vang dedi: "Ha, shunday voqeа bo'lgan edi".

Shunda Meng-zı dedi: "Bunday yurak hukmron bo'lish uchun mutlaqo yetarlidir. Avom xalq, podshomiz buqaga ko'zi qiymadilar, deyishdi. Lekin kaminalari boshidanoq podshoning o'sha manzarani ko'rib chidab tuolmaganliklarini bilar edim".

Syuan-vang dedi: "Ha, bu ayni haqiqat, xalq orasida shunday deb o'ylaydiganlar ham bor. Chi podsholigim garchi kichik-ensizgina bo'lsa ham, lekin nahotki bir boshgina ho'kizni ko'zim qiymasligi mumkin? Uning xuddi qatlgohga olib ketilayotgan bir begunoh singari dag'-dag' titrashini ko'rib chidab tuolmaganim uchun ham qo'y bilan almashtirgandim".

Meng-zı dedi: "Xalqning podshomiz birgina ho'kizni ko'zi qiymabdilar-da, deb o'ylashlaridan podsho ajablanmasinlar. Ular sizning kichik hayvonni kattasiga almashtirganingizning asl sababini qaydan ham bilsin? Agar qatl qilishga olib ketilayotgan begunohga rahmingiz kelgan bo'lsa, unda nima uchun buqa va qo'y orasidan birini tanladitingiz?"

Syuan-vang kulib dedi: "To'g'risi, ko'nglimdan nimalar o'tgan? Men boyligini qizg'anadiganlardan emasman, lekin buqaning o'rniqa qo'yni qurbanlik qildirdim, shu bois xalq meni mol-dunyoga o'ch deyishga ham haqlidir".

<sup>33</sup> Qon chiqarib nazr qilish, bunda biror bosh mol so'yilib, uning qoni bilan yangi yasalgan buyum bo'yalgan.



Meng-zı dedi: "Bundan ranjimang, kishilarning rahmdilliklari" ayni shu tarzda nomoyon bo'lur. Buqani ko'rib qoldingiz, lekin qo'yni ko'z oldingizga keltirmadingiz. Olijanob kishi jonivorlarga nisbatan shundayki, ularning tirikligini ko'rib zavqlanadi, o'layotganini ko'rishga dosh berolmaydi; ularning ovozini eshitib qolgan bo'lsa, go'shtini tanovul qilishga ham bardoshi yetmaydi. Shuning uchun olijanoblar qushxona va oshxonadan uzoq bo'ladilar!"

Syuang-vang xursand bo'lib dedi: "Nazmnoma"da aytilganki:

"O'zganing ko'nglida ne xayol,  
U menga ayondir bermalol".

Bu ayni siz haqingizda aytilgan ekan-da, ustoz. Men faqatgina shunday qildim, qanchalik tirishmayin, baribir yuragim amrini bilishga tuyassar bo'lolmas edim. Mo'ysafid, siz so'z boshlashning bilan yuraklarim dukillay boshladi (ya'ni, sizning so'zlarining yuragimning aks-sado bo'lib yangradi). Boya mendagi bunday yurak hukmron bo'lish uchun munosib, dedingiz, axir nima uchun?"

Meng-zı dedi: "Agar bir kishi sizga ma'lum qilib desa: "Yuz pudni" ko'tarishga kuchim yetadi-yu, lekin bir dona patni ko'tara olmayman; ko'z nurim qush-hayvonlarning kuzda yangi o'sib chiqqan tuklarini-da aniq ko'rishga yetadi-yu, bir arava o'tinni ko'ra olmayman". Podsho buni ma'qullagan bo'larmidilar?"

Syuan-vang dedi: "Aslo!"

Meng-zı dedi: "Ayni damda jonivorlarga yetgan muruvvatingizni xalqingizga qilmaysiz, axir nega? Birgina patni ko'tara olmayman degan bo'lsa, u holda kuchini ishga solishni istamabdi; bir arava o'tinni ko'rmasligi ko'zlarini ishlatishni istamaganligi sabablidir. Shunday ekan, xalqning himoyasizligi, ro'shnolik ko'rmasligi podshoning muruvvat ko'rsatishni istamaganligidandir. Binobarin, podshoning hukmronlik qilolmasligi uning uddalay olish-olmasligida emas, balki istamaganligidadir".

Syuan-vang so'radi: "Harakat qilishni istamaslik uddalay olmaslikdan qanday farqlanadi?"


Meng-zı javob berib shunday dedi: "Tayshan<sup>34</sup> tog'ini qo'ltiqlab Beyhay"

<sup>34</sup> Konfutsiy va Meng-zı g'oyalari tizimi asosini tashkil etuvchi "jen" (仁) – insonparvarlik yoki rahmdilik atamasi teng ma'nodorlik qatlamlariga ega. Shuning uchun ba'zida ularni almashtirib qo'llash hech qanday ma'noviy og'ishlarga olib kelmaydi.

<sup>35</sup> Xitoycha aslida "jun" deyilgan, qadimgi og'irlilik o'ichov birligi hisoblanib, o'tiz jinga teng. Xitoycha bir jin 0,5 kgga teng bo'lib, 30 jin 15 kgga yoki taxminan bir pud (16,3 kg)ga teng bo'ladi.

<sup>36</sup> Tayshan tog'i (泰山) – Xitoydag'i beshta baland tog'lardan biri, Shando'ng provinsiyasida joylashgan, dengiz sathidan balandligi 1524 metr. Xitoyning qadimgi kitoblarida bu tog' nomi ko'p uchraydi. Qadimgilar Tayshanni baland tog'lar ramzi bilib, muhtaram kishilar, ulug' va ahamiyati narsalarga o'xshatish sifatida foydalanganlar.

<sup>37</sup> Beyhay – Shimoliy dengiz, hozirgi Bo'xay dengizi, Xitoy ichki dengizi. Tashqi tomondan Lyaodo'ng va Shando'ng yarimorollari o'rabi turadi. g'arbda Xebey provinsiyasi va Tyanjin shahriga tutashadi, sharqda Bo'hay bo'g'ozi va Sariq





dengizidan hatlab o'tish kerak desalar, siz odamlarga: "Bu mening qo'limdan kelmaydi!" – deysiz. Buning haqiqatan ham iloji yo'q. Yetti bukilib keksalarning xizmatini qilgin, desalar, siz odamlarga: "Qila olmayman!" – desangiz, bu endi ilojsizlik emas, qilishni istamaganlikdir. Shunday ekan, podshoning sultanatga hukmron bo'lolmasligi uning Tayshan tog'ini qo'ltiqlab Beyxay dengizidan hatlab o'tishdek qo'lidan kelmaganligi sababidan emas, balkim yetti bukilib keksalarning xizmatini qilishdek buni o'zi xohlamaganligidan.

Boshqalarning keksalarini o'z keksalaringiz qatori hurmat qilsangiz, boshqalarning bolalarini ham o'z bolalaringizdek yaxshi ko'rsangiz, osmonostini kaftdagidek tutish osondir.

"Nazmnoma"da shunday deyilgan:  
"O'mnak bo'lib avval xotinga,  
So'ng yetdilar og'a-iniga,  
Shunday boshqarar oila-elti".

Gap ko'nglidagilardan o'zgalarga ham ilinishlik haqida ketmoqda, xolos.

Shunday ekan, rahm-shafqatning yoyilishi to'rt dengiz oralig'ini saqlab qolishingiz uchun yetarlidir, aks holda o'z rafiqangiz va farzandlaringizni ham asrab qololmaysiz. Qadimgi donishmandlarning oddiy kishilardan ancha o'zib ketishlarining sababi o'zlarining yaxshi amallarini keng yoyishga mohir bo'lganliklaridan o'zga narsa emas.

Ayni damda qush va hayvonlarga ko'rsatishga yetgan marhamatingizni xalqingizdan darig' tutasiz, axir nima uchun?

Taroziga qo'yib ko'rgach og'ir-engillagini bilasiz; o'lchab ko'rgach uzun-qisqaligini bilasiz. Barcha narsalar shunday, ayniqsa inson ko'ngli. Iltimos, podsho uni taroziga solib ko'rsalar.

Podsho, yo siz qurol ko'tarib, qo'mondon va jangchilarni o'lim changaliga yo'llagach, beklar bilan ora buzilib o'zingizga dushman orttirsangizgina ko'nglim shod bo'ladi, deb o'ylaysizmi?"

Podsho dedi: "Yo'q. Bundan qanday qilib quvonishim mumkin? Men o'zimning eng katta orzumni ro'yobga chiqarmoqchiman!"

Meng-zı so'radi: "Podshoning eng katta orzulari nima, eshitsak bo'ladimi?"

Podsho kulib qo'ydi-yu, javob qaytarmabdi.

Meng-zı so'rashda davom etibdi: "Sizning dahaningiz uchun hozirlab qo'yilgan yog'li va shirin noz-ne'matlar yeyishingizga yetmay qolganligi uchundir? Badaningiz uchun tayyorlangan yengil va issiq liboslar kiyishingizga yetmayotirmi? Yoki ko'zlarining uchun yasatilgan turfa xil ranglar tomosha qilishingizga yetmayaptimi? Quloqlaringizga

---

dengiz bilan o'zaro qo'shilib ketgan. Maydoni 80 ming kv kmdan ortiq. Chuqurligi 50 meurga yetmaydi.

yoqimli kuy-qo'shiqlar yetmayaptimi? Qarshingizdagi suyukli a'yonlaringizning amru farmonlaringizni bajo keltirib ko'nglingizni ovlashlari yetmayaptimi? Axir qo'l ostingizdagilar sizni bularning barchasi bilan yetarlicha ta'minlay oladilar. Nahotki, podsho, siz tag'in shularni deb urush qilmoqchisiz?"

Podsho dedi: "Yo'q, buning uchun emas".

Meng-zi dedi: "Unda podshoning eng katta orzusi ayon bo'ladi: yerlaringizni kengaytirishni, Chin va Chu podsholarining huzuringizga qulluq qilib kelishlarini, O'rta Tekislikka hokimi mutlaq bo'lib, to'rt tomonidagi xalqlarni tinchlantirishni xohlaysiz. Lekin siz tanlagan yo'l bilan orzularingizni amalga oshirishni daraxtga chiqib baliq tutishga qiyos qilsa bo'ladi".

Podsho dedi: "Shunchalik jiddiyimi?"

Meng-zi shunday javob beribdi: "Ehtimol, undan ham jiddiyroq. Baliq tutaman deb daraxtga chiqib, garchi baliqqa erisholmasa ham, lekin bu yomon oqibatlarga olib kelmaydi. O'zingiz tanlagan yo'l bilan orzungizni amalga oshirmoqchi bo'lib, agar joningiz va kuchingiz boricha harakat qilsangiz, oqibatda falokatlar yuz berishi muqarrar".

Podsho dedi: "Eshitsak bo'ladimi?"

Meng-zi dedi: "Agar Zou podsholigi odamlari Chu podsholigi odamlari bilan jang qilsa, podsho, sizningcha kim g'olib bo'ladi?"

"Chuliklar g'alaba qozonadi", – deb javob beribdi podsho.

Meng-zi dedi: "Demak, kichkinaning kattaga, bir kishining ko'pchilikka, zaiflarning kuchlilarga bas kelolmasligi o'z-o'zidan ma'lum. Dengiz oralig'ida to'rt tarafga minglarcha chaqirimga cho'zilgan yerlar to'qqiz chog'lidir, Chi podsholigingiz yerlarini bir yerga jamlaganda ham faqat ularning bittasichalik keladi. Shunday ekan, birgina podshoning qolgan sakkizini bo'ysundirishga intilishi, axir buning Zou podsholigining Chu davlatining dushmani bo'lib qolishidan yana nima farqi bor? Tag'in masalaning asl mohiyatiga ko'charmiz.

Bundan buyon, podsho, siz siyosiy qarashlaringizni ochiq bayon etib, insonparvar siyosat yurgiszangiz, osmonostidagi barcha amaldorlar saroyingizga kelib xizmat qilsam deydilar; barcha dehqonlar dalalaringizga kelib yer haydab, ekin ekishni orzu qiladilar; tijorat ahli karvonsaroy va omborlaringizda o'z mollarini saqlashni istaydilar; jahongashta-sayyohlar sizning yurtingizga yo'lga chiqishni xohlaydilar; hukmdorlaridan nafratlangan osmonostidagi odamlar sizga arz qilib keladilar. Agar hammasi shunday bo'lsa, unda kim ham sizga qarshilik qilolardi?"

Podsho dedi: "Meningdek bir aqlsiz bunday darajaga yetolmaydiyov. Sizdek bir donishmand odam maqsadimning amalga oshishida menga yordamlashadi degan



umiddaman, menga aniq yo'l-yo'riq ko'rsating. Zehnim o'tkir bo'lmasa-da, urinib ko'rishimga imkon bering".

Meng-zı dedi: "Doimiy mol-mulkning yo'qligida qalbdagi barqarorlikni (qat'iy irodasini) saqlab qolish faqat ziylilar ahlininggina qo'lidan keladi. Avom xalqqa kelsak, doimiy mol-mulkning yo'qligi qalbidagi barqarorlik (qat'iy iroda)ning yo'qolishiga sabab bo'ladi. Agar qalbda bunday barqarorlik (qat'iy iroda) bo'lmasa, fosiqlik, pismiqlik, noinsoflik, isrofgarchilik – kishilarning qo'lidan har balo keladi. Yanglishib jinoyatga qo'l urishlarini kutib, so'ngra ularni jazoga tortish, bu — xalqni qonun to'riga ilintirishdir. Insonparvarlik fazilatiga ega kishi taxtga o'tirsa, xalqiga shunday g'alamislik qilishi mumkinmi?

Shu bois oqil podsho xalqning mol-mulkini shunday tayin qilmog'i kerakki, odamlar yuqori boqsalar ota-onalarini parvarish qilishlari uchun yetarli bo'lsin, quyiga qarasalar xotini va bola-chaqalarini boqishlari uchun yetsin, shodiyona (mo'l-ko'lchilik) yillari umr bo'yi to'q yashasinlar, shum yillar (qahatchilik yillari) o'limdan omon qolsinlar. Shundan keyingina xayrli ishlarga undasangiz, xalqning itoat etib ergashishi ham osondir.

Hozirgi kunda avomning mol-holi shunday ahvoldaki, yuqorida ota-onalarining xizmatlarini bajarishga kamlik qiladi, quyida xotini va bola-chaqalarini boqishga yetmaydi; shodiyona (mo'l-ko'lchilik) yillar xalq muhtojlikda hayot kechirmoqda; shum yillar (ocharchilik yillari) ochlikdan nobud bo'lishlari turgan gap. Bunday vaziyatda hatto o'layotgan odamni qutqarishga ham ulgurolmaydi, deb qo'rqaman-u, tag'in odob va insof haqida va'zonlik qilishga qayerdan bo'sh vaqt bo'lsin!

Podsho, agar siz barchasini qoyilmaqom qilib amalga oshirmoqchi bo'lsangiz, nega bu masalani hal etish uchun uning kelib chiqishiga qaytib ish ko'rmaysiz?

Hamma besh mu hovlisiga tut daraxti o'tqazsa, unda ellik yoshga kirganlarning barchasida kiygani shoyi ko'y lagi bo'ladi. Parranda va uy hayvonlarini parvarish qilganda fursatni boy bermasangiz, yetmish yoshga kirganlarni go'sht bilan boqish mumkin bo'ladi.

Yuz mu ekin maydonidan dehqonchilik mavsumida odamlarni chalg'itmasangiz, oiladagi sakkiz jon ochlik nimaligin bilmagay.

Maktab ta'limiga jiddiy e'tibor berib, ota-onaga qobil farzand bo'lish va kattalarni hurmat qilishning ma'no-mohiyatini yoshlarning ongiga singdirsangiz, unda ko'cha-ko'yda soch-soqoli oqargan keksalarning zilday yukni orqalab yo boshlarida ko'tarib yurganlarini ko'rmaysiz.

Qariyalari shoyi kiyib, go'sht tanovul qilsa, xalqi ochlik va sovuqda qolmasa, hatto shundan keyin ham Osmonostiga<sup>38</sup> hukmronlik qilolmasa – bunaqasi hali bo'lmagan".

- Xalqingni asrab-avayla va hukmronlik qil. Shunda hech kim yo'lingga g'ov bo'lolmaydi.
- Olijanob kishi jonivorlarga nisbatan shundayki, ularning tirikligini ko'rib zavqlanadi, o'layotganini ko'rishga dosh berolmaydi.
- Olijanoblar qushxona va oshxonadan uzoq bo'ladilar.
- Xalqning himoyasizligi, ro'shnolik ko'rmasligi podshoning muruvvat ko'rsatishni istamaganligidandir. Binobarin, podshoning hukmronlik qilolmasligi uning uddalay olish-olmasligida emas, balki istamaganligida!
- Taroziga qo'yib ko'rgach og'ir-yengilligini bilasiz; o'lchab ko'rib – uzun-qisqaligini.
- O'z keksalariningizni hurmat qilganingiz kabi boshqalarning keksalarini ham qadrlang, boshqalarning bolalariga ham o'z bolalarining yaxshi ko'rganingizdek mehr qo'ying.
- Rahm-shafqatning yoyilishi podshoga davlatni asrab qolishi uchun yetarlidir.
- Qadimgi donishmandlarning oddiy kishilardan ancha o'zib ketishlarining sababi o'zlarining yaxshi amallarini keng yoyishga mohir bo'lganliklaridan o'zga narsa emas.
- Doimiy mol-mulkning yo'qligida qalbdagi barqarorlikni (qat'iy irodasini) saqlab qolish faqat ziylolar ahlininggina qo'lidan keladi. Avom xalqqa kelsak, doimiy mol-mulkning yo'qligi qalbidagi barqarorlik (qat'iy iroda)ning yo'qolishiga sabab bo'ladi.
- Kishi irodasiz, qat'iyatsiz bo'lsa, fosiqlik, pismiqqlik, insofsizlik, isrofgarlik – qo'lidan har balo keladi.
- Yanglishib jinoyatga qo'l urishlarini kutib, so'ngra ularni jazoga tortish, bu – xalqni qonun to'riga ilintirishdir.

<sup>38</sup> Bu yerda: butun sultanat, ya'ni Jou sulolasiga qarashli yerlar.

## IKKINCHI BOB

Lyang Xuey-vang. Keyingi qism

Chi davlati vazirlaridan biri Juang Bao Meng-zı bilan ko'rishib, unga shunday debdi: "Kamina Bao podsho" huzurida bo'lganimda, podsho menga musiqaga bo'lgan muhabbat haqida so'zlaganlarida nima deb javob qaytarishni bilmadim". Yana so'radilarki: "Musiqani sevish qanday?"

Meng-zı dedi: "Agar podsho musiqani nihoyatda sevganlarida, unda Chi davlatida deyarli tartib o'matilgan bo'lishi kerak edi".

Boshqa kuni podsho Meng-zini huzuriga chorlabdi. Meng-zı so'rabdi: "Podsho ustoz Juangga musiqani yaxshi ko'rishlarini aytgan ekanlar. Shunday bo'lganmidi?"

Podshoning yuzlarida o'zgarish zohir bo'libdi, so'ng debdi: "Men avvalgi podsholarning mumtoz kuylarini sevishga qodir emasman. Faqatgina zamonaviy oddiy xalq kuylarini sevaman".

Meng-zı dedi: "Agar podsho musiqani nihoyatda sevsalar, unda bu Chi davlatida deyarli tartib o'matilibdi degani. Hozirgi musiqalar xuddi avvalgilaridek".

Podsho dedi: "Eshitmoqqa tuyassar etarsiz?"

Meng-zı so'radi: "Musiqadan yolg'iz zavqlanish quvonchi va undan boshqalar bilan birga zavqlanish quvonchi – qay biri yanada quvonchliroq?"

Podsho dedi: "Odamlar bilan birga quvonganga ne yetsin!"

Meng-zı so'rashda davom etibdi: "Musiqadan ozchilik bo'lib zavq olib quvongan va undan ko'pchilik bo'lib zavq olib quvongan – qay biri quvonchliroq?"

Podsho dedi: "Ko'pchilik bilan birga quvongan yaxshiroq!"

Meng-zı dedi: "Ijozat etsalar, quvonch podsho uchun nimani anglatishini aytSAM.

Ko'z oldingizga keltiring: ayni damda podsho shu yerda musiqa chalib vaqtihog'lik qilmoqdalar. Oddiy xalq qo'ng'irog'u daflaringiz sadosi, qamishsurnay va naylaringiz navosini eshitib, barchasining boshlarida og'riq turib, qovoqlarini uyib bir-birlariga ko'ngil yozadilar: "Podshomiz musiqaga ishqibozlar-u, lekin nechun bizni shu ko'yga soldilar? Ota-o'g'llar bir-biri bilan ko'risholmaydi, og'a-inilar har tarafda sargardon, xotin va bolalarimiz boshida ayrolik qismati". Faraz qiling, siz shu yerda ov qilmoqdasiz. Avom xalq aravalor shovqini va otlaringiz tuyog'ining tovushini eshitib, bosh kiyimingizga qo'ndirilgan pat va qo'tos dumি bilan ziynatlangan tug'ingiz go'zalligini ko'rgach, barchasining boshlarida tag'in og'riq turib, qovoqlarini uyib bir-birlariga dardini so'laydilar: "Podshomiz ov qilishni yaxshi ko'radilar, lekin bizni

<sup>39</sup> Bu yerda Chi podshosi Syuan-vang nazarda tutilmoqda.



nechun shu ko'ylarga soldilar: ota-o'g'illar bir-biri bilan ko'risholmaydi, og'a-inilar har tarafda sargardon, xotin va bolalarimiz boshida ayrolik qismati". Bunga sabab o'z xursandchililingizni xalq bilan baham ko'rmasligingizda, boshqa narsa emas.

Deylik, xuddi mana shu yerda siz musiqa chalib ko'nglingizni xushlamoqdasiz. Oddiy xalq qo'ng'irog'u daflaringiz sadosi, qamishsurnay va naylaringiz navosini eshitgach, barchalari xursand, kayfiyatları chog' bo'lib, chehralari ochilib bu voqeani o'zaro muhokama qilishga tushib ketadilar: "Xayriyatki, podshomizning xastaliklaridan asar ham qolmagan ko'rindi, yo'qsa ko'ngillariga musiqa sig'armidi?"

Tasavvur qiling, siz ovga chiqdingiz. Avom xalq aravalaringiz shovqini va otlaringiz tuyog'inining dupurlarini eshitib, bosh kiyimingizga qo'ndirilgan pat va qo'tos dum'i bilan ziynatlangan tug'ingiz go'zalligini ko'rishlari bilan ko'ngillari tog'dek ko'tarilib, yuzlari sevinchdan charaqlab bu voqeani o'zaro muhokama qilishga tushib ketadilar: "Xayriyatki, podshomizning xastaliklaridan asar ham qolmagan ko'rindi, yo'qsa ov qilish ko'ngillariga sig'armidi?"

Buning xursandchililingizni xalq bilan baham ko'rganingizdan o'zga sababi yo'q. Agar podsho xursandchilagini xalq bilan baham ko'rsa, haqiqiy hukmdor bo'lgay".

- Yolg'iz quvongan va quvonchini boshqalar bilan baham ko'rgan, qay biri quvonchliroq?!
- Ozchilik bo'lib quvongan va quvonchini ko'pchilik bilan baham ko'rgan, qay biri quvonchliroq?!
- Musiqadan yolg'iz zavqlanib quvonish undan boshqalar bilan zavqlanib quvonishga yetmaydi; ozchilik bilan musiqadan zavq olib quvonish ko'pchilik bilan zavqlanib quvonishga yetmaydi.
- Podsho o'z xursandchilagini xalq bilan baham ko'rsa, haqiqiy hukmdor bo'lgay.

\*\*\*

Chi podshosi Syuan-vang so'radi: "Ven-vang qo'riqxona-bog'i<sup>40</sup> to'rt tomonga yetmishli<sup>41</sup> masofaga cho'zilgani deyishadi, shu gaplar rostmi?"

Meng-zı javob beribdi: "Ha, shunday rivoyat qilingan". ("Tarixiy kitoblarda shunday yozilgan".)

Podsho hayron bo'lib so'rabdi: "Nahotki uning kattaligi shunchalik bo'lgan?"

<sup>40</sup> Podsholarga qarashli qush va jonivorlar boqiladigan bog', tomoshabog'.

<sup>41</sup> Li – uzunlik o'Ichovi birligi, 0,5 kmga teng; ba'zi adabiyotlarda chaqirimga tenglashtiriladi.



Meng-zi dedi: "Xalqning nazarida bu hali kichkinadek edi".

Podsho dedi: "Mening qo'riqxonam to'rt tomonga qirq li masofaga cho'zilgan, shu ham xalq ko'ziga katta ko'rinyapti. Nega shunday?"

Meng-zi javob berib debdi: "Ven-vang qo'riqxonasi har tarafga yetmish ligi cho'zilgan, kimdir o't o'rgani, o'tin tergani kelar, yana kimdir qirg'ovul ovlab, quyon tutgani o'sha yerga yo'l olardi, podsho undan xalq bilan birgalikda bahramand bo'lardi. Shunday ekan, xalqqa u yerlar kichkina tuyulishining sababi o'z-o'zidan ma'lum emasmi?

Kaminalari mamlakatingiz sarhadiga ilk bor kelganimda, davlatingizdag'i asosiy taqiqlarni surishtirib bilgandan keyingina undan hatlab kirishga jur'at etganman. Eshitishimcha, shahar tashqarisida poytaxtning chegara soqchilik hududlarida podshoning har tarafi qirq li masofaga cho'zilgan qo'riqxona-bog'i bo'lib, u yerdagi los va bug'ularni o'ldirish xuddi odam o'ldirish bilan teng jinoyat hisoblanar ekan. O'sha tomoshabog'ingiz davlatingizdag'i to'rt tomoni qirq li bo'lgan chohga aylanibdi. Agar xalq qo'riqxonangizni katta deyayotgan bo'lsa, buning tag'in nimasiga ajablanasiz?"

\*\*\*

Meng-zi Chi davlati podshosi Syuan-vangga shunday debdi: "Faraz qilaylik, amaldorlaringizdan biri o'z xotini va bolalarini qarab turish uchun yaqin do'stiga ishonib topshirib, o'zi Chu davlatiga safarga ketibdi. Qaytib kelib ne ko'z bilan ko'rsinki, xotini va bolalari ochlik va sovuqdan tinka-madorlari qurigan aftoda bir ahvolda emish. Bunday do'stni nima qilish kerak?"

Podsho javob beribdi: "Bunday do'stdan voz kechish kerak!"

Meng-zi dedi: "Qozi kalon o'zidan quyi turuvchi mirzolarni eplolmadi, deylik, unda nima qilish kerak?"

Podsho dedi: "Undaylarni shartta amalidan olib tashlash kerak!"

Meng-zi yana so'rabdi: "Agar mamlakatning to'rt sarhadlarida tartib o'rnatilmagan bo'lsa, unda nima qilish lozim?"

Buni eshitgan podsho o'ng-so'liga alanglab gapni boshqa yoqqa burib ketibdi.

\*\*\*



Chi davlati podshosi Syuan-vang Meng-zidan so'rab debdi: "Tang<sup>42</sup> mustabid hokim Jeni yurtdan badarg'a qilgan, Vu-vang<sup>43</sup> zolim hukmdor Jou ustiga yurish qilgan ekan, shunday bo'lганми?"

Meng-zi javob beribdi: "Shunday naql qilingan".

Podsho yana so'rabdi: "Qarol o'z qirolini o'ldirgan ekan-da, shundaymi?"

Meng-zi dedi: "Insonparvarlikka ziyon yetkazganni "bosqinchi" deydilar; adolatga ziyon yetkazganni "battol" deb atashadi. Battol va bosqinchi odamni yakkamaxov – raddi mardum<sup>44</sup> derlar. Yakkamaxov Jouni o'ldirishgan deb eshitganman, lekin o'z podshosini o'ldirgan degan gap qulog'imga chalinmagan".

- Insonparvarlikka ziyon yetkazganni "bosqinchi" deydilar; adolatga ziyon yetkazganni "battol" deb atashadi. Battol va bosqinchi odamni raddi mardum derlar.

\*\*\*

Meng-zi Chi podshosi Syuan-vang bilan ko'rishganida unga shunday debdi: "Ulkan saroy quriladigan bo'lsa, albatta, me'morni katta daraxt qidirib topGANI yuborasiz. Agar me'mor shunday katta daraxtni qidirib topishga tuyassar bo'lsa, podsho behad xursand bo'ladi va u o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani uddalay oladi, deb hisoblaydilar.

Navbat duradgorlarga kelib, yog'ochni kalta kesib qo'ygudek bo'lsalar, podsho g'azablanadilar va ular o'z zimmasidagi vazifani uddasidan chiqolmaydi, deb hisoblaydilar.

Kishilar yoshlikdan o'qib-o'rganadilar va ulg'aygach ularni ro'yobga chiqarishni istaydilar. Podsho, agar siz ularga: "Hozircha barcha o'rganganlaringni tashla va menga ergash!" – desangiz, nima bo'ladi?

Endi mana shu yerda tarashlanmagan bir bo'lak qoshtosh bor deb faraz qilaylik. Uning bahosi o'n mingiga<sup>45</sup> teng bo'lsa ham, shubhasiz, toshtaroshni chaqirtirib unga naqsh soldirasiz.

<sup>42</sup> Tang — In-Shang sulolası asoschisi; qo'shin to'plab Sya sulolasining mustabid hukmdori Jye ustiga yurish qiladi. Jyeni qo'lga olib, Nan-chaoga (hozirgi An-xuey provinsiyasi hududlariga) surgun qiladi.

<sup>43</sup> Vu-vang — Jou sulolası hukmdori; qo'shin to'plab Shang sulolası zolim hukmdori Jou-vang ustiga yurish qiladi. Jangda qattiq mag'lubiyatga uchragan Jou-vang o'ziga o't qo'yib yuboradi va ayanchi o'lim topadi.

<sup>44</sup> Xalq yuz o'girgan kishi, yakkamoxov.

<sup>45</sup> I (yi) — 20 lyang (sar)ga teng og'irlilik o'Ichov birligi, ba'zi manbalarda 24 sarga baravar deyiladi. Bir lyang 50 grammga teng.





Davlatni boshqarishga kelsak, siz: "Hozircha barcha o'rganganlaringni tashla va menga ergash!" – deyishingiz, buning toshtaroshga qoshtoshga naqsh solishni o'rgatish bilan tag'in nima farqi bor?"

\*\*\*

Chi davlati Yan podsholigiga qarshi yurish qilib g'alaba qozonibdi.

Chi podshosi Syuan-vang Meng-zidan so'rab debdi: "Bir kishi meni Yanni bosib olmaslikka undagan bo'lса, boshqasi menga uni zabit etish kerak degan edi. Ixtiyorida o'n ming jang aravalari bo'lgan davlat boshqa bir o'zi singari o'n ming jang aravalariiga ega davlatga hujum qilib, uni besh o'nkunlikdayoq ishg'ol qilsa, bunga faqatgina odam kuchi bilan erishib bo'lmaydi. Egallay olmasa, demak, albatta, osmon qarg'ishi bo'lgan. Yan davlatini bosib oldim, endi nima bo'ladi?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Agar Yan davlatini bosib olishingiz uning xalqiga xursandchilik olib kelsa, uni fath eting. Qadimda bir kishi ana shunday qilgan, u ham bo'lса Jou podshohi Vu-vangdir.

Agar Yan davlatini bosib olishingiz uning xalqiga quvonch olib kelmasa, uni zabit etish fikridan qayıting. Qadim zamonda bir kishi aynan shunday qilgan ekan, u ham bo'lса Jou podshohi Ven-vangdir.

Agar tasarrufida o'n ming jang aravalari bo'lgan davlat boshqa bir o'zi singari o'n ming jang aravalariiga ega davlatga hujum qilsa, u yerning xalqi savat to'la noz-ne'matlar, bo'za to'la kuvachalar bilan podsho lashkarini qarshi olishsa, nahotki bundan o'zga narsani ko'zlasalar? Bu ularning faqatgina boshlaridagi suv va o't balosiga o'xshash musibatdan xalos bo'lishni istaganlari uchundir. Lekin "suv" yanada chuqurroq bo'lib chiqsa, "o't" yanada lovullab yonsa, unda xalq sizdan ham qochib boshqasiga yuguradi, xolos".

\*\*\*

Chiguoliklar<sup>46</sup> Yan davlatiga hujum qilib uni bosib olibdi. Boshqa podsholiklar Yanni qutqarish rejasini tuza boshlabdilar.

Chi podshosi Syuan-vang Meng-zidan so'rab debdi: "Podsholiklarning ko'pchiligi menga hujum qilish qasdilar, ularga qarshi qanday ehtiyyot choralar ko'rnog'im lozim?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Kaminalari tasarrufidagi yetmishli yermulkiga tayanib Osmonostini idora qilgan kishi haqida eshitganman, u podshoh

<sup>46</sup> Chiguoliklar – Chi podsholigi odamlari.



Tang edi. Tasarrufida mingli yeri bo'la turib tag'in boshqalardan qo'rqqan kishini hali eshitmaganman.

"Nasrnoma"da shunday deyilgan: "Podshoh Tang bir degandan yurishini Ge" davlatidan boshladi". Va Osmonosti unga to'la ishondi.

Sharqqa qarab yurish qiladigan bo'lsa, mamlakatning g'arbidagi yi xalqi nolirdilar; janubga qarab yurish qiladigan bo'lsa, shimoldagi di xalqi zorini qilardi. Ular deyishardiki: "Nega endi bizlar eng oxiri bo'lishimiz kerak?"

Xalq xuddi dahshatli qurg'oqchilik payti yomg'ir bulutlari va kamalak shu'lasiga ko'z tikkandek uning yo'llarida ko'zları nigoron. Bozorga keluvchilarning keti uzilgani yo'q, dehqonlar ilgarigidek qo'sh haydamoqdalar. Podshoh Tang ularning zolim hukmdorini qatl qilib, xalqqa tasalli berdi, shunda xalq go'yo o'z vaqtida yomg'ir yoqqandek quvonchdan boshlari ko'kka yetdi.

"Nasrnoma"da yana shunday deyilgan: "Podshohimizning kelishini kutinglar. Podshohimiz kelib qayta hayot bag'ishlaydilar!"

Hozirda Yan podshosi xalqiga ozor berib kelmoqda edi. Siz unga qarata harbiy yurish boshladitingiz. Xalq siz ularni suv va o't ichidan qutqarib olgani kelayapsiz, deb o'ylab, savat to'la noz-ne'matlar, bo'za to'la kuvachalar bilan lashkaringizga peshvoz chiqadi. Lekin siz ularning otalari, og'alarini o'lдirmoqdasiz, iniyu o'g'illarini bandi qilmoqdasiz, ajdodlari ibodatxonalarini vayron qilib, qimmatbaho anjomlarini tashib ketmoqdasiz. Bunday bedodlikka qanday yo'l qo'ydingiz?

Osmonostidagilar shusiz ham Chi podsholigining kuchayib ketishidan xavotirda edilar. Endilikda yerlaringiz yana bir hissaga kengaydi, tag'in elni insonparvarlik bilan idora qilmayapsiz, aynan shu Osmonostidagi lashkarlarni (sizga qarshi) qo'zg'amoqda. Podsho zudlik bilan farmon bersinlar: asirga olingan keksalar va bolalarni yurtiga qaytarsinlar, qimmatbaho anjomlarini talashni bas qilsinlar, Yan xalq ommasi bilan maslahat qilib, ularga podsho tayinlang, so'ngra u yerni tark eting.

Ana shundagina, ehtimol, ularni<sup>47</sup> to'xtatib qolishga hali ulgurarsiz".

\*\*\*

<sup>47</sup> Ge – Xitoydag'i qadimgi davlat nomi.

<sup>48</sup> Ya'ni "boshqa davlat podsholarini", mazkur jumlada ulami qo'shin to'plab Yanni qutqarish uchun Chiga qarshi urush ochish niyatidan to'xtatish nazarda tutilmogda.





Zou va Lu davlatlari o'rtasida jang bo'libdi.

Zou podshosi Mu-go'ng<sup>49</sup> Meng-zidan so'rabdi: "Mening amaldorlarimdan o'ttiz uch nafari halok bo'ldi, xalq orasida ular uchun jonini fido qiladigan biror zog' topilmadi. Buning uchun ularni o'ldirib yuboray desam, bitta qolmay qirib yuborishning iloji yo'q; qatl qilmasam, tag'in ularning qo'mondonlarning o'ldirilayotganini tomosha qilib, qutqarmay qo'l qovushtirib turishlarini ko'rib nafratlanaman. Nima qilsam yaxshi bo'ladi?"

Meng-zি shunday javob beribdi: "Qahatchilik yillari boshiga kulfat tushganda, xalqingiz orasidagi salkam minglab keksa va jismonan zaif odamlar jar va daralarda u yoqdan-bu yoqqa ag'nab ming azobda jon berdilar, yosh va ayni kuchga to'lganlari to'rt tomonga tarqab ketdilar. Vaholangki, oziq-ovqat va guruch omborlaringiz liq to'la, g'aznangiz to'lib-toshib yotgan edi. Biroq a'yonlardan hech biri bu haqda sizga ma'lum qilmadi. Yuqoridagilarning beg'amligi quyidagilarning umriga zomin bo'ladi.

Donolardan Zeng-zи shunday degan: "Ogoh bo'ling! Ogoh bo'ling! Sizdan nima chiqsa, o'zingizga ham shunday qaytarishadi!" ("Odamlarga qanday muomalada bo'lsangiz, sizga ham shunday muomala qilishadi!")

Xalq bugun ularning o'zlariga qaytarayotir. Podsho ularni aybga buyurmasinlar.

Podsho davlatni insonparvarlik bilan idora qilsa, xalq o'zining oliv hukmdorini tug'ishganlaridek ko'rib, boshliqlari uchun jonlarini ham fido qiladilar".

- 
- Yuqoridagilarning beg'amligi quyidagilarning umriga zomin bo'ladi.
  - Odamlarga qanday muomalada bo'lsangiz, sizga ham shunday muomala qilishadi!
  - Podsho davlatni insonparvarlik bilan idora qilsa, xalq o'zining oliv hukmdorini tug'ishganlaridek ko'rib, boshliqlari uchun jonlarini ham fido qiladilar.

\*\*\*

Teng davlati podshosi Ven-go'ng Meng-zidan so'rab debdi: "Teng kichkina bir davlat, Chi va Chu kabi ikki yirik davlatlar orasida siqilib qolgan. Modomiki shunday ekan, men Chiga mulozamat qilishim kerakmi yo Chuga?"

Meng-zি shunday javob beribdi: "Bu masalada sizga biror maslahat berish qo'limdan kelmaydi. Mendan so'rashga to'g'ri kelgan ekan, sizga bir taklif berishim mumkin: himoya xandag'ini chuqur qazdiring, shahar devorini mustahkamlang, uni xalq

<sup>49</sup> Mu-go'ng – Zou davlati podshosi. Zou – Jου sulolası davridagi kichik bir davlat.



bilan qattiq turib mudofaa qiling. Shunda jonini ayamay jang qilgan xalq o'lsa ham sizni tashlab ketmaydi. Buni amalga oshirsa bo'ladi".

\*\*\*

Teng davlati podshosi Ven-go'ng Meng-zidan so'rab debdi: "Chi podsholigi odamlari Syue yeriga qal'a qurayotganlari meni qo'rqiymoqda. Men nima qilganim yaxshi?"

Meng-zi shunday javob beribdi: "Qadim zamonda Buyuk Vang<sup>50</sup> Bin<sup>51</sup> degan joyda istiqomat qilar edi, dilar<sup>52</sup> bostirib kirgach, u yerni tark etib, Chishan<sup>53</sup> tog'i etaklariga yetdi va o'sha yerni makon tutdi. U yerlarni tanlab egallab olmadi, ilojsizligidan shunday qilmasa bo'lmas edi.

Agar ezgulik qilsalar, keyingi davrda o'g'il-nabiralari albatta hukmron bo'ladi. Olijanob insonlar ezgu ishni boshlab beradilar va davom ettirishlari uchun uni keyingi avlodlarga qoldiradilar. Qanchalik muvaffaqiyat qozonishlariga kelsak, bu endi Osmon (Tangri) irodasiga bog'liq. Siz Chi podshosiga nima ham qila olardingiz? Bor kuchingizni ezgu amallarga sarflang, bas!"

- 
- Olijanob insonlar ezgu ishga tamal toshi qo'yadilar va davom ettirishlari uchun uni keyingi avlodlarga qoldiradilar.
  - Qanchalik muvaffaqiyat qozonishlik Osmon (Tangri) irodasiga bog'liq!
  - Bor kuchingizni ezgu amallarga sarf eting!

\*\*\*

Teng davlati podshosi Ven-go'ng Meng-zidan so'rab debdi: "Teng – kichkina bir davlat, yirik davlatlarga mulozamat qilishga qanchalik tirishmayin, baribir balodan xalos bo'lomas ekanman. Nima qilsam bo'ladi?"


Meng-zi shunday javob beribdi: "Qadim zamonlarda Buyuk Vang Bin shahrida yashar edi. U yerga dilar bostirib kelishibdi. Buyuk Vang ularga mo'yna va shoyi tuhfa

<sup>50</sup> Buyuk Vang – Jou sulolasi podshohi Ven-vangning bobosi.

<sup>51</sup> Hozirgi Shaansi o'lkasida.

<sup>52</sup> Di – qadimda Xitoyning shimolida yashagan millat.

<sup>53</sup> Hozirgi Shaansi o'lkasida.





qilibdi, lekin ulardan qutulolmabdi; zotdor itlar va yaxshi otlar taqdim qilibdi, baribir qutulolmabdi; marvarid va qoshtoshlar<sup>54</sup> bilan siylab ham ko'ribdi, bundan ham hech bir naf chiqmabdi. Shunda u barcha oqsoqol mo'ysafidlarni bir yerga to'plab, ularga shunday xitob qilibdi: "Dilarga bizning yerlarimiz kerakka o'xshaydi. "Olijanoblar odamlarni boqadigan narsalarni deb ularni halok qilmaydi", deb eshitganman. Birodarlar, sizlar podshosiz qolishdan qayg'udamisizlar? Men bu yarlarni tark etmoqdaman!" Va u Bin shahrini tark etibdi, Lyangshan tog'idan oshib o'tib, Chishan tog'i etaklariga yangi poytaxt solib, o'sha yerda qo'nim topibdi. Bin shahri aholisi dedilarki: "Bunday insonparvar odamdan ayrilish mumkin emas!" Uning ortidan ergashganlar xuddi bozorga ketayotgan odamlar oqimini eslatardi. Yana birlari aytdiki: "Bu avloddan avlodga o'tib kelayotgan tamal toshidir, mening qo'limdag'i narsa emas". Shunday deya o'la-o'lguncha tark etmadilar.

Endi, marhamat qilib, ikkisidan birini tanlang".

- Olijanoblar odamlarni boqadigan narsalarni deb ularni halok qilmaydi.

\*\*\*

Lu davlati podshosi Ping-go'ng yo'lga otlanibdi. Suyukli xizmatkorlaridan biri Zang Sang deganlari murojaat qilib debdi: "Odatda, shohim, siz biror safarga chiqsangiz, borar manzilingizni mahkama amaldorlariga aytib qo'yар edingiz. Hozir aravangizga otlar qo'shib bo'lingan, lekin a'yonlaringiz qayoqqa borayotganingizdan hanuzgacha bexabarlar. Shu bois so'rashga jazm etdim!"

Podsho debdi: "Meng-zи bilan ko'rishgani borayapman".

Zang Sang xitob qilib debdi: "Axir nega? Podsho bo'la turib, obro'ingizni tushirib bir oddiy odamni ko'rgani birinchi bo'lib borishingizga sabab ne? Uni donishmand deb o'ylarsiz? Odob-axloq me'yordi vaadolat donishmand odamlardan chiqadi. Meng-zи deganlarining bo'lsa, keyinchalik (onasiga bag'ishlab) o'tkazgan dafn marosimi avvalgisidan (otasining dafn marosimidan) oshib tushdi. Podshomiz u bilan ko'rishgani bormasinlar!"

"Mayli", – debdi podsho va borish fikridan qaytibdi.

Meng-zining shogirdlaridan biri Yue Jeng-zи podshoning huzuriga kirib, unga shunday savol bilan murojaat etibdi: "Podsho ustoz Meng Ke<sup>55</sup> bilan ko'rishgani nechun bormadilar?"

<sup>54</sup> Qoshtosh – nefrit (yashil yoki surrang yarim shaffof mineral), yashma (rangdor tosh).

<sup>55</sup> Meng Ke – Meng-zining haqiqiy ismi.



Podsho debdi: "Bir kishi menga aytdiki, "Meng-zi keyingi o'tkazgan dafn marosimini avvalgisidan oshirib yuborgan emish". Shu bois u bilan ko'rishgani bormadim".

Yue Jeng-zi debdi: "Axir nega?! Podsho, siz qanday "oshirib yuborish" haqida gapirayapsiz? Ilgari mirzo (shi)lar odob-qoidasi bo'yicha otasini dafn qilgan bo'lsalar, keyinchalik katta amaldor (da-fu)lar qoida-yo'sinida onasini dafn qilganlarinimi? Yoki ilgari qurbanlik buyumlarini solishda uchta doshqozon ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik beshta ishlatilganini nazarda tutayapsizmi?"

Podsho debdi: "Yo'q, tobutning ichi va sirti, libos va kafanlikning go'zalligini aytayapman".

Yue Juang-zi e'tiroz bildirib debdi: "Buni "oshirib yuborish" deb bo'lmaydi, kambag'allik va badavlatlik orasidagi farqdir".

Yue Juang-zi ustoz Meng-zi bilan ko'rishganida unga debdi: "Men podshoga xabar qilgan edim, podshoning o'zları ham sizni kelib ko'rmoqchi bo'lgandilar. Lekin arzandalaridan Zang Sang degan biri uni to'xtatib qolibdi, oqibatda podsho sizning oldingizga kelolmadilar".

Shogirdining so'zlarini diqqat bilan eshitgan Meng-zi unga shunday debdi: "Faoliyatiga (kelishiga), ehtimol, nimadir turtki bo'lar; faoliyatdan to'xtashi (kelmasligi), balki, nimadir to'g'onoq bo'lidan. Faoliyat va faoliyatdan to'xtash, bu insonlarning qo'lida emas (ularning xohishiga bog'liq emas). Mening Lu podshosi bilan ko'risholmaganligim Osmon (Tangri)ning irodasidir. Nahotki Zang naslidan bo'lidan bir kishi meni podsho bilan ko'rishtirmaslikka qodir bo'lsa?"


### UCHINCHI BOB

Go'ngsun Chou. Avvalgi qism

Go'ngsun Chou<sup>56</sup> Meng-zidan so'rab debdi: "Ustoz, agar siz Chi podsholigining vaziri yoxud maslahatchisi bo'lib qolsangiz, g'oyalaringizni ro'yobga chiqarish uchun imkon tug'ilsa, shu sabab podsho hokimi mutlaq va hatto saltanat hukmdori bo'lsa ham ajab emas. Agar shunday bo'lsa, yuragingiz hayajondan hapriqib ketarmidi?"

Meng-zi qisqagina javob beribdi: "Yo'q! Qirq yoshdan so'ng yuragim hapriqmay qo'ygan".

<sup>56</sup> Go'ngsun Chou – Meng-zining shogirdalaridan biri, Chi podsholigidan bo'lidan.





Go'ngsun Chou dedi: "Agar shunday bo'lsa, ustoz, unda siz pahlavon Meng Bendan<sup>57</sup> ancha o'zib ketibsiz".

Meng-zı dedi: "Bu qiyin emas. Gao-zining<sup>58</sup> menden oldinroq yuragi hapriqmay qo'ygan".

Go'ngsun Chou dedi: "Yurak hapriqmasligining yo'li bormi?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Albatta, bor. Beygo'ng You<sup>59</sup> o'z mardligini tarbiyalayotganida, badaniga tikan kirishiga monelik qilmagan, ko'zlariga o'tkir narsa qadalishidan o'zini chetga olmagan; kimsa oldidagi qilcha muvaffaqiyatsizlik ham uning xayolida bozor maydonida qamchinlangandek tuyulardi; ro'dapo kiyingan tagi pastlarga o'zini sharmanda qildirib qo'ymagan, o'n ming chog'li jang aravali katta davlat podshosiga ham o'zini tahqirlatib qo'ymagan; katta davlat podshosiga tig' sanchish uning nazarida bir ro'dapoga tig' sanchishdek edi; hokim-beklardan sirayam hayiqmagan; kimningdir bir og'izgina haqorat qilganini eshitib qolsa, albatta, unga munosib tarzda javob qilgan.

Bahodirlardan yana biri Meng Shi-She o'z mardligini shunday tarbiya qilardiki, o'ziga uqtirardi: "Mag'lubiyatga g'alabadek boq! Avval raqib kuchini chamlab, shundan keyingina harakat qiladigan, g'alaba qozonish haqida puxta o'ylab so'ngra jangga kiradiganlar yog'iy lashkari ko'pligidan vahimaga tushadigan kishilardir. Nahot hamma vaqt muqarrar g'alaba qozonishga ishonchim komil bo'lsa? Men qo'rmaslikni uddalay olaman, xolos".

Meng Shi-She Zeng-ziga<sup>60</sup>, Beygo'ng You esa Zi-syaga<sup>61</sup> o'xshaydi. Ikkisidan qay biri bahodirlilikda ustunligi noma'lum. Har holda Meng Shi-She o'zini yo'qotib qo'ymagan.

Bir vaqlar Zeng-zi shogirdi Zi-syangga<sup>62</sup> shunday degan edi: "Mardlikni yoqtirasamni? Men buyuk mardlik haqida Ustozdan<sup>63</sup> eshitish sharafiga muyassar bo'lganman. U zot shunday degan edilar: "Es-hushimni yig'ib o'zimning nohaq ekanligimni tushunib yetsam, garchi qarshimda bir ro'dapo turgan bo'lsa-da, men ham

<sup>57</sup> Meng Ben – Xitoy afsonalaridagi qadimiylar pahlavon.

<sup>58</sup> Gao-zi – ismi Bu-Sheng, Meng-ziga zamondosh allomalardan biri.

<sup>59</sup> Beygo'ng You – pahlavonlardan biri, hayoti noma'lum.

<sup>60</sup> Zeng-zi – Konfutsiyning shogirdi Zeng Shen.

<sup>61</sup> Zi-sya – Konfutsiyning shogirdi Bu Sheng.

<sup>62</sup> Zi-syang – Zeng-zining shogirdi.

<sup>63</sup> Ustoz – Ko'ng-zı, ya'ni Konfutsiy nazarda tutilgan.



o'takasini yormasman; o'ylab ko'rib o'zimning haq ekanligimni tushunib yetsam, unda qarshimda minglab, hatto o'n minglab nohaq kimsalar turgan bo'lsa ham, ularga qarshi bora olaman".

Demak, Meng Shi-Shening dadilligi Zeng-zining o'zini tuta bilishiga teng kelolmaydi".

Go'ngsun Chou yana so'rabdi: "So'rashga jazm etdim: ustoz va Gao-zining yuraklari hapriqmasligi haqida eshitsam bo'ladimi?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Gao-zı shunday degan edi: "So'zlashni eplolmay turib, qalbingni qidirma; qalbni topmay turib, ruhingni izlama". Qalbni topmay turib, ruhingni izlama, deganiga qo'shilsa bo'ladi, lekin so'zlashni eplolmay turib, qalbingni qidirma, deganiga qo'shilolmayman. Axir iroda ruhning sarvaridir, ruh esa jismimiz to'kisligidir. Iroda qayda bo'lsa, ruh ham o'sha yerdadir." Shuning uchun aytadilar-da: "Irodali bo'ling, ruhingizga zulm qilmang!"

Go'ngsun Chou yana so'rabdi: "Modomiki "Iroda qayda bo'lsa, ruh ham o'sha yerdadir!", deyilgan ekan, unda tag'in "Irodali bo'ling, ruhingizga zulm qilmang!" deyishlikning boisi ne?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Iroda bir narsaga qaratilsa, unda ruhni harakatga keltira oladi; ruh bir narsaga qaratilgan bo'lsa, unda irodani ham harakatga keltirib yuboradi. Endi yiqilgan va yugurib ketayotganlarni tasavvur qil, bu ruhdandir, biroq aksincha yuraklarini ham larzaga soladi".

\*\*\*


Go'ngsun Chou dedi: "Taqsir, siz donishmanddirsiz?"

Meng-zı dedi: "E, voh! Bu qanday gap bo'ldi! Bir zamonlar tolibi ilm Zi-go'ng ham ustozi Ko'ng-zidan so'ragandi: "Taqsir, siz donishmanddirsiz?" Ko'ng-zı shunday javob beribdi: "Donishmandlikka kelsak, men unga qodir emasman. Men faqat o'rganib to'ymadim va o'rgatib charchamadim, xolos". Zi-go'ng dedi: "O'rganib to'ymaslik bu – donolik, o'rgatib charchamaslik bu – muruvvatlilikdir. Muruvvatli, boz ustiga dono, demak, taqsir donishmand ekanlar". Hatto Ko'ng-zı (Konfutsiy) o'zini donishmand deb bilmagan. Sen bo'lsa nimalar deyapsan?!"

\*\*\*

Go'ng Sun Chou debdi: "Bir vaqtlar shunday deb eshitgan edim: Zi-sya, Zi-you, Zi-jang barchasi qisman donishmand xususiyatlariiga ega ekan, Jan Nyu, Ming-zı va Yan

<sup>64</sup> Bu jumlaning boshqa bir tarjima talqini ham bor: "Iroda asosiysi, keyin ruhdir".





Yuanlar<sup>65</sup> esa butunlay ega bo'lsalar-da, lekin juz'iy edi, xolos. So'rashga jazm etdim, siz qay toifaga mansubsiz?"

Meng-zি javob beribdi: "Buni hozircha qo'ya turaylik".

Tolibi ilm<sup>66</sup> so'radi: "Bo-I va I Inlar<sup>67</sup> qanday edilar?"

Ustoz javob berdilar: "Yo'llari boshqa-boshqa edi. Ko'nglidagidek podshoh bo'lmasa, xizmatin qilmasdi, ko'nglidagidek xalq bo'lmasa, hech niman ni buyurmasdi ham; saltanat osoyishtaligida xizmatga kirib, alg'ov-dalg'ov zamonlarda uzlatga chekinardi, bu Bo-I edi.

Orzusidagi podshoh bo'lmasa ham, xizmatin qilsa nima bo'pti? Orzusidagi xalq bo'lmasa ham, buyruq bersa nima bo'pti? Saltanat osoyishtaligida xizmatga kirib, alg'ov-dalg'ov zamonlarda ham xizmat qiladigan bu I Indir.

"Xizmat qilish joiz bo'lsa – xizmat qiling, xizmatdan ketish joiz bo'lsa – unda keting; ko'pga qolish joiz bo'lsa – ko'pga qoling, darhol ketish joiz bo'lsa – unda darhol keting", bu Ko'ng-zи (Konfutsiy) edi.

Ularning barchasi qadimgi donishmandlar edi. Men hali ular qilganlarining hech birini qilolganimcha yo'q. Mening orzuim bo'lsa Ko'ng-zи (Konfutsiy)dan ibrat olishdir!"

Tolibi ilm so'radi: "Bo-I va I Inlarning maqomi Ko'ng-zи bilan birdekmi?"

Ustoz javob berdilar: "Aslo! Odamzod paydo bo'libdiki, Ko'ng-ziga o'xshagani hali bo'lman!"<sup>68</sup>

Tolibi ilm so'radi: "U holda donishmandlarning o'zaro o'xhash jihatlari ham bormi?"

Ustoz javob berdilar: "Albatta, bor! Agar tasarruflarida yuz li yeri (ellik chaqirimlik yeri – I.Q.) bo'lib, unga podshohlik qilgudek bo'lsalar, hokimu beklarni

<sup>65</sup> Zi-sya, Zi-you, Zi-jang, Jan Nyu, Ming-zи, Yan Yuan – barchasi Konfutsiyning shogirdlari. Bu yerda donishmand deyilganda, avvalo, ularning ustozini Konfutsiyga ishora.

<sup>66</sup> Tolibi ilm – bu yerda Go'ngsun Chou nazarda tutilmoga.

<sup>67</sup> Bo-I – Shang sulolasi g'arbiy muzofotlaridan biri Lyao hukmdorining o'g'li; I In – Shang sulolasi podshohi Tangning bosh maslahatchisi. Uni mis pullarning ixtirochisi deb hisoblashadi. Hayotlariga doir ma'lumotlar batafsil emas. Meng-zи ikkisini ham donishmandlar sifatida e'tirof qilgan.

<sup>68</sup> Meng-zining ushbu so'zlariga biryoqlama baho berish noto'g'ri bo'lardi. Konfutsiy va Meng-zи yashagan davrlarda dunyoning boshqa turli burchaklarida ham buyuk donishmandlar yetishib chiqqan edi. Er. avv. VIII-II asrlarda turli madaniy hududlarda bir vaqning o'zida va bir-biridan mustaqil ravishda insoniyatning ma'naviy yuksalishida sifai o'zgarishlari sodir bo'ldi, dunyonni prinsip jihatidan yangidan idrok qilish imkoniyati tug'ildi. Bu davrning xabarchilari qatorida Turonzaminda tug'ilib voyaga yetib, o'z faoliyatini Eronda davom ettirgan donishmand Zardo'sht, Yaqin Sharqdagi diniy dohiylar, qadimgi yunon donishmandlari, Budda Shakya Muni va boshqalar dunyoga keldi. Boshqa tamaddunlardan ancha chetraqda paydo bo'lib nisbatan holi rivojlangan qadimgi Xitoy sharoitida istiqomat qilgan Meng-zи tabiiyki bulardan bexabar edi, shu sabab yuqoridagi so'zlarni aytishini to'g'ri tushunsa bo'ladi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Konfutsiy, ya'ni Ulug' Ustoz Ko'ng Xitoy va xan — xitoy millatining eng buyuk kishisidir! Undan avval ham, keyin ham bu qadim Chin diyorida undan o'tadigan kishi chiqmagan! Konfutsiy yaratgan axloqiy-siyosiy ta'limot xitoy madaniyatining asosiy mohiyatidir.



huzurlariga chorlash bilan butun sultanatga sohib bo'la oladilar. Biron nohaqlik qilish, bir begunohni o'ldirish evaziga sultanatga ega chiqish kerak bo'lsa, ularning hech biri bunday qilmagan bo'lur edi. Bu borada ular mutlaqo o'xshashdirlar".

Tolibi ilm so'radi: "So'rashga jazm etdim, marhamat qilib aytsangiz, Ko'ng-zining o'zgalardan farqi nimada?"

Ustoz javob berdilar: "Zay Vo', Zi-go'ng, You Juolarning" aqli donishmand Ko'ng-zini tushunishga yetardi, biroz bo'rttirib yuborsalar ham, lekin bu o'zlar sevib ardoqlagan insonga nisbatan tilyog'lamalik qilishga kirmaydi".

Zay Vo' Ko'ng-zi haqida shunday degan edi: "Mening nazarimda, Ustoz donolikda Yao va Shunlardan ancha o'zib ketganlar!"

Zi-go'ng ustozni alqab shunday degan edi: "U zotning odobiga qarab elni qanday idora qilishlarini bilib olasan; u zotning kuylarini tinglab xulq-atvorini bilib olasan. Yuz avloddan keyin yuz avlod podshohlari saralanganda ham hech kim bundan tonmaydi. Odamzod paydo bo'lgandan beri Ustozga o'xshagani hali bo'limgan!"

You Juo esa shunday degan: "Nafaqt odamzod shunday! Chilin<sup>69</sup> chopqir jonivorlarga oid, qaqnus<sup>70</sup> – uchar qushlarga, Tayshan<sup>71</sup> tog'i – do'nglikka, daryo-dengizlar ko'chadagi ko'lmakka oiddir, barchasi turdoshdir; donishmandlar ham mansublik borasida avom bilan bir turdadir. Ular o'zlariga o'xshash turlardan ajralib chiqdilar, o'z olomonlaridan sug'urilib chiqdilar! Odamzod yaralgandan beri donishmandlikda Ko'ng-zidan ham ulug'rog'i hali bo'limgan!"

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Rahmdillik shon-sharafdir, berahmlik sharmandai sharmisorlikdir. (Rahmdillik sharaflidir, berahmlik sharmandalidir.)


Hozirgilar sharmandalikdan hazar qilsalar-da, lekin berahmlik tomonda tururlar, bu xuddi zaxni yomon ko'rib, lekin botqoqlikda turganga o'xshaydi.

<sup>69</sup> Zay Vo', Zi-go'ng, You Juo – Konfutsiyning shogirdlari.

<sup>70</sup> Chilin – Xitoy afsonalaridagi jonivor, ko'rinishini bug'usifat qilib tasvirlashadilar, boshida shoxi bo'lib, butun tanasi tangachalar bilan qoplangan, dumii ham bor. Qadimgi odamlar uchun u yaxshilik alomatining ramzi bo'lgan.

<sup>71</sup> Qaqnus yoki Feniks – qadimgi afsonaviy qush, qushlarning shobi, patlari niroyatda nafis bo'lgan, xitoy tilida feng-xuang (nari "feng", modasi "xuang") deb ataladi, xitoy xalqida yaxshilik alomatining ramzi bo'lgan. Qaqnus, shuningdek, ba'zi Sharq xalqlari mifologiyasida yonib ketib, kuldan yana paydo bo'la oladigan afsonaviy qushdir, abadiy yangilanib turish ramzi bo'lgan.

<sup>72</sup> Tayshan – Xitoydagagi besh yuksak tog'lardan biri, qadimga Sharqiy tog' deb atalgan. Shando'ng provinsiyasining markaziy hududida joylashgan bo'lib, dengiz sathidan 1.524 m baland. Xalq uchun muqaddas tog' hisoblangan, hatto qadimgi davrlarda imperatorlar tez-tez bu yerga kelishib, Osmon va Yerga atab qurbanliklar qilishgan.





Agar sharmandalikdan hazar qilsangiz, bundan qutulishning ezgu fazilatlarni qadrlash va ziyolilarni e'zozlashdan yaxshiroq chorasi yo'q; oqilu fozil odamlarning martabasi, salohiyatli-ba'mani kishilarning lavozimi bo'lsin; ana shunda bu mamlakatda tinchlik va xotirjamlik hukm surgay; bunday qulay fursat kelganidan foydalanib amru farmonlar va qonunlarga aniqlik kiritilsa, hatto katta davlatlarning ham undan hayiqishi tayin.

"Nazmnoma"da shunday deyilgan:

"Osmonni qoplamay bulut, yomg'ir yog'masdan,  
Tezroq tut ildizin po'stlog'in olib,  
Uyam tirkishlarin mahkam tang'isam.  
Bundan buyon, ey, pastdagi odamlar,  
Tag'in kimning haddi sig'ar meni xo'rashga".<sup>73</sup>

Ko'ng-zi (Konfutsiy) shunday degan edi: "Ushbu she'rni yozgan inson haqiqatdan voqif bo'lgan! Axir mamlakatini yaxshi idora qila olgan kishini tahqirlashga kimning ham haddi sig'ardi?"

Agar mamlakatda tinchlik va xotirjamlik hukm sursa, bunday paytda podshoning aysh-ishratga mukkasidan ketib, g'aflat bosib kayfu safo qilib yurishligi o'zini balo-qazolarga giriftor qilishidir.

Hech bir balo va baxt yo'qki, ularga o'zimiz sababchi bo'lmasak.

Bu haqda "Nazmnoma" daga "Ven-vang" she'rida shunday misralar bor:

"Taqdiringga ko'ngil to abad,"

Topursan ko'p baxtu saodat!"

"Kitob" ("Nasrnoma")ning "Tay-jya" bobida shunday deyilgan:

"Osmon qilsa yomonlik,"

Topmon mumkin omonlik.

O'zing qilgan balodan,

Qochib bo'lmas qazodan!"

Aytiganlarida ayni shu narsalar nazarda tutilgan".

\*\*\*

<sup>73</sup> Ushbu she'r qush tilidan aytigan, uning uyasi daraxt tepasida, shuning uchun "pastdagi odamlar" deb murojaat qilingan.

<sup>74</sup> Taqdiringa ko'nish – Osmon, ya'ni Tangrining irodasiga qarshi bormaslik. Bir umr Xudoning amriga qarshi chiqmay yashagan inson saodatli umr kechirishligi aytimoqda.

<sup>75</sup> Yomonlik – bu yerda: tabiiy ofatlar nazarda tutilmoqda.



Meng-zı dedi: "O'q yasovchi kishi nahotkisovut yasovchi ustaga qaraganda beshafqatraq bo'lsa? O'q yasovchi kishi faqatgina odamlarga shikast yetkizolmasligidan qo'rjadi, sovut yasovchi kishi bo'lsa odamlarga shikast yetib qolishidan qo'rjadi.

Azayimxon<sup>76</sup> va tobutsoz ham shunday!

Shu bois tirikchilikni deb hunar tanlashda aslo ehtiyyotsizlik qilish yaramaydi.

Ko'ng-zı (Konfutsiy) shunday degan edi: "Rahmdillik bilan birga yashash naqadar go'zal! Rahmdillik bilan birga yashashni tanlamasa, qanday qilib dono deyish mumkin?"

Rahmdillik (insonparvarlik) – Falak baxshida etgan eng aziz unvondir, odamlarning eng osuda istiqomatgohlaridir!

Hech kim monelik qilmasa-da, lekin rahmdillik bilan birga yashashni tanlamaslik nodonlikdir!

Berahm, nodon, beadab, adolatsizlar odamlarning malayiga aylanib qoladilar. (Ikkinchı talqin: "Berahmlik – johillikdir, beadablik – nohaqlikdir! Bunday kimsalar faqat boshqalar tomonidan majburan ishlatalishgagina loyiq".) Malayning malaylikdan or qilishi xuddi kamon yasovchi ustaning kamon yasashdan, o'q yasovchi ustaning o'q yasashdan or qilishi kabidir.

Agar haqiqatan malaylikdan or qilsalar, unda rahmdil bo'lishdan yaxshisi yo'q!

Rahmdillik (insonparvarlik)ni kamondan o'q uzishga qiyos qilsa bo'ladi: o'q otuvchi avvalo o'zining holatini to'g'rilaydi, shundan keyingina o'q uzadi. Agar o'qni otib nishonga urolmasa, o'zini yenggan kishidan o'pkalamay, aksincha muvaffaqiyatsizligining sababini faqat o'zidan qidirishi mumkin, xolos".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Zi-lu" odamlar uning xatosini ko'rsatsalar, u bundan sevinib ketar edi. Oqsoqol Yuy yaxshi gap eshitib qolgudek bo'lsa, o'sha odamga yetti bukilib ta'zim qilar edi. Bu borada buyuk Shun yanada ulug'roq edi: yaxshiliklardan odamlar bilan birga bahramand bo'ldi (har doim odamlar bilan birgalikda xayrli ishlar qildi – I.Q.), o'zining yomon odatlarini tark etib, odamlarning yaxshi tomonlariga ergashdi; xursandchilik bilan odamlarning yaxshi xislatlarini o'ziga singdirib xayrli ishlar qildi. Yer haydash va don sepish, sopol buyumlar yasash hamda baliq tutishdan to podshoh bo'lgunga qadar o'zgalardan ibrat olmagan narsasi yo'q uning. Odamlarning yaxshi xislatlarini o'ziga singdirib yaxshilik qilishi kishining o'zgalar bilan birgalikda yaxshilik qilishidir. Shuning

<sup>76</sup> Azayimxon – bemorlarni dam solib, kuf-suf qilib yoki turli afsunlar bilan davolaydigan tabib.

<sup>77</sup> Zi-lu – Konfutsiyning shogirdlaridan biri.



uchun olijanoblar uchun odamlar bilan birlgilikda yaxshilik qilishdan ham ulug'roq ish yo'qdir!"

- Yomon odatlaringizni tark etib, odamlarning yaxshi tomonlariga ergashing!
- Odamlarning yaxshi xislatlarini o'ziga singdirib yaxshilik qilishi kishining o'zgalar bilan birlgilikda yaxshilik qilishidir.
- Olijanoblar uchun odamlar bilan birlgilikda yaxshilik qilishdan ham ulug'roq ish yo'qdir!

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Bo-I<sup>78</sup>" shunday odam ediki, ko'nglidagidek podsho bo'lmasa, xizmatini qilmasdi; ko'nglidagidek do'st bo'lmasa, do'stlashmasdi; yaramas odamlar (podsholar – I.Q.) saroyida turmasdi (amaldorlik qilmasdi – I.Q.) hamda nokaslar bilan so'zlashmasdi.

Yaramas odamlar saroyida turish, nokaslar bilan so'zlashish uning uchun egniga saroy liboslarini kiyib, boshiga saroy qalpog'ini qo'ndirib balchiq va qorakuyada o'tirgan bilan barobar edi.

Agar yomon odamlar va yomon ishlarga bo'lgan nafratini keng yoyib qaraydigan bo'lsak, hatto bir qishloqi bilan birga tursa, haligi odam qalpog'ini qiyshiq kiyib olgan bo'lsa ham, o'ng'aysizlanib undan uzoqlashgan bo'lardi, xuddi biror iflos narsa yuqib qoladigandek.

Shu sababli hatto beklarning ba'zilari garchi har turli yaxshi gaplar bilan huzurlariga chorlasalar-da, u barchasini rad etdi. Ularga yaqinlashsa bulg'anib qoladigandek edi, rad etganining boisi ham shunda.

Lyu-sya Huey<sup>79</sup> esa murdor podsho xizmatida bo'lishdan or qilmadi, kichik amaldorlikni past ham deb o'tirmay, saroy xizmatiga kirdi, qobiliyatini yashirmadi hamda, albatta, o'z aqidalariga amal qildi; amalidan ayrliganda ham nolimadi, boshiga kulfat tushganda, muhtojlikda hasrat qilmadi. Negaki u shunday degan edi: "Sen – u sensan, men – bu menman, hatto yonimda yalang'och turgan bo'lsang, qanday qilib menga dog' tekkiza olasan?"

Shuning uchun xushchaqchaq bo'lib ular bilan birlgilikda yashadi, lekin o'zini yo'qotib qo'ymadni, uni to'xtatsang to'xtardi. Uni to'xtatsang to'xtasa, demak, buning sababi shu ko'yi ketishdan hech bir ma'ni yo'qligidandir.

<sup>78</sup> Bo-I – Xitoyning In-Shang sulolasi davri g'arbiy hududlaridan biridagi Lyao muzofotining hukmdori Gu-Juning o'g'li.

<sup>79</sup> Lyu-sya Huey – haqiqiy ismi Jan Chin, Lu podsholigining dafu-to'ralaridan biri, Konfutsiy bilan zamondosh bo'lgan.



Meng-zı yana dedi: "Bo-I kaltafahm, Lyu-Sya Xuey esa o'z hurmatini bilmaydigan bachkana odamdir. Olijanoblar bo'lsa kaltafahmlik va bachkanalik qilmaydilar!"

TO'RTINCHI BOB  
Go'ngsun Chou. Keyingi qism

Meng-zı dedi: "Iqlimi sharoit jo'g'rofiy afzallikka teng kelolmaydi, jo'g'rofiy afzallik xalqning ittifoqligiga teng kelolmaydi. Ichki devori tomonlari uzunligi uch li, tashqi devorlari yetti li bo'lgan qal'ani qurshab olib hujum qildingiz deylik, lekin ishg'ol etolmadingiz. Uni qurshab olib hujum qila olgan ekansiz, bu, albatta, iqlimi sharoitni to'g'ri baholay olganingizdan; biroq ishg'ol qila olmaganingiz, bu ayni iqlimi sharoit jo'g'rofiy afzallikka teng kela olmaganligidandir.

Endi tasavvur qiling: qal'a devorlari yetarlicha baland, himoya xandaqlari chuqur, jangchilarning qurollari o'tkir, sovtlari pishiq, guruch va oziq-ovqatlari mo'l bo'lsa-yu, shunda ham shahar mudofaachilari turli bahonalar bilan qal'ani tashlab qochib ketsa, bu jo'g'rofiy afzallik xalqning ittifoqligiga teng kelolmasligini anglatadi.

Shu bois aytamanki: chegara chiziqlarini to'sib qo'yish bilan xalqni cheklolmaysiz; davlatning mustahkamligi tog'-daryolarining tahlikaliligi bilan emas; mamlakatning qudratini oshirish tig'ning o'tkirligi bilan bo'lmasdi.


Haq yo'lni tutganga madad bisyor, haq yo'ldan ozgan ko'makka zor.

Yordam beruvchilar ozligi shu qadarki, hatto tug'ishganlari ham undan yuz o'giradilar; yana birlariga yordamga oshiqqanlar shu qadar ko'pki, butun Osmonostidagilar unga bo'ysunadilar. Butun Osmonostini bo'ysundirgan kuchga tayanib, tug'ishganlari ham yuz o'girganga hujum qiling! Shu sabab olijanoblarning jang qilishiga hojat yo'q, agar jang qilgudek bo'lsalar ham, g'alaba qozonmoqlari muqarrar".

- Iqlimi sharoit jo'g'rofiy afzallikka teng kelolmaydi, jo'g'rofiy afzallik xalqning ittifoqligiga teng kelolmaydi.
- Haq yo'lni tutganga madad bisyor, haq yo'ldan ozgan ko'makka zor.
- Mamlakatning qudratini oshirish tig'ning o'tkirligi bilan bo'lmas.

\*\*\*

Meng-zı endigina Chi podshosi Syuan-vang huzuriga bormoqchi bo'lib turgan ekan, shu mahal podsho chopar yo'llab unga shunday debdi: "Siz bilan ko'rishgani





aslida kaminaning o'zлari oldingizga borishim kerak edi, biroq shamollab qoldim va menga shamolda yurish mumkin emas. Ertaga huzurimga qadam ranjida qilsangiz, sizni saroyimda ko'rib boshim ko'kka yetardi, bilmam, siz bilan ko'rishish sharafiga faqirni muyassar etarmikinsiz?"

Meng-zzi podsho xabarini olib kelguvchidan shunday javob yo'llabdi: "Baxtga qarshi, mening ham tobim yo'g'roq, ming afsuslar bo'lsinki, saroya borolmayman".

Ertasi kuni Meng-zzi Do'ng Guo' xonadoniga ta'ziya bildirgani borish uchun uyidan chiqibdi. Shogirdi Go'ngsun Chou undan so'rabdi: "Kecha kasal vajidan podshoga rad javobi berib yuborgan edingiz, bugun esa ta'ziyaga otlanibsiz. Balkim, bunday qilish to'g'ri bo'lmas?"

Meng-zzi shunday javob beribdi: "Kecha tobim yo'q edi, bugun yaxshiman. Nega ta'ziyaga bormasligim kerak ekan?"

Bu orada podsho bermordan hol-ahvol so'ragani yana chopar yuboribdi. U bilan tabib ham hamroh bo'lib kelgan ekan. Meng Jo'ng-zi<sup>80</sup> kelguvchilarga shunday debdi: "Kuni kecha podshodan buyruq bo'lgan edi, og'amning mazasi bo'lmay, saroya borolmadilar. Bugun biroz tuzuk bo'lib qoldilar-u, darhol saroya jo'nadilar. Bilmadim, yetib bordimikanlar?"

Keyin u akasining yo'lini to'sib shu xabarni yetkazish uchun bir necha odamlarni jo'natibdi: "Iltimos, uyga qaytmay, zudlik bilan saroya boring!"

Meng-zzi noiloj Chi podsholigining to'ralaridan biri Jing Chou xonadonida tunab qolishga to'g'ri kelibdi.

Jing-zi (Jing Chou) Meng-ziga debdi: "Uyda ota va farzandlik, sirtda podsho va mulozimlik – bular kishilar o'rtasidagi eng muhim axloqiy munosabatlardir. Ota va farzand o'rtasida eng muhimi – mehr-muhabbat, podsho va mulozimlar o'rtasida eng muhimi – hurmat-ehtiromdir. Men – Chou, faqat podsho sizning hurmatiningizni joyiga qo'yganini ko'rib turibman, lekin sizning podshoga bo'lgan hurmatingizni ko'rmayapman".

Meng-zzi shunday javob beribdi: "Obbo! Bu nima degan gap bo'ldi?! Chi podsholigi odamlari orasida podshoga insonparvarlik va adolat haqida so'zlaydigan hech zog' yo'q. Nahotki ular insonparvarlik va adolatni ko'rimsiz narsa deb o'ylasalar? Yo'q! Ular ichlarida shunday deydilar: "Bunday podsho insonparvarlik va adolat haqida so'zlashingga qayoqdan ham arzisin!" Magar shundoq ekan, podshoga nisbatan bundan-da katta hurmatsizlik bo'lmaydi. Menga kelsak, donishmand podsholar Yao va Shunning ulug' yo'liga zid bo'lgan narsalar haqida podsho qarshisida so'zlashga hargiz botinolmasman. Shu bois Chi podsholigida podshoni menchalik hurmat qiladigan odamning o'zi yo'q!"

<sup>80</sup> Meng Jo'ng-zi – Meng-zining amakivachchasi.



Jing-zi e'tiroz bildirib debdi: "Yo'q. Men buni nazarda tutmagandim. "Odobnoma"da shunday deyilgan: "Otang chaqirganda, "Ha!" demagin, "Labbay!" deya darrov o'rningdan tur; podsho chorlaganda arava tayyor bo'lishini kutib o'tirmay darhol yo'lga tush!" Siz aslida ham saroya bormoqchi bo'lib turgan edingiz, podsho buyrug'ini eshitishingiz bilan aksiga olib niyattingizdan qaytdingiz. Bu deyarli odob qoidalariiga mos kelmagandek".

Meng-zi shunday javob beribdi: "E-ha, siz buni aytayapsizmi?! Donishmand Zeng-zi nima deganini eslang: "Boylik borasida Jin va Chu podsholariga hech kim yetolmaydi. Ular boyliklariga ishonsalar, men insoniy fazilatlarimga tayanaman; ular o'zlarining unvonlariga ishonsalar, men adolatga suyanaman. Mening ulardan nima kamchiligidim bor?" Nahot bu so'zlarni aytgan Zeng-zi nohaq bo'lsa? Bu so'zlarda bir haqiqat bo'lsa kerak.

Osmonostida hurmatga erishmoqlikning uch sharti mavjud: biri – martabali unvon, biri – yoshi ulug'lik, biri – kishining axloq-fazilatlari. Podsho saroyida hurmat uchun martabali unvondan o'tadigani yo'q, qishloqda bu borada yoshi ulug'likka yetadigani yo'q, elni idora qilishda podshoga madad bo'lish uchun axloqiy fazilatlardan yaxshisi yo'q. Qanday qilib ulardan biriga ega bo'lib, qolgan ikkisini pisand qilmaslik mumkin? Shuning uchun buyuk ishlarni amalga oshirmoqchi bo'lgan podshoning, albatta, o'z huzuriga chaqirmaydigan mulozimi bo'lishi shart. Agar biror narsa haqida kengashmoqchi bo'lsalar, podshoning o'zlarini uning oldiga borishlari kerak. Bu uning axloq-fazilatga bo'lgan hurmati va haq yo'lga mehr qo'yganligini anglatadi, agar shunday bo'lmasa, bunday podsho uning bilan biror ishni amalga oshirishingga arzimaydi.

Ana shuning uchun ham Shang sulolasi podshohi Tang I In haqida avvalo undan ibrat olgan, so'ngra uni o'zining mulozimi sifatida ko'rgan, shu bois mashaqqatlarsiz mamlakatni birlashtirib hukmronlik qilgan. Shuningdek, Chi podshosi Xuan-go'ng ham Guan Jo'ng haqida avvalo undan ibrat olgan, so'ngra uni o'zining mulozimi sifatida ko'rgan, shu bois hech bir mashaqqatlarsiz podsholar yo'lboshchisi bo'lgan.

Endilikda Osmonostidagi podsholiklarning yerlari deyarli bir xil, podsholarining xulqlari ham bir-birlaridan qolishmaydi, hech kim boshqasidan ustun emas. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, axir bu podsholar o'zlariga o'rgatib olgan itoatgo'y amaldorlarini yaxshi ko'radilar, o'zlariga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan haqiqatgo'y amaldorlarni yomon ko'radilar.

Podshoh Tang I Inga nisbatan, podsho Huan-go'ng Guan Jo'ngga nisbatan shunday edilarki, ularni huzuriga chorlashga botinolmasdilar. Hatto Guan Jo'ngni chaqirish nojoiz bo'lgan yerda, (menga) tag'in ham Guan Jo'ng bo'lishga yo'l bo'lsin!"





- Donishmand Zeng-zi shunday degan edi: "Boylık borasida Jin va Chu podsholariga hech kim yetolmaydi. Ular boyliklariga ishonsalar, men insoniy fazilatlarimga tayanaman; ular o'zlarining unvonlariga ishonsalar, men adolatga suyanaman. Mening ulardan nima kamchiligidir?"
- Osmonestida hurmatga erishmoqlikning uch sharti mavjud: biri — martabali unvon, biri — yoshi ulug'lik, biri — kishining axloq-fazilatlari.
- Saroyda eng hurmatli narsa kishining unvon-martabasidir, qishloqda eng hurmatlisi kishining ulug' yoshidir, elni idora qilishda podshoga yordam berguvchi uchun eng hurmatga loyig'i kishining ma'naviy fazilatlaridir.

\*\*\*

Chen Jen ustozı Meng-zidan so'rab debdi: "Chi podsholigida bo'lgan kunlaringizda podsho sizga yuz oltin yombisi hadya qilganlarida, qabul qilmadingiz. So'ng davlatida bo'lganiningizda, u yerning podshosi yetmish oltin yombi in'om qildilar va siz ularni qabul qildingiz. Syue bekligida ellik oltin yombi tortiq qildilar, siz ularni ham qabul etdingiz. Agar oldingisini qabul qilmaganingiz to'g'ri bo'lsa, demak, bugungilarini qabul qilganingiz xatodir. Agar bugun keyingi ikkisini qabul qilganingizni to'g'ri desak, unda oldingisini qabul qilmaganingiz xato bo'lib chiqadi. Bu ikki holatning birida, ustoz, siz baribir bir xato qilganingiz tayin".

Meng-zı shunday javob beribdi: "Hammasi to'g'ri. So'ng podsholigida bo'lganimda, uzoq safarga jo'namoqchi edim, olis safarga otlangan yo'lovchiga biroz ataganini berish lozim. Shuning uchun xayrlashuv chog'i (So'ng podshosi) menga aytdiki: "Sizga atagan biroz hadyamiz bor edi, yo'lida asqotib qolar". Nima uchun qo'lini qaytarishim kerak edi? Syue bekligida bo'lgan paytim ko'nglimda yo'ldagi xavf-xatarlarga qarshi ehtiyyotkorlik choralarini ko'rib qo'yish niyati tug'ildi. Xayrlashuv chog'i (bek) menga aytdiki: "Ehtiyyot choralarini ko'rishingiz zarurligini eshitdim, shu bois qurol-aslahha uchun sizga atagan biroz hadyamiz bor edi". Qanday qilib qo'lini qaytarishim mumkin edi? Chi podshosi bergen sovg'aga kelsak, hech bir asossiz edi. Hech bir asoslarsiz pul hadya qilish pora berib o'z tomoniga og'dirib olishga urinish demakdir. Olijanoblarning mol-dunyoga uchganlarini qayerda ko'rgansiz?!"

- 
- Olijanoblarning mol-dunyoga uchmaydilar!

\*\*\*



Meng-zı Pinglu<sup>81</sup> qal'asiga yetib kelgach, qal'a hokimi Ko'ng Jyu Singa murojaat qilib shunday debdi: "Agar nayza tutgan soqchilaringizdan kimdir bir kunda uch bora o'z qorovullik o'tnini o'zboshimchalik qilib tark etsa, uni haydab yuborasizmi?"

Qal'a hokimi: "Uchinchi martasigacha kutib o'tirmasdim", – deb javob beribdi.

Meng-zı so'zida davom etibdi: "Shunday ekan, unda sizning o'zboshimchalik bilan yo'l qo'ygan kamchiliklaringiz talaygina. Qahatchilik va ocharchilik yillari xalqingiz orasidan minglab qariyalar va ozg'inlar o'ra-jarliklarga ag'anab ochlikdan nobud bo'ldilar, voyaga yetganlari to'rt tomonga tarqab ketdilar".

Qal'a hokimi debdi: "Bunday ishlar men Ko'ng Jyu Sining qo'lidan kelmaydi!"

Meng-zı shunday debdi: "Endi bir tasavvur qiling, bugun birovning mol-qo'ylarini boqish uchun oldingiz, u holda ular uchun, albatta, yaylov va yem-xashak topishingiz kerak. Agar yaylov va yem-xashak topishga tuyassar bo'lmasangiz, ularni egasiga qaytarasizmi yoki bir chetda harom o'lishlarini tomosha qilib turasizmi?"

"Demak, bu men – Ko'ng Jyu Sining aybim ekan!"

Oradan bir necha kun o'tgach, Meng-zı Chi podshosi Syuan-vang bilan uchrashganida, unga shunday debdi: "Kaminalari podshoning katta shahar hokimlaridan besh nafarini taniyman. Ular orasida o'z aybiga iqror bo'lgani yolg'iz Ko'ng Jyu Sindir!" Meng-zı shunday deya podshoga o'zi va Ko'ng Jyu Sin o'talarida bo'lib o'tgan suhbatni aytib beribdi.

Uni eshitgan podsho shunday debdi: "Ahvol siz aytgancha bo'lsa, demak, bu mening aybimdir!"

\*\*\*

Meng-zı Chi podsholigida katta amaldor bo'lib xizmat qilgan kezlari bir safar ta'ziya bildirgani Teng podsholigiga boradigan bo'libdi. Podsho Ge qal'asining dafuto'ralaridan Vang Xuanni unga hamroh bo'lib borish uchun yuboribdi. Vang Xuanni ertadan kechgacha ko'rib tursa-da, hattoki Chi va Tengning qaytish yo'lida ham Meng-zı unga safari haqida biron og'iz ham gapirmabdi.

Bundan taajjublangan shogirdi Go'ng-Sun Chou ustozga murojaat qilib debdi: "Chi podsholigining ching-amaldorlik<sup>82</sup> rutbasi chakana lavozim emasdi, Chi va Teng davlatlari oralig'idagi yo'l ham yaqin emasdi. Borib qaytdilaringiz-u, lekin yo'l bo'yi safaringiz haqida unga hech nima demadingiz, buning sababi nimada?"

<sup>81</sup> Pinglu – Chi podsholigining chegara qal'alaridan biri.

<sup>82</sup> Ching – qadimgi yuqori mansab, unvon nomi, darajasiga ko'ra gong (gersoglikka teng toifa) dan past, dafu (to'ralar) dan yuqori turgan.





Meng-zı shunday javob beribdi: "Modomiki birovlarining o'zlari buni eplagan ekanlar<sup>83</sup>, men nima ham derdim?"

\*\*\*

Meng-zı Chi podsholigidan onasini dafn qilish uchun Lu podsholigiga kelibdi.<sup>84</sup> Chiga qaytishida yo'l ustidagi Ing qal'asida to'xtabdi.

Shogirdlaridan biri Cho'ng Yuy maslahat so'rab debdi: "Mening qanchalar noshudligimdan xabaringiz yo'q, tunov kuni menga tobutsozlik ishlariga ko'z-quloq bo'lib turishni buyurdingiz. O'shanda shoshilinch bo'lganligidan maslahat so'rashga botinolmagandim. Bugun haddim sig'ib so'rashga jazm etdim: tobut yog'ochi judayam yaxshiga o'xshab ketdi".

Meng-zı unga shunday xitob qilibdi: "Juda qadim zamonlarda tobut va tobutdonning<sup>85</sup> aniq belgilangan o'lchamlari bo'lman, o'rtal qadim zamonlarda<sup>86</sup> tobutning qalinligi yetti sun<sup>87</sup> qilib belgilangan, tobutdon ham shunga mos bo'lgan. Osmon O'g'lidan to oddiy odamlargacha tobutga katta e'tibor berishlari faqat chiroyli ko'rinishi uchungina emas, balki shunday qilsalargina qobil farzandlik burchini ado etgan bo'lganliklari uchundir.

Mumkin bo'lmanligi (taomil cheklovleri – I.Q.) bois bunga muvaffaq bo'lmasa, ko'ngli joyiga tushmaydi; bisotida hech vaqosi yo'qligi bois bunga yetisholmasa, tag'inam ko'ngli joyiga tushmaydi. Mumkin bo'lsa, tag'in mablag'i ham bo'lsa, qadimgi odamlarning barchasi shunday qilishgan (shunday tobutdan foydalanishgan – I.Q.), nega endi faqatgina men bunday qilmas ekanman? Boz ustiga marhum uchun bu shunchaki et-terisiga tuproq chaplashib ketishiga yo'l qo'ymaslik, xolos, qobil farzandning bundan ozgina bo'lsa-da ko'ngli to'lmasmi?

Olijanoblar Osmonostidagi hech narsani ota-onalaridan qizg'onmaydilar, deb eshitganman".

<sup>83</sup> Bu yerda Vang Huan nazarda tutilmoqda.

<sup>84</sup> Meng-zı Chi podsholigida xizmatda vaqqi onasi olamdan o'tadi, onasining vasiyatini bajarish maqsadida dafn qilish uchun yurtiga olib ketadi.

<sup>85</sup> Tobut va tobutdon – qadimda tobut ichki va tashqi qavatlarga ajratilgan, ichki qavatl tobut, tashqi maxsus qoplama qavati tobutdon deb atalgan. Eng qadimgi zamonlarda ularning aniq belgilangan o'lchamlari bo'lman.

<sup>86</sup> O'rtal qadim zamon – bu yerda Jou-go'ng marosimlarni tartibga keltirgandan keyingi davr nazarda tutilmoqda. Jou-go'ng haqida – 238-izohga qaralsin.

<sup>87</sup> Sun – Xitoy an'anaviy uzunlik o'ichov birligi: bir sun taxminan 3,33 smga teng. Qo'shimcha ma'lumot: 10 sun – 1 chi (0,33 m), 10 chi – 1 jang (3,33 m); bir meitr 30 sunga teng. Qadimgi Xitoy adabiyotlarida ushbu uchta uzunlik o'ichov birliklariga ko'p duch kelinadi.

\*\*\*

Yanliklar<sup>88</sup> Chi podsholigi istilosiga qarshi bosh ko'taribdilar. Chi podshosi Syuan-vang debdi: "Men Meng-zı oldida juda uyatga qoldim".

A'yonlaridan biri Chen Jya unga debdi: "Podsho qayg'urmasalar ham bo'ladi. Podshoh Jou-go'ng bilan qiyoslaganda, sizning nazaringizda kim ko'proq insonparvar va donoroq?"

Podsho hayron bo'lib debdi: "E-e! Bu nima degan gap bo'ldi!"

Chen Jya debdi: "Podshoh Jou-go'ng inlarga ko'z-quloq bo'lib turishi uchun akasi Guan Shuni<sup>89</sup> yuboradi, Guan Shu esa inliklarga tayanib isyon ko'taradi.<sup>90</sup> Agar Jou-go'ng shunday bo'lishini bila turib Guan Shuni jo'natgan bo'lsa, bu ayni shafqatsizlikdir; agar bilmay turib yuborgan bo'lsa, bu nodonlikdir. Modomiki insonparvarlik va donolik borasida Jou-go'ng mukammal bo'lolgagan ekan, qanday qilib sizga qiyoslash mumkin? Ijozat etsangiz, Meng-zı bilan ko'rishsam va undan bu masalaga oydinlik kiritishlarini so'rasam".

Meng-zı bilan ko'rishgach, Chen Jya undan so'rabdi: "Jou-go'ng qanday odam bo'Igan?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Qadimgi davrning donishmand kishisidir".

Chen Jya so'rabdi: "U Guan Shuni inlardan ko'z-quloq bo'lib turgani yuboribdi, Guan Shu esa inlarga tayanib isyon ko'taribdi. Shunday bo'Iganmi?"

"Ha!" – debdi Meng-zı.

Chen Jya so'rabdi: "Jou-go'ng Guan Shuni yuborayotganda uning isyon ko'tarishini bilganmidi?"

"Yo'q, bilmagan", – debdi Meng-zı.

Chen Jya so'rabdi: "Demak, donishmandlar ham xatoga yo'l qo'yar ekanlar-da?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Jou-go'ng uka edi, Guan Shu – aka. Bunday holatda Jou-go'ngning xatoga yo'l qo'ymasligi mumkinmi? Boz ustiga qadimgi zamon oljanob kishilari xato qilsalar, xatosini darhol tuzatganlar; hozirgi oljanoblar xato qilsalar, xatosiga erk beradilar. Qadimgi zamon oljanoblarining xatosi xuddi Quyosh va Oy tutilishlariga o'xshaydi, xalq ularni ko'rib turgan; ularning xatolarini tuzatishlariga xalq ilhaq bo'Igan. Hozirgi oljanoblar xatolariga behuda erk beribgina qolmay, tag'in turli bahonalar bilan ularni xaspo'shlaydilar".

<sup>88</sup> Yanliklar – Yan podsholigi odamlari.

<sup>89</sup> Guan Shu – Jou sulolası podshohi Vu-vangning ukasi, Jou-go'ngning akasi. Podshoh Vu-vang Shang podsholigini enggach, Shangning podshosi Jouning o'g'li Vu Gengga otasining yerlarini idora qilishni topshiradi. Guan Shuni esa uning ustidan nazorat qilib turish uchun yuboradi.

<sup>90</sup> Vu-vang vafotidan so'ng bo'lajak podshoh hali yosh edi, shu sabab Jou-go'ng sultanatga vaqtincha noiblik qila boshlaydi. Guan Shu unga bo'y sunishni istamaydi va Vu Geng bilan birga isyon ko'taradi. Isyon Jou-go'ng tomonidan bostiriladi hamda Vu Geng va Guan Shular qatl etiladi.



• Qadimgi zamon olajanob kishilari xato qilsalar, xatosini darhol tuzatganlar; hozirgi olajanoblar xato qilsalar, xatosiga erk beradilar.

• Qadimgi zamon olajanoblarining xatosi xuddi Quyosh va Oy tutilishlariga o'xshaydi, xalq ularni ko'rib turgan; ularning xatolarini tuzatishlariga xalq ilhaq bo'lgan. Hozirgi olajanoblar xatolariga behuda erk beribgina qolmay, tag'in turli bahonalar bilan ularni xaspo'shlaydilar.

\*\*\*

Meng-zı Chi podsholigi saroy mansabidan bo'shab, yurtiga qaytish tadorigini ko'ra boshlabdi. Shu payt uni ko'rgani Chi podshosi kelib qolibdi. Podsho Meng-ziga shunday debdi: "Avvallari siz bilan ko'rishish istagim bo'lsa ham, lekin bunga erisha olmaganman. Nihoyat keyinchalik siz bilan bir saroyda xizmat etish nasib etdi, bundan bag'oyatda xursandman. Bugun tag'in siz meni tashlab yurtingizga qaytib ketmoqdasiz. Bilmam, yana ko'rishish nasib etarmikin?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Iltimos qilishga haddim sig'mayotgandi, aslida istagim ham shu edi".

Bu voqeadan bir necha kun o'tib, podsho saroy a'yonlardan biri Shi-ziga shunday debdi: "Men mamlakatimning qoq markazidan<sup>91</sup> Meng-ziga hovli-joy in'om qilmoqchiman, shogirdlarini boqishi uchun yana o'n ming jo'ng<sup>92</sup> g'alla beraman, barcha amaldorlar va fuqarolarim undan ulgi olsin. Sen qanday bo'lmasin mening nomimdan Meng-ziga ushbu so'zlarimni yetkaz!"

Shi-zı podsho Syuan-vangning so'zlarini Meng-ziga yetkazib qo'yishni uning shogirdlaridan biri Chen-ziga topshiribdi. Chen-zı Shi-zining aytganlarini ustozı Meng-ziga yetkazibdi.

Meng-zı shunday xitob qilibdi: "Hm, bu ishning amalga oshmasligini Shi-zı qayerdan ham bilsin? Agar men boylikka o'ch odam bo'lsam, yuz ming jo'nglik moyanadan bosh tortib, evaziga atigi o'n ming jo'ng hadyani qabul qilsam, bu yanada boyroq bo'lishni istaganimmi?"

Ji Sun bir zamonlar shunday degan edi: "Ja g'alati ekan-ku bu Zi Shu-i

<sup>91</sup> Mamlakting qoq markazidan: podsho bu o'rinda poytaxtdan demoqchi.

<sup>92</sup> Jo'ng – Xitoya: qadimgi sochiluvchi jismlar (mas., g'alla) uchun hajm o'ichov birligi. Bir jo'ng o'n danu to'rt douga teng. Bir dou – o'n sheng, bir dan esa yuz sheng, bir shengning o'zi bir litrga barobar. Demak, o'n ming jo'ng olimish to'rt ming danga teng, bu hozirgi o'n uch ming danga lo'g'ri keladi.



deganlari! O'zi amaldor bo'lmoqchi edi, hech kim uni xizmatiga olmadi, shundan so'ng bas qilsa ham bo'lardi, u esa tag'in o'zining shogirdlariga katta amaldor bo'lishni taklif qildi. Eh, odamzod, kim ham boy va martabali bo'lishni istamaydi? Lekin u boylik va mansabga xudbinlarcha yakka o'zi egalik qilmoqchi edi".

Qadimda bozor-o'char shunday bo'lardiki, odamlar o'zlarida bor narsani o'zlarida yo'q narsaga ayirboshlardilar, nazorat qilib turadigan maxsus mahkama bor edi, xolos. Keyinchalik o'ngu so'lidagilarni ko'zdan qochirmay, butun bozor va foydani o'z to'riga ilintirish qasdida, albatta, yuqori joy topib, unga ko'tarilish payida yurgan bir pastkash nusxa paydo bo'libdi. Odamlar bu qilmishini pastkashlik deb hisoblaganlari uchun unga soliq solibdilar. Savdogarlardan soliq olish ana o'sha pastkash erdan boshlangan".

\*\*\*

Meng-zi Chi podsholigini tark etib, Jou<sup>93</sup> shaharchasida tunagani qolibdi. Chi podshosi nomidan Meng-zini olib qolishni istagan bir kishi uning yonida tizzalab o'tirib nasihat qilishga tushib ketibdi. Meng-zi bo'lsa unga parvo ham qilmay, xontaxtaga suyangancha mudray boshlabdi.

Mehmon bundan xafa bo'lib debdi: "Muxlisingiz bir kun ro'za tutib<sup>94</sup>, so'ngrasiz bilan suhbatlashgani kelishga jur'at topsa-yu, siz bo'lsangiz, ustoz, pinakka ketib meni eshitmayapsiz ham. Kechirasizu, siz bilan ko'rishmoqqa ortiq yuragim betlamas".

Meng-zi unga shunday debdi: "O'tir! Hammasini senga tushuntiraman. Ilgari Lu podshosi Mu-go'ng<sup>95</sup>, agar Zi-sining<sup>96</sup> yonida vafodor bir dastyor bo'lmasa, Zi-sini xotirjam qilolmasdi; Sye Lyou va Shen Syanglar<sup>97</sup>, agar podsho Mu-go'ngning yonida sodiq kishi bo'lmasa, xotirjam bo'lolmasdilar. Sen mendek bir qariyani o'yabsan-u,

<sup>93</sup> Jou – Chi poytaxti Linzining janubi-g'arbida joylashgan shaharcha. Meng-zi Chidian Zou davlatiga qaytishida albatta shu shaharchadan o'tgan.

<sup>94</sup> "Muxlisingiz" deganda o'zini nazarda tutmoqda, bu jumlada haligi kishi "(men) barcha odob qoidalariga amal qilib" demoqchi.

<sup>95</sup> Mu-go'ng – Lu podshosi, ismi Syan. Lu – Jou sulolasi davridagi podsholik, hozirgi Shando'ng provinsiyasi janubiy hududlariga to'g'ri keladi.

<sup>96</sup> Zi-si – Konfutsiyning nabirasi, ismi Ji.

<sup>97</sup> Sye Lyou, Shen Syang – podsho Mu-go'ng davridagi fozil va salohiyatlari kishilar. Shen Syang Konfutsiyning shogirdi Zi-jangning o'g'li.





lekin Zi-si sazovor bo'lgan ehtiromni (tavozeni) o'ylab ko'rmabsan. Endi o'zing bir mulohaza yuritib ko'rgin: bu sening keksa bir kishiga beparvolik qilganiningmi? Yoki keksa bir kishining senga loyqaydlik qilishimi?"

\*\*\*

Meng-zı Chi podsholigini tark etibdi. Buni eshitgan shu podsholikda istiqomat qiluvchi In Shi degan bir kishi odamlarga shunday debdi: "Chi podshosining hech qachon Tang va Vu-vangdek bo'lolmasligini bilmaslik nodonlikdir; bo'lolmasligini bila turib tag'in Chiga kelish, bu iltifotning ketidan quvishdir. Ming chaqirim naridan podsho bilan uchrashgani kelib, o'zaro chiqisholmaganlari uchun endi ketib qoldilar. Lekin uch kecha tunaganlaridan keyingina Jou shahridan chiqib ketdilar, nega bunchalik imilladilar (ketishni paysalga soldilar – I.Q.)? Men bundan zarracha ham xursand emasman".

Gao-zi bu so'zlarini ustoz Meng-ziga aytibdi.

In Shining so'zlarini eshitgan Meng-zı shunday debdi: "In Shi deganlari meni qaydan ham tushunardi? Ming chaqiridandan kelib podsho bilan uchrashishni orzu qilgan edim; o'zaro chiqisholmaganimiz sabab u yerni tark etishimni, nima, o'zim xohlabmanmi? Shundan boshqa ilojim yo'q edi. Atigi uch kecha tunab, keyin Jou shahridan chiqib ketishim, ko'nglimga juda tezdek tuyuldi: shoyad podsho fikrlarini o'zgartirib qolsalar! Agar podsho o'z qarashlarini o'zgartirganlarida, albatta, meni ortimga qaytargan bo'lardilar. Jou shahridan chiqqanimda ham podsho meni qaytarish uchun ortimdan chopar yo'llamadi, ana shundan keyingina menda yurtimga qaytib ketish istagi jo'sh urdi. Shunday qilgan bo'lsam ham, podshoni tashlab ketishga ko'zim qiyarmidi? Chi podshosi yaxshilik qilish uchun kifoya qiladigan xislatlarga egadek tuyulgandi. Agar podsho meni xizmatga olganlarida, bиргина Chi podsholigi aholisi tinchlikni qo'lga kiritishi u yoqda tursin, hatto Osmonosti (butun saltanat – I.Q.) xalqi osoyishtalikka erishgan bo'lardi! Podsho shoyad o'z qarashlarini o'zgartirib qolsalar, deya har kun umid qilaman! Nahotki men bir pastkash odamga o'xshasam? Agar shunday bo'lganimda, podsho nasihatlarimni qabul qilmasa, bundan nihoyatda jahlim chiqqan hamda g'azab ifodasi yuzlarimda ko'rinish turgan bo'lardi. Ketganimda ham kun bo'yи yurib-yurib tinka-madorim qurigandan so'nggina biror joyda tunagani qolmasmidim?"

Bu haqda odamlardan eshitgan In Shi shunday debdi: "Men haqiqiy xudbin ekanman!"

\*\*\*

Meng-zı Chi davlatini tark etib ketayotganlarida, shogirdlaridan Cho'ng Yuy degani undan so'rabdi: "Ustoz biroz xafa ko'rinishdilar. Bir vaqtlar ustozning o'zlaridan



“Olijanoblar Tangridan yozg’irmaydi, odamlardan ta’na qilmaydi!” deb eshitgan edim”.

Meng-zı shunday javob qilibdi: “U zamonlar boshqa edi, hozirgi zamon boshqa. Moziyga nazar tashlaydigan bo’lsak, har besh yuz yilda, albatta, bir donishmand podshoh tug’ilishi kerak, bu vaqt mobaynida, so’zsiz, o’z davrining dongdor zotlari ham paydo bo’ladi. Jou podshohi Vu-vangdan to bugunga qadar yetti yuz yildan oshdi, yillar salmog’iga nazar tashlasak, muddat allaqachonlar o’tib ketgan, lekin agar hozirgi vaziyatni diqqat bilan ko’zdan kechirsak, buning ayni mavrididir. Osmon (Tangri) hali Osmonostida osoyishtalik bo’lishini istamayotgan ko’rinadi, chog’imda. Agar Osmonostida osoyishtalik bo’lishini istaganlarida, unda hozir bu olamda mendan bo’lak yana kim bor? Men nega xafa bo’lmayin axir?!”

Har besh yuz yilda, albatta, bir donishmand podshoh tug’iladi, bu vaqt mobaynida, so’zsiz, o’z davrining dongdor zotlari ham yetishib chiqadi.

\*\*\*

Chi davlatini tark etgan Meng-zı Siyu degan yerda birrovga to’xtaganlarida, shogirdi Go’ng Sun Chou undan so’rabdi: “Xizmat qilib haq olmaslik burungilar aqidasimi?”<sup>98</sup>

Meng-zı shunday javob beribdi: “Yo’q, unday emas. Cho’ng yerida Chi podshosi bilan ko’rishishlik menga nasib etdi, ortimga qaytgach, menda u davlatni tark etish niyati paydo bo’ldi, niyatimdan qaytmoqchi emasdim, shu bois podsho maoshini olmadim. Mening tashrifim ketidan podsho jangovar buyruqlar chiqardi (yurda urush bo’lishi davom etadi), aks holda darhol ketishga izn so’ramagan bo’lur edim. Chida uzoq qolish niyatim yo’q”.

#### BESHINCHI BOB

Tenglik Ven-go’ng. Avvalgi qism

Teng podshosi Ven-go’ng hali valiahdlik davrida Chu podsholigiga elchi bo’lib boradigan bo’libdi. U So’ng podsholigidan o’tayotganida Ustoz Meng-zini ko’rgani kelibdi.

<sup>98</sup> Asl xitoycha nusxada “dao” so’zi ishlatalgan, ma’nosи “yo’l”dir, ya’ni “tutilgan yoki tanlangan yo’l”, shu bois bu o’rinda aqida, maslak tarzida tarjima qilishni ma’qul topdik.





Meng-zı valiahdga inson tabiatining mohiyatan ezgulikdan iborat ekanligi haqida gapirib, so'zining orasida, shubhasiz, donishmand podshohlar Yao va Shunlarning nomlarini tilga olib ko'klarga ko'taribdi.

Valiahd Chu podsholigidan qaytayotib Meng-zı bilan uchrashgani yana kelibdi. Meng-zı unga debdi: "Valiahd mening so'zlarimga shubha qilmoqdalarmi? Axir haq yo'l birlgina, xolos!

Dovyurak Cheng Jyan<sup>99</sup> Chi podshosi Jing-go'ng haqida gapirib shunday degan ekan: "U – erkak, men ham erkak, nega undan qo'rqrar ekanman?"

Yan Yuan<sup>100</sup> shunday degan edi: "Donishmand Shun qanday inson? Men qanday odamman? Astoydil harakat qilgan kishi ham uningdek bo'la oladi!"

Mashoyixlardan Go'ng-Ming I<sup>101</sup> shunday degan edi: "Ven-vang – mening ustozimdir! Uning o'g'li Jou-go'ng menga pand berarmidi?"

Hozirgi Teng podsholigi yerlarining ortiq joyini olib kemtik joyiga qo'shsangiz, to'rt tarafga ellik liga yaqin masofaga cho'zilgan. Har holda boshqarib ezgu mamlakatga aylantirsangiz bo'ladi.

Bitiklarda shunday deyilgan: "Agar dori ko'zlarining jimirlatib yubormasa, kasalingni tuzatolmas".

- 
- Haq yo'l yagonadir!
  - Agar dori ko'zlarining jimirlatib yubormasa, kasalingni tuzatolmas.

\*\*\*

Dehqonlar peshvosi Shen-no'ng<sup>102</sup> aqidalari tilidan tushmaydigan Syuy Sing ismli kishi bo'lgan ekan. U Chu davlatidan Teng davlatiga kelib, saroya podsho Ven-go'ng huzuriga boribdi va unga shunday debdi: "Men olis yurtdan sizning elni insonparvarlik bilan idora qilayotganingizni eshitib keldim. Bir uylik yer olib, sizning fuqarongiz bo'lishni istayman".

---

<sup>99</sup> Cheng Jyan – Chi podsholigining mard amaldorlaridan biri.

<sup>100</sup> Yan Yuan – Konfutsiyning shogirdi.

<sup>101</sup> Go'ng-Ming I – Konfutsiyning shogirdalaridan biri Zeng Shenning shogirdi, Lu podsholigining xushxulq va iste'dodli kishilaridan.

<sup>102</sup> Shen-no'ng yoki Shen-no'ng-shi – qadim Xitoy afsonalaridagi dehqonchilik va tib ilmi ixtirochisi. Aytishlaricha, eng qadimgi odamlar termachilik va baliqchilik bilan kun kechirib yurgan davrda u yog'ochdan so'qa hamda hozirgi panskhasimon dehqonchilik qurollarini yasab, xalqqa dehqonchilik qilishni o'rgatgan. Shundan so'ng ibridoiy zamon odamlari yanada taraqqiy etib, terib-termachilik va baliqchilikdan dehonchilik xo'jaligiga o'tishgan. Yana aytishlaricha, u yuzzlab o'tlarni tatib ko'rib, ularning shifobaxsh xususiyatlarini payqab, turli giyohlar bilan odamlarga kasalliklarni davolashni ham o'rgagan. U qadimda xitoylik dehqonlarning dehqonchilik peshvosi sanalgan.



Podsho Ven-go'ng unga joy beribdi. Shunday qilib uning bir necha o'n shogirdlari o'sha yerda egnida kalta kandir ko'yak, poxol choriq yasab, bo'yra to'qib tirikchilik qila boshlabdi.

Ko'ngzichilardan Chen Lyangning<sup>103</sup> shogirdi Chen Syang o'z ukasi Chen Sin bilan so'qasini<sup>104</sup> yelkalab So'ng davlatidan Tengga kelishibdi. Ular podshoga shunday debdi: "Shohim, eshitishimizga qaraganda, mamlakatingizda donishmandlarcha siyosat yurgizmoqda ekansiz, demak, siz ham donishmand ekansiz. Bizlar ham donishmandning fuqarolari bo'lishni istaymiz!" Podsho ularning xohishlarini ham bajo kelturibdi.

Chen Syang Syuy Sing bilan uchrashgach, juda xursand bo'lib ketdi va oldin o'qiganlarini tashlab undan saboq ola boshlabdi.

Bir safar Chen Syang Meng-z'i bilan ko'rishganida, unga Syuy Singning aytganlarini so'zlab beribdi: "Syuy Sing dediki, Teng hukmdori haqiqatan ham oqil podshodir, garchi shunday bo'lsa ham, u hali oliv bir haqiqatni anglab yetmabdi. Haqiqiy oqil podsholar xalq bilan birga qo'sh haydab o'z rizqini topib eydilar, ovqatlarini ham o'zlar pishiradilar va shu bilan bir vaqtida elni idora qiladilar. Hozirda Teng podshosining tayyorgina oziq-ovqat, g'alla, guruch omborlari, g'aznasi bor, bu xalqni ezish evaziga o'zini boqishdir. Shunday ekan, u tag'in qanday qilib oqil podsho nomiga sazovor bo'la olsin?"

Meng-z'i undan so'rabdi: "Taqsir Syuy-z'i<sup>105</sup>, albatta, o'zlar don eksalargina ovqat yeydilarmi?"

"To'g'ri!" – debdi Chen Syang.

Meng-z'i yana so'rabdi: "Taqsir Syuy-z'i, albatta, o'zlar mato to'qisalargina kiyim kiyadilarmi?"

- Yo'q! Ustoz Syuy-z'i movut kamzul kiyib yuradilar.
- Ustoz Syuy-z'i bosh kiyim kiyadilarmi?
- Kiyadilar.
- Bosh kiyimlari qanaqa?
- Oddiy, jo'ngina.
- O'zlar yasaganmi?
- Yo'q! G'allaga al mashganlar.
- Nima uchun taqsir Syuy-zining o'zlar yasamadilar?

<sup>103</sup> Chen Lyang – Chu podsholigining ko'ngzichilaridan biri. Ko'ngzichilik – konfutsiychilik ta'limoti.

<sup>104</sup> So'qa – omoch.

<sup>105</sup> Syuy-z'i – bu yerda "zi" "ustoz", "taqsir" ma'nolarini bildiradi, odatga ko'ra bilimli, martabali kishilarning ismidan keyin qo'shilgan.





— Chunki dala ishlari qolib ketardi-da.

— Taqsir Syuy-zi sopol qasqonli qozonda ovqat pishirib, temir uchli omochda yer haydaydilarmi?

— Shunday.

— Ularning barini o'zлari yasaganmilar?

— Albatta, yo'q! G'allaga almashganlar.

Shundan so'ng Meng-zи debdi: "Dehqon g'allaga ro'zg'or buyumlari va mehnat qurollari ayrboshlasa, bu bilan u kulol va temirchiga jabr qilgan bo'lmaydi-ku. Kulol va temirchi ro'zg'or anjomlari va dehqonchilik qurollarini g'allaga ayrboshlash bilan nahotki dehqonga jabr qilgan bo'lsa? Qolaversa, taqsir Syuy-zi nega o'zлari kulolchilik va temirchilik bilan shug'ullanmaydilar? Nima kerak bo'lsa, o'z koshonalaridan olib ishlataversalar bo'lmashi? Nima uchun sarson bo'lib bitta-bittalab turli hunarmandlar bilan ayrbosh qilib yurishlari kerak? Taqsir Syuy-zi nimaga bunday ovoragarchiliklardan qo'rqlaydi?"

Chen Syang debdi: "Turli hunarmandlarning ishi ularga bir vaqtning o'zida ham yer haydab, ekin ekish, ham o'z kasb-korlarini qilishga imkon bermaydi".

Meng-zи unga javoban debdi: "Unda faqat hukmdorlargina ham yer haydab, ham davlatni idora qilsa bo'lar ekan-da? Bir davlatda kattalar (amaldorlar)ning o'z vazifasi bor, jo'n odamlar (xalq)ning ham o'z ishi bor. Boz ustiga, har bir odam turmushida kerak bo'ladigan buyumlarni yuzlab hunarmandlar tayyorlaydilar. Agar har bir narsani o'z qo'llari bilangina yasab ishlatish kerak bo'lsa, bu Osmonostidagilarni odamning sillasini quritib adoyi tamom qiladigan serg'alva yo'lga boshlab borish bo'lardi. Shuning uchun aytganlarki: ba'zilar aqlini ishlatsa, yana ba'zilar kuchini ishga soladilar. Aql bilan ish qilganlar odamlarni boshqaradi, kuchiga tayanib ishlaganlarni odamlar boshqaradilar; boshqariluvchilar boshqalarni boqsa, boshqaruvchilarni bo'lsa boshqalar boqadilar. Bu Osmonostidagi umumiy haqiqatdir.

Podshoh Yao zamonlarida Osmonosti hali notinch edi: daryolar toshib, butun mamlakatni suv balosi o'z komiga tortib borardi; hamma yoqni begona o'tlar va daraxtlar qoplab, yovvoyi hayvon va yirtqich qushlar urchib yotardi; besh xil donli ziroat<sup>106</sup> unmas, unsa-da hosil bermas; yovvoyi hayvonlar va yirtqich qushlar odamlarga kun bermasdi, ularning tuyaq va panja izlari hatto mamlakatning o'rta yerlarida ham qalashib yotardi. Yaoning yolg'iz o'zi bu haqda qayg'urardi. U Osmonostini har taraflama tartibga solish maqsadida oqsoqol Shunni ko'tardi. Shun Ini o'tni nazorat qilib turgani yubordi, I tog' va botqoqlardagi chakalakzorlarga gurullatib o't qo'ygandi, yirtqich qush va hayvonlar

<sup>106</sup> Besh xil donli ziroat – bular: sholi, tariq, qo'noq, bug'doy, dukkakli o'simliklar.



to'rt tomonga ura qochibdilar, qolganlari yashirinibdi. Buyuk oqsoqol Yuy<sup>107</sup> to'qqiz daryo o'zanlarini kovlab chuqurlashtirdi, Ji-shuey va Ta-xe daryolaridan ariq chiqarib, ortiqcha suvlarini dengizga borib quyiladigan qilib qo'yibdi; Ju-shuey va Xan-shuey daryolarining suv yo'llarini ochib, Xuay-xe va Si-shuey daryolarini tozalab, ularni Chang-jyang daryosiga borib quyiladigan qildi. Ana shundan keyingina Markaziy o'lkada ziroatchilik qilish mumkin bo'ldi. O'sha kezlari oqsoqol Yuy sakkiz yil musofirchilikda yurdi, o'z uyi darvozasi oldidan uch bora o'tib, biror marta ostona hatlab ichkari kirmadi. Hatto yerini o'zi haydashni xohlagan taqdirda ham, bunga muvaffaq bo'la olarmidi?

Hou Ji<sup>108</sup> xalqqa dehqonchilikni, besh xil ziroatni qanday ekish va yetishtirish sir-asrorlarini o'rgatdi. Besh ziroat pishib yetilgach, xalqni boqishga yetarli bo'ldi.

Inson shunisi bilangina insonki, qorni to'yib, issiq kiyinib, rohat-farog'atda yashab turib, lekin tarbiyasiz bo'lqa, unda qush va hayvonlardan unchalik farqi qolmabdi. Donishmand bu haqda ham qayg'urgan. U Syeni<sup>109</sup> ma'rifat peshvosi etib tayinladi va kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning axloqiy me'yorlari va odob qoidalari vositasida xalqqa ta'lim-tarbiya berishni topshirdi: ana shundan ota-bola o'rtasida qon-qarindoshlik (mehr), podshoh va amaldor o'rtalarida takallufilik (burchdorlik), mavqe borasida er-u xotin o'rtalarida tafovut, katta va kichiklar o'rtasida bo'ysunish tartibi, do'stu birodarlar o'rtasida ishonch paydo bo'ldi.

Buyuk Sohibi Jasorat Yao shunday degan edi: "Uning (xalqning) holini so'r, uning ko'nglini ol, uning esini kirit, uni to'g'rilaqin, unga madad bo'l, uni qanoting ostiga ol, uni o'zlarini anglashga unda, tag'in shuning bilan uning ma'naviy fazilatlarini yuksaltir!"

Xalq uchun shunchalar qayg'urayotgan donishmand podshohning o'zi qo'sh haydar don ekishga tag'in bekor vaqtি bormi?

Basharti Yaoga Shundek odamga yetishmoqlik nasib bo'limganida, buni o'zining tashvishi deb kuyungan bo'lardi, Shun esa Yuy va Gao Yaodek dastyorlarga yetisholmaslikni o'zining tashvishi deb bilardi. Yuz mu yeri yaxshi ishlov berilmay qolib ketishidangina tashvishlanadigan odam dehqondir.

Boyligini o'zgalarga ularshganni olihimmat derlar; odamlarga ezgulikdan saboq berganni vafodor derlar; Osmonostiga uni idora eta olish iqtidoriga ega insonni topganni

<sup>107</sup> Qadimgi Xitoydagи Sya qabilasi oqsoqoli.

<sup>108</sup> Hou Ji – ismi Chi, Jou sulolasи podsholarining ibtidoiy otasi.

<sup>109</sup> Sye – rivoyatlarga qaraganda, In sulolasи podsholari bobokaloni; podshoh Shunning vaziri bo'lgan. Yuya suvni tizginlashda yordam bergen.





odamiy derlar. Shu bois Osmonostini o'zgaga berish oson, Osmonosti uchun haqiqiy iqtidor sohibini topish mushkul.

Ko'ng-zi (Konfutsiy) shunday degan edilar: "Yao qanchalar buyuk podshoh edi-ya! Yolg'iz Osmon buyuk edi, faqat Yaogina undan ulgi olishga qodir edi! Muruvvati shu qadar cheksiz ediki, oddiy xalq uning nomini madh etishga munosib so'z topolmasdi. O, qanday podshoh edi Shun! Naqadar ulug'lilik! Osmonosti tasarrufida bo'lsa-da, unga yolg'iz o'zi egalik qilmadi!"

Yao va Shunlar Osmonostini idora qilishda nahotki astoydil bo'lishmagan? Faqatgina ular ham shaxsan o'zlarini yer haydash haqidagi xayollarga ko'ngil bo'lishmagan, xolos.

Men faqat Syaning sharofati bilan I qabilasi o'zgarganini eshitganman, lekin I qabilasi Syaga biror o'zgarish olib kelgan deganlari qulog'imga chalinmagan. Chen Lyang Chu podsholigida tug'ilgan, Jou-go'ng va Jo'ng-ni (Konfutsiy) aqidalariga mehr qo'yanligi uchun ham O'rta podsholiklarda<sup>110</sup> ilm olish talabida shimolga qarab yo'l oladi. Shimoldagi allomalardan hech biri undan o'zolmasdi. Uni atoqli mirzo deyishlari ham bejizga emas. Aka-uka ikkingiz bir necha o'n yillar mobaynida xizmatlarini qilib keldingiz, undan ilm o'rgandingiz, ustozlaringiz dunyodan ko'z yumishlari bilan sizlar unga xiyonat qilmoqdasizlar.

Bir zamonlar Ko'ng-zi (Konfutsiy) vafot etganlarida shogirdlari unga uch yilgacha motam tutdilar, shundan keyingina buyumlarini yig'ishtirib uylariga qaytish uchun yo'l tadorigini ko'ra boshlabdilar. Ketish oldidan barchalari xayr-ma'zur qilgani Zi-go'ngning uyiga borishibdi, unga ta'zim qilishlari bilan barcha bir-birlariga qarab ho'ngrab yig'lab yuboribdilar. Yig'layverib ovozlari chiqmay qolgachgina uylariga tarqalishibdi. Shundan so'ng ustoz Ko'ng-ziga bo'lgan sog'inchi yanada ortgan Zi-go'ng uning qabri boshiga qaytib boribdi, o'sha yerga uy qurib, yana uch yil yolg'iz yashabdi, shundan keyingina o'z uyiga qaytibdi.

Keyinchalik Zi-sya, Zi-jang va Zi-yoular You Juoni ustozlari donishmand Konfutsiyga o'xshab ketadi, deb hisoblaganlari uchun unga ham xuddi Konfutsiyga bo'lganidek mulozamat ko'rsatmoqchi bo'libdilar. Ular Zeng-zini qo'yarda-qo'ymay bunga ko'ndirmoqchi bo'lishibdi. Lekin Zeng-zi ularga shunday debdi: "Mumkin emas! Ustoz go'yo Chang-jyang va Hanshuey daryolari suvida yuvingan misol pokiza, saraton oftobining jazirama nurlari ostida qoqlangan kabi yarqiroq. Ustozimizga hech kim tenglasholmaydi!"<sup>111</sup>

<sup>110</sup> O'rta podsholiklar – O'rta Tekislikdag'i podsholiklar.

<sup>111</sup> Bu parchada nomlari tilga olingan Zi-go'ng, Zi-sya, Zi-jang, Zi-you, Zeng-zi – bular barchasi Konfutsiyning shogirdlari. Ularning nomi "Muhokama va bayon" asarida bot-bot tilga olinadi, har birining o'ziga yarasha iqtidori bo'lgan.



Bugun janublik yovvoyi man<sup>112</sup> qabilasidan bo'lgan chug'urchuqqa o'xshab chug'ur-chug'ur qilaveradigan Syuy Sing deganlari marhum podshohlarimizning yo'lini inkor etmoqda. Sizlar bo'lsa o'z ustozlaringizga xiyonat qilib, o'shandan o'rganishga kirishdingiz. Bu Zeng-zi qarashlariga yotdir.

Men qushlarning qop-qorong'u daradan uchib chiqib baland daraxtlarga ko'chib o'tganini eshitganman, lekin ularning baland daraxtlardan uchib tushib, zimiston daraga kirib ketganini eshitmaganman. "Nazmnoma"ning "Lu haqidagi madhlar" bobidagi she'rda shunday kuyylanadi:

"Jo'ng va Dilarga bas keldi,  
Jing va Shuning jazosin berdi!"<sup>113</sup>

Hatto Jou-go'ng ularga qarshi kurashgan, sizlar esa ulardan o'rganayotirsizlar, demak, sizlar yaxshi tomonga o'zgarmabsizlar".

Chen Syang o'zini oqlab debdi: "Agar taqsir Syuy-zining yo'lidan boriladigan bo'lsa (ya'ni uning mulohazalariga quloq osadigan bo'lsak), bozorda buyumlar narxi bir xil bo'ladi, butun mamlakatda firibgarlik bo'lmaydi. Agar besh qarichlik bolakayni bozorga yuborsangiz ham, uni hech kim aldamaydi. Kanop va ipak matoning uzunligi agar birdek bo'lsa, narxi ham bir xil bo'ladi; kanop kalavasi va ipak momiqning og'irligi baravar bo'lsa, bahosi ham bir xil bo'ladi; besh ziroatning og'irligi teng bo'lsa, narxlari ham birdek bo'ladi; hatto poyabzallarning o'lchamlari bir xil bo'lsa, bahosi ham shunday bo'ladi".

Meng-zi unga shunday javob beribdi: "Buyumlarning har xilligi ularning o'ziga xosligidir (tabiiy xususiyatidir). Ba'zilarining o'zaro farqlari bir-besh baravar, boshqalarining o'rtalaridagi tafovut o'n-yuz baravar, yana ba'zilari bir-birlaridan hatto ming-o'n ming martagacha farq qiladi. Sen ularni tenglashturib, bahosini ham bir xillashtirmoqdasan, bu butun Osmonostini alg'ov-dalg'ov qilib yuboradi, xolos! Agar choriq bilan boshmoqning bahosi bir xil bo'lsa, kim ham poyabzal yasashni xohlardi?

Kimki taqsir Syuy-zining aqidalariga ergashsa, odamlarni yolg'onga boshlagay. Bu yo'l bilan qanday qilib el va oilani boshqarish mumkin?!"

- Aql bilan ish qilganlar odamlarni boshqaradi, kuchiga tayanib ishlaganlarni odamlar boshqaradilar.

<sup>112</sup> Man – qadimgi zamonda Xitoyning janubidagi millatlarning atalishi.

<sup>113</sup> Jo'ng – qadimda O'rta Tekislik g'arbida yashagan qabilalar; Di – qadimda O'rta Tekislik shimolida yashagan qabila; Jing – Chu davlatining boshqa bir nomi; Shu – Chu davlati yaqinidagi kichik bir podsholik. Ushbu she'riy parchada Jou-go'ngning harbiy jasoratlari madh etilgan.



- Inson shunisi bilangina insonki, qorni to'yib, issiq kiyinib, rohat-farog'atda yashab turib, lekin tarbiyasiz bo'lsa, unda qush va hayvonlardan hech qancha farqi qolmabdi.
- Buyuk Sohibi Jasorat Yao shunday degan edi: "Uning (xalqning) holini so'r, uning ko'nglini ol, uning esini kirit, uni to'g'rilagin, uga madad bo'l, uni qanoting ostiga ol, uni o'zlarini anglashga unda, tag'in shuning bilan uning ma'naviy fazilatlarini yuksaltir!"
- Yuz mu yeri yaxshi ishlov berilmay qolib ketishidangina tashvishlangan odam dehqondir.
- Boyligini o'zgalarga ulashganni olihimmat derlar; odamlarga ezgulikdan saboq berganni vafodor derlar; mamlakatga uni idora eta olish iqtidoriga ega insonni topganni odamiy derlar.

### OLTINCHI BOB

Tenglik Ven-go'ng. Keyingi qism

Meng-zining shogirdi Peng Geng dedi: "Ortingizdan kelayotgan aravalar soni bir necha o'n chog'li, ergashuvchi kishilar bir necha yuz nafar, siz bilan bekliklarning musofirxonalarida tayyorini eb yurish haddan oshish emasmi?"

Meng-zì shunday javob beribdi: "Agar haq yo'lga nomuvofiq bo'lsa, hatto birovning bir savat yeguligini ham qabul qilib bo'lmaydi. Haq yo'lga muvofiq bo'lsa, unda oqsoqol Shunning podshoh Yaodan Osmonostini (saltanatni – I.Q.) qabul qilgani kabi bu haddan oshish hisoblanmaydi. Siz haddan oshish deb o'ylaysizmi?"

Shogird dedi: "Yo'q, men unday demoqchi emasman. Menimcha, mirzolarning (ziyoli kishilarning – I.Q.) ishlamay tekintomoqlik qilishi noto'g'ridir".

Ustozi dedi: "Agar siz o'zaro ayrbosh qilib, turli kasb-kor egalari bilan mahsulot almashib ortiqchasi bilan yetishmovchiliklarning o'rnini to'ldirmasangiz, unda dehqonlarda keragidan ortiq g'alla, to'quvchi ayollarda esa matolar qolib ketadi. Agar siz o'zaro ayrbosh qilishlariga izn bersangiz, shunda duradgor va g'ildiraksoz ustalar sizdan yegulik olishga muvaffaq bo'ladilar. Endi tasavvur qiling, bu yerda uyda ota-onasini qadrlaydigan qobil, tashqarida kattalarning hurmatini joyiga qo'yadigan xokisor, marhum dono podshohlarning aqidalariga (axloq-odob qoidalariga – I.Q.) amal qilib, ularni kelgusi avlodlarga o'rgatishga mahtal bir odam bor, deylik, u sizdan yegulik ololmadi. Siz nima uchun duradgor va g'ildiraksoz ustalarga bunchalik katta



hurmat ko'rsatib, insonparvarlik vaadolat yo'lida astoydil harakat qilayotgan kishilarni mensimayapsiz?"

Shogird dedi: "Duradgor va g'ildiraksozlarning ishlashdan maqsad-muddaosи yegulik topishdir, haqiqat yo'liga boshlovchi olijanoblarning maqsadi ham bir luqma topishmi?"

Ustozi dedi: "Siz ularning maqsadini nima qilasiz? Agar sizning nazaringizda taqdirlashga loyiq ish qilsalar, yegulik berish kerak bo'lsa, ularni yegulik bilan siylang, vassalom. Ustiga ustak, siz ularning maqsadiga qarab yedirib-ichirasizmi yoki taqdirlashga loyiq ishiga qarabmi?"

Shogird javob berdi: "Maqsadiga qarab".

Ustozi dedi: "Tasavvur qiling, bu yerda shunday bir odam borki, uyingiz tomidagi sopol qoplamlarni chilparchin qilib, devoringizga tirnab rasmlar chizib tashlasa, u bularni biror yegulik talabida qilgan bo'lsa, siz unga ovqat berarmidingiz?"

Shogird javob berdi: "Yo'q!"

Ustozi dedi: "Shunday ekan, demak, siz maqsadiga qarab emas, taqdirlashga arzilik ishiga qarab yegulik berasiz".

- Agar haq yo'lga nomuvofiq bo'lsa, hatto birovning bir savat yeguligini ham qabul qilib bo'lmaydi.


\*\*\*

Meng-zi Day Bu-sheng otliq kishiga murojaat qilib debdi: "Siz podshohingiz ezgulikka qadam qo'yishlarini xohlaysizmi? Sizga tushunarliroq qilib so'zlayman. Tasavvur qiling, bu yerda Chu podsholigidan bo'lgan bir to'ra bor, u o'g'lining chi tilini<sup>114</sup> o'rganishini istaydi. Shunda u o'rgatishni chilik kishiga topshiradimi yoki chulik kishigami?"

Haligi kishi javob beribdi: "Chi podsholigidan bo'lgan kishiga topshiradilar".

Meng-zi debdi: "Bir chilik kishi unga chi tilini o'rgatsayu, lekin bir talay Chu podsholigi odamlari chu tilida shovqin-suron ko'tarib unga xalal bersa, garchi har kun qamchilab chi tilida gapirishga majbur qilsa ham, uddalay olmaydi. Agar u o'g'lini Chi poytaxtining eng gavjum ko'chasi bo'lmish Juang-yuega olib borib bir necha yil

<sup>114</sup> Chi tili – Chi podsholigida muomalada bo'lgan til.





istiqomat qildirsayu, har kuni qamchilab chu tilida<sup>115</sup> gapirishni talab qilsa ham, baribir uddalay olmagan bo'lardi.

Siz Syue Jyu-jouni<sup>116</sup> yaxshi mirzo deysiz, uning podsho saroyida yashashini istaysiz. Agar podsho saroyida yashovchilar yoshu qari, martabasiz va muhtaram kishilar barchasi Syue Jyu-jouga o'xshagan (yaxshi odam – I.Q.) bo'lsa, podsho kim bilan ham yomonlik qila olardi? Agar podsho saroyida yashovchilar yoshu qari, martabalimuhhtaram kishilar barchasi Syue Jyu-jouga o'xshagan yaxshi odam bo'Imasa-chi, unda podsho tag'in kim bilan ham yaxshilik qilardi?

Birgina Syue Jyu-jouning o'zi So'ng podshosiga qanday ta'sir eta olardi?"

\*\*\*

Day Ing-ji<sup>117</sup> ismli kishi Meng-ziga debdi: "O'lponni o'ndan bir miqdorda yig'ish, bozor va chegara bojlarini olib tashlashning bu yilcha iloji yo'q. Biroz yengillatib turishlarini so'radim, keyingi yilga borib to'liq amalga oshirsak, qanday bo'ladi?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Tasavvur qiling: hozir shu yerda qo'shnisiniidan har kuni tovuq o'g'irlaydigan bir odam bor, kimdir uni ogohlantirib: "Bu qilmishing olijanoblik emas!" desa, haligi o'g'ri ham: "Meni ma'zur tutgaysiz, oldin biroz kamaytirishimga ijozat etsangiz, har oy bittadan o'g'irlab tursam, keyingi yilga borib bu ishimni butunlay tashlayman", – desa.

Agaradolatsizlik (axloqsizlik – I.Q.) ekanligini bilsangiz, darhol to'xtating. Nega endi keyingi yilni kutish kerak?"

### YETTINCHI BOB

Li Lou. Avvalgi qism

Meng-zı dedi: "Hatto Li Louning<sup>118</sup> o'tkir ko'zlari, usta Go'ng Shu-zining<sup>119</sup> mahorati bo'lgan taqdirda ham, pargar va go'niyaning yordamisiz chorsi va doira

<sup>115</sup> Chu üli – Chu podsholigida muomalada bo'lgan til.

<sup>116</sup> Syue Jyu-jou – So'ng podsholigi amaldorlaridan biri.

<sup>117</sup> Day Ing-ji – So'ng podsholigi dafu-to'ralaridan.

<sup>118</sup> Li Lou – aytishlaricha, Sariq podshoh zamonlarida yashagan ko'rish qobiliyati nihoyatda o'tkir kishi.

<sup>119</sup> Go'ng Shu-zi – ya'ni Go'ng Shu-Ban, ismi Ban, qadimgi mashhur mohir usta me'mor, Xitoy tarixidagi Bahor-Kuz davri Lu podsholigidan bo'lgan, shuning uchun ham Lulik Ban deb ham atalgan. Taxminan Lu podsholari Lu Ding-go'ng yoki Aygo'ng hukmdorligi davrida yashagan, yosh jihatidan Konfutsiydan kichik bo'lgan. U haqdagi ba'zi voqealar "Odobnama", "Mo'-zi" kabi kitoblarda uchraydi. Xitoya me'morchilik va duradgorlikning "otasi" sifatida ulug'lanadi.



mukammal bo'lolmaydi; hatto sozanda Ustoz Kuangnikidek<sup>120</sup> qulog'i o'tkir bo'lsa ham, olti nag'masozning<sup>121</sup> yordamisiz besh musiqiy tovushlarni<sup>122</sup> to'g'rilashning iloji yo'q; hatto donishmand podshohlar Yao va Shun aqidalariga amal qilsa ham, insonparvarlik siyosatini yurgizolmas ekan, Osmonostida osoyishtalikni qaror toptirib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda shunday hokimlar borki, garchi odarmarchiligi va rahmdil degan nomi bo'lsa ham, xalq ularning muruvvatidan bebahradir, ular bu qilmishlari bilan avlodlarga o'mak bo'lolmaydilar, sababi ularning marhum podshohlarning yo'lidan yurmaganliklaridir. Shuning uchun aytadilarki, faqatgina yaxshi niyatning o'zi mamlakatni boshqarish uchun kifoya qilmaydi, faqatgina qonunlarning o'zi bilan esa hech narsa qilib bo'lmaydi.

"Nazmnoma"da shunday deyilgan:

"Xato qilmang, esdan chiqarmang,

Amal qiling ko'hna tartibga".

Marhum donishmand podshohlar tartib-qoidalariga rioya qilib adashganlar aslo bo'limgan.

Donishmandlar bor ko'rish qobiliyatlarini ishga solib, unga qo'shimcha qilib pargar, go'niya, "shayton" va shoqullar<sup>123</sup> bilan chorsi, doira, tekis va to'g'ri narsalar tayyorlaydilarki, ularni ishlatib ado qilomaysan; bor eshitish qobiliyatini ishga solib, unga qo'shimcha qilib olti nag'masozning yordami bilan besh musiqiy tovushni bexato sozlaydilarki, ularni qo'llab ado qilomaysan; astoydil o'ylagay, tag'in odamlarga jabr qilmaydigan siyosat yuritgayki, insonparvarliklari butun Osmonostini qoplab oladi.

Shuning uchun aytadilar: baland qilib qurish uchun do'ng-tepaliklarga, chuqur qilib qazish uchun daryo-ko'llarga qarash kerak.

Davlatni idora qilishda marhum podshohlar tutgan yo'lga tayanmagan hukmdorni dono deyish mumkinmi? Shuning uchun ham faqat rahmdil insonlargina yuqori o'rirlarda bo'lishlari kerak.

<sup>120</sup> Ustoz Kuang – Xitoyning Bahor-Kuz davrida Jin podsholigida yashagan mashhur sozanda, u haqidagi qaydlar "Zuo qissalari" va boshqa asarlarda uchraydi. Aytishlaricha, tug'ma ko'r bo'lgan ekanlar.

<sup>121</sup> Olti nag'masoz – qadimgi Xitoydagi tovushlarni belgilash mezoni (maqomi, tovushlar sirasi) hamda qadimiy musiqalarda tovushni aniqlashda ishlatalidigan g'arov (bamruk) naycha. Afsonalarga ko'ra, Sariq podshoh zamonida (taxminan er. avv. 3-mingylliklarda) bambukdan naycha qilib yasalgan, naychaning uzunligiga qarab tovushlar farqlarga ajratilgan, musiqa asboblarining tovushlarni balandlik jihatidan aniq ijro eushini belgilagan. Musiqiy maqomlar jami o'n ikkita bo'lgan, "yang" va "in" ikkisida baravar oltitadan. Olti nag'masoz (maqom) deyilganda yang turkumidagi olitasini nazarda tuvilgan.

<sup>122</sup> Besh musiqiy tovushlar – Xitoydagi qadimiy tovush pardalarining atalishi, ular "gong", "shang", "jyao", "vey", "yuy", oddiy notaning 1, 2, 3, 5, 6 chi kabi besh tovushiga to'g'ri keladi.

<sup>123</sup> Pargar – sirkul; go'niya – uchburchak chizg'ich, burchaklar chiqarish va ularni o'lchashda ishlatalidigan chizg'ich; "shayton" — adilak, xalq orasida "shaytoncha" deb ataladigan yotiq yuza teklisigini aniqlashda keng qo'llaniladigan buyum yoki maxsus asbob; shoqu — otves, to'g'ri chiziqni o'lchashda ishlatalidigan buyum yoki maxsus asbob, asosan ikki xil turi mavjud: yotiq yuzada ishlatalidigan rush va ipdan hamda tik chiziq to'g'riligini aniqlashda ishlatalidigan ip va (asosan) qo'rg'oshin parchasidan iborat buyum yoki maxsus asbob.



Agar berahm kishi yuqori lavozimda bo'lsa, yomonligi elga yoyilib kasri ko'pga uradi. Yuqoridagilar axloqsiz bo'lsa, quyidagilar o'zboshimcha bo'lib ketishadi; saroydagilar haqiqatga ishonishmasa, kosiblar o'chovga ishonmay qo'yadilar; olijanoblar<sup>124</sup>adolatga xiyonat qilsalar (burchini suiiste'mol qilsalar – I.Q.), oddiy odamlar mudhish jinoyatlarga qo'l uradilar, bunday davlatning tag'in yashab qolgani – uning omadi chopgani. Shuning uchun ham aytadilar-da, shahar devorlarining nomustahkamligi, qurol-yarog'laming ozligi davlatning falokati emas. Dala va bo'z yerlarning haydalmay qolgani, mol-mulkarning yig'ilmayotgani davlatning halokati emas. Yuqoridagilar betarbiya, pastdagilar bilimsiz bo'lishsa, xalqni talon-taroj qiluvchi qallob-muttahamlarning davri keladi, bunday davlatning zavol topishiga hech qancha kun qolmagan (sanoqli kunlar qolgan – I.Q.).

"Nazmnoma"da shunday deyilgan:

"Osmon larzaga kelmoqda,

Bidir-bidir qilavermang".

Bidir-bidir qilish to'xtovsiz vaysayverishdir.

Kimki podsho xizmatidaadolatsiz bo'lsa, beadabliklar qilsa, bo'limg'ur so'zlar bilan marhum podshohlarning haq yo'lini yomonlasa, bu naq vaysaqilikning o'zginasidir.

Shuning uchun aytadilar: insonparvarlik va adolat talabi bilan podshoni qiyin ahvolga solish uni hurmat qilish degani, podshoga ezzulik xushxabarini yetkazib, buzuqliklardan ihota qilish unga nisbatan ehtirom ko'rsatish degani; podshomiz notavon-noqobil deya da'vo qilish xoinlik deganidir".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Pargar va go'niya chorsi hamda doirani maromiga yetkazur; donishmandlar odamiylikning yetuklik namunasidir.

Podsho bo'lishni istasang, podsholik farzlarini to'liq ado et, amaldor bo'lishni istasang, amaldorlik farzlarini to'liq ado et. Ikki holda ham faqat donishmand podshoh Yao, Shunlardan o'rnak olinsa bo'lgani.

Kimki Shun Yao xizmatin qilgandek podshoga xizmat qilmasa, demak, u podshosini hurmat qilmaydiganlardan; kimki Yao xalqini boshqargandek xalqni boshqarmasa, demak, u xalqiga zulm qilguvchilardan.

Ustoz Ko'ng-zı (Konfutsiy) shunday degan edilar: "Ikki yo'l bor: rahmdillik va berahmlik, shu xolos!"

Xalqiga haddan ortiq zulm qilgan zolim o'z hayotiga zomin bo'libgina qolmay, balki mamlakatni ham xarob qilgay; juda ham unchalikka bormagan bo'lsa, o'z hayotini

<sup>124</sup> Bu yerda davlatning yuqori martabali kishilari, amaldorlar nazarda tutilgan.



xavf ostiga qo'yibgina qolmay, balki mamlakatni ham zaiflashtirgay, bunday podsholarni "johil", "kasofat"<sup>125</sup> deb ataydilar, garchi qobil farzandu mehribon nabiralari bo'lgan bilan, yuz avlod o'tsa ham bu badnomlikni o'zgartiroldi.

"Nazmnama"da shunday deyilgan:

"In<sup>126</sup> ko'zgusidan emas olis,

Sya podshosin zamonasi".

Ushbu misrada aytilganlari ayni shu ma'nodadir".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Sya, Shang, Jou uch sulolaning Osmonostiga erishgani insonparvarlikning sharofati bilandir, ularning Osmonostini yo'qotishlari g'ayriinsoniy qilmishlarining (shafqatsizliklarining) kasofati bilandir. Davlatlarning tanazzulga yuz tutishi, yuksalishi, hayot va mamoti – hammasi shundan. Osmon o'g'li<sup>127</sup> shafqatsiz bo'lsa, to'rt dengiz oralig'idagi yerlarini<sup>128</sup> saqlab qololmaydi; agar beklar shafqatsiz bo'lishsa, ellarini saqlab qololmaydi; vazir-to'ralar shafqatsiz bo'lishsa, ajdodlari ibodatxonalarini saqlab qololmaydi; agar mirzolar va oddiy xalq shafqatsiz bo'lishsa, to'rt muchasini asrab qololmaydi. Hozirda odamlar o'lim-qazodan jirkanib turib tag'in shafqatsizliklaridan huzurlanadilar, bu xuddi ichkilikbozlikdan hazar qilib turib tag'in zo'r lab may ichgan bilan barobar".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Odamlarni sevsangizu, lekin ularning mehrini qozonolmasangiz, "yetarlicha insonparvarlik qila oldimmi?" deb o'zingizga savol bering; odamlarni idora

<sup>125</sup> Ikkisi ham salbiy ma'nodorlik xususiyatiga ega laqablar, Jou sulolasida ikki podshoga o'lganlaridan so'ng shu laqablar berilgan: You-vang (Johil podsho), Li-vang (Kasofat podsho). Meng-zi ana shunday zolim va johil podsholarga ishora qilmoqda.

<sup>126</sup> In – Xitoyda er. avv. 1600 – er. avv. 1046-yillarda hukm surgan Shang sulolasi, podshoh Pan Geng er. avv. 1300-yil poytaxtni In shahriga ko'chirgach, sulola In deb ham atala boshlangan. Bu misrada "ko'zgu" so'zi ham qo'llanilgan, u o'tmishtdan xulosa chiqarish, ibrat olishga ishora. Sya sulolasining o'miga kelgan Shang-In sulolasi o'tmisht xatolaridan to'g'ri xulosa chiqorganida Jou singari zolim podsho zamoniga kelib, ehtimol, Shang saltanati inqirozga yuz tutmagan bo'larmidi. "Sya podshosin zamonasi" – bu yerda Sya sulolasining so'nggi podshohi Je va uning hukmdorlik davri nazarda tutilgan.

<sup>127</sup> Podshoh, hukmdor.

<sup>128</sup> "To'rt dengiz" – bular: Bo'hay, Sariq dengiz (Huang-hay), Sharqiy dengiz (Do'ng-hay), Janubiy dengiz (Nan-hay). To'rt dengiz oralig'idagi yerlar deyilganda qirg'oqlarini yuqorida nomlari zikr etilgan dengizlar yuvib turadigan nisbatan torroq hududiy bo'lak – qadimgi Xitoy yerlari tushuniladi.



qilsangizu, lekin buni yaxshi eplay olmasangiz, "men yetarlicha oqilmanmi?" deb o'zingizga savol bering; odamlarga xushmuomalada bo'lsangizu, lekin shunga yarasha javob ololmasangiz, "hurmatlarini yetarlicha joyiga qo'ya oldimmi?" deb o'zingizga savol bering. Xatti-harakatingizda kutganiningizga erisha olmasangiz, sababini o'zingizdan axtaring. Kimki to'g'ri bo'lsa, Osmonosti shunikidir. "Nazmnama"da shunday deyilgan:

"Taqdiri azalga uyg'un to abad,  
O'zi ham topgaydir nurg'un<sup>129</sup> saodat!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Odamlar tez-tez aytib yuradigan qadimdan qolgan bir gap bor: "Osmonosti, davlat, oila..." Osmonostining asosi davlatda, davlatning asosi oilada, oilaning asosi bizning o'zimizda".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Elni idora qilish qiyin emas: dongdor vazir-to'ralarni g'azablantirmasangiz bo'lgani. Oqil vazir-to'ralar mehr qo'ygan narsaga butun mamlakat ko'ngil qo'ygay; butun mamlakat ko'ngil qo'yganiga butun Osmonosti oshufta bo'lgay. Shuning uchun axloq tarbiyasi butun osmonostida to'lib-toshib mavj urmoqda!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Osmonostida haqiqat bo'lsa, xulqi chog'roqlar xulqi a'lolarning xizmatin qilgay, zakovati chog'roqlar buyuk daholarning xizmatin qilgay; Osmonostida haqiqat bo'limsa, kichiklarni kattalar, ojizlarni kuchlilar qul qilib ishlatgay. Bu ikkisi ham Osmondandir.

Osmon (Xudoning – I.Q.) irodasiga bo'ysunganlar umrguzaronlik qilgay, osmon (Xudoning – I.Q.) ra'yiga qarshi chiqqanlar halok bo'lgay!

Chi podshosi Jing-go'ng qachonlardir shunday degan edilar: "Buyruq berolmasam ham, buyruqlarini qabul ham qilmasman, bu orani ochiq qilishdir". U ko'z yoshlari bilan qizini U (Vu) podsholigiga turmushga uzatdi.<sup>130</sup>

<sup>129</sup> Nurg'un – ko'p, bisyor.

<sup>130</sup> Tarixiy solnomalarda qayd etilishicha, Chi podshosi Jing-go'ng qizini U podshosiga turmushga bergenida shahar tashqarisigacha kuzatib borib, yig'lab shunday degan ekan: "Endi seni o'lsam ham ko'rolmasam kerak". Garchi podsho uyat deb hisoblansa-da, lekin U podsholigining qudrati qarshisida ilojsiz edi.



Hozirda kichik podsholiklarning katta podsholikka taqlid qilib tag'in amr-farmonlarni qabul qilishdan or qilishlari bu xuddi shogirdning marhum ustozi buyruqlariga bo'ysunishdan or qilishlariga o'xshaydi.<sup>131</sup> Agar haqiqatan nomus qilsa, podsho Ven-vangdan ibrat olishdan ham yaxshirog'i yo'q. Ven-vangdan ibrat olinsa, katta podsholiklar besh yilda, kichik podsholiklar yetti yilda Osmonostida (saltanatda — I.Q.) hukmron bo'lishi muqarrar.

"Nazmnoma"da shunday deyilgan:

"Shangning o'g'il-nabiralari –  
Ularning sanog'i yuz minggina emas.  
Osmon Hukmdorining<sup>132</sup> amri ila  
Jou tomonidan bo'ysundirildi.  
Jouga bo'ysunganin sababi  
Osmon irodasi<sup>133</sup> o'zgarmas emas.  
In<sup>134</sup> mulozimlari o'ktamu zukko,  
Poytaxtda<sup>135</sup> nazrga<sup>136</sup> bo'lishar dastyor".

Ko'ng-zi (Konfutsiy) shunday degan edi: "Rahmdil uchun odamning ko'pi bo'lmaydi. Insonparvarlikni sevgan podshoning osmonostida dushmani bo'lmaydi!"

Hozirgi kunda osmonostida dushmani bo'lmasligini istab turib, holbuki insonparvarlik qilmaslik xuddi cho'g'ni ushlab olib qo'llarini suv bilan yuvib tashlamaslikka o'xshaydi.

"Nazmnoma"da shunday misralar bor:

"Kim ushlay olar cho'g'ni qo'lida,  
Tipirchilab suvga chopmasdan?"

\*\*\*

<sup>131</sup> Meng-zining insonparvarlik va adolat haqidagi qarashlarining mohiyati mamlakat birligi va osoyishtaligi, xalq farovonligi, inson komilligidi. Meng-zi mamlakat parokanda, mayda podsholiklarning o'zaro qirg'inbarot urushlari avj olgan, xalq hayoti izdan chiqqan taxlikali bir davrda yashadi.

<sup>132</sup> Osmon Hukmdori – xudo, tangri.

<sup>133</sup> Osmon irodasi – taqdir, qismat.

<sup>134</sup> In – Shang sulolasining boshqa bir nomi.

<sup>135</sup> Bu yerda G'arbiy Jou sulolasi poytaxti Hao shahri nazarda tutilgan, G'arbiy poytaxti deb ham atalgan. Uning qadimiy o'mi hozirgi Shaansi provinsiyasi Sian shahrining g'arbida bo'lgan. Podsho Vu-vang Shang sulolasiga barham bergach, poytaxtni ushbu shaharga ko'chirgan.

<sup>136</sup> Qurbanlik marosimi. She'rda "podshoga qurbanlik marosimlarida yordam bermoqda" deyilgan.



Meng-zi dedi: "Insoniyligini yo'qotgan kimsalar bilan yana nimani ham gaplashish mumkin? Bundaylar xavf-xatar ichida halovat topadilar, o'zgalar boshiga tushgan musibatdan foyda undiradilar, fojiani xursandchilik deb biladilar. Agar bunday berahm kimsalar bilan kengashish mumkin bo'lganida, unda davlatlarning murqariz<sup>137</sup>, oilalarning xonavayron bo'lishlari tag'in qaydan? Bolalar qo'shig'ida shunday deyiladi:

"Sang-lang<sup>138</sup> suvi tiniq-tiniq!

Popugimni<sup>139</sup> yuvsam bo'lar!

Sang-lang suvi loyqa-loyqa!

Oyoqlarim yuvsam bo'lar!"

Donishmand Ko'ng-zi (Konfutsiy) shunday degan ekanlar: "Shogirdlarim!

Qo'shiqni eshitinglar! Suv tiniqligida unda popuklarni yuvsam bo'ladi, loyqalangach esa faqatgina oyoqlarni yuvish mumkin. Hammasi suvning o'ziga bog'liq!"

Odamlar, albatta, o'zlarini xo'rلانارдан keyingina boshqalarning xo'rلشларига duchor bo'lishadi. Oilalar, albatta, o'zlarini xarob qilganlaridan keyingina boshqalar ularni xarob qilib bitiradilar. Davlatlar, albatta, o'zlariga tajovuz qilganlaridan keyingina boshqalar ularga tajovuz qiladilar.

Bu haqda "Nasrnoma"ning "Tay-jya" bobida shunday deyilgan:

"Ko'kdan kelgan balodan,

Jonga oro panadan.

O'zing qilgan balodan,

Qochib bo'lmas qazodan!"<sup>140</sup>

• Insoniyligini yo'qotgan kimsalar xavf-xatar ichida halovat topadilar, o'zgalar boshiga tushgan musibatdan foyda undiradilar, fojiasini xursandchilik deb biladilar.

• Odamlar, albatta, o'zlarini xo'rلانардан keyingina boshqalarning xo'rلشларига duchor bo'lishadi. Oilalar, albatta, o'zlarini xarob qilganlaridan keyingina boshqalar ularni xarob qilib bitiradilar. Davlatlar, albatta, o'zlariga tajovuz qilganlaridan keyingina boshqalar ularga tajovuz qiladilar.

<sup>137</sup> Munqariz bo'lmoq – inqirozga (tanazzulga) yuz tutmoq.

<sup>138</sup> Sang-lang (Canglang) – bu haqda ko'plab izohlar mavjud. Ba'zilar uni daryo nomi (Hanshuey daryosining irmog'i) deb hisoblasalar, ba'zilar joy nomi (hozirgi Xubey provinsiyasi Jun nohiyasida) deyidilar, yana birovlar she'rda suvning rangi (sang – to'q zangori, to'q ko'k, lang – to'lqin) nazarda tutilgan deyishadi. Nima bo'lganda ham, uning har qanday ma'nosi asliyatlari tushunishga xalaqit bermaydi. Biz tarjimamizga uni daryo nomi sifatida kiritdik.

<sup>139</sup> Popuk – bosh kiyimning bo'yingga bog'lanadigan shoyi tasmachasi.

<sup>140</sup> Ushbu satrlar "O'zing qilgan baloga, qayga borasan davoga!?" degan o'zbek xalq maqolini esga soladi.



- Ko'kdan kelgan balodan, jonga oro panadan; o'zing qilgan balodan, qochib bo'lmas qazodan!

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Xalq ixlosini<sup>141</sup> yo'qotganlari uchun zolim podshohlar Jye va Jou Osmonostidan<sup>142</sup> judo bo'ldilar. Xalq ra'yini<sup>143</sup> yo'qotganlari sabab xalqning ixlosini ham yo'qotdilar. Osmonostiga ega bo'lismning yo'li bor: xalq ixlosiga sazovor bo'lsang, Osmonostiga ham ega bo'lasan. Xalq ixlosiga sazovor bo'lismning ham yo'li bor: qalbini zabit et va xalq ixlosiga sazovor bo'l. Xalq qalbini zabit etishning ham yo'li bor: istaganlarini muhayyo qil, yomon ko'rghanlarini zo'rlab qabul qildirma. Xalqning insonparvarlikka itoatkorligi go'yo suvning pastga qarab oqishi, yovvoyi hayvonlarning bepoyon dashtga qarab yugurishlariga o'xshaydi. Shunga chuqur kamar uchun baliqlarni quvib kelgan baliqchixon qunduzdir; changalzor uchun chumchuqlarni quvib kelgan yirtqish qush qirg'iyyidir; Shang podshohi Tang-vang va Jou podshohi Vu-vang uchun xalqni quvib kelgan Jou va Je kabi zolim podshohlardir. Hozirgi Osmonostidagi podsholar orasida insonparvarlikni xush ko'radigani bo'lsa, unda boshqa davlatlar xalqlari xuddi podsholari quvgandek unga panoh istab keladilar. Shunday bo'lgach, garchi u sultanat hukmdori ("vang") bo'lismni istamasa ham, bunga muvaffaq bo'lomasdi. Sultanat hukmdori bo'lismni xohlagan hozirgi podsholar xuddi yetti yil o'sal bo'lib yotib, (to'satdan shifo topish uchun) uch yillik erman<sup>144</sup> qidirayotganga o'xshaydi. Agar g'amlab qo'ymagan bo'lsa, umrlarining oxirlarigacha benasib qolurlar. Agar insonparvarlik bilan idora etishni hech qachon maqsad qilmagan bo'lsalar, unda ularning butun umri hasrat va tahqirlanishlar ichida o'tadi, oxir-oqibat o'zlarini ajal komiga tashlaydilar. "Nazmnoma"da shunday deyilgan:

"Qo'lidan ne yaxshilik kelar ularning?  
Bir-birin g'arq qilmoqqa yaraydi, xolos!"  
Aytilganlari ayni shu ma'nodadir".

<sup>141</sup> Xalq ixlosi: bu yerda xalqning madadi, daldasi nazarda tutilmoqda. Xalqning ixlosi bo'lmasa, demak, madadi ham bo'lmaydi. Xalqning daldasi bo'lmasa, podshohning sultanatni saqlab qolishi ham amri maholdir.

<sup>142</sup> Bu yerda: sultanat.

<sup>143</sup> Xalq ra'y, xalq qalbi, xalq ko'ngli.

<sup>144</sup> Erman (yovshan) – ko'p yillik alafsimon (o'tsimon) o'simlik, bargi xushbo'y, dorivor, kuydirib davolashda qo'llaniladi. Erman qancha uzoq saqlansa, davolash unumi shunchalik yaxshi bo'ladi.



- Saltanatga ega bo'lishning yo'li bor: xalq ixlosiga sazovor bo'lsang, saltanatga ham ega bo'lasan. Xalq ixlosiga sazovor bo'lishning ham yo'li bor: qalbini zabit et va xalq ixlosiga sazovor bo'l. Xalq qalbini zabit etishning ham yo'li bor: istaganlarini muhayyo qil, yomon ko'rghanlarini zo'rlab qabul qildirma.
- Xalqning insonparvarlikka itoatkorligi go'yo suvning pastga qarab oqishi, yovvoyi hayvonlarning bepoyon dashtga qarab yugurishlariga o'xshaydi.
- Saltanat hukmdori bo'lishni xohlagan hozirgi podsholar xuddi yetti yil o'sal bo'lib yotib, (to'satdan shifo topish uchun) uch yillik erman qidirayotganga o'xshaydi.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "O'ziga o'zi zulm qilgan kishi bilan suhbat qurib bo'lmaydi; o'zidan tongan kishi bilan biror (xayrli) ishni amalga oshirib bo'lmaydi. Odobsiz va nohaq so'zlarni aytish o'ziga o'zi zulm qilish demakdir. "Men insonparvarlik bilan yasholmayman, adolatga qadam qo'yolmayman" deyish o'zidan tonish demakdir. Insonparvarlik odamlarning halovatgoh boshpanasidir; adolat odamlarning to'g'ri yo'lidir. Keng boshpanasi bo'la turib unda yashamaslik, to'g'ri yo'l turib, undan yurmaslik naqadar achinarli!"

- 
- O'ziga o'zi zulm qilgan kishi bilan suhbat qurib bo'lmaydi; o'zidan tongan kishi bilan biror (xayrli) ishni amalga oshirib bo'lmaydi. Odobsiz va nohaq so'zlarni aytish o'ziga o'zi zulm qilish demakdir. "Men insonparvarlik bilan yasholmayman, adolatga qadam qo'yolmayman" deyish o'zidan tonish demakdir.
  - Insonparvarlik odamlarning halovatgoh boshpanasidir; adolat odamlarning to'g'ri yo'lidir.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Yo'l shundoqqina yaqinida turib, aksincha, uni olisdan qidiradilar; aslida osongina ishni, aksincha, qiyinlashtirishga intiladilar. Hamma odamlar o'z otanalariga mehr qo'ysa, o'zlarining yoshi kattalarini hurmat qilsagina Osmonostida osoyishtalik hukm suradi".

\*\*\*



Meng-zi dedi: "(Konfutsiyning sbögirdi) Chyu<sup>145</sup> to'ralardan Ji<sup>146</sup> janoblarining vassali bo'lgach, uning nojo'ya xislatlarini o'zgartira olmadi, aksincha o'lponlar avvalgidan ikki baravar oshib ketdi. Ko'ng-zi (Konfutsiy) shunday xitob qildilar: "Chyu ortiq mening shogirdlarimdan emas, nog'ora chalib unga tanqid toshlari otsalaringiz ham bo'laveradi!"

Bundan ko'rindiki, podsholarga insonparvar siyosat yurgizishga yordam bermay, ularning boyishlarigagina xizmat qiladigan kimsalardan Ko'ng-zi yuz o'girgan egan, ular uchun bor kuchi bilan bosqinchilik urushlari olib boradiganlarga tag'in yo'l bo'lsin?!

Yerlar uchun olib borilgan urushlarda dala-dashtlar odam o'liklari bilan to'lib ketdi; shaharlar uchun olib borilgan urushlarda shahar himoya xandaqlari odam o'liklariga to'lib ketdi. Bu – yarlarga boshchilik qilib odamlarning go'shtini yeyish demakdir, o'lim jazosi bilan ham bunday gunohi azimni yuvib bo'lmaydi.<sup>147</sup>

Shuning uchun urush qilishni yaxshi ko'radiganlar eng oliy<sup>148</sup> jazoga loyiqdirlar; beklar bilan birlashib urush olovini yoqadiganlar ikkinchi o'rinda turadilar; ulardan keyinda qo'riq yer ochib urushga sharoit yaratadiganlar, yerdan urushga hozirlik ko'rishda foydalanadiganlar o'rinn olgan".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Odamlarni tekshirishda ularning ko'zlaridan yaxshisi yo'q. Ko'z qorachiqlari ularning g'ayirliklarini yashirolmaydi. Ko'ngil to'g'ri bo'lsa, ko'zlar ham yorqin bo'ladi; ko'ngil egrisi bo'lsa, ko'zlar ham xira bo'ladi. So'zlariga qulqoq solib, ko'zlariga nazar tashlasangiz, u odam qanday qilib yashira olardi?!"

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Tavozeli kishi o'zgalarni tahqirlamaydi, kamsuqum odam o'zgalarni talamaydi. Odamlarni tahqirlaydigan, talonchilik qiladigan podsho faqat xalqning o'ziga itoat qilmay qo'yishidangina qo'rqqach, qanday qilib tavozeli va kamsuqum bo'la oladi? Nahotki yoqimli ovozi va soxta tabassumi bilan tavozeli va kamsuqum bo'lib qolsa?"

<sup>145</sup> Chyu – Konfutsiyning shogirdi Jan Chyu, hurmatli nomlari Zi-you.

<sup>146</sup> Ji janoblari – Lu podsholigining to'ralaridan biri.

<sup>147</sup> "Bunday mudhish jinoyat uchun hatto o'lim jazosi ham kamlik qiladi".

<sup>148</sup> Eng og'ir.



\*\*\*

Chun-yuy Kun<sup>149</sup> deganlari Meng-zidan so'rab debdi: "Erkak va ayol o'rtasida qo'l bilan narsa uzatilmaydi va olinmaydi<sup>150</sup>, bu odob qoidalaridanmi?"

Meng-zı dedi: "Odob qoidalaridan".<sup>151</sup>

Haligi kishi tag'in so'radilar: "Agar egachim cho'kib ketayotgan bo'lsa, qo'l cho'zarmidingiz?"

Meng-zı dedi: "Cho'kayotgan egachimga yordam qo'lini cho'zmaslik shaqal<sup>152</sup> va bo'rining ishidir. Erkak va ayol o'rtasida qo'l bilan narsa uzatilmaydi va olinmaydi, bu odob qoidalaridandir. Biroq cho'kayotgan egachimga yordam qo'lini cho'zish – vaziyatga qarab ish tutishdir".

Chun-yuy Kun yana dedi: "Hozir Osmonosti cho'kib borayapti, hazratim nega yordam qo'lini cho'zmayaptilar?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Cho'kayotgan Osmonostini "dao"ga<sup>153</sup> tayanib qutqarish kerak. Cho'kayotgan egachimni qo'llarim bilan qutqarib olsam bo'ladi. Nahotki siz Osmonostini qo'llarim bilan qutqarishimni istayotgan bo'lsangiz?"

---

- Cho'kayotgan odamga yordam qo'lini cho'zmaslik vahshiylidir. Erkak va ayol o'rtasida qo'l bilan narsa uzatilmaydi va olinmaydi, bu odob qoidalaridandir. Cho'kayotgan bir zaifaga yordam qo'lini cho'zish esa vaziyatga qarab ish tutishdir.

<sup>149</sup> Chun-yuy Kun – Chi podsholigining mashhur notig'i, alloma, podsholar Vey-vang, Syuan-vang va Lyang Xuey-vang davrlarida saroy amaldori bo'lgan.

<sup>150</sup> Bu jumla konfutsiychilikning klassik asarlaridan biri "Odobnoma" kitobida uchraydi: "Erkak va ayollar aralash o'tirmaydilar... (O'zaro) qo'l bilan narsa uzatilmaydilar". Shuningdek, "Odobnoma"da Konfutsiyning ham "Erkak va ayol o'rtasida qo'l bilan narsa uzatilmaydi va olinmaydi", degan so'zleri qayd etilgan.

<sup>151</sup> Bu o'rinda albarra nomahram kishilar haqida gap ketmoqda.

<sup>152</sup> Shaqal – chiyabo'ri.

<sup>153</sup> Dao (道) – haqiqatga eluvchi to'g'ri yo'l. "Dao" – xitoy adabiyotlarida ko'p uchraydigan istiloh, uning ma'no doirasiga anchal keng. "Qadimgi xitoy tili lug'atida" "dao"ga shunday izoh berilgan: 1) yo'l; masofa: "Yo'l garchi yaqindir, yurmasang – yetmassan!" (Syun-zi) 2) usul, yo'l, tariqa, vosita: "Syun-zi. Sharaf va sharmandalik": "Shon-sharafni yaxshi ko'rib sharmandalikdan nafratlanish, foydalni narsalarni yaxshi ko'rib zararlilaridan nafratlanish olijanoblar va pastkashlarning boryo'g'i o'xshash tomonidir, basharti ularning bularga erishish yo'llari har xildir". 3) qonuniyat, qoida; 4) ta'limot, aqida, nazariya; nuq'iysi nazar; maslak: Jo'ng-Ni (Konfutsiy) ta'limoti; 5) axloq, axloq qoidalar; to'g'ri (halol, haq) yo'l; 6) dao ta'limotida (asoschisi donishmand Lao-zi): barcha mavjudotning manbai (substansiya, birlamchi asos, ibtido, yaratuvchi): "Lao-zi": "Dao birisini (tay-ji, ya'ni "Avji a'lo"ni – I.Q.) paydo qildi, birisi ikkisini (yang va inni – I.Q.) paydo qildi, ikkisi uchtasini (osmon, yer va insonni – I.Q.) paydo qildi, uchtasini behisob narsalarni (barcha shay-mavjudotni – I.Q.) paydo qildi". (Va hokazolar.) Shuningdek, "dao"ni matndagi ma'nolariga qarab, uning nozik ma'no xususiyatini inobatga olib o'zbek tiliga "haqiqat", "haqiqatga eluvchi yo'l", "haqiqat mezonlari", "insonning o'zini kamolga yetkazish yo'l", "odil yo'l", "farz" deya o'girish ham mumkin. Qadimgi xitoy adabiyotlarining bugungi kun xitoy tilisiga qilingan o'girmalarida "dao"ga "donishmandlik yo'l", "donishmandlar yo'l" deya sharhlar ham berilmoqda.

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Ishlarning eng ulug'i qaysi? Ota-onaning xizmatin qilish eng ulug'idir!"

Saqlanganlaridan eng ulug'i qaysi? O'zlikni saqlash eng ulug'idir!

O'zligini yo'qotmay, ota-onalariga astoydil xizmat qila olganlarni eshitganman; o'zligini yo'qotib, ota-onalariga xizmat qila olganlarni eshitmaganman. (O'zligini yo'qotmaganlarning o'z ota-onalariga xizmat qila olganliklarini eshitganman, o'zligini yo'qotganlarning o'z ota-onalariga xizmat qila olganliklarini eshitmaganman.)

Kim ham xizmat qilmaydi? Ota-onaning xizmatin qilish barcha amallarning negizidir.

Kim ham saqlamaydi? O'zlikni saqlamoq barcha saqlashlarning asosidir!

Bir zamonlar Zeng-zi otasi Zeng Sini<sup>154</sup> parvarish qilganida, har mahal, albatta, sharob bilan go'sht bo'lardi. Dasturxonni yig'ishturib olishga chog'langanida, albatta, otasidan qolgan yeguliklarni kimga berishni so'rardi. Otasining "Yana bormi?" degan savoliga "Bor!" deb javob berardi. (Zeng-zi faqat otasining rizq-nasibadan o'zgalarga ham ulashishdek orzusi armon bo'lib qolishlidan qo'rqardi!)

Zeng Si vafot etgach, Zeng Yuan<sup>155</sup> otasi Zeng-zini parvarish qila boshladi. Har galgidek, albatta, sharob va go'sht bor edi. Dasturxonni yig'ishirib olishga chog'langanida qolgan yeguliklarni kimga berishni so'ramasdi, otasining "Yegulikdan qoldimi?" degan savoliga "Qolmadi!" deb javob berardi. Aslida qolganini keyingi ovqat mahal yana otasiga berish uchun olib qo'yishni o'ylardi.

Bundaylarni faqat ota-onasining og'iz-qursog'ini boqadiganlar deyishadi. Zeng-ziga o'xshaganlarni esa ota-onasining ra'yini boqadiganlar deyish mumkin. Ota-onangizga xizmat qilganda Zeng-ziga o'xshasangiz bo'lgani!"

- Amallarning eng ulug'i ota-onaga xizmatdir! U barcha amallarning negizi hamdir.

\*\*\*

<sup>154</sup> Zeng-zi – Zeng Shen, Konfutsiyning shogirdi; Zeng Si – Zeng-zining otasi, u ham Konfutsiyning shogirdi bo'lgan.

<sup>155</sup> Zeng Yuan – Zeng-zining o'g'li.



Meng-zı dedi: "Odamlarni ayblayverish, siyosatni qoralayverish yaramaydi. Faqat buyuk insonlarga podsho qalbidagi illatlarni tuzata oladi. Podsho rahmdil bo'lsa, berahmlar bo'lmaydi; podsho odil bo'lsa, adolatsizlar bo'lmaydi; podsho to'g'ri bo'lsa, egrilar bo'lmaydi. Podsho to'g'ri bo'lishi bilan mamlakatda ham osoyishtalik qaror topadi".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Kutilmagan maqtovlar bo'ladi, haddan tashqari talab qo'yadigan bo'htonlar ham bo'ladi".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Odamlarning nuqsoni ularning o'zgalarga ustozlik qilishni yaxshi ko'rishlarida".

\*\*\*

Meng-zining shogirdlaridan biri Yue Jeng-zı<sup>156</sup> podshoning sevimli mulozimlaridan Zi-ao<sup>157</sup> hamrohligida Chi davlatiga kelibdi. Yue Jeng-zı ustoz Meng-zini ziyyarat qilgani boribdi.

Meng-zı debdi: "Sen bu yerga meni ko'rgani ham kelganmiding?"

Yue Juang-zı biroz shoshib qolib debdi: "Ustoz, nega bunday deyapsiz?"

Meng-zı yana so'rabdi: "Kelganingga necha kun bo'ldi?"

Yue Jeng-zı javob beribdi: "Kecha kelgandim".

Meng-zı debdi: "Kecha kelibsan, unda aytgan so'zlarim o'rinsizmi?"

Yue Jeng-zı dovdirab qolibdi: "Qo'nalg'amni hal qilolmagandim".

Meng-zı debdi: "Qo'nalg'aga yaxshilab joylashib olgandan keyingina keksalarni ziyyarat qilish kerak deb eshitganmisan?"

Yue Jeng-zı xijolat tortib debdi: "Kamina Ke oldingizda gunohkorman!"

\*\*\*

Meng-zı shogirdi Yue Jeng-ziga murojaat qilib debdi: "Sen yeb-ichish uchungina Zi-aoga ergashib Chi podsholigiga kelding. Men faqatgina yeb-ichish uchungina

<sup>156</sup> Yue Jeng-zı – Meng-zining shogirdi, Lu podsholigidan bo'lgan, ismi Ke.

<sup>157</sup> Zi-ao – Chi podshosining suyukli amaldorlaridan biri.



birovlarining ortidan ergashib yurishni qadimgi dao-aqidalarini<sup>158</sup> o'rganuvchi sendek bir odamdan hecham kutmagan edim".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Noqobillik uchtadir, surriyotsizlik ularning eng mudhishi<sup>159</sup>. Oqsoqol Shun ota-onasiga ma'lum qilmay uylanishining boisi ortida o'zidan surriyot qolmasligidan xavotirlanganidandir. Shuning uchun oljanoblar nazdida, ma'lum qilgan bilan barobardir".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Insonparvarlikning mohiyati ota-onalarining xizmatini qilishdir. Adolatning mohiyati og'alariga itoat etishdir. Donolikning mohiyati bu ikkisini tushunib ulardan chetga og'ib ketmaslikdir. Odobning mohiyati ikkisida matonatli va xushxulq bo'lishdadir. Musiqaning mohiyati bu ikkisidan yanada baxtiyor bo'lishdir. Ana shunda haqiqiy baxtiyorlik ham tug'ilgay, u tug'ildimi, qanday qilib to'xtatib qolish mumkin? To'xtata olmas ekan, unda depsinib, qo'llarini silkitib (sakrab) raqsga tushib ketganini o'zi ham sezmay qoladi".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Ota-onaning ixlosiga sazovor bo'la olmaganni odam deb bo'lmaydi.

Ota-onaga itoat qilmaganni esa farzand deb bo'lmaydi".

### SAKKIZINCHI BOB

Li Lou. Keyingi qism

Meng-zı dedi: "Oqsoqol Shun Ju-pingda tug'ildi, Fu-syaga ko'chib borib joylashdi, Ming-tyaoda<sup>160</sup> vafot etdi. U Sharqiy I qabilasidan bo'lgan. Podshoh Ven-

<sup>158</sup> Asl xitoycha nusxada "qadimgi daoni o'rganuvchi" deyilgan, tarjimonlar "dao" (yo'l) so'ziga urg'u berib, "qadimgi marhum podsholar yo'lini o'rganuvchi", "qadimgi haqiqatga eltuvchi yo'lni o'rganuvchi" tarzida o'girganlar. "Dao"ning "yo'l" ma'nosidan tashqari, "haqiqat", "axloq", "ta'limot", "aqida" kabi ma'nolari ham bor.

<sup>159</sup> Qadimda uch noqobillik deb atalgan holatlar quyidagilar: faqat bo'yin egib, ota-onasining xatolariga ko'z yumib, nasihat qilmasdan ularni jaholat botqog'iga botirish birinchi noqobillikdir; oilasi muhtoj bo'lib, ota-onasi keksaygan chog'da bir amal egasi (bir kasb-kor egasi) bo'lib halol maosh bilan ularni boqolmaslik ikkinchi noqobillikdir; uylanmay ajdodlari chirig'ini yoqadigan surriyot qoldirmaslik, naslning uzilishiga sababchi bo'lish uchinchi noqobillikdir.

<sup>160</sup> Ju-ping, Fu-sya, Ming-tyao – joy nomlari, qaysi joylarga to'g'ri kelishi hozirgacha aniqlanmagan.



vang Jou o'lkasining Chi<sup>161</sup> tog'ida dunyoga keldi, Bi-ingda<sup>162</sup> olamdan o'tdi, u G'arbiy I qabilasidan edi. Bu yerlar oralig'idagi masofa ming chaqirimdan ortiq, ularni ming yildan ortiq davr ajratib turadi. O'italikdagi podsholiklarda ezgu orzu-umidlarini amalgaloshirish borasida ikkisi go'yo biriktirilgan podsholik nishoni<sup>163</sup> bo'lakchalari kabi bir butun edilar.

Avvalgi donishmandlar bilan keyingi donishmandlarning haqiqat mezonlari birdir".

\*\*\*

Zi-Chan<sup>164</sup> deganlari Jeng podsholigida davlat ishlarini boshqarayotgan kezları o'zining ot-aravasida odamlarni Jen va Vey<sup>165</sup> daryolaridan o'tkazib qo'yargan.

Meng-zi bu haqda shunday debdi: "U iltifotli, lekin davlat ishlarini idora qilishni bilmaydi. Agar yilning o'n birinchi oyida piyodalar uchun yog'och ko'pri, o'n ikkinchi oyida<sup>166</sup> ot-aravalar uchun ko'pri qurdirganida, xalq ham daryodan o'tish uchun ortiq tashvish chekib yurmasdi. Olijanoblar davlatni boshqarishda to'g'ri bo'lishsa, safarga chiqqanlarida hay-haylab odamlarni chetga chiqarib yo'l ochib yursalar bo'lardi. Axir qanday qilib odamlarga bitta-bittalab daryodan o'tishlariga yordam bera olsin? Agar hokimiyat tepasida turgan kishi har bir odamni xursand qilmoqchi bo'lsa, unaqada vaqtı umuman yetmaydi".

\*\*\*

Meng-zi Chi podshosi Syuan-vangga ma'lum qilib debdi: "Agar podsho xizmatkorlariga o'zining qo'l-oyoqlaridek qarasa, unda xizmatkorlar podshoga o'zlarining qursoq va yuraklaridek qaraydi. Agar podsho xizmatkorlariga it va otlarga

<sup>161</sup> Chi tog'i – hozirgi Shaansi provinsiyasida.

<sup>162</sup> Bi-ing – joy nomi, hozirgi Shaansi provinsiyasi Syan-yang hududining sharqiy qismiga to'g'ri keladi.

<sup>163</sup> Podsholik nishoni – sulolaning ramziy yorlig'i, qadimda podsholikning guvohlik belgisi, ya'ni guvohnomasi hisoblangan. Nefrit, mis, g'arov (bamruk) va yog'ochdan yo'lbars, ajdar shaklida yasalgan, ba'zilarining sirtiga xat tushirilgan. Ikki bo'lakka ajratilgan, bir bo'lagi saroyda saqlangan, yana bir bo'lagi xizmat vazifikasi bilan o'zga yurtga yuborilgan kishiga yoki jangga otlangan qo'mondonga berilgan. Parchalarning birlashtirilishi biror ishdan guvohlik bergen.

<sup>164</sup> Zi-Chan – ismi Go'ngsun Chyao, hurnalli nomlari Zi-Chan, Xitoy tarixidagi Bahor-Kuz davri Jeng podsholigining oqil vaziri.

<sup>165</sup> Jen, Vey – daryo nomlari, hozirgi Xitoyning Henan provinsiyasida.

<sup>166</sup> O'n birinchi oy, o'n ikkinchi oy – Jou (sulolasi) taqvimi nazarda tutilgan, bu Sya (sulolasi) taqvimi bo'yicha to'qqizinchiligi va o'ninchisi oylarga to'g'ri keladi. Bu paytda daryolar suvi pasaygan yoki umuman qurib qolgan.

qaragandek qarasa, xizmatkorlar podshoga yot kishidek qaraydilar. Agar podsho o'z xizmatkorlariga loy va xas-xashakdek qarasa, xizmatkorlar podshoga qaroqchi va dushmanidek qaraydilar”.

Podsho dediki: “Odob qoidalariga ko'ra, avvalgi saroy a'yonlari marhum podsho uchun motam libosini kiyishlari lozim bo'lgan. Buning uchun podsho qanday bo'lmos'i kerak?”


Meng-zi shunday javob beribdi: “Podsho a'yonlarning pand-nasihatlariga amal qilsa, mulohazalariga quloq tutsa, marhamati xalqiga tadir. Agar a'yonlardan biri uzrli sabablarga ko'ra tark etib ketadigan bo'lsa, podsho odam yo'llab uni mamlakat chegarasidan chiqib ketgunicha kuzatib qo'ygan, tag'in u boradigan joyga oldinroq kishilarini jo'natib neki kerak bo'lsa barchasini taxt qildirib qo'ygan; shu ketgancha uch yilgacha qaytmasa, podsho shundan keyingina uning hovli-joyini qaytarib olgan. Buni odobning uch bor ko'rinishi deb atarlar. Shundagina amaldorlar unday podsho uchun motam libosini kiyib aza tutgaylar. Hozirda amaldor bo'l mish pand-nasihat qilsa, podsho amal qilmas, gaplariga quloq solmas, oqibatda podshoning marhamati xalqiga yetib bormayotir. Agar amaldorlaridan biri uzrli sababga ko'ra ketadigan bo'lsa, podsho uning oila a'zolarini tutqunlikda saqlaydi, bu ham yetmagandek tag'in nima qilib bo'lsa ham borayotgan joyida uni qashshoqlik va muhtojlikka giriftor qilishni o'laydi; ketgan kuniyoq uning hovli-joyini qaytarib oladi. Buni qaroqchilik va dushmanlik derlar! Qaroqchilik va dushmanlik bo'lgach, yana qanday qilib motam libosini kiyib aza tutish haqida gap bo'lishi mumkin?”

• Agar podsho xizmatkorlariga o'zining qo'l-oyoqlaridek qarasa, unda xizmatkorlar podshoga o'zlarining qursoq va yuraklaridek qaraydi. Agar podsho xizmatkorlariga it va otlarga qaragandek qarasa, xizmatkorlar podshoga yot kishidek qaraydilar. Agar podsho o'z xizmatkorlariga loy va xas-xashakdek qarasa, xizmatkorlar podshoga qaroqchi va dushmanidek qaraydilar.

• Podsho a'yonlarning pand-nasihatlariga amal qilsa, mulohazalariga quloq tutsa, marhamati xalqiga tadir.

\*\*\*

Meng-zi dedi: “Begunoh bir mirzo qatl etilsa, to'ralar tashlab ketishadi; begunoh xalqni qirg'in qilsalar, ahli ulamo boshqa yurtlarga bosh olib ketadi”.





\*\*\*

Meng-zı dedi: “Podsho rahmdil bo’lsa, berahmliklar bo’lmaydi; podsho odil bo’lsa,adolatsizliklar bo’lmaydi!”

\*\*\*

Meng-zı dedi: “Buyuk insonlar beandisha odoblilik, nohaq adolat qilmaydilar”. (Buyuk insonlar beadablik bo’lmasligi uchungina odoblilik, noinsoflik bo’lmasligi uchungina insoflilik qilmaydilar.)

\*\*\*

Meng-zı dedi: “Mo’tadillar<sup>167</sup> nomo’tadillarga ta’lim-tarbiya beradilar, qobiliyatililar – qobiliyatsizlarga. Shu bois odamlar fozilu qobil ota-og’alari bo’lsa quvonadilar.

Agar mo’tadillar nomo’tadillarni qarovsiz tashlab ketsa, qobiliyatililar qibiliyatsizlarni o’z holiga tashlab qo’ysa, unda ma’rifatli va johillar orasida qilcha farq qolmaydi”.

\*\*\*

Meng-zı dedi: “Odamlar qilish kerak bo’lмаган narsalarni qilmaslikni eplay olsalargina ko’п ish qilgan bo’lardilar!”

(“Odamlar qilmaslik kerak bo’лган narsalarga qo’l urmasalargina ko’п narsalarga ega bo’ladilar”.)

\*\*\*

Meng-zı dedi: “Odamlarni yomonlab oqibat bir baloga duchor bo’lishimiz haqida o’ylab ko’rganmizmi?”

\*\*\*

<sup>167</sup> Mo’tadillar – har bir ishda quyushqondan chiqmaydigan kishilar, axloqiy fazilatları yetuk insonlar tushuniladi. Konfutsiy mo’tadillikni “eng yuksak a’lo axloq mezoni” deb atagan edi. Nomo’tadillar – mo’tadillarning aksi.



Meng-zi dedi: "Jo'ng-ni (Konfutsiy) hech bir ishda quyushqondan chiqmaganlar!" ("Konfutsiy hech bir haddan oshadigan ish qilmagan!")

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Buyuk odamning har bir so'zi ishonarli, har bir harakati muvaffaqiyatli bo'lishi shart emas, adolatga to'g'ri kelsa bo'lgani". "Buyuk odamlarki, har bir so'zi ishonarli, har bir ishda jur'atli bo'lishi shart emas, adolatga to'g'ri kelsa bo'lgani".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Buyuklar go'daklardek beg'uborliklarini yo'qotmaydilar!" ("Buyuklar go'dak misol qalbini yo'qotmagan kishilardir!")

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Ota-onasini ular hayotligida boqish, bu hali buyuk ish degani emas, faqatgina (qachonki vaqtি-soati yetib – I.Q.) qazo qilganlarida ularni so'nggi manzilga kuzatib qo'yishni buyuk ish deyish mumkin!"

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Teran bilim ol va uni batafsil tavsifla, shuning bilan qisqa-lo'nda bayon qila olish darajasiga qaytasan".

(Teran bilim olish va uni batafsil tavsiflash bilan keyinchalik qisqa va lo'nda bayon qila olish holatiga qaytiladi.)

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Faqat birgina ezgulik bilan odamlarning qalbini zabit etaman deganlar haligacha odamlarning qalbini zabit etolgani yo'q. Odamlarni ezgulik ruhida tarbiyalasang, shundan keyingina Osmonostini (sultanatni – I.Q.) bo'ysundira olasan (butun sultanat aholisi qalbini zabit eta olasan – I.Q.). Osmonosti (sultanat – I.Q.) aholisi qalbini zabit etmasdan hali hech kim sultanatga hukmron-vang<sup>168</sup> bo'limgan".

<sup>168</sup> Vang — xitoycha so'z bo'lib, "hukmdor", "podshoh" degani. Qadimgi xitoy tilida u "saltanaiga hukmron bo'lmoq"





---

Odamlarga ezgulikni o'rgatgan inson ahli jahon qalbini zabit eta olgay.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Bema'ni so'z bexosiyatdir. Bunday bexosiyatliklar uchun xushaxloq va salohiyatlari kishilarni juvonmarg qilgan kimsalar javob beradilar".

\*\*\*

Meng-zining shogirdlaridan biri Syuy-zı shunday debdi: "Jo'ng-Ni (Konfutsiy) ko'p bora suvdan zavqlanib "O, suv! O, suv!" deya xitob qilganlar. Suvdan qanday ibrat olganlar?"<sup>169</sup>

Meng-zı shunday javob beribdi: "Buloq-chashmalar suvlari sharillab, kechayu kunduz tinmay oqadi, yo'lida uchragan o'ydim-chuqur yerlarni to'ldirgandan so'ng yana olg'a yurishda davom etib oqib borib to'rt dengizga quyiladi. Manbai bor narsalarning hammasi shunday, Ko'ng-zı (Konfutsiy) suvning shu jihatidan ibrat olgan.

Agar manbai bo'lmasa, yilning yettinchi-sakkizinchisi oylari oralig'ida yog'adigan yomg'irga o'xshab, garchi bir yerga to'planib ariq va zovurlarni to'ldirsa ham, lekin darrov qurib qoladiki, buni o'sha yerda ozgina kutib tursangiz ham ko'rishingiz mumkin bo'ladi.

Shu bois nufuzi va dovrug'i aslidagidan oshirib yuborilishidan olijanoblar or qiladilar!"

---

Nufuzi va dovrug'inining aslidagidan oshirib yuborilishi olijanoblar uchun isnoddir!

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Insonning hayvondan farqi jindekkina, olomonga aylanganlar uni boy berdilar, olijanoblar esa uni saqlab qoldilar.

degan ma'noni anglatgan. Umuman, "vang" Meng-zining idealidagi qobil podshoh obrazidir.

<sup>169</sup> Ba'zi kitoblarda ikkinchi xil tarjima uchraydi: "Suvning qay jihat u kishiga manzur bo'lган?"



Donishmand Shunga ko'p narsa ayon edi, odamgarchilikni tushunardi (qadrlardi – I.Q.), shu bois insonparvarlik vaadolat yo'lidan yurdi, ammo insonparvarlik vaadolatni zo'rma-zo'raki amalgalashirgan emas".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Podshoh Yuy sharobdan hazar qilguvchi, ezgu so'zning esa gadosi edi.

Podshoh Tang avsat a'loga<sup>170</sup> qattiq amal qildi, rasmiyatchilik usullariga mukkasidan ketmay fozilu qobil kishilarning martabasin ko'tardi.

Podshoh Ven-vang xalqiga jarohatlangan kishiga qaragandek qarardi, haq yo'lga xuddi uni ko'rmagandek termulardi.

Podshoh Vu-vang yaqinlariga iltifotsizlik ko'rsatmadi, uzoqdagilarni ham esdan chiqarib qo'ymadidi.

Podshoh Jou-go'ng esa Sya, Shang, Jou – uch sulola donishmand podshohlarining go'zal xulqlarini o'zida mujassamlashtirib yuqorida nomlari zikr etilgan to'rtovlonning ishlarini amalgalashirish haqida o'yldi. Nazarida nimadir nomuvofiqdek tuyuladigan bo'lsa, boshini ko'tarib u haqda mulohaza yuritar, hatto tunlarni kunga ulab o'ylashda davom etardi. Agar baxtiga murodi hosil bo'lsa, (uni ro'yobga chiqarish uchun – I.Q.) bedor o'tirib tong otishini kutardi".

\*\*\*


Meng-zi dedi: "Olijanoblardan qolgan odatlar besh avloddan so'ng yo'qoladi. Oddiy odamlarning odatlari ham besh avloddan so'ng yo'qolib ketadi.

Menga Ko'ng-zi (Konfutsiy)ning shogirdi bo'lish nasib etmagan, zimdan boshqa odamlardan o'zlashtirib olganman".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Olishi mumkin, olmasa ham bo'lardi, baribir oldimi – vijdoniga ziyon; berishi mumkin, bermasa ham bo'lardi, baribir berdimi – himmatiga ziyon; o'lib ketishi mumkin, o'lmay qolishi ham mumkin, o'zini o'limga tutib berdimi – mardligiga ziyon".

<sup>170</sup> Avsat a'lo – o'rta yo'l, mo'tadillik, har bir ishda me'yomi bilish.



\*\*\*

Meng-zı dedi: "Agar sohibjamol Si-zi<sup>171</sup> egniga isqirt narsa yopishsa, hamma odamlar uning yonidan burunlarini bekitib o'tib ketishadi. Xunuk odam bo'lsa-da, parhez qilib va cho'milib poklansa, Falak Hukmdoriga<sup>172</sup> qurbanlik qilsa ham bo'ladi".

\*\*\*

Chi podsholigi dafu-to'ralaridan Go'ng Xang-zı degan kishi o'g'lining dafn marosimini o'tkazibdi. O'ng ustoz<sup>173</sup> (Vang Huan) ta'ziya bildirgani kelibdi, eshikdan kirar-kirmas bir necha kishilar u bilan gaplashgani yugurib peshvoz chiqibdilar; uyning to'riga o'tirgach, yana bir nechasi u bilan gaplashgani kelibdi. Meng-zining o'zi bilan so'zlashmayotganini ko'rgan o'ng ustoz araz qilib debdi: "Asilzoda-to'ralarning barchasi kelib kamina Vang Huan bilan so'zlashdi-yu, yolg'iz Meng-zigina men bilan gaplashmadi. Bu uning meni nazar-pisand qilmasligidir!"

Buni eshitgan Meng-zı shunday debdi: "Taomillar odobiga ko'ra, saroyda mavqe doirasidan chetga chiqib ketmagan holda bir-birlari bilan so'zlashurlar, martabalaridan oshirib yubormay o'zaro qo'shqo'llab ta'zim qilinur. Men taomilga amal qilmoqchi bo'ldim, xolos, Zi-Aoning bo'lsa xuddi men uni pisand qilmadi degan xayolga borishi g'alati emasmi?"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Olijanoblarning o'zgalardan farqi qalbini pok saqlay olganlarida. Olijanoblar qalbni rahmdillik (insonparvarlik) bilan ehtiyyot qiladilar, adab-taomil bilan ehtiyyot qiladilar. Rahmdil kishi o'zgalarni sevadi, odobli kishi boshqalarni hurmat qiladi. Kimki o'zgalarni sevsta, odamlar uni ham hamisha sevadilar; kimki odamlarni hurmat qilsa, odamlar ham uni hamisha hurmat qiladilar. Tasavvur qiling, bu yerda bir kishi sizga qo'pollik va surbetlik qilayapti. Olijanoblar bunday vaziyatda, albatta, o'zlariga shunday savol beradilar: "Ehtimol, men unga yetarli darajada odamgarchilik qilmagandirman, hurmatini joyiga qo'ymagandirman. Bo'lmasa, u menga shunday qilarmidi?" Olijanoblar

<sup>171</sup> Si-zi – Xitoy tarixidagi Bahor-Kuz davri Yue podsholigida yashagan sohibjamol ayol Si-shi, bu yerda u go'zal ayollar obraziga ishora.

<sup>172</sup> Falak Hukmdori – xitoycha "shang-di", ma'nosi xudo, tangri degani.

<sup>173</sup> O'ng ustoz – bu yerda to'ralardan Vang Huan nazarda tutilgan, hurmatli nomlari Zi-Ao. Qadimgi Xitoyda "o'ng" deyilganda "ancha hurmatli mavqe"ga ishora qilingan, "chap" esa mavqening nisbatan quyiroq ekanligini bildirgan.




xatolari ustida o'ylansalar o'zlarini rahmdillikka loyiq deb hisoblaydilar, xatolari ustida o'ylansalar o'zlarini odobli hisoblaydilar. Haligi kimsa tag'in qo'pollik va beadablik qilaversa, olijanoblar yana o'ylab qoladilar: "Yetarlicha samimiy bo'lomaganim aniq". Olijanoblar xatolari ustida fikr qilsalar o'zlarini samimiy hisoblaydilar. Haligi kimsa tag'in shunday qo'pollik va adabsizlik qilaversa, olijanoblar shunday deydi: "U g'irt axmoq odam ekan, xolos! Bundaylarning hayvondan nima farqi bor? Hayvonlarning nimasidan gina qilasan?"

Ana shu sababdan olijanoblarni tashvishlanish hissi bir umrga tark etmaydi, ularning bir kechalik qayg'usi bo'lmaydi. Ana shunday tashvish bor: donishmand Shun odamdir, men ham odamman. Shun Osmonostidagilarga o'rnat bo'ldi, nomi keyingi avlodlarga yetib keldi. Men bo'lsam, hamon oddiy bir odamligimcha qolib ketayapman, bu tashvishlanishimga arziydi. Tashvishlandim ham deylik, yana nima qilaman? Donishmand Shunga o'xshashga harakat qilish kerak, vassalom! Olijanoblarning qayg'usiga kelsak, u bo'limgan narsa. Ular insonparvarlikka xilof ishlarga qo'l urmaydilar, beadablik ham qilmaydilar. Mabodo bir kechalik qayg'usi bo'lganda ham, olijanoblar bundan qayg'urmaydilar".

\*\*\*

Go'ng Du-zi ismli kishi Meng-zidan so'rabdi: "Kuang Jang deganlarini butun el noqobil deyishadi, lekin, ustoz, sizning u bilan bordi-keldingiz bor, shu bilan birga unga tavoze qilasiz. Axir nima uchun?"

Meng-zi shunday javob beribdi: "Odatda noqobillik deyilgan holatlar beshtadir. To'rt muchasi sog'-salomat bo'la turib, dangasalik qilib, ota-onasini boqishni parvoyiga keltirmasa, bu birinchi noqobillikdir. Qimor va ichkilikka mukkasidan ketib, ota-onasini boqishni parvoyiga keltirmaslik ikkinchi noqobillikdir. Molu davlatga o'ch bo'lib, faqat xotini va bolalarini o'ylab, ota-onasini boqishni parvoyiga keltirmaslik, bu uchinchi noqobillikdir. Quloq-ko'zları keltirib chiqargan nafsiga erk berib, ota-onasiga isnod keltirish to'rtinchi noqobillikdir. Janjal-to'polonlarda o'zini mardi maydon qilib ko'rsatishni yaxshi ko'rib, ota-onasini xavf-xatarga qo'yish beshinchi noqobillikdir. Jang-zida (Kuang Jangda) ularning birontasi bormi? Jang-zi, ota-o'g'il ikkisi yaxshilik talabida bir-birlari bilan chiqisholmaydilar. Yaxshilikka undash esa do'stu birodarlarning tutgan yo'lidir. Ota-o'g'il o'rtalarida shu tarzda bir-birlariga yaxshilik talabida bo'lish tuyg'ularga katta ziyon-zahmat yetkazadi. Er-u xotin, ona-bolalar jam bo'lishini Jang-zi nahot istamasa?! Bir gal otasining ko'nglini og'ritib qo'yib, unga yaqinlasholmay yurdi, shuning uchun xotini va bolalarini uydan chiqarib yubordi, ularning parvarish qilishlarini





rad etdi. Agar ko'nglida shunday niyati bo'Imaganida, uning aybi yanada kattaroq bo'lardi. Jang-zি ana shunaqa odam, xolos".

\*\*\*

Zeng-zи Ucheng<sup>174</sup> shahrida yashardi, kunlarning birida Yue davlati qo'shinlari bostirib kelibdi. Bir kishi Zeng-ziga debdi: "Yog'iy bostirib kelayotir, nega bu yerdan ketmayapsiz?"

(Shundan so'ng Zeng-zи rozi bo'libdi, ketar chog'i xizmatkorlariga tayinlab – I.Q.) debdi: "Odamlar mening uyimga kirib joylashib olishlariga yo'l qo'y manglar, anavi daraxtlarimni nobud qilishadi". Bosqinchilar chekinishga tushgach u (xizmatkorlariga – I.Q.) yana debdi: "Devor va uyimni ta'mirlanglar, men qaytmoqchiman". Bosqinchilar chekinishi bilan Zeng-zи ham qaytib kelibdi. Bundan norozi bo'lgan atrofidagi kishilardan biri shunday debdi: "Vu-cheng shahar ahli, ustoz, sizga sadoqatli, boz ustiga nihoyatda hurmat qiladi. Bosqinchilar kelishi bilanoq birinchilardan bo'lib shaharni tashlab chiqib ketganingizni butun xalq ko'rди (xalqqa yomon o'rnak bo'ldingiz – I.Q.); bosqinchilar chekinishi bilan esa darrrov ortingizga qaytishingiz, balki, yaxshi emasdir".

Shu yerda hozir bo'lganlardan Shen-You Sing<sup>175</sup> deganlari ustozining yonini olib shunday debdi: "Sizlar buning ma'nisini tushunmaysizlar. Bir vaqtlar ustoz menikida yashaganda, Uchu<sup>176</sup> otliq bir baloga yo'liqqanda, ustozga ergashib yurgan yetmish kishidan hech kim oraga tushmagan".

Zi-si Vey podsholigida yashardi, kunlarning birida Chi qo'shinlari bostirib kelib qolibdi. Kimdir Zi-siga: "Yog'iy bostirib kelayapti, nega bu yerdan ketmayapsiz?" deganida, u: "Agar men ham qochib ketsam, podsho kim bilan shaharni mudofaa qiladi?" deya javob bergen ekan.

Meng-zи dedi: "Zeng-zи va Zi-sining yo'llari mushtarakdir. Zeng-zи ustoz edi, shuningdek, (shogirdlari uchun muhtaram – I.Q.) ota va og'a edi. Zi-si bo'lsa amaldor edi, haqir edi. Agar Zeng-zи va Zi-si o'rinalarini almashganda, aminmanki, baribir shunday qilishgan bo'lishardi".

\*\*\*

<sup>174</sup> Ucheng – Lu podsholigiga qarashli shahar.

<sup>175</sup> Shen-You Sing – Zeng-zining shogirdi.

<sup>176</sup> Uchu – kishl ismlı.



Chi podsholigining bosh maslahatchisi Chu-zi Meng-ziga debdi: "Podsho sizga mo'ralagani odam yo'llaydilar, boshqalardan farqli jihatingiz bormi?"

Meng-zi shunday javob beribdi: "Boshqalardan qanday farqim bo'lsin? Hatto donishmand hukmdor Yao va Shunlar ham boshqalarga o'xshagan odamlar bo'lishgan".

\*\*\*

Chi podsholigida bir kishining ikki xotini bo'lgan ekan, ular bir uyda yashashardi. Er bo'l mish uydan chiqib ketsa, albatta, qayerlardandir qornini qappaytirib, sharobga bo'kib qaytardi. Katta xotin undan kimlar bilan shunchalik yeb-ichdingiz deb so'ragudek bo'lsa, boy va martabali zotlar meni mehmon qildi, deb javob berarkan.


Bir kuni boybucha (katta xotin) to'qolga (kichik xotinga) ko'nglini yorib debdi: "Xojamiz uydan chiqib ketadilaru, qayerdandir qorinlarini rosa to'yg'izib, sharobxo'rlik qilib qaytadilar. Agar kimlar bilan yeb-ichdingiz, deb so'ragudek bo'lsam, nuqlu badavlat va martabali odamlar meni siylab mehmon qildilar, deydilar. Ammo xonadonimizga hech qachon aslzoda zotlar tashrif buyurishmagan. Men erjonimizni sezdirmaygina kuzatmoqchiman, qani, ko'raylik-chi, qayoqqa borayotgan ekanlar?"

Ertasi kuni tong azonda o'rnidan turib, erining ketiga tushibdi. Shahar bo'ylab borishar ekan, hech kim to'xtab u bilan so'zlashmabdi. Vanihoyat shaharning sharqiy chekkasidagi qabristonga yetib kelishibdi. Haligi odam bu yerga qurbanlik qilgani kelganlarning oldiga borib, ulardan ovqat sarqitlariyu ichimlik qoldiqlarini tilana boshlabdi. Agar bular bilan nafsi qonmasa, atrofga olazarak qarar, qayerda sarqit bo'lsa, o'sha yerga borib tilanchilik qilardi. Qornini to'ydirib, sharobga bo'kib yurishining sababi bu yoqda ekan-da!

Boybucha uyga qaytib bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay to'qolga so'zlab berib debdi: "Sho'rimiz quribdi! Biz ne-ne orzu-umidlar bilan umrimizni baxshida etgan, suyangan tog'imiz deb yurgan erjonimizning bugun ahvollarini bir ko'rsangiz edi!" Shunday qilib boybucha va to'qol ikkisi erlarini qarg'ay-qarg'ay hovlisida yum-yum yig'lay boshlabdilar.

Bu orada er bo'l mish hech narsadan xabari yo'q, mag'rur qiyofada tashqaridan kirib kelibdi hamda xotinlariga gerdayib ko'z yoshi qilib o'tirganlari uchun ularga ta'na qila ketibdi.

Olijanoblar nazarida, odamlarning yalinib-yolvorib boylik-martabaga erishishlaridan xotinlari uyalmagan, yig'lamagan hollar nihoyatda kam uchraydi.



## TO'QQIZINCHI BOB

Van Jang. Avvalgi qism

Van Jang<sup>177</sup> Meng-zidan so'rab debdi: "Oqsoqol Shun dalaga yo'l olib, Falakka yuzlanib ho'ng-ho'ng yig'lardi. Nima uchun u bunchalik ho'ngrab yig'lagan?"

"Anduh va qo'msash sabab", – debdi Meng-zি.

Van Jang debdi: "Mashoyixlar shunday deganlar: "Ota-onang seni yaxshi ko'radilar, bundan xursand bo'l, lekin taltayib ketma; ota-onang sendan bezor bo'lsalar, ularni ovutgin, lekin aslo nolimagine".<sup>178</sup> Agar shunday bo'lsa, Shun ota-onasidan hasrat qilganmi?"

Meng-zি shunday javob beribdi: "Chang Si ustoz Go'ng-Ming Gaoga<sup>179</sup> murojaat qilib debdi: "Shunning dalaga ketib qolganini sizdan eshitish sharafiga muyassar bo'ldim, ammo uning Falakka zorini qilib ho'ng-ho'ng yig'lagani ota-onasiga daxldorligin tushunmayapman".

Go'ng-Ming Gao unga debdi: "Bu sen tushuna oladigan narsa emas". Go'ng-Ming Gao, qobil farzandning qalbi bunday beg'am bo'lmaydi, deb hisoblaydi: men bor kuchim bilan yer haydayman, hurmatlarini joyiga qo'yib farzandlik burchimni bajarsam bo'lgani. Ota-onam meni yaxshi ko'rmasa, ilojim qancha?"

Podshoh Yao o'z bolalari – to'qqiz o'g'li, ikki qizini, katta-kichik amaldorlarni sigiru qo'y, yeguliklardan olib Shunning xizmatini qilish uchun dalaga yubordi; Osmonostidagi (saltanatdagi – I.Q.) ziyoilarning ko'pchiligi unga panoh istab keldi; podshoh Yao hatto butun Osmonostini (saltanatni – I.Q.) Shunga bermoqchi bo'ldi.

Lekin ota-onasining ko'nglini ololmagan (ota-onasiga yoqishni eplolmagan – I.Q.) Shun boshpanasiz gadoya o'xshardi.

Osmonostidagi bilimdon zotlar uning ko'nglini ko'tarishga urinar, barcha odamlarning istagi shu edi, lekin bularning hech biri Shunning ko'nglidan g'am-anduhni chiqarib tashlashga kifoya qilmasdi; shahvoniylarha hamma odamlarda mayl bor, podshohning ikki qiziga uylandi, lekin Shun uchun ko'nglidagi g'am-anduhlarni chiqarib tashlashga bu ham yetarli bo'lindi; boy-badavlat bo'lisl – odamlarning orzusi, Shun shu qadar boy ediki, butun saltanatga ega edi, lekin bu ko'nglidan g'am-anduhni chiqarib tashlashga kifoya qilmadi; mashhurlikni hamma ham istaydi, Shun shu qadar mashhur ediki, Osmon O'g'li (podshoh – I.Q.) bo'ldi, holbuki bu ham uning ko'nglidagi

<sup>177</sup> Van Jang – Meng-zining shogirdi, Chi podsholigidan bo'lgan.

<sup>178</sup> Bu Xitoy donishmandlaridan biri Zeng-zining so'zlari, "Odobnama" asarida qayd etilgan.

<sup>179</sup> Chang Si – Go'ng-Ming Gaoning shogirdi, Go'ng-Ming Gao esa Zeng-zining shogirdi.



g'am-anduhni chiqarib tashlashga kifoya qilmadi. Odamlarning uni xursand qilishlari, shahvoniylig, boylik va mashhurlik – hech biri uning ko'nglidan g'am-anduhlarini chiqarib tashlashga kifoya qilmasdi, birgina ota-onasining ko'ngliga yo'l topish o'zining ko'nglidan g'am-anduhlarini chiqarib tashlashga qodir edi.

Odamlar yoshliklarida ota-onalarini qo'msaydilar, ulg'ayib ehtiroslari uyg'onganini bilgach, yosh nozaninlarni qo'msaydigan bo'lib qoladi; xotin va bola-chaqali bo'lgach, ularni qo'msaydi; kimki amaldor bo'lsa, podshosini qo'msaydi, podshoning iltifotiga sazovor bo'lomasa, ichi qiziydi (bezovtalanadi – I.Q.).

Buyuk qobillik – ota-onasini butun umr qo'msashdir!

Ellik yoshda ham mudom ota-onasini qo'msaganni men Buyuk Shunda ko'rdim".

- Donishmandlardan biri Zeng-zi shunday degan edi: "Ota-onang seni yaxshi ko'radilar, bundan xursand bo'l, lekin taltayib ketma; ota-onang sendan bezor bo'lsalar, ularni ovutgin, lekin aslo ulardan zorlanmagin".
- Ota-onasining ixlosi qaytgan farzand bamisoli boshpanasiz gadoydir. (Ota-onasiga nomatlub farzand bamisoli boshpanasiz gadoydir!)
- Buyuk qobillik – ota-onasini butun umr qo'msashdir!

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Falak so'zlamaydi, harakat va voqeliklar bilan ogoh etadi, xolos".


\*\*\*

Van Jang so'radi: "Ba'zilarning aytishlaricha, Ko'ng-zi Vey podsholigida podsho Ling-go'ngning arzanda amaldorlaridan Yo'ng Jyuy<sup>180</sup> xonadonida, Chi podsholigida esa Chi podshosi Jing-go'ngning arzanda amaldori saroy og'asi Ji Huan<sup>181</sup> xonadonida yashagan ekanlar. Shunday bo'lganmidi?"

Meng-zi shunday javob beribdi: "Yo'q, unday bo'lman. Bu o'zgalarning ishiga burun suqishni yaxshi ko'radigan g'alamislarning uydirmasi. Ko'ng-zi Vey

<sup>180</sup> Yo'ng Jyuy – Vey podshosining suyukli saroy amaldorlaridan biri.

<sup>181</sup> Ji Huan – Chi podshosining suyukli amaldori.





podsholigida Yan Chou You<sup>182</sup> xonadonida yashagan. Vey podshosining suyukli saroy a'yon Mi-zining<sup>183</sup> rafiqasi Zi-luning<sup>184</sup> rafiqasi bilan opa-singil edilar. Mi-zi bir safar Zi-luga shunday degan: "Ko'ng-zi menikida yashasa, Chi podsholigi vazirlik maqomiga erishadilar". Zi-lu uning gaplarini ustoziga yetkazibdi. "Taqdir – haq!", ("Nimagadir erishish-erishmaslik taqdirdan". – I.Q.) debdi bunga javoban oddiygina qilib Ko'ng-zi.

Ko'ng-zi odob bilan xizmatga kirdi, insof bilan xizmatdan chekindi. Unga (amal-martabaga – I.Q.) erishish-erishmaslikni taqdirga havola etdi, har doim "Taqdir – haq!" derdi.

Agar Yo'ng Jyuy va saroy og'asi Ji Xuanlar xonadonida yashaganida, bu noinsoflik (adolatsizlik) va taqdirga bepisandlik bo'lur edi.

Ko'ng-zi Lu va Vey podsholiklaridan mammun emasdi. Bu orada boshiga yana bir tashvish tushadi: So'ng podsholigidan bo'lgan sayisboshi<sup>185</sup> Xuan Tuy degan bir nobakor yo'lni to'sib unga suiqasd qilmoqchi bo'ladi. Ko'ng-zi oddiy odamning kiyimlarini kiyib, So'ng podsholigidan o'tib oladi. O'shanda Ko'ng-zi xavf-xatar ostida edi, qal'a noibi Jen-zi<sup>186</sup> xonadonida qo'noq bo'ladi, Chenlik Hou Jouning<sup>187</sup> vaziri bo'ladi.

Yaqindagi amaldorni ko'rganda, mehmoni kimligiga boq; olisdan kelgan amaldorni ko'rganda, mezboni kimligiga boq, deb eshitganman.

Ko'ng-zi agar Yo'ng Jyuy va saroy og'asi Ji Xuanlarning mehmoni bo'lganida, tag'in Ko'ng-ziliqi qolarmidi?"

### O'NINCHI BOB

Van Jang. Keyingi qism

Meng-zi dedi: "Bay-I bemaza ohangjamalarga qiyo boqib ham qaramagan, yoqimsiz tovushlarga quloq ham solmagan. Orzusidagidek bo'limgan podshohga xizmat qilmagan, orzusidagidek bo'limgan elni hech nimaga buyurmagan. Saltanat osoyishtaligida xizmatga kirib, notinchlik boshlanishi bilan uzlatga chekingan. Zolimliklar urchigan va zolimlar turgan yerlarda yashashga toqati yo'q edi. Uning

<sup>182</sup> Yan Chou You – Vey podsholigining iste'dodli to'ralaridan biri.

<sup>183</sup> Mi-zi – Vey podshosi Ling-go'ngning suyukli saroy a'yon.

<sup>184</sup> Zi-lu – Konfutsiyning shogirdi.

<sup>185</sup> G'arbiy Jou sulolasi zamonida joriy qilingan mansab nomi, harbiy qo'shin boshqaruvi va ta'minoti bilan shug'ullangan.

<sup>186</sup> Jen-zi – Chen podsholigidan bo'lgan, qal'a noibi.

<sup>187</sup> Chenlik Hou Jou – Chen podshosi Huay-go'ngning o'g'li, ismi Jou.



fikricha, bir omi qishloqi bilan birga yashash saroy liboslariyu qalpog'ini kiyib olib loy va kul ustida o'tirgan bilan barobar. Zolim podshoh Jou davrida u Shimoliy dengiz (Beyxay) sohillarida yashab, Osmonostining tinishini (osoyishtaligini, ro'shnolikka chiqishini – I.Q.) kutardi.

Shu bois Bo-I haqida eshitgan baxil kimsalar insofli, qat'iyatsiz kimsalar irodali bo'lib qoladilar.

I In shunday der edi: "Ko'nglidagidek bo'limgan podshoga xizmat qilsa nima bo'pti? Ko'nglidagidek xalqni biror nimaga buyursa nima bo'pti?" Saltanat osoyishtaligida ham, notinchligida ham xizmat vazifasiga kirishaveradi. "Osmon xalqlarni yaratdi, keyinroq biluvchilarga haqiqatni tushuntirishni (yoki to'g'ri yo'lga boshlashni – I.Q.) oldindan biluvchi kishilar ko'ngliga soldi, oldindan tushunganlarni keyinroq tushunadiganlarni g'aflatdan uyg'otishga undadi. Men Osmonostidagi xalqlar ichra oldindan tushunadiganlardandirman! Men shunday yo'l bilan bu xalqqa tushuntiraman!" degan edi u. Uning fikricha, agarki osmonostidagi xalq ichra Yao va Shunlar muruvvatidan bebahra biron erkak yo ayol bo'lsa, xuddiki uning o'zi ularni chohga itarib yuborgandek edi – u naq Osmonostidagi og'ir yukni o'z elkasiga ortib olgandi.


Lyu Sya Xuey murdor podshoga xizmat etishdan ham or qilmasdi, mayda amaldorlikdan ham bosh tortmasdi. Xizmatga kirishganda o'z aql-zakovati va salohiyatini yashirmsadi, albatta, o'z aqidalariga amal qilardi. Undan yuz o'girsalar ham nolimasdi, musibat va muhtojlikka yo'liqsa ham qattiq qayg'urmasdi. Bir omi qishloqi bilan birga yashasa, o'zini bamaylixotir tutadi hamda tashlab ketgani ko'ngli bo'lmaydi. U shunday derdi: "Siz – sizsiz, men – menman, boringki, qip yalang'och yonimda turibsiz ham deylik, meni qanday qilib bulg'ashingiz mumkin?"

Shu bois Lyu Sya Xueyning daragini eshitgan iltifotsiz kimsalar ham olihimmat, loqayd kimsalar ham mehribon bo'lib qolishadi.

Ko'ng-zi (Konfutsiy – I.Q.) Chi podsholigini tark etayotganida yuvayotgan guruchini shartta suzib olib yo'lga tushgan ekanlar; ona yurti Luni tark etayotganida esa shunday degan ekanlar: "Asta-asta yuraylik!" Bu Vatanni tark etish tariqasidir. Ko'ng-zi shoshilish joiz bo'lgandagina shoshiladigan, hayallah joiz bo'lgandagina hayallaydigan, tinish joiz bo'lgandagina tinadigan, amaldor bo'lish joiz bo'lgandagina amaldor bo'ladigan odam edilar".

Meng-zi dedi: "Bo-I donishmandlarning pokdomoni edi; I In donishmandlarning mas'uliyatlisi edi; Lyu Sya Xuey donishmandlarning muloyimi edi; Ko'ng-zi donishmandlar orasida har narsaning mavridini bilguvchisi edi..."

Donolikni mahoratga qiyos qilsa, donishmandlik bamisolik kuchdir.





Yuz qadam nardan turib kamon o'qini nishonga yetkazish, bu – sening kuchli ekanligingdir, uni nishonga tekkazish, bu endi sening kuchli ekaningdan emas”.

\*\*\*

Meng-zı dedi: “Kishining amaldor bo'lishi kambag'alligi uchun emas, lekin ba'zan kambag'al bo'lganligi uchun hamdir. Xotinni ota-onani boqish uchungina olmaydilar, lekin ba'zan ota-onani boqish uchungina ham uylanadilar. Kambag'alligi uchun amaldorlik qiladiganlar izzat-ikromni rad etib, g'ariblikda yashashi, boylikdan voz kechib, g'aribona hayot kechirishi kerak. (Ikkinchi talqin: “Kambag'alligi uchun amaldorlik qiladiganlar katta martabalarni rad etib, mayda amaldor bo'lishlari, mo'may maoshdan voz kechib, faqat andak moyana olib kun ko'rishlari kerak”. – I.Q.)

Yuqori martabani rad etib, quyi vazifani egallasa, boylikdan voz kechib, hamingadar kun ko'rsa, unda nima qilsa yarashadi? Qorovul-darvozabon va tungi posbon bo'lishi mumkin.

Ko'ng-zı (Konfutsiy) bir vaqtlar ombor nazoratchisi bo'lgan, o'shanda shunday degan edi: “Barcha hisob-kitoblar to'g'ri kelsa bo'Igani”. Ko'ng-zı qo'rabsoshilik ham qilgan chog'lari shunday derdilar: “Sigir va qo'yalar tetik hamda semiz bo'lsa bas”.

Mavqeい past bo'la turib, saroyning katta ishlarini muhokama qilish gunohdir. Podsho saroyida xizmat qila turib, lekin to'g'ri yo'lni tatbiq qila olmaslik (haqiqatni ro'yobga/ yuzaga chiqara olmaslik – I.Q.) sharmandalikdir”.

\*\*\*

Meng-zı Van Jangga nasihat qilib debdi: “Bir muzofotning ajoyib arboblari shu bir muzofotning ajoyib arboblari bilan do'stlashadi; bir podsholikdag'i ajoyib arboblari shu bir podsholikning ajoyib arboblari bilan do'stlashadi; Osmonostidagi ajoyib arboblari Osmonostidagi ajoyib arboblari bilan do'st tutinadi. Osmonostidagi ajoyib arboblari bilan do'stlashishdan kifoyalanibgina qolmay, yanada yuksal va qadimgi daho zotlarni o'rgan. She'rlarini kuylab, kitoblarini mutolaa qilib, lekin ularning qanday inson ekanliklarini bilmasdan bo'lurmi? Shu boisdan ular yashagan davrni o'rganmoq kerak. O'tmishni yod etib qadimgilar bilan do'stlashish ayni shudir”.

\*\*\*



Chi podshosi Syuan-vang a'yonlar haqida so'raganida, Meng-zi unga shunday savol bilan murojaat qilibdi: "Podsho qanday a'yonlar haqida so'rayaptilar?"

"A'yonlar ham har xil bo'lishadimi?" deb so'rabdi podsho.

"Albatta, har xil bo'lishadi. Zoti sharif podsholar naslidan bo'lgan a'yonlar bor, podsholar nasliga yot boshqa urug'dan bo'lgan a'yonlar ham bo'ladi".

"Marhamat qilib, zoti sharif a'yonlar haqida so'zlasangiz", debdi podsho.

Meng-zi shunday debdi: "Podsho katta xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, unga nasihat qilib insofga chaqiradilar; Qayta-qayta nasihat qilgan bilan podsho baribir ularga qulq solmasa, shundagina uning o'rniga taxtga boshqa podshoni o'tqazishgan".

Buni eshitgan podshoning birdan tusi o'zgaribdi.

Meng-zi debdi: "Podsho ranjimasinlar. Axir podsho kaminalaridan so'radilar, kaminangizning to'g'ri javob bermaslikka haddi sig'mas".

Podshoning yuzlarida xotirjamlik alomatlari zohir bo'libdi, shundan so'ng podsholar nasliga yot boshqa urug'lardan bo'lgan a'yonlar to'g'risida so'rabdi.

Meng-zi shunday debdi: "Podsho katta xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, ular podshoga nasihat qilurlar; qayta-qayta nasihat qilsalar-da, lekin podsho ularga qulq solmasa, unda ularning o'zлари saroyni tark eturlar".

#### O'N BIRINCHI BOB

Gao-zi. Avvalgi qism

Gao-zi<sup>188</sup> dedi: "Inson tabiatini qirmizi tol daraxtiga<sup>189</sup> qiyos qilsa bo'ladi, adolatni esa – kosacha va yog'och likopchaga. Inson tabiatiga tayanib insonparvarlik va adolatga erishish xuddi qizil toldan kosacha va likopcha tayyorlashga o'xshaydi".

Meng-zi dedi: "Sen qizil tol daraxtining tabiatiga muvofiq kosacha va likopcha yasay olasanmi? Yoki qizil tolni nobud qilib, so'ngra undan kosacha va likopchalar tayyorlaysanmi? Agar qizil tolni nobud qilib idishlar yasash kerak bo'lsa, demak, odamlarni nobud qilish bilangina insonparvarlik va adolatni qaror toptirmoqchimisan? Osmonostidagi odamlarni insonparvarlik va adolatni nobud qilishga boshlaydigan, albatta, sening mana shunday so'zlarindir!"

\*\*\*

<sup>188</sup> Gao-zi – hayoti noma'lum, o'sha davming yana bir allomalaridan biri Mo'-zining shogirdi bo'lsa kerak, Meng-ziga nisbatan yoshi katta bo'lgan.

<sup>189</sup> Qirmizi tol daraxti – tol daraxti turlaridan biri.



Gao-zi dedi: "Inson tabiatini shiddatli suv oqimiga qiyos qilsa bo'ladi: sharqidan raxna solsa mashriqqa qarab oqadi, g'arbidan raxna solsa mag'ribga qarab oqadi. Inson tabiatini ezgu va yovuz deya farqlanmaydi, xuddi suvning mashriq yoki mag'ribga oqishining farqi bo'limganidek".

Meng-zí dedi: "Suv uchun, haqiqatan ham, mashriqqa qarab oqadimi yo mag'ribga qarab, farqi yo'q; nahotki yuqori va pastga qarab oqishida ham farq bo'lmasa? Inson tabiatining ezguligi bamisol suvning doim pastga qarab oqishidir. (Tug'ilganida — I.Q.) insonlarning (tabiatan — I.Q.) yovuzlari bo'limgani kabi pastga qarab oqmaydigan suv ham bo'lmaydi.

Hozir shu yerda suv bor deb tasavvur qil. Agar uni urib sachsatsang, odamning manglayidan oshirish mumkin; agar uni bo'g'ib baland ko'tarsang, tog'lar barobar o'rlatish mumkin. Suvning tabiatini shundaymikan? Uni sharoit shunga majbur qilgan.

Odamni yovuzlik qilishga majburlash mumkin, bunda uning tabiatini bilan ham ana shunday hol ro'y beradi".

\*\*\*

Go'ng Du-zi<sup>190</sup> dedi: "Gao-zining aytishicha, inson tabiatini ezgu ham, yovuz ham emas (inson tabiatida ezgulik va yovuzlik nishonalar yo'q — I.Q.).

Ba'zilar aytdilarki, inson tabiatini ezgu qilish mumkin, yovuz qilish ham mumkin; shu bois rahmdil podshohlar Ven-vang va Vu-vanglar<sup>191</sup> hukmdorlik qilgan davrda xalq ham ezgulikni sevardi; zolim podshohlar You-vang va Li-vanglar<sup>192</sup> hukmdorlik qilgan davrda esa xalq ham shafqatsizliklarga o'ch (jaholatparast — I.Q.) bo'lib qoldi.

Yana birlari shunday deya da'vo qildilar: "Ba'zilar tabiatan tug'ma ezgu, ayrimlar tabiatan tug'ma yovuz bo'ladi; shuning uchun Yaodek donishmand podshohlar bor, Syangdek<sup>193</sup> yaramaslar ham; Gu Soudek noqobil otaning holbuki Shundek qobil o'g'li

<sup>190</sup> Go'ng Du-zi – Meng-zining shogirdi.

<sup>191</sup> Ven-vang (er. avv. 1152 – er. avv. 1050-yy.) – ismi Ji Chang, Jou sulolasining asoschisi; uning o'g'li Vu-vang (ismi Ji Fa, er. avv. 1087 – er. avv. 1043 yy., hukmdorlik yillari: er. avv. 1046 – er. avv. 1043-yy.) Shang sulolasiga barham beradi, G'arbiy Jou sulolasini asoschisi hisoblanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Ven-vang va Vu-vanglar donishmand podshohlar bo'lishgan. Ularning nomini Konfutsiyning "Muhotkama va bayon" asarida ham uchratishimiz mumkin. Bundan ko'rindaniki, Konfutsiy ham, Meng-zí ham zamondosh podshohlarga o'igan dono podshohlarni ibrat qilib ko'rsatgan. Bu kabi yondashuvni Firdavsiyda, Navoiyda ham uchratamiz.

<sup>192</sup> You-vang (hukmdorlik yillari: er. avv. 781 – er. avv. 771-yy.), Li-vang (hukmdorlik yillari: er. avv. 877 – er. avv. 841-yy.) — Jou sulolasining zolim podshohlari.

<sup>193</sup> Syang – qadimgi donishmand podshoh Shunning o'gay ukasi. Shunning onasi vafot etgach, otasi ikkinchi marta uylanadi va Syang dunyoga keladi. Syang tabiatan pastkash, qahri qattiq bo'lgan, akasini yomon ko'rgan va o'ladirishga qasd qiladi. Lekin Shun unga nisbatan adovat saqlayman, podshoh bo'lganidan so'ng hatto bir qism yerni Syangga tortiq qilgan.



bor (Gu Soudek noqobil otalar bor, shuning bilan birga Shundek qobil farzandlar ham bor); garchi Joudek<sup>194</sup> nobakor jiyanlar bor, tag'in podshoh bo'lsa, lekin Vey-zi Chi va Vang-zi Bi-Gandek<sup>195</sup> dono og'alar ham bor.

Bugun esa, Ustoz, siz "Inson tabiatи aslan ezgudir!" demoqdasiz. Agar siz aytgandek bo'lsa, unda boshqalarning barcha aytganlari noto'g'rimi?"

Meng-zi shunday javob beribdi: "Aslidagidek bo'lsa, ezgulik qilish mumkin, men aytgan ezgulik (inson tabiatи ezguligi – I.Q.) ayni mana shudir. Ba'zi odamlarning yovuzlik qilishiga kelsak, bu ular tug'ma xislatining xatoligi emasdir.

Achinish va hamdardlikni his qiladigan yurak hammada ham bor; uyat va jirknishni his qiladigan yurak hammada ham bor; hurmat va izzatni his qiladigan yurak hamma odamlarda ham bor; shuningdek, haq va nohaqni his qiladigan yurak hamma odamlarda ham bor.

Achinish va hamdardlik – rahmdillik-jendir (insonparvarlikdir – I.Q.); uyat va (yovuzlikdan – I.Q.) jirknish – haqqoniyatidir (adolatlilikdir); izzat va hurmat qilishlik – odoblilik-lidir; haq-nohaqni ajratish – onglilik (fahmu farosat)dir.

Rahmdillik (insoniylik – I.Q.), haqqoniyat, odoblilik, onglilik (fahm-farosat) – bular "men"imga sirtdan sizib kirmagan, menda ular avval-boshdanoq mavjud edi, faqat bizlar bu haqida fikr yuritmaymiz. Shuning uchun aytadilar-da: "Izlasang — topgaysan ularni, tashlab qo'ysang — yo'qtgaysan ularni!"

Odamlar bilan odamlar orasida bir baravar, besh karra va hatto behisob darajada farqlar bor, bu aynan ba'zi odamlarning tug'ma xislatlarini to'la-to'kis namoyon qila olmaganliklari sabablidir.

"Nazmnoma"da shunday deyilgan:

"Ko'p va xo'p xalqlarni yaratdi Osmon,<sup>196</sup>

Jamiki mavjudot bordir qonuni.

Jomni<sup>197</sup> qo'llarida mahkam tutgan el,

<sup>194</sup> Jou (er. avv. 1105 – er. avv. 1046-yy.) — adabiyotlarda Shang Jou-vang tarzida ham uchraydi, Shang – Shang sulolasи, vang – podshoh degani. Jou – Xitoyning Shang sulolasining so'nggi podshohi, shuningdek, Xitoy tarixidagi zolim podshoh, er. avv. 1075 – er. avv. 1045-yillarda hukmdorlik qilgan. Er. avv. 1046-yil podshoh U-vang (Vu-vang) g'arbdagi o'n bitta mayda davlat sarkardalari bilan birlashib Shang sulolasiga qarshi qo'shin tortadi. Jou o'zini o'tga tashlab halok bo'ladi, shu bilan Shang sulolasи barham topadi.

<sup>195</sup> Vey-zi Chi – Jou sulolasи davridagi So'ng podsholigining asoschisi, ismi Chi. Shang sulolasи aslzodalaridan, Shang podshohи Di-Ining (er. avv. 1101 – er. avv. 1076-yy.) to'ng'ich o'g'li, Shang sulolasining so'nggi podshohи Di-Sin (Jou-vang)ning ota bir, ona boshqa akasi. U Jou-vangga ko'p martalab nasihat qilgan, lekin podshoh unga qulq solmagan. Vey-zi Chi Shang sulolasи qulagach, Jou sulolasida amaldor bo'lib xizmat qiladi, unga So'ng muzofoti suyurg'ol qilib beriladi.

Vang-zi Bi-Gan — Shang sulolasи podshohи Jou-vangning amakisi, ko'p bora Jouga nasihadlar qilgan, oxiri yuragi sug'urib olingan.

<sup>196</sup> Osmon, ya'ni xitoycha "tyen" – qadimgi xitoyliklar tasavvuridagi barcha mavjudotlarning yaratuvchisi; tangri, xudo.

<sup>197</sup> Jom – qadimgi Xitoyda birinj idishlarning umumiyl atalishi, ko'proq ajdodlar ibodatyonalarda nazr-chiroq, ya'ni



Go'zal xulq, axloqni sevmog'i tayin".

Ustoz Ko'ng-zi (Konfutsiy) shunday degandilar: "Ushbu she'rni yozgan inson ulug' Dao-Haqiqat Yo'lini bilgan! Shu sababli bor mavjudotlarning, shubhasiz, muayyan qonuniyatlari ham bo'ladi; xalq uni mahkam tutganligi bois ham go'zal xulqu fazilatlarni yaxshi ko'radi!"

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Bir vaqtlar Buqatog'ning<sup>198</sup> daraxtlari gurkirab yotardi, lekin katta poytaxtning tevaragida joylashgani bois, nuqul odamlar bolta-chopqi bilan kesib ketavergach, tag'in gurkirab tura olarmidi?

Albatta, tog'dagi daraxtlar kechayu kunduz yana tinmay o'saveradi, yomg'ir suvi va shudring tomchilari ularni namlab turadi, kurtak yozib yangi novdalar unib chiqqanlari ham yo'q emas.

Lekin yana kimdir darrov mol-qo'yalarini haydar kelib o'tlatadi, shuning uchun ham tap-taqirdek bo'lib qolgan. Odamlar uning tap-taqirligini ko'rib, Buqatog'da hech qachon azim daraxtlar o'smagan deb o'ylaydilar. Nahot tog'ning xosiyati (tabiyati, xususiyati – I.Q.) shu bo'lsa?

Odamlar haqida gapiradigan bo'lsak, ba'zi bir kimsalarda insonparvar va adolatli yurak (qalb – I.Q.) qachonlardir bo'limganmikan? Ularning asil yuraklarini o'z holiga tashlab qo'yishlariga sabab (vijdonlarini yo'qotishlariga sabab – I.Q.), bu go'yo bolta va chopqining daraxtga qilgan muomalasiga o'xshaydi: har kun xuddi daraxtdek kesib tashlayversang, bunday yurak gurkirab, go'zalligini saqlab tura olarmidi? Ularning kechayu kunduz kurtak yozib o'sishi (yaxshi niyatning, mehr-shafqat hislarining paydo bo'lishi – I.Q.), ufurib turgan osuda tong nafasi, bular qalbida paydo qilgan yaxshilik va yomonlik (muhabbat va nafrat – I.Q.) bilan oddiy odamlarga atigi ozgina yaqinlashgandek bo'ladiyu, keyin esa uning kunduzgi qilmishlari yana barchasini bo'g'ib halok qiladi. Bo'g'ilavergach, tun qalbida kurtak yozgan hayot nafasi ham qolmaydi; tungi hayotbaxsh nafas mavjud bo'limgach, bunday odam hayvonlarga yaqindir (hayvondan uncha farq qilmaydi – I.Q.). Hayvoniyligini ko'rgan odamlar unda hech qachon aqliy qobiliyat bo'limgan deb o'ylaydilar, nahot bu insonga xos bo'lsa?

Shuning uchun aytadilarki, agar yaxshi parvarish qilinsa, unib-o'smaydigan narsa yo'q; agar parvarishdan mahrum bo'lsa, nobud bo'lmaydigan narsa ham yo'q.

qurbanliklarda ishlailadigan marosim idishi nazarda tutiladi. Bu yerda doimiy-o'zgarmas qonuniyat (konstanta), muayyan qonuniyatlardan, axloq me'yorlariga ishora qilinmoqda.

<sup>198</sup> Buqatog' (Nyushan) – Chi podsholigi poytaxti Lin-zi shahri atrofidagi tog', hozirgi Shandong provinsiyasida.



Ko'ng-zi (Konfutsiy) shunday degan edi: "Tutsang – saqlagaysan, kechsang – yo'qtogaysan! Chiqmog'i, kirmog'i (kelmog'i va ketmog'i — I.Q.) bermahaldir (aniq vaqt yo'q — I.Q.), qay tomon ketganin ham bilmaslar hech kim!" Inson qalbin nazarda tutgandirlar?"

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Ayrim podsholarning aqslizligidan shubhalanmasa ham (ajablanmasa ham — I.Q.) bo'ladi. Garchi Osmonostida eng oson unib-o'sadigan o'simlik bo'lsa ham, lekin uni bir kun oftobning kuydiruvchi tig'lari ostida qoqlab, yana o'n kun sovuqda muzlatsang, unda unib-o'sa oladigan birorta ham o'simlik bo'lmaydi.

Mening podsho bilan bo'lgan uchrashuvlarimiz ham nihoyatda ozdir, men ketishim bilan uni sovitadigan mug'ombir kimsalar kelishadi, holbuki unda endigina ezgulik kurtak yoza boshlagan edi, (o'sha kimsalar shuni ham muzlatib nobud qilishadi — I.Q.) mening qo'limdan nima ham kelardi?

Endi shatranj o'yinini bir san'at deb oladigan bo'lsak, u san'atlar ichida kichigidir. Lekin agar astoyidil kirishmasang, bor kuch-irodangni shu maqsadga qaratmasang, shuni ham o'rganishga muvaffaq bo'lomaysan.


Shatranjchi Chyu butun mamlakatdagi mohir shatranj o'yinchisi edi. Unga ikki kishiga shatranj o'ynashni o'rgatish topshirildi deylik. Ulardan biri bunga bor kuch-irodasi bilan astoyidil kirishadi, faqatgina ustoz Chyuning so'zlariga quloq soladi, boshqa biri esa garchi eshitib o'tirsa-da, lekin nuqul yovvoyi g'oz yo oqqush uchib kelib qolsayu, qo'liga kamon olib, ipini tarang tortib turib, oqqushga qarata otish haqida xayol surib o'tirardi. Garchi u ham haligi shogird bilan birga o'rgangan bo'lsa-da, lekin muvaffaqiyatlar borasida unga teng kelolmaydi. Zehni unikidek bo'lmaganligi uchunmi? Javobi aniq: albatta, unday emas!"

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Baliq – mening xohlaganim, ayiq pajasini ham xohlayman, agar bir vaqtning o'zida ikkisiga erishishning iloji bo'lmasa, unda men baliqning bahridan o'tib, ayiq panjasini tanlagan bo'lardim.

Yashashni xohlayman,adolatli bo'lishni ham xohlayman, agar bir vaqtning o'zida ikkisiga sohib bo'lomasam, unda men hayotimdan voz kechib, adolatni tanlagan bo'lardim.

Yashashni xohlaganim kabi yashashdan muhimroq narsani ham xohlayman, shuning uchun kun o'tkazishning payida bo'lmayman.





O'limdan nafratlanaman, lekin o'limdan ham ortiq nafratlanadigan narsalar bor, shuning uchun ba'zi balo-qazolardan qochmayman (o'limdan nafratlanganim uchun ba'zi balo-qazolardan o'zimni olib qochishni istamayman).

Agar odamlarning muddaosi yashashdan ortiqroq narsa bo'lmasa (agar odamlarning jonlaridan ham ortiqroq xohlaydigan narsalari bo'lmasa), unda ular yashash uchun ham nimalar qilmaydi deysiz? Odamlarning nafratlanadiganlarida o'limdan ham ortiqrog'i bo'lmasa, balolardan qutulish uchun ham ular nimalarga qo'l urmaydi deysiz?

Shunday qilsa, jonini saqlab qolish mumkin bo'lsa ham, lekin buni o'ziga lozim topmagan odamlar bor; shunday qilib balo-qazolardan qutulib qolish mumkin bo'lsa ham, lekin buni o'ziga ep ko'tmagan odamlar bor. Bundan ayon bo'ladiki, odamlar xohlaydigan narsalar orasida yashashdan ham afzalrog'i bo'ladi, nafratlanadigan narsalari ichida o'limdan ham ortiqrog'i bo'ladi. Bunday o'y-xayol yolg'iz fozil kishilarda emas, barcha odamlarda mavjud, faqat fozil odamlargina ularni yo'qotmaslikning uddasidan chiqa olganlar.

Bir g'arov kajava yegulik, bir xurmacha bo'tqaga yetishsang yashagaysan, yetisholmasang o'lasan. Agar dag'dag'a qilib bersang, yo'lovchi garchi qorni och bo'lsa ham yegulikni qabul qilmaydi; agar oyoqlaring ostida toptab bersang, tilanchi ham olishdan hazar qiladi.

Lekin o'n ming jo'ng<sup>199</sup> moyanani adab va insofga to'g'ri kelish-kelmasligini so'rab ham o'tirmay qabul qiladigan odamlar bor. O'n ming g'alla moyanadan menga nima naf? Ko'shku saroylarimizning hashamatli bo'lishi uchunmi? Yo rafqa va to'qol xotinlarimizning ko'nglini ovlash uchunmi? Men tanigan barcha kambag'al-bechoralar mendan minnatdor bo'lishlari uchundir?

Qachonlardir o'lsa ham qabul qilishni xohlamagan narsalarni hozirda ko'shku saroylarining hashamatli bo'lishi uchun qabul qilmoqdalar; qachonlardir o'lsa ham qabul qilishni xohlamagan narsalarni hozirda rafiqasi va to'qol xotinlarini boqish uchun qabul qilmoqdalar; qachonlardir o'lsa ham qabul qilishni xohlamagan narsalarni hozirda o'zlarini tanigan barcha kambag'al-bechoralarining o'zlaridan minnatdor bo'lishlari uchun qabul qilmoqdalar.

Bularga barham berib bo'lmaydimi?

Buni ko'ngildagi asl istakdan mahrumlik deydilar!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Rahmdillik inson qalbidir, haqqoniyat inson yo'lidir. Haq yo'ldan voz kechib yurmaslik, qalbini yo'qotib izlamaslik qanchalik achinarli! Odamlar bor,

<sup>199</sup> Jo'ng – qadimgi sig'im o'Ichov birligi.



tovuq-itlarini yo'qotib ularni izlab topishni biladilar; odamlar borki, qalbini yo'qotib uni qanday izlashni bilmaydilar. Bilim boshqa narsa emas, u yo'qotilgan qalbni topish yo'lidir, xolos".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Endi tasavvur qiling: bir kishining nomsiz (so'fi) barmog'i akashak bo'lib uni yozolmay qoldi deylik, og'rimaydi, ish qilishiga xalaqit ham bermaydi, lekin agar uni to'g'rilay oladigan tabib bo'lsa, hatto Chin, Chu davlatlariga borib davolatishga to'g'ri kelganda ham, yo'l uzoq ko'rinxaydi, faqat bitta barmog'igina boshqa odamlarnikiga o'xshamay qolgani uchun. Barmog'i boshqalarnikiga o'xshamay qolganidan jirkanishni biladi, qalbi insonlarnikiga o'xshamay qolganidan jirkanishni bilmaydi. Bu me'yorni (nima muhim va nima muhim emasligini) bilmaslik deyiladi!"

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Yo'g'onligi quchoqcha yo bir tutam keladigan tung<sup>200</sup> va katalpa<sup>201</sup> daraxtlari bo'lsa, agar ularni o'stirishni istashsa, odamlarning hammasi ham ularni qanday parvarish qilishni biladi. O'zlariga kelganda esa qanday tarbiya qilishni bilmaydilar. Nahotki o'zlarini tung va katalpa daraxtlaridek sevmasalar? Tafakkur qilmaslik shu qadarmi!"

\*\*\*

Gong Du-zi deganlari Meng-zidan so'rabdi: "Hammamiz ham birdek odam, lekin nima uchun ba'zilar buyuk odam bo'ladilar, ba'zilar esa oddiy odam bo'lib qolaveradilar?"

Meng-zi javob berdi: "Tanasining buyuk a'zoiga<sup>202</sup> bo'ysunganlar buyuk odam bo'ldilar, tanasining kichik muchalari<sup>203</sup> izmida bo'lganlar oddiy odamlardir".


Haligi kishi yana so'radi: "Hamma ham birdek odam bo'lsa, nima uchun ba'zilar o'z tanasining buyuk a'zosiga bo'ysunadilar, ba'zilar kichik muchalari izmiga kiradilar?"

<sup>200</sup> Tung daraxti – yoki moyli daraxt, urug'idan qimmatbaho moy olinadigan, sutlamadoshlar oilasiga mansub subtropik daraxt.

<sup>201</sup> Katalpa – daraxt nomi, yog'ochidan turli jihozlar yasashda ishlataladi.

<sup>202</sup> Buyuk a'zo – yurakka (qalbga) ishora.

<sup>203</sup> Kichik muchalalar – qulqoq, ko'z kabilari.





Ustoz dedilar: "Quloq va ko'z kabi a'zolar fikr yuritolmaydi, shu bois zohiriy narsalarga osongina chalg'iydi. Zohiriy narsalar bilan o'zaro munosabatga kirishdimi, osongina aldanadi (yo'ldan ozadi, vasvasaga tushadi – I.Q.). Yurak atalmish a'zoning vazifasi tafakkur qilishdir, fikr qilsang nimagadir erishasan, fikr qilmasang hech narsaga erisholmaysan. Bu Falakning (Tangrining – I.Q.) biz insoniyatga qilgan buyuk in'omidir! Avval kattasini (yurakni – I.Q.) rostlasa, kichiklari uning o'mini tortib ololmaydi.<sup>204</sup> Shundagina buyuk odam bo'lish mumkin, xolos!"

- Tanasining buyuk a'zosiga (yuragiga) bo'ysunganlar buyuk odam bo'ldilar, tanasining kichik muchalari (ko'z va qulqlari) izmida bo'lganlar oddiy odamlardir.
- Quloq va ko'z kabi a'zolar fikr yuritolmaydi, shu bois zohiriy narsalarga osongina chalg'iydi. Zohiriy narsalar bilan o'zaro munosabatga kirishdimi, osongina aldanadi.
- Yurak atalmish a'zoning vazifasi tafakkur qilishdir, fikr qilsang nimagadir erishasan, fikr qilmasang hech narsaga erisholmaysan.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Obro'ga intilish – odamlar dilidagi mushtarak orzu. Har bir odamda uning o'ziga obro' keltiradigan aziz narsasi bo'ladi, lekin hech kim u haqida fikr yuritmaydi, xolos. O'zgalar tomonidan berilgan obro' esa haqiqiy obro' emasdир.

Jao Meng<sup>205</sup> kabilar o'zi obro'sini ko'targan odamni yana beobro' ham qila oladi.

"Nazmnama"da shunday deyilgan:

"Sharobidan mast bo'libman,

Xusni xulqidan qonib man".

Gap insonparvarlik vaadolat tuyg'ulari bilan to'yinib qonish haqida bormoqda, ana shunda o'zgalarning yog'li go'shtiyu nafis qo'nog'i (tansiq taomlari – I.Q.) mazasiga havas ham qilmagay; dovrug'i va shuhuratini o'zida jo etgan bo'lsa, o'zgalarning zarbof to'niga havas ham qilmagay".

<sup>204</sup> Ikkinci xil tarjima: "Avval kattasini roslasangiz, shunda kichiklari ham yo'ldan ozmaydi", ya'ni "Avvalo yurak atalmish katta a'zoning mavqeini tiklasangiz, shunda kichiklari ham chalg'ib ketmaydi". Ba'zi o'rinnlarda ushbu jumla hozirgi xitoy adabiy tiliga ikki xil tarjima qilingan, lekin ular maqolat mazmuniga putur yetkizmaydi, aksincha ma'nosini kengroq tushunib olishimiz uchun xizmat qiladi. – I.Q.

<sup>205</sup> Jao Meng – Xitoy tarixidagi Bahor va Kuz davri (Chun-Chyu, er. avv. 770 – er. avv. 476-yy.) Jin podsholigining vaziri, ismi Dun, hurmalli nomlari Meng.



\*\*\*

Meng-zı dedi: "Suv o'tni yenggani kabi rahmdillik ham berahmlikni yenga oladi. Rahmdillikni ro'yobga chiqarmoqchi bo'lgan hozirgi kishilar xuddi bir piyola suv bilan gurillab yonayotgan bir arava o'tin alangasini to'xtatmoqchi bo'lishadi. O'chirolmagach, suv o'tni yenga olmaydi deya da'vo qiladilar. Bu bilan ular qaytaga berahmlikka katta yordam bergen bo'ladilar, oxir-oqibat atigi o'sha ozgina rahmdilliklaridan ham ajrab qolishlari muqarrar".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Besh ziroat (tariq, arpa, bug'doy, sholi va loviya) ekinlarning a'losidir, lekin agar pishmagan bo'lsa, mastak va kurmakchalik<sup>206</sup> emas. Insoniy fazilatlar ham shunday, gap ularni yaxshilab pishirishda, xolos!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Mohir mergan Hou-I<sup>207</sup> odamlarga kamondan o'q uzishni o'rgatsa, albatta, ularning irodasini kamonni oxirigacha tortishga yo'naltirgan, o'rganuvchilar ham, albatta, irodasini batamom yoyni tarang tortishga qaratmoqlari shart.

Katta usta o'z hunarini odamlarga o'rgatganda, albatta pargar<sup>208</sup> va go'niyadan<sup>209</sup> foydalanadi, o'rganuvchilar ham, albatta, pargar va go'niyadan foydalanishlari kerak".

### O'N IKKINCHI BOB

Gao-zı. Keyingi qism

Jen<sup>210</sup> bekligi kishilaridan biri Meng-zining shogirdlaridan U Lu-ziga<sup>211</sup> shunday savol bilan murojaat qilibdi: "Odob va yegulik – qay biri muhimroq?"

"Odob muhim", – debdi Vu Lu-zi.

<sup>206</sup> Begona, yovvoyi o'tlar.


<sup>207</sup> Hou-I – rivoyatlardagi mohir yoyandoz.

<sup>208</sup> Pargar – sirkul.

<sup>209</sup> Go'niya – uchburchak chizg'ich, uchburchak.

<sup>210</sup> Jen – Chun-Chyu (Bahor-Kuz) davridagi kichik bir beklik nomi, yerlari hozirgi XXR Shando'ng provinsiyasi Jining nohiyasiga hududlariga to'g'ri keladi.

<sup>211</sup> U Lu-zi – ismi Lyan, Meng-zining shogirdlaridan biri.





Haligi kishi yana so'rabdi: "Ehtiros<sup>212</sup> va odob – qay biri muhimroq?"

"Odob muhim", – deb javob beribdi yana U Lu-zi.

Haligi kishi tag'in so'rabdi: "Agar odob-axloq me'yorlariga ko'ra ovqat topib yeymen desa, unda ochidan o'lsayu, aksincha odob bo'yicha qidirmay, ovqatga yetib qorni to'ysa, shunda ham odob-axloq me'yorlariga rioya qilish shartmi? "Kelinni olib kelish"<sup>213</sup> marosim odobini deb xotin ololmasayu, aksincha, usiz xotinga yetishsa, shunda ham taomilga amal qilish shartmi?"

U Lu-zi javob berilmabdi. Ertasi kuni Zou<sup>214</sup> bekligiga borib, bu haqda ustozi Meng-ziga so'zlab beribdi.

Meng-zı shunday debdi: "Bu savolga javob berishning nimasi qiyin? (Agar daraxtlar) ildizlarini (asoslari) chamalamay, uchlari bilan tenglashtirilsa, unda chorsи sunlik<sup>215</sup> bir bo'lak yog'ochni ham cho'qqili minoradan baland qilish mumkin! Tillani pardan og'ir deymiz, nahotki uch misqollik<sup>216</sup> tilla to'qani butun boshli bir arava pardan og'ir deya olsak? Agar yegulikning og'irligini (muhimligini) olib odobda eng engili (osoni) bilan solishtirsa, nima uchun faqat yeyish muhim bo'lsin? Ehtiros (nikoh)ning og'irligini (muhimligini) olib odobda eng yengili (ikir-chikirlari) bilan solishtirsa, nima uchun faqat ehtiros muhim bo'lsin?

Qaytib borib unga aytgin: "Og'angning qo'llarini qayirib, ovqatini tortib olsanggina yegulik senga nasib qiladi; agar uning qo'llarini qayirmsasang, yegulikdan ham quruq qolasan. Unda borib qo'llarini qayirarmiding?"

\*\*\*

<sup>212</sup> Bu yerda ehtiros deyilganda xotin olish, uylanish, nikoh nazarda tutilgan.

<sup>213</sup> "Kelinni olib kelish" – Xitoya qadimda turmush qurishning olti odobidan biri, kuyov bashang kiyinib qiz tomonning uyiga borib kelinni olib keladi. Bu yerda xotin olishga ishora.

<sup>214</sup> Zou – qadimgi beklik (kichik podsholik) nomi, hozirgi Shandong provinsiyasining Fey, Zou, Teng, Jining, Jinsyang kabi nohiyalari yerlarida bo'lgan, poytaxti Ju shahri bo'lgan, eramizdan avvalgi 614-yil podsho Ju Ven-gong poytaxtni I shahriga ko'chiradi. Urushqoq podsholiklar davrida (eramizdan avvalgi 475 – eramizdan avvalgi 221-yy.) Chu podsholigi tomonidan tugatilgan.

<sup>215</sup> Chorsi – kvadrat, sun (cun) – xitoycha uzunlik o'Ichov birligi, 3,33 smga teng.

<sup>216</sup> Misqol – 4,26 grammga teng og'irlik o'Ichov birligi.



Sao Jyao<sup>217</sup> deganlari Meng-zidan so'rab debdi: "Hamma odam ham donishmand Yao va Shunlardek bo'la oladi deganmidingiz?"

"Ha, shunday", – debdi Meng-z.

Haligi kishi yana debdi: "Eshitishimcha, Ven-vangning bo'yi o'n chi<sup>218</sup>, Tangniki<sup>219</sup> to'qqiz chi bo'lgan ekan. Hozir mening bo'yim to'qqiz chiyu to'rt sunga<sup>220</sup> yetgan, lekin qo'limdan ovqat yeyishgina keladi, xolos. Nima qilsam, ulardek bo'laman?"

Meng-z shunday javob beribdi: "Buning nimasi qiyin? Faqatgina o'shalardek qilgin, xolos. Tasavvur qiling, bu yerda shunday bir odam borki, o'zining nazarida hatto birlgina jo'jani ham ko'tarishga kuchi yetmaydi. Demak, u kuchsiz odam. Agar yuz jyunni<sup>221</sup> ko'tara olaman desa, demak, u judayam kuchli odam. Modomiki shunday ekan, qachonlardir U Huo<sup>222</sup> ko'targan yukni ko'tara olsangiz, bu siz ham U Huodek polvon ekanligingizni anglatadi, xolos. Odam nahotki uddalay olmasligi uchungina qayg'urib yashashi kerak? Faqat ado etmaydilar, xolos. (Mana shundan qayg'urish kerak. – I.Q.)

Kattalarning ortidan ohista yurish tavoze deyiladi, shoshqaloqlik bilan oldilariga o'tib ketish behurmatlik deyiladi. Sekinroq yurishni odam nahot eplolmasa? Shunday qilmaydilar, xolos.

Yao va Shunlardek bo'lishning yo'li ota-onaga qobil farzand va kattalarga tavozeli bo'lishdadir.

Agar Yao kiyganlarini kiysangiz, Yao so'zlarini so'zlasangiz, Yao qilganlarini qilsangiz, siz Yao bo'lasiz-qolasiz. Agar zolim Jyening<sup>223</sup> kiyganlarini kiyib olib, Jyening so'zlarini so'zlab, Jyening qilmishlarini qilsangiz, unda siz ham Jye bo'lasiz-qolasiz".

<sup>217</sup> Sao Jyao: ba'zilar Sao davlati podshosining ukasi deydilar, ismi Jyao, hayot yo'li noma'lum. Lekin Meng-z davrida Sao davlati allaqachon barham topgan edi, shuning uchun aniq emas.

<sup>218</sup> Chi – uzunlik o'Ichov birligi, xitoycha fut, 0.33 metrga teng, demak, 10 chi taxminan 3.33 metrga to'g'ri keladi.

<sup>219</sup> Ven-vang – Jou sulolasi podshohlaridan biri; Jou sulolasi – eramizdan avvalgi 1046 – eramizdan avvalgi 256-yillarda hukmronlik qilgan, birinchi podshohi Ji Fa, dastlabki poytaxti Xiao-jing shahri bo'lgan (hozirgi Shaansi provinsiyasi Sian shahrining janubi-g'arbida). Eramizdan avvalgi 770-yil poytaxt Luo-i shahriga ko'chiriladi (hozirgi Xenan provinsiyasi Luoyang shahri g'arbida). Poytaxt ko'chirilmasidan oldin G'arbiy Jou deb atalgan bo'lsa, ko'chirilgach sulola Sharqiy Jou nomini olgan.

Tang – Shang sulolasi podshohlaridan biri. Shang – Xitoydag'i sulola nomi, eramizdan avvalgi 1600 – eramizdan avvalgi 1046-yillarda hukmronlik qilgan. Tang uning birinchi podshohi hisoblanadi. Eramizdan avvalgi XIV asrning o'rtaida Shang podshohi Pan Geng poytaxtni In shahriga (hozirgi Xenan provinsiyasi Anyang shahri shimoli-g'arbida) ko'chiradi va shuning uchun mazkur sulola In ham deb ataladi.

<sup>220</sup> Sun – uzunlik o'Ichov birligi, chinig o'ndan biriga (3.33 smga) teng.

<sup>221</sup> Jyun – qadimgi Xitoya og'irlik o'Ichov birligi, 1 jyun 30 jinga (ya'ni 15 kgga) teng. Matndagi yuz jyun uch ming jinga (ya'ni bir yarim ming kgga) teng.

<sup>222</sup> U Huo – Xitoy rivoyatlaridagi polvon, bu yerda polvonlik, bahodirlik ramzi.

<sup>223</sup> Jye – Xitoydag'i Sya sulolasining so'nggi podshohi, rivoyatlarga ko'ra zolim podshoh bo'lgan.



Sao Jyao dedi: "Men Zou podshosi huzurlariga borib, undan boshpana so'ramoqchiman. Rozi bo'lsalar, bajonidil shu yerda qolib eshigingizda saboq olishni xohlayman".

Meng-zı debdi: "Hayot yo'li misoli katta yo'ldir! Buni tushunish nahot shunchalik qiyin bo'lsa? Odamlarning kamchiligi izlanmasliklarida, xolos. Ortingizga qaytib qidirib ko'ring, ustozlar ortig'i bilan bor!"

- 
- Hamma ham donishmand Yao va Shunlardek bo'la oladi.
  - Kattalarning ortidan ohista yurish tavoze deyiladi, shoshqaloqlik bilan oldilariga o'tib ketish behurmatlik deyiladi.
  - Hayot yo'li misoli ulug' yo'ldir!
  - Odamlarning kamchiligi izlanmasliklarida.

\*\*\*

So'ng Keng<sup>224</sup> deganlari Chu podsholigiga bormoqchi bo'libdi. Meng-zı u bilan Shichyu nomli yerda uchrashib qolibdi.

"Taqsir, qayoqqa ketayapsiz?" – deb so'rabdi Meng-zı.

So'ng Keng javob beribdi: "Eshitishimga qaraganda, Chin va Chu podsholiklari qirpichoq bo'lishyapti. Chu podshosi bilan uchrashib, uni urushga barham berishga ko'ndirmoqchiman. Agar Chu podshosi unamasa, unda Chin podshosi bilan ko'rishib, uni bu niyatidan qaytarishga urinib ko'rmoqchiman. Baribir bu ikki qirol orasidan gapimga ko'nadigan birini uchratarman".

Meng-zı debdi: "Batafsil so'ramoqchi emasman, faqat niyatingizni (o'gitlaringizning asosiy mohiyatini – I.Q.) bilishni istayman. Siz ularni qanday qilib ko'ndirmoqchi bo'layapsiz?"

Haligi kishi javob beribdi: "Men ularga urushning befoyda ekanligini aytmoqchiman".

Meng-zı debdi: "Taqsir, sizning maqsadingiz buyuk (niyatingiz xolis – I.Q.), ammo da'vatingiz<sup>225</sup> bo'lmaydi. Siz foyda bilan Chin va Chu podsholarini ko'ndirsangiz, Chin va Chu podsholari o'z foydalari uchungina (foydani yaxshi ko'rganlari uchungina –

<sup>224</sup> So'ng Keng — So'ng Jyan deb ham ataladi, So'ng podsholigidan bo'Igan, Urushqoq podsholiklar davri atoqli olimlaridan biri. Urushlarga qarshi bo'Igan, tinchlikni yoqlab chiqqan.

<sup>225</sup> Ifoda tarzi, so'zlash usuli.



I.Q.) harbiy harakatlarni to'xtatadilar; ana unda uch lashkar qo'mondon-jangchilari urush to'xtatilganidan xursand bo'lishga-ku bo'ladilar, lekin shundan foydaga ko'ngil qo'yadilar.<sup>226</sup> Amaldor bo'l mish ko'nglida foyda ilinjida podshoga xizmat qilsa, o'g'il bo'l mish foyda ilinjida otasining xizmatini qilsa, inisi foyda ilinjida og'alarining xizmatini qiladigan bo'lsa, unda podsho va amaldor, ota va o'g'il, og'a va inilar insonparvarlik va adolatdan butkul yiroqlashib ketadilar, ko'ngilda foyda ilinjida o'zaro muomala qilinar ekan, shu tariqa elni xarob qilmagan hukmdor hali bo'l magan.

Taqsim, siz agar insonparvarlik va adolat bilan Chin, Chu podsholariga nasihat qilib ularni ko'ndirsangiz, Chin va Chu podsholari ham insonparvarlik va adolatdan baxtiyor bo'ladilar hamda urushni bas qiladilar, ana shunda qo'mondon-jangchilar ham urush to'xtatilganidan xursand bo'lib, insonparvarlik va adolatga mehr qo'yadilar.<sup>227</sup> Amaldor bo'l mish dilda insonparvarlik va adolat orzusi bilan podshoga xizmat qilsa, o'g'il bo'l mish dilida insonparvarlik va adolat orzusi bilan otasining, ini bo'l mish og'asining xizmatlarini qiladigan bo'lishsa, bu podsho va amaldor, ota va o'g'il, og'a va ini o'rtalarida manfaatparastlikka barham beradi; dilda insonparvarlik va adolat orzusi bilan o'zaro muomala qilinar ekan, shu tariqa sultanatga hukmronlik qilmagan hukmdor hali bo'l magan.

Nega endi foyda haqida so'z ochish kerak ekan?"

\*\*\*

Meng-zi Zou bekligida yashagan kezlarji Jen<sup>228</sup> deganlari Jen podsholigini muvaqqat boshqarardi<sup>229</sup>, u qimmatbaho sovg'alar yo'llab Meng-zi bilan do'stlashmoqchi bo'libdi. Meng-zi sovg'alarni qabul qilibdiyu, lekin minnatdorchilik bildirmabdi.

Meng-zi Pinglu<sup>230</sup> degan joyda yashayotganda, Chu-zi<sup>231</sup> deganlari Chi davlati bosh vaziri edi, u ham qimmatbaho sovg'alar yuborib Meng-zi bilan do'stlashmoqchi bo'libdi. Meng-zi sovg'alarni qabul qilibdi, lekin unga ham minnatdorchilik bildirmabdi.

<sup>226</sup> Ya'ni: "qo'mondon-jangchilar ham foydali bo'lganligi uchungina xursand bo'ladilar hamda bajonidil quollarini tushiradilar (urushni to'xtatadilar)".

<sup>227</sup> Ya'ni: "qo'mondon-jangchilar ham insonparvarlik va adolatdan sevinib jon-jon deb urushdan voz kechgan bo'lardilar".

<sup>228</sup> Ji Jen (Ji Ren) – Jen (Ren) davlati podshosining ukasi.

<sup>229</sup> Yana bir o'rinda Jen (Ren) davlatining mudofaa qo'mondoni bo'lgan deyiladi.

<sup>230</sup> Pinglu – joy nomi, o'sha davrda Chi podsholigiga qarashli bo'lgan.

<sup>231</sup> Chu-zi – Chi davlati bosh vaziri.





Keyinchalik Meng-zı Zoudan Jenga kelganida Ji-zini<sup>232</sup> ko'rgani boribdi. Boshqa bir safar Pingludan Chi poytaxtiga kelganida Chu-zini ko'rishga bormabdi.

Shogirdlaridan biri Vu Lu-zı xursand bo'lib debdi: "Kamina Lyan"<sup>233</sup> darz ketgan yerni topdim! (ya'ni "Men ustozning yo'l qo'ygan xatosini topdim!" demoqchi – I.Q.)" So'ngra ustoziga murojaat qilib so'radi: "Ustoz, siz Jen podsholigiga yo'lingiz tushganida Ji-zini borib ko'rdingiz; Chi podsholigiga kelganingizda esa Chu-zini ko'rgani bormadingiz, u bor-yo'g'i vaziri a'zam bo'lganligi uchun, shunday emasmi?"

Ustoz javob berdilar: "Yo'q, unday emas. "Kitob"da<sup>234</sup> shunday deyilgan: "Sovg'a qilishda odob-taomilga amal qilishlikning hikmati ko'pdir, agar odob-taomil sovg'angizga yarasha bo'lmasa (nomutanosib bo'lsa – I.Q.), sovg'a qilinmagan deyilur (sovg'a qilmagan bilan barobar – I.Q.). Chunki ko'ngilda hadya qilish niyati yo'qdir". Bunday qilishimning boisi shuki, u hadya qilish odob-taomilini ado etmadi".

Vu Lu-zı ustozining so'zlarini eshitib chin ko'ngildan e'tirof etibdi. Kimdir bu haqda so'raganida, u shunday javob beribdi: "Ji-zi (vaqtincha davlat ishlarini boshqarib turganligi uchun) o'zi Zouga ustozni ko'rgani bora olmasdi, Chu-zi bo'lsa (vazir sifatida) Pingluga kela olardi".

\*\*\*

Lu podsholigi Shen-zini<sup>235</sup> lashkarboshi etib tayinlamoqchi bo'libdi.

Meng-zı unga debdi: "Xalqni ta'lim bermay urushga yo'llash, bu – xalqni qirish demakdir. Xalqqa qiron keltirgan kimsalarga Yao va Shun zamonlarida shafqat qilinmagan. Hatto birgina jang bilan Chi podsholigini mag'lub etib, Nanyang<sup>236</sup> shahrini qo'lga kiritgan taqdirda ham, baribir bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi".

Shen-zining qiyofasi tundlashib domangir bo'lib debdi: "Bularni kamina Hua-li bilmasdim".

Meng-zı unga debdi: "Men senga tushuntirib beraman. Osmon O'g'lining (shahanshohning – I.Q.) yerlari to'rt tomonga minglab liga cho'zilgan, agar minglab

<sup>232</sup> Ji-zi – Ji Jen.

<sup>233</sup> Lyan – U Lu-zining ismi.

<sup>234</sup> "Shu" – ya'ni "Nasrnoma", konfutsiychilik ta'limotining besh nomalaridan biri.

<sup>235</sup> Shen-zı – ismi Hua-li, Lu podsholigi vaziri, jang qilishda mohir bo'lgan.

<sup>236</sup> Nanyang – ya'ni Venyang. Tayshan tog'inining janubi-g'arbida, Venshuey daryosining shimolida joylashgan. Xitoy tarixining Bahor-Kuz (Chun-Chyu) davrida Chi va Lu podsholiklari kurash olib borgan muhim strategik nuqta. Aslida Lu podsholigiga qarashli bo'lgan, keyinchalik Chi podsholigi tomonidan egallab olingan.



li bo'lmanida, beklarga qaragani kifoya qilmasdi. Beklarning yerlari to'rt tomonga yuzlab liga cho'zilgan, agar yuzlab li bo'lmanida, ajdodlari ibodatxonalaridagi qonunlar majmuasi va qaydnomalarni saqlab qolishga kifoya qilmasdi.

Jou-go'ngga<sup>237</sup> suyurg'ol qilib berilgan Lu podsholigi to'rt tomonga yuz liga cho'zilgan edi, yerlar kifoya qilmaydi emas, holbuki yuz li bilangina cheklangan edi. Jyang Tay-go'ng<sup>238</sup> suyurg'ol yerlari Chi podsholigi ham har tarafga yuz liga cho'zilgan, yerlar kifoya qilmaydi emas, holbuki aslida yuz li bilangina cheklangan edi. Endilikda Lu podsholigining yerlari har tarafga yuz li bo'lgan podsholik yerlaridan beshta keladi. Nima deb o'ylaysiz, agarda bir dono hukmdor-vang chiqsa, Lu podsholigining yerlari qisqaradimi yoki yanada ortadimi?

Rahmdillik fazilatiga ega inson hattoki bekorga bunisidan olib unisiga bermaydi, tag'in odam o'ldirish bilan bunga erishishga yo'l bo'lsin?

Olijanoblar podshohga xizmat qilganda, ular uchun podshohni to'g'ri yo'lga boshlamog'i, irodasini insonparvar siyosat yuritishga yo'naltirmog'i farzdir".

- Xalqni ta'lim bermay urushga yo'llash, bu – xalqni qirish demakdir. Xalqqa qiron keltirgan kimsalarga donishmand shohlar zamonida shafqat qilinmagan.
- Podshohni haq yo'lga boshlash, qalbiga insonparvarlikni jo etish olijanob mulozim uchun farzdir.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Hozirgi podshoh xizmatidagilarning barchasi shunday

<sup>237</sup> Jou-go'ng ("Jou gersogi") – ismi Ji Dan, Shu Dan ham deb atalgan, Jou sulolasini podshohi Ven-vang (Ji Chang)ning to'rtinchı o'g'li, Vu-vang (Ji Fa)ning ukasi. Jou-go'ng G'arbiy Jou sulolasini davrining atoqli siyosat arbobi, harb ilmi bilimdoni, faylasuf, mutafakkir va ma'rifa-parvari, uni konfutsiychilik ta'limotining asoschisi sifatida ham ulug'lashadi. Tug'ilgan yillarini er. avv. 1100-yillar atrofi deb taxmin qilishadi, vafot etgan yili ma'lum emas. Dastlab podshoh Vu-vangga Shang sulolasini engishga, so'ngra Cheng-vangga davlatni boshqarishga yordam beradi. Ven-vang vafot etgach, Cheng-vang hali yoshligi sabab Jou-go'ng mamlakatni vaqincha boshqarib turgan. Mamlakatdagi isyonlarni bostirgan, yerlarni suyurg'ol qilib berish islohotini o'tkazgan. Xitoy sulolalarining poytaxt shaharlardan biri Luoyang shahrinini bunyod etgan, marosim va musiqa tizimini ishlab chiqqan. Konfutsiychilikning mumtoz asarlari "Nazmnoma" ("She'rlar"), "Nasmoma" ("Kitob") asarlarining bir qism boblari muallifi, "Jou odoblari" ("Jou-li", "Jou udumlari") asarining muallifi. Konfutsiy "Muholama va bayon" asarida uning nomini bot-bot tilga oladi, Meng-zı uni "qadimgi donishmand" deb ataydi. Jou-go'ng Xitoyning tarixiy taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan shaxsdir.

<sup>238</sup> Jyang Tay-go'ng (taxminan er. avv. 1156 – er. avv. 1017-yy.) – Xitoyning Shang sulolasining so'nggi yillarda yashagan siyosiy arbob, harb ilmi bilimdoni, mohir strateg; ismi Jyang Shang, Tay-go'ng Vang deb ham ataladi, hurmatli nomlari Zi-ya. Jyang Zi-ya G'arbiy Jou sulolasini podshohlariga yordam bergan, vaziri a'zam etib tayinlangan. Shuningdek, u Chi podsholigining asoschisi hamdir. Uning davrida Chi podsholigida siyosiy islohotlar o'tkazilgan, marosimlar yengillashtirilgan, savdoga keng imkoniyatlар yaratilgan, baliqchilik va tuzkorlik rivojlangan, Chi qudratli davlatga aylangan. Xitoya uni "mutafakkirlarning ustozi" degan nom bilan ulug'lashadi.



deydilar: "Men podsho uchun yerlar olib, uning xazinalarini to'ldirishga qurbim yetadi".

Hozirgi "halol" amaldor deb ataluvchilar qadimda xalq bosqinchilari deyilgan odamlardir. Podshohni to'g'ri yo'lga yo'llamaslar, ko'ngliga mehr-shafqatni solmay, faqatgina podshohning davlatlarini ziyoda qilmoq payida izg'ib yururlar, bamisoli zolim podshoh Jeni boyitganlar kabi.

Ular tag'in shunday deydilar: "Bizlar podshohimiz uchun ittifoqchi davlatlarni to'play olamiz, bu bilan janglarda g'alaba qozonmoqlarini tayin qilgan bo'lurmiz".

Hozir yaxshi vazir deganlari qadimda xalqni nobud qilguvchi deb atalgan kimsalardir. Ular podshohni to'g'ri yo'lga yo'llamaslar, ko'ngliga rahm-shafqat niyatini solmaslar, faqatgina uning uchun zo'ravonlik urushlari olib borish payida bo'lurlar, bamisoli zolim podshoh Jyega yordam bergen kimsalar kabi.

Hozirgi yo'ldan yurib, hozirgi odatlarini o'zgartirmasa, garchi unga sultanat taxtini topshirishsa, bir kun ham bexavotir o'tirolmagan bo'lur edi".

\*\*\*

Bay Guey<sup>239</sup> dedi: "Men soliqlarni yigirmadan bir hissa miqdorida olmoqchiman, siz bunga nima deysiz?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Sen tutgan yo'l – bu Mo<sup>240</sup> elining yo'lidir. Faraz qiling, o'ng ming xonadonlik podsholikda atigi bittagina odam sopol idishlar yasasa, seningcha, qanday?"

Haligi odam javob berdilar: "Bo'lmaydi: sopol idishlar yetmay qoladi".

Meng-zı debdi: "Mo davlatida besh ziroat unmasdi, faqatgina tariq o'sardi; shahar devorlariyu ko'shku saroylar, ajdodlari ibodatxonalarini qurbanlik marosimlari yo'q edi; sovg'a-salomlar yo'llab, bazmu mehmondorchiliklar o'tkazadigan tobein bekliklari bo'lмаган; hatto amaldorlariyu boshqaruv devoni ham mavjud emasdi. Shuning uchun soliqni yigirmadan bir hissa miqdorida olsa yetardi.

Hozir biz yashayotgan O'rta podsholiklar insoniy munosabatlarsiz, amaldorlarsiz qanday bo'lishi mumkin? Kulollar oz bo'lsa, hatto davlatni ham eplab boshqara olmasa, amaldorlarning yo'qligi haqida yana qanday gap bo'lishi mumkin?

Soliqlarni Yao va Shunlarnikidan ham yengilroq qilmoqchi bo'lganlar katta-kichik Mo kabi davlatlardir; ularni Yao va Shunlarnikidan ham og'irlashtirmoqchi bo'lganlar esa katta-kichik Jega o'xshagan zolim podshohlardir".

<sup>239</sup> Bay Guey – ismi Dan, hurmatli nomlari Guy; Vey davlati vaziri bo'lgan (podsho Xuey-vang davrida), to'g'onlar qurib daryolami jilovlash bilan shuhrat qozongan.

<sup>240</sup> Mo — qadimgi Xitoyning shimoli-sharqida yashagan millat nomi, ular tuzgan kichik davlat.



\*\*\*

Bo Guey mug'rurlanib debdi: "Daryolarni jilovlash bo'yicha men oqsoqol Yuydan o'zib ketdim".

Meng-zı unga shunday debdi: "Yanglishasan! Donishmand Yuy suvning tabiatiga moslab daryolarni jilovlagani bois ular to'rt dengizga borib quyilgan. Bugun esa sen suvni qo'shni davlatlarga boshqarib yuborayapsan. Daryoning orqaga oqishi uning toshishi demakdir. Daryoning qirg'oqlardan toshishi – toshqindir (suv balosidir – I.Q.), bu esa rahmdil insonlar eng yomon ko'radigan narsadir. Sen xato qilding!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Olijanoblarning samimiyligi bo'lmasa, ma'naviy fazilatlari qaydan bo'lsin?"

\*\*\*

Lu podsholigi Yue Jeng-zini<sup>241</sup> davlat boshqaruv ishlariga jalb etmoqchi bo'lganligini eshitgan Meng-zı shunday debdi: "Men bu xushxabarni eshitgach, xursand bo'lganimdan hatto uxlolmadim!"

Shogirdi Gong Sun Chou so'rabdi: "Yue Jeng-zı kuchlimi?"

Meng-zı javob beribdi: "Yo'q".

Shogird so'radi: "Aqli va mulohazalimi?"

Ustoz javob berdilar: "Yo'q".

Shogird so'radi: "Ko'pni ko'rigan bilimdonmi?"

Ustoz javob berdilar: "Yo'q".

Shogird so'radi: "Modomiki shunday ekan, unda nechun xursand bo'lganingizdan hatto uxlolmadingiz?"

Ustoz javob berdilar: "U ezgulikni yaxshi ko'radigan<sup>242</sup> odam".

Shogird so'radi: "Ezgulikni yaxshi ko'rishning o'zi yetarlimi?"

Ustoz javob berdilar: "Ezgulikni yaxshi ko'rish Osmonostini idora qilishga ham yetarlidir, Luni boshqarish tag'in nima bo'pti? Agar (hukmdor, ma'mur) ezgulikni yaxshi

<sup>241</sup> Yue Jeng-zı – Yue Jeng Ke, Meng-zining shogirdlaridan biri.

<sup>242</sup> Xitoy taddiqotchilarining ta'kidlashlaricha, "ezgulikni yaxshi ko'radigan" deyilganda "ezgu so'zlarga quloq solishni yaxshi ko'radigan" kishi nazarda tutildi.





ko'rsa, to'rt dengiz oralig'idagi odamlar o'z ixtiyorlari bilan ming chaqirimlik yo'ldan kelib ezgu so'zlarini unga aytadilar. Ezgulikni xushlamas ekanlar, odamlar unga taqlid qilib: "Hmm! Men allaqachon hammasini bilardim!" deydilar. Bunday takabburona tovushlar va aft-angor (yaxshi) odamlarni minglab chaqirimcha nariga itqitib tashlaydi. Mirzolar (ziyolilar) ming chaqirim narida to'xtasalar, tuhmatchi va xushomadgo'y kimsalar darrov yetib kelishadi. Tuhmat va xushomad qilishni yaxshi ko'radigan kimsalar bilan yashagach, davlatni yaxshi boshqarmoqchi bo'lsa ham, niyatiga yetolarmidi?"

\*\*\*

Tolibi ilm Chen-zi so'radi: "Qadimgi oljanoblar qay hollardagina amaldor bo'lishgan?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Uch xil sharoitda amaldor bo'lishgan, uch xil sharoitda amaldorlikdan ketishgan.

Podsho ularni hurmat bilan qarshi olib, xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lsa, fikrlarini inobatga olib, nasihatlariga amal qilsa, unda amaldor bo'lishgan; garchi hurmatiga putur yetmagan bo'lsa ham, nasihatlariga amal qilishmasa, amaldorlikni tark etganlar.

Ikkinchidan, garchi podsho ularning nasihatlariga amal qilmasa-da, lekin hurmat bilan qarshi olib, xushmuomala bo'lsa, bunday hollarda ham amaldorlik qilsa bo'ladi; bordiyu hurmatiga ham putur yetadigan bo'lsa, unga ketishni afzal ko'rishgan.

Va nihoyat oxirgisi shuki, erta-yu kech tuz ham totmay, och-nahorlikdan ostona hatlab chiqolmasa, bundan xabar topgan podsho vijdoni qiynalib: "Podsho bo'lib uning maslagini ro'yobga chiqarolmadim, so'zlariga ham quloq solmaganim yetmagandek, yerlarimda uni och qoldiribman, men bundan judayam uyalib ketayapman", deya unga yordam qo'lini cho'zsa, agar haqiqatan shunday bo'lsagina qabul qilish mumkindir, faqat o'limdan omon qolish uchungina bo'lsa, bas".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Oqsoqol Shun<sup>243</sup> dala-dashtda (qo'sh haydab ziroatchilikdan –

<sup>243</sup> Shun – rivoyatlardagi donishmand podshoh. Xitoy tarixining "besh podshohlik" davrining (taxminan er. avv. 26 – er. avv. XXII asrlar) so'nggi hukmdori, bu davr o'z o'mini Sya sulolasiga bo'shatib bergan. Besh podshoh: Sariq Podshoh (Huang Di), Juan Syuy, Di Ku, Yao hamda Shun. Meng-zı ham Konfutsiy singari nutqlarida podshoh Shunni tez-tez tilga olgan, uni o'sha davr podsholariga o'mak qilib ko'rsatgan.



I.Q.) podshohlikka yuksalgan; Fu Yue<sup>244</sup> binokorlikda taxtakachlikdan<sup>245</sup> vaziri a'zam darajasiga ko'tarilgan; Jyao Geni<sup>246</sup> baliqfurush va tuzfurushlikdan oliv maqomga ko'tarishgan; Guan I-u<sup>247</sup> bo'lsa shundoqqina zindonbonning qo'lidan qutulib chiqishi bilan vazir bo'lган; Sun Shu-Aoni<sup>248</sup> esa dengiz bo'ylaridan topib kelib yuqori martabaga ko'tarishgan; Bay Li Si<sup>249</sup> bozordan to'ralikka ko'tarilgan.

Shuning uchun Falak (Xudo – I.Q.) biror buyuk vazifani kimgadir topshirmoqchi bo'lsa, albatta, avval uning qalbi va irodasini azob-uqubatlar bilan sinagay (toblagay – I.Q.), uning mushak va suyaklarini mehnatda toliqtirgay, balki ochlikdan eti ustuxoniga yopishar, uni och-yalang'och qoldirar, ishlari chappasiga ketar, shu ko'yi (mana shunday turfa ko'ngilsizliklar bilan – I.Q.) uning qalbini larzaga solib, tabiatini chiniqtiradi (irodasini mustahkamlaydi – I.Q.), salohiyatini o'stirib kamolga yetkazadi.

Odamlar muntazam xato qiladilar, so'ngra tuzatishga imkon bo'lur. Ko'ngillariga malol kelinsa, fikrlashlariga to'sqinlik qilinsa, kuchli bo'lishga tirishadilar; chehralarida namoyon bo'lib, ovozlarida sezilib turgach, shundan so'ng fahmlab olingay.

Ichkarisida qonunlarga amal qiladigan diyonatli vazirlari va podshoga madadkor nasihatgo'y allomalari bo'lmasa, tashqarisida g'anim davlati va tashqi balolar (xavf – I.Q.) bo'lmasa, bunday davlat ertami-kechmi odatda zavolga yuz tutgay. Shundan ham bilish mumkinki, tiriklik – g'am-tashvishda, o'lim – kayfu safoda". (G'am-tashvishlar ichra tirikdirsan, kayfu safo halok etadir. Yoki: "G'amningni ye, yasharsan, o'ldirar kishini beg'amlik". – I.Q.)

\*\*\*

<sup>244</sup> Fu Yue – Shang-In sulolasi podshohi Vu-dingning (er. avv. 1250 – er. avv. 1192-yy.) vaziri, asli kasbi qunuvchilikda taxtakachlik qilish bo'lган, keyinchalik podshohning nazariga tushgan hamda saroya xizmatga olingan.

<sup>245</sup> Taxtakachlik – bu yerda: qadimgi Xitoyda devor qurilishi usullaridan biri: ikki taxta bir-biriga mahkam qilib bog'langan va o'rtasi loy bilan to'ldirilgan, so'ngra sop-dastalar bilan zichlangan. Hozirda bu usulni "opalubka usuli" deb atashadi.

<sup>246</sup> Jyao Ge – Xitoyning In sulolasi podshohi Jou hukmronligi davri odami; baliq va tuz sotib tirikchilik o'tkazgan, keyinchalik Ven-vangning tavsiysi bilan In saroyiga xizmatga olingan. In qulagach, Jou podshohi Vu-vang uni muhim vazifaga tayinlagan.

<sup>247</sup> Guan I-u (er. avv. 719 – er. avv. 645-yy.) – ya'ni Guan Jo'ng, Xitoyning qadimgi mashhur faylasufi, siyosiy arbobi, harb ilmi bilimdoni, shuningdek, qonunchilik ilmiy maktabining tipik vakili; Bahor-Kuz (Chun-Chyu) davridagi Chi podsholigidan bo'lган. O'sha davrda Chi Xuan-go'ng va Go'ng-zı Jyu o'talarida taxt uchun kurash borardi. Go'ng-zı Jyu mag'lubiyatga uchrugach, Guan Jo'ng uning ketidan birgalikda Lu podsholigiga qochub ketadi. Chi Xuan-go'ng uning salohiyatlari ekanligini bilgach, Lu podshosidan Go'ng-zı Jyuni o'ldirib, Guan Jo'ngni hibsga olib huzuriga keltirishini talab qiladi. Lu podshosi zindonbonlarni yo'llab uni qo'lga oladi va yurtiga qaytarib yuboradi. Pirovardida Chi podshosi Xuan-go'ng uni vazir etib tayinlaydi. Guan Jo'ng xizmati davomida ko'plab islohotlar o'tkazgan, shulardan biri "davlatni boyitib qo'shinni kuchaytirish"dir.

<sup>248</sup> Sun Shu-Ao — Xitoyning Bahor-Kuz davridagi Chu podsholigida yashovchi qalandar, dengiz bo'ylarida pinhona hayot kechirgan, Chu podshosi uni payqab qolib, buyruqdar (ya'ni vazir) etib tayinlaydi.

<sup>249</sup> Bay-Li Si (taxminan er. avv. 700 – er. avv. 621-yy.) – Bahor-Kuz davridagi Chin podshosi Mu-go'ngning dono vaziri, siyosiy arbobi, mutafakkir. U dastlab Yuy davlatida amaldorlik qilgan. Yuy davlatiga Jin davlati podshosi Syan-go'ng tomonidan barham berilgach, Bay-Li Si Jin saroyida xizmat qilishdan bosh tortadi, shu sabab asiri olinib qul sifatida Chin podshosi Mu-go'ng rafiqasining sepiga qo'shib yuboriladi. Buni sharmandalik deb bilgan Bay-Li Si qochishga muvaffaq bo'lib Chu davlatiga boradi, o'sha yerda cho'ponlik qilib yuradi. Chin podshosi Mu-go'ng uning xabarini eshitgach, odam yuborib Bay-Li Sini beshta qora qo'chqor terisiga almashirib oladi hamda uni oliy dafu (to'ra) etib tayinlaydi.



Meng-zı dedi: "Ta'lim-tarbiya berishning ham usullari juda ko'p: kimgadir nasihat qilishni ep ko'maganimning o'zi ham unga qilgan nasihatimdir".

(Kimgadir saboq berishni ep ko'maganimning o'zi ham unga bergan katta sabog'imdir, xolos.)

### O'N UCHINCHI BOB

"Astoydil..." Avvalgi qism

Meng-zı dedi: "Astoydil tafakkur qilgan o'z tabiatidan voqif bo'lgay. O'z tabiatidan voqif bo'lgan Falakning gardishini ham tushunib yetgay. Qalb pokligini saqlab, o'z tabiatini parvarishlash, bu Falak xizmatini ado etmoqlikdir. Bevaqt o'lim bo'ladimi yoxud uzoq umr nasib etajak, hech ikkilanmay o'zni kamolotga yetkazish bilan uni kutish, bu Falak hukmini qaror toptirishdir".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Taqdirga aloqasiz narsa yo'q (hammasi taqdirdan – I.Q.), ularning to'g'rilarini itoatkorlik bilan qabul qiling. Shu bois taqdirni tushungan odam baland omonat devor ostida turmas. Bir umr haq yo'lidan yurishning uddasidan chiqib va shu zayl olamdan o'tish, bu to'g'ri taqdirdir. Gunoh qilib oyoq-qo'llariga kishanlar urilib, shu taxlit o'lib ketish noto'g'ri tanlangan taqdirdir".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Nimaga intilsang, o'shangacha erishasan, nimani tashlab qo'ysang, o'shani boy berasan. Intilayotganlarim o'zimga bog'liq bo'lsa, bunday urinish erishmoqlik uchun foydalidir.

Intilishning o'ziga yarasha yo'li bor, erishish esa taqdirdan. Intilayotganlarim mening imkonimdan tashqari bo'lsa, bunday urinish erishmoqlik uchun foydasizdir".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Borliq mavjudotlarning xususiyatlari barchasi menda jam bo'lgan. Es-hushni yig'ib halol bo'lishdan ortiqroq quvonch yo'q. Insonparvarlikka jon-jahdi bilan muruvvat ko'rsatishlikdan ham yaqinroq yo'l yo'q".



\*\*\*

Meng-zi dedi: “Unga amal qilib, lekin nima uchun bunday qilayotganini bilmaydigan, unga odatlanib, lekin buning sababini tushunib yetmagan, butun umr undan yurib, lekin buning qanday yo'l ekanidan bexabar odamlar talaygina”.

\*\*\*

Meng-zi dedi: “Odam uyatsiz bo'lishi mumkin emas, uyatsizlikdan uyalgan uyatga qolmaydi”. (Odam behayo bo'lishi mumkin emas, hayosizlikdan or qilgan sharmanda bo'lmas.)

\*\*\*

Meng-zi dedi: “Odamlar uchun or-nomus g'oyat katta ahamiyatga ega. Makkor kimsalarga or-nomusning hojati yo'q. Boshqalardek bo'lolmaganidan or qilmagan kimsa tag'in qanday qilib boshqalardek bo'la olsin?”

\*\*\*

Meng-zi dedi: “Yangi Ven-vangning<sup>250</sup> paydo bo'lishini kutib, shundan keyingina jonlanadiganlar – oddiy odamlardir. Mard va daho kishilarga kelsak, ular Ven-vang bo'lmasa ham ruhlanib buyuk maqsadlarga intiladilar”.

\*\*\*

Meng-zi dedi: “Kimgadir Xan va Vey<sup>251</sup> xonodonlarining molu davlatini berishsa, agar o'ziga bularga noloyiqman deb qarasa, demak, u o'zgalardan ancha ilgarilab ketibdi”.

\*\*\*

<sup>250</sup> Jou sulolasi podshohi Ven-vang bu yerda donishmandlik timsoli sifatida olinmoqda.

<sup>251</sup> Xan, Vey – Xitoy tarixida Bahor-Kuz davridagi Jin podsholigining ikki vassal xonodonlari.





Meng-zı dedi: "Podshoh agarki farovonlik yo'lida xalqni mehnatga majbur qilsa, xalq holdan toygan taqdirda ham aslo nolimagay (ta'na qilmaydi – I.Q.); podshoh agar kimnidir o'ldirish evaziga xalq hayotini saqlab qolsa, o'sha kishi o'lsa ham o'ldirguvchidan hasrat qilmagay".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Odamlarning o'rghanmasdan nimadir qilishga qodirlari g'oyatda (tug'ma – I.Q.) qobiliyatlaridir, o'ylab ham o'tirmay fahmlay oladiganlari g'oyatda (tug'ma – I.Q.) zakovatlilaridir. (Ikkinchı talqin: "O'rghanmasdan nimagadir qodir bo'lgan odamlar tug'ma qobiliyat egalaridir; bosh ham qotirmasdan fahmlay oladiganlar tug'ma zakovat sohiblaridir".)

Go'daklarning ota-onalarini sevishni bilmaydiganlari bo'lmaydi, ulg'aygach kattalarni hurmat qilish kerakligini bilmaydiganlar ham bo'lmaydi. Ota-onaga mehribonlik rahmdillikdir (insonparvarlikdir), kattalarni hurmat qilish adolatdandir. Rahmdillik va adolat ikkisini butun osmonostiga yoyishdan yaxshiroq narsa yo'q!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Donishmand Shun xilvat tog'larda yashagan chog'lari dovdaraxtlar va qoyatoshlar orasida istiqomat qilardi, bug'u va to'ng'izlar bilan kezib yurardi, o'shanda uning xilvat tog'ning yovvoyi odamlaridan farqi jindekkina edi. Birgina yaxshi so'zni eshitib yoki birgina yaxshi ishni ko'rib qolgudek bo'lsa, (unda o'rGANISH ISHTIYOQI – I.Q.) xuddi to'g'ONNI o'pirib ketadigan azim daryolardek jo'sh uradiki, yo'liga hech kim to'g'onoq bo'lomaydi".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Qilish lozim bo'lмаган narsalarni qilmang; orzu qilish lozim bo'lмаган narsalarni orzu qilmang. Ana shunday bo'ling, tamom-vassalom!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Odamlarning xulq-atvor, zehn, mahorat va bilimga ega bo'lishlari mušibatlarning doimiy mavjudligidandir. (Ikkinchı talqin: "Odamlarning xulq-atvor,



zehn, mahorat va bilimga ega bo'lishlari musibatlarni doimo boshdan kechirganliklari tufaylidir".)

Yakkalatib qo'yilgan vazir va to'qoldan tug'ilgan bolalarining ko'ngillari doim xatardan alag'da bo'lganligi, baxtsizliklar haqida teranroq fikr yuritganlari bois zehni o'tkir bo'lishadi".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Podshoga mulozamat qilguvchi shunday kishilar borki, ular podshoga yoqishni o'zlarining xursandchiligi deb biladilar; yurt tinchligi uchun qayg'uradigan shunday amaldorlar borki, ular yurtda osoyishtalik qaror topishini xursandchilik deb biladilar; osmon ahli<sup>252</sup> borki, orzulari osmonostida ro'yobga chiqishini bilib, so'ngra ularni amalga oshirishga kirishadilar; buyuk odamlar borki, o'zlarini tuzatadilar, borliqdagi narsalar ham ulardan o'rnak olib tuzaladi".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Olijanoblar uchun uch katta xursandchilik bor, Osmonostiga hukmronlik qilish bunga kirmaydi. Ota-onasi hayot bo'lsalar, og'a-inilarining omonesonligi olijanoblarning birinchi xursandchiligidir. Yuqoriga yuzlanganda Falak qarshisida vijdoni qiyalmasa, quyida odamlarga qaraganda ular oldida uyatli bo'lmasa, bu olijanoblarning ikkinchi katta xursandchiligidir. Osmonostidagi ajoyib iste'dod sohiblarini shogirdlikka olib, ularga ta'llim-tarbiya berishlik uchinchi katta xursandchiligidir. Olijanoblar uchun uch katta xursandchilik bor, Osmonostiga hukmronlik qilish bunga kirmaydi".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Dala ishlari yaxshi tartibga solinsa, soliq-o'lpollar yengillatilsa, xalq farovon hayot kechirishi mumkin. Vaqt bilan tanovul etilsa, odob bilan ishlatilsa, bisotlari<sup>253</sup> ham ado bo'lmas.

<sup>252</sup> Osmon ahli – Meng-zi bu yerda "tyan-min" (tyan — osmon, min — xalq, odamlar) iborasini qo'llagan, u daho kishilarga ishora. "Qadimgi xitoy tilida eng ko'p qo'llaniladigan iyerogliflar lug'ati"da (Pekin, 2011) "tyan" so'zining tabiat, tangri, taqdir kabi ma'nolari ham keltirilgan. "Osmon ahli" iborasiga uning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqib turlicha izoh beriladi: "osmon qonuniyatlariga (yoki tartiblariga) muvofiq ish tutadigan odamlar", "tabiat qonunlariga muvofiq kishilar". Umumlashtirib aytish mumkinki, "tyan-min" bu "Falak amri (ya'ni bu yerda Xudoning irodasi, tabiat qonunlari ham Xudoning irodasi bilan bo'ladigan hodisalardandir)ga ko'nadigan odamlar" nazarda tutilgan.

<sup>253</sup> Bisot – mol-dunyo, davlat.





Xalq suvsiz, olovsiz yasholmaydi. Qosh qoraygan payt birovning eshigini qoqib, suv va olov (mash'ala – I.Q.) so'rasangiz, uyidan chiqarib bermaydigan kishi bo'lmaydi, bu mo'l-ko'lchilikdandir.

Donishmand odam Osmonostini (saltanatni – I.Q.) idora qilsa, xalqning g'allasi suv va olov kabi serob bo'lgay. G'allasi suv va olovdek serob bo'lgach, xalqda qanday qilib berahmlik bo'lsin?"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Ko'ng-zı (Konfutsiy) Do'ng-shan<sup>254</sup> tog'iga chiqsa, Lu podsholigi mittigina ko'rindi, Buyuk Tay-shan tog'iga chiqsa, Osmonosti kichrayib qolgandek tuyuladi. Shuning uchun dengizni ko'rib ko'zları pishgan odamga o'zga suvlar chikora, donishmandlar eshigida saboq olganga o'zga suhbatlar bema'no. Suvni kuzatishning o'z usuli bordir: albatta, uning dolg'alarini<sup>255</sup> kuzatmoq kerak. Quyosh va Oydan taralayotgan nur juda kichik tirqishlarni ham yorita olgay. Oqar suvning xususiyati shundayki, yo'lida uchragan o'nqir-cho'nqirlarni to'ldirmaguncha oldinga yurmaydi. Olijanoblarning xohish-irodalari to'g'ri yo'lga qaratilganki, maromiga yetmaguncha bilganlarini puxta demaydilar".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Xo'roz qichqirgandan uyg'onib g'ayrat-shijoat bilan yaxshilik qilishga kirishganlar donishmand Shun izdoshlaridir. Xo'roz qichqirishi bilan uyg'onib, jon kuydirib manfaat ketidan quvganlar qaroqchi Ji izdoshlaridir. Shun va Jilarni nima ajratib turganini bilishni istaysizmi? Boshqa narsa bo'lishi mumkin emas, xayrixohlik va manfaatparastlik orasidagi farq".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Och qolgan odam uchun bari yegulik shirin, chanqagan odam uchun bari ichimlik mazali tuyuladi. Ular taom va ichimlikning haqiqiy ta'mini tuymaydilar, chunki ochlik va tashnalik ularga zarar yetkazgan. Nahotki faqat og'iz va qorin ochlik va tashnalikdan zarar ko'rsa? Inson qalbiga ham ulardan zarar bordir. Agar bir kishi ochlik va tashnalikdek zararlardan o'z qalbini saqlay olsa, unda o'zgalardek bo'lolmaganidan qayg'urmaydi!"

<sup>254</sup> Do'ng-shan – Xitoyning Shando'ng provinsiyasidagi baland tog', ma'nosi "Sharqiy tog'" demak.

<sup>255</sup> Dolg'a – baland to'lqin.



\*\*\*

Meng-zı dedi: "Lyusya Huey hatto katta amaldor bo'lgan bilan maslagi o'zgarib qolmaydi". (Ya'ni: "Lyusya Hueyning maslagini mansab o'zgartirolmaydi"; "Lyu Sya Xuey amal tegishi bilan maslagi o'zgarib qoladiganlardan emas").)<sup>256</sup>

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Biror ishni amalga oshirish yo'lidagi urinishni quduq qazishga qiyos qilsa bo'ladi. Quduqni o'n sarjindan oshiq qazisalar ham, buloqqa yetolmasa, u baribir tashlandiq bir quduqdir".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Donishmandlar Yao va Shunlar tabiatan shunday edilar, oqil podshohlar Tang va Vular o'zlari shunga erishganlar, besh hokim<sup>257</sup> esa ro'kach qiladiganlardir. Bu hol uzoqqa cho'zilib, asliga qaytmasa, ularda avval-boshdanoq rahmdillik va adolatning bo'limganini qaydan bilamiz?"


\*\*\*

Go'ngsun Chou dedi: "I In shunday degan edi: "Men noqobil kishini papalab o'tirmayman". Shunday qilib Tay Jyani To'ngga<sup>258</sup> surgun qildi, bundan xalq behad

<sup>256</sup> Mansab tegishi bilan o'zgarib qoladigan kimsalarga dakki berib, Meng-zı ularga Lyu Sya Xueyning e'tiqodiga sodiqligi, halolligini o'mak qilib ko'rsatgan.

<sup>257</sup> Besh hokim – "Meng-zı" kitobida Bahor-Kuz davridagi besh podsho nazarda tutilgan, ular: Chi podshosi Xuan, Jin podshosi Ven, Chin podshosi Mu, So'ng podshosi Syang va Chu podshosi Juanglardir. Besh hokim – "u-ba", o'sha davrda nisbatan urf bo'lgan ta'rifdir. Saltanatda tarqoqlik hukm surgan bir davrda gegemonlik uchun kurash avj olgan edi, besh hokim, ya'ni podsholar o'rtasida O'rta tekislikda ustunlik uchun qirg'in-barot urushlar ketardi.

<sup>258</sup> Tay Jya – Xitoydagι Shang sulolasining to'rtinchi hukmdori, tug'ilgan va o'lgan yillari noma'lum. Taxtiga o'tirgan dastlabki yillarda hukumat ishlarini boshqarishda unga I In yordam bera boshlaydi. I In unga ota-bobolarining qonunchilik tizimiga amal qilishni o'rgatadi. I Inning sa'y-harakatlari bilan Tay Jya ikki yil mobaynida o'zini yaxshi tutadi, lekin uchinchi yildan boshlab o'zboshimchalik bilan amru farmonlar chiqara boshlaydi, kayfu safoga mukkasidan ketadi, xalqqa zug'um o'tkaza boshlaydi, saroy va hukumat ishlarida tartibsizliklar ro'y beradi, hatto bobokaloni Tang o'matgan qonun-qoidalarni buzadi. I In qancha nasihat qilmasin, gaplariga quloq solmaydi. Boshqa chorasi qolmagan I In uni es-hushini yig'ib olsin uchun podshoh Tang (sulolaning birinchi hukmdori) qabri yaqinidagi To'ng ibodatxonasiga surgun qiladi, o'zi esa vaqtincha davlatni boshqarib turadi. Tay Jya tavba qilgach, I In una yana qaytarib poytaxt Bo' (Bo)ga olib kelib hukumat ishlarini unga qaytaradi. Bu voqeа tarixda "I Inning Tay Jyani surgun qilishi" deb ataladi. Ana shundan so'ng xalq osoyishta hayot kechira boshlabdi.





quvondi. Tay Jya es-hushini yig'ib olgach, yana uni qaytarib olib keldi. Xalq yanada quvondi. Oqil kishi amaldor bo'lsa, demak, nobakorni surgun qilishi mumkin ekan-da?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Agar I Indaqa ra'yı bo'lsa, unda mumkin; agar I Indaqa ra'yı bo'lmasa, unda bu tajovuz qilishdir!"

\*\*\*

Go'ng Sun Chou ismli shogirdi Meng-zidan so'rabi debdi: "Nazmnoma"da shunday deyilgan: "Tekintomoq bo'l manglar!" Lekin olijanoblar yer haydamasalar ham baribir ovqatlanadilar-ku, nima uchun?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Olijanob inson bir mamlakatda yashasa, podsho uni xizmatga olsa, bu mamlakatda osoyishtalik, to'kin-sochinlik, hurmat-ehtirom va shon-sharaf hukm surgay. Yoshlari unga ergashsalar, ular orsida ota-onaga qobil farzand bo'lishlik, kattalarga hurmat, sadoqat va vafodorlik qaror topgay. "Tekintomoq bo'l manglar!" deyilgani rost. Biroq ko'rsatgan xizmatlari unikidan buyukroq yana kim bor?!"

\*\*\*

Chi podshosining o'g'li Dyan Meng-zidan so'rabi debdi: "Mirzolar<sup>259</sup> nima bilan shug'ullanadilar?"

"Ulug' maqsadlar bilan", – deb javob beribdi Meng-zı.

Shahzoda yana so'rabi debdi: "Ulug' maqsadlar nima degani?"

Meng-zı shunday javob beribdi: "Insonparvarlik va adolatdir (insonparvarlik va adolatga rioya qilmoq degani – I.Q.), shu xolos. Bir begunohni juvonmarg qilish berahmlikdir (shafqatsizlikdir – I.Q.), o'ziniki bo'l magan narsani olish nohaqlikdir.

Qarorgoh qayda? Insonparvarlikdadir! Yo'l qayda? Adolatdadir! Insonparvarlikni makon tutib, adolatdan yurilsa, buyuk odamlarning ishi taxtdir".

\*\*\*

Tao Ing ismli shogirdi ustozı Meng-zidan so'rabi debdi: "Shun Osmon o'g'li edi, Gao Yao esa qozikalon. Agar Shunning otasi Gu Sou odam o'ldirib qo'ygudek bo'lsa, uni nima qilgan bo'lardi?"

<sup>259</sup> Mirzolar – xitoy tilida "shi": 1) aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilar, ya'nı olimlar, ziyolilar: qadimgi Xitoya to'rt jamoalardan biri, ya'nı dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va ziyolilar; 2) mirzolar toifasi, ziyolilar: qadimgi Xitoya Chin sulolasidan avvalgi davrlardagi zodagonlarning eng quiyi tabaqasi, dafu-to'ralar tabaqasidan keyin turgan; shuningdek, mirzolik lavozimi; 3) umuman aholining ziyoli qatlami nazarda tutilgan.

Meng-zi javob beribdi: "Uni shu zahotiyoy qo'lga olgan bo'lardi, tamomvassalom!"

"Nahotki Shun bunga to'sqinlik qilmasdi?" – ajabsinib so'rabdi Tao Ing.

Meng-zi shunday javob beribdi: "Shun unga qanday to'sqinlik qila olardi? Axir Gao Yaoning dalili bo'lsa".

Tao Ing tag'in so'rabdi: "Unda Shun nima qilgan bo'lardi?"

Meng-zi javob berib debdi: "Shun uchun Osmonosti taxtidan voz kechish xuddi uvadasi chiqqan poxol choriqni tashlab yuborishdek bo'lib ko'rinaldi. U sezdirmaygina otasini orqalab qochardi, dengizning qaysi bir ovloq sohillariga boshpana qurib, bir umr shodon hayot kechirardi, masrurligidan hatto Osmonostini ham unutgan bo'lardi".

\*\*\*

Meng-zi Fen<sup>260</sup> shahridan Chi davlatiga borganida uzoqdan Chi podshosining o'g'liga ko'zi tushibdi, xo'rsinib debdi: "Yashash muhitni mijozni o'zgartirarkan, boquv qomatni o'zgartirarkan. Darhaqiqat, muhitning ta'siri naqadar buyuk-a! U ham boshqalarning o'g'liga o'xshagan emasmi?"

Meng-zi yana dedi: "Shahzodaning saroy-koshonasi, ot-aravalari, liboslari ko'pchiligi boshqalarnikiga o'xhash, lekin shahzodaning o'zlarini boshqacha, demak, yashash muhitni uni shunday qilgan. Unda Osmonostining keng ko'shklarida istiqomat qiladigan odam qanday bo'lardi?

Bir safar Lu podshosi So'ng davlati poytaxti Do'ngchengga borganida, shaharning janubiy darvozasi bo'l mish De-ze ostida baqirib gapiribdi. Shunda darvozabon debdi: "Bu odam bizning podshomiz bo'lmasa, nega ovozi podshomiznikiga bunchalik o'xshaydi?"

Buning boshqa sababi yo'q, yashash muhitlari bir-biriga o'xshaganligi uchun, xolos".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Faqat yedirib-ichirsayu, lekin sevib ardoqlamasa, bu cho'chqaga muomala qilish demakdir; faqat sevib avaylasayu, lekin hurmat qilmasa, ot-u it parvarish qilgan bilan barobardir.

Hurmat-ehtirom qimmatbaho sovg'alardan oldin bo'lishi kerak. Hurmat-ehtirom samimiy bo'lmasa, olijanoblarni bunday soxtaliklar bilan tutib turolmaysan".

<sup>260</sup> Fen – Chi podsholigiga qarashli shahar nomi.



\*\*\*

Meng-zı dedi: "Qaddu-qomat va qiyofa Samoviy xislatlardir<sup>261</sup> (Xudo ato etgan tabiiy xislatlardir – I.Q.); faqat donishmandlargina shundan so'ng botiniy go'zalliklarini<sup>262</sup> ro'yobga chiqara oldilar".

(Ikkinchı talqin: "Suvrat – samoviy xislatdir, so'ngra faqat donishmandlargina siyratini yuzaga chiqara olganlar!" – I.Q.)

\*\*\*

Chi davlati podshosi Syuan-vang aza tutish muddatini qisqartirmoqchi bo'libdi.

Buni eshitgan Go'ng Sun Chou debdi: "Ota-onasi qazo qilsalar, bir yil aza tutish hartugul tutmagandan yaxshidir?"

Meng-zı dedi: "Bu xuddi kimdir akasining qo'lini qayirayotganda, sen unga: "Hoy, sekinroq! Sekinroq qayiring!" deyishingga o'xshaydi. Harholda unga ota-onaga qobil farzand bo'lish, og'alarini (o'zidan kattalarni – I.Q.) hurmat qilishni o'rgatsang bo'lardi".

Bir shahzodaning onasi vafot etibdi. Ustozi uning nomidan podshoga murojaat etib, tag'in bir necha oy aza tutishga izn berishlarini iltimos qilibdi.<sup>263</sup>

Go'ng Sun Chou debdi: "Ustoz, siz bunga qanday qaraysiz?"

Ustoz shunday javob beribdi: "O'sha shahzoda motamni oxirigacha (uch yil – I.Q.) tutishni xohlaganda ham bunga muvaffaq bo'la olmasdi. Aza tutish hatto bir kunga uzaytirilsa ham, bu tutmagandan yaxshiroq. Men hech kim taqiqlamasa ham, lekin o'zlaribajara olmaydigan (aza tutishni xohlamaydigan – I.Q.) kishilar haqida gapirayapman".

\*\*\*

<sup>261</sup> Samoviy xislat – tabiiy, tug'ma mavjud bo'lgan xislat, xitoyliklarda "osmon" so'zi "Xudo" ma'nosini bildirishini inobatga olsak, "Xudo ato etgan tabiiy xislat".

<sup>262</sup> Bu borada turli fikrlar mavjud: bir o'rinda pinhona qobiliyat deyilgan bo'lsa, ba'zi sharhlarda ma'naviy fazilatlar deya talqin etilgan. "Qadimgi xitoy tili lug'atida" unga "odamning tashqi go'zalligi ichki go'zalligini mujassamlashtira olishi" deya ta'rif berilgan.

<sup>263</sup> Xitoya qadimda aza tutish muddati uch yil bo'lgan. Xitoyning "Marosim odoblari • Motam tutish haqida qaydlar" kitobida bayon qilinishiga ko'ra, onasi qazo qilsa, otasi hali hayot bo'lgani uchun shahzoda onasi uchun uch yil aza tutishi mumkin bo'ligan, ba'zi paytlar hatto umuman tutmagan. Onasini dafn qilishdan oldin kandir matodan tikilgan kiyim kiygan, lekin marosim tugashi bilan yechib tashlagan.



Go'ng-Du-zi degan kishi Meng-zidan so'rab debdi: "Teng-Geng<sup>264</sup> (ilm olish uchun – I.Q.) ostonangizga kelganlarida, hurmatga arzilik ish qilgandek edi, lekin siz uning savollariga javob bermadingiz, buning sababi nimada?"

Meng-zi shunday javob beribdi: "Obro'sini, biror narsaga qodirligini, yoshi kattaligini, ko'rsatgan xizmat va qahramonliklarini, eski qadrdonlikni pesh qilib savol berguvchilar men javob qaytarmaydigan kimsalardir. Teng Gengda ulardan ikkisi mavjud".<sup>265</sup>

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Kimki to'xtatmaslik kerak bo'lgan narsani to'xtatsa, undaylarni hech narsa to'xtatib qololmaydi (bunday kimsalar hech narsadan tap tortmaydi – I.Q.).

Kimki aslida siylash kerak bo'lgan odamga iltifotsizlik qilsa, binobarin bunday kimsalar iltifotsizlik qilolmaydigan hech bir kishi yo'qdir. (Siylash kerak bo'lgan insonga iltifotsizlik qilgan kimsa hech kimni nazar-pisand qilmaydi.)

Tez o'zgan shitob bilan chekinar".

O'N TO'RTINCHI BOB  
"Astoydil..." Keyingi qism

Meng-zi dedi: "Podsho Lyang Xuey-vang haqiqatan ham berahm ekan! Insoniy fazilatlarga ega odam o'zi sevgan kishisiga bo'lgan mehrini o'zi sevmagan kishisiga ham ulasha oladi. Berahm kimsaning o'zi yoqtirmagan kishilariga keltirgan baxtsizliklarining kasri o'zi yoqtirgan kishilariga ham tegadi".

Go'ng Sun Chou deganlari so'rabdi: "Nega bunday deyapsiz?"

(Meng-zi shunday javob beribdi:) "Lyang Xuey-vang yer deb xalqni xonavayron qilgan xunrezlik urushlarini olib bordi. Katta mag'lubiyatlarga uchrasa ham, tag'in urushga jazm qilib, g'alaba qozona olmasligidan qo'rqib, suyukli bolalarini urushga haydar ularni juvonmarg qildi. Shuning uchun ham: "Berahm kimsaning o'zi yoqtirmagan kishilariga keltirgan baxtsizliklarining kasri o'zi yoqtirgan kishilariga ham tegadi", dedim".

<sup>264</sup> Teng Geng – Teng davlati podshosining ukasi, Meng-zidan saboq olmoqchi bo'lgan.

<sup>265</sup> Bu yerda Meng-zi Teng Gengda yuqoridagilarning aynan qaysi birlari mavjudligini aytmag'an. Janubiy So'ng sulolesi (1127 – 1279) davri yangi konfutsiyalik falsafa maktabining yirik namoyandasasi Ju Si (1130—1200) o'zining "Sharhlar to'plami"da mazkur maqolatni izohlab, Meng-zi podsho ukasining obro'yini, o'zini ko'p narsaga qodirligini pesh qilib kelganligini nazarda tutganligini qayd etgan. Aslida Teng Gengning nimaga suyanib, kerilib kelganligi muhim emas, muhimni Meng-zi ana shunday biror narsasini pesh qilib huzuriga kelguvchilarning savollariga javob bermag'anligidir.



- Insoniy fazilatlarga ega odam o'zi sevgan kishisiga bo'lgan mehrini o'zi sevmagan kishisiga ham ulasha oladi. Berahm kimsaning o'zi yoqtirmagan kishilariga keltirgan baxtsizliklarining kasri o'zi yoqtirgan kishilariga ham tegadi.

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Chun-chiyu (Bahor va Kuz) davrida<sup>266</sup> adolatli urushlar bo'limgan. Podsholardan birining boshqalaridan yaxshi bo'lganligi bor gap. Yurish deganlari yuqorining (hukmdorning) quyiga (beklar, feodallar ustiga) qilgan jazo yurishidir. Kuchlar nisbati teng bo'lgan bekliklar o'rtaida o'zaro jazo yurishi bo'limgay".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Kitob"ning<sup>267</sup> yo'qligi undagilarga butunlay (ko'r-ko'rona) ishonishdan yaxshiroq. Men "Podsho U muvaffaqiyatlari"<sup>268</sup> bobining ikki-uch sahifasini olganman, xolos. Rahmdil kishining Osmonostida dushmani bo'lmas. Nima uchun Vu-vangdek rahmdil podsho Shang Joudek eng berahm podsho ustiga jazo yurishi qilganida, qirg'in-barot bo'lib, qonlar daryodek oqib, ustida to'qmoqlar suzib yurdi?"

- 
- Kitobdagilarga butunlay ko'r-ko'rona ishonishdan o'sha kitobning yo'qligi afzal.
  - Rahmdil kishining Osmonostida dushmani bo'lmas.

<sup>266</sup> Xitoydagagi tarixiy bir davr, er. avv. 770 – er. avv. 476-yillarni o'z ichiga oladi.

<sup>267</sup> "Kitob" ("Shu") – bu yerda "Nasrnoma" nazarda tutilgan, "Buyuk kitob" ("Shan-shu") deb ham ataladi. "Nasrnoma" Xitoyning uzoq qadimgi zamon tarixiga oid hujjatlar majmuasidir, Sya, Shang, Jou sulolalarining siyosiy, harbiy, g'oyaviy, madaniy faoliyatlariga tegishli eng oliy hukmdor nutqi qaydnomalari, murojaatnomalar, shuningdek, kam miqdordagi og'izdan-og'izga ko'chib yurgan xabarlardan tashkil topgan hujjatdir. Rivoyatlarga qaraganda, Konfutsiy tomonidan tartib berilgan bo'lib, konfutsiychilik ta'lilotining mumtoz asarlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlardan aniq bo'lishicha, Meng-zi davrida "Nasrnoma" yo'qolib ketgan. Keyinchalik mazkur asar "Yangi til "Buyuk kitobi" ("Gu-ven shang-shu") va "Ko'hna til "Buyuk kitobi" ("Jin-ven shang-shu") deya farqlangan. "Yangi til "Buyuk kitobi" G'arbiy Xan (er. avv. 206-yildan eramizning 8-yilgacha) sulolasining daslabki yillarda Chin otiliq kishi tomonidan og'zaki aytib turilgan hamda o'sha davrda keng amalda bo'lgan yozuv – "lishu" xatida yozilganligi uchun ham shunday nom olgan. "Ko'hna til "Buyuk kitobi"ni, aytishlariga qaraganda, Xan imperatori Vu-di hukmronligining so'nggi yillarda Lu Go'ng Vang degan kishi Konfutsiy yashagan hovli devoridan topib olgan. O'n olti qisrnidan iborat bo'lgan "Ko'hna til "Buyuk kitobi" Chin-Xan davridan oldingi "ko'hna til"da yozilgani uchun ham shunday nom olgan. Ming afsuski, keyinchalik u yana yo'qolib ketgan. Hozirda mavjud bo'lgan "Nasrnoma" Sharqiy Jin sulolasi (317 – 420) davrida oldingilariga o'xshatib yozilgan kitobdir.

<sup>268</sup> "Nasrnoma"dagi bo'lim nomi, unda Jou sulolasi hukmdori U-vangning harbiy yurishlari bayon etilgan.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Odamlarning aytishlaricha: "Men qo'shinni safga tizishda mohir emishman; yaxshi jang qilar ekanman". Bu katta gunohdir.

Podsho insonparvarlikni yaxshi ko'rsa, Osmonostida raqibi bo'lmagay.

Podsho Shang Tang janubga yurish qilgudek bo'lsa, shimoldagi di<sup>269</sup> xalqi nolidi; sharqqa yurish qilsa, g'arbdagi i<sup>270</sup> xalqi zorlanib deyishdiki: "Nega endi bizni eng oxiri bo'lib xalos etishadi?"

Jou podshosi Vu-vang In davlatiga yurish qilganida ixtiyorida uch yuz jang aravalari, uch ming nafar sheryurak jangchilari bor edi. Vu-vang aytidiki: "Qo'rwmangiz! Biz xalqqa dushmanlik qilgani emas, tinchlik istab keldik!"

In xalqi go'yo tog' qulagandek tiz cho'kib yerga bosh urdilar.

(Podsho Vu-vangning Inga qarshi) yurishi "tuzatmoq" demakdir. Agar har kim o'zini tuzatsa, urushlarga hojat qolarmidi?"

- Podsho insonparvarlikni yaxshi ko'rsa, Osmonostida raqibi bo'lmagay.

- Har kim o'zini tuzatsa, urushlarga chek qo'yilar edi.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Duradgor va aravasoz usta odamlarga pargar hamda go'niyadan qanday foydalanishni o'rgatishi mumkin, lekin ularni mahoratli qila olmaydi".<sup>271</sup>

- Mohir duradgor yoki aravasoz boshqalarga o'z hunari sirlarini o'rgatishi mumkin, lekin ularni mahoratli qilolmaydi.

\*\*\*

<sup>269</sup> "Di" – Qadimda Xitoyning shimalida yashagan millat.

<sup>270</sup> "I" – qadimda O'rta Tekislik tevaragida yashagan müllatlar.

<sup>271</sup> "Bilim, hunarni o'rgatish-o'rganish mumkin, lekin mahorat tinimsiz mashqlar natijasida hosil bo'ladi".





Meng-zı dedi: "Oqsoqol Shun<sup>272</sup> qotgan yeguliklarni mujib, yovvoyi ko'katlar yeb yurgan paytlari go'yo umrbod shunday yashashga niyat qilgandek edi. Osmon o'g'li (podsho) bo'lgach, egniga nafis liboslar kiyib, chin<sup>273</sup> chalib o'tirar, ikki go'zal yelib-yugurib xizmatini qilarkan, tag'in go'yo azaldan bularga ega bo'lgandek edi".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Bundan keyin men odamlarning tug'ishganlarini o'ldirishning qanchalik mudhish ekanligini bilaman. Kimdir birovning otasini o'ldirsa, haligi kishi uning otasini ham o'ldiradi; kimdir birortasining og'asini o'ldirsa, haligi kishi uning og'asini ham o'ldiradi. Agar shunday bo'lsa, o'z otasi va og'asini o'z qo'llari bilan o'ldirgandan hech qancha farqi yo'q".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Qadimda zulmdan saqlash uchun chegara soqchilik joylari qurilgan bo'lsa, endilikda aksincha, zulmga yo'l ochish uchun chegara soqchilik joylari barpo qilinmoqda".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Kimki o'zi to'g'ri yo'ldan yurmas ekan, xotini va bolalarini to'g'ri yo'lga boshlolmaydi. Odamlarni to'g'ri yo'lga buyura olmas ekan, hatto xotini va bolalariga ham so'zi o'tmaydi".

\*\*\*

Meng-zı dedi: "O'zini foyda bilan qurshab olgan odamga ocharchilik yillari ziyon yetkiza olmas. O'zini axloqiy fazilatlar bilan ihota qilib olgan odamni buzuq zamonlar ham yo'ldan ordiza olmas".

\*\*\*

---

<sup>272</sup> Shun – Xitoy rivoyalaridagi qadimgi dono podshoning nomi. Rivoyatlarga qaraganda, Xunan provinsiyasi Ningyuan nohiyasi janubidagi Jiyu-i-shan tog'iga dafn etilgan.

<sup>273</sup> Chin – torli cholg'u asbobi, qonunga o'xshash.



Meng-zi dedi: "O'zidan yaxshi nom qolishini istagan odam ming chog'li jang aravalariга ega bekligidan voz kecha oladi. Aksincha bo'lsa, hatto bir kajava yegulik va bir kosa bo'tqani ham minnat qilib bergani rang-ro'yidan ko'rinish turadi".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Insoniylik va axloqiylikka nisbatan ishonch yo'qolgan yurt huvillab qolgay. Adabsizlik va nohaqlik hukm surgan jamiyat ostin-ustun bo'lib ketgay. Hukumat ishlari qarovsiz qolgan davlatda moddiy taqchillik bo'lgay".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Adolatsizligi, berahmili bilan bir davlatga ega bo'lganlar bor; lekin adolatsizligi, berahmili bilan Osmonostiga ega bo'lganlar yo'q".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Xalq eng muhimmi, yer va g'alla ilohlari" (davlat – I.Q.) undan keyin turadi, toshi eng yengili podshodir. Shuning uchun xalq rag'batiga sazovor bo'lgan kishi Osmon O'g'li (podshoh) bo'ladi; Osmon O'g'lining iltifotiga yetishgan kishi bek bo'ladi; beklarning ishonchini qozongan kishi to'ra bo'ladi.


Beklar yer va g'alla ilohlariga ziyon yetkazsa, ularni almashtirish kerak. Ranglari tiniq semiz mol atalib, pokiza buyumlarda qurbanlik marosimlari o'z vaqtida o'tkazilib turilsayu, shundan keyin ham qurg'oqchilik yo toshqinlar bo'laversa, unda yer va g'alla ilohlarni o'zgartirish vaqt kelibdi".

- Xalq eng muhimmi, davlat ramzi bo'lmish yer va g'alla ilohlari undan keyin turadi, toshi eng yengili podshodir.

- Xalq rag'batiga sazovor bo'lgan kishi podshoh bo'ladi.

\*\*\*

<sup>274</sup> Yer va g'alla ilohlari davlatni anglatadi, maqolatda shunga ishora.





Meng-zı dedi: "Donishmandlar avlodlarning ustozlaridir! Bay I va Lyu Sya Xueylar aynan shunday insonlar edi. Shuning uchun Bay Ining odatlari (fe'l-atvori – I.Q.) haqida eshitsalar, xasislar saxovatli, jur'atsizlar qat'iyatli bo'lib qoladilar; Lyusya Hueyning odatlari haqida eshitsalar, iltifotsiz-qo'rs odamlar nazokatli, pastkash kimsalar bag'rikeng bo'lib qoladilar. Ular yuzlab avlodlarning avvalida turib ularni ruhlantirdilar, yuzlab avlodlardan keyin ham ular haqida eshitganlar orasida to'lqinlanmagan, ruhlanmagan kishi yo'q. Donishmand bo'limganlarida shunday qila olarmidi? Ayniqsa, ular donishmandlarning bilim qo'rida o'zları obdon pishgan odamlar bo'lsalar-chi?"

---

Donishmandlar avlodlarning ustozlaridir!

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Insonparvarlik" ("jen") ayni "inson" demakdir. Ikkisini birga qo'shib aytganda haqiqatga eltuvchi yo'l ("dao") hosil bo'ladi.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Ko'ng-zi (Konfutsiy) ona-yurti Luni tark etayotganida shunday degan ekan: "Sekin-sekin yuraylik!"<sup>275</sup> Bu ona-yurtini tark etish tarzidir.

O'zga yurt Chini tark etayotganlarida guruchni suvdan suzib olgan zahoti yo'lga chiqdilar. Bu o'zga yurtni tark etish tarzidir.

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Olijanob Ko'ng-zi (Konfutsiy) Chen va Say<sup>276</sup> davlatlari oralig'ida mushkul ahvolda qolishlariga sabab u yerlarning yuqori va quyidagilari (podsho va amaldorlari – I.Q.) bilan do'stona aloqalarining yo'qligidir".

\*\*\*

Mo' Ji deganlari Meng-ziga nolib debdi: "Odamlar men haqimda juda ko'p bo'limg'ur gaplar tarqatishyapti".

<sup>275</sup> Yana bir o'rinnlarda uni "Koshki safarim kechiksa edi!" holida tarjima qilishadi.

<sup>276</sup> Jou sulolasi zamonidagi davlat.

Meng-zi debdi: "Xafa bo'lmang! Mirzolar har doim odamlarning asossiz tanqidlariga uchraganlar. "Nazmnama"da shunday deyilgan:

"Ozurda ko'ngli, ma'yusu mahzun,  
Ranjigan gala nobakorlardan".<sup>277</sup>  
Bu Ko'ng-zi (Konfutsiy)dir.  
"Nazmnama"da yana aytiganki:  
"Barham bermay o'zgalarning xusumatiga,  
Ziyon-zahmat yetkazmas ham o'z shuhratiga".  
Bu podshoh Ven-vangdir".

\*\*\*

Meng-zi dedi: "Donishmandlar avval o'zlari aniq tushunib olib, so'ngra o'zgalarga nasihat qilganlar. Hozirgilar o'zlari tushunmay turib o'zgalarga aql o'rgatadilar".

\*\*\*

Meng-zi shogirdi Gao-ziga shunday debdi: "Tog' so'qmog'ida oyoq izlari quralashib yotibdi, bu yo'l to'xtovsiz yurilaverganidan hosil bo'lgan; agar bir muddat yurilmasa, burganlar<sup>278</sup> o'sib uni to'sib qo'ygan bo'lardi. Bugun burganlar o'sib sening qalbingni to'sib qo'yibdi".

\*\*\*

Gao-zi dedi: "Yuy<sup>279</sup> musiqalari Ven-vang musiqalaridan afzal ekan".

(Boshqa talqinlar: 1) "Buyuk Yuuning musiqaga bo'lgan ixlosi podshoh Ven-vangnikidan ustun bo'lib chiqdi". 2) "Yuy zamonidagi sozlarning sadosi Ven-vang davridagi cholg'ular sadosidan ancha yoqimliroq ekan. – I.Q.)

Meng-zi so'radi: "Bunday deyishingizning boisi ne?"

Gao-zi javob beribdi: "Chunki Yuydan qolgan qo'ng'iroqning tutqichi (chirib) uzilib tushay deb qolibdi".

Meng-zi shunday debdi: "Nahot bu xulosa chiqarishga yetarlicha asos bo'la olsa?

<sup>277</sup> Pastkash, xudbin kimsalar.

<sup>278</sup> Burgan – yovvoyi o't, supurgi o't; yovshan.

<sup>279</sup> Yuy – Xitoydagi Sya sulolasining afsonaviy birinchi podshohi. Aytishlaricha, daryolarni jilovlab, Sariq daryo o'zanini tozalagan, keyinchalik odamlar tomonidan "Buyuk Yuy" deya ulug'langan; sya qabilasining sardori bo'lgan.

Shahar darvozasi ostidagi chuqur arava izlari bir juftgina otning kuchi bilan hosil bo'lib qolganmikan?"

\*\*\*

Chi podsholigida ocharchilik boshlanibdi.

Chen Jen<sup>280</sup> dedi: "Mamlakat xalqi sizni, ustoz, Chi podshosini Tang qal'asi omborlarini ochib ofatdan aziyat chekkanlarga yordam qilishga ko'ndirsalar kerak, deb o'ylagandilar. Ortiq bunday bo'lmaydimi deb qo'rqaman".

Meng-zì unga shunday javob beribdi: "Bunday qilsam Feng Fu deganlariga aylanib qolaman. Jin podsholigida yo'lbars bilan olishishda ustasi farang bir Feng Fu ismli kishi bo'lgan ekan, keyinchalik yaxshi mirzo bo'lgan. Bir safar dalada yo'lbarsni quvib ketayotgan olomonga duch kelibdi. Yo'lbars tor daraga biqinib olibdi, yaqiniga borishga esa hech kimning yuragi dov bermasdi. Shu mahal odamlar uzoqdan Feng Funing kelayotganini ko'rib qolib, yugurib unga peshvoz chiqibdilar. Feng Fu ham yenglarini shimarib aravadan tushib kela boshlabdi. Olomon bundan g'oyat suyunibdi, mirzolar esa uning ustidan kulishibdi".<sup>281</sup>

\*\*\*

Meng-zì dedi: "Hokim-beklar uchun bebahoh narsalar uchtadir: yer, xalq va hokimiyat. Marvarid va yashmani<sup>282</sup> haqiqiy xazina deb bilgan o'zini baloga giriftor qilibdi".

\*\*\*

<sup>280</sup> Chen Jen – Meng-zining shogirdlaridan biri.

<sup>281</sup> Ushbu parcha turli munozaralarga sabab bo'lgan. Nega u ziyoililarga mayna bo'ldi? Chunki Feng Fu yana eski qiliqlari, odatlarini boshlagan edi. Buni tilimizga "yana eski toz, eski hammom" deya tarjima qilsak, ancha tushunarliroq bo'lardi. Hozirgi kunda xitoyliklarda "yana Feng Fu bo'libdi" degan ibora ishlataladi, bu vaziyatiga qarab maqsad va qarashlaridan osonlikcha voz kechadiganlarni kinoya qilishda ishlataladi. Parchadan ko'rinish turibdiki, Meng-zì Feng Funing harakatlarini butunlay inkor etayotgani yo'q. Bu to'g'risida neokonfutsiychi Ju Sida shunday sharh bor. Uning fikricha, Meng-zì o'sha so'zlarni ayigan paytida Chi podshosi allaqachon uni xizmatda olib qolishni xohlasmay, gaplarini eshitishni ham istamay qolgan, Meng-zining o'ziga ham bu vaziyat yaxshi ma'lum edi. Chidan ketish taraddudida bo'lganligi uchun ham shunday degan. Ko'rinish turibdiki, Meng-zì ushbu so'zlarni aytayotganida ziddiyatli kayfiyatda bo'lgan. Feng Fuga o'xshab yana yo'lbarslar bilan olishay desa, tag'in eski qiliqlarini boshlagan bo'lib qoladi; bormay desa, odamlar jiddiy xavf ostida uning yordamiga muhtoj; yo'lbars bilan olishdi ham deylik, maqsad va qarashlaridan voz kechib, odamlarga kulgu bo'lgani qoladi. Meng-zì ham xuddi shunday, podshoni ko'ndirishga yana urinib ko'rmasa, xalq yordamga muhtoj. Podshoni ko'ndirishga yana urinib ko'rdi ham deylik, unga qulq solmasligi kundek ravshan-ku! Keumoqchi edi, tag'in saroyga borib podshoga va'z o'qisa, bu Chidan chiqib ketish niyalidan qaytdi degani emasmi? Boz ustiga podsho yonidagi laganbardorlarning uni masxara qilishlariga bahona topiladi. xolos.

<sup>282</sup> Yashma – rangdor tosh.



Pen Cheng Kuo deganlari Chi davlatida amaldor bo'lgach, Meng-zि u haqda shunday degan ekan: "Pen Cheng Kuoning kuni bitibdi!"

Oradan ko'p o'tmay, haqiqatan ham Pen Cheng Kuoni o'ldirib ketishibdi.

Shogirdlari Meng-zidan so'rabdi: "Ustoz, uning kuni bitganini qanday bilingiz?"

Meng-zি shunday javob qilibdi: "U qobiliyati chog'roq odam edi, oljanoblikning katta hikmatini tushunmasdi, bu esa o'z umriga zomin bo'lishi uchun yetarlidir".

\*\*\*

Meng-zি Teng podsholigiga yetib kelib, Shang-go'ng – Yuqori saroyda qo'noq bo'lganida bir voqeа sodir bo'libdi. Shu binoning deraza tokchalaridan birida turgan chala to'qilgan bir juft poxol choriqning to'satdan ko'rinnmay qolganini payqab qolgan saroy ahllari uni qidira ketibdilar, lekin hech qayerdan topisholmabdi. Shunda bir kishi Meng-zidan so'rab debdi: "Hoynahoy, sizga ergashib kelganlardan birontasi berkitib qo'ygandir?" Meng-zи: "Seningcha, ular poxol choriq o'marish uchun kelishganmi?" deb javob beribdi. Haligi kishi shunday javob qilibdi: "Ehtimol, unday emasdir. Ustoz, siz ularga saboq berasiz, ketganlarni ta'qib qilmaysiz, kelganlarning ra'yini qaytarmaysiz. Agarda faqat chin yurakdan ilm olish niyatida kelsalar, siz barchasini qabul qilaverasiz, xolos".

\*\*\*

Meng-zи dedi: "Donishmand Yao va Shunlar neki qilgan bo'lsa, bu ularning tabiatidandir; (Shang sulolasi podshohi – I.Q.) Tang va (Jou sulolasi podshohi – I.Q.) Vu(-vang – I.Q.) o'zlarini tarbiyat qilish orqali asliga qaytganlar.

Harakatlari, siyomsi, atrofdagilar bilan bo'lgan muomalasi odobga muvofiq bo'lsa, bu eng yuksak axloq tajassumidir.

O'lganlar uchun aza tutib yig'lash tiriklar ko'rsin uchun emas.

Axloqqa rioya etishdan qaytmaslik serdaromad mansabga erishish uchun emas.

So'z chin bo'lmos'i shart, lekin bu harakatlami to'g'ri qilib ko'rsatish uchun emas.

Olijanoblar mezonga<sup>283</sup> muvofiq harakat qiladilar, shu bois taqdir amriga muntazirdirlar, xolos".

\*\*\*

<sup>283</sup> Harakat mezoni. Rus tarjimon V. S. Kolokolov uni "tabiat qonuniyatlari" deb tarjima qilgan ("Men-szi", Sankt-Peterburg, 1999-yil; 209-bet).





Meng-zı dedi: "Ko'ngil tarbiyasida istaklarni kamaytirishdan yaxshi chora yo'q. Agar kishining istaklari qanchalik kam bo'lsa, garchi xislatlariga<sup>284</sup> zahmat yetsa-da, yo'qotishlar ham shunchalik oz bo'ladi. Agar kishining istaklari qanchalik ko'p bo'lsa, garchi xislatlarini saqlab qolsa-da, asrab qolganlari ham shunchalik kam bo'ladi!"

\*\*\*

Meng-zı dedi: "Oqsoqol Yao va Shunlardan podshoh Tanggacha besh yuz yildan ortiq vaqt o'tgan, oqsoqollar Yuy, Gao Yao kabilalar ularni (Yao va Shunlarni) o'z ko'zlar bilan ko'rishgan va bilishgan, podsho Tang esa ular haqida boshqalardan eshitib bilgan.

Podshoh Tangdan podshoh Ven-vanggacha besh yuz yildan ko'proq vaqt o'tdi, I In va Lay Ju<sup>285</sup> kabilalar uni (Tangni) o'z ko'zlar bilan ko'rghan kishilar sifatida bilishgan, podshoh Ven-vang bo'lsa u haqda boshqalardan eshitib bilgan, xolos.

Podshoh Ven-vangdan Ko'ng-zı (Konfutsiy)gacha tarix yana besh yuz yildan ko'p vaqt o'tdi, Tay Go'ng Vang va San I Sheng<sup>286</sup> kabilalar uni (Ven-vangni) o'z ko'zlar bilan ko'rghan kishi sifatida biladilar, Ko'ng-zı (Konfutsiy) bo'lsa Ven-vang haqida birovlardan eshitib bilgan.

Ko'ng-zı (Konfutsiy)dan bugungacha atigi yuz yildan sal oshiqroq vaqt o'tdi, donishmand yashagan davr unchalik uzoq emas, donishmand yashagan joy naqadar yaqin! Lekin agarda donishmand ta'limotiga vorislik qiladigan bo'lmasa, demak, davomchi ham bo'lmagay".

- 
- Donishmand ta'limotiga vorislik qiladigan bo'lmasa, demak, davomchi ham bo'lmagay.

---

<sup>284</sup> Xislat – tabiat, mohiyat. Bu hikmaida Meng-zining "inson tabiatida e兹gilik bilan tug'iladi" degan qarashlari aks etgan, inson agar haddan ortiq narsalarni istasa, nafsiga erk bersa, unda o'z xislatlarini (tabiiy xususiyatlarini, ya'ni qalb pokligi yoki ko'ngil tozaligini) boy berib qo'yadi, shuning uchun donishmand demoqchiki, nafsni tiying, insoniyligingizni saqlaysiz!

<sup>285</sup> Lay Ju – podsho Tang davridagi dono vazir, ismi Jo'ng Xuey.

<sup>286</sup> San I Sheng – Jou sulolasi hukmdori Ven-vang davridagi dono vazir.

# Xitoy DONISHMANDLARI

Dizayner  
Sanjar Doniyorov

Sahifalovchilar:  
Danila Ivanov, Rustam Xalikov

Texnik muharrir  
Marina Buxarbayeva

Musahhihlar:  
Akmal Lutfullayev, Nargiza Giyasova

«Nashriyot uyi Tasvir»

Toshkent – 2024

Bosishga 2024-yil 6-iyunda ruxsat etildi. Bichimi 60x901/8.

Kegli 11, Tinos regular garniturada  
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 51,0.  
Adadi: 11 000 nusxa. Buyurtma raqami: 1961.

“Kolorpak” MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahar, Yangishahar ko‘chasi, 1A-uy.

KBK 87+71(5Хит)  
UO'K 1:008(09)(510)  
Q 61

Qosimov, I. Xitoy donishmandlari [Matn] / I. Qosimov. -  
Toshkent: Nashriyot uyi Tasvir, 2024. 408-b.

ISBN 978-9943-6089-3-1